Натижалар. Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат академик мусиқали театри юртимиздаги катта театрлардан биридир. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мамлакатимиздаги энг қадимий театрлардан бири бўлган Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат мусиқали театри юртимизда ҳам, чет элларда ҳам маълум ва машҳурдир”[4; 209] деб айтганидек, театр нафақат Ўзбекистонда, балки чет элларда ҳам танилган. Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат академик мусиқали театри 1926 йили 8 ноябрь куни Тўрткўл шаҳрида “Тонг нури” труппа жамоаси асосида Қосим Авезовнинг “Тилак йўлида” 4 пардали драмаси билан ўзининг фаолиятини бошлаган. Мустақиллик шарофати билан театр 1991 йили Қорақалпоқ давлат мусиқали драма театри мақомини олди ва унга қорақалпоқ мумтоз шоири Бердақ номи берилди. Театрда бугунги кунгача 326 га яқин миллий ва жаҳон драматургия намуналари саҳналаштирилган.

Истиқдолнинг дастлабки йилларида юртимизда кечаётган иқтисодий қийинчиликлар сабабли театр жамоаси мураккаб иқтисодий жараёнларни бошидан кечирди. Лекин шунга қарамасдан театр жамоаси спектаклларни саҳналаштириб борди.

Бу даврда театр жамоасида Ш. Утемуродов, М. Халмуратова, Ж. Бабанов, Қ. Заримбетов, А. Абдалиев, Б. Қайипов, З. Сапова, Т. Қайипназарова, Е. Саекеев, Х. Айимбетов, С. Айимбетова, М. Исмаилова, Б. Узақбергенов, М. Сапаева, У. Қосимбетов, Қ. Данияров, Қ. Қаландаров, У. Юсупова, А. Пиязова, Б. Назаримбетов каби актёр ва актрисалар, режессёрлардан эса Н. Ансатбаев, Қ. Абдиреймов, Б. Баймурзаев, Ж. Султанбаев, Б. Утебаевлар фаолият юритишган.

Мазкур йиллари театр репертуаридан М. Низановнинг “Икки дунё овораси”, П. Қаиповнинг “Тири етимлар”, К. Жетписбаевнинг “Бу қандай той”, Ж. Хожановнинг “Қўшнининг қизи”, И. Садиқовнинг “Хожи аканинг хотинлари”, К. Раҳмановнинг “Қайсарнинг муҳаббати”, Б. Журтовнинг “Қайнонамнинг хийласи” каби саҳна асарлари ўрин олди. Кейинчалик театр ижодий жамоаси М. Шамхановнинг “Қайнона”, К. Матмуратовнинг “Кечиккан муҳаббат”, С. Балғабоевнинг “Энг чиройли келинчак”, К. Раҳмановнинг “Ёр дийдори”, А. Отениязованинг “Қиз ор-номуси”, С. Жумағуловнинг “Муҳаббат кудрати”, П. Тилегеновнинг “Виждон” каби саҳна асарларини саҳналаштиришди.

1996 йили театр ижодий жамоаси учун сермахсул йил бўлди. Мазкур йил театр ҳаётида катта воқеа бўлган “Ойжамол” номли биринчи қорақалпоқ миллий балети Т. Хожасов томонидан саҳналаштирилди[9;51]. Шунингдек Н. Ансатбаев шоир А. Ориповнинг “Соҳибқирон” драмасини саҳналаштирди. Бу спектакль Буюк соҳибқирон Амир Темур таваллудининг 660 йиллигига бағишланиб, Тошкент шаҳрида ўтказилган театрлараро кўрик танловида қатнашди. Б. Узақбергенов Амир Темур ролини ижро этган энг яхши актёр деб тан олинди ва унга “Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган артист” унвони берилди[8]. 1997 йили эса, Тошкент шаҳрида Марказий Осиё театрлари ўртасида ўтказилган “Наврўз-97” фестивалида театр жамоаси ўзининг “Соҳибқирон” спектакли билан қатнашиб, унда Амир Темур ролини ижро этган Б. Узақбергенов “Энг яхши эркак роли” ижрочиси номинацияси ғолиби бўлди.

Мустақиллик йилларида театр жамоаси салмоқли ютуқларни қўлга киритди, кўплаган халқаро ва республика кўрик танловларига қатнашди. Жумладан, театр жамоаси 1999 йил Тошкент шаҳрида ўтказилган анъанавий “Наврўз-99” театрлар фестивалига Б. Баймурзаевнинг “Баддуо” спектакли билан қатнашиб, “Энг яхши аёл образи” номинациясини қўлга киритди.

Шунингдек, 2009 йили Ўзбекистонда йил якуни бўйича ўтказилган театрлараро танловда “Йилнинг энг фаол театри” номинациясини олишга эришди. 2013 йили «Сени куйлаймиз, замондош!» Республика кўрик-танловида Қ. Норқобилнинг “Нур сояда қолмайди” спектакли билан иштирок этиб, III ўринга сазовор бўлди ва унда Шабнам ролини ўйнаган С. Аннақулова “Энг яхши аёл роли” ижрочиси номинацияси ғолиби бўлди. 2017 йили театр жамоаси республика театрлари орасида ўтказилган “Сени куйлаймиз, Замондош” кўрик танловига К. Раҳманов, Қ. Заретдиновларнинг “Муҳаббат шамоли” мусиқали драмаси билан қатнашиб, III ўринни, 2018 йили Тошкент шаҳрида ўтказилган “Дебют-2018” V-Республика кўрик-фестивалига М. Реймов томонидан саҳналаштирилган “Лувр ўрдаги” спектакли билан қатнашиб биринчи ўринни,

2019 йили Нукус шаҳрида бўлиб ўтган «Сени куйлаймиз, замондош!» V-Республика театрлар кўрик –танловида Ўзбекистон Республикаси Қоҳрамони Олланиёз Утениязов ҳаётига бағишланган “Саховат боғи” (муаллиф К. Каримов, режисёр М. Усенов) спектакли билан қатнашиб биринчи ўринни олишга муяссар бўлишди.

Мустақиллик йиллари театр жамоаси республика ҳамда чет эллардаги ижодий сафарлари ҳам муваффақиятли ўтиб келмоқда. Чунончи, 1993, 2000 йиллари Тошкент шаҳрида, 2001 йили Хоразм вилоятида ўтказилган Қорақалпоғистон Республикаси маданият кунларида фаол қатнашдилар, шунингдек, 2016 йили май ойида театри жамоаси Тошкент шаҳрига ижодий сафарда бўлиб, Алишер Навоий номидаги давлат академик катта театрида Қ. Заретдиновнинг “Тўмарис” ва Н. Муҳаммединовнинг “Ажиниёз” операларини, ҳамда театр симфоник оркестрининг “Ассалом Тошкент оқшоми” номли концерт кечасини театр мухлисларига инъом этишди. Мазкур йилнинг ноябрь ойида эса театр ижодкорлари Ўзбек Миллий академик драма театри саҳнасида И. Султоннинг “Иймон” спектаклини саҳналаштиришди. Шунингдек театр жамоаси 2017 йил ноябрь ойида Бухоро вилоятида, 2018 йили апрель ойида Навоий вилоятида Н. Аббосхоннинг “Танҳо юлдуз” спектакли билан, мазкур йилнинг декабрь ойида “Ўжарлар” спектакли билан Ўзбек Миллий академик драма театрида, 2019 йили апрель ойида Тошкент шаҳрида Чингиз Айтматовнинг “Жамила” асари асосида саҳналаштирилган спектакли билан, 2024 йили Чингиз Айтматов асар асосида М. Реймов томонидан саҳналаштирилган “Лувр ўрдаги” спектакли билан Қирғизистон Республикаси Бишкек шаҳридаги Қирғизистон давлат академик драма театрида ижодий сафарда бўлишди.

Шу билан бирга театр ижодий жамоаси республика миқёсида ўтказилаётган байрам ва тадбирларида ҳамда концерт дастурларда фаол қатнашиб келмоқда.

2012 йили театр биносида қурилиш-таъмирлаш ишлари олиб борилди ва бунга давлатимиз томонидан 3 миллиард 568 миллион сўм маблағ ажратилди. Театрнинг моддий-техник базаси мустаҳкамланиб янги ёритиш, саҳна ва овоз кучайтириш ускуналари билан таъминланди[11;2]. 2014 йили Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши томонидан театр моддий-техник базасини мустаҳкамлаш учун 108 млн, 2015 йили эса, 206 млн сўм ажратилди.

Бугунги кунда театр репертуари ҳалқимиз ўтмишининг энг нурли саҳифаларига бағишланган, улуғ аллома ва мутафаккирлари, адибу шоирлари, саркарда ва давлат арбоблари ҳақидаги тарихий саҳна асарлари билан бойимоқда. Жумладан, 2012 йили Н. Давкараевнинг “Алпомиш” мусиқали драмасининг янги варианты, 2013 йили Қ. Заретдинов, И. Юсуповларнинг “Тўмарис” операси, 2014 йили Н. Муҳаммеддинов, И. Юсуповларнинг “Ажиниёз” операси, 2015 йили К. Заретдиновнинг “Қирқ қиз” миллий балети, 2016 йили Қ. Матмуратовнинг “Бердақ” мусиқали драмаси, 2023 йили Уйғун асари асосида Т. Сейтжанов, Ш. Абидовларнинг “Абу Райҳон Беруний” тарихий драмаси ва Қ. Заретдиновнинг “Едеге – Тўхтамиш – Амир Темур” тарихий опералари саҳналаштирилиб, халқимизга тортиқ этилди. Бундай спектаклларнинг саҳналаштирилиши, юртимиз ёшлари онгида мардлик ва жасурлик хислатларини шакллантириш, шунингдек уларни Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш, ҳамда, уларда она юрти ва халқига бўлган чексиз меҳр ҳиссини пайдо қилишда катта аҳамият касб этади.

2017 йил театр тарихида муҳим воқеа содир бўлди. Ўзбекистон Республикаси Маданият Вазирлигининг 2017 йил 22 февралдаги 240-сонли қарори билан Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат мусиқали театрига “Академик театр” мақоми берилди. Бу эса театр жамоасини янгидан-янги ютуқларга илҳомлантирди. Мазкур йили театр ўзининг 90 йиллигини кенг турда нишонлади[7].

Кейинги йилларда театри жамоаси ижодий имкониятларини янада кенгайтириб, чет элларга ижодий сафарлар уюштиришиб, жаҳон миқёсида ўтказилаётган танлов ва фестивалларда муносиб иштирок этишиб, турли номинациялар бўйича муваффақиятларга эришмоқда. Жумладан, 1993 йил Ашхобод шаҳрида ўтказилган “Наврўз-93” халқаро театр фестивалида ўзининг “Шарьяр” спектакли билан қатнашди унда театр актрисаси Ж. Сағиндикова спектаклдаги роли учун “Энг яхши аёл роли” ижрочиси номинацияси ғолиби бўлди[9]. 2008 йили Ашхобод шаҳрида ўтказилган “Қўшиқ-мусиқа-инсониятнинг руҳий бойлиги” номли фестивалга театр оркестри ва вокал артистлари иштирок этишган бўлса, 2009 йили театр жамоаси Мисрда бўлиб ўтган XXI халқаро театр фестивалига С.Балғабоевнинг «Энг сулув келинчак» спектакли билан қатнашди. 2014 йили Ашхобод шаҳрида ўтказилган “Бахтиёр давримиз театри” атамасидаги халқаро театрлар фестивалига эса “Энг сулув келинчак” номли спектакли билан иштирок этишиб жаҳон халқларини қорақалпоқ театр санъати билан таништиришга муяссар бўлди. 2018 йили Қирғизистон давлатида ўтказилган “Айтматов ва театр” халқаро театрлар фестивалига Ч. Айтматов асари асосида сахналаштирилган “Лувр ўрдаги” номли спектакли билан қатнашиб III ўринни эгаллади. 2021 йили июль ойида Туркия давлатининг Трабзон шаҳрида ўтказилган Халқаро театрлар фестивалига Ч. Айтматов асари асосида сахналаштирилган “Жамила” спектакли билан қатнашди[8; 892].

Хулоса. Аминмизки, театр жамоаси мустақиллик йилларида халқ маънавиятини юксалтириб, халқни Ватанга садоқат, Она-юртга муҳаббат руҳида тарбиялашга, келажак авлодларни комил инсонлар қилиб етиштиришга ўз ҳиссасини қўшиб бораверади ва мустақиллик даври солномасини янги асарлар, янги томошалар билан бойитиб оммани хушнуд этаверади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Алланазаров Т. Театр ҳам драматургия. – Нөкис, Қарақалпақстан. 1982. – 178 б.
2. Айтмуратов Ж. Роль Каракалпакского государственного театра в развитии национальной культуры в 20-40-х гг. XX века. //Вестник ККО АН РУз. 2012. №1. – С. 86-89.
3. Баяндиев Т. Современный проблемы театра. (на примере Каракалпакского театра). – Ташкент, 2008. – 142 с.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қураимиз. – Тошкент, Ўзбекистон. 2017.
5. Пирназаров А. Режиссура Каракалпакского гостеатра имени К.С. Станиславского (истоки и формирование). – Нукус, Каракалпакстан. 1983. – 108 с.
6. Раҳманова Г. Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат мусиқали театрида мусиқали асарлар сахналаштирилиш аҳамияти. // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021.
7. Раҳманова Г. Бердақ атындағы Қаракалпақ мәмлекетлик академиялық музыкалы театрына 90 жыл. – Нөкис, Билим. – 200 б.

8. Сейтназарова Т. Бердақ номидаги қорақалпоқ давлат академик мусиқали театрининг шаклланиш жараёнлари // “Oriental and Culture” Scientific-Methodical Journal. Volume 4, Issue 1/ February 2023.
9. Уразова Л. Состояние театрального искусства Каракалпакстана в середине 80-х-начале 90-х годов XX века. //Вестник ККО АН РУз. 2011. №2.
10. Уразова Л.К. Из истории развития Каракалпакского государственного музыкального театра им. Бердаха. //Вестник ККО АН РУз. 2006. №3.
11. Хожамуратова П. Улкен театрымиз қайта туўылды. //Қарақалпақстан жаслари. 2013 №1.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

DEMOGRAPHIC CHANGES, EMPLOYMENT AND MIGRATION PROCESSES IN SURKHANDARYA AND KASHKADARYA REGIONS

Saidahmatov Sharifbek Toshpulatovich,

Termez State Pedagogical Institute Faculty of Pedagogy and Social Sciences,
Acting Associate Professor of the Department of History,
Doctor of Philosophy in History (PhD)
E-mail: saidaxmatovsharifbek@gmail.com

Abstract. This article talks about the population and labor resources of Surkhandarya and Kashkadarya regions located in the southernmost part of the Republic of Uzbekistan. The current state of the population and labor resources, the increase and decrease of the population, births, deaths, religious composition, and in which areas they are most employed are covered.

Keywords: population, composition, birth, death, migration, labor resources, sex composition, pictures of population growth.

SURXONDARYO VA QASHQADARYO VILOYATLARIDA DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR, AHOLI BANDLIGI VA MIGRATSIYA JARAYONLARI

Saidaxmatov Sharifbek Toshpo'latovich,

Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti,
Tarix kafedrasida dotsenti v.b.
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining eng janubida joylashgan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatining aholisi va mehnat resurslari haqida so'z boradi. Aholi va mehnat resurslarining bugungi kundagi holati, aholining ko'payishi, kamayishi tug'ilish, o'lim, diniy tarkibi, ularning qaysi sohalarida ko'proq bandligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: aholisi, tarkibi, tugilish, o'lim, migratsiya, mehnat resurslari, jinsiy tarkibi, aholining o'sish suratlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N03>

Kirish. O'zbekiston jahonning ilk urbanizatsiya o'choqlaridan biri. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz, Qarshi va Shahrisabz shaharlari 2000-2700 yillik tarixga ega. Mamlakatning turli hududlarida topilgan shaharlar qoldiqlari (Afrosiyob, Aysi, Pop, Nasaf, Kesh, Poykent va b.) ham bu yerda urbanizatsiyaning qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi[2].

Aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra urush (1941-1945) yillarida erkaklar soni kamayib ketdi. Bu tengsizlik 1950-yillarning oxirigacha davom etgan. 1950-yilda erkaklar viloyat aholisining 48,9 foizini tashkil qilgan. Keyinchalik aholining jinsiy tarkibi asta-sekin tenglasha bordi. 1989-yil aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra esa viloyat aholisining deyarli teng

yarmi(49,9%)ini erkaklar tashkil qilganligi fikrimizning isbotidir. 01.01.2019 yilda esa erkaklar 1297893 kishi, ayollar esa 1271455 kishini tashkil qilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Surxondaryo viloyati aholisining o'sish sur'ati so'nggi yillarda, Qashqadaryo bilan birgalikda, mamlakatimizda eng yuqori. Hozirgi kunda viloyat o'zining demografik salohiyati bo'yicha Respublikamizda yuqori o'rinda turadi. 1989-yilda, ya'ni so'nggi marta o'tkazilgan aholi ro'yxati bo'yicha, 1253,8 ming kishiga teng bo'lgan bo'lsa, 2019-yilda bu raqamlar nisbati 1,7 martaga ko'paygan. Garchi demografik rivojlanish sur'ati so'nggi yillarda biroz pasaygan bo'lsa-da, u respublikamizda eng yuqori. Aholi sonining bunday o'sishi yangi ish o'rinlarini ko'paytirish, xalq iste'mol mollari ko'proq ishlab chiqarishni zarur qilib qo'yadi. Tumanlar miqyosida eng ko'p aholi Denov tumanida 385378 (01.01.2019y) kishi yashaydi. U mamlakatimizning Asaka, Urgut, Shahrisabz, Yakkabog' tumanlari singari eng ko'p aholi soniga ega bo'lgan birlamchi ma'muriy birliklardan hisoblanadi.

Mehnat resurslari tarkibi (ming kishi)

Mehnat resurslari	2010	2015	2020	2022*)
Mehnat resurslari	1174,1	1379,2	1452,2	1469,0
doimiy aholiga nisbatan, foizda	54,0	57,2	54,7	52,3
shu jumladan:	2010	2015	2020	2022
mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi	1169,4	1374,4	1450,2	1466,6
doimiy aholiga nisbatan, foizda	53,8	57,0	54,6	52,3
mehnat resurslariga nisbatan, foizda	99,6	99,7	99,9	99,8
mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlovchilar	8,2	8,9	2,0	2,4
doimiy aholiga nisbatan, foizda	0,4	0,4	0,1	0,1
mehnat resurslariga nisbatan, foizda	0,7	0,6	0,1	0,2

Qashqadaryo viloyatidagi 1991-2021-yillardagi demografik jarayonlar, xususan, aholi sonidagi umumiy o'zgarishlar, qishloq va shahar aholisining tarkibi, shahar aholisining ko'payishi, tug'ilish va o'limning biri-biridan farqi, vohaning respublikadagi boshqa hududlardan farqi va o'ziga xos xususiyatlari, aholi zichligi, viloyat aholisining milliy tarkibi, mehnat resurslari bandligining tarmoq tarkibi va ularning joylashuvi tahlil qilingan. Ma'lumki, jamiyatdagi demografik voqealar umumiy va muayyan individual tasodifiy sabablar ta'siri ostida amal qiladi. Bu jarayondagi ayrim voqealar vujudga kelishi ba'zi sabablarga ko'ra individual va noyobdir, lekin demografik jarayonda ular ketma-ketlik voqealardan iborat bo'lib, ular muntazam ravishda o'zgarib turadi[4].

Shu o'rinda Qashqadaryo viloyati o'zining aholi soni bo'yicha O'zbekistonda Samarqand va Farg'ona viloyatlaridan keyingi uchinchi o'rinni egallaydi. U ayni vaqtda, aholi sonining o'sishi jihatidan Surxondaryo viloyati bilan birgalikda mamlakat demografik vaziyatida

yetakchilik qiladi. Jumladan, agar O‘zbekiston aholisi 1989-2014-yillarda 128,1 foizga o‘sgan bo‘lsa, Surxondaryoda bu ko‘rsatkich 144,6 va Qashqadaryoda 142,5 foizga teng. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bu ikki viloyat umumrespublika hozirgi demografik vaziyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Viloyat tabiiy geografik muhitiga mos holda aholi uning hududida bir tekis joylashmagan. O‘rtacha zichlik 1 km² ga 105 kishi, bu raqam respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan deyarli 1,5 marta yuqori. Aholi, xususan, Kasbi (278,4 kishi), Qarshi (248,7 kishi), Yakkabog‘ (220,1 kishi) va Shahrisabz (203,4 kishi) tumanlarida zich joylashgan. Ayni paytda bu ko‘rsatkich Muborak, Dehqonobod, Mirishkor tumanlaridagi qishloqlarda ancha past[5].

Yillar	Hamma aholisi ming kishi	Shundan		Barcha aholisiga nisbatan (protsent hisobida)	
		Shahar aholisi	Qishloq aholisi	Shahar aholisi	Qishloq aholisi
1926	343,5	39,1	304,4	11,4	88,6
1939	459,6	40,8	418,8	9	91
1959	508	67	441	13,2	86,8
1970	801	132	669	16,5	83,5
1979	1121	283	838	25,2	74,8
1992	1756,2	459,1	1297,1	26,1	73,9



2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra Qashqadaryo viloyat doimiy aholisi sonining

	2022- yil	2023- yil	O‘sish sur‘ati, % da
Qashqadaryo viloyat	3408,3	3482,6	102,2
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	283,2	289,6	102,3
Shahrisabz sh	142,7	144,9	101,5

G'uzor	212,4	217,2	102,3
Dehqonobod	153,1	156,3	102,1
Qamashi	280,6	286,8	102,2
Qarshi	259,4	265,4	102,3
Koson	297,5	304,6	102,4
Kitob	271,2	276,3	101,9
Mirishkor	124,1	126,8	102,2
Muborak	90,3	91,8	101,7
Nishon	159,2	162,7	102,2
Kasbi	204,0	208,3	102,1
Ko'kdala	-	181,6	-
Chiroqchi	432,0	262,5	60,8
Shahrisabz	227,6	231,1	101,5
Yakkabog'	271,0	276,7	102,1

Muhokama va natijalar. Umuman olganda, Surxondaryo viloyatida 1989-2019-yillarda aholi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati yuqori bo'lgan qishloq tumanlariga Sho'rchi, Sherobod, Termiz, Oltinsoy, Muzrabot, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on va Denov, o'rtacha ko'rsatkichlarga Qiziriq hamda Sariosiyo va past ko'rsatkichli hududlarga Angor, Boysun va Uzun tumanlari kiradi. Aholi zichligi viloyat bo'yicha 1 km² maydonga o'rtacha 114,8 kishi bo'lib, aholi geografiasini, asosan, Surxon daryosi (viloyat nomi ham Surxondaryo) va o'nga parallel o'tgan temir hamda avtomobil yo'llari belgilab beradi.

Aholi joylashuvi, eng avvalo, yangi o'zlashtirilgan Surxon—Sherobod massivida, qadimdan qishloq xo'jaligi 322 rivojlangan hududlarda zich, tog' va tog'oldi hududlarida esa u nisbatan siyrak (masalan, Boysun yoki Sariosiyo tumanlari). Bunday tez sur'atlarda aholining o'sishiga tabiiy ko'payish hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Surxon vodiysi Qashqadaryo viloyati bilan birgalikda respublikamizda so'nggi yillarda kuzatilayotgan tug'ilish va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarining pasayib borish jarayoni bilan bog'lik demografik to'lqinning eng so'nggi pallasida turadi. Boshqacha qilib aytganda, respublikamiz poytaxti Toshkent shahri va Toshkent viloyatida boshlangan bu jarayon asta-sekinlik bilan ayni shu mintaqada poyoniga yetadi, so'nib boradi. Binobarin, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari O'zbekiston Respublikasi demografik rivojlanishining hozirgi holatini ko'p jihatdan belgilab beradi[6].

Surxondaryo viloyati va uning barcha qishloq tumanlarida aholining tug'ilish koeffitsiyenti yuqori. Bir yilda tug'ilganlar soni 50-55 ming kishiga barobar. Ta'kidlash joizki, bu yerda ham tug'ilish va tabiiy ko'payish tobora pasayib bormoqda. Mazkur jarayon respublikamizning barcha mintaqalariga xos demografik vaziyatdir. Biroq, Surxondaryoda tug'ilish ko'rsatkichlari kamayib borayotgan bo'lsa-da, u hamon mamlakat miqyosida eng yuqori. 2008 -yilda viloyatda tug'ilish 25,8 promille bo'lgan holda, u 2013-yilda 24,6, 2019-yilda 25,9 promilleni tashkil qilgan; o'lganlar, mos ravishda, 3,9 va 4,1 %, tabiiy ko'payish -21,9 va 20,5 % bo'lgan, Boysun, Uzun, Qiziriq, Termiz, Sho'rchi va Sariosiyo tumanlarida yuqori, qolgan tumanlarda esa o'rtacha yoki undan pastroq.

Tug'ilishning yuqori bo'lishiga qator sabablar ta'sir qiladi. Ular jumlasiga aholining milliy tarkibida demografik ko'p bolalikka moyilligi yuqori bo'lgan mahalliy millat vakillarining

(o'zbeklar, tojiklar) ko'pligi, urbanizatsiya va aholi bandligi darajalarining pastligi, ayrim urf-odatlar va boshqa omillar kiradi. Viloyat aholisining 84,2 % o'zbeklar, 12,4 % tojiklardan iborat (2019-y.). Boshqa millat vakillari orasida turkman va ruslar ko'proq. Mamlakatimizning qator mintaqalarida bo'lganidek, Surxondaryoda ham tashqi migratsiya natijasi o'z salbiylik xususiyatini yo'qotmoqda. 2019-yil yakunlariga ko'ra, u Termiz shahrida eng katta manfiy qoldiqqa ega bo'lgan holda, ko'pchilik qishloq, tumanlarida ijobiydir. 2019-yil 1-yanvar holatiga ko'ra viloyatda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 1316 ming kishi, iqtisodiy faol aholi 919 ming, iqtisodiyotda band bo'lgan aholi 871 ming kishini tashkil qilgan [7].

Qashqadaryo viloyatidagi demografik jarayonlarni qisqacha tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, viloyatda kechgan ma'lum o'zgarishlarda ijtimoiy-iqtisodiy, demografik omillar muhim o'rin egallaydi. Xususan, ko'zdan kechirilayotgan davrda voha demografiyasi respublikaning boshqa hududlaridan aholining o'sish surati, tug'ilish va o'limning kamayishi, farzand ko'rish ketma-ketligini qisqarishi, aholi zichligi va joylashuvdagi o'zgarishlar, o'rtacha umr ko'rish darajasining ortishi, shahar aholisining o'sishi qishloq aholisiga nisbatan sekinlashuvi, migratsiyaning faollashuvi bilan izohlanadi. Masalani aholining milliy tarkibi tahlilidan boshlaydigan bo'lsak, 1989-yilda viloyatda aholining 85 foizini o'zbeklar tashkil qilgan bo'lsa, 1995-yilga kelib bu ko'rsatkich 91 foizni tashkil etdi. 2013-yildagi ma'lumotga ko'ra, viloyat aholisi milliy tarkibida o'zbeklar keskin ajralib 92,3 foizni tashkil etdi. Ikkinchi o'rinda, tojiklar 4,3 foizga ega. Qolgan millat vakillaridan turkman va ruslar ko'proq [3]. Bu o'zgarish mustaqillikning dastlabki yillarida migratsiya jarayonlari bilan bog'lanadi. Ta'kidlash joizki, aholi tabiiy o'sish ko'rsatkichlari shahar va qishloq joylarda farq qiladi, hamda qishloq joylarda tug'ilish shaharlarga nisbatan birmuncha yuqori. Buning ba'zi obyektiv va subyektiv sabablari mavjud. Jumladan, qishloqlarda ayollarning ijtimoiy hayotida bandligini past darajada bo'lishi, qo'l mehnati ko'p talab qilinadigan qishloq xo'jaligida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi, milliy an'analar davrlar davomida tug'ilishning yuqori bo'lishiga olib kelgan. Shahar aholisi tarkibida esa turli millat vakillarining ayollarning ijtimoiy hayotda faolligi, iqtisodiy-ijtimoiy omillarga bog'liq holda uy-joy muammosi va boshqa sabablari tug'ilish darajasining biroz past bo'lishiga olib keladi.

Keyingi yillar mobaynida, ya'ni 1989-2014-yillar oralig'ida aholi soni ancha tez ko'payib boradi. Masalan, Muborak tumanida o'rtacha yillik ko'payish 5,70 foiz, Kosonda 4,75 foiz, Kitob va Nishon tumanlarida 4,10 %ni tashkil qilgan. Nisbatan pastroq demografik o'sish Dehqonobodda 2,40 %, Qarshida 2,50 % va Kasbi tumanlarida 2,50 % kuzatiladi. Shu o'rinda e'tirof etish lozimki, mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha Muborak tumani respublikamizda eng oldingi o'rinlarni egallaydi [5]. Tuman aholisining bunday tez o'sishi nafaqat tabiiy ko'payish, balki aholi migratsiyasi bilan ham bog'liq bo'lib, tabiiy resurslarni o'zlashtirish natijasida aholi bu yerga ko'plab ko'chib kelgan [2].

Yuqori mintaqqa Shahrisabz, Yakkabog' va Kitob tumanlari ko'p jihatdan respublikamizning aholisi zich, xo'jaligi intensiv rivoj topgan voha va vodiylariga o'xshab ketadi. Shu bilan birga, aholi zichlik ko'rsatkichlari quyi mintaqaning ayrim tumanlari, jumladan, Kasbi, Qarshida ham ancha yuqori. Aholining tabiiy harakat ko'rsatkichlari boshqa hududlar xususan, Surxondaryo viloyatidan tashqari sezilarli darajada farq qiladi. Chunonchi, bu yerda tug'ilish koeffitsiyenti har 1000 kishi aholiga 25,1 kishini tashkil etadi. Eng yuqori daraja 2000 yilda Chiroqchi tumanida bo'lib, u bu yerda yaqin 34 kishiga barobar. Yakkabog' tumanida ham tug'ilish ancha yuqori – 26,7 foiz. Ayni vaqtda umumiy tug'ilish koeffitsiyenti

Mirishkor, Qarshi shahri va tumanida pastroq. 2013-yilda ham Chiroqchi tumani tug‘ilish koeffitsiyenti bo‘yicha ajralib turadi (30,0 %). Qolgan qishloq tumanlari orasida katta farq kuzatilmaydi, viloyat markazi Qarshi shahrida tug‘ilish 21,5 promille .

Jumladan, Qashqadaryo vohasidagi aholi tug‘ilishi 1995-yil da 36,2 promille, 1996-yil 33,1 prom., 1997-yil 29,9 prom., 1998-yilda 27,1 prom., 1999-yil 27,5 prom., 2000-yilda 26,3 prom., 2001-yil 24,2 promille, 2002-yilda 23,9 prom., 2003-yilda 23,5 prom., 2004-yilda 22,7 prom.ni tashkil qilgan. Yoki, 2018-yilda 82,1 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, shunga mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 25,8 prom.ni tashkil etgan[5].

2017-yil yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar soni 76607 kishini tashkil qilib, 2016-yilning shu davriga (77684 kishi) nisbatan 1077 taga kamaygan. Tug‘ilish koeffitsiyenti mos ravishda 24,6 prom.ni tashkil qilib, 2016-yilning shu davriga (25,4 prom.) nisbatan 0,8 prom.ga kamaydi. Tug‘ilish darajasining kamayishi viloyatning G‘uzor tumanida (25,5 dan 25,0 prom.), Dehqonobod (28,4 dan 28,3 prom.), Qamashi (27,6 dan 27,2 prom.), Kitob (24,6 dan 24,3 prom.), Kasbi (25,6 dan 24,1 prom.), Chiroqchi (30,3 dan 30,2 prom.), Yakkabog‘ (27,8 dan 25,2 prom.) tumanlarida kuzatildi.

2018-yilda viloyat tumanlari orasida tug‘ilish koeffitsiyenti o‘rganib chiqilganda, yuqori o‘sish Muborak tumanida (22,1 prom.dan 24,7 prom.) va Qarshi shahrida (17,9 prom.dan 20,7 prom.ga) Koson (24,6 prom.dan 25,6 prom.ga) va Kitob (24,1 prom.dan 24,9 prom.ga) tumanlarida bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkich Chiroqchi tumanida (32,9 prom.) kuzatilgan.

Mehnat resurslari tumanlar kesimida tahlil qilinganda, yuqori ko‘rsatkichlarda Chiroqchi, Koson, Qamashi va Shahrisabz tumanlari, eng ko‘p iqtisodiy faol aholi soni Chiroqchi tumanida (146,0 ming kishi) va Qarshi shahrida (130,6 ming kishi) ga kuzatildi. Iqtisodiy faol aholi sonining eng kam ko‘rsatkichlari Mirishkor (54,7 ming kishi) va Muborak (46,2 ming kishi) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

Surxondaryo viloyatining o‘ziga xos tabiiy, iqtisodiy va siyosiy geografik o‘ringa ega. Viloyatda mamlakat aholisining 7,79 foizi istiqomat qilgani holda, shahar aholisi respublika shahar aholisining 5,5 foizini tashkil etadi[7].

2017-yil ma‘lumotlariga ko‘ra 8 ta shahar va 114 ta shaharcha qayd etilgan bo‘lsa, bu raqamlar 2023-yilga kelib 8 ta shahar va 112 ta shaharchani tashkil etmoqda. Ulardan Termiz shahri viloyatga bo‘ysunuvchi shahar va qolgan 7 ta shaharlar tumanga bo‘ysunuvchi shahar sifatida qolmoqda (Denov, Boysun, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Sho‘rchi, Sharg‘un, Sherobod). Viloyat aholisi soni 2806,5 ming kishi Surxondaryo viloyatida 2023- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni 2806,7 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 63,6 ming kishiga yoki 2,3 % ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 1016,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,2 %), qishloq aholisi soni 1789,8 ming kishi (63,8 %)ni tashkil etdi. Viloyat ma‘muriy-hududiy jihatdan 1 ta viloyat bo‘ysunuvdagi shahar va 14 ta tumanga bo‘lingan, aholi zichligi 1 km² ga 139,6 kishiga to‘g‘ri keladi. Ma‘muriy markazi – Termiz shahri bo‘lib, aholisi 195,9 ming kishi[9]. 2023-yil 1-yanvar holatiga 1016,8 ming kishi yoki 36,2 foizi shaharlarda (respublikada faqat Xorazm viloyatidan oldinda) istiqomat qiladi[6].

Surxondaryo viloyati shaharlari aholisining dinamikasi (ming kishi hisobida)

Shaharlar	Yillar					O‘sish, marta 1970-2023
	1970	1990	2000	2010	2022	

Termiz	34,9	75,0	113,5	120,4	195,7,0	4
Denov	25,8	55,0	63,0	70,1	145,4	3
Boysun	12,5	20,0	21,8	24,5	50,9	2,2
Jarqo'rg'on	11,6	20,0	20,5	20,9	22,9	1,9
Qumqo'rg'on	6,3	12,0	12,0	13,2	15,0	2,4
Sharg'un	5,4	9,0	12,4	12,0	11,6	2,1
Sherobod	10,2	19,0	24,2	26,0	29,5	2,9
Sho'rchi	9,1	16,0	20,5	22,3	25,4	2,8

Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, istiqloq yillarida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi demografik o'zgarishlar, aholi bandligi va migratsiya jarayonlari hamda o'zgarishlar bevosita ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga bog'liq holda kechdi. Bunda, kishilarning shaharlarga intilishi natijasida shahar aholisi salmog'ining ko'payishi, shuningdek, aholining milliy tarkibida tub joy millat vakillari salmog'ining oshishiga asosiy sabab, tub joy aholisi bo'lmagan millat vakillarining o'z vatanlariga qaytishi va qishloq joylarida tug'ilishning ko'payishi bilan izohlash mumkin. Aholi bandligi muammosini hal qilishning eng asosiy yo'llari, asosan, tumanlar miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni faollashtirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan mos ravishda mahalliy ehtiyoj asosida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini jadal rivojlantirish bilan bog'liq kechgan.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ahmedov E. A. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. – T.: Abu Ali Ibn Sino, 2002. – 224 b.
2. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami 2004. – Toshkent. 2005. – B. 57.
3. Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi. 2019-yil. – B.53.
4. Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li Qashqadaryo viloyati aholisining mustaqillik yillaridagi demografik holati va etnik tarkibi. International Conference on Developments in Education Hosted from Amsterdam, Netherlands <https://econferencezone.org> April 30th 2022.
5. Soliyev A. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. – T. 2014. – B. 290.
6. Soliyev A., Abdunazarov H. Yengil va oziq-ovqat sanoatining mintaqaviy muammolari (Surxondaryo viloyati misolida). – T: Fan, 2007. – 130 b.
7. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi. Sattorov A.U Surxondaryo viloyati qishloq aholi manzilgohlarining soni va tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlar // O'zb. GJ axboroti. 32-jild. – T., 2008. - B. 85-88.
8. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. – Termiz. 2017.
9. www.surxonstat.uz
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_demografiyasi
11. https://surxonstat.uz/images/uploads/docs/demografiya_uz12.pdf
12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10144254> № 7 2023-yil 869-870-betlar

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

ECONOMIC AND SOCIAL CHANGES IN THE THIRD QUARTER OF THE 20-TH CENTURY AND THEIR IMPACT ON DEMOGRAPHIC PROCESSES

Yakubov Utkir Shermamatovich

Associate Professor of the Termez State Pedagogical Institute

E-mail: utkir1969@list.ru

Abstract. The article examines economic and social changes in the third quarter of the 20-th century, industrialization and industrial development, technical progress, the emergence of medical advances and their impact on demographic processes.

Keywords: industrialization, technical progress, medical advances, demographic processes, population, rural population, collective farms, state farms, urbanization.

XX ASRNING UCHINCHI CHORAGIDAGI IQTISODIY, IJTIMOY O'ZGARISHLAR VA ULARNING DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI

Yakubov O'tkir Shermamatovich

Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning uchinchi choragidagi iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar, sanoatlashtirish va sanoatning rivojlanishi, texnik taraqqiyot, hamda tibbiyot yutuqlarining paydo bo'lishi va ularning demografik jarayonlarga ta'siri haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: sanoatlashtirish, texnik taraqqiyot, tibbiyot yutuqlari, demografik jarayonlar, aholi salmog'i, qishloq aholisi, kolxozlar, sovxozlar, urbanizatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N04>

Kirish. XX asrning uchinchi choragidagida yangi texnikalar va tibbiyot yutuqlarining paydo bo'lishi va respublikaga kirib kelishi, yashash sharoitlarini yaxshilash kabi o'zgarishlar ma'lum darajada demografik vaziyatga va bolalar o'limini kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Umuman olganda, bu davr demografik tuzilishdagi siljishlar, shahar aholisining o'sishi va O'zbekistonning demografik jarayonlariga ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri bilan ajralib turadi[1]. 1961-yildan 1970-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda aholi tarkibida sezilarli o'zgarishlar ro'y bergan, bu o'sha davrning umumiy demografik tendensiyalarini aks ettirgan.

Tadqiqot metodlari. Maqolani tayyorlashda omillarni tahlil qilish usuli, (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va etnik omillar) tarixiy tamoyil, tarixiy qiyoslash va umumlashtirish kabi metodlardan foydalanildi.

Muhokama va mulohazalar. XX asrning uchinchi choragidagi iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar, sanoatlashtirish va sanoatning rivojlanishi, texnik taraqqiyot, hamda tibbiyot yutuqlarining paydo bo'lishi hamda tibbiy xizmatning yaxshilanishining demografik jarayonlarga ta'siri sezilarli bo'lgan. Shuningdek, shaharlar aholisining ko'payishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda tug'ilishning yuqori darajasi tufayli bolalar sonining ko'payishi kuzatiladi. Bu ta'lim, tibbiy xizmat hamda ijtimoiy himoya sohasida yangi muammolarni keltirib chiqargan.

O'zbekistonda o'rta (to'liq va to'liqsiz) va oliy ma'lumotlilar salmog'i 1939-yilda har ming kishiga 55(%) kishini, 1959 yilda 354(%) kishini va 1970-yilda 458(%) kishini tashkil qilgan. 1939-yilga nisbatan 1959-yilda savodlilar salmog'i 6 martaga, 1970-yilda esa, qariyb 9 martaga ortgan. Ammo, bu davrda o'qimishlilar salmog'i Latviya, Estoniya va Armanistonda ancha yuqori, ya'ni 50 foizdan oshgan.

Ijtimoiy-demografik o'zgarishlar, demografik vaziyatning bu davrlardagi o'ziga xosligi shundaki, mintaqa aholisining irqiy, etnik va madaniy xususiyatlarida millatlarning o'zaro tushunish, an'alarini qadrlash va o'zaro moslashish shakllangan. Ushbu o'zgarishlar nafaqat O'zbekistonning demografik manzarasini tavsiflabgina qolmay, balki butun sobiq "Ittifoq"ning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatgan.

1961-1970-yillarda O'zbekistonda migratsiya va boshqa demografik jarayonlarga ta'sir ko'rsatgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y bergan. Mintaqada sanoatlashtirish va sanoatning rivojlanishi mamlakatning boshqa qismlaridan ishchi kuchining kirib kelishiga sabab bo'lgan[2]. Bu shahar aholisining ko'payishiga va yangi sanoat hududlarining shakllanishiga yordam bergan. Bu davrda, ayniqsa, yangi ma'muriy-hududiy birliklarning shakllanishi va yangi korxonalar qurilishi munosabati bilan turli etnik guruhlar o'rtasidagi migratsiya jarayonlari ham sodir bo'lgan.

Umuman olganda, ushbu jarayonlar bu davrda O'zbekistonning demografik tuzilishiga sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqargan hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim jihatlarini aks ettirgan[3]. 1961-yildan 1970-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda mintaqa iqtisodiyotida muhim rol o'ynagan bir qancha yirik sanoat korxonalari mavjud edi. Ulardan ba'zilari:

1. Toshkent traktor zavodi (TTZ) Sovet Ittifoqidagi yirik qishloq xo'jaligi korxonalaridan biri bo'lgan. Bu davrda zavodda minglab odamlar ishlagan, traktorlar va ehtiyot qismlar ishlab chiqarish ham iqtisodiyotning turdosh tarmoqlari rivojiga hissa qo'shgan.

2. Toshkent aviatsiya zavodi — samolyotlar va boshqa uskunalarni ishlab chiqargan. Ushbu korxonada ko'plab odamlar ish bilan ta'minlangan.

3. To'qimachilik va tikuvchilik korxonalarini bu davrda O'zbekistonda to'qimachilik sanoatida muhim o'rin tutgani holda, sohaning to'qimachilik fabrikalari va tikuvchilik fabrikalari ham mintaqaning ko'plab aholisini ish bilan ta'minlagan. Ushbu va boshqa sanoat korxonalarini shu davrda O'zbekiston iqtisodiyotida muhim rol o'ynab, minglab odamlarni ish bilan ta'minlagan va mamlakat sanoat ishlab chiqarishiga salmoqli hissa qo'shgan.

1970-yilda O'zSSR aholisi 11 973 086 kishini tashkil etib, tug'ilish 401 664 kishini, o'lim ko'rsatkichi 66 153 kishini va tabiiy o'sish 335 511 kishini tashkil qilgan.

1-jadval

1970-1979-yillardagi demografik jarayonlar

	Umumiy aholi	Tugʻilish	Tugʻilish (1000 kishiga)	Oʻlim	Oʻlim (1000 kishiga)	Tabiiy oʻsish	Tabiiy oʻsish (1000 kishiga)
1970	11 973 086	401 664	33,5	66 153	5,5	335 511	28,0
1971	12 354 111	425 688	34,5	67 131	5,4	358 557	29,1
1972	12 756 008	421 464	33,0	77 872	6,1	343 592	26,9
1973	13 155 106	441 385	33,6	83 137	6,3	358 248	27,3
1974	13 569 012	462 182	34,0	86 807	6,4	375 375	27,6
1975	13 981 103	478 527	34,2	100 206	7,1	378 321	27,1
1976	14 389 018	503 637	35,0	101 426	7,0	402 211	28,0
1977	14 786 076	493 411	33,3	104 218	7,0	389 193	26,3
1978	15 391 123	514 132	33,4	105 167	6,8	408 965	26,6
1979	15 391 112	535 928	34,8	109 459	7,1	426 469	27,7

Manba: Itogi vsesoyuznoy perepisi naseleniya 1979 goda Uzbekskoy SSR. –M, 1980.

1975-yilda esa, respublika aholisi 13 981 103 kishini tashkil qilib, bu davrlar oraligʻida aholi 2 008 017 kishiga koʻpaygan va 1975-yilda tugʻilish 478 527 kishini, oʻlim koʻrsatkichi 100 206 kishini, tabiiy oʻsish esa 378 321 kishini tashkil qilgan. 1979-yilga kelib respublika aholisi 15 391 112 kishiga yetib, 1970-yilga nisbatan oʻn yil davomida aholi 3 418 026 kishiga koʻpaygan. Bu yillar davomida tugʻilish 33 promilledan 35 promillegacha, oʻlim koʻrsatkichi 5,4 promilledan 7,1 promillegacha, tabiiy oʻsish 27,1 promilledan 29,1 promillegacha tebranishda boʻlgan.

Ijtimoiy-demografik oʻzgarishlar aholi tarkibiga, shu jumladan, aholining yosh tarkibi va etnik tarkibiga ham taʼsir koʻrsatgan, bu oʻsha davr demografik vaziyatini tushunish uchun muhim. Shunday qilib, 1971-1980-yillarda Oʻzbekistondagi demografik jarayonlar aholining oʻsishi, urbanizatsiya va aholi tarkibidagi oʻzgarishlar bilan ajralib turadi, shuningdek, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi muhim tendensiyalarni aks ettiradi.

1959-1979-yillar davomida umumiy aholining oʻsish surʼatlari “Ittifoq”dagi respublikalar ichida Tojikiston (91,9 foiz), Oʻzbekiston (86,5 foiz), Turkmaniston (82,0 foiz), Armaniston (71,9 foiz), Qirgʻiziston (70,8 foiz) va Ozarbayjon (63,0 foiz)da yuqori boʻlgan. “Ittifoq”ning gʻarbiy oʻlkalari: RSFSRda (17,0 foiz), Ukrainada (18,8 foiz), Belorussiyada (18,7 foiz) aksincha ancha kam boʻlgan.

1959-1979-yillarda yaʼni 20 yil davomida sobiq “Ittifoq”ning shahar aholisi 63,3 foizga oʻsgan boʻlib, Estoniya SSR “Ittifoq” tarkibiga kirganligi sababli 1022 ming kishi shahar aholisi sifatida qolgan 14 ta respublika shahar aholisi (162564 ming kishi) bilan qoʻshib hisoblaganda 163586 ming kishini tashkil qilgan.

Shahar aholisi salmogʻi Tojikiston va Belorussiyada 2 martaga, Armanistonda 2,1 martaga, Oʻzbekiston va Moldovada 2,2 martaga ortgan. Shahar aholisining 1959- va 1979-yillardagi koʻrsatkichlarining qiyosiy saldosi Latviyadan tashqari, qolgan respublikalarning barchasida 50 foizdan yuqori va Latviyada eng kam oʻsish koʻrsatkichi 47 foizni tashkil etgan[4]. Bu davrda qishloq aholisi salmogʻi qiyosida, Oʻzbekistonda eng yuqori koʻrsatkich yaʼni 63,7 foiz qayd etilgan. Shuni taʼkidlash joizki, sobiq “Ittifoq” respublikalari ichida tahlil

qilinayotgan 20 yil davomida O'zbekiston, Tojikiston va Turkmanistonda shahar aholisi saldosi ham, qishloq aholisi saldosi ham yuqori bo'lgan.

1979-yil (17-yanvar holatiga) O'zbekiston SSRda jami aholi 15391 ming kishini tashkil etgani holda respublikada aholi soniga ko'ra Toshkent oblasti (1792 ming kishi), Toshkent shahri (1785 ming kishi), Samarqand oblasti (1784 ming kishi), Farg'ona oblasti (1694 ming kishi) yetakchilik qilib, ularning aholi soni 1500 ming kishidan yuqori bo'lgan. Bu oblastlar o'sha davrda aholi soniga ko'ra yirik oblastlar hisoblangan.

Aholi soni 1 mln.dan 1,5 mln. gacha bo'lgan oblastlar sifatida: Andijon (1349 ming kishi), Buxoro (1263 ming kishi), Qashqadaryo (1120 ming kishi), Namangan (1100 ming kishi) oblastlarini qayd etish mumkin. Aholisi 1 mln.gacha bo'lgan oblastlarga: Qoraqalpoq ASSR (304 ming kishi), Surxondaryo (895 ming kishi), Xorazm (744 ming kishi), Jizzax (512 ming kishi) va Sirdaryo (449 ming kishi) oblastlarini sanab o'tish mumkin.

O'sha davrda faqatgina Toshkent shahrida aholi 1 mln.dan oshgan. Shahar aholisi soni 500 mingdan ortgan oblastlarga esa, Toshkent (773 ming kishi), Samarqand (723 ming kishi) va Farg'ona (566 ming kishi) oblastlarini ajratish lozim. Shaharliklar salmog'i yuqori bo'lgan oblastlar sifatida Toshkent (43 foiz), Qoraqalpoq ASSR (42 foiz) hamda Samarqand (41foiz) oblastlarini qayd etish mumkin.

Xulosa. 1970-1979-yillarda O'zbekistonda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim bo'lgan demografik o'zgarishlar yuz bergan. Bu davrda demografik jarayonlarning asosiy jihatlaridan biri aholining o'sishi bo'lib, bu tug'ilishning yuqori darajasi, sog'liqni nazorat qilish tizimi hamda tibbiy xizmatlarning yaxshilanishi hisobiga o'limning kamayishi vaziyati bilan izohlanadi. Shu bilan birga, urbanizatsiya jarayoni ham davom etgan, bu yesa qishloq aholisining ish izlab shaharlarga ko'chishi va yashash sharoitlarini yaxshilash hisobiga shahar aholisi ulushining oshishiga olib kelgan[5,6,7,8]. Bu shahar infratuzilmasi va mehnat muhofazasida yangi muammolarni keltirib chiqargan.

Kollektivlashtirish: 1950-yillarning boshlarida kolxoz va sovxozlar qishloq xo'jaligini tashkil etishning asosiy shakllariga aylangan. Dehqonlarga shaxsiy tomorqalarini kolxoz yoki sovxozlarga birlashtirishga buyruq berilgan, bu esa ijtimoiy o'zgarishlarga, yer va resurslarning qayta taqsimlanishiga olib kelgan.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Гольц, Г. А. Урбанизация как феномен культуры: закономерности социально-информационного разнообразия / Г. А. Гольц // Изв. Рос. акад. наук. Сер. геогр. – 1994. – № 3. – С. 24–37.
2. Максакова Л.П. Влияние миграции сельского населения на перераспределения трудовых ресурсов Узбекистана и пути ее совершенствования (1960—1970 гг.) Автореф. ... канд. экон. наук. Ташкент. 1971, с. 23.
3. Эгамбердиев А. Воспроизводство трудовых ресурсов сельской местности Узбекистана и основные пути улучшения их использования. Ташкент. 1972, с. 199—201.
4. Пивоваров, Ю. Географическое учение об урбанизации: проблемы и поиски решений / Ю. Пивоваров // Свобод. мысль. – 1995. – No 4. – С. 111–121.
5. Аҳмедов. Э.А. Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: тарих ва ҳозирги замон //Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. –Тошкент:2007.30-31 март. 1-қисм. –Б.173;
6. Аҳмедов. Э.А. Ўзбекистон шаҳарлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1991. –Б.13-14.

7. Urbanization Processes in Uzbekistan, History and Contemporary Materials / International Conference Proceedings. – Tashkent: 2007. March 30-31. Part 1 –P.173;
8. Akhmedov. E.A. Cities of Uzbekistan. -Tashkent: Uzbekistan, 1991. –P.13-14.)

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

ABOUT I CONGRESS OF CENTRAL ASIAN POWER ENGINEERS

Saidboboeva Gulzora Nematjonovna,
Docent of the National University of Uzbekistan, PhD

Abstract. This article presents information about the I Congress of Central Asian Power Engineers, held in Tashkent in the early 30s of XX century, the reports read and the proposals put forward. The main goal of the congress was to emphasize the importance of electrification in the socio-economic life of the region, which is analyzed in the article using archival documents and historical literature as an example.

Keywords: I Congress, Central Asia, electric power, electrification, hydro resources.

ЎРТА ОСИЁ ЭНЕРГЕТИКЛАРИНИНГ I СЪЕЗДИ ХУСУСИДА

Саидбобоева Гулзора Нематжонова,
Ўзбекистон Миллий университети доценти,
т.ф.ф.д. (PhD)

Аннотация. Мазкур мақолада XX асрнинг 30-йиллари бошида Тошкентда ўтказилган Ўрта Осиё энергетикаларининг I съезди, унинг ишида ўқилган маърузалар, илгари сурилган таклифлар ҳақида маълумот берилади. Съезднинг бош мақсади минтақа ижтимоий-иқтисодий ҳаётида электрлаштиришнинг ўрни муҳим аҳамиятга эга эканлигига урғу берилган бўлиб, мақолада фойдаланилган архив ҳужжатлари ва тарихий адабиётлар мисолида таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: I съезд, Ўрта Осиё, электр энергетика, электрлаштириш, гидроресурс.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N05>

Кириш. Ўрта Осиё энергия ресурсларига бой ҳудуд деб ҳисобланганлиги сабабли бу ресурслардан унумли фойдаланиш, уларни ўсиб келаётган саноат тармоқларида татбиқ этишни тезлаштириш, бу борадаги муаммоларни ҳал этиш, қолаверса бутун Ўрта Осиё ҳудудларини марказлашган ягона ва мунтазам электр манбаи билан таъминлаш мақсадида 30-йилларнинг бошида аввало Марказ ҳукумати – СССР Халқ Комиссарлари совети томонидан Тошкентда Ўрта Осиё I энергетика съезди ўтказиш ташаббуси илгари сурилган.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Мазкур мақола учун асосий манба сифатида Ўзбекистон Миллий архиви (кейинги ўринларда – ЎзМА)нинг Ўрта Осиё Иқтисодий Совети (СредазЭКОСО) (Р-9-фонд), Ўрта Осиё Давлат Режа комитети (Средазгосплан) (Р-10-фонд) ва ЎзССР Халқ Комиссарлари совети (СНК УзССР), ЎзССР Министрлар Совети (Сов. Мин. УзССР) деб номланган Р-837-фонди ҳужжатлари ва турли тарихий, илмий адабиётлар жалб қилинган.

Тадқиқот методологияси. Муаммони ёритишда тизимлаштириш, қиёсий таҳлил, анализ ва синтез ҳамда муаммовий-хронологик каби илмий тадқиқот усулларидадан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. 1930 йил 3 майда СССР Халқ Комиссарлари советидан республика раҳбариятига Ўрта Осиё энергетикаларининг I съездини чақириш юзасидан жўнатилган телеграммада ушбу анжуман юзасидан қатор мулоҳаза ва таклифлар билдирилган. Хусусан, республика раҳбари Ф. Хўжаевга жўнатилган телеграммада шундай дейилган: “Иттифоқ Халқ Комиссарлари совети энергетика съезди масаласини Назорат совети (Совконтроль)га хулосага юборди. Назорат совети ходимида масала юзасидан келишмовчиликлар бор. Фикримизча, бир қатор маърузаларнинг энергетика секторига бевосита алоқаси йўқ. Қанча ёзма маъруза тайёр ва ким томонидан кўриб, қайта ишлаб чиқилди? Назорат совети ёзма маърузаларни йиғиш, ташкилотлар томонидан ишлаб чиқиши, Ўзбекистон ҳукумати маъқуллашини ва кейин съезд тайинлашни тавсия қилади. Назорат совети хулосаси учун Геммервердга телеграмма юборинг. Республикалардан номзоди кўрсатилган барча маърузачилар текширилганми?”[1; 30-31]

Марказ шу тариқа съездда иштирок этувчи делегатларни, уларнинг маърузаларини ҳам аввалдан ўзига хос текширувдан ўтказишни мақсад қилган.

СредазЭКОСО Президиумининг 1930 йил 22 июнда бўлиб ўтган мажлисида Ўрта Осиё энергетикалари I съездини чақириш ва унинг ташкилий бюросини ташкил этиш тўғрисидаги масала кўриб чиқилган. Ўрта Осиё республикалари энергетикаси масалалари ва улардан оқилона фойдаланишнинг йўллари чуқурроқ ишлаб чиқиш, Ўрта Осиё халқ хўжалиги энергия таъминотининг истиқболли ва бош режаларини тезда амалга ошириш мақсадида, ўша йилнинг 1 ноябрида Ўрта Осиё энергетика съездини чақириш ва уни ташкил этишга раҳбарлик Д.П. Розит зиммасига юклатилган[2; 123-124].

I Ўрта Осиё энергетика съезди Ташкилий бюро мажлиси съездга тақдим этилган маърузалар рўйхатини дастлабки маъруза деб эътироф этилиши, ушбу рўйхатни Ташкилий бюронинг барча аъзоларига ҳамда Ўрта Осиёнинг барча республика ва иттифоқ органларига, съезднинг бўлажак иштирокчиларига юбориш зарурлиги, шунингдек, республикалар Халқ Комиссарлари советларига съездни чақиришга қўмаклашувчи ячейкалар ташкил этиш ва ушбу ячейкалар таркибида Ташкилий бюрони хабардор қилган ҳолда материаллар тайёрлаш таклифи бўйича қарор қабул қилган.

Съезднинг бўлажак иштирокчилари билан алоқа ўрнатиш ва тайёргарлик ишларининг бориши ҳақида вақти-вақти билан маълумот бериш, шунингдек, съездга оид асосий маърузаларни ёритиб бориш мақсадида тегишли ахборотномани чоп этиб бориш зарурлиги ҳам эътироф этилган.

Ташкилий бюронинг съезд муҳокамаси учун тақдим этилган маърузаларни кўриб чиқиш ҳамда Тошкент шаҳридаги мавжуд ва қурилаётган станцияларга экскурсия уюштириш бўйича комиссияларини тузиш ҳам зарур деб ҳисобланган[3; 593].

1930 йилда Тошкентда ўз ишини бошлаган съездда Совет Иттифоқининг йирик энергетика марказлари мутахассислари ўз тадқиқот ишлари билан иштирок этишган. Анжуман ишида профессор И.Г. Александров, Шарбатов ва И.Я. Каминский тадқиқот

ишлари жумладан, лойиҳа ва схемалари билан иштирок этганлар. Профессор Мухин Ўрта Осиё нефть ресурсларини аниқлаш, уларни баҳолаш ҳақида тўхталиб, бу борада бой энергетик ресурс, асосан гидроэнергетика ва нефть конлари ҳақида аниқ фактик материалларни тақдим этган[4; 4].

Съездда ВКП(б) МК ва ВКП(б)нинг Ўрта Осиё бюроси МК секретари К.Я. Бауман сўзга чиқиб, нефть МТС, Ҳарбий-денгиз флоти учун муҳим эканлигини инобатга олиб, Ўрта Осиёда энергетика ишлаб чиқариш учун кўмрдан фойдаланиш зарурлигини уқтириб ўтган.

СредазЭКОСО раиси М.Ф. Болдирев маърузасида мамлакатда электр энергия ишлаб чиқариш камлиги, Ўрта Осиёда ҳам Америка, Германия, Англиядаги каби юқори ҳажмдаги электр станциялар барпо этиш имкони мавжудлигини, съездда эса электрлаштириш бўйича Ўрта Осиё ягона бош режаси лойиҳасини яратиш кераклигини, Совет Иттифоқи 5 йиллик режасининг 1-вариантида аҳоли жон бошига 150 кВтдан электр энергия тўғри келиши, бу кўрсаткични бошқа мамлакатлар билан солиштирганда жуда камлиги, мамлакат энергетикага кескин муҳтож, жумладан, Норвегияда аҳоли жон бошига 260 кВт, Канадада 262 кВт, Швейцарияда 940 кВт, Америкада 920 кВт электр энергияси тўғри келишини маълум қилган[4; 10-14].

Нотиқ ўз сўзида ушбу муҳим муаммоларини ҳал этишда профессор И.Г. Александров тадқиқот лойиҳасини илгари суриб, лойиҳада асосан кўпроқ гидроресурсларга урғу берилганлиги, у Чирчиқ, Норин дарё ҳавзаларида ҳосил бўладиган энергияни тадқиқ қилганлигини таъкидлаган. Лойиҳа устида чуқур иш олиб борилиб, куз ойида объект қурилишини бошлаш лозимлиги, Чирчиқ ГЭСидан олинadиган электр энергия район, шунингдек, бутун жанубий Қозоғистон рангли металлургиясини ўзлаштириш учун ўта муҳимлиги, “Чирчиқ электр станцияси Тошкентдаги бутун саноат тармоқларини электр энергия билан таъминлаб, Чирчиқ эса Ўрта Осиё республикалари ичида дастлабки, аммо тараққий этган асосий азот ишлаб чиқарувчи районга айланиши”[5; 10-14] таъкидланган.

И.Г. Александров иккинчи ресурс сифатида геологик кўмир ресурсларини кўрсатган. 1927 йилда 334 млн т кўмир қазиб олинган бўлса, 30-йилларнинг бошида 2,370 млн тоннани ташкил этиб, 7 баробарга ошган. 1930 йилда Фарғона ТЭЦида 2 та агрегатнинг ишга туширилиши маҳаллий тошкўмир билан ишлайдиган ИЭСлар қурилишини бошлаб берган[6; 344].

Учинчи ресурс бу – нефть бўлиб, профессор Мухин маълумотларига кўра, Фарғона области нефть ресурси 45 млн тоннани ташкил этади. Ўрта Осиё республикаларида нефть ресурслари 1930–1931 йил бошига келиб, 2 та нефть кони (Фарғона области ва Ғарбий Туркманистон) ҳисобига кўпаяди.

Иттифоқ давлат режа комитети вакили Кузнецов маърузасида ушбу бош режа катта меҳнат талаб этишини, Ғарбий Европа ва Америка электротехникаси 400 минг в. электр энергия босимини ташкил этаётгани айтилади.

1930 йил Берлин конгрессида Оскар Оливен Европанинг ягона юқори вольтли тармоғини белгилаб берган. Бундан келиб чиқиб, Иттифоқ энергия ресурслари асосида марказлашган схема лойиҳасини яратиш, бунда арзон манба дарёлар бўлиб, гидроресурслар ягона юқори босимли энергия тармоғини ҳосил қилиш учун биринчи ўринда туриши билдирилган[1; 110].

Айтиш жоизки, Ўрта Осиёни электрлаштириш лойиҳаси жуда пухта ишлаб чиқилиб, бу лойиҳа асосида Ўрта Осиё республикалари тўлиқ электр энергияси билан таъминланиши, минтақа асосий энергия тармоғи Чирчиқ ва Чотқол ва Норин ҳавзаси, Вахш ва Зарафшон, Чу воҳаси ва Или дарёсида яратиладиган гидростанциялардан иборат бўлиши, бу гидроресурслар орасида Чирчиқ Чотқол ҳавзаси энг кўп сувга эга ҳавза эканлиги ҳисобга олинган.

И.Г. Александров лойиҳаси ГЭС қурилиши асоси ҳисобланиб, бири Чирчиқ-Чотқол дарёсида, 10 га яқин мосламалар лойиҳалаштирилган бўлиб, унинг энг баланди Терс дарёсининг Чотқолга қуйилиш жойида ўрнатилиши лойиҳалаштирилган. Ундан 42 минг кВт электр энергия ҳосил қилиш мумкин эди. Чотқол гидростанцияси қуйи оқимида Чотқол дарёсига келиб қуйиладиган бошқа бир дарё бўйида 2 та гидростанция қурилиши лойиҳалаштирилди.

“Гидроэлектрострой” вакили И.Я. Каминский Ўрта Осиё бош режасини лойиҳалаштиришда нафақат ўша ҳудуд районларини, келгусида Мирзачўл районларини қамраб олиши, бу тармоқларни Жиззах ва Самарқандгача чўзишни ҳам ҳисобга олиш кераклигини, кейинчалик Амударё электр станцияларини лойиҳаларини ҳам белгилаб олиш, айниқса, 100 минг кВт қувватга эга бўлган Туямўйин электр станциясини ҳисобга олиш кераклигини билдирган[4; 132]. Бу лойиҳалар аввало республиканинг қўриқ ерларида қишлоқ хўжалик экинлари, энг аввало пахта майдонларини кенгайтиришга ҳам ёрдам бериши мўлжалланган.

Съезд иштирокчиларининг хулосаларига кўра, Ўрта Осиёни электрлаштириш Иттифоқ бош электрлаштириш режасида асосий ўринда бўлиши, чунки Ўрта Осиёнинг энергия ресурсларга бой ва шароити шунга мос келиши таъкидланган бўлса ҳам, амалда бу жараён ўша паллада ҳам, ундан кейинги даврда ҳам Россиянинг марказий районлари, Украина бошқа ҳудудларга қараганда анча орқада бўлиб келди.

Шундан келиб чиқиб, съездда Ўрта Осиёнинг электрлаштирилиши бош режасига И.Г. Александров схемаси асос бўлиши лозим деган хулосага келинди. Чунки И.Г. Александровнинг электрлаштириш лойиҳасида гидроресурслардан юқори даражада фойдаланилганлиги, уларни энг кўп тадқиқ қилинган маъдан конлари билан мос келиши, электр станцияларнинг жойлашиши ва станциялар ҳимояси талабларига мос келиши, иссиқлик станцияларида захира энергия қуввати таъминланганлиги, йирик энергия марказларини юқори вольтли узаткичлар билан боғланганлиги, энг муҳими схемада электр қурилиш ўлчами 5 млн кВтни ташкил этиши кўрсатилди. СССРнинг иккинчи беш йиллик режасида Ўрта Осиёда 2-3 млн кВт электр энергия ишлаб чиқиши мўлжалланган.

Съездда Ўрта Осиёнинг ҳамма аҳоли пунктлари (Қорақалпоғистон ва Хоразм, Туркманистон, Зарафшон воҳаси районлари)ни электрлаштириш қамраб олинмаган. Бунга сабаб, аввало ёш совет давлатининг молиявий аҳволи имкон бермаганлиги, шунингдек, ушбу ҳудудларда саноат тармоқларининг камлиги ва борларининг ҳам қуйи даражада эканлиги, аҳоли эса бу ерларда сийрак яшаши деб изоҳлаш тўғрироқ бўлади.

Ўрта Осиё энергетика I съезди йиғилишининг стенограмма ҳисоботида “1931 йилдаёқ СССРнинг пахта мустақиллигини таъминлаш зарурияти партия ва ҳукуматнинг сиёсати эканлиги, 1926 йилга қадар Тошкент шаҳрининг асосий электр энергия таъминоти трамвай дизель станциясининг иккита кичик қувватли

станциялари ҳисобига баҳоли қудрат қондирилгани” [7; 2], съезд делегати Л. Захаров эса “Тошкент райони Фарғонадан фарқли ўлароқ аҳолиси ва саноати битта марказ – Тошкентда жамлангани, унинг атрофида алоҳида саноат корхоналари жойлашгани, бу эса Тошкент райони электр тизими схемаси Фарғона водийси тизимидан кўра бошқача хусусият касб этиши” [7; 34], мутахассис Русак “Хонадонларни иситиш, овқат тайёрлаш, ҳаммомлар, кирхоналар, касалхоналарни иситиш битта марказий райондан амалга оширилиши шартлиги, шунинг учун қишки мавсум (4-5 ой)да қўшимча сарф бўлишидан юқори кучланишли қурилмаларга эга бўлишлик ва бунда яхши гидростанцияники каби нархда буғдан дастлабки қувват олиш” [7; 40] каби мулоҳазаларни илгари суришган.

I Энергетика съезди қишлоқ хўжалигини электрлаштириш секцияси қабул қилган резолюциясида қишлоқ хўжалигини электрлаштиришни ривожлантиришнинг биринчи жуда муҳим босқичи бўлган қишлоқ хўжалигини электрлаштириш секциялари ишининг натижалари шуни кўрсатадики, тармоқни электрлаштириш каби мураккаб муаммони имкониятлар доирасида тўлиқ ҳал қилиш йўллари ҳали ҳам топилмаган.

Р.Р. Циммерманнинг “Ўрта Осиёда шамол энергиясидан фойдаланиш масалалари” маърузаси бўйича съезд қабул қилган резолюцияда шамол каби арзон энергия манбасининг аҳамияти ва долзарб эканлигини ҳисобга олиб, уни Ўрта Осиёнинг энергетика иқтисодиёти балансига киритиш, маърузада келтирилган унинг ресурслари ҳақидаги дастлабки маълумотларга асосланиб, Ўрта Осиёда шамол энергетикасини ривожлантириш учун етарли даражада, зарурият деб қайд этилган бўлса-да, бу таклифлар кейинги бир неча ўн йилликларда ҳам амалга ошмади [8; 6].

Ўрта Осиёда қуёш энергиясидан фойдаланиш бўйича резолюцияда 1931 йил учун Гелиотехника лабораториясининг вазифасига қуйидагилар кирган:

1) Ўрта Осиёдаги қуёш қурилмалари бўйича тажриба-синов ишлари, уларни ҳар томонлама синовдан ўтказиш ва конструкциясини такомиллаштириш.

2) бу вазифаларнинг барчаси илмий-тадқиқот ишларини Тошкентда махсус ташкил этилган Бутуниттифоқ иссиқлик-техник институти филиалида ёки Ўзбекистон Гидрометеорология институтида жамлашни талаб қилади [9; 65].

Хулоса. Тарихий адабиётлар ва архив ҳужжатларида Ўрта Осиё республикалари энергетика саноати бутуниттифоқ кўрсаткичларидан жуда паст даражада эканлигини тасдиқлайди. Шунингдек, минтақа энергетикаларининг I съездида кўтарилган масалаларнинг аксарияти амалга оширилмаганлиги боис бу каби анжуманнинг навбатдагиси ўтказилмаганлигини тахмин қилишимизга имкон беради.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. ЎзМА Р-837-фонд, 32-рўйхат, 410-йиғмажилд.
2. ЎзМА Р-837-фонд, 8-рўйхат, 67-йиғмажилд.
3. Саидбобоева Г. Ўзбекистон ҳудудида электр энергетика иншоотларининг бунёд этилиш тарихи // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. Халқаро симпозиум материаллари. – Тошкент, 2023.
4. ЎзМА Р-10-фонд, 1-рўйхат, 115-йиғмажилд.
5. Электрификации Средней Азии. Труды Первого Средне-азиатского энергетического съезда. Т. I. Ч. 1. – М.–Л.: Гос. научно-техническое изд-во, 1931.
6. Сафаев А.С. К вопросу о развитии тяжелой промышленности Советского Узбекистана // Очерки по истории народного хозяйства СССР. Сборник статей. – М.: Гос. изд-во политической литературы, 1959.

7. ЎзМА Р-9-фонд, 1-рўйхат, 11122 а-йиғмажилд.
8. Saidboboeva G.N. The History of Construction of Some Electric Power Station in Uzbekistan SSR // International Conference on Innovations in Applied Sciences, Education and Humanities. – Barcelona, Spain. 2023.
9. ЎзМА Р-9-фонд, 1-рўйхат, 1107-йиғмажилд.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

LANDSCAPE AND HISTORICAL GEOLOGY OF KYZYLQUM

Muminov Orifxuja,

Doctoral student of the National Archeology Center of
the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Abstract. In this article, the author gave information about the stage of development of anthropogenic factors depending on the environment in the part surrounding the Khorazm oasis and the Lower Zarafshan regions of the Kyzylqum desert in the ancient and middle ages and briefly touched on the history of the study.

Keywords: Kyzylqum, landshaft, Ustyurt, Amudarya, Sirdarya, Aydarkul, Nurota, Mirzachel, Sandikli desert, Markaziy Fergona desert, Orolqum, Sizot, Pleystotsen, Golotsen.

QIZILQUMNING LANDSHAFTI VA TARIXIY GEOLOGIYASI

Muminov Orifxuja,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
Milliy Arxeologiya Markazi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Muallif ushbu maqolada qadim va o'rta asrlarda Qizilqum sahrosi Xorazm vohasini va Quyi Zarafshon hududlarini qurshab olgan qismida antropogen omillarining atrof-muhitga bog'liq holda rivojlanish bosqichi to'g'risida ma'lumotlar bergan va o'rganilish tarixiga qisqacha to'xtab o'tgan.

Kalit so'zlar: Qizilqum, landshaft, Ustyurt, Amudaryo, Sirdaryo, Aydarko'l, Nurota, Mirzacho'l, Sandikli cho'l, Markaziy Fergona cho'li, Orolqum, Sizot, Pleystotsen, Golotsen.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N06>

Inson paydo bo'libdiki, u murakkab tabiat hodisalarining sirlarini bilishga hamisha qiziqib kelgan va yerimiz bilan bevosita bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilishda o'z xizmatlarini bosqichma-bosqich tarzda davom ettirib, yer shari haqidagi tasavvurini kengaytirib bormoqda. Bu o'rinda geologiya fanining roli muhim bo'lib, u o'zida yer sharining kelib chiqish tarixi va uning noyob mahsulotlari haqida qiziqarli ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Jumladan geologiya yerning paydo bo'lishi, sayyoramizning yoshi, yer po'stining shakllanishi, geologik vaqt, dinozavrlar, toshqotgan hayvonlar va o'simliklar hamda foydali qazilmalar haqidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi.

O'zbekiston tabiiy-ekologik sharoitining turli-tumanligi, uning o'simlik va hayvonot dunyosining ko'p turli bo'lishiga xizmat ko'rsatadi. Shimolda Ustyurt platosining quruq va bepoyon dashtli landshafti, janubi-sharqda baland tog' landshaftlarining qorli cho'qqilari, shimoli-sharqda qumli Qizilqum landshafti cho'zilib yotibdi. Tog' landshaftlaridan katta va kichik daryolar orqali oqib tushayotgan suv tarmoqlari hududlarga yoyilib, muhit landshaftiga ta'sir ko'rsatadi. Suvsiz qumli cho'l landshafti va tog'-o'rmon landshaftlari yoki daryo vodiylarining ekologik sharoiti o'simlik va hayvonot olamining hayot kechirishi uchun bir xil

emas. Shunga ko'ra har qaysi hudud landshafti uchun ma'lum bir sharoitga moslashgan o'simlik va hayvonlarning ayrim turlari xarakterlidir. Biroq, shunday o'simlik va hayvon turlari ham borki, ular har qanday ekologik sharoitga ega landshaftlarda o'sadi va yashaydi. Bunday moslanish mazkur turlarning hudud bo'ylab keng tarqalishiga imkon beradi.

O'rta Osiyoda olib borilgan geologik tadqiqot ishlari yig'ilib qolgan muammolarni hal qilishda yechim bo'lib xizmat qildi, xususan XX asrning boshlarida mutaxassis olimlar tomonidan olib borilgan jadal tadqiqotlar, dasht-cho'l mintaqalari to'g'risida muhim va foydali ma'lumotlar qo'lga kiritildi.

Qizilqum haqida qisqa ma'lumotlar o'rta asr savdogarlarning yozuvlarida topilgan bo'lsa, undan keyin ham bu atroflarda bir necha ilmiy va harbiy ekspeditsiyalar ishlar olib borilgan. Ular asosan geografik kartalar tuzish, o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish, suv qidirish va boshqa ishlar bilan band bo'lgan.

Qizilqum cho'lining tabiiy chegaralanishi ikki yirik daryoning o'rta oqimida, ya'ni uning g'arbida quyi Amudaryo, sharqida Sirdaryo va Aydarko'l, janubiy-sharqda Nurota tog'lari va uning tizmalari, shimoliy-g'arbda qurib qolgan Orol dengizining qumliklari (Orolqum) bilan chegaralangan. Relyefi tepalik va qum tizmalaridan iborat. Qizilqum cho'li 300 ming km² maydonni egallagan bo'lib kattaligi jihatdan O'zbekistonda birinchi, O'rta Osiyoda ikkinchi, Osiyoda beshinchi, er yuzida 17-o'rinda turadi. O'zbekiston hududida Qizilqumdan tashqari Mirzacho'l, Sandikli cho'l, Markaziy Farg'ona cho'li, Orolqum (yangi), Ustyurt platosi kabi qumliklar bor lekin ularni hammasini maydonini qo'shganda Qizilqum maydoni kabi bo'la olmaydi. Qizilqumning 70% O'zbekiston hududiga (Navoiy, Xorazm, Buxoro, Jizzax viloyatlarida) qolgan qismi Qozog'iston (Qizilo'rda va Turkiston viloyatlari) va Turkmaniston (Turkmanobod viloyatining bir qismi) hududiga to'g'ri keladi.

Qizilqumning tekisligi janubi-sharqdan shimoli-g'arbga qarab qiyalashib boradi, uning nishabligi 300 m dan 100 m gacha etadi. Cho'lining o'rtacha mutlaq balandligi 200-300 m bo'lsa, janubi-sharqda 350-400 m, shimoli-g'arbda esa 90-100 metr ga tushib qoladi[1;157]. Cho'lining katta qismini yarim qo'zg'almas qumlardan hosil bo'lgan qum massivlari egallagan bo'lib, uning shimoliy qismida asosan qum barxan uyumlarini, janubida qum tekisliklarni kuzatish mumkin.

1927-1928-yillari I.P.Gerasimov va P.K.Chixachevlar Qizilqumning tog'li rayonlarini geologik tekshirish ishlarini olib boradilar. Ular tomonidan shu hududning geologik xaritasi tuziladi va tog' jinslari batafsil o'rganiladi. Markaziy Qizilqumda ko'plab mayda tog'lar uchraydi, ular Bukan-tau (balandligi 764 m gacha), Kuldjuktai (785 m), Tamditau (974 m) va boshqalar mavjud. Tog' tizmalarining nisbiy balandligi 3 m dan 30 m gacha, maksimali 75 m gacha etadi.

XX asrning boshlaridayoq I.V.Mushketov, V.A.Obruchev: "Qumlar umuman dengiz va daryolardagina bo'lmay, ular har-xil tog' jinslarining yemirilishidan – nurashidan ham paydo bo'ladilar", deb aytgan edilar. Keyinchalik tadqiqotchilar tomonidan Qizilqum cho'lining paydo bo'lishi to'g'risida ko'plab tadqiqot ishlari olib borildi va kerakli ma'lumotlar qo'lga kiritildi.

Hududning Qizilqum deb nomlanishiga sabab, cho'l qumining asosiy qismi qizil rangda ekanligidir. Haqiqatdan ham ular ko'pincha qizil va och qizil ranglarda uchraydi. Hozirda dengiz sathidan 600-800 m balandlikda joylashgan pasttekislikdagi Markaziy Qizilqum va undagi tog'larning yon-bag'irlari yuqori bo'r va paleogen geologik davrlarida qadimiy Tetis dengizining osti va qirg'oqlari hisoblanadi, shu yerlarda mayda zarrali qum va gillar yig'ilgan. Neogen davri boshlariga kelib, Qizilqum hududidan dengiz, g'arbga tomon butunlay chekinadi. So'ngi geologik davrlarda qadimiy qumli jinslar yemirilib, suv, shamol ta'sirida oqiziladi,

uchiriladi va saralanib, hozirgi Qizilqum cho'lini paydo qiladi. Ularning orasidagi temir birikmalari oksidlangach, barxan qumlarini qizil rangga bo'yaydi[4;117].

Qisqacha qilib aytganda tog'lardagi qizg'ish jinslarning nurashidan hosil bo'lgan qoldiq qumlar tufayli keng dalalar qizg'ish rangni oladi. Qizilqumning janubiy qismida esa qumlar rangi to'q kulrangda. Bu qumlar Zarafshon daryosi oqizib kelgan yotqiziqlardan hosil bo'lgan va qizil tuproqlar bilan aralashmagan.

Qizilqumning markaziy qismida daryo oqimi uchramaydi lekin uning chegara qismida Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryosini quyi qismi, Yangi (yani, jana) daryo, Quvondaryo va ularning irmoqlaridan iborat kichik suv tarmoqlari oqadi.

Qizilqumning katta qismida yer usti suvi oqmasa-da, lekin chuchuk bosimli yer osti suvlarining zaxiralari mavjud (sizot suvi) va bu zaxiralardan chorvadorlar quduqlar yordamida foydalanib keladi. Qizilqum asosan mo'tadil cho'llarning o'rta zonasida, janubda subtropik cho'llarga o'tish zonasida joylashgan.

Pleistotsen davrida tropik-subtropik mintaqalarda mo'tadil nam havo hukmron bo'ladi, sahrolar yo'qoladi. Muzlash davrida tundraga xos sharoit Fransiya janubigacha yetib boradi. Jumladan Sirdaryo vohasidan yuqori paleolitga oid mamontlar suyaklari topilgan. Bu davrda muzlash davri 100-120 yil davom etadi. Oxirgi muzlash davrida jahon okeanining harorati hozirgiga nisbatan 2-6 gradusga pastroq bo'lganligi aniqlangan. Qit'alarda harorat farqi 20 gradusga boradi. Mutaxassislarning hisob kitobiga ko'ra Sirdaryo havzasining o'rtacha qishki harorati muzlash davrida -19 gradusga, yozgi harorati +4 ga teng bo'lgan[5;21].

Pleistotsenning so'nggi va golotsenning birinchi bosqichlari yetarli darajada o'rganilgan. Golotsen davri sharoitida asosiy yutuqlari chorvachilik va dehqonchilik negizida sivilizatsiyaning iqtisodiy poydevori yaratiladi. Amudaryo havzasida mil. avv. 8-7 ming yilliklardan boshlab, turli o'simliklarni xonakilashtirish boshlanganligini ko'rish mumkin. Bu davrda harorat ancha issiq va seryomg'ir bo'lgan, Afrika sahrosida ham yiliga 300-400 mm yomg'ir yog'gan.

Golotsen davri tugashi bilan hozirgi davr iqlimi shakllanadi. Muzliklar shimolga chekinib, hozirgi davr turli kengliklarga xos o'simlik va hayvonot dunyosi shakllanadi[5;25]. Doimiy iliq iqlimning davomiyligi, ko'p yillik muzliklarni eritib katta suv havzalarini hosil qiladi.

Markaziy Qizilqumda ko'plab kichik ko'llarni kuzatish mumkin, sababi so'ngi pleystotsenning dastlabki bosqichida Qizilqum cho'lida nam va salqin iqlim sharoitlari hukmron bo'lgan. Bu davrda botiqlarning chuqurlashuvi jarayonlari to'xtaydi va yerosti suvlari yuqoriga ko'tariladi. Yerosti suvlarining umumiy mineralizatsiya jarayonlari kamayadi va tarkibi ham o'zgaradi. Qizilqumning ayrim yirik botiqlarida yer osti suvlarining intensiv to'yinishi va yer usti suvlarining doimiy ravishda kelib tushishi oqibatida ushbu hududlarda uncha katta bo'lmagan ko'llar guruhi vujudga kelgan[6; 78].

Qizilqum okrugining markaziy qismida joylashgan botiqlarning tagi qumdan iborat bo'lib, ustki qismi taqir yoki sho'rxoklar bilan qoplangan. Bu botiqlarning eng kattalari Bo'kantog'ning janubida dengiz sathidan 12 m pastda joylashgan Mingbuloq, Yetimtog'ning janubiy-sharqida joylashgan Mo'llali, Ovminzatog' bilan Qozoqtog' orasida joylashgan Qoraxotin, Quljatog'ning janubi-sharqidagi Oyoqog'itma botiqlaridir. Bu botiqlarni har birining uzunligi 40-50 km ga yetadi[3;157].

S.P. Tolstov [7;321] va A.S. Kes [8;97-106] fikricha, golotsen davrida O'rta Osiyo tekisliklarida iqlimning o'zgarmaganligi haqida aytib o'tadi. Ularning fikricha, qadimgi va o'rta

asrlarda insoniyatning ushbu hududlarga migratsiya qilishi tabiiy emas, balki ijtimoiy sabablar bilan bog'liqdir. Bu jarayonlarda asosan o'zaro urushlar, feodal munosabatlar va hakozolar asosiy rol o'ynagan, deb hisoblaganlar. Biroq, ijtimoiy inqirozlar ancha keyingi tarixiy bosqichlarda paydo bo'lib, mezolit va neolit davrlariga aloqador emas. Shuning uchun aholining ko'chish jarayonlarini faqat ijtimoiy sabablar bilan bog'lash noto'g'ri bo'lar edi [9; 216-219].

Keyinchalik A.V. Vinogradovning tadqiqotlari – yer yuzida O'rta Osiyo tekisliklaridek odamzod tomonidan o'ta zich joylashgan hududlarni topish qiyin va bu holat tabiiy sharoitlar bilan bog'liq edi, degan xulosalarga olib keldi. O'z fikrini tasdiqlash uchun A.V. Vinogradov arxeologiyada ma'lum bo'lgan quyidagi dalillarni keltiradi:

1. O'rta Osiyo cho'llarida aniqlangan va yaxshi o'rganilgan paleolit davri yodgorliklari o'rta paleolitga xosdir;
2. Ushbu hududlarda so'nggi paleolit davri yodgorliklari deyarli aniqlanmagan;
3. Mezolitning oxiri va neolit (X-VIII ming yilliklar) davrining boshlarida Qizilqum, Qoraqum, Muyunqum, Shimoliy Qoraqum (Orolbo'yidan shimolroqda), Ustyurt platosi va boshqa joylar demografik portlash oqibatida u yoki bu darajada o'zlashtirilgan;
4. Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, faqatgina er. avv. III ming yillik oxiri va II ming yilliklarda ushbu cho'llardan aholi ko'chib ketishi boshlanadi [1; 172].


Mil. avv 3 ming yillikning o'rtalarida Yevrosiyo dashtlarida Yamniya, Katakomba, Andronova madaniyati chorvador aholisi otboqarlik san'atini dunyoga tarqatadi. Bu arxeologik madaniyatlari aholisi ko'chib yurishlari tufayli ularning madaniyatlarining farqlarini aholisi ko'milgan mozorlardan va g'orlardan topilgan buyumlarga qarab ajratilgan. Yamnaya — O'ra g'o'rlaridan foydalanganlar, Katakomba – lahadga ko'mish odatiga ega, Andronovo — Yog'ochdan qabr qilingan qabrlarga ko'milgan [5; 27]. Hozirda Qizilqum dashtlarida Andronovo madaniyatiga xos qabrlar ko'plab topilgan va ular tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda.

S.P. Tolstov shunday yozadi: 1938-yilgi tadqiqot ishlari davomida A.M. Terenojkin bilan qilgan piyoda qidiruv ishlarim vaqtida, Teshikqal'aning janubi-g'arbiy tomonidagi qumlar orasidan Qozog'iston va Sibirning Andronova madaniyati keramikasiga juda yaqin, Volga bo'yi kesma madaniyatiga esa, o'xshash bo'lgan bir necha sovurilgan makonlarning qoldiqlarini topildi [7; 86]. Bu Andronova madaniyatiga xos sopol idishlar O'zbekiston hududida ilk bor topilishi edi.

Eramizning I asrida O'rta Osiyo hududlarida birmuncha namgarchilik havo davom etadi, bunda avvalgi davrlarga nisbatan dehqonchilik yerlari kengayadi va dasht hududlarida chorvalarning soni ko'payadi, ammo eramizning IV-V asrlarda quruq havo, qahatchilik yuz beradi va dasht xalqlari ya'ni Xunlar Yevropa tomon ko'chishgan, bu tarixga "Yevropa xalqlarining buyuk ko'chishi" degan ibora bilan kirgan. Buning oqibatida Kushonlar saltanati, Rim, Xitoy imperiyalari inqirozga uchraydi. VI-VII asrlarda Yevrosiyo hududida namgarchilik oshib ob havoning nisbatan salqin ketish natijasida ko'chmanchilik sivilizatsiyalari davlatchiligi avjiga chiqib boshlaydi. Bu Turk xoqonligi davriga to'g'ri keladi. Eramizning 1 ming yilliklarning oxirlarida iliq iqlim hukm surgan bo'lib, manbalarda Amudaryoning yuqori oqimida bog'dorchilik ekin navlari ko'paya boshlaydi. XI asr boshlarida Orol va Kasbiy hududida harorat o'zgarishiga qarab kengayib yoki torayib turgan. XIII-XIX asrlarda kichik muzlik davri yuz berib, beqaror sovuq iqlim butun O'rta Osiyo davlatlariga ta'sir ko'rsatadi. Hisob-kitoblarga ko'ra kichik muzlash davri boshlangan so'ng harorat 1,5 gradusga pasayadi. Bu albatta dehqonchilik

mahsulotlarini yetishtirish ulishini kamayishiga olib keladi, lekin o'simliklar dunyosini tog' va dasht hududlarida kengayishiga sabab bo'ladi. Bu davrda iqlimning o'zgarishi shimoliy hududlarda (Yevropa va Rossiya hududlarida) ocharchilikni olib kelgan. XII asrda harorat bugungiga nisbatan 2.5 gradus baland bo'lgan lekin yog'ingarchilik 150 mm balandroq bo'lgan. Bu vaqtda sahrolarda ko'plab o'simlik turlari ko'payadi va Kasbiy maydoni kengayib sovuq qish sellari ko'payadi. O'rta Osiyoda XVI asrga kelib harorat hozirgiga nisbatan 1 gradusga ko'tariladi, yog'in kamayadi. Keyingi davrlarda ham harorat bugungiga nisbatan 1 gradus atrofida davom etgan, yog'in esa 100 mm, kam bo'lgan[5; 35].

Ma'lumki, tadqiqotchilar tomonidan Qizilqum va Qoraqum cho'li uzra qadimda Tetis dengizi bo'lganligi ko'p bor ta'kidlangan. Dengiz bundan 30 million yillar ilgari ya'ni, paleogen davrining oxirigacha mavjud bo'lganligi isbotlangan. Keyingi davrlarda dengiz suvlari, g'arbga qarab chekinib o'z o'rnini qum tekisliklariga bo'shatib berib o'ziga xos tabiiy landshaftni yuzaga keltirgan. Qizilqum hududida uzoq vaqt olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida mintaqani eng qadimgi odamlar tomonidan o'zlashtirilganligi isbotlandi. Bu shuni ko'rsatadiki Qizilqumda qadimdan inson faoliyati uchun yetarlicha shart-sharoit bo'lgan va bosqichma-bosqich uzoq yillar davomida bu hududlarda o'z makonlarini yaratib yashab kelishgan. Hozirda ham Qizilqum hududida yashash og'ir bo'lsada, chorvadorlar o'z podalari keng qumli dalalarda boqib yashashda davom etmoqda.



Qizilqum cho'lining umumiy maydoni



Tetis dengizi. Kaspiy va Orol dengizlarining yaxlit holda bo'lganligi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья // ТХАЕЕ. XIII. М., 1981;
2. Архангельский А.Д. Из геологических наблюдений в пустыне Кызылкумы // Известия Докучаевского почвоведческого комитета. № 3. 1915.
3. Виноградов А.В. Мамедов Э.Д. Стратиграфия четвертичных отложений низовьев Зеравшана и Юго-Западных Кызылкумов в свете новейших геологических и археологических исследований // Бюлл. Комиссии по научн. исслед. четвертичного периода. М., 1972.
4. Зокиров М, Ишназаров Н. Қизиқарли геология. Тошкент 1979.
5. Сулеймонов Р.Х. "Полеоэкология ва цивилизация динамикаси" Тошкент-2017
6. Мамедов Э.Д. Экология человека в каменном веке в пустынях Средней Азии \ \ Культура и искусства древнего Хорезма. М., 1981.
7. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М., 1962.
8. Кес А.С. Палеогеография Аралского моря в позднем плейстоцене и голоцене // Палеогеография Каспийского и Аралского морей в кайназое. М., 1983.
9. Трофимов Г.Н., Трофимова Ю.Г. Климатическая ситуация и условия обитания древнего человека на равнинах Средней Азии в голоцене. Ташкент, 2006.
10. Толстов С.П., "Қадимги Хоразм маданиятини излаб" Тошкент 1964.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

**HAJI BEKTOSH VALI – PHILOSOPHER OF MUTASAWUF.
HAJI BEKTOSH VALI COMPLEX: HISTORY AND SIGNIFICANCE TODAY**

Avalova Gulshod Murodullayevna,
Tashkent State University of Economics
Associate Professor
Email: gulshod_avalova@gmail.com

Abstract. In this article, Haji Bektosh Vali is known as a mystic, scientist and Islamic philosopher and historical figure who occupies an important place in the Turkic world, his services in the direction of Eastern mysticism, his role and significance are described. It also analyzes the history of the construction of the Hadji Bektosh Vali complex, which was built in order to appreciate his name and heritage, and that this complex deserves special respect and attention.

Keywords: bektash narratives, Haralambos (Haralambos), Rum, Anatolia, monastery, Kyzyl Khalvet, serchesme, Semakh ritual.

**HOJI BEKTOSH VALI – MUTASAVVUF FAYLASUF.
HOJI BEKTOSH VALI MAJMUASI: TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI
AHAMIYATI**

Avalova Gulshod Murodullayevna,
TDIU “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hoji Bektosh Vali mistik, mutasavvuf, olim va islom faylasufi sifatida tanilgan va turk dunyosida muhim o‘ringa ega bo‘lgan tarixiy shaxs ekanligi, uning sharq tasavvufchilik yo‘nalishidagi xizmatlari, tutgan o‘rni va ahamiyati haqida bayon etilgan. Shuningdek, uning nomini va merosini qadrlash maqsadida qurilgan Hoji Bektosh Vali majmuasining barpo etilishi tarixi, hozirda ushbu majmua alohida hurmat va e‘tiborga sazovor ekanligi to‘g‘risida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: bektoshiy rivoyatlari, Xaralambos (Charalambos), Rum, Anadolu, monastir, Qizilcha Halvet, serchesme, semah marosimi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N07>

Kirish. Ma‘lumki, tarixda XIII-XIV asrlar mobaynida o‘z imperiyasini tuzgan hamda butun dunyoda o‘z nomini qoldirishga sazovor bo‘lgan Usmoniylar sulolasi hozirgi Turkiya hududida o‘z davlatchiligini e‘lon qildi. Usmoniylar imperiyasi nafaqat o‘z hududi, harbiy yurishlari bilan, balki ilm-fanga qo‘shgan hissasi bilan ham tarix sahifalarida alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Usmoniylar orasida tasavvuf deb atalgan, katta, konservativ diniy muassasa, Qur‘on va shariat qonunlariga asoslangan ta‘lim tizimiga qaramay, Usmonli jamiyatining bir qismiga aylangan edi. Uning negizida komil inson yoki avliyo bo‘lish va ko‘p

hollarda ilohiy haqiqat yoki Xudo bilan birlashishga erishish mumkin bo'lgan yo'l borligi g'oyasi ilgari surilgan edi.

Tasavvuf ta'limoti paydo bo'lgan davrlarda insonlar va hukmron doira vakillari tomonidan dastlab ijobiy qabul qilinmagan bo'lsada, asrlar davomida so'fiylar ta'limoti ko'plab xalqlar orasiga tarqalishga erishdi hamda insonlar tomonidan vaqtlar o'tishi natijasida sekin-astalik bilan qabul qilina boshlandi. Keyinchalik esa, bu tariqat yo'li fan va adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Hatto diniy idora a'zolari ham bu guruhlarga qo'shilishdi. Natijada ikki maktab paydo bo'ldi – ekstaz va ilohiy sevgiga asoslangan Eron tasavvufi va zohidlikka asoslangan Iroq maktabi. Bir qancha mazhablar Anadoluning katta qismini Salchuq turklari tomonidan bosib olingandan so'ng va Usmonlilar Usmon boshchiligida kuchini kengaytira boshlagan 1299-yilga kelib o'z ta'limotlarini targ'ib qila boshladilar[6].

Usmonlilar imperiyasida bir qancha tasavvuf tariqatlari, jumladan, Bektoshiya, Halvetiy, Mavleviy, Rifoiy, Qodiriy, Naqshbandiya va Bayramiylar mashhur edi.

Bektoshiya tariqat yo'liga asli fors bo'lgan Hoji Bektosh Vali tomonidan asos solingan. U Anadoludagi qishloqlarda ham, Usmonli harbiylarida ham izdoshlarini ko'paytira oldi. Aslida, Bektoshiylar Usmonli qo'shinining mashhur korpusining rasmiy mazhabi edi. Ular janubiy Bolqonda ham mashhur bo'lib, u yerda hali ham izdoshlari bor[6].

Hoji Bektosh Vali (taxminan 1209–1271) Anadoluda yashab dars bergan Xurosonlik sayyid va faylasuf. Uning asl ismi Sayyid Muhammad ibn Sayyid Ibrohim Ato edi. Uni “Qalblar sultoni” va “Darveshlar darveshi” deb ham atashadi.

U alaviylar orasida islomni bir vaqtning o'zida ezoterik, mantiqiy va gumanistik tushungani uchun hurmatga sazovor bo'lgan. U Rum sultonligi davrida gullab-yashnagan va Kichik Osiyoning Anadolu ko'chmanchilari madaniyatiga muhim ta'sir ko'rsatgan ko'plab arboblardan biri edi.

Bektosh asosan eron yoki turkiy deb hisoblanadi. Bektosh mo'g'ul istilolari davrida vatanlarini tashlab ketgan Anadoludagi Xurosonlik muhojirlar guruhiga mansub edi[1; 116-b].

Viloyat nomiga nisbat berilgan degan nazariyaga kelsak, Bektosh Muso al-Kozimning nevarasi Sayyid Muhammad ibn Musoning o'g'li; Bektosh XIII asrda yashaganini hisobga olsak, bu mumkin emas. Keyingi manbalarda topilgan, yaqqol vaqtinchalik bo'shliqni to'ldirish uchun mo'ljallangan nasabnomalarning barchasi shubhali bo'lib, ular safaviylarning nasabnoma soxtakorlariga o'xshab, Bektoshga shia tariqatining eponimini berish istagidan ilhomlangan bo'lishi mumkin.

Bektosh Nishopurda tug'ilgan. Ba'zi bektoshiy rivoyatlariga ko'ra, Bektosh turk cho'l ko'chmanchilariga katta ta'sir ko'rsatgan Xurosonlik mutasavvuf Xoja Ahmad Yasaviyning shogirdi va vakili bo'lgan. Bu iddao zamonaviy olimlar tomonidan rad etiladi, chunki Ahmad Yassaviy Hoji Bektoshdan qariyb yuz yil avval yashagan. U haqida kam narsa ma'lum; uning kelib chiqishi sirligicha qolmoqda va uning tarjimai holining aksariyat qismi afsonalarga asoslangan[4; 49-b].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Hoji Bektosh Vali bektoshiya tariqatiga e'tiqod qiluvchilarning ongini bektoshiylik g'oyalari bilan munavvar qildi, shuningdek u, dillar podshosi, tiniq mash'alaga aylandi va tarqoqlikka qarshi bag'rikenglik qadriyatlarini bilan ajralib turdi. U: “Bir bo'l, kuchli bo'l, omon bo'l!” deb chaqirdi. “Bilimdan o'tmaydigan yo'l zulmatdir” degan so'zlari bilan barchani birdamlikka, birodarlikka chorladi. U jamiyat va tinchlik va xavfsizlik muhitini yaratish, osoyishtalik xavfsizligini ta'minlashga bebaho yordam berdi. U

o'zidan ko'p ishlar, tasavvufiy she'rlar, ko'plab oltin so'zlarni qoldirdi. Uning "Velajetnoma", "Makalat", "Fevaidul Fukara" (Dobitë e Varfave), "Fotihosi tafsiri", "Hoji Bektosh nasihatlarini", "Bismillah sharhi", "Qirq hadis sharhi" kitoblari 800 yildan beri turk adabiyoti va tarixida o'chmas iz qoldirgan hamda hozirgi kunda ham qadrlanib kelinmoqda.

Muhokama. Hoji Bektosh Vali XIII asrning buyuk turk faylasufi, Anadoluda Xoja Ahmad Yassaviy ta'limotlarining tatbiqchisi va alaviylikning diniy tariqati bo'lgan bektoshiylikning eponimidir. Uning falsafasining asosi insonparvarlik, inson huquqlari va ijtimoiy tenglikka asoslangan bo'lib, u insonga kamtar bo'lishni, qalbini poklashni, kamolotni, o'zini ko'rsatishdan saqlanishni va Xudoga muhabbat bilan to'la bo'lishni maslahat beradi. Uning tamoyillari Anadoluda madaniy uyg'unlik va ma'rifatga olib keladi[3; 143-144-b].

Bektoshiylikning "Olam muhabbati-xudo-inson"ga asoslangan e'tiqod tizimi uning vafotidan so'ng butun Anadoluda tez tarqaldi. Bektoshi darveshlari ham ma'lum bir kamolotga yetganlaridan so'ng bektoshiylik insoniyatini dunyoga yoyish uchun dunyoning turli burchaklariga tarqaldi.

Shu bois bektoshchilik bugungi kunda nafaqat Hojibektoshda, balki ko'plab mamlakatlarda, xususan Bolqon va Yaqin Sharqda ham yashaydi.

14-asrda asos solingan majmua Markaziy Anadoluning markaziy Qizilirmak viloyatidagi Hajibektash tumanida joylashgan. Hoji Bektosh Vali Nishopurdan Xurosonga ko'chib kelganida, tumanning o'sha paytdagi nomi Suluchakarahoyuk, yillar davomida rivojlanib, kengayib borayotgan kichik bir qishloq edi. Hoji Bektosh Vali 1337-yilda vafot etganidan so'ng, insoniylik asosida barpo etgan bag'rikenglik muhitini xotirlash maqsadida bu nom o'zgartirildi[5].

Uzoq vaqt davomida o'zining shakllanishini yakunlagan bu qurilish majmuasi deyarli barcha tariqatlari bilan bugungi kungacha saqlanib qolgan nodir tariqat majmualaridan biri sifatida turk me'morchiligi tarixida muhim o'rin tutadi. Shunga qaramay, majmua ayrim bo'linmalarining qurilish muddatlari, ularni quruvchilarning shaxsi vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishlar sodir bo'lganligi yetarli darajada yoritilmagan. Ijtimoiy majmua taraqqiyotini bektoshchilik tarixida to'rtta asosiy davrda tekshirish mumkin.

Garchi, chet ellik yozuvchilar majmua Muqaddas Xaralambos (Charalambos) monastiri o'rnida tashkil etilganini da'vo qilishsa-da, buning to'g'riligi aniqlanmagan. Bu qarashlar asosan XVIII va XIX asrlarga tegishli ma'lumot hisoblanadi. Bu asrlarda bu yerga tashrif buyurgan xorijlik sayohatchilarning Hoji Bektosh Vali qabrini musulmonlar qatori mahalliy nasroniylar ham ziyorat qilganliklari va qabrni Aziz Haralambosning qarorgohi deb bilishlari bilan bog'liq bo'lsa kerak[3; 145-b].

Bunday davomiylik musulmon turklar tomonidan zabt etilgan nasroniy o'lkalarida, ayniqsa, xalqqa katta ma'naviy ta'sir ko'rsatgan avliyolarning qabri va uylarida tez-tez uchrab turadi. Ko'pincha bu davomiylik zamirida ko'rsatilgan avliyolarning mintaqani zabt etish va islomlashtirishga hissa qo'shishi, ayniqsa, mahalliy xalqning ziyoratgohlarida o'z uylari yoki uylarini qurish kabi an'anaviy urf-odatlar yotadi.

Shu nuqtai nazardan, Hoji Bektosh Vali, Anadoluda pravoslav tasavvufi eng kuchli bo'lgan Kapadokya hududida Vizantiya davridan qolgan bir monastir xarobalari ustiga o'z lojasini qurgan ko'rinadi. Biroq majmuada Vizantiya arxitekturasi xususiyatlarini aks ettiruvchi joy yo'q, Hojibektosh tumanida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar hali bu fikrni isbotlaydigan darajada emas.

Boshida kamtarona bir muassasa bo'lgan deb taxmin qilingan birinchi lojadan saqlanib qolgan yagona element, Hoji Bektosh Valiy tomonidan foydalanilgani va arxitektura xususiyatlariga ega bo'lgan Qizilcha Halvet nomli xususiy joydir. Bu mish-mishlarga mos keladi. Hoji Bektosh Vali maqbarasining janubiy devoriga tutashgan bu xususiy ziyoratgoh va qabr majmuaning o'zagi sifatida qabul qilinishi kerak.

Majmuaning faqat shaxsiy joydan iborat bo'lishi mumkin emasligi sababli, uning atrofida o'tmishda ibodat, suhbat, boshpana va tirikchilik ehtiyojlarini qondiradigan birliklar bo'lganligi shubhasiz. Biroq, Qizilcha Halvetdan tashqari, birinchi lojalarning me'moriy xususiyatlarini aniqlab bo'lmaydi[5].

Hoji Bektosh Vali maqbarasi, dizayni, kiraverishida va konusning etagida ko'rinadigan tosh bezaklari bilan Saljuqiy uslubini to'liq aks ettirgan, pir vafotidan ko'p o'tmay, uning nomi abadiylashtirildi, ya'ni XIII asrda uning nomini e'zozlab ushbu majmua qurilgan. Aytish mumkinki, u asrning oxirgi choragi boshida qurilgan.

Maqbaraga kiraverishdagi ark ustidagi stilize qilingan ikki boshli burgut relyefini saljuqiylar uslubini mustahkamlovchi element deb hisoblash mumkin. Payg'ambarlar va shahidlarni o'zlari vafot etgan joyda dafn etish, shuningdek, ba'zi rivoyatlarga asoslangan va asosan mazhab ahli tomonidan qabul qilingan shaxsni o'zi yashagan yoki vafot etgan joyda dafn etish an'analarini hisobga olib, Maqbara joylashgan Qizilcha Halvetning shimoliy qismida Hoji Bektosh Vali yashagan bir hujra borligi da'vo qilinadi[3; 148-149-b].

Hovlisi turk saroylarining turar-joy namunasiga ega bo'lgan, uning atrofida bo'linmalar o'z vazifalariga ko'ra o'rnashgan majmua 1-hovli (Nadar), 2-hovli (darveshlar uyi) va 3-hovli atrofidagi binolardan iborat. U oddiy toshbo'ronchilik yo'li bilan qurilgan va bektoshchilikka xos bezaklar bilan bezatilgan. Majmua o'z vaqtida ko'plab qo'shimchalar va keng qamrovli restavratsiyalarga guvoh bo'lgan, ammo XVI asrga kelib u hozirgi ko'rinishiga keltirilgan, ya'ni qayta ta'mirlangan.

Natijalar. XIII asrda Hoji Bektosh Vali falsafasi asosida rivojlangan bektoshchilik nafaqat Anadoluda, balki Bolqon va Yaqin Sharqda ham ko'plab dindorlar tomonidan amal qilgan e'tiqod tizimidir. XIII asr faylasufi Hoji Bektosh Valining so'zlari 8 asrdan keyin ham 1948-yilda qabul qilingan "Inson huquqlari deklaratsiyasi"ga to'g'ri kelishini anglatadi.

Hoji Bektosh Vali Anadoluning turklanishiga, shuningdek, Usmonlilar imperiyasining barpo etilishiga katta ta'sir ko'rsatdi. U Bolgariya, Gretsiya, Makedoniya, Bosniya-Gersegovina, Albaniya, Vengriya va Ruminiya xalqlari tomonidan ham tanilgan va hurmatga sazovor bo'lgan liderdir[2; 81-b].

Hoji Bektosh Vali majmuasi eski turk saroylarida kuzatilgan uch hovlili turar-joy namunasini ko'rsatadi. Ijtimoiy majmua bo'linmalari o'z vazifalariga muvofiq ushbu hovlilar atrofida joylashtirilgan. Ichki tartibda deyarli harbiy intizom hukmron bo'lgan pir xonadonda har bir ehtiyoj uchun birlik ko'rib chiqilib, bu bo'linmalarga bektoshchilikka xos terminologiyaga muvofiq "mehmonxona, otxona, nonxona" kabi nomlar berilgan. O'z ichida "o'choq" sifatida tashkil etilgan bu bo'linmalarning boshida "mehmon xonadonining otasi, otxonaning otasi, nonxonaning otasi" nomi bilan mashhur "ota" va qo'l ostidagi darveshlar turgan. Bektoshiylikka a'zo bo'lmoqchi bo'lgan darvesh nomzodlar dastlab Hojibektosh atrofidagi pirxonaga bog'langan Xonbog'i va Dedebag'i fermalarida xizmat qilganlar, agar bu yerda ilk sinovlardan o'ta olsalar, otdan boshlab pirxonadagi xizmatlariga ko'tarilishi mumkin edi[7].

“Semah¹” nomli maxsus marosim yig‘ilishi XXI asrda hamon o‘tkazib kelinayotgan alaviy va bektoshiy jamiyatining muhim tarkibiy qismidir.

Semahdagi qush (turna) harakati va sayyoralarning quyosh atrofida aylanishini aks ettiruvchi figuralar 2010-yil 16-noyabrda YuNESKOning Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Rerezentativ ro‘yxatiga kiritilgan.

Hoji Bektosh Vali majmuasi bektoshchilikning markazi sifatida e‘tirof etilgan va o‘zining ko‘pgina xususiyatlarini saqlab qolgan juda kam uchraydigan tartibli majmualardan biridir. Binoni qurishda ishlatiladigan ko‘plab belgilar tartibning asosiy falsafasini ifodalaydi. Majmua arxitekturasi va interyer dizayniga bektoshchilik motivlarini moslashtirish orqali jismoniy hayotni ma‘naviyat nuqtai nazaridan shakllantirishga qaratilgan.

1-hovlidagi Sulaymon tamg‘asi motivida qo‘llangan tik uchburchak suvni, ya‘ni haqiqatni ifodalaydi; teskari uchburchak olovni, ya‘ni yolg‘onni anglatadi, ya‘ni hayot haqiqat va yolg‘on o‘rtasidagi ziddiyatdir. O‘rtadagi atirgul motivi sintez va muhabbatni ifodalaydi. Jem xonasi va Meydanchi bobo xonasining yog‘och shiftlari bingi texnikasi bilan qurilgan bo‘lib, ularda osmon sferasining to‘qqiz darajasini ifodalovchi kesishgan nurlar bir-biriga yopishtirilgan. Binoning eshiklari kirish paytida ta‘zim qilishni ta‘minlash uchun asosan kichik o‘lchamlarda. “Jem xonasi”ning uch qirrali ustozlari ustiga qo‘yilgan 12 dona domla 12 imomning ramzi bo‘lib, din yo‘lidagi bosqich va martabalarni ifodalab, mansab ko‘tarilayotganda manmanlikdan uzoqlashishga, kamtarona bo‘lishga urg‘u beradi[2; 82-b].

Hoji Bektosh Vali majmui bektoshchilik bilan bevosita va nomoddiy bog‘liq bo‘lib, Hoji Bektosh Valining XIII asrdagi so‘zlari XX asrdagi “Inson huquqlari deklaratsiyasi”ga to‘g‘ri kelganligi sababli beqiyos umuminsoniy qadriyatga ega; Jem va Semah marosimlari XXI asrda ham izdoshlar tomonidan amalga oshirilmoqda va Majmua bu falsafaga asos solingan va dunyoga tarqatilgan markaz edi. Majmua alaviylar va bektoshiylar tomonidan e‘tiqod markazi sifatida ham tan olingan[4; 53-b].

Xulosa. Hoji Bektosh Vali bir tomondan Suluja Qoraho‘yukda bir turkman shayxi sifatida o‘z jamoasi ichida ustozlik vazifasini ado etar ekan, ikkinchi tomondan esa, bugungi Urgup mintaqasidagi xristianlar bilan yaqin aloqalar o‘rnatib, ularning hidoyatga erishishiga zamin tayyorlagan. Shuningdek, shomon diniga e‘tiqod qilgan mo‘g‘ullarning ham islom dinini qabul qilishlari uchun qizg‘in ish olib bordi va hatto xalifalarini ham xuddi shu maqsadda Anadoluning to‘rt burchagiga yubordi. Agar manbalarda uchragan ushbu ma‘lumotlarga ishonadigan bo‘lsak, Hoji Bektosh Vali katta ehtimol bilan Anadoluga yassaviylik bilan qalandariylik aralashmasidan iborat haydariylik tariqati a‘zosi sifatida kelgan. Keyin esa Ilyos Xurasoniy davrasiga kirib, vafoiylik tariqatiga doxil bo‘ladi va umrining oxiriga qadar shunday yashaganini aytish mumkin. Bunga ko‘ra uning nomi bilan atalishiga qaramay bektoshiylik tariqatiga, Hoji Bektosh tomonidan asos solinmagani anglashilmoqda. Tarixiy Hoji Bektosh Valining afsonaviy, hatto mifologik Hoji Bektosh Valiga aylanib qolishiga Abdal Musoning roli katta bo‘lgan. Bugungi kunda uning maqbarasi Antaliya viloyatiga qarashli Elmali tumani yaqinidagi Tekkeko‘yda joylashgan.

¹ Semah, (Mahalliy talaffuzlari: samah, semağ, zamah, zemah) [1] Alevi va bektoshi jamoalarida bir joyga to‘planib, ruhlarning birdamlik ruhini ko‘taruvchi va saz bilan tabiat/koinot bilan bir bo‘lish holatini ifodalovchi marosimdir, iboralar va harakatlar. Bu ham yangi avlodlarning og‘zaki an‘analar orqali bilim olishga imkon beruvchi usullardan biridir. Muayyan intizom doirasida tantanali xarakterga ega bo‘lgan Semah tenglik, sevgi va birlikni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. // <https://tr.wikipedia.org/wiki/Semah>

Hoji Bektosh Valini Usmonli g'oziyarlari orqali tanigan Usmonli sultonlari yenicheri (yangi qo'shin) o'chog'ini tashkil etar ekan g'oziyalar orasida keng yoyilgan kuchli oqim tufayli o'choqni boshqarish vazifasini ham ularga topshirganlar. Shu orqali Hoji Bektosh Vali xotirasi asta-sekin Usmonli tuproqlarida rivojlanib, mashhur bo'lgan. XVI asr boshlarida esa Balim Sulton haydariylikdan uzoqlashib, Usmonli hukumati markazining ham yordami bilan Hoji Bektosh Vali nomidan bektoshiylik tariqatiga asos solgan.

XIII asrdan dargoh vazifasini bajarib kelgan majmua 1925-yil 30-noyabrda "Manzil va burchaklarni tugatish to'g'risidagi qonun"ga muvofiq yopilib, 1960-yilda Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 1964-yilda muzey sifatida ochilgan.

Hoji Bektosh Vali majmuasi tarkibiy qismlari mustahkam va o'ziga xosligi bilan hamon o'zining haqiqiyli va yaxlitligini saqlab kelmoqda.

Boshqa shunga o'xshash xususiyatlar bilan taqqoslaganda, Alevi-Bektoshiy jamoalari butun Turkiya bo'ylab mavjud bo'lsa-da, ular asosan turli nomlar bilan ma'lum mintaqalarda to'plangan. Butunjahon merosi ro'yxatida bektoshiylik qadriyatlarini ifodalovchi biror joy ro'yxatga olinmaganligidan tashqari, Hoji Bektosh Vali majmuasi alaviylar tomonidan "serchesme (Pir – asoschi – ota)" sifatida tan olingan yagona majmuadir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Alexēs G. K. Savvidēs, Byzantium in the Near East: Its Relations with the Seljuk Sultanate of Rum in Asia Minor, The Armenians of Cilicia and The Mongols, A.D. c. 1192-1237, Kentron Vyzantinōn Ereunōn, 1981, p. 116.
2. J. Spencer Trimingham, The Sufi Orders in Islam, Clarendon Press, 1971, p. 81.
3. C.Olsen: Celibacy and Religious Traditions. Oxford University Press. 1ère Éd. 2007. p. 143–144.
4. Mehmet Fuat Köprülü, Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar, Diyanet İşleri Başkanlığı, p. 49.
5. <https://islamansiklopedisi.org.tr/haci-bektas-i-veli-kulliyesi>
6. <https://www.hurriyetdailynews.com/mysticism-in-the-ottoman-empire-9363>
7. <https://www.kulturportali.gov.tr/turkiye/nevsehir/gezilecekyer/Hajibektas-vel-muzes>

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

OUR MAIN TASK IS TO STUDY THE HERITAGE OF OUR GREAT SCIENTISTS

Aytmuratova Janilsin Jalgasovna,

Doctor of Philosophy in History at the department of history of Uzbekistan and Karakalpakstan of Karakalpak State University

Jamalov Nurlan Yusupovich,

Samarkand State Veterinary Medicine department of animal husbandry and Nukus branch of the University of Biotechnology, assistant teacher of “economics and humanities” chair

Abstract. The article states that Uzbekistan has long been a center of science and education, a center of culture, scientific and spiritual heritage of scientists who came from our country. The scientific and spiritual heritage of Eastern scientists and thinkers who lived and worked in the Middle Ages, their invaluable contribution to the development of world science and civilization is always highly recognized by world scientists and the world community. Today we will focus on their contributions to world civilization with the goal of becoming a generation worthy of such great ancestors.

Keywords: renaissance, civilization, culture, Bayt-ul-Hikmah, humanism.

БУЮК АЛЛОМАЛАРИМИЗНИНГ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШ АСОСИЙ ВАЗИФАМИЗ

Айтмуратова Жанылсын Жалгасовна,

Қорақалпоқ Давлат университети
“Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон тарихи кафедраси,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Жамалов Нурлан Юсупович,

Самарқанд Давлат Ветеринария Медицинаси Чорвачилик ва Биотехнологиялар Университети Нукус филиали “Иқтисодиёт ва гуманитар фанлар” кафедраси
Ассистент ўқитувчи

Аннотация. Мақолада Ўзбекистон қадимдан илму маърифат маркази, маданият ўчоғи бўлиб келганлиги ва юртимиздан етишиб чиққан алломаларнинг илмий-маънавий мероси ҳақида сўз этилади. Ўрта асрларда яшаб ижод қилган Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг илмий-маънавий мероси, жаҳон илм-фани, цивилизация ривожига қўшган бебаҳо ҳиссаси дунё олимлари ҳамда жаҳон ҳамжамияти томонидан ҳамisha юксак эътироф этилади. Бугун биз ана шундай буюк аждодларимизга муносиб авлод бўлишни мақсад қилиб уларнинг дунё цивилизациясига қўшган ҳиссаси ҳақида тўхталиб ўтамиз.

Калит сўзлар: ренессанс, цивилизация, маданият, Байт-ул ҳикма, гуманизм.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N08>

Президентимиз Шавкат Мирзиёев Тошкентда бўлиб ўтган Ислом тараққиёт банки Бошқарувчилар кенгашининг 46-йиллик йиғилишидаги нутқида “асрлар давомида Ўзбекистон замини мусулмон оламининг буюк ва ноёб маданияти, илм-фани ва ижтимоий-иқтисодий тараққиётининг марказларидан бири бўлгани, Қадимий Ўзбекистон – яъни, Мовароуннаҳр диёри ислом дунёсининг юксак маданияти ва цивилизацияси ривожига унутилмас ҳисса қўшган аллома ва мутафаккирлар юртидир” деб таъкидлаб бу юртда Имом Аль-Бухорий ва имом Ат-Термизий, Аль-Хоразмий ва Аль-Берунийлар таваллуд топиб дунё илм-фанининг ривожига катта ҳисса қўшгани ҳақида айтиб ўтди. Шу ўринда айтиб утишимиз керак, Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан Буюк алломалар, адиб ва мутафаккирларимиз ижодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш мақсадида ёшлар ўртасида китобхонлик танловларини ташкил этиш тўғрисида 2018 йил 12 май, ПҚ-3721-сон Қарори қабул қилинди. Қадимий ва бетакрор диёримиздан етишиб чиққан буюк аллома, адиб ва мутафаккирларимизнинг юксак гуманистик ғояларга асосланган бой маънавий мероси умумбашарий цивилизация ва маданият, дунёвий ва диний илм-фан тараққиётига улкан ҳисса бўлиб қўшилгани дунё жамоатчилиги томонидан ҳақли равишда эътироф этилади. Белгиланган вазифалар асосида Республикада китобхонлик тўғарақлари йўлга қўйилди. Буюк алломаларнинг бой меросини ўрганишда Мамун академиясининг ўрни беқиёс. Ҳақиқатдан ҳам, IX-XII асрларда Ўрта Осиё ҳудудида юз берган Маданий уйғониш (ренессанс), унинг тарихи, мазмун-моҳияти, шу даврда ижод қилган буюк алломаю-уламолар, уларнинг инсоният илм-фан, маданияти равнақига қўшган улкан ҳиссаси ҳамиша жаҳондаги тадқиқотчи, олимлар диққат марказида турган. Шу боис ҳам бу хусусида ёзма манбалар жуда кўп.

XX аср тарихшунослигида ушбу масала билан қатор ғарб олимлари, хусусан Г.Э.Грбнебаум, А.Мец, Л.Дахият, Ф.Лот, У.Уотт, К.Броккельманн, В.Шпулер, К. Босворт ва бошқалар қатор тадқиқот ишларини амалга оширганлар. Шунингдек, рус ва совет олимларидан С.П.Толстов, М.Е.Массон, И.И.Умняков, Б.А.Розенфельд, П.Г.Булгаков, В.В.Бартольд, И.Ю.Крачковский, ўзбек олимлардан Я. Ғуломов, И.Мўминов, О.И.Исломов, У.Каримов, М.Хайруллаев, Б.Аҳмедов, А.Ўринбоев, А.Ирисов, А.Носиров, И.Низомиддинов, А.Аҳмедов, Ҳ.Ҳасанов, Ф.Сулаймонова, Д.Юсупова, С.Каримова ва бошқалар қўйилган масаланинг турли жиҳатларини очиб беришга муваффақ бўлдилар. Буюк алломаларнинг ибратли ҳаёт фаолияти ва ижоди, юртимиздан етишиб чиққан улуғ зотларнинг жаҳон цивилизациясига қўшган бебаҳо ҳиссаси XXI асрга келиб ҳам илм аҳлини ўзига жалб қилиб келмоқда. Минг йилликлар давомида турли цивилизация ва маданиятлар, жаҳон савдо йўллари чорраҳасида жойлашган ўлкамиз ҳудудида ўзига хос бебаҳо маънавий қадриятлар ва маданият мавжуд бўлган. Илғор маданият, илм-фан халифалик ҳукми даврида айнан юртимиз ҳудудида ривож топган бевосита Бағдод халифалигидаги мусулмон уйғониш даври, илм-фан, маданият тараққиётига ижобий таъсир кўрсатди. Улкан халифалик ҳудудларида тараққиёт даражаси турлича ўлка ва халқларнинг бир давлатга бирлашуви, улар ўртасида тегишли муносабатларнинг ўрнатилиши, иқтисодий ҳаётининг равнақ топиши ички ва ташқи савдо алоқалари ривожига туртки бўлди. Бу эса халифалик халқлари маданиятининг юқори тараққий этишига ҳам туртки бўлди. Аббосий халифалар (750-1258) даврида юқорида

таъкидланган ўзгаришлар янада тараққий этди, ислом маданияти, илм-фан юқори чўққисига чиқди. Халифалик ўз давлат бошқаруви, турмуш тарзи, урф-одат, маданият, меъморчилик соҳаларида кўпроқ шарқий худудлар, хусусан Мовароуннаҳрдан намуна олди, кўп ҳолатда Эрон, Хуросон, Мовароуннаҳр заминидан чиққан арбоблар халифалик ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ҳаётида муҳим роль ўйнай бошладилар. Аббосийлар даврида яратилган маънавий бойликда аждодларимизнинг улкан ҳиссаси мавжуд эди. 762 йили халифалик пойтахти Дамашқдан Бағдодга кўчди. Тез орада Бағдод халифалик илмий марказига айланди. Аббосий халифалардан Ҳорун ар-Рашид (786-809), айниқса ал-Маъмун (813-833) нафақат илм-фанга хайрихоҳлик билан қарадилар, балки унинг ривожига ҳомийлик ҳам қилдилар.

Ал-Маъмун (813-833) ҳукмронлиги даврида илм-фанга ҳомийлик янада кучайди. Табобат, фалсафа, астрономия, математика фанларига оид юнон, сурия, санскрит, паҳлавий, хоразмий тилларидаги асарлар араб тилига таржима қилинди. Халифа ал-Маъмуннинг Марвдаги даргоҳидаги аксарият олимлар: Муҳаммад Мусо ал-Хоразмий, Жавҳарий, Аҳмад Фарғоний, ал-Марвазий, Али ал-Марвазий ва бошқалар кейинги ижодий фаолият юритиш учун Бағдодга таклиф қилди. Шу тариқа халифалик пойтахти Бағдодда “Байт ул-ҳикма” (“Донишмандлар уйи”) – “халифа Маъмун академияси” ташкил топди. Илм марказида немис тадқиқотчиси Ҳ.Зутер таъкидлаганидек, олимларнинг аксарияти Хуросон, Мовароуннаҳр, Бақтрия, Фарғонадан бўлган. Илмий марказ тузиш, фан тараққиётига хизмат қилиш, унинг самараларидан фойдаланишга интилиш анъанаси X аср охири XI асрнинг бошларида Хоразмда ҳукмронлик қилган Маъмунийлар (995-1017) сулоласи даврида ҳам давом эттирилди ва янада юқори поғонага кўтарилди. 995 йил Гурганч амири Маъмун ибн Муҳаммад ибн Ироқ Африғийлар сулоласига барҳам беради. Кат шаҳрини босиб олади ва пойтахтни Гурганчга кўчириб, ўзини хоразмшоҳ деб эълон қилади. Унинг вориси Али ибн Маъмуннинг таклифи билан 1004-1005 йилларда Абу Наср ибн Ироқ, Ал Беруний, Абу Али ибн Сино, Абу Саҳл Масиҳий, Ал Хўжандий, кимёгар олим Абду Малик ас-Солибий каби ўз даврининг ўнлаб буюк олимлари Гурганч шаҳрига тўпланадилар. Шу тариқа 1004 йилдан бошлаб Гурганчда «Дор-ул-ҳикма ва маориф» (баъзи манбаларда «Мажлиси уламо») номини олган илмий муассаса тўла шаклланди. Ал Беруний, Абу Али ибн Синолар Маъмун академиясида фаолият олиб бориб нафақат Шарқ оламида балки бутун Европа оламида илм-фаннинг ривожига ҳисса қўшиб медицина, география, геодезия, астрономия фанларига янгилик олиб кирди.

Шарқ маданияти ва илмининг ёрқин намоёндаларидан бири, тарихда ўрта аср даврининг буюк қомусий олими Абу Райҳон Муҳаммад ибн Аҳмад Ал Берунийнинг илмий меросларига қарата айтилгандай сезилади. Олимнинг ўчмас илмий меросларини халқаро миқёсида ўрганиш мақсадида 2022 йил 25 августда “Буюк мутафаккир ва қомусий олим Абу Райҳон Беруний таваллудининг 1050 йиллигини халқаро миқёсда нишонлаш тўғрисида” Президент қарори қабул қилинди.

1004 йилнинг бошларида хоразмшоҳ Али ибн Маъмун чақируви билан Беруний Урганч шаҳрига келади. 1010 йилдан тахтга ўтирган Абул Аббос Маъмун ибн Маъмуннинг илм-фан масалалари бўйича бош маслаҳатчиси вазифасини бажаришга киришади. Урганчга Кат шаҳридан математик ибн Ироқ, Бухородан Абу Али ибн Сино ва фалсафа фани билимдони Абу Саҳл Масиҳий, табиб Абул Ҳасан Ҳаммор каби

замонасининг истеъдодли олимлари тўпланади. Дунёга машхур “Хоразм Маъмун Академияси” шу тариқа шаклланганди. Махмуд Ғазнавий аскарлари Урганчи эгаллагач, Беруний 1017 йили Ғазна шахрига олиб кетилади ва ҳаётининг охирига қадар шу жойда қолади. У 1048 йили 11 декабрда Ғазна шахрида оламдан ўтади.

Кўпчилик тадқиқотчилар ўта истеъдодли олим Абу Райҳон Беруний шиддатли ва қизғин кечган ҳаёти давомида 150 – 180 атрофида асар ёзганини таъкидлайди.

Беруний қайси илмга қўл урмасин, ушбу соҳада барча илмий муваффақиятларини умумлаштириб, узига хос хулоса этиб, ушбу фанни янги босқичга кўтариб, янги ғоялар ва янги тадқиқот усуллари билан бойитиб кетган.

У Николай Коперникдан беш аср олдин оламнинг гелиосентрлик назариясини очган.

Берунийнинг табиатшуносликка тегишли асарлари ўз замонидан шунчалик даражада илгарилаб кетган эдики. Сабаби у вақтдаги замондошлари ҳам кейинги авлодлар Беруний фикрини яхши тушунмаган, айримлари эса унинг илмий назарияларини динга қарши деб ўйлаган. Бугунги кунда унинг фақат 30% асарлари илмий истеъмолга тушган.

Шунга қарамасдан, бугунги шарқшуносларнинг сўнги маълумотларига қараганда Берунийнинг асарлари қуйидагича классификацияланади: Масалан, астрономияга оид асарлари- 70, математикага оид- 20, география-геодезияга оид-12, картографияга оид- 4, иқлим ва об-ҳавога оид- 3, минералогияга оид- 3, фалсафага оид- 4, физикага оид- 1, фармацевтикага оид- 2, тарих, этнографияга доир-15, адабиётга тегишли 28 асар яратган.

Беруний ер юзидаги мамлакатларнинг чегараларини аниқлаш, ҳаво исиши ва совиши ҳақида ўз асарларида баён қилган. У Птолемейнинг “География” сига қисқача таъриф берган[4.22]. Беруний “Осори Боқия” (“Ал-Осор ал-боқия ан ал-қурун ал-ҳолия” (Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар) асари тахминан 1000 йили Каспий денгизининг жануби-ғарбидаги Журжон қалъасида ёзилган. Бу асар “Хронология” номи билан ҳам машхур эди. Бу асар ўзбек (1968), инглиз (1879), форс (1943), рус (1957) тилларига таржима қилиниб, нашр этилган. Бу асарда турли замонларда ҳукм сурган подшоликлар ва сулолалар даврига тегишли барча воқеалар маънавий, ахлоқий меъёрлар, маданий ва ижтимоий ривожланиш, македониялик Искандар Зулқарнайн, эронлик Сосонийлар, Араб халифалари даврининг хронологик шажараси кўрсатиб берилган. Беруний асарларидаги маълумотлар, илмий мулоҳазалар инсоният тарихини ўрганувчи мутахассислар, тарихчилар, социологлар, файласуфлар ва демографлар учун муҳим манба бўлиб хизмат қилади[5:16]. Олимнинг бу каби буюк асарлари дунё илм аҳлининг эътиборини ҳозирга қадар кучли жалб этиб келмоқда. Шу сабабдан ҳам ХИ аср илм-фанда “Беруний асри” деб аталган.

“Хронология”да қадимги Юнон, Эрон, Рим, Суғд, Хоразм, христиан ва ислом динига эътиқод этувчи халқларнинг вақт ўлчовлари, йил ҳисоблари, ҳайитлари ва муқаддас кунлари илмий асосларда батафсил таҳлил қилинган. Беруний 10 саҳифадан иборат “Картография” (Тастих ас-сувар ва табтиҳ ал-кувар) асарини хоразмшоҳ Абул Аббос Маъмунга бағишлаб ёзганди. “Геодезия” (Китаб таҳдиди ниҳоят аламокин ли ташиҳ мафосат ал-масокин) асарини 1017 йили Хоразмда ёзиб бошлаган,

Кобулда давом эттирган ва Ғазнада ёзиб тугатган. Бу китобнинг учинчи боби дунё географияси, иқлимларга бўлиниш чегараси, океанлар, денгизлар ва тоғлар таърифига бағишланган. Ўрта асрдаги энг мукаммал ўлчов усуллари ва асбоблари ҳақида маълумот берилган. Берунийнинг “Ал-Қонун ал-Маъсудий фи-л-ҳая ва-ннужум” (Астрономия илмида Маъсуд номига ёзилган қонун) номли асари ҳам бизгача етиб келган. Муаллиф уни умрининг сўнги йилларида ёзган.

Тадқиқотчилар асарнинг 10 га яқин қўлёзма нусхаси сақланиб қолганини таъкидлашади. Асар 12 мақоладан иборат, ҳар бир мақола бир неча бобга бўлинган.

Бешинчи мақоланинг география илмига оид 9-10 бобларида денгиз ва қуруқликлар чегараланиши, 7 иқлим ва дунёдаги 603 жойнинг географик координаталари берилган.

Қадимги юнон олимлари асарлари, географ Эратосфеннинг китобида дунё 7 қисмга бўлинган ва ҳар бири иқлим деб аталган. Юнон олимлари китоблари араб тилига таржима қилинганда “климат” сўзи “иқлим” деб ўгирилган. Дунёнинг етти қисмга бўлиниши қадимги юнон илмининг кашфиёти эмас. Бу Турон ва Хуросонда шаклланган тушунчадир. Унинг асослари Берунийнинг “Ат-Тафҳим” (Ат-тафҳим ли авойили синоат ат-танжим), “Маъсуд қонуни” ва “Геодезия” китобларида баён қилинган. Беруний оламнинг геосентрлик ёки гелиосентрлик назариясини яратиши ўша даврда араб олимлари ўртасида ҳукм сурган Птолемей назариясига нисбатан дадил олға ташланган қадам бўлди. Олим барча асарларида ўзигача мавжуд бўлган космологик илмий фикрларни тўплаган, чуқур ўрганган, қизиқарли илмий мулоҳазалар билдирган. Улардан бири ер тузилиши сферасимон экани ва унинг қутби бутун оламнинг марказига тўғри келиши ҳақидаги назарияси эди. “Осмон сферанинг ўлчамларига солиштириганда ернинг ўлчамлари сезиларли даражада катта эмас, ернинг ўзи ҳар қандай қўзғалишларга қатнашмайди, осмонда ғарбдан шарққа ва шарқдан ғарбга бўлган қўзғалишларнинг икки тури амалга ошиши айтилган бўлса, бу қонунлар Европа олимлари тамонидан Аль-Беруний давридан олти асрдан кейин таниқли астрономлар Н. Коперникнинг гелиосентрлик назарияси, И.Кеплер номи билан аталадиган планеталарнинг ҳаракатланиш қонунлари кашф қилинганидан кейин XVII асрда И. Нютон томонидан кашф қилинди.

Олимнинг “Ҳиндистон” (Китаб таҳқиқ мо лил ҳинд мин мақула мақбула фи-л-ақл ав марзулатинқилиш « (Ҳиндларнинг ақлга сиғадиган ва сиғмайдиган таълимотларини аниқлаш китоби) китоби ҳозиргача илмий аҳамияти юқори ва машҳурдир. Унинг номи узун бўлгани сабабли айтишга қулай бўлиши учун кейинчалик “Таҳқиқу мо лил ҳинд” (Ҳиндистонга оид тадқиқотлар) ёки қисқача “Ҳиндистон” деб аталган.

Бу асар 1020–1030 йилларида ёзилган. Бу асарнинг ёзилишига Беруний 1022–1024 йилларда Маҳмуд Ғазнавийнинг Ҳиндистонга юришида унинг ёнида юриши сабаб бўлди. У Ҳиндистонга борганда санскрит тилини ҳам ўрганади. Бу ўлкада яшаётган халқларнинг илми ва маданияти, урф-одатлари келиб чиқиши сабабларини тадқиқ қилади.

Ҳиндистон бош вазири Жаваҳарлал Неру “Ҳиндистоннинг очилиши” “Беруний – юнон фалсафасини ўрганиб, ҳинд фалсафасини таҳлил учун санскрит тилини ўргана бошлади. Ҳинд ва юнон фалсафасини бир-бирига таққослаб, улардаги умумийликни кўриб хайратда қолди”, – деб ёзади. Академик И.Й. Крачковский: буюк олимнинг

“Ҳиндистон” асарига хулоса ясаб, унинг юнон тилини билганлигини асослаб беради. “Беруний санскрит, юнон, иброний – яҳудий халқи ва исроил мамлакатининг расмий тили, сурёнийча (сурия, оромий тилларининг шарқий гуруҳи) Юқори Месопотамиядан эронгача тарқалган тиллардаги тарихий манбаларни ўқиб, ўзига керагини араб ҳарфи билан ёза олган”, – дейди. “Ҳиндистон” асари қисқача муқаддима ва 80 бобдан иборат бўлиб. Муаллиф унда ҳинд халқининг тарихи ва маданияти билан ўрганиб қолмасдан математика, астрономия, география, сайёралар ҳақидаги ҳинд мумтоз тушунчалари, қадимги даврлар ҳисоби, тарих ва тақвимлари ҳақида маълумотлар тўплайди. Уларга нисбатан мулоҳазаларини билдиради. Беруний ҳинд фалсафаси назариясига бағишланган “Санхия” ва “Патанжали” асарларини араб тилига таржима қилган. Китоб муаллифи милoddан аввалги ИИ асрда яшаган ҳинд файласуфи Патанжали эди, асар муаллифнинг номи билан аталган. Беруний ҳиндларнинг никоҳ масаласига эътибор қаратади.

Ҳиндларда ёзув, чизиш юнонларникидек териларга ёзиш одати бўлмаганини қайд этади. Улар хурмо ва наржил дарахтлари барглари ишлов бериб, ёзувда фойдаланганини исботлайди. Юнонларнинг териларга ёзиш услубини кўрсатишда Сукротнинг “Илми тирик одамлар қалбларидан ўлик қўйларнинг териларига кўчирмайман”, деган иборасини мисол этиб келтиради. Беруний ҳам илм ўрганиш – қалбдан – қалбга кўчириш иши эканини эътироф этади. Мазкур асарда қоғоз ишлаб чиқариш қадимги Хитойда кенг тарқалгани, улар ҳар турли қоғозлар ишлаб чиқаргани, асирга олинган бир хитой одами Самарқандда қоғоз ишлаб чиқаришни йўлга қўйгани, сўнгра одамлар ундан ўрганиб, турли ўлкаларда қоғоз ишлаб чиқариш бошланганини таъкидлайди.

Беруний илмнинг турли соҳалари билан машғул бўлганида миллий, диний ва ирқий чекланишлардан йироқда турди. Бутун инсоният тамаддуни ривожига хизмат қиладиган илм ва маданиятга катта ҳисса қўшди. У илм-фаннинг боғбони сифатида келажак авлодга туганмас бой маънавий мерос қолдириб кетди. Бу ерда илмнинг барча соҳаларида тадқиқот ва изланишлар олиб борилган, жуда кўп манбалар тўпланган, таржимонлик ишлари бажарилган. Ҳинд, юнон, араб олимларининг ишлари ўрганилган.

XVIII-XX аср тарихчи олимлари томонидан олиб борилган тадқиқотлар бу даргоҳ ўз даврининг Академияси бўлганлигини исботлади. Унга шартли равишда “Хоразм Маъмун Академияси” деб ном берилди.

Хоразм Маъмун Академияси жаҳон илмий тафаккури, маданий ва маънавий тараққиётининг беназир ҳодисаси сифатида тарихда чуқур из қолдирган.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Буниёдов З.М. Хоразмшоҳ - Ануштагинлар давлати (1097 – 1231). - Тошкент, 1998.
2. Буюк сиймолар, алломалар. -Тошкент.: Мерос(уч китоб), 1996,1998.
3. Уватов У.Донолардан сабоқлар.- Тошкент: Абдулла Қодирий, 1994.
4. Усмон Ориф.Баҳовуддин Нақшбанд ва унинг таълимоти ҳақида. -Тошкент: Университет, 1993.
5. Ирисов А. Ҳаким ибн Сино.-Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE POLICY OF THE UZBEKISTAN GOVERNMENT IN THE FIELD OF LANGUAGE, THE PROSPECTS OF INCREASE ITS INFLUENCE AS THE STATE LANGUAGE

Kurbanova Marguba,

University of Economics and Pedagogy
Department of "History and Social Sciences".
senior teacher, Karshi
E-mail: qurbonova-m@gmail.com

Abstract. This article explains that one of the priority tasks is to preserve and enrich our native language as an invaluable heritage passed down from ancestors to generations, to carry out large-scale work to gain its prestige as the state language, and to increase its authority as the state language. the prestige of doing business in this language.

Keywords: state language, nation, national pride, writing, linguistics, national relations, development.

TIL SOHASIDAGI O'ZBEKISTON HUKUMATI SIYOSATI, O'ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Qurbonova Marg'uba,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
"Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrası
katta o'qituvchisi, Qarshi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho meros sifatida ona tilimizni asrab-avaylash, boyitish, uning davlat tili sifatidagi nufuzini orttirish yo'lida keng miqyosli ishlarni amalga oshirish, shu tilda ish yuritish nufuzini oshirish ustuvor vazifalardan biri ekanligi yoritilgan

Kalit so'zlar: davlat tili, millat, milliy g'urur, yozuv, tilshunoslik, milliy munosabatlar, taraqqiyot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N09>

Til, millat, davlat... Bu uch tushunchani bir-biridan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. Har inson o'z ona tilida so'zlaydi, ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida his qiladi, ona tilida tush ko'radi... Til – milliy g'urur, milliy iftixordir. Til muloqot vositasigina bo'lib qolmay, u insonning ichki olamini ifodalaydi, dunyoni teran idrok qilishiga ko'maklashadi, dunyoqarashi va kamolotini belgilab beradi. Shuning uchun ham yer yuzida rivojlanaman degan davlat borki, o'z tilining mavqeyini ko'tarishga harakat qiladi. Taxminlarga ko'ra, dunyoda ellik million kishi o'zbek tilida gaplashar ekan. Bu yer yuzi aholisining har 150 kishidan biri o'zbek tilida gaplashishini anglatadi. So'zlashuvchilar soniga ko'ra, o'zbek tili sayyoramizda eng keng tarqalgan, har birida kamida 30 million aholi gaplashadigan 40 ta tildan biri hisoblanadi.

Yaqinda Rossiya Tashqi ishlar vazirligi rasmiy vakili O'zbekistonda davlat tilida ish yuritishni ta'minlamaganlik uchun mansabdor shaxslarga javobgarlikni belgilovchi qonun loyihasini qo'llab-quvvatlaydiganlar kamligini aytib munosabat bildirganligi ommaviy axborot vositalarida turli muhokamalarga sabab bo'ldi. Yuqoridagi raqamlardan kelib chiqib, o'zbek tilida gaplashuvchilar soni kam deyish mumkinmi?! O'zbek tili chuqur tarixiy ildizga ega o'zbek millatining umumiy mulkidir, chetdagi odam xohlaganicha muhokama qiladigan mulk emas.

“Ona tilimiz – milliy ma’naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog’idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko’rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir” — degan edi Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev[1; 107-b].

Hech kim hech qachon o'z ona tiliga bo'lgan hurmatni yo'qotmasligi kerak. Tilga hurmat – bu xalqqa hurmat. O'z ona tiliga ega bo'lmagan xalq mamlakat bo'lolmaydi. Tilning egasi xalq, ammo xalqning bitta vakili loqayd bo'lsa ham milliy til sofligiga putur yetadi. Til davlat timsoli, mulki hisoblanadi. Til madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dog' tushadi. Shu sababli, bu ulkan hodisaning tub mohiyatini kelajak avlod ongiga singdirish, ona tiliga bo'lgan muhabbat va sadoqatini yanada mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar ko'lami yil sayin kengayib bormoqda. Binobarin, o'zini o'zbek millatining farzandiman, deb bilgan har bir shaxs ona tilimizga e'tiborli bo'lishi, uning sofligini asrab-avaylashni muqaddas burchi deb bilishi shart. O'zbek tilining Vatanimizda davlat tili sifatida amal qilinishining huquqiy asoslari qonunan belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni uch tamoyilga: umumiylik, majburiylik va huquqiy kafolatga asoslanadi. Darhaqiqat, davlat tilining mustahkam huquqiy maqomi belgilab qo'yilgani tilimizning boy imkoniyatlaridan keng foydalanishga yetarlicha zamin yaratib, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishi barobarida o'zbek tilining erkin muomalada bo'lishi uchun zarur shart-sharoitni yaratib berdi. Dunyoda taniqli mamlakat bo'lish uchun biz davlat tilining maqomini ko'tarishga erishishimiz lozim.

2019-yil 21-oktyabr kuni Davlatimiz rahbari “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni imzoladi. Xususan, 21-oktyabr yurtimizda “O'zbek tili bayrami kuni” deb belgilandi. Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi. Qolaversa, Vazirlar Mahkamasi huzurida o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradigan, yangi so'z va atamalarni rasmiy iste'molga kiritadigan Atamalar komissiyasi ishlab turibdi. Bu, albatta, muhim hujjat, davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan ishlarning mantiqiy davomi, sohada yana bir muhim qadam. Chunki O'zbekistonda shu vaqtgacha davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoringni amalga oshiradigan yagona, mustaqil va markazlashgan tuzilma yo'q edi. “Davlat tili haqida”gi qonunning normalari deklarativ, umumiy xarakterga ega bo'lganligi sababli ko'zlangan maqsadlarga to'la erishish imkonini bermayapti[2; 11-b].

Xususan, “Davlat tili haqida” gi qonunning (keyingi o'rinlarda Qonun) 8-moddasida “O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi”, deb belgilangan bo'lsa-da, ayrim sohalardagi davlat idoralarida hujjatlarni davlat tilida qabul qilish yetarlicha yo'lga qo'yilmagan. Bu esa ayrim hollarda jismoniy va yuridik shaxslarga noqulayliklar keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, Qonunning 10-moddasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish,

hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarining ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkinligi belgilanganligiga qaramasdan, ayrim sohalarda statistika va moliya hujjatlari, shartnomalar talab darajasida davlat tilida yo'lga qo'yilmagan. Xususan, ayrim xizmat ko'rsatish sohalari (kommunal, internet xizmatlari va hk.) tomonidan shartnoma, dalolatnoma, ogohlantirish xati kabi hujjatlarni xorijiy tilda rasmiylashtirish holatlarini ko'rish mumkin. Qonunning 20-moddasida lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimai berilishi mumkin, deb belgilangan bo'lsada, mazkur qoidaga har doim ham amal qilinmayapti. Xususan, ayrim savdo yoki xizmat ko'rsatish sohalari tomonidan bevosita yoki internet tarmoqlari orqali berilgan lavhalar va e'lonlarda davlat tili talablariga rioya qilmaslik holatlarini kuzatish mumkin.

Til – muqaddas va e'zozlangan tushuncha, har bir inson uchun o'z onasi kabi aziz va mo'tabar. Til – hayotning boshlanishi. Inson o'z ona tili yordamida yangi tushunchalar va munosabatlarni anglay boshlaydi. Ona tili bizga ona suti bilan singdiriladi. Inson ulg'aygan sayin atrofidaqilar bilan muloqot qilish, badiiy kitoblar o'qish orqali so'z boyligini oshirib boradi. Ota-bobolarimiz tarixi, milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz bizga ona tilimiz yordamida meros bo'lib qoldi. Xalqlar tarixi – bu ular tilining tarixi. Turkiy til VII-VIII asrlardan boshlab yuzaga kela boshlagan. Dastlab turkiy tilda Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf xos Xojib, Ahmad Yugnakiy va Rabg'uziy o'zbek tilining rivojlanishida katta hissa qo'shishgan. XI-XV asrlarda Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy va Xorazmiy kabi shoirlar ham o'zlariga xos o'rin tutdilar. Ushbu shoirlar va o'z davrining atoqli yozuvchilari yaratgan mashhur asarlardan ingliz, fransuz, nemis, yapon va xitoy olim va shoirlari ko'plab foydalanib kelishgan. XV asr o'zbek tilining gullab-yashnagan davri bo'lgan. Bu davr Alisher Navoiy ijodiga ham bog'liq. "Xamsa", "Xazoinul-maoniy", "Muhokamatul lug'atayn", "Majoinul nafois" kabi asarlari bilan Navoiy turk tilini jahon miqyosiga olib chiqdi. So'z mulking sultoni Alisher Navoiy tilimizni "shajara bog'i" timsolida his etib, xalqni bulbulga qiyosladi. Ana shu boqqa gard tushmasin, bulbullarning ovozi hamisha yangroq va baland bo'lsin, dedi. Dunyoga mashhur "Devoni lug'atut turk" asari Mahmud Qoshg'ariy tomonidan hijriy 464, milodiy 1068-yili yozib tugallangan. Ushbu asar XV asr turkiy qabilalarining til xususiyatlari, og'zaki ijodini o'rganishi uchun asosiy manba hisoblangan. Lug'at hozirgi lug'atlarga o'xshab yolg'iz so'zlarning lug'aviy ma'nosini izohlabgina qolmasdan balki, unda o'sha davrda o'g'uz, uyg'ur, qipchoq, chigil, qarluq kabi 37 urug' birlashmalariga kirgan turkiy urug' va qabilalarning fanatik, leksik, grammatik til xususiyatlarini ta'riflovchi tarixga oid asarlar hamdir. Devonda turkiy urug'larning joylashishi hamda xaritasi ham ilova qilingan[3; 6-b].

Mahmud Qoshg'ariy Chin (Xitoy) davlatidan butun Movarounnahr (Xorazm, Farg'ona, Buxoro, Dashti qipchoq)ni kezib, bu erlarda joylashgan turkiy urug' va qabilalarning tili, ijtimoiy turmushini, tarixini o'rganadi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" asarining taxminan XV asrda ko'chirilgan qo'lyozmasi va turk tiliga tarjimai 1860-63-yillarda professor S. Mutalibov tomonidan tarjima qilindi[4; 38-b].

Bu uning 20 yillik ishi natijasi edi. Davlat rivojlanishi bilan davlat tili ham rivojlanadi. Xalq mustaqilligining asosiy belgisi – bu ona tili va milliy madaniyati. Dunyoning barcha davlatlari o'z ona tillarini asrab-avaylashga intilishadi, shuning uchun har qanday davlat o'zining madaniy merosi va ona tilini alohida hurmat qiladi. Millatlarni ajratib turuvchi asosiy

belgilardan biri bu til ekan, har bir inson o'z tilini bilishi, uni ulug'lashi va shu bilan birga boshqa millatlarning ona tiliga ham hurmat bilan qarashi lozim. Shundagina tilning, millatning qadri va obro'yi, nufuzi oshadi. Til tarixini, uning me'yoriy nuqtai nazardan shakllanish jarayonini, rivojlanishini millat tarixidan ayri holda o'rganib bo'lmaydi. Yuqori rivojlangan davlatlar darajasiga erishish va raqobatdosh bo'lish uchun O'zbekiston fuqarolari xalqaro tillarni bilishlari muhim, albatta. Chunki biz global rivojlanish tendensiyalaridan orqada qola olmaymiz, lekin shuni unutmash kerakki, o'zbek tili dunyodagi barcha rasmiy tillar qatori suveren til maqomini olgan ekan, har bir O'zbekiston fuqarosi davlat tilini bilishi shart. Hech kim hech qachon o'z ona tiliga bo'lgan hurmatni yo'qotmasligi kerak. Tilga hurmat – bu xalqqa hurmat. O'z ona tiliga ega bo'lmagan xalq mamlakat bo'lolmaydi. Tilning egasi xalq, ammo xalqning bitta vakili loqayd bo'lsa ham milliy til sofligiga putur etadi. Til davlat timsoli, mulki hisoblanadi. Til madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dog' tushadi. Shu sababli, bu ulkan hodisaning tub mohiyatini kelajak avlod ongiga singdirish, ona tiliga bo'lgan muhabbat va sadoqatini yanada mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar ko'lami yil sayin kengayib bormoqda. Binobarin, o'zini o'zbek millatining farzandiman, deb bilgan har bir shaxs ona tilimizga e'tiborli bo'lishi, uning sofligini asrab-avaylashni muqaddas burchi deb bilishi shart.

So'nggi yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz bermoqda. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'yi oshib, faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda. Turli darajadagi rasmiy uchrashuv va muzokaralarda tilimiz keng qo'llanayotgani, xorijdagi qator ta'lim dargohlarida, ilmiy muassasalarda o'zbek tili markazlari tashkil etilib, ularda ona tilimizni o'rganishga qiziquvchilar soni ko'payib borayotgani buning yaqqol dalilidir. Dunyo olimlarining e'tirofiga ko'ra, bugunda er yuzi aholisi 2 ming 976 xil tilda gaplashadi. Bu tillar o'zining leksik va grammatik xususiyatlariga ko'ra til oilalar va guruhlariga bo'linadi [5; 4-b]. Jonajon o'zbek tili — ona tilimiz xususida so'z ketganda, uning dunyo tillari orasida o'ziga xos mavqega ega ekanligini ko'ramiz. Ona tilimiz — o'zbek tiliga 1989-yil 21-oktyabrda davlat tili maqomi berildi. Bu mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz hayotidagi unutilmas, tarixiy voqeaga aylandi. Ayni paytda tilimizning ijtimoiy mavqeyini yanada mustahkamlash, yuksaltirish uchun ham beqiyos imkoniyat yaratildi. Tilning egasi xalq, ammo xalqning bitta vakili loqayd bo'lsa ham tilning sofligiga putur etadi. Til — davlat timsoli, mulki. Til madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dog' tushadi. Shu sababli o'zbek tilining hududimizda davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari qonunan belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni uch prinsipga: umumiylik, majburiylik va huquqiy kafolatga asoslanadi. Shu ma'noda har bir O'zbekiston fuqarosi davlat tilida so'zlay olish va uni hurmat qilishga majbur.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro'si oshib, u faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda. Turli darajadagi rasmiy uchrashuv va muzokaralarda tilimiz keng qo'llanayotgani, xorijdagi qator ta'lim dargohlarida, ilmiy muassasalarda o'zbek tili markazlari tashkil etilib, ularda ona tilimizni o'rganishga qiziquvchilar soni ko'payib borayotgani buning yaqqol dalilidir. Darhaqiqat, har bir millatning, xalqning o'tgan kuni, buguni va kelajagini, uning mavjudligini birgina omil — ona tili bildirib turadi. Jonajon o'zbek tili — ona tilimiz xususida so'z ketganda, shubhasiz uning dunyo tillari orasida o'ziga xos mavqega ega ekanligini ko'ramiz. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid

ensiklopediya va lug'atlar, darslik va o'quv qo'llanmalari chop etildi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining yaratilishi uni amaliyotga tatbiq etilishi ham shu ishlarning uzviy davomi bo'ldi. E'tirof etish kerakki, dunyodagi 200 ta til bugunda davlat tili maqomiga erishgan bo'lib, shular orasida o'zbek tili ham bor[6; 10-b]. Bu esa, har birimizning qalbimizda faxr-iftixor tuyg'ularini uyg'otib, tilimiz sofligini saqlashda zimmamizga mas'uliyatlar ham yuklaydi. Yosh avlodni ana shu ruhda tarbiyalash esa pedagoglar, qolaversa, keng jamoatchilikning vazifasi, burchi hisoblanadi. O'zbek tilining boy imkoniyatlari bugungi kunda tilshunoslarimiz tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Tilimizni e'zozlash, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalashda buyuk ajdodlarimizning hayoti va faoliyati katta ibrat maktabidir. Har bir millatning, xalqning o'tgan kuni, buguni va kelajagini, uning mavjudligini birgina omil — ona tili bildirib turadi. Jonajon o'zbek tili — ona tilimiz xususida so'z ketganda, shubhasiz uning dunyo tillari orasida o'ziga xos mavqeyiga ega ekanligini ko'ramiz. O'zbek adabiy tili turkiy tillar guruhiga mansub bo'lib, u mustaqil til sifatida XI asrdan boshlab shakllana boshladi va to hozirgi kunimizgacha bu tilda ko'plab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Xususan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Rabg'uziyning "Qissai Rabg'uziy", shuningdek, Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroiy, Mavloni, Lutfiylarning yaratgan boy ilmiy-adabiy meroslarini tilga olish mumkin. Ayniqsa, turkiy tilning beqiyos imkoniyatlarini ko'rsatishda Alisher Navoiyning buyuk xizmatlarini alohida e'tirof etish joiz. Hazratning nafaqat badiiyati, balki tilshunoslikka bag'ishlangan "Muhokomat ul-lug'atayn", ya'ni "Ikki til muhokamasi" nomli asari shu sohadagi qiyosi yo'q manba hisoblanadi[7; 44-b].

Qolaversa, shoh va shoir Bobur Mirzoning tilimizda yaratgan go'zal asarlari bugun ham o'quvchilar tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Albatta, ona tilimizning taraqqiyoti yuqorida nomlari keltirilgan buyuk ajdodlarimizning yuksak muhabbatida ko'rinib turadi. Hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlashtirilgan bo'lib, tilimizning lug'at boyligi, tovush tizimi va grammatik qurilishi olimlar tomonidan ilmiy asoslarda o'rganilgan. Bu sohadagi izlanishlar bugun ham davom etmoqda. Aytish joizki, o'zbek tili mamlakatimiz maktablarida XX asrdan boshlab o'qitila boshlandi. Ta'lim jarayonida kishilarimizning tilga oid bilimlari shakllantirilib, nutqiy savodxonlik darajasi o'stirib borildi. Bugun maktab, kollej, akademik litseylar va oliy o'quv yurti talabalari uchun yangi avlod darsliklari yaratilib, ularda tilimizni yangicha asosda o'rganishga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, shubhasiz o'zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda[8; 14-b].

Mamlakatimizda til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari va istiqboldagi vazifalari ijrosi ta'minlash borasida Farg'ona tilshunoslarining ilmiy salohiyati va imkoniyatlari yetarli. Bu xayrli va mas'uliyatli ishda bor kuch-g'ayratimizni safarbar etmoqdamiz. Zero, ulug'lar ta'kidlaganidek, "Ona Vatanga muhabbat va sadoqat—ona tiliga muhabbat va sadoqatdan boshlanadi". O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi uning rivojlanishida, ma'naviy-madaniy meros, umummilliy boylik, oliy qadriyat sifatida shakllanishida kuchli omil bo'lyapti. Shu bilan birga, boshqa tillarning ham izchil taraqqiy topishini har tomonlama kafolatlamoqda. Jumladan, davlat tilini o'rganish uchun fuqarolarga shart-sharoit yaratish, shuningdek, yurtimizda yashovchi millat hamda elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish Qonunning alohida moddasida mustahkamlab qo'yilgan[9; 101-b].

Ma'lumki, davlat tili va boshqa tillarning rivojlanishida ta'lim muassasalari katta rol o'ynaydi. Qonunga muvofiq, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat tilida faoliyat ko'rsatishi

bilan birga, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda ularning o'z tillarida ham faoliyat yuritadigan maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etilishi ta'minlanishi belgilangan. Shuningdek, yurtimiz aholisiga ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqi berilgan bo'lib, davlat tilida hamda boshqa tillarda umumiy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ma'lumot olish ta'minlangan. Xususan, maktab ta'limi 7 ta — o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman hamda tojik tillarida olib borilmoqda[10; 45-b].

Darhaqiqat, tarixdan saboq olgan holda, yuqoridagi misollardan ko'rish mumkinki, madaniy-ma'naviy boyligimiz bo'lmish ona tilimizning davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, ona tilimizning sofligini asrash, himoya qilish biz uchun hamisha hayot-mamot ishi bo'lmog'i lozim. Chetdan bo'layotgan fikrlar, ta'qiblar o'z yo'liga, achinarlisi ichimizdagi, tilimizga bepisandlik bilan muomalada bo'layotgan, ayrim ajnabiyparast, aksariyat ismi o'zbekcha, yo chala o'zbekcha, ammo qalbi, ruhiyati, millati manqurt bo'lgan yurtdoshlarimizning borligidir. Til — millatimiz faxri, g'ururidir. Ayni chog'da orzu-umidlarimiz, istiqbolimiz unda bo'y ko'rsatadigan, qalbimiz oynasi hamdir. Shunday ekan, ona tilimizga doimo hurmat va e'tiborda bo'lib, uning jamiyatimizdagi mavqeyini yuksaltirishga har birimiz o'z hissamizni qo'shaylik. Zero, til bor ekan millat barhayot, uning istiqboli nurli va charog'ondir[11; 107-b].

Shunday ekan, tilimizni e'zozlash, uning davlat tili sifatidagi maqomi, jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirish, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash hamisha dolzarb ma'naviy burchimiz bo'lib qoladi. O'zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shish har birimizdan milliy tilga chuqur hurmat bilan yondashishni talab etadi. Zero, til bor ekan, millat barhayotdir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz tomonimizdan quyidagi xulosa va takliflar beriladi:

birinchidan, davlat tilini bilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchi ekanligini qonun bilan mustahkamlash;

ikkinchidan, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda atamalarning o'zbekcha muqobili turganda, boshqa tildagisini ishlatish taqiqlanishini qat'iy belgilab qo'yish;

uchinchidan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlarini davlat tilida yuritishni shart qilib, zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishini belgilash;

to'rtinchidan, xorijiy tilda berilgan reklama yoki e'lonlar ularning o'zbek tilidagi shaklidan so'ng joylashtirilishi lozimligini belgilash;

beshinchidan, davlat xizmatchilarining davlat tilini bilishi shartligini nazarda tutish, ularning davlat tilini bilish darajasi bo'yicha imtihon qilish amaliyotini joriy etish.

Ishonamizki, mazkur o'zgarishlar bo'lgan taqdirda davlat tilining hayotimizdagi o'rni va ahamiyati oshishiga, davlat organlari va tashkilotlarida ish yuritish to'liq davlat tilida amalga oshirilishiga olib keladi. Xulosa shuki, davlatimiz suveren-demokratik davlat ekan, uning ichki siyosatiga chetdan turib hech kimning aralashishga haqi yo'q. O'z tilimizga e'tiborsiz bo'lishga esa, siz bizning, shu millat vakiliman deguvchi har bir g'ururli insonning haqqimiz yo'q. Zero tilimiz taqdiri – millat taqdiridir. Uni asrab-avaylash, uning davlat tili sifatidagi nufuzini orttirish yo'lida keng miqyosli ishlarni amalga oshirish, shu tilda ish yuritish esa bizning qonuniy haqqimiz va burchimizdir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Prezident – o‘zbek tili nufuzini oshirish to‘g‘risida. Ma‘ruza matni. // Ma‘rifat gazetasi. 22-oktyabr, 2019-y.
2. G.Ortiqxo‘jaeva. Davlat tili-faxrimiz, g‘ururimiz. Adolat. 23.10.2015– 11 bet.
3. Nizomiddin Mahmudov. Til mavqei — el mavqei «Yoshlik» jurnali, 1988 yil, 6-son.
4. N.Raxmonov. O‘zbek tilini mil.av. III asrdan ham qadimiyroq.15 okt. 2019 g.
<https://uza.uz-posts-til-khal>
5. B. Nazarov, A.Hojiev. Til haqida mulohazalar. «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati», 1989-yil, 24 mart.
6. A. Ibrohimov.Til — el ruhi. Sharq yulduzi” jurnali, 1990-yil, 10-son.
7. Nizamova F.A. Xorijiy tilni o‘qitishda audio-lingval metodini qo‘llash. Oliy ta‘lim muassasalarining o‘quv jara‘enida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarining joriy etilishi: amaliy va istiqbollar|| ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, - Toshkent: Universitet, 2018-yil 25-oktyabr. – 90 bet.
8. Muhammedova S. Harakat fe‘llari asosida kompyuter dasturlari uchun lingvistik ta‘min yaratish. Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2006. 45 b.;
9. B.Mengliev. O‘zbek tilining milliy korpusi. Ma‘rifat. 26.04.2018-y.
10. Xamroeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Fil.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...dis. Buxoro, 2018. 250b.
11. Navoiy asarlari lug‘ati. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972. – 654 b

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

POSITION AND PUBLIC ACTIVITY OF TAJIDDIN KHASANKHOJI IN THE BUKHARA KHANATE

Shoturaeva Sitora Xudoyberdi kizi,
Master's student of Termez State University

Abstract. This article is devoted to the activities of Tajiddin Hasankhodja, who had a high place in the political and cultural life of the Bukhara Khanate of the 16th-17th centuries. Most of his socio-political activities correspond to the period of the Ashtarkhanids. According to sources, all classes of society enjoyed the blessing and patronage of Khoja Tajiddin. In the khan's government, landowners who had a certain position were guaranteed important state affairs, domestic and foreign policy, their position in material and spiritual life.

Keywords: Khoja Djuibar, Matlab ut-Talibin, Naqshbandi sect, status of Khoja, religious building.

BUXORO XONLIGIDA TOJIDDIN HASANXOJANING TUTGAN O'RNI VA IJTIMOYIY FAOLIYATI

Shoto'rayeva Sitora Xudoyberdi qizi,
Termiz davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqola XVI - XVII asr Buxoro xonligining siyosiy, madaniy hayotida yuqori o'ringa ega bo'lgan Tojiddin Hasanxoja faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, undagi ma'lumotlar Hazrat Tojiddin Hasanxojaning nevarasi Muhammad Tolib tomonidan yozib qoldirilgan. Uning ijtimoiy-siyosiy faoliyatining aksariyat qismi Ashtarxoniylar davriga to'g'ri keladi. Manbalarda keltirilishicha, Xoja Tojiddinning marhamati va homiyligidan jamiyatning barcha tabaqalari bahramand bo'lishgan. Xon hukumatida muayyan o'ringa ega bo'lgan Jo'ybor xojalarining muhim davlat ishlari, ichki-tashqi siyosat, moddiy va ma'naviy hayotda mavqeyi kafolatlangan.

Kalit so'zlar: Jo'ybor xojalari, "Matlab ut-tolibin", naqshbandiya tariqati, xoja masnadi, ibodat maskanlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N10>

Kirish. Jo'ybor xojalarining yirik vakillaridan Xoja Tojiddin Hasan Xoja Sa'dning katta o'g'li va unga tegishli mol-mulkning qonuniy merosxo'rlaridan biri sanalgan. U nafaqat xonadon doirasida, balki Buxoro xonligida katta mavqega ega edi. Xoja Tojiddin tarjimai holda boshlang'ich ta'lim, diniy ilm olish, Qur'on qiroatidan saboq olish muayyan o'rin egallaydi. U o'z zamonasining mashhur kishilaridan Hofiz Shayx Ahmaddan qiroat ilmini o'rganadi. Umdatul hofiz unvoni sohiblari Hofiz Sayyid Qorako'li va Hofiz Tursunmuhammad yosh xo'jazodaning tarbiyasi bilan shug'ullanishgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Jo'ybor xojalari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'pchilik manbalarda uchraydi. Bular sirasiga Abulabbos Muhammad Tolib ibn Tojiddin Hasanxoja al-Husayniyning "Matlab ut-tolibin" asari alohida ahamiyatga ega. Asar muallifi bevosita tadqiq qilinayotgan Tojiddin Hasanxojaning kenja farzandi bo'lib, asarni 1665-yillarda yozib tugallagan. Asarda Jo'yboriy xojalarning faoliyati, muridlari va xizmatkorlari, bunyod

ettirgan imoratlari, mol-mulklari va Buxoro xonlari hamda ularning boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalari yoritilgan [1].

Xoja Tojiddin ijtimoiy-xo'jalik faoliyatining ayrim taraflari to'g'risida P.P.Ivanov[2], B.A.Ahmedov[3], B.Bobojonov[4], H.To'rayev[5] tadqiqotlari orqali durustgina ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Muhokama. “Matlab at-tolibin” muallifi Xoja Tojiddinning zehn-zakovati, ta'rifiga alohida to'xtalib, tez orada Qur'on ilmini egallaganini va uning tilovatini eshitgan hofizlar Xoja Tojiddin mahoratidan hayratga tushib, unga tahsin aytganlari to'g'risida yozadi. Muallif ma'lumotiga qaraganda, Xoja Tojiddin hofizlik bobida shunday darajaga erishganki, hatto boshqa tajribali hofizlar Qur'on tilovat qilganda ularning xatolarini to'g'rilab, luqma tashlab turgan. Muntazam ta'lim Xoja Tojiddinning tasavvuf asoslarini chuqur egallashiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, Naqshbandiya tariqatidagi bo'lajak mavqeyi uchun zamin hozirladi.

Xoja Sa'd o'zining butun kuch-g'ayratini to'ng'ich farzandi Xoja Tojiddin ma'naviy-ruhiy va moddiy kamolotiga bag'ishladi. E'tiborli munosabat, albatta, Xoja Tojiddinning taqdiri uchun muhim rol o'ynadi va xonadon mulkining bosh merosxo'ri bo'lishini ta'minladi. Eng katta ulush Xoja Tojiddinga tegdi. Xoja Tojiddin o'n yetti yoshida (1591-yil) xoja masnadiga o'tirdi.

Otasi Xoja Sa'd 1589-yilda vafot etib, ukalari tarbiyasi, xonadon iqtisodiy-siyosiy mavqeyini ushlab turish va davom ettirish uning zimmasiga tushdi. Shu davrdan boshlab Xoja Tojiddinning ijtimoiy hayotdagi mavqeyi orta boshladi. Shayboniy Abdullaxonning Jo'ybor xojalari xonadonining nufuzli vakillaridan biri Xoja Tojiddinga bo'lgan e'tibori yuksala bordi. Akobir-u ashraflar, mulozim-u xizmatkorlar uning marhamati va in'omlaridan bahramand bo'lganlar. Chunki Xoja Tojiddin bu davrda Jo'ybor xojalari xonadonining yosh jihatdan eng katta vakili va xonadon an'alarini davom ettirish huquqiga ega bo'lgan vakolatli shaxs edi. Shu bilan birga tariqat ruknlariga amal qilish va bu borada o'z ajdodlari an'alarini rivojlantirish singari jiddiy hamda mas'uliyatli vazifa ham Xoja Tojiddin faoliyat doirasiga kirgan. Zero, bu ishlarni amalga oshirmay turib, nafaqat Shayboniylar davlati hukmron doiralari, balki quyi tabaqalar e'tiborini qozonish ham mumkin emas edi.

Buxoro shahridagi Jo'ybor mahallasining obod bo'lishida Jo'ybor xojalari vakillarining xizmatlarini e'tirof etish joiz. Xoja Islom, Xoja Sa'd tomonidan bu yerda shinam hovlilar quriladi. Ular davrida mahallada bir necha hunarmandchilik do'konlari ishlab turgan. Xoja Tojiddin davriga kelib esa ularning soni yanada ortgan[1; 186-b]. Yangi hovlilar qurilgan, o'sib borayotgan talabdan kelib chiqib, yangi hunarmandchilik do'konlari, bozorlar barpo etilgan va ular Xoja Tojiddin himoyasi ostida faoliyat ko'rsatgan. Iloji boricha Xoja Tojiddin ularni soliq yig'uvchilar zulmi va ta'siridan himoya qilishga harakat qilgan va bu narsaga erishgan. Uning himoyasi ostidagi jamoat ba'zi soliqlardan ozod edi. Bu haqda “Matlab ut-tolibin”da quyidagicha keltiriladi: Davlat va xo'jalik navbati hazrat padari buzrukvorimizga o'tgach xaloyiq ayniqsa, hunarmand va kosib ahlining fayzli Jo'yborga ko'chib kelishi (1306) juda kuchaydi. Chunonchi, hovlilar va uylar qurishdi, turli kasb-u hunar egalari do'konlar va rostbozorlar bino qilishdi. Hazrat padari buzrukvorimizning himoyasida xar bir ishning ketida edi. Ular hukm bilan chiqarilgan turli doimiy va tasodifiy soliqlardan ozod edilar. Fayzli Jo'ybor tinch va obod maskanga aylandi. Agar biron kishi jinoyat sodir etib, zamon podshohlari uni qatl qilishga farmon berishsa, u gunohkor o'zini Jo'yborga urar, hazrat padari buzrukvorimizning marhamati soyasida afv etilardi[1; 187-b].

Xoja Tojiddinga ota-bobolaridan katta mulk meros qoladi. Mulk geografiyasi juda keng bo'lib, u Movarounnahr va Xurosonning turli shahar va qishloqlarida mavjud edi. Chunonchi, Buxoro, Samarqand, Balx, Toshkent, Andijon, Hisor, G'uzor, Shahrisabz, Qorako'l, Miyonkol, Chorjo'y viloyatlarida Xoja Tojiddinga tegishli bo'lgan mulklar joylashgan edi. "Matlab at-tolibin" muallifining xabar berishicha, xojazodaning ellik to'rt bog'i, g'ishtli saroylari, tim va bozorlari bo'lgan. Ulardan ba'zilar Buxoro, Toshkent, Qorako'l, G'ijduvon atroflarida, Zandanada joylashgan edi. Shuningdek, Balxda ham Xoja Tojiddinga tegishli saroy, bozor va timlar bo'lgan. Shubhasiz, bular katta daromad manbai bo'lib, xonadonga katta foyda keltirib turgan. Xojazoda daromadi mavjud chorva mollari hisobidan ham ko'payib borgan. 20 ming yilgi va qo'y, 20 qator tuya Xoja Tojiddin chorvasini tashkil etgan. To'pxona, oshxona kabi imoratlar ham Xoja Tojiddin mulki hisoblangan[5; 78-b].

Xojazoda ibodat maskanlari qurilishiga katta e'tibor bergan. Zero, bunday ishlarni amalga oshirish xonadon an'anasi hisoblangan va Xoja Tojiddin ham bunga amal qilishni o'z burchi deb bilardi. Shu bois masjid, madrasalar qurilishiga mablag' sarflaydi. Xoja Islom Sumitandagi buzruklar mozori oldida masjid qurishni boshlagan edi, lekin qurilishi tugallanmay Xoja Islom vafot etadi. Xoja Tojiddin shu masjid qurilishini oxiriga yetkazdi. Buxorodagi Xoja Chahorshanba gazarida ham Xoja Tojiddin tomonidan masjid bino etildi. Shuningdek, Buxoro tumanlarida uning tashabbusi va moddiy yordami bilan qator masjidlar qurib bitkazildi. Xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan binolardan bo'lmish hamsaroylardan beshtasi shahar tashqarisida barpo etildi. Bir necha yaylov va qo'riqlar Xoja Tojiddin tasarrufida edi, lalmi yerlar esa behisob bo'lgan. Shahar va shahardan tashqarida o'nta hammomi bor edi. O'z mulklarini yanada ko'paytirish maqsadida Xoja Tojiddin boshqa viloyatlardan mulklar sotib olgan. Hatto sotiladigan mulklar to'g'risida o'z mulozimlari unga xabar berishni va bu mulklarni qo'ldan chiqarimaslikni uqtirgan[1; 188-189-b]. Bundan tashqari turli viloyatlarda Xoja Tojiddinga tegishli yerlar, turli mulklar, tegirmonlar ko'p bo'lib, bularning barchasi uning iqtisodiy mavqeyini mustahkamlashga xizmat qilgan[7; 64-70-b].

Natija. Buxoro shahrida Xoja Tojiddin tomonidan qurilgan Dor ash-shifo madrasasi o'z davrining dorixonasi hisoblangan. Bu yerda turli dori-darmonlar, sharbatlar tayyorlangan. Ularni tayyorlash va bemorlarga tarqatish bilan maxsus kishi-sarkor shug'ullanardi. Dor ash-shifoda har yili 800 shisha gulob, ko'z va boshqa kasalliklarga davo bo'luvchi turli dori-darmonlar tayyorlangan va xasta kishilarga berilgan. Dor ash-shifoda o'z zamonasining eng tajribali hakimlari xizmat qilishgan va xizmatlari uchun Xoja Tojiddin tomonidan ehson olib turishgan. Bu mahkamani o'rta asrlarda Movarounnahrda eng yirik shifo maskanlaridan biri deyish mumkin. Uning mavjudligi Jo'ybor xojalari mamlakat ijtimoiy hayotining barcha sohalari, shu jumladan, sog'liqni saqlash masalalari bilan shug'ullanganligidan dalolat beradi[1;197-198-b].

Ilk Ashtarxoniylar davrida Buxoroning xojalar yashaydigan Jo'ybor mahallasi alohida ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etgan. Talabalar qahriga uchragan mudarrislar, tariqat peshvolari, xon iltifotiga talabgor shaxslar maslahat va panoh so'rab Jo'yborga – Xoja Tojiddin huzuriga kelishardi. Turli yerlarda, hatto uzoq manzillarda sodir bo'lgan chigal masalalar Xoja Tojiddin aralashuvi bilan Jo'yborda o'z yechimini topardi.

Xulosa. Ashtarxoniylar hukmronlik davrida Buxoro, Samarqand, Balx kabi shaharlar katta siyosiy ahamiyat kasb etardi. Jo'ybor xojalari xonadoni vakillari faqat Buxoroda emas, balki Samarqand, ayniqsa, Balxda o'z siyosiy ta'sir doiralarini mustahkamlashga harakat

qilishgan. Zero, Samarqand va Balx shaharlaridagi notinchlik va beqarorlik Buxoro davlati xavfsizligiga tahdid solishi muqarrar edi. Buni yaxshi anglagan Hoja Tojiddin ba'zan bu shaharlarga safar qilib turardi va ayrim ixtiloflarni hal qilishda oliy hukmdorga ko'mak berardi[1; 218-b]. Xullas, Ashtarxoniyalar davrida Hoja Tojiddinning siyosiy ta'sir doirasi kengayib, yanada mustahkamlangan. Masalan, birgina Balxning o'ziga Hoja Tojiddin to'rt marta borib, har borganda muayyan vazifani bajarardi. Bu vazifalar esa ko'pincha siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, mamlakat barqarorligi va osoyishtaligini saqlab turishga qaratilgan edi[1; 220-b].

Hoja Tojiddin 1646-yil yetmish to'rt yoshida olamdan o'tadi. Buxoro xoni Abdulazizxon bu vaqtda Buxoroda bo'lmay, harbiy harakatlar bilan band edi. Xojazoda vafotidan voqif bo'lgach, tezda Buxoroga yetib keladi va ta'ziya marosimida ishtirok etadi. Jo'ybor Chahorbog'ida ta'ziya marosimi o'tkaziladi.

Hoja Tojiddin Hasan nafaqat Jo'ybor xojalari xonadonida, balki Buxoro xonligi tarixida o'ziga xos iz qoldirdi. Xonadon ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy mavqeyi aynan Hoja Tojiddin sa'y-harakatlari bilan birmuncha barqaror turdi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Муҳаммад Толиб. Матлаб ут-толибин /Таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ғулом Каримий, Эркин Миркомиллов. –Тошкент: “Movarounnahr”, 2016. 384 б.
2. Иванов П. П. Хозяйство джуйбарских шейхов. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1954. –С. 376.
3. Ахмедов Б. А. История Балха. – Т.: Фан, 1982. –С. 295.
4. Бабаджанов Б., Шуппе М. Чор-Бакр – семейная усыпальница Джуйбаридов // O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2003. – №3. – С. 19-30
5. Тўраев Ҳ. Чорбакр ёки Жўйбор авлиёлари.–Бухоро.: Бухоро нашриёти, 2005. – 20 б.
6. Тўраев Ҳ. Бухоро хонлигининг XVI-XVII асрлар ижтимоий-сиёсий ва маънавий-маданий ҳаётида Жўйбор хожаларининг тутган ўрни: Тарих фанлари доктори диссертацияси. –Тошкент: ЎЗР ФА Шарқшунослик институти, 2007. -308 б.
7. Тўраев Ҳ. «Матлаб ат-толибин» асари Жўйбор хўжалари хонадони ҳақида // O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2000. – №4. -Б. 64-70.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

PUPPETRY AS THE OLDEST INTANGIBLE HERITAGE

Ubaydullaeva Mohisadaf Sunnatilla qizi,
Doctor of Philosophy in Art Criticism (PhD)
Senior Researcher, Research Institute of
Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage
E-mail: Mohisadaf@inbox.ru

Abstract. This article contains information proving that the roots of puppet theater art and Askiya art, which are ancient art forms, are connected to each other, that they developed independently as different arts due to the evolution of arts, and the commonalities and differences between their dramaturgy are analyzed.

Keywords: puppet, traditional theater, comedy art, muqallid, askiya art, dramaturgy, art.

ҚЎҒИРЧОҚ ЎЙИН ЭНГ ҚАДИМГИ НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС СИФАТИДА

Убайдуллаева Моҳисадаф Суннатилла қизи,
Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Маданиятшунослик ва номоддий маданий мерос
илмий тадқиқот институти катта илмий ходими

Аннотация. Мазкур мақолада қадимги санъат турларидан бўлмиш қўғирчоқ театри санъати ва аския санъатининг илдизлари бир-бири билан туташ эканлиги, санъатлар эволюцияси сабаб улар мустақил ҳолда турли санъатлар бўлиб ривожланганлигини далилловчи маълумотлар ўрин олган бўлиб, улар драматургияси ўртасидаги муштараклик ва фарқли жиҳатлар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: қўғирчоқ, анъанавий театр, масхара санъати, муқаллид, аския санъати, драматургия, бадиҳагўйлик.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N11>

Кириш. Бугунги кунда халқларнинг номоддий маданий меросини халқаро миқёсда муҳофаза этилиши замирида ҳар бир халқнинг маданияти, урф-одатлари, қадриятлари, бир сўз билан айтганда ўзлигини сақлаб қолишдек улкан мақсад ётибди. Юртимизнинг ҳам йигирмага яқин маданий мероси халқаро ЮНЕСКО томонидан рўйхатга олинган бўлиб, бу бизнинг маданий меросимизга халқаро миқёсда эътибор кучайганидан далолат беради.

Бироқ кўҳна ўзбек халқи юзлаб, балки минглаб ўзининг номоддий маданий меросига эга халқдир. Турли ёд маданиятлар авж урган бугунги паллада мазкур маданий меросларни бутун дунё томонидан муҳофазага олиниши долзарб масалалардан биридир. Сақланиши лозим бўлган маданий меросларимиз қаторида қадимги

анъанавий санъатларимиз ҳам турибди. 2014 йил қадимги санъатларимиздан бири бўлган аския санъатининг ЮНЕСКО томонидан инсониятнинг оғзаки ва номоддий маданий мероси дурдонаси сифатида Репрезентатив рўйхатга киритилганлиги маданий ютуқларимиздан бири бўлди. Аския каби анъанавий санъатга хос бўлган яна ўнлаб номоддий меросимиз мавжуд. Улардан бири қадимги қўғирчоқ ўйиндир. Аския санъати билан баробар равишда уйғониш даврида юқорига чўққига чиққан мазкур санъат бугунги кунда ўзбек халқининг жуда ноёб анъанавий театр намуналаридан биридир. Барча санъатларнинг асоси бир илдизга бориб тақалади. Турли эврилишлар туфайли хилма-хил санъат турлари ажралиб чиқа бошлаган. Қўғирчоқ ўйин билан аския санъати ҳам шундай, анъана ва илдизлари бир-бири билан туташиб кетади.

Анъанавий қўғирчоқ ўйин замонавий қўғирчоқ театрдан бутунлай фарқ қилган ҳолда, бадиҳағўйликка асосланган ва доимий муайян қаҳрамонлардан иборат санъат тури ҳисобланади.

Адабиётлар таҳлили ва методлар. XVIII аср ўзбек халқ санъати бевосита XVII аср ўзанини давом эттирди. Бироқ XVII асрдаги Мовароуннахрнинг уч ҳокимиятга бўлиниб кетиши XVIII асрга келиб санъатлар ривожига ўз таъсирини ўтказди. Бухоро, Хива ва Қўқон хонлигига бўлиниб кетган мамлакат санъати ҳам ўз ҳудудига хос ҳолда ривожлана бошлади. Бир аср давомида хонликлар сиёсий бошқаруви остида қўғирчоқ театри санъати ҳам турғунликда тараққий этди. Бу даврда бошқа халқ санъатларида оғзаки драматургия юксалди. Турли мавзуларда асарлар пайдо бўла бошлади. М.Раҳмонов ушбу давр халқ санъатини ўрганар экан, асосан бу даврни “Масхара” санъатининг хусусиятлари билан белгилайди. “Ҳар бир халқнинг, – дейди М.Раҳмонов, – актёрлик санъати образ яратиш борасида турли услуб ва ижодий мактабларга эгадир. Бу тарихий давр ҳар бир театрнинг миллий хусусиятлари, театр жанрлари, ижодий метод, принциплари билан боғлиқ. Қадимий ўзбек “Масхара” санъатининг актёрлари ҳам социал типлар, образлар, характерлар яратишда ўзига хос мактаб ва анъаналарга, ўз услуб ва бадиий ифода воситаларига эга бўлган”[1]. Қўғирчоқ театри санъати бу даврда “Масхара” санъатининг бир қисми сифатида фаолият олиб борган. Юқоридаги таърифдан келиб чиқадики, қўғирчоқ театри санъати бу даврда ўзининг мактаби ва ўз услубига эга мукамал халқ санъатига айланиб улгурган. Унда ўзининг драматургияси ва “Масхара” санъатига хос репертуари ҳам мавжуд бўлганлигига шубҳа йўқ. Аския санъати ҳам дастлаб “зарофат”, “айтиш”, кейинчалик “аския” санъат турлари билан параллел ҳолда мустақил санъат сифатида шаклланган.

Муҳокама ва натижалар. Қўғирчоқ театри драматургияси ҳам анъанавий театр драматургиясининг бир тармоғи сифатида ривожланди. Бундан келиб чиқадики, ўзбек анъанавий қўғирчоқ театри асосини ҳам оғиздан-оғизга ўтиб келаётган сюжетлар, урф одат ва маросимлар, турли диний қарашлар асосидаги ривоятлар ташкил этган. Барча композициялар устадан-шогирдга, авлоддан-авлодга ўтиб сайқалланиб бораверган. Бу иккала санъатга тегишли бўлган муштаракликни англатади.

Қўғирчоқ ўйинга тегишли бўлган Чодир жамол театри драматургияси бир кўринишдан содда кўринади. Яъни икки қаҳрамон Качал Полвон ва Бичахоннинг тўқнашувидан бошланиб, уларнинг суҳбатидан сўнг турли эпизодлар кўрсатилади. Бироқ бу жараён ҳозирги замон драматургиясига қараганда анча мураккаб. Сабаби, ҳар янги спектакл учун янги воқеа киритиш ва воқеа диалогларини ҳар гал янгитдан жамоа

ўртасида келишиб олиш ўта мушкул иш. Бунинг учун кўғирчоқбозларнинг ҳар бири актёргина бўлиб қолмай, драматург сифатида ҳам фикр юритиши лозим бўлган. Анъанавий кўғирчоқ театри драматургиясининг алоҳида хусусияти ҳам шунда. У оғзаки креатив драматургиядир. Ҳар томошада пьеса сайқалланиб, бойиб боради.

“Полвон Качал” комэдиясининг турлари кўп. Сабаби оғзаки драматургияга асосланган театр ҳар томошада янги воқеа ўйлаб топилаверган. Театр репертуари бўлса шунга монанд хилма-хил комэдияларга бой бўлган. Барча воқеалар эса Полвон Качал атрофида содир бўлган. Юқорида келтирилган намунадан ташқари яна бир неча хил кўринишлар оғзаки драматургиянинг хусусиятини англашда ёрдам беради. Уларнинг бирида Полвон Качал хотинини бошқа аёл деб ўйлаб унга хушомад қилиши ва буни орқасидан низо чиқиши акс этса, бошқасида Полвон Качал аждарҳони енгиши, яна бирида Раиснинг ими-жимидида чилим тортиши, яна бирида Ҳожи кампирнинг етим қизни хўрлаши кабилар акс этган. Томошаларда ҳар қанча янги воқеа киритилмасин, барида Полвон Качалнинг иштироки бўлган. Юқоридаги келтирилган мисоллардан кўриниб турибдики, “Чодир жамол” театрининг мавзулари ёлғонни фош қилиш, адолатсизликка барҳам бериш, зулмга қарши чиқиш кабилардан иборат бўлган. Аския санъати усталаридан бўлмиш Мамаюнус ва Қулижон ҳожи аскиясида бир-бирларининг камчиликлари устидан кулиш асносида текинхўрлик, иккиюзламачилик каби ижтимоий иллатлар ҳажв қилинган. Демак, бу икки санъат мавзулари ўртасида ҳам айрим муштаракликлар мавжуд бўлганлигини англаш мумкин.

Қуйида аския намуналаридан бири бўлмиш “Чўпон ва қиз айтишмаси” ҳамда анъанавий кўғирчоқ драматургияси намуналаридан бири бўлмиш Чодир жамол театрдан “Полвон Качал ва Бичахон”нинг суҳбатини солиштириб кўрамиз:

Чўпон ва қиз айтишмаси[2]:

Қиз. Чочим хушрўйми, мен?

Чўпон. Чочинг хушрўй.

Қиз. Сарала тариқ мен бўп, чочилиб кетсам қайтасан?

Чўпон. Сарала тариқ сен бўлсанг, жўжали товуқ мен бўп,

Териб есам қайтасан?

Қиз. Жўжали товуқ сен бўлсанг, сояки овчи мен бўп,

Тўрга туширсам қайтасан?

Қиз. Сояки овчи сен бўлсанг, кўр каламуш мен бўп,

Тўрингни қирқиб чиқсам қайтасан?(айтишув шу тарзда давом этади).

Анъанавий кўғирчоқ драматургиясига хос бўлган Полвон Качал саргузаштлари[2]дан Корфармон ва Бичахоннинг диалоги:

Бичахон. Вой бечора-ей, вой бечора-ей. Мен бу кишини қандай уйғотай?

Корфармон. Полвон Качали овозадор, тулинг, паловжон таппа-тайёр, денг.

Бичахон. Хўп. Полвон Качали овозадор, тулинг, паловжон таппа-тайёр, оҳ-ҳо. О бобо!

Корфармон. Ҳа?

Бичахон. Бу киши турмайди-ку.

Корфармон. Турғизолмаяпсизми?

Бичахон. Ҳа.

Корфармон. Э, Қутижоннинг дадаси, кабобча қилиб қўйибман, денг.

Бичахон. Вой бечора, Қутижоннинг дадаси, кабобча таппа-тайёр, тура келинг, мазза қилиб ейсиз, оҳо... Бобо!

Корфармон. Ҳа.

Бичахон. Ўлибди.

Корфармон. Э ундоқ деманг, худо сақласин.

Иккала суҳбатни бир-бирига солиштириб кўрилса, икковида ҳам бадиҳагўйлик санъати бирламчи ҳодиса эканлигини сезиш мумкин. Иккала санъат намунаси устоздан шогирдга ўтиб келаётган оғзаки драматургиядир. Фақат бу икки санъат драматургиясини иштирокчилар сони ва сўзамоллик ажратиб туради. Қўғирчоқ театри драматургиясида бир неча қаҳрамонлар иштирок этса, аския санъатида асосан икки киши диалог акс этади. Қўғирчоқ драматургияси сўзамолликни кўтара олмаса, яъни урғуни ҳаракатга бериб, баёнчиликдан йироқлашса, аския санъатининг ўзагини сўзамоллик ташкил қилади. Шу туфайли ҳам бу икки санъат ривожланиш жараёнида бошқа бошқа ўзанлардан борган. Бироқ тарихдан аскиячилар қўғирчоқ театри санъати билан ҳам шуғулланганликлари маълум. Бу ҳақда Юсуфжон қизи Шакаржоновнинг қўғирчоқ ўйини корфармонлик қилгани ҳақида маълумотлар етиб келган[3].

Хулоса. Хулоса қилиб айтганда, қўғирчоқ ўйини ва аския санъати қадимдан шаклланиб, биргаликда ривожланган санъат турларидир. Булар билан биргаликда бошқа санъат турлари, жумладан, муқаллид, масхара, бир актёр театри каби яна бир қанча санъат турлари оға-инидек баробар улғайиб, ҳозирги мустақил профессионал санъат турларини ҳосил қилишган. Шундай экан, мазкур санъат турлари, жумладан анъанавий қўғирчоқ театрини бугунги кунда ўрганиш ва келажак авлодга етказиш, қўғирчоқбозлар сулоалари ва бошқа анъанавий шаклдаги қўғирчоқ ўйини томошаси билан шуғулланаётган сайёр қўғирчоқбозларни излаб топиш, алоқаларни тиклаш, қўллаб-қувватлаш, уларни маданий меросни сақловчи сифатида рўйхатга олиш, лозим. Зеро, мазкур санъат ҳам аския сингари миллик номоддий маданий бойлигимиз саналади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Аския (тўплам). Нашрга тайёрловчи Р.Муҳаммадиев. – Тошкент: 1970.
2. Қодиров М. Анъанавий театр драматургияси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.
3. Қодиров М. Ўзбек анъанавий театри. – Тошкент: А.Навоий ном. Ўз. миллий кутубхонаси, 2010.
4. Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи. – Тошкент: Фан, 1975.
5. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди (дарслик). – Тошкент: 1990

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

MEASURES TO BE IMPLEMENTED IN THE FIELD OF POVERTY REDUCTION IN NEW UZBEKISTAN

Khalikulov Rustam Sharipovich,
Associate Professor of Samarkand State University
named after Sharof Rashidov

Abstract. This article describes poverty and its causes, consequences, its negative effects on people, and what is being done to reduce it. Poverty is currently one of the problems that is a serious obstacle to the development of many countries around the world. Poverty has a serious negative impact on the development of children in particular. Most of the babies born in difficult conditions die in the first year of life, and this is a concern of the world community.

Keywords: poverty, minimum standard of living, poverty, disease, social barriers, bank finance, International Bank for Reconstruction and Development.

YANGI O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH SOHASIDAGI AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR

Xoliqulov Rustam Sharipovich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kambag'allik va uni keltirib chiqaruvchi sabablar, oqibatlar, uning odamlar uchun salbiy ta'sirlari hamda uni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida yozilgan. Kambag'allik hozirda dunyo bo'ylab ko'plab davlatlarning rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'layotgan muammolaridan biridir. Qashshoqlik, ayniqsa, bolalarning rivojlanishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Og'ir sharoitda dunyoga kelayotgan chaqaloqlarning aksariyat qismi yashashning birinchi yilida vafot etmoqda va bu dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda.

Kalit so'zlar: kambag'allik, minimal turmush darajasi, qashshoqlik, kasallanish, ijtimoiy to'siqlar, bank moliyasi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, strategiya, O'zbekiston-2030.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N12>

Kirish. Kambag'allik-ilgari O'zbekistonda rasmiy darajada tan olinmagan eng og'riqli muammolardan biri bo'lib kelgan. Bu holat ko'plab adabiyotlarda, ma'ruzalarda, ilmiy maqolalarda kam ta'minlanganlik deb yuritilgan. Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish masalasi eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib, bu muammoga ilg'or tajriba va yangi yondashuvlar asosida yechim topish hamda ularni hayotga izchil tatbiq etish har qachongidan ham muhim. Ko'p yillar davomida "yopiq mavzu" bo'lib kelgan kambag'allik 2020-yildan boshlab ochiq tan olinib, tariximizda ilk marta kambag'allikni qisqartirish davlatimizning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi. Prezident Sh.Mirziyoyev "kambag'allikni kamaytirish-bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonlarning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq

ro'yobga chiqarish va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir" - deb ta'kidlagan edi

Mamlakatimizda kambag'allik tushunchasi 2020-yilga kelibgina tilga olindi. 2020-yilning 24-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida kambag'allik masalasi tilga olinib [2], unda Muhtaram Prezidentimiz mamlakatdagi kambag'allar aholining taxmini 12-15 foizini, ya'ni 4-5 mln nafarni tashkil etishini qayd etdi [3:438]. O'zbekiston aholi jonboshiga to'g'ri keladigan milliy daromad ko'rsatgichi bo'yicha o'rtacha daromadga ega mamlakatlar qatoridan joy olgan bo'lib, bunday mamlakatlarda kuniga kishi boshiga 3,2 dollar kambag'allik chizig'ining o'rtacha ko'rsatgichi deb qabul qilingan [4: 228]. Mutaxassislarning fikricha, O'zbekiston sharoitida 5 kishidan iborat oilaning yalpi daromadi oyiga 480 dollardan kam bo'lsa, bu oilani kambag'al deb hisoblash mumkin [5. 80-81].

Kambag'allik atamasi ko'pincha odamlar yoki jamoalar minimal turmush darajasi uchun moliyaviy resurslar va boshqa zarur narsalarga ega bo'lmagan holatni anglatadi. Ya'ni odamlar, uy xo'jaliklari va butun jamoalar yashash yoki gullab yashnashi uchun zarur bo'lgan asosiy narsalarni sotib olish uchun mablag'ga ega bo'lmagan yetarli moliyaviy resurslarning yetishmasligidir.

Qashshoqlikda yashovchi odamlar va oilalar tegishli uy-joy, toza suv, sog'lom oziq-ovqat va hattoki tibbiy yordamsiz ham qolishi mumkin. Har bir davlatning qashshoqlik chegarasini aniqlash va uning qancha aholisi qashshoqlikda yashashini hisoblash uchun o'z mezonlari mavjuddir. Kambag'allik nafaqat daromadning, balki ko'plab omillarning natijasi bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy holatdir.

Hukumatlararo ko'pincha odamlarni, oilalarni va jamoalarni qashshoqlikdan chiqarishga yordam berish uchun ijtimoiy farovonlik dasturlarini amalga oshiradilar. Ba'zi mamlakatlarda boshqalarga qaraganda kuchli farovonlik tizimi (ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlari) mavjud. Misol uchun, Qo'shma Shtatlar ko'proq individualistik va nisbatan cheklangan farovonlik dasturlariga ega. Taqqoslash uchun, Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy yordam dasturlari va yordamga muhtojlar uchun ko'maklar ancha kengroq. So'ngi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda AQSHda qashshoqlikda yashaydiganlar soni butun mamlakat aholisining 11,5 foizni tashkil etmoqda. Buyuk Britaniya misolida olib qaraydigan bo'lsak, u yerda 4.3 mln bolalar qashshoqlikda o'smoqda yoki o'rtacha sinfdagi 30 foiz bolalar qashshoqlikda yashamoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra, 2022-yilda O'zbekiston aholisining 14,1 foizi kam ta'minlanganlarni tashkil etgan. (Bunda eng kam iste'mol xarajatlari sifatida 498 ming so'm belgilab olingan).

Tadqiqot metodologiyasi. 2023-yil 12-iyunda imzolangan "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF o'z vaqtida qabul qilingan hujjat bo'lib, kambag'allikni qisqartirish borasida boshlangan keng ko'lamlı ishlar barcha yo'nalishlarda "Inson-jamiyat-davlat" tamoyili asosida qat'iy davom ettirilmoqda. Fikrimizcha bu farmon bilan "20 ming tadbirkor-500 ming malakali mutaxassis" dasturini amalga oshirilishi Respublikada kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan muhim tashabbuslardan biridir [6]. Bu tashabbus natijasida, agar mamlakatimizda 2017-yildan buyon kambag'allik 2 baravar kamaygan bo'lsa,

bu ko'rsatgich 2030-yilga borib 7%ga tushirilishi reja qilingan. Bu masala "O'zbekiston-2030" strategiyasida ham o'z aksini topgan [7].

Bu muammolarni hal etish maqsadida mamlakatimizda "Obod qishloq", "Obod mahalla" dasturlari doirasida qishloq va mahallalarning infratuzilmasi tubdan o'zgarib aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash, gaz va elektr tarmoqlarini yangilash, yangi bog'lar va maktablar ko'rish yoki borlarni zamonaviy talablarda ta'mirlash, avtomobil yo'llari va yo'l infratuzilmasini barpo etish kabi ko'pgina ijtimoiy masalalarga yechimlar mahallalarning o'zida topila boshlandi.

Yana bir tomoni, ushbu muammolarni uyma-uy yurish orqali aniqlash va hal qilishni, davlat organlarining aholi bilan bevosita ishlashni nazarda tutuvchi yangi tizim-Xalq qabulxonalarini ishga tushirildi. Natijada, "mahalla-sektor-xalq qabulxonasi-mahalla" tamoyili asosida aholi muammolarini aniqlash va hal etish bo'yicha ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Bu tizim kambag'allik darajasiga tushib qolgan aholini tadbirkorlikka jalb etish, ularning real daromadini shakllantirishga harakat qildirmoqda.

2021-yil 3-dekabrda imzolangan "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni bilan 2022-yil 1-yanvardan boshlab har bir mahallada bandlikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha 9 300 nafar tuman (shahar) hokim yordamchilari ish boshladi. Ularga mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni "xonadonbay" o'rganish, aholi bandligi, daromad manbai, tomorqadan foydalanish holati hamda aholini daromadli mehnatga bo'lgan intilishi va ehtiyojlarini tahlil qilish vazifasi belgilandi.

Muhokama va natijalar. Mahallalarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash maqsadida 2022-yil 26-dekabrda "Mahalla budjeti" tizimi joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, 2023-yil 1-yanvardan boshlab ko'rsatgichi past bo'lgan tumanlarda "mahalla budjeti" tizimi tariqasida jismoniy shaxslardan mol-mulk va yer solig'ini undirish belgilangan[8].

Soliq summasining 10% mahalla budjetiga qoldiriladigan bo'ldi[9]. Bu holat mahallalarning moliyaviy ahvolini yaxshilashga hamda bu yerdagi ko'plab ijtimoiy muammolarni yechilishiga olib keldi.

Kambag'allikning olib kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlaridan biri, ya'ni kambag'allikning bolalarga bo'lgan yomon ta'sirini ham alohida e'tirof etib o'tish zarur. Chunki qashshoqlikda o'sgan bolalar tez-tez og'ir kasalliklardan qiynalishadi. Kambag'allikda tug'ilgan chaqaloqlarda kam vaznli bo'lib tug'ilish ehtimoli yuqori, bu esa jismoniy va aqliy nogironlikka olib kelishi mumkin. Qashshoqlikda bo'lgan bolalar kasallik tufayli ko'proq maktablardagi darslarni o'tkazib yuboradilar va uyda ko'proq stressni boshdan kechiradilar. Bolalar uchun uysizlik ayniqsa og'ir muammo, chunki ular ko'pincha sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega emaslar yoki to'g'ri ovqatlanishmaydi, bu ko'pincha ularning sog'liq bilan bog'liq muammolarga duchor etadi. Ko'p odamlar qashshoqlikda tug'iladilar va uni yengishga umidlari kam bo'ladi. Boshqalari esa salbiy iqtisodiy sharoitlar, tabiiy ofatlar yoki kundalik turmush narxining oshishi, shuningdek, giyohvandlik, ruhiy tushkunlik va ruhiy salomatlik muammolari tufayli qashshoqlikka tushishi mumkin.

Kambag'allikni keltirib chiqaruvchi bundan boshqa yana quyidagi asosiy sabablarini keltirish mumkin:

- Yuqori yashash narxi;
- Ish o‘rinlari o‘shining yo‘qligi;
- Zaif infratuzilma;
- Urush va turli mojarolar;
- Ijtimoiy to‘siqlar;
- Davlat yordamining yo‘qligi va shu kabilar.

Qashshoqlikning kuchayishi jamiyatda keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin, chunki tengsizlik kuchayadi va o‘z navbatida jinoyatchilik darajasining oshishiga olib keladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, qashshoqlik shunchaki daromad darajasi bilan bog‘liq emas. Darhaqiqat, odamlarni qashshoqlik chegarasiga yoki undan pastga tushirishga majbur qiladigan bir qator omillar mavjud. Diskriminatsiya-ularidan biridir. Ba’zi hollarda hukumatlar ayrim shaxslar yoki jamoalarning sog‘liqni saqlash, ta’lim yoki ijtimoiy xizmatlar kabi xizmatlardan foydalanishiga to‘sqinlik qiluvchi muayyan qonun va qoidalarni qabul qilishi mumkin. Bu odamlar, shuningdek, mehnat bozoriga yoki uy-joyga kirishdan mahrum bo‘lishi mumkin, bu esa ularning munosib turmush darajasiga erishishiga to‘sqinlik qiladi. Boshqa hollarda, chuqur ildiz otgan ijtimoiy e’tiqodlar odamlarni, oilalarni va butun jamoalarni ajratib qo‘yishi mumkin.

Shu o‘rinda kambag‘allikning zararli oqibatlariga ham to‘xtalib o‘tish joizdir. Kambag‘allik insonlarning jismoniy va ruhiy salomatligiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Qashshoqlikda yashovchi ota-onalardan tug‘ilgan bolalar kam vaznga ega va hayotining birinchi yilida omon qolish ehtimoli kamroq. Shuningdek, ular astma va boshqa bolalik kasalliklaridan aziyat chekishi mumkin. Bunday sharoitda voyaga yetgan farzandlarning keyingi sog‘ligida ham jiddiy muammolar kuzatiladi va ruhiy tushkunlik xavfi yuqoridir. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qashshoqlikda yashash bolalar va o‘spirinlarda bilim olish, muloqot qilish va akademik muvaffaqiyatlar uchun muhim bo‘lgan kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarda, jumladan, ijtimoiy-hissiy ishlov berish, xotira, til va boshqalarning tarkibiy va funksional miya rivojlanishidagi farqlar bilan bog‘liq holatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kambag‘allikni qisqartirish borasida dunyoning rivojlangan davlatlari o‘ziga xos yo‘llarni bosib o‘tishgan. Shunday davlatlardan biri-Xitoy. Bugun Xitoy iqtisodiyoti mo‘jiza yaratgan dunyoning ikkinchi qudratli mamlakati, kambag‘allikni qisqartirishda o‘ziga xos tajriba to‘plagan davlatdir. Xitoy XX asrning 70-yillari oxirida bozor iqtisodiyotiga oid islohotlarni boshlagan qoloq mamlakat edi. Keyingi yillarda Xitoy aholi daromadlari bir necha bor o‘sgan, yuz millionlab odamlarni kambag‘allikdan xalos qilgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Xitoyning yer maydoni deyarli AQSH hududiga teng bo‘lsada, mamlakatda yer shari aholisining beshdan bir qismi istiqomat qiladi. Mamlakat tabiiy resurslarga boy emas. Shunga qaramasdan Xitoyning oltin valyuta zaxiralari miqdori 3 trillion AQSH dollaridan oshib ketdi[10]. Xitoy butun dunyoga chinakam mo‘jiza ko‘rsatmoqda. Shu sababli bugunki kunda O‘zbekiston kambag‘allikka qarshi kurashish bo‘yicha Xitoy tajribasini o‘rganish va uni joriy etishdan manfaatdor.

Masalan, 2013-yil sentyabr-oktyabr oylarida Xitoy Xalq Respublikasi raisi Si Szinpin tomonidan Qozog‘iston va Indoneziyaga tashrifi chog‘ida ilgari surilgan “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi butun dunyo mamlakatlarida, jumladan Markaziy Osiyo davlatlarida jiddiy qiziqish uyg‘otdi. Bu tashabbus O‘zbekistonni to‘g‘ridan-to‘g‘ri dengizga chiqish imkonini yaratadi.

Mamlakatlar o'rtasida xalqaro turistik yo'lak yaratiladi. Osiyo, Yevropa va Afrikani bog'laydigan yangi savdo yo'llari, transport yo'laklari paydo bo'ladi, "Iqtisodiy belbog'" deb atalmish yangi loyiha tufayli mamlakatlar o'rtasida savdo-sotiq rivojlanadi, mahsulotlarni sotish uchun yangi bozorlar paydo bo'ladi, uning natijasida yangi ish o'rinlari yaratiladi. Bu loyiha doirasida tashkil etilayotgan transport yo'lagi Avstraliya, Indoneziya va Osiyo mamlakatlarini Yevropa, Afrika va Lotin Amerikasi orqali AQSH bilan bog'laydi. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, bu loyihaning umumiy qiymati 21 trillion dollarga tengdir.

Bu tashabbus natijasida rivojlangan mamlakatlardagi ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar bartaraf etiladi. "Bir makon, bir yo'l" loyihasining birinchi xalqaro forumi 2017-yil 14-15-may kunlari, ikkinchisi 2019-yil 26-27-aprel kunlari Pekin shahrida va uchinchi forum 2023-yil 18-oktyabrda bo'lib o'tdi. Unda dunyoning 37 mamlakatidan davlat rahbarlari, 150 davlat va 90 ta xalqaro tashkilot vakillari, hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ishtirok etdi[11]. Eng e'tiborlisi, bu tashabbus doirasida amalga oshirilgan turli xil loyihalar tufayli sayyoramizda 40 million inson [12] kambag'allik va qashshoqlikdan xalos bo'ldi.

Xitoy O'zbekistonning savdo hamkorlari orasida birinchi o'rinni egallaydi. Masalan, 2023-yil oxirida ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayriboshlash hajmi salkam 9 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2024-yilda 10 milliard dollardan oshishi kutilmoqda.

Qashshoqlikni yaxshiroq tushunishga harakat qilish, qat'iy monitoring va baholash tizimiga asoslangan sa'y-harakatlarni moslashtirish orqali Xitoy 1981-2004-yillarda 600 milliondan ortiq odamni qashshoqlikdan qutqardi. Xo'sh, Xitoy davlati bunga qanday erishdi? Tez o'sish va urbanizatsiya Xitoyda so'nggi 25 yil ichida qashshoqlikni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi, shuningdek, qator islohotlar, jumladan, iqtisodiyotning global savdo va investitsiyalar tarmog'i ochildi.

1990-yilgacha Xitoyning qashshoqlikni qisqartirish dasturi, birinchi navbatda, eng yomon ta'sirlangan hududlarda qashshoqlikni bartaraf etishga qodir bo'lmagan bir yillik va bir sektorli loyihalarga bog'liq edi. Bundan tashqari, kambag'allarning qayerda joylashganligini baholash uchun foydalaniladigan statistik tizim cheklangan edi.

Hukumat XTTB (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki)ni qashshoqlikni qisqartirish bo'yicha yangi chora-tadbirlarni, jumladan, qolgan kambag'al qatlamlarga dasturlarni yo'naltirishni yaxshilashni o'rganish uchun jalb qildi. Hukumat, shuningdek, qashshoqlikning o'zgaruvchan taqsimotini va Xitoyning farovonligini o'tkazib yuborganlarning taraqqiyotini cheklab qo'ygan omillarni tushunish uchun aniqroq va o'z vaqtida ma'lumot olishni xohladi. Bankning Xitoy bilan qashshoqlikni qisqartirish bo'yicha hamkorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) Bank moliyasi va texnik yordami bilan qo'llab-quvvatlanadigan pilot loyihalar;
- 2) natijalarni baholash va xulosalarni siyosatni ishlab chiqish jarayoniga integratsiya qilish. Bunday holatlarni ko'plab keltirish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, kambag'allik insoniyatning turmush tarziga xavf soladigan muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish uchun eng avvalo odamlarda tadbirkorlik ruhini uyg'otishimiz, biznes vakillarini qo'llab-quvvatlash, ularga erkin faoliyat yuritishga zarur sharoitlar, qulayliklar va imkoniyatlar yaratib berishda davom etishimiz zarur. Ikkinchidan, olib borilayotgan ishlar ustidan ta'sirchan deputatlik nazoratini o'rnatish lozim. Uchinchidan,

hududlarda yoshlarning hayot tarzini, bandlik darajasini doimiy o'rganib, tahlil qilib borish lozim. To'rtinchidan, ishsiz fuqarolarni va ishga joylash tashabbusini bildirgan faol tadbirkorlarga "ijtimoiy kontrakt" tizimi asosida qo'shimcha imtiyozlar paketini taqdim etish lozim. Beshinchidan, bu muammoni hal etish uchun, bu sohada ulkan tajribaga ega bo'lgan xorijiy mamlakatlar bilan ko'proq muloqot qilishimiz va bu muammodan xalos bo'lishimizga yordam beradigan aniq, konseptual strategiyani ishlab chiqishimiz lozim. Chunonchi, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda bu masalani bartaraf etishni mamlakatimizda strategik vazifa sifatida kun tartibiga qo'ydi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Xalq so'zi, 2024-yil, 27-fevral, №42 (8665), 3-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. // <https://president.uz/uz/lists/view/3324>. (25.06.2021).
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent:O'zbekiston, 2021.-B.438.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish buyicha o'quv qo'llanma. –Toshkent: "Ma'naviyat", 2021.-B.-228.
5. Mustafaqulov Sh., Murodullayev N., Xamidov R. O'zbekistonda kambag'allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati darajasida/Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar.2020. №1. –B.-80-81.
6. Xalq so'zi 2023-yil 17-iyun, №124. (8467).
7. Xalq so'zi, 2023-yil 26-sentabr, №201, (8549).
8. Xalq so'zi, 2023-yil 6-iyun, №115 (8458).
9. Xalq so'zi, 2023-yil 16-noyabr, №243(8586), 2-bet).
10. Xalq so'zi 2024-yil 20-yanvar, №15-16 (8638-8639)).
11. Xalq so'zi 2023-yil 17-oktabr №220 (8563).
12. Xalq so'zi, 2023-yil 19-oktabr, №222 (8565).
13. Xalq so'zi 2023-yil 17-oktabr №220 (8563).
14. <https://www.investopedia.com/terms/p/poverty.asp>.
15. <https://cpag.org.uk/child-poverty/poverty-facts-and-figures>.
16. <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2010/03/19/results-profile-china-poverty-reduction>.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL SPORTS COMPETITIONS AMONG PEOPLE WITH DISABILITIES

Fayziev Farrukh Uktamovich,
basic doctoral student of SamSU

Abstract. This article covers the history of the development of international sports competitions among people with disabilities, government decisions and reforms aimed at the development of Disabled Sports. In addition, the article describes the reasons and purpose of the emergence of disability sport at the global level, the prospects for the historical development of the games of the Paralympic Games.

Keywords: capacity limitation, L.Guttman, International Paralympic Committee, Uzbekistan Paraoilimpia committee, Parasport, medals, presidential decisions.

IMKONIYATI CHEKLANGAN INSONLAR O'RTASIDA O'TKAZILADIGAN XALQARO SPORT MUSOBAQALARINING RIVOJLANISH TARIXI

Fayziyev Farrux Uktamovich,
SamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan insonlar o'rtasida o'tkaziladigan xalqaro sport musobaqalarining rivojlanish tarixi, nogironlar sportini rivojlantirishga qaratilgan hukumat qarorlari va islohotlar haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Bundan tashqari maqolada jahon miqyosida nogironlar sportining paydo bo'lish sabablari va maqsadi, paralimpiya o'yinlarining tarixiy rivojlanish istiqbollari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: imkoniyati cheklanganlik, L.Guttman, Xalqaro Paralimpiya qo'mitasi, O'zbekiston Paralimpiya qo'mitasi, Parasport, medallar, Prezident qarorlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N13>

Kirish. Dunyo jamiyatida imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy hayotga moslashtirish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Xalqaro ijtimoiy zaiflik va cheklangan hayot faoliyati hamda buzilishlar nomenklaturasiga muvofiq hayot faoliyatining cheklanganligi tushunchasi ostida berilgan yosh davri uchun normal hisoblangan faoliyatni bajarish yoki uni bajarish usullarini amalga oshirishdagi har qanday cheklanganlik tushuniladi. Hayot faoliyatining cheklanganlik darajasi aynan shu tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan "og'irlik shkalasi" orqali miqdoriy ko'rsatkichlarda aniqlanadi. Turg'un funksional buzilishlarga ega bolalarning aksariyati bu nogiron insonlardir.

Imkoniyati cheklangan (nogiron) — bu shaxsiy ehtiyojlarini va ijtimoiy hayot yetishmovchiliklarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olmaydigan istalgan shaxs. Nogironlik qabul qilingan tasnifnomaga ko'ra organizmdagi doimiy buzilishlarga olib keluvchi,

hayot faoliyatining cheklanishiga sabab bo'luvchi, alohida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj tug'diruvchi ijtimoiy zaiflik sifatida talqin etiladi.

Har bir jamiyat a'zosi o'z imkoniyatlaridan to'la foydalana olmaydi. Masalan, nogironlar qatlamini olsak, aksariyat hollarda ular boshqa insonlar tomonidan kamsitilishlarga uchraydilar. To'g'ri, nogironlik holati insonning shaxsiy hayotiga, uning oila va jamiyat bilan munosabatlariga turli darajada ta'sir qilishi mumkin. Nogironligi bo'lgan shaxs, aslida, nogironlikni uni boshqalardan ajratib turadigan va hayotning tashkil etilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan narsa sifatida his qilishi mumkin. Biroq, nogironlikning ma'nosi va ta'siri atrof-muhit va jamoatchilikning munosabati nogironlikka mos keladimi yoki yo'qligiga qarab sezilarli darajada o'zgaradi. Misol uchun, bir sharoitda nogironlar aravachasidan foydalanadigan odam to'liq qaramlik darajasida bo'lsa, boshqasida u boshqa har qanday odam kabi mustaqil va ishlaydi. Holbuki, da'vo qilingan disfunksiyaning ta'siri atrof muhitga nisbatan bo'ladi va shuning uchun nogironlik nafaqat shaxsning atributi emas, balki ijtimoiy tushunchadir. Shuningdek, juda heterojen tushuncha bo'lib, bir xil ta'rifni izlashni deyarli imkonsiz vazifaga aylantiradi. Boshqa eng keng tarqalgan chalkashlik – bu nogironlikni uning sabablaridan biri bo'lgan tibbiy holat bilan tenglashtirish. Masalan, nogironlarni ko'rlik, jismoniy nuqsonlar, karlik paraplegiya kabi nogironlik turlari bo'yicha tasniflaydigan ro'yxatlar tuzilgan. So'nggi paytlarda nogironlikni ma'lum turdagi funksiyalarni bajarishdagi qiyinchilik deb ta'riflashga harakat qilindi. Shunga ko'ra, aloqa, harakatchanlik, epchillik va tezlik kabi bir yoki bir nechta asosiy sohada ishlash qobiliyatiga ta'sir qiladigan odam nogiron bo'ladi.

Bunday vaziyatdagi insonlarni sportga jalb etish bir muncha qiyin vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Chunki, insonlar ijtimoiy mavjudot bo'lgani uchun ular boshqa insonlar bilan birga yashaydilar. Bu hayotiy zarurat insonlar tomonidan ijtimoiy yashash joylarini yaratishni talab qiladi. Sport sohasi yozma va yozilmagan qoidalarga muvofiq belgilanadi. Sivilizatsiyaning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sport kabi insonlar birlashmalarida sodir bo'ladigan faoliyat bilan bog'liq ijtimoiy imtiyozlarni almashish darajasidir. Chunki hamma ham o'z yashash sharoitiga taalluqli qobiliyat va ko'nikmalarga ega emas. Demak, har bir inson ijtimoiy hayotning imkoniyat va imkoniyatlaridan foydalanishi uchun barcha davlat va xususiy muassasa va tashkilotlarning zimmasidagi majburiyat va mas'uliyat bor. Sportdagi nogironlik masalasiga shu nuqtai nazardan yondashish maqsadga muvofiq. Sport muhitiga kirish ko'pincha nogiron sportchilar uchun muhim muammo sifatida qaraladi. Shu sababli nogiron sportchilar nogiron bo'lmagan sportchilarga nisbatan rivojlanish jihatidan orqada. Shuning uchun ushbu tadqiqotda birinchi navbatda sport madaniyatidagi tafovutlar va turlicha bo'lganlarning qarashlaridagi o'zgarishlar muhokama qilinadi[6].

Jismoniy imkoniyati cheklanganlar orasida kuchli zakovat egalari, ma'naviy boy, ilmiy salohiyatini oshirishga hayotda o'z o'rnini topishga harakat qilayotgan yoshlar ko'plab topiladi. Qo'l-oyoqsiz, ko'zi yoki organizmning qaysidir a'zosi ishlamas-da, sportning qaysidir turi bilan shug'ullanib, yurtimiz bayrog'ini dunyoga ko'taradigan, kuchli asar yoki she'r yozadigan, kompyuter, televizor sozlash yoki me'yoriga yetkazib kuy yaratadigan yoshlarimizni ko'plab uchratamiz. To'rt muchasi sog' bo'la turib oilasiga, mahallasiga, jamiyatga foydadan ko'ra ko'proq ziyon keltiradigan ma'naviy qashshoq yoshlarni ham uchratishimiz mumkin. Bundan tashqari nogiron bolalarning biror mashg'ulot bilan uzoq vaqt va muntazam shug'ullanishi natijasida mushaklarda yuzaga keladigan o'zgarishlar morfologik va biokimyoviy xususiyatlar bilan belgilanadi. Organizmdagi moddalar almashinuvi jarayoni bajarilayotgan ish darajasiga

moslashadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, nogironlar sportini rivojlantirish har bir davlat uchun muhim vazifa bo'lib qolaveradi.

Adabiyotlar tahlili. Rivojlangan mamlakatlarda nogironlar muammolarini o'rganish o'zining qisqa tarixiga qaramay, doimiy ravishda rivojlanib, yangi ma'lumotlar bilan to'ldirilmoqda. Masalan, 60-yillarga qadar nogironlar uchun jismoniy tarbiya va sport bo'yicha tadqiqotlar faqat nogironlarning jismoniy va fiziologik xarakteriga, jismoniy mashqlar va postural tuzatish dasturlarining samaradorligini tasdiqlashga taalluqli edi[2]. 70-yillardagi tadqiqotlar olimlarni individual ta'lim dasturini shakllantirish uchun nogironlarning jismoniy imkoniyatlari va salohiyatini izlashga qaratilgan edi. Ushbu tadqiqotlar asosan testdan foydalanish usullariga qaratilgan. 1980-yillarning boshlarida tadqiqotchilar o'rganishning ta'sirini testlarni loyihalashga qaratdilar va o'quv jarayonini loyihalashga alohida e'tibor qaratdilar. 80-yillarning oxirlarida asosiy e'tibor laboratoriya sharoitida va o'quv muassasalarida o'quv jismoniy tarbiyasiga qaratildi. Bundan tashqari, ular tuman va viloyat jamoat markazlari va klublarini tuzdilar[3].

Turli manbalarda nogironlar sporti asoschisi sifatida germaniyalik Lyudvik Guttman deb ta'kidlanadi. Xo'sh Lyudvik Guttman kim edi. Lyudvik Guttman Germaniya klinikalaridan birida neyroxirurg bo'lib ishlagan 1933-yilda hukumatning yahudiylarga qarshi siyosati tufayli kasbiy faoliyatini to'xtatib Buyuk Britaniyaga ko'chib o'tishga majbur bo'ladi. U yangi joyda o'z kasbiy faoliyatini tiklab, o'z bilimlarini takomillashtira boshladi. Uning yutuqlaridan biri tibbiy reabilitatsiyaga sportni kiritgani bo'ldi. Guttman umurtqa pog'onasi shikastlangan bemorlarga ixtisoslashgan, o'sha paytda ikkinchi jahon urushi davom etayotganligi uchun u asosan yarador askarlarni davolagan.

Lyudvik Guttmanning sportning foydalari haqidagi gipotezasi amalda o'z isbotini topdi va ikkinchi jahon urushi yakunida unga mushak skelet tizimining buzilishi bo'lgan odamlarni davolash uchun markaz tashkil etish topshirildi. 1948-yil Londonda olimpiya o'yinlari bo'lib o'tdi. Bu olimpiya o'yinlari bilan bir vaqtda Guttman tomonidan tashkil qilingan Stok Mandivil o'yinlari boshlandi. Stok Mandivil o'yinlari ishtirokchilari orasida faqat ingliz nogiron urush faxriylari bor edi. Nogironlar aravachasida ishtirok etgan sobiq harbiylar qatnashgan musobaqada atigi bir-nechta sport dasturlari bor edi xolos. Shundan so'ng Stok Mandivil o'yinlari har yili o'tkazila boshlandi. Bu bellashuvlarda ishtirok etgan sportchilar jahonga o'zlarining mavjudligini ko'rsatib, hali ham faol hayotda ekanliklarini isbotlashdi va o'ziga o'xshagan insonlarga sport bilan shug'ullanish mumkin ekanligini bildirdilar. Keyinchalik Stok Mandivil o'yinlari Xalqaro miqyosda ham o'tkazila boshlandi. Guttmanning nogironlar sporti faoliyatiga uning italiyalik hamkasbi Antonio Maglio ham qo'shildi. Ular birgalikda 1960-yil Rimda olimpiya o'yinlari yakunlangach I yozgi nogironlar olimpiya o'yinlari tashkil etishga muvaffaq bo'ldilar. Bu nogironlar o'rtasidagi yozgi olimpiya o'yinlarida 8 ta sport turi bo'yicha 400 dan ortiq turli toifadagi nogiron sportchilar ishtirok etdilar. Tashkilotchilar tomonidan 57 ta medallar jamlanmasi mavjud edi.

1976-yilga kelib Shvetsiyada birinchi bor nogironlar o'rtasida qishki olimpiya sport o'yinlari bo'lib o'tdi. XX asrning 80-yillarga kelib paralimpiya atamasi rasman tasdiqlandi va shu bilan birga uni hisoblash 1960-yilda Rimda o'tkazilgan nogironlar olimpiadasidan boshlanishi to'g'risida qaror qabul qilindi.

Paralimpiya harakati rivojlanishidagi eng muhim voqea nogironlar uchun xalqaro sport tashkilotlarining birinchi Bosh assambleyasi bo'ldi. 1989-yil 21-sentyabrda Dyusseldorfda

(Germaniya) tashkil etilgan Xalqaro Paralimpiya qo'mitasi (IPC) xalqaro notijorat tashkilot sifatida butun dunyo bo'ylab Paralimpiya harakatini boshqaradi. Xalqaro Paralimpiya qo'mitasi (IPC)ning paydo bo'lishi milliy vakillikni kengaytirish va nogironlar uchun sportga ko'proq e'tibor qaratadigan harakatni yaratish zarurati bilan bog'liq. Xalqaro Paralimpiya Qo'mitasi nogiron sportchilar uchun yozgi va qishki Paralimpiya o'yinlari, jahon chempionatlari va boshqa xalqaro musobaqalarga tayyorgarlik ko'ruvchi va o'tkazuvchi xalqaro notijorat, nodavlat tashkilotdir. Xalqaro Paralimpiya qo'mitasi (IPC)ning oliy organi ikki yilda bir marta yig'iladigan Bosh Assambleyadir. Xalqaro Paralimpiya qo'mitasi (IPC)ning barcha a'zolari Bosh Assambleyada qatnashadilar. Xalqaro Paralimpiya qo'mitasi (IPC)ning Paralimpiya harakati masalalarini tartibga soluvchi asosiy jamlangan hujjati Olimpiya harakatidagi Olimpiya Xartiyasining o'xshashi bo'lgan Xalqaro Paralimpiya qo'mitasi (IPC) qoidalari (IPC qo'llanmasi) hisoblanadi.

1989-yilda Xalqaro Paralimpiya qo'mitasi Paralimpiya harakatining tan olingan boshqaruv organi sifatida tashkil etildi va 1994-yilda Paralimpiya o'yinlari uchun to'liq mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi. 2001-yilda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi va Xalqaro Paralimpiya Qo'mitasi 2012-yildan boshlab Olimpiya o'yinlariga mezbonlik qiladigan shahar ham Paralimpiya o'yinlarini o'tkazishga majbur bo'lgan shartnomani imzoladi. Qishki olimpiya o'yinlarining o'tkazilishi mazkur sport sohasining rivojlanishida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan. Bu musobaqalar 1948-1960-yillarda, birinchi Paralimpiya o'yinlari esa 1960-yilda Rimda bo'lib o'tgan. 16 yil o'tib, 1976-yil fevral oyida Shvetsiyaning O'rnsko'ldsvik shahrida birinchi Qishki Paralimpiya o'yinlari bo'lib o'tdi. Unda ko'zi ojiz va nogironlar ishtirok etdi. Ammo aravachada o'tirgan sportchilar uchun musobaqalar hozirgacha o'tkazilmagan. 1976-yilgacha bu o'yinlarda faqat nogironlar aravachasidagi sportchilar qatnashishi mumkin edi. Lekin 1976-yilda nogironlik toifalari kengaytirildi. Endi amputantlar va ko'rish qobiliyati zaif sportchilar ham ishtirok etishlari mumkin.

Yangi nogironlik toifalari joriy etilishi bilan "Paralimpiya" so'zining ma'nosi o'zgardi. Paralimpiya atamasi dastlab ikkita so'zni aralashtirish natijasida paydo bo'lgan: olimpiada va paraplegik, chunki u dastlab umurtqa shikastlangan bemorlar bilan bog'liq edi. Boshqa nogironligi bo'lgan sportchilar o'yinlarda qatnasha boshlagach, "Paralimpiya" ning ma'nosi endi bu sportchilarga tegishli emas edi. Natijada, so'zning ma'nosi o'zgardi. Yangi ma'noda, Paralimpiadada "Para" yunoncha "yonida" so'zidan kelib chiqqan. Bu shuni anglatadiki, bu o'yinlar Olimpiya o'yinlariga parallel ravishda o'tkaziladi. Bu ma'no bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Birinchi marta SSSR terma jamoasi 1984-yilda Avstriyaning Insbruk shahrida bo'lib o'tgan qishki Paralimpiya o'yinlarida qatnashgan. Jamoada bor-yo'g'i ikkita bronza medali bor edi, ularni chang'ichi, ko'zi ojiz chang'ichi Olga Grigoryeva qo'lga kiritdi. Paralimpiya o'yinlarida Sovet Paralimpiya sportchilari 1988-yilda Seulda debyut qilishgan. Ular suzish va yengil atletika, 55 ta medal, 21 tasi oltin.

Asta-sekin Qishki Paralimpiya o'yinlari dasturi kengayib, bugungi kunda yirik xalqaro musobaqalar orasida Olimpiadadan keyin ikkinchi o'rinni egallab turibdi. 1988-yildan boshlab yozgi va qishki Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari xuddi shu shaharlarda o'tkazib kelinmoqda. Har yili Qishki Paralimpiya o'yinlari yanada ommalashmoqda va miqyosi ortib bormoqda. Shunday qilib, agar birinchi Qishki Paralimpiya o'yinlarida 16 mamlakatdan 198 nafar sportchi ishtirok etgan bo'lsa, Pekin dunyoning 50 mamlakatidan 700 dan ortiq sportchilarni qabul qiladi, ular oltita sport turi bo'yicha 78 xil musobaqada ikki toifaga bo'lingan: qor ustidagi sport

(alp tog'lari) chang'i sporti, chang'i sporti, biatlon va snoubord) va muz sporti (chanada xokkey va nogironlar aravachasida kerling). 1992-yil Tignes-Albertvil qishki Paralimpiya o'yinlari o'tkazildi. Fransiyadagi qishki Paralimpiya o'yinlari, birinchi marta, xuddi o'sha joy va Qishki Olimpiya o'yinlari obyektlari Paralimpiya o'yinlari uchun ishlatilgan. Bundan tashqari, 1992-yildan beri Paralimpiya o'yinlari har bir Olimpiya o'yinidan 2 hafta o'tgach o'tkaziladi bir xil bir xil imkoniyatlardan, treklardan va arenalardan foydalanadigan joy. 2001-yilga kelib esa Xalqaro Olimpiya qo'mitasi va Xalqaro Paralimpiya qo'mitasi o'rtasida bitim imzolandi. Unga ko'ra 2008-yildan boshlab Paralimpiya o'yinlari ham xuddi Olimpiada bo'ladigan yilda o'tkazilishi va unda ham xuddi Olimpiada o'yinlari kabi birdek imkoniyatlardan foydalanilishi belgilab qo'yildi. 2002-yilda "bitta ariza – bitta shahar" amaliyoti joriy etildi: Olimpiya o'yinlarini o'tkazish uchun ariza avtomatik ravishda Paralimpiya o'yinlarigacha ham qo'llaniladi va o'yinlar bitta tashkiliy qo'mita tomonidan bir xil sport maydonchalarida o'tkaziladi[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Barchamizga ma'lumki tarix jamiyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Tarix fanining jamiyatdagi o'rni haqida mashhur mutafakkirlar fikr bildirib o'tganlar. Shu o'rinda mazkur fikrlarni yodga olish joizdir. Jumladan, Sitseron: Tarix — hayot murabbiysi deb ta'kidlagan bo'lsa, Leonardo da Vinchi: O'tmishni va dunyo mamlakatlarini anglash — inson zakovatining bezagidir" deb fikr bildiradi.[5] Tarix fani oldiga qo'yilgan muhim vazifalarni hal etish uchun tadqiqotchilardan zamonaviy metodologiya va tarixiy tadqiqot usullarini o'rganish talab etiladi.

Ushbu tadqiqotda xronologik fikrlash, tarixiy tushuncha, tarixiy tahlil va talqin, tarixiy qarorlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Insoniyat XXI asrni ilk choragini sekin-asta ortda qoldirar ekan, zamonaviy tobora rivojlanib borayotgan dunyoda inson manfaatlari, ehtiyojlari mamlakatlar siyosatida birinchi o'ringa ko'tarilgani bizga ma'lum. Davlatimiz ham bu yo'ldan og'ishmay jahon mamlakatlari singari fuqarolarni barcha jabhada qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Aholimizning barcha qatlami qatorida ijtimoiy himoyaga muhtoj nogiron qatlami ham bundan chetda qolmayapti. Bunday shaxslarni faol hayotga moslashuvi va jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy huquq va erkinliklari, ularning o'z iste'dodlarini to'laqonli namoyon etishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilib kelmoqda. Shu o'rinda, jismoniy imkoniyati cheklangan fuqarolarni sport bilan qamrab olinishi shunday islohotlarning biridir. Yanada inklyuziv muhit yaratishda pasport yuksak ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda, ushbu yo'nalish bo'yicha yurtimiz sportchilarimizning qayd etgan natijalari, bu sohada so'z yuritishimizga sabab bo'ladi.

Mustaqillik yillaridan Davlatimiz nogironlar sportiga e'tiborsiz bo'lmadi. Mustaqillikdan hozirgacha bo'lgan vaqt oralig'idagi nogironlar sportining rivojlanish bosqichlarini mos ravishda uch qismga ajratib olsak to'g'ri bo'ladi.

1-bosqich: Mustaqillik yillaridan 2007-yilgacha O'zbekiston Milliy paralimpiada assotsiatsiyasi tuzilgunga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr ichida ko'p bo'lmagan bir nechta aqliy, jamoaviy sport turlari kuzatiladi. Bu nisbatan mo'tadil birinchi bosqichda parashashka va parashaxmatchilarimiz o'rtasida yutuqlari qatorida bir necha bor jahon chempioni bo'lgan amputant futbolchilarimizni ham kiritamiz[8].

2-bosqich uchun biz paralimpiya assotsiatsiyasi tuzilishidan 2021-yilda bu tashkilotni O'zbekiston Respublikasi Milliy paralimpiya qo'mitasi sifatida qayta tashkil qilinishi bilan bog'lashimiz mumkin.

3-bosqichga esa 2021-yildan to hozirga qadar bo'lgan davr hisoblanadi.

2021-yil 18-maydagi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5114 qarori[5], O'zbekistonda nogironlar sportini rivojida yangi burilish bo'ldi. Bu qarorda respublikada nogironlar sportini yanada ommalashtirish, iste'dodli sportchilarni terma jamoa uchun saralash sohaga aloqador sport muassasalarini texnik bazasini loyihalarini ishlab chiqish, qishki va yozgi paralimpiya o'yinlarida davlatimiz sportchilarini ishtirokini ta'minlash, paralimpiya sport turlari bilan shug'ullanadigan trenerlar, uslubiy yo'riqchilar hamda boshqa mutaxassislarni qayta tayyorlash malakasini oshirish va kasbiy rivojlantirishning zamonaviy samarali tizimini joriy etish belgilab berildi. Ushbu PQ-5114-qarorning 2-bandida[6] O'zbekiston milliy Paralimpiya assotsiatsiyasi negizida O'zbekiston Milliy Paralimpiya qo'mitasi tashkil etildi va bu tashkilot vazifalari belgilab berildi.

Ushbu qarorda yana Respublika paralimpiya qo'mitasining hududiy filiallarini ochish, paralimpiya qo'mitasi huzurida paralimpiya sport turlari bo'yicha klublarni tashkil qilish batafsil belgilab berildi. Qarorning 7-bandida paralimpiya sport turlari bilan shug'ullanadigan trenerlar va uslubiy yo'riqchilar ko'zi ojizlar, kar va zaif eshituvchi amputantlar bilan ishlovchi mutaxassislar (surda, tiflo-surda va xalqaro surda tarjimonlari) hamda boshqa kadrlarni tayyorlash maqsadida O'zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya va sport universitetining paralimpiya fakulteti ham belgilandi. Ushbu qarorni 8-10-bandlarida paralimpiya mutaxassislarini tayyorlovchi institut tashkil qilinishi hamda 2021/2022 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya va Sport Universiteti hamda uning Nukus va Farg'ona filiallarida, shuningdek, boshqa tegishli oliy ta'lim muassasalarida paralimpiya kafedrasi shuningdek adaptiv sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya va sport magistratura mutaxassisligi ochilishi belgilab berildi.

Bu esa davlatimizdagi imkoniyati cheklangan nogiron fuqarolarni oliy ta'lim bilan yanada ko'proq qamrab olish bilan bir qatorda Vatanimiz parasportiga kerakli kadrlarni yetkazib berishni ham o'z ichiga oladi. 2022-yil 1-yanvardan boshlab paralimpiya qo'mitasi tavsiyasiga asosan olimpiya zaxiralari kollejining paralimpiya sport turlari bo'limlariga yuborilayotgan jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan sportchilar uchun besh foizgacha qo'shimcha kvotalar ajratilishi esa Respublika bo'ylab turli nogironlik toifasiga mansub bo'lgan yoshlarni o'zlari qiziqqan parasport turlariga jalb qilishda ularni professional sportchi darajasiga yetishi terma jamoalarga nomzod bo'lishiga zamin hozirladi.

Nogironlar o'rtasida jismoniy tarbiya, dam olish va sport ishlarini yanada samarali yo'lga qo'yish uchun davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatini aniq muvofiqlashtirish, bu boradagi ilmiy-tadqiqot va axborot ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish zarur.

O'zbekiston Respublikasida nogironlar uchun jismoniy tarbiya, sog'liqni saqlash va sport reabilitatsiyasini yaratish uchun quyidagi amaliy ishlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

- sport reabilitatsiyasini yaratish uchun zarur ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish;
- davlat va jamiyat rivoji uchun ushbu muammoni hal qilishning ijtimoiy ahamiyatini anglash;

- rivojlangan davlatlarning tajribalari asosida turli toifadagi nogironlar uchun turli dasturlar yaratish;

- nogironlar bilan ishlash bo'yicha professional tashkilotchilar va instruktorlarni tayyorlash va malakasini oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish.

Bir qator xorijiy mamlakatlarda nogironlar o'rtasida jismoniy tarbiya, dam olish va sport ishlari bo'yicha boy tajriba, undan oqilona foydalanish O'zbekistonda nogironlar bilan ishlashni tashkil etish va olib borishda samarali yordam berishi mumkin.

Xulosa va takliflar. O'tmishimizni hozirgi kunga yetkazishda foydalanadigan eng muhim elementlardan biri bu tarixiy muhit. Tarixiy muhitda binolar, yo'llar, qasrlar, tarixiy voqealar va tarixiy obyektlar bo'lgan ochiq joylar kabi ko'plab elementlar mavjud. Bundan tashqari, xotiralar, xatlar, xaritalar, gazetalar, rejalar, otkritkalar, shtamplar, tangalar, rasmlar, kitoblar va tarixiy narsalar tarixni o'qitishga hissa qo'shadigan elementlardir. Nogironlar sporti tarixini o'rganish keyingi avlod parasportchilarining faoliyatini samaraliroq qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, imkoniyati cheklangan insonlar o'rtasida o'tkaziladigan xalqaro sport musobaqalarining rivojlanish tarixi va sportning nogironlar hayotiga ta'siri muammosini ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, tibbiyotning sezilarli taraqqiyoti va sivilizatsiya rivojlanishiga qaramay, nogironlar soni turli sabablarga ko'ra (urush, sanoat, sport jarohatlari, yo'l transport hodisalari va hokazo) asta-sekin va barqaror ravishda o'sib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) statistik ma'lumotlariga ko'ra, nogironlar dunyo aholisining qariyb 10foizini tashkil qiladi, ulardan 20-25 foizi 16 yoshgacha bo'lgan bolalar hisoblanadi.

Aslida, bu odamlar ko'pincha jamiyatda ularga nisbatan befarqlik tufayli og'riqdan aziyat chekishadi. Kerakli shart-sharoitlarning yo'qligi, jismoniy va intellektual cheklanganligi sababli ko'pincha jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida qatnashish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Natijada ular jamiyatning quyi a'zolariga aylanib qoladilar.

So'nggi paytlarda nafaqat tibbiyot, balki jismoniy tarbiya va sport ham nogironlarga qaratildi. Jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi nogironlarning jamiyat hayotiga integratsiyalashuvi sohalarini sezilarli darajada kengaytiradi va ularning ko'ngilochar tadbirlarda, jumladan, sport tadbirlarida ishtirok etish imkoniyatlarini oshiradi. Jismoniy tarbiya va sportning zarurligi va samaradorligi nogironlarning nafaqat jismoniy va aqliy rivojlanishida, balki ularning ijtimoiy moslashuvi, rehabilitatsiyasi, jamiyat hayotiga integratsiyalashuviga xizmat qilishidadir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Башкирова М.М. Спорт инвалидов в канаде. "теор. и практ. физ. культ.", 1994, N. 5-6. с.40-41.
2. Грец Г.Н. Комплексный стенд для восстановления двигательных функций инвалидов. М., ВНИИФК, 1991. Проблемы биомеханики спорта, -с.36.
3. Чесников Н.Н. Олимпийские игры Древней Гретсий и зарождение современного олимпийского движения. -М., 1997. С.34.
4. Вяземский Е.Е., Стрелова О.Ю. Методика преподавания истории в школе. - М., 2001. — С. 16-17.
5. Шадриков В.Д. Философия образования и образовательные политики. - М.: Издательская фирма «Логос», 1993. – 181 с
6. Вторая международная конференция министров и руководящих работников, ответственных за физическое воспитание и спорт: Проект заключительного доклада, 21-25 ноября 1988 г. М.: ЮНЕСКО, 1988. - 12 с.

7. Декларация о правах инвалидов. Нью-Йорк: ООН, 1975. -Рез.3447. - 2 с.
8. Дмитриев В.С. К вопросу формирования общественно-личностной мотивационной среды физической реабилитации // Второй международный конгресс по спортивной психологии: Тез. докл. междуна. науч. конф. 12-15 июня 1995 г. - М., 1995. - С.100
9. Социально-культурные аспекты физической культуры и здорового образа жизни. М.: Советский спорт, 1996. - 96 с
10. Fagan W., Sherrill C., French R. Locus of Control of Quad Rugby Players and the Abie-Bodied Men // Klinikal Kinesiology. 1995. - V. 49.-N. 2.-P. 53 - 57.
11. Guttman L. Spinal Cord Injuries: Comprehensive Management and Research. England: Blackwell Scientific Publications, 1976. - P. 10

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

SOME ASPECTS OF SOCIAL-ECONOMIC STRENGTHENING OF MIGRANT LABOR

Azamatova Gulmira Bayirbekovna,
JizPI, PhD

Abstract. This article describes the characteristics of the development of labor migration in Uzbekistan during the years of independence, as well as the issue of women's participation in it. Also, socio-economic problems of labor migrants and some aspects of their support mechanisms are analyzed.

Keywords: women, migrants, those who went abroad, employment, human trafficking, employment.

МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҚЎЛЛАБ- ҚУВВАТЛАШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ

Азаматова Гулмира Байирбековна,
ЖизПИ, т.ф.ф.д(PhD)

Аннотация. Мазкур мақолада мустақиллик йиллари Ўзбекистонда меҳнат миграциясининг ривожланиш хусусиятлари, унда хотин-қизлар иштироки масаласи ёритилган. Шунингдек, меҳнат мигрантларининг ижтимоий-иқтисодий муаммолари ва уларни қўллаб-қувватлаш механизмларининг айрим жиҳатлари таҳлил этилган.

Калит сўзлар: хотин-қизлар, мигрантлар, хорижга кетганлар, бандлик, одам савдоси, ишга жойлаштириш.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N14>

Кириш. Мустақилликнинг илк йилларидан бошлаб Ўзбекистон Республикасида хотин-қизлар ҳуқуқлари, уларнинг қонуний манфаатларини таъминлаш учун қулай меҳнат ва турмуш шароитларини яратиш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “Ўзбекистон Республикаси ўз ҳудудида ҳам, мамлакат ташқарисида ҳам ўз фуқароларининг ҳуқуқий ҳимоясини кафолатлаши ҳақидаги конституциявий қондининг ижросини сўзсиз таъминлашимиз шарт. Афсуски, шу вақтга қадар чет элларда меҳнат қилаётган фуқароларимизнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш масаласига етарлича эътибор берилмади, десак, бу ҳам адолатдан бўлади. Бугунги кунда юртдошларимиз чет элда фақат қора меҳнат билан эмас, илм-фан, банк-молия, ахборот-коммуникация технологиялари соҳаларида фаолият кўрсатмоқда”[1] – дея қайд этган эди. Ушбу муаммоларнинг ечими юзасидан тегишли ташкилотларга кўрсатма берган Президент, “... ана шу ҳолатни инобатга олиб, хорижда қонуний асосда меҳнат қилаётган, таълим олаётган фуқароларимизга бўлган муносабат бугунги кунда тубдан ўзгариб бораётганини таъкидлаш зарур. Ўзбекистон ҳукумати бундан буён ўз фуқароларининг

хуқуқ ва манфаатларини, улар қаерда бўлишидан қатъий назар, ҳар томонлама ҳимоя қилади”[2] – деб таъкидлади.

Муҳокама. Истиқлолнинг дастлабки йилларидан Ўзбекистон меҳнат бозорида юқори малакали хотин-қизларга иш ўринлари ва талабнинг камлиги ва оилавий ҳолати, оила-никоҳ каби омиллар уларни хорижга меҳнат мигранти сифатида чиқишларига сабаб бўлди, Ўзбекистон меҳнат бозорида аёллар кўплаб муаммога дуч келди. Бу, аввало, ички ва ташқи омиллар таъсири остида мамлакат иқтисодиётида давом этадиган таркибий ўзгаришлар билан боғлиқ бўлди. Ишлаб чиқаришни янгилаш, ривожлантириш, янги технологиялар, хорижий ва маҳаллий инвестицияларни жалб қилиш йўли билан янги иш ўринларини яратиш жараёни хорижий инвестицияларнинг камлиги ёки йўқлиги ҳамда баъзи масъулиятсизликлар, кўплаб бюрократик тўсиқларнинг мавжудлиги туфайли жуда қийин бўлди.

Хотин-қизлар миграцияси аёлларнинг оиладаги зўравонликлари билан ҳам боғланди. Айни пайтда бу ҳолат дунёнинг бир қатор мамлакатларида, ижтимоий ёки иқтисодий ҳолатидан қатъий назар, барча ёшдаги хотин-қизларни азоб-уқубат чекишга мажбур қилаётган фавқулодда жиддий масала сифатида баҳоланди[3].

Оилаларда хотин-қизларга нисбатан турли зўравонликларнинг содир этилиши, аёлларнинг қонуний ҳуқуқ ва эркинликларининг поймол этилиши, баъзида иқтисодий қийинчиликлар сабаб ҳам хотин-қизлар ўртасида жиноят содир этиш ҳолатлари ҳам кучайиб борди. Айни пайтда аёллар жиноятчилигида ўғирлик, товламачилик, фирибгарлик, гиёҳвандлик воситаларининг ғайриқонуний муомаласи, савдо қоидаларини бузиш, қасддан баданга шикаст етказиш, харидор ва буюртмачиларни алдаш, таносил касалликларини юқтириш кўпчиликни ташкил этди[4].

Шундай бўлсада, эркин бозор иқтисодиётига ўтиш даври билан боғлиқ ижтимоий муаммолардан келиб чиқиб, хотин-қизларнинг чет давлатларда ишлаб келиш учун ноқонуний меҳнат миграцияси кучайиб борди. Миллий-маънавий, оилавий қадриятлар туфайли “уй бекаси” сифатида қаралган аёлларнинг бозор иқтисодиёти шароитида эркаклар ўртасидаги ишсизлик, оилавий ажримлар, иқтисодий етишмовчилик, оилалардаги носоғлом маънавий муҳит сабабли меҳнат мигрантлари сифатида иштироки кенгайиб борди. Ташқи меҳнат миграциясида хотин-қизларнинг иштироки ортиб, бу миқдорнинг ошиши Туркия давлатига бориб ишлаётган хотин-қизлар салмоғининг сезиларли ошишига сабаб бўлди. Туркияга борувчи меҳнат мигрантлари орасида аёллар сони эркакларга нисбатан анча юқори бўлиб, жами аёл мигрантларнинг 17,6 фоизини ташкил этди. Бу кўрсаткичнинг ортиб боришига Туркия давлатида меҳнат фаолиятини юритиш бошқа давлатларга нисбатан хавфсиз эканлиги, иш ҳақининг юқорилиги, бундан ташқари, миллатлар ўртасидаги дўстона муносабат, умумий ўтмиш, ўхшаш урф-одатлар, ягона дин ва ақидалар каби бир қатор омиллар сабаб бўлди[5].

Ўзбекистон жаҳон ҳамжамиятига кириб боришда инсон ҳуқуқларига алоҳида эътибор бериб борар экан 1995 йил 6 майда БМТнинг “Хотин-қизларни камситишнинг барча шаклларида барҳам бериш тўғрисида” ги Конвенциясига кўшилгач, ўтган вақт давомида Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати, Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистоннинг халқаро мажбуриятларига риоя этилиши бўйича парламент комиссияси, Демократик институтлар, нодавлат ташкилотлар ҳамда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг кенгайтирилган мажлисларида “Хотин-қизларни

камситишнинг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисида”ги Конвенциясининг бажарилиши базасидан даврий ҳисоботлар тинглаб келинди. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий маркази томонидан Конвенция қоидаларини амалга ошириш доирасида тайёрланган Олтинчи даврий ҳисобот 2016 йилдан ҳозирги кунгача бўлган даврни ўз ичига олди. Ушбу маърузани тайёрлашда 30 дан ортиқ давлат органи ва 20 дан зиёд фуқаролик жамияти институти иштирок этди[6].

Бироқ, манбаларга эътибор берилса, хотин-қизлар жинояти кўпайиб борганлигини кўриш мумкин. Масалан, 2011 йилнинг 7 ойида мамлакат бўйича хотин-қизлар томонидан жами 6 659 та жиноят содир этилган, бу кўрсаткич 2010 йилнинг шу даврига нисбатан (6 753 та) 94 тага камайди[7], лекин 2011 йил май ойи ҳолатига биргина Жиззах вилоятида хотин-қизлар томонидан 112 та жиноят содир этилган бўлса, шундан 41 таси Жиззах шаҳрига тўғри келди[8]. Самарқанд вилоятида 2011 йил май ойига келиб 317 та жиноят содир этилган, унинг 110 таси Самарқанд шаҳрига тўғри келди[9].

Шу билан биргаликда хориж давлатларида юрган аёллар орасида ҳам жиноят содир этган бир қатор аёллар бўлди. Масалан, чет давлатларда бўлиш қоидаларини бузганлиги учун депортация қилинган хотин-қизлар 2010 йилга нисбатан 2011 йилнинг 1-чорагида 10 нафарга камайди. Бу республика вилоятларининг Каттақўрғон туманида 2 нафарга, Нарпай туманида 1 нафарга, Самарқанд туманида 1 нафарга, Тойлоқ туманида 1 нафарга ошди[10].

Олиб борилган таҳлиллар шуни кўрсатдики, содир этилган жиноятларнинг асосий келиб чиқишини оиладаги носоғлом муҳит, турмуш ўртоғининг ичкиликка берилганлиги ёки болаларини турмуш ўртоғига қўйиб, турмуш ўртоғининг чет давлатларга чиқиб кетганлиги сабаб бўлган[11].

Бироқ, аксарият аёллар оиласини сақлаб қолиш учун бундай салбий ҳолатларда эътибор бермасликка ҳаракат қилдилар. Бу биринчидан, ўзбек аёлларининг оиласига садоқати билан изоҳланса, иккинчидан, ўз турмуш ўртоғига моддий қарам эканлиги билан ҳам боғлиқ бўлди. Бунда ҳам ўзбек аёллари ўз фарзандини таъминотини ўйлаб, турмуш ўртоғининг салбий хатти-ҳаракатларига кўникишга мажбур бўлди. Натижада анъанавий оилавий-никоҳ муносабатларига асосланган жамиятда бундай муаммолар ошиб борди.

Натижалар. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2007 йил 15 майдаги “Меҳнат фаолиятини амалга ошириш учун чет элларга кетаётган Ўзбекистон Республикаси фуқароларини ҳисобга олишни такомиллаштириш тўғрисида”ги 97-сонли қарори[12] нинг 4-бандига биноан Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги ҳар йили меҳнат муҳожирлари билан чуқурлаштирилган ижтимоий тадқиқотларни ўтказиб борди. Ўрганиш натижалари аёл мигрантларнинг йилдан йилга ортганлигини кўрсатди. Жойларда учраётган бу каби муаммоларни ҳал этиш мақсадида жамоат ташкилотлари томонидан фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари билан ҳамкорлик асосида хотин-қизларнинг иш билан бандлигини таъминлаш бўйича бир қатор ишлар бажарилди. Ўзбекистонда кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантириш ҳисобига 158 870 та, уй меҳнатини ташкил этиш ҳисобига 107 241 та, ижтимоий ва бозор муносабатларини ривожлантириш ҳисобига 15 173 та янги иш ўринлари яратилди[13].

Хотин-қизларнинг бандлигини таъминлаш бўйича ишлаб чиқарилган ҳудудий дастурларга кўра, 2008 йилда 280 615 та иш ўрни, шундан кичик ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланиш ҳисобига 158 748 та, уй меҳнатини ташкил этиш ҳисобига 90 674 та, ижтимоий инфратузилмаларни ривожлантириш орқали 8 542 та, янги объектларни ишга туширилиши ва ишлаб чиқарилишини кенгайтириш ҳисобига 22 651 та янги иш ўрнлари яратилди.

Биргина Наманган вилоятида 2007-йилнинг биринчи ярим йили давомида жами бўлиб, 10 641 нафар аёллар меҳнат органларига иш сўраб мурожаат этган ва улардан 8 275 нафари иқтисодиётнинг турли тармоқларига ишга жойлаштирилган[14].

Вилоят бўйича 26 та меҳнат ярмаркаси ўтказилган бўлиб, унда қатнашган 1 минг 537 нафар аёлларнинг 806 нафари иш билан таъминланди. Шунингдек, Чуст туманида 2007-йилнинг 6 оyi давомида 373 нафар аёл, шундан 112 нафари кичик корхоналар ва хусусий фирмалар ташкил этиш, 107 нафар юридик мақомга эга бўлмаган ҳолда тадбиркорликни ривожлантириш, 959 нафари меҳнат шартномаси асосида касаначиликни ташкил этиш, 179 нафари пудрат шартномаси асосида уй меҳнатини ташкил этиш ва 99 нафари оилавий бизнесни ривожлантириш ҳисобига иш билан таъминланган. Туманда чорвачиликни ривожлантириш учун 86 та оилага 27 млн. сўм миқдорида микрокредитлар берилган[15].

2008-йилда Қорақалпоғистон Республикаси Хотин-қизлар қўмитаси томонидан ишлаб чиқилган манзилли дастурга кўра, туманларда 11 минг нафардан ортиқ хотин-қиз доимий иш билан таъминланган. Қорақалпоғистонда тижорат банклари томонидан хотин-қизлар ўртасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришга 7 млрд. 381 млн. сўм миқдорида кредит ажратилган. Жумладан, “Микрокредитбанк” томонидан тадбиркор хотин-қизларга 733 млн. сўмлик имтиёзли кредит берилиши натижасида 12 241 иш ўринлари яратилган, шундан 1 800 нафар аёл касаначилик билан шуғулланган.

Ўзбекистон Республикаси Хотин-қизлар қўмитаси томонидан йўлга қўйилган “Саломатлик сектор” ларида белгиланган ҳафта кунларида Ички ишлар вазирлиги ва Соғлиқни сақлаш вазирлиги, “Маҳалла” хайрия фонди ҳамкорлигида ҳудудларда чет давлатлардан қайтганларни тиббий кўрикка ўз вақтида жалб этишни таъминлаш мақсадида оилавий поликлиника, қишлоқ врачлик пунктлари шифокорлари, патронаж ҳамширалар, профилактика нозири ва маҳалла маслаҳатчиси ҳамда маҳалла фаолларининг масъулиятларини ошириш мақсадида семинарлар, давра суҳбатлари ва учрашувлари ташкил қилиниб, аҳоли орасида тарқалиш хавфи юқори бўлган турли хил касалликлар ҳақида маърузалар қилиниб, тарқатма материаллар тарқатилган. Натижада, 2015 йилда жами 78 994 та тарғибот ишлари ўтказилиб[16], тадбирларда кўплаб аҳоли иштирок этди.

Ўзбекистон Республикаси Хотин-қизлар қўмитаси “Ўзбекистон аёллари ОИТС га қарши” лойиҳаси доирасида “ОИТС инфекциясини юқишини олдини олишда ва касалликни камайтиришда оилани аҳамияти ва роли” мавзусидаги мослаштирилган ўқув/модул қўлланма, турли семинар тренинглар, аҳоли ўртасида ОИТС га қарши турли ташвиқот-тарғибот ишларини олиб бориш учун 53 нафар тренер, 1 400 нафар волонтерлар тайёрланди ва бошқа бир қатор вазифалар амалга оширилди[17].

Бу ўтказилган тадбирларнинг 51 246 таси “Хорижда ишлашнинг қонуний асослари ҳамда одам савдосига қарши курашишнинг мазмун-моҳияти”, “Одам савдосига қарши курашишда оиладаги тарбиянинг ўрни”, “Одам савдоси: хушёр ва огоҳ бўлинг” каби мавзулардаги учрашувлардан иборат бўлди. Худудий хотин-қизлар бошқармалари ва уларнинг бошланғич ташкилотлари томонидан одам савдоси жинояти ва унинг аянчли оқибатларидан кенг оммани хабардор этишга қаратилган жами 2 162 маротаба худудий ОАВ ларда чиқишлар қилинди, жумладан, 381 маротаба телевидение, 685 маротаба радио орқали чиқишлар қилинган, худудлардаги газеталарда ушбу мавзуга доир 1 096 та мақолалар чоп этилган. Ўтказилган тадбирларда 120 196 та буклет, плакат ва бошқа турдаги огоҳликка чақирувчи материаллар иштирокчилар ўртасида тарқатилди.

Узоқ муддатга чет давлатларга чиқиб кетган аёллари сонига ўсиш сақланиб қолаверди. Узоқ муддатга чет давлатга чиқиб кетган аёллар сони 2014 йилда 122 418 нафарни, 2015 йилда 135 039 нафарни ташкил этди.

Чет давлатларда узоқ вақт бўлиб, Ўзбекистонга қайтган республика фуқароларини ўз вақтида тиббий кўриқдан ўтказиш, ҳамда уларнинг оила аъзолари ўртасида тарқалиши хавфи юқори бўлган касалликларнинг олдини олиш мақсадида Республиканинг барча худудларида хотин-қизлар қўмитасининг режасига асосан йил давомида мунтазам тарғибот ишлари олиб борилди. Мигрантларни биргина ОИВ инфекциясига текшириш ва уларнинг оила аъзоларига тарқалишининг олдини олиш борасида ижтимоий шериклик асосида маҳаллаларда ва шаҳар, туманларда ташкил этилган тезкор штаблардан олинган маълумотларга асосланиб, чет давлатлардан уч ойдан ортиқ вақт ўтиб уйга қайтган маҳалла фуқароларини ОИВ инфекциясига поликлиника ва ҚВП ларга йўналтирилди. 2015 йил давомида республиканинг барча худудларида 425 487 нафар мигрантлар яшаш жойлари бўйича ОИВ инфекциясига текширилган бўлиб, уларнинг 491 нафарига ОИВ инфекцияси аниқланган. ОИВ инфекцияси аниқланган мигрантлар тиббий кузатувга олиниб, худудий хотин-қизлар ва соғлиқни сақлаш бошқармалари, маҳаллалар томонидан уларнинг оила аъзолари ўртасида касалликнинг олдини олиш бўйича профилактик тадбирлар ўтказилган[18].

Бироқ, бу белгиланган вазифалар ҳам тўлақонли амалга оширилмаган. Масалан, Бухоро ва Андижон вилоятларининг аксарият туманларида узоқ муддат хорижда бўлиб келган хотин-қизларнинг тиббий кўриқдан ўтишига жиддий эътибор қаратилмаган ҳолатлар ҳам бўлган. Аёлларнинг тиббий кўриқдан ўтганлигини тасдиқловчи худудий тиббиёт бирлашмалари томонидан тасдиқланган ҳужжатлар, аниқланган касалликлар ва уларни даволаш бўйича олиб борилган ишлар ҳақида аниқ, таҳлилий маълумотлар мавжуд бўлмаган[19].

Хулоса. Хулоса қилиб айтганда, худудлар кесимида республиканинг Самарқанд вилояти, Тошкент шаҳри, Тошкент вилояти ҳамда водий вилоятлари хотин-қизлари энг кўп чет элга ишлашга кетганлиги аниқланди. Биргина Самарқанд вилоятининг ўзидан 90,9 минг хотин-қиз чет элда ишлади. Ташқи меҳнат миграцияси маълумотларига кўра, ўзбекистонлик хотин-қиз мигрантлар, асосан, Туркия ва Россияда меҳнат қилган. Ўзбекистонлик хотин-қизлар Россия Федерациясида хизмат кўрсатиш ва ишлаб чиқариш йўналишида, Туркия ва Бирлашган Араб Амирлигида уй хизматлари, Жанубий Кореяда эса ишлаб чиқариш йўналишларида меҳнат қилган. Қозоғистонда эса

аёлларнинг меҳнат миграциясидаги улуши деярли сезилмади. Бу давлатда меҳнат қиладиган аёл мигрантлар асосан қишлоқ хўжалигида ишладилар.

Ўзбекистон тараққиётнинг янги босқичига ўтиши даврида барча хотин-қизларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш тизимини юқори босқичга кўтариш ҳамда жамиятда хотин-қизлар ўрни ва ролини янада ошириш долзарб аҳамият касб этди. Бугунги кунда республика бўйича “Ишга марҳамат” мономарказлари, шаҳар ва туманда касб-хунарга ўқитиш маркази, МФЙ ларда ўқув масканлари фаолият кўрсатмоқда. “Ишга марҳамат” мономарказлари айнан шу йўналишларда фаолиятини олиб борувчи инфратузилмалар сирасига кирди. Бу марказлар бевосита хотин-қизларнинг бандлигини таъминлаш ва хорижда бўлиб қайтган аёллар билан ҳар томонлама ишлаш каби бир қатор вазифаларни амалга оширдилар.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – Б. 345-346.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018. – Б. 38.
3. Хейс Л., Эллсберг М., Готтеямелер М. Аёллар устидан зулмни бартараф эта туриб. Аҳолини ривожланиши бўйича маърузалар. Ўзбекистонда уйдаги зўравонликлар. Миннесота инсон ҳуқуқлари ҳимоячилари ташкилоти. – 2000. (декабрь сони) – Б.8. Интернет сайт: www.mnadvocates.org
4. Халимов Ҳ.А. Аёл-оила қўрғони. //Қонун ҳимоясида. 1998. №. – Б.34.
5. Абдурахмонова Г.К., Мухитдинов Э.М. Аҳолини иш билан бандлигини оширишда ташқи меҳнат миграциясининг аҳамияти // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. 2018, № 4. – Б. 48.
6. <http://www.ombudsman.uz/> Murojaat sanasi:2021-yil 25-noyabr.
7. ЎзМА. М-170- фонд, 1-рўйхат, 128-йиғма жилд, 96-варақ.
8. ЎзМА. М-170-фонд, 1-рўйхат, 128-йиғмажилд, 28-варақ.
9. ЎзМА. М-170-фонд, 1-рўйхат, 128-йиғмажилд, 32-варақ.
10. ЎзМА. М-170-фонд, 1-рўйхат, 124-йиғмажилд, 80-81-варақлар.
11. ЎзМА. М-170-фонд, 1-рўйхат, 124-йиғмажилд, 79- варақ.
12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2007 йил 15 майдаги “Меҳнат фаолиятини амалга ошириш учун чет элларга кетаётган Ўзбекистон Республикаси фуқароларини ҳисобга олишни такомиллаштириш тўғрисида”ги 97-сонли Қарори // <https://lex.uz/docs/1202812>
13. Ўз МА. М-170-фонд, 1-рўйхат, 69-йиғмажилд, 62-варақ.
14. Наманган вилоят Оқсоқоллар Кенгаши ва “Маҳалла” жамғармаси вилоят бўлими ҳисоботидан. 2007 йил 29 декабрь. Маълумот – № 550.
15. Наманган вилояти Чуст туман ҳокимлиги хотин-қизлар қўмитаси жорий архиви (1991–2010 йй.).
16. ЎзМА. М-170-фонд, 1-рўйхат, 209-йиғмажилд, 57-варақ.
17. ЎзМА. М-170-фонд, 1-рўйхат, 159-йиғмажилд, 33-варақ.
18. ЎзМА. М-170-фонд, 1-рўйхат, 209-йиғмажилд, 24-варақ.
19. ЎзМА. М-170-фонд, 1-рўйхат, 161-йиғмажилд, 10-варақ.

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES

Received: 10 November 2024

Accepted: 15 November 2024

Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

**THE ROLE OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP
IN SHAPING THE BUSINESS ENVIRONMENT**

Nasirkhodjayeva Dilafruz Sabitkhanovna,

“Economic theory” department of TDIU

Professor, Doctor of Economics (DSc)

Email: ndiliya@yandex.ru

Abduvahidov Behzod,

Teacher of the “Digital Economy” department of DTPI

Email: bekabduvohidov97@gmail.com

Abstract. In this thesis, the impact of shaping the business environment on the development of small business and private entrepreneurship in the country and how important it is in improving the socio-economic indicators of the region, and in addition Opinions, comments and analyzes about the impact of small business and private entrepreneurship in our country on regional economic indicators are presented.

Keywords: business, national economy, small business, private entrepreneurship, business environment.

**ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISHDA KICHIK BIZNES
VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI O‘RNI**

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna,

TDIU “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası

professori, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

Abduvohidov Behzod,

DTPI “Raqamli iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishbilarmonlik muhitini shakllantirishning mamlakatdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga ta’siri va mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatgichlarini oshirishda qay darajada ahamiyatli ekanligi va bundan tashqari mamlakatimizdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hududiy iqtisodiy ko‘rsatgichlarga ta’siri haqida fikr, mulohazalar hamda tahlillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: biznes, milliy iqtisodiyot, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, ishbilarmonlik muhiti.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N15>

Kirish. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanayotgan iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuch sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini chuqur tahlil qilish va rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish orqali mamlakatda

ishbilarmonlik muhiti yaxshilanishini ta'minlash zaruriyati ortib bormoqda. Chunki tadbirkor o'z faoliyati mobaynida nafaqat shaxsiy manfaat (foyda olish)ni ko'zlab ish qiladi, balki faoliyati orqali aholi bandligini ta'minlash, iqtisodiyotni yangi bosqichlarga ko'tarish kabi mamlakatning ijtimoiy masalalarini hal qilishda ko'maklashadi, bundan tashqari, soliqlar to'lash orqali davlat budjetiga o'z hissasini qo'shadi.

Yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining muhim jihati shundaki, bu soha aholining o'rta qatlamini shakllantirish, iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu maqsadda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tezkor rivojlantirish uchun qulay ish bilarmonlik muhiti yaratilmoqda va uning huquqiy asoslari yaxshilanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ishbilarmonlik muhitini xorijiy ilg'or mamlakatlar tajribasidan samarali foydalanishning nazariy hamda amaliy yondashuvlarni o'rganish maqsadida mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari, ilmiy adabiyotlar, davriy nashrlar tahlil qilindi, tavsiflovchi usullardan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Joriy 2024-yilning 6 oyida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport hajmi 3,8 mlrd dollarni tashkil etdi 2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 3,8 mlrd AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 28,9 % ni tashkil etgan[7; 1-b]. Bu ko'rsatkichlarga erishilishida asosiy mezon sifatida ish bilarmonlik muhitini yaratilishi ta'siri katta hisoblanadi.

Shu o'rinda, muhit tushunchasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, "muhit (arabcha – o'rab olingan) – hayot, faoliyat kechadigan tabiiy yoki ijtimoiy sharoitlar majmui"[5; 663-664-b], "muhit – bu atrofdagi shart-sharoit, holat, ushbu sharoitlar bilan bog'langan kishilar yig'indisi"[4; 7-8-b] deya izohlanadi. Demak, muhit – o'zining muayyan obyektiga nisbatan qulay hayotiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini ta'minlovchi shart-sharoitlar majmuini ifodalaydi. Mashhur amerikalik iqtisodchi Y. Shumpeter (1883-1950) o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi"[3;29-b] kitobida, tadbirkorni novator (yangilik bunyod qiluvchi odam) deb ta'riflagan. Olim tadbirkorlik faoliyatini kapitalistik iqtisodiyotning rivojlanishida, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda katta rol o'ynaydigan yangiliklarni joriy etishdan iborat, deb biladi[3; 2-6-c].

Mustaqillikka erishganimizdan buyon o'tgan qariyb 33 yillik davr mobaynida tadbirkorlik sohasida yuqori natijalarga erishilayotganini e'tiborga olgan holda ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda hozirgi kunga qadar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishiga bevosita va bilvosita to'sqinlik qilayotgan, tadbirkorlik faoliyati erkinligini cheklayotgan bir qator muammolar mavjud. Bevosita to'sqinlik qiluvchi omillar[4; 20-25,34-35-b]:

- Qonunchilikning barqaror emasligi Kichik biznes uchun doimiy o'zgarib turadigan qonunchilik va tartib-qoidalar tadbirkorlarning biznes rejalarini aniq tuzishiga xalaqit beradi.
- Soliq yuklamasi va byurokratik to'siqlar: Soliq tizimidagi murakkablik va ko'p turdagi soliq to'lovlari kichik tadbirkorlar uchun qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Byurokratik tartib-qoidalar esa tadbirkorlar uchun hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonini cho'zib yuboradi.

- Moliyaviy resurslarga yetishishning cheklanganligi: Bank kreditlari va boshqa moliyaviy manbalarga yetishishning murakkabligi kichik bizneslar uchun o‘shirish imkoniyatlarini cheklaydi. Xususan, kredit olish uchun yuqori garov talablari ko‘p tadbirkorlar uchun to‘siq bo‘lmoqda.
 - Raqobat muhiti va monopoliyalar: Ba‘zi sohalarida monopoliyalarning mavjudligi kichik tadbirkorlarning bozorga kirishiga va rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.
 - Yuqori darajadagi korrupsiya: Korrupsiya kichik bizneslarning turli davlat organlari bilan aloqalarida qiyinchilik tug‘diradi, bu esa biznes jarayonlarini sekinlashtiradi va qo‘shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi.
- Bilvosita to‘sqinlik qiluvchi omillar:
- Tadbirkorlik madaniyatining rivojlanmaganligi: O‘zbekistonda tadbirkorlik madaniyatining kam rivojlanganligi, ta‘lim va treninglarning yetarli emasligi ko‘plab potensial tadbirkorlarning faoliyatini boshlashiga to‘sqinlik qiladi.
 - Kadrlar yetishmasligi va malakasizligi: Ko‘plab kichik bizneslar o‘z sohalarida yetarli bilim va ko‘nikmaga ega mutaxassislarni topishda qiyinchilikka duch kelishadi, bu esa biznes jarayonlariga salbiy ta‘sir qiladi.
 - Infratuzilma muammolari: Elektr ta‘minoti, transport, va aloqa xizmatlaridagi cheklovlar kichik bizneslarning samaradorligini pasaytirishi mumkin.
 - Bozor ma‘lumotlarining yetarli emasligi: Bozor tahlili va tadqiqotlariga yetarli e‘tibor berilmagani sababli kichik bizneslar o‘z faoliyatlarini samarali rejalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.
 - Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikning pastligi: Yirik iqtisodiy o‘zgarishlar va valyuta kursining beqarorligi tadbirkorlar uchun noaniqliklarni oshiradi, bu esa ular uchun xavf-xatarlarni oshiradi.

Bu omillar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda sezilarli to‘siqlarni yuzaga keltiradi. Ularni bartaraf etish uchun davlat tomonidan aniq strategiyalar ishlab chiqilishi va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish zarur.

Tahlil va natijalar. Yuqorida keltirilgan omillarni salbiy ta‘sirini qanday bartaraf etish mumkin, bu sharoitda, bugungi kunda ishlab chiqarish va biznes sohasida yetakchi bo‘lgan xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish va uni mintaqamiz sharoitlariga mos keladigan strategiyalarni ishlab chiqish maqbul bo‘ladi. Masalan, Xitoy hukumati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarga qarshi turish uchun bir qator strategiyalarni amalga oshirgan, va quyida ularning asosiy choralarini ko‘rsatish mumkin.

Bevosita choralar:

- Qonunchilik va huquqiy himoya: Xitoy hukumati kichik bizneslarni qo‘llab-quvvatlash uchun huquqiy asoslarni yaratdi. 2007-yilda qabul qilingan Xususiy mulk to‘g‘risidagi qonun xususiy tadbirkorlarning mulkiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, bu tadbirkorlar uchun ishonchli muhit yaratdi. Shuningdek, huquqiy tizim orqali kichik va o‘rta korxonalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi, jumladan, bankrotlik jarayonlarini tartibga solish kabi choralar ko‘rildi.
- Soliq imtiyozlari: Kichik va o‘rta biznesni rag‘batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari joriy qilindi. Soliq yuklamasini kamaytirish orqali Xitoy hukumati kichik tadbirkorlar uchun soliq ma‘muriyatchiligini soddalashtirdi va ba‘zi sektorlarda nol darajali yoki

kamaytirilgan soliq stavkalarini qo'lladi. Bu choralar xususiy tadbirkorlarning o'sishini qo'llab-quvvatladi.

- Moliyaviy qo'llab-quvvatlash va kredit dasturlari: Xitoyda kichik bizneslarga moliyaviy resurslarga kirishni yaxshilash maqsadida turli imtiyozli kredit dasturlari va moliyaviy xizmatlar tashkil etildi. Xitoy Xalq Banki orqali kichik va o'rta korxonalar uchun arzon foizli kreditlar taqdim etildi. Shuningdek, moliya texnologiyalari (FinTech) sektorining rivojlanishi kichik bizneslar uchun kredit olish imkoniyatlarini kengaytirdi.
- Infratuzilmani rivojlantirish: Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat tomonidan zamonaviy infratuzilma yaratish ishlari amalga oshirildi. Shu jumladan, internet tarmoqlarining kengaytirilishi, logistik xizmatlarning yaxshilanishi va sanoat zonalarini tashkil etilishi kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatladi.

Bilvosita choralar:

- ✚ Raqobat muhiti va bozorni erkinlashtirish: Xitoy hukumati iqtisodiy islohotlar orqali bozorni erkinlashtirish choralari ko'rdi. Bu islohotlar natijasida ko'plab sohalarda monopoliyalari kamaytirildi va xususiy sektor o'sishi uchun kengroq imkoniyatlar yaratildi. Raqobat muhitining yaxshilanishi kichik bizneslar uchun yangi bozor imkoniyatlarini yaratdi.
- ✚ Texnologiya va innovatsiyalarni rag'batlantirish: Xitoy hukumati innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali kichik bizneslar uchun raqobatbardosh ustunliklarni oshirdi. Texnoparklar, innovatsion markazlar, va ilmiy-tadqiqot institutlari orqali xususiy bizneslar yangi texnologiyalarni o'zlashtirish imkoniga ega bo'lishdi. Shuningdek, hukumat IT va texnologiya sektoriga sarmoya kiritishni rag'batlantirdi, bu esa kichik bizneslarga o'z mahsulotlarini raqamlashtirish va modernizatsiya qilishga yordam berdi.
- ✚ Kadrlar malakasini oshirish: Xitoyda tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish uchun ta'lim va malaka oshirish dasturlari amalga oshirildi. Hukumat tomonidan tashkil etilgan tadbirkorlik treninglari va kurslar kichik tadbirkorlar uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni oshirishga yordam berdi. Shuningdek, davlat universitetlari va xususiy sektor hamkorliklari orqali yangi biznes g'oyalarni rivojlantirish qo'llab-quvvatlandi.
- ✚ Tashqi savdo va eksportni qo'llab-quvvatlash: Xitoy hukumati kichik bizneslarni tashqi bozorlarga chiqishi uchun turli ko'mak dasturlarini joriy qildi. Bu borada eksportni rag'batlantirish, xalqaro ko'rgazmalarda ishtirokni moliyalashtirish, hamda xalqaro aloqalarni mustahkamlash orqali kichik va o'rta bizneslar uchun yangi savdo imkoniyatlari yaratildi.
- ✚ Bozor ma'lumotlariga kirishni ta'minlash: Bozor tadqiqotlari va statistik ma'lumotlarga oson kirish kichik bizneslar uchun muhim ahamiyatga ega. Xitoy hukumati kichik bizneslarning bozor tahlillariga kirishini osonlashtirish uchun raqamli platformalar va ma'lumotlar bazalarini tashkil qildi, bu tadbirkorlarga o'z faoliyatlarini samarali rejalashtirishga yordam berdi.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar orasida AQShda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirish uchun davlat va mahalliy budjetlardan to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yordam ko'rsatiladi. Mablag'larning taqdim etilishi asosan qaytarilish prinsipi asosida amalga oshiriladi, bu esa budjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashga yordam beradi va umumdavlat manfaatlari yo'lida ustuvor bo'lgan


sohalarni maqsadli ravishda kreditlash imkonini yaratadi. Dunyoning boshqa mamlakatlaridan farqli ravishda, AQShda kichik korxonalar soliq imtiyozlaridan foydalanmaydilar, aksincha, ular moliyaviy kafolatlar, subsidiya, dotatsiya bilan qo'llab-quvvatlanib turadilar. AQShda kichik korxonalar faoliyatini subsidiyalashga yo'naltiriladigan davlat budjeti mablag'laridan kichik korxonalarga ko'pincha past foizlarda kreditlar beruvchi tijorat banklariga kafolatlar va kompensatsiyalarni ta'minlash uchun hamda yangi korxonalarni tashkil etish yoki amaldagilarni texnik qayta ta'mirlash ishlari amalga oshirilayotganda foydalaniladi. Bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan iqtisodiyot yo'nalishlaridan biri tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha AQSh tajribasi shundan iboratki, yirik korxonalardan chetlashish (voz kechish) va kichik firmalarni ko'paytirish zaruratligini tasdiqlaydi. Tadbirkorlik faoliyatining bunday shakli zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan samarali foydalanish va iste'molchilar ehtiyojini to'laroq qondirish imkonini beradi.

AQShda 70-yillarda "Kichik – juda soz" shiori olg'a surilgan bo'lib, amerikalik iqtisodchilar P.Piters va R.Uterment bir korxonada 500 kishidan ortiq ishlovchilarni bo'lishi jiddiy va kutilmagan muammolarni keltirib chiqaradi, deb hisoblashgan. Kichik hajmdagi firmalarda, aksincha, nafaqat yangiliklarni joriy qilish, balki mehnat unumdorligini oshirish imkonini ham beradi[7;151-b].

Quyidagi jadvalda keltirilgan Yevropa mamlakatlaridagi tadbirkorlar uchun ajratilgan kredit foizlariga nazar solar ekanmiz nima uchun Yevropada ishlab chiqarish va raqobatbardoshlik o'zining yuksak darajasiga chiqqanligini tushunish qiyin emas, ya'ni Yevropa mamlakatlarida tadbirkorlar uchun kredit stavkasi o'rtacha 4,21% dan 6,93% gacha tashkil etadi bu esa o'zbekistondagi tadbirkorlik uchun yaratilgan muhitdan ancha jozibador hisoblanadi bunga asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

- 1) O'zbekistonda inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori bo'lib, bu kredit foizlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.
- 2) Banklar kredit berishda qaytarilmaslik xavfini hisobga oladi. Kreditlar qanchalik xavfli bo'lsa, bank foizlarni shunchalik yuqori belgilaydi.
- 3) Ko'pgina banklarda yetarli pul mablag'lari yo'qligi sababli, ular bor resurslarini asosan kreditlarga yo'naltirishadi. O'zbekistonda katta miqdordagi pul mablag'lari bilan ishlaydigan moliyaviy bozorlar cheklangan, shuning uchun kreditlar qimmatroq bo'ladi.
- 4) Markaziy bankning asosiy stavkalari ham tijorat banklarining kredit stavkalariga ta'sir qiladi.

Yuqorida keltirilgan muammolar tadbirkorlar o'zini faoliyatini yuritishga katta ta'sir kuchiga ega hisoblanadi ammo bu muammolarni ijobiy hal etish uchun eng avvalo bu vaziyatni vujudga keltirayotgan richaglarni aniqlash lozimdir. Masalan tadbirkorga berilgan kreditni qaytmaslik xavf darajasi kreditni foiz stavkasini yuqorilashiga sabab bo'ladi deyiladi ammo tadbirkor qachon kreditni qaytarmaydi degan savolga hech kim e'tibor bermaydi, ya'ni tadbirkor moliyaviy savodxonligi yo'qligi eng asosiy sabablardan biri hisoblanadi bundan tashqari ko'pchilik tadbirkorlar tomonidan kredit maqsadli sarflanmasdan boshqa maqsadlarda foydalanishini ko'p kuzatamiz bunga asosiy sabab nazorat va qonun buzarlarga jiddiy javobgarliklarga tortilmasligi emasmi masalan biz havas qiladigan Xitoyda agar qaysidir mansabdor yoki jismoniy shaxs korrupsiyaga yo'l qo'yadigan yoki davlat budjetiga katta ziyon yetkazadigan bo'lsa u qonun buzarlari o'lim jazosi bilan jazolanadi bizda esa nari borsa uzoqroq muddatga qamaladi va ma'lum bir muddatdan keyin esa amnistiyaga tushib yana o'sha ishini



davom ettirish imkoniyati mavjud ya'ni yuqoridagi vaziyatni vujudga keltiruvchi asosiy sabab ijtimoiy-iqtisodiy institutlarning aslida belgilangan tartibda o'zining funksional vazifalarini bajarmasligi bo'lmoqda[6;254-b].

1-Jadval. Yevropa hududidagi nomoliyaviy korporatsiyalarga berilgan kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi 2024-yil iyul holatiga ko'ra, mamlakatlar bo'yicha [12]

Yevropa hududida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilgan imkoniyatlar quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan:


- ❖ Moliyaviy qo'llab-quvvatlash: Yevropa Investitsiya Banki (EIB) – EIB kichik va o'rta biznes (KOB) uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash manbalaridan biri hisoblanadi. Bank orqali kichik bizneslar arzon kreditlar olishlari va o'z bizneslarini kengaytirishlari mumkin. Yevropa Ittifoqi grantlari va kredit dasturlari: Yevropa Ittifoqi tadbirkorlar uchun maxsus grant va imtiyozli kredit dasturlarini taqdim etadi. Masalan, "Horizon Europe" dasturi innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi grantlar taqdim etadi, COSME (Competitiveness of Enterprises and SMEs) esa kichik va o'rta bizneslar uchun moliyalashtirish va biznesni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taklif etadi.
- ❖ Bozorga kirish va savdo imkoniyatlari: Yagona bozor – Yevropa Ittifoqining Yagona bozor siyosati orqali tadbirkorlar Yevropa bo'ylab 500 milliondan ortiq aholiga ega yirik bozorga kirish imkoniyatiga ega. Bu tadbirkorlikni xalqaro miqyosda kengaytirish uchun juda qulay imkoniyatdir. Shuningdek, bojxona to'siqlarining yo'qligi va erkin savdo tartiblari biznes uchun savdo jarayonlarini osonlashtiradi. Erkin savdo

kelishuvlari: Yevropa Ittifoqi bir qator davlatlar bilan erkin savdo kelishuvlariga ega bo'lib, bu kichik va o'rta bizneslarga xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu kelishuvlar eksport va import faoliyatini kengaytirishga yordam beradi.

- ❖ Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash: "Horizon Europe" – bu YI tomonidan tadbirkorlar va startaplar uchun innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan yirik dasturdir. Tadbirkorlar yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun grantlar va ilmiy-tadqiqot loyihalariga moliyaviy qo'llab-quvvatlash olishlari mumkin.
- ❖ Soliq imtiyozlari va regulyator yordami: Soliq imtiyozlari – bir qator Yevropa mamlakatlari innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni rivojlantiruvchi kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari taqdim etadi. Masalan, Fransiya va Germaniya tadbirkorlar uchun soliq yukini kamaytirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishda katta rol o'ynaydi.
- ❖ Ta'lim va malaka oshirish dasturlari: Erasmus for Young Entrepreneurs – bu dastur yosh tadbirkorlarga tajriba va bilimlarni oshirish imkoniyatini beradi. Ular Yevropaning boshqa davlatlaridagi muvaffaqiyatli biznes egalari bilan hamkorlik qilib, amaliy ko'nikmalar olishlari va xalqaro tarmoqda o'zlarini tanitishlari mumkin.
- ❖ Tadbirkorlik infratuzilmasi: Biznes-inkubatorlar va akseleratorlar – Yevropada ko'plab biznes-inkubatorlar va akseleratorlar mavjud bo'lib, ular yangi tadbirkorlik loyihalariga qo'llab-quvvatlash, hamkorlik va investorlar bilan bog'lanish imkoniyatlarini taqdim etadi. Masalan, Berlin, Amsterdam va London kabi shaharlar Yevropa startap ekotizimining markazlari hisoblanadi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi iqtisodiyotning turli sohalarida biznesning holati va rivojlanish istiqbollari baholash uchun olib borgan so'roviga ko'ra (2-jadval) umumiy biznes iqlimining o'sishi hozirgi baholash va kutishdagi ijobiy o'zgarishlarni aks ettirdi unga ko'ra mart oyida biznes iqlimining konsolidatsiyalashgan indeksi fevral oyiga nisbatan 4 punktga ko'tarilib, 60 ga etdi, bu esa biznes faoliyatining yanada o'sishini ko'rsatdi. Biroq, o'tgan mart oyida bu ko'rsatkich 64 punktdan yuqori edi. Biznes iqlimining o'sishi asosan qishloq xo'jaligi va sanoatning ijobiy tendensiyalari bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligida biznes iqlimi indeksi bir oy ichida 20 punktga ko'tarildi. Bu korxonalarining joriy holatini baholashning 4 foiz punktga yaxshilanishi, talabning 6 ta bandga o'sishi va ishchilar sonining 14 ta bandga ko'payishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, ushbu sektordagi korxonalarining kelajakdagi holatiga bo'lgan umidlar ham 4 ta bandga oshdi. Mart oyida sanoatdagi biznes-iqlim indeksi 2 punktga ko'tarildi, bu esa tadbirkorlarning o'z korxonalarining hozirgi va kelajakdagi holati bo'yicha prognozlarini yaxshilash bilan bog'liq. So'rov natijalariga ko'ra, kompaniyalarning 36% sanoatning hozirgi holatini yaxshi deb bilishadi, bu o'tgan oyga nisbatan 7 foiz punktga ko'pdir. Menejerlar, shuningdek, talabning 5 foiz punktga oshishini taxmin qilishmoqda. Biroq, mart oyida qurilish sohasida biznesni baholash 4 punktga, xizmat ko'rsatish sohasida esa 3 punktga kamaydi. Qurilishda hozirgi holatni baholash 10 punktga kamaydi va talabga bo'lgan umidlar 4 punktga kamaydi. Xizmat ko'rsatish sohasida biznesning kelajakdagi o'sishi bo'yicha umidlar barqaror bo'lib qoldi-kompaniyalarning qariyb 80% istiqbollarni ijobiy deb hisoblaydi, ammo ishchilar sonining ko'payishi bo'yicha umidlar 3 punktga kamaydi. Biznesning hozirgi holatini baholashning umumiy indeksi o'tgan oyga nisbatan 6 punktga ko'tarilib, 44 ga etdi. Bu sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlarining o'zgarishi bilan bog'liq. O'sishning asosiy

hissasi qishloq xo'jaligi tomonidan amalga oshirildi, bu yerda ko'rsatkichlar 25 punktga yaxshilandi. Biroq, xizmat ko'rsatish sohasida 3 punktga ozgina pasayish kuzatildi.




2-Jadval: O'zbekistonda ishbilarmonlik muhiti umumiy indeksi dinamikasi[14]

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi iqtisodiyotning turli sohalarida biznesning holati va rivojlanish istiqbollarini baholash uchun o'tkazgan so'rovida qatnashgan tadbirkorlarning qariyb yarmi biznes yuritishda to'siqlar borligi haqida xabar berishdi. Bularga esa:

- ❖ Sanoatdagi tadbirkorlar tobora ko'proq moliyalashtirish;
- ❖ yuqori foiz stavkalari;
- ❖ elektr ta'minotidagi uzilishlar bilan bog'liq muammolarga duch kelishmoq.

Qishloq xo'jaligida asosiy qiyinchiliklar suv tanqisligi va elektr ta'minotidagi uzilishlar bilan bog'liq. Qurilish sohasida korrupsiyaga qarshi kurash yaxshi natijalarga erishdi. Biroq, xizmat ko'rsatish sohasida yuqori soliqlar va moliyalashtirish masalalari bilan bog'liq muammolar ko'paydi. Umuman olganda, tadbirkorlarni tashvishga soladigan asosiy muammolar moliyalashtirish, yuqori foiz stavkalari va soliq ma'muriyatini o'z ichiga oladi.

Quyidagi jadvaldan(3-Jadval) ko'rinib turibdiki O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun moliyaviy institutlardan beriladigan kreditlar foiz stavkalari juda baland ko'rsatgichga ega. Bu esa albatta biznesni yo'lga qo'yimoqchi bo'lgan tadbirkorlarni faoliyatni boshlashga to'siq bo'lmoqda. Chunki albatta tadbirkorlar olayotgan kreditlarini kelgusida qaytarishi kerak bo'ladi. Bu vaziyatda esa foiz stavkasi qanchalik baland bo'lsa vaziyat shuncha darajada tadbirkorlar olgan kreditlarini qaytarishi chigallashadi.



3- Jadval. So'nggi o'n yil ichida O'zbekistonda kreditning o'rtacha foizi o'zgarishi[13]

O'zbekiston bir necha yillar davomida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun qator islohotlar amalga oshirayotgan bo'lsada, ayrim sohalarida Yevropaga nisbatan ortda qolmoqda. Quyida O'zbekistonning Yevropadagi tadbirkorlik muhitidan ortda qolayotgan asosiy jihatlari keltirilgan:

❖ Qonunchilik va huquqiy barqarorlik

- Yevropa: Yevropa Ittifoqi davlatlarida tadbirkorlik uchun aniq va barqaror qonunchilik tizimi mavjud. Xususiy mulk huquqi, raqobatni tartibga soluvchi qonunlar, shuningdek, soliq qonunchiligi bo'yicha barqarorlik tadbirkorlar uchun ishonchli huquqiy muhit yaratadi. Tadbirkorlar qonunlardagi kutilmagan o'zgarishlardan kamroq xavotirda bo'ladilar.
- O'zbekiston: O'zbekistonda so'nggi yillarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, qonunchilik barqarorligi va huquqiy himoya darajasi hali ham Yevropaga nisbatan zaifroq. Xususiy mulk himoyasi va korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlaridagi byurokratik to'siqlar hali ham muhim muammolar bo'lib qolmoqda.

❖ Moliyaviy resurslarga kirish

- Yevropa: Yevropada kichik va o'rta bizneslar (KOB) uchun moliyaviy manbalarga keng kirish imkoniyati mavjud. Xususan, Yevropa Investitsiya Banki, KOBga mo'ljallangan moliyaviy dasturlar va xalqaro moliyaviy tashkilotlarning grantlari va kreditlari orqali tadbirkorlar kapital topishda qulay imkoniyatlarga ega. Shuningdek, FinTech xizmatlari va venture capital investitsiyalari rivojlangan.
- O'zbekiston: O'zbekistonda kichik va o'rta bizneslar uchun moliyalashtirish imkoniyatlari nisbatan cheklangan. Bank kreditlari olish qiyin bo'lib, ularning

shartlari qattiq va foiz stavkalari yuqori bo'lishi mumkin. Venture capital va startaplar uchun moliyalashtirish imkoniyatlari esa nisbatan kam rivojlangan.

❖ **Innovatsiyalar va texnologiyalar**

- Yevropa: Yevropa davlatlari innovatsiyalar va texnologiyalarni rivojlantirishda jahonning yetakchi hududlaridan biri hisoblanadi. Keng qamrovli texnoparklar, ilmiy-tadqiqot institutlari va "Horizon Europe" kabi yirik grant dasturlari mavjud. Yevropadagi kichik bizneslar innovatsiyalarni tijoratlashtirish va yangi texnologiyalarni joriy etishda ko'plab imkoniyatlarga ega.
- O'zbekiston: O'zbekistonda innovatsiyalarni rivojlantirish va texnologiyalarni joriy etish hali ham rivojlanish bosqichida. Innovatsion startaplar soni nisbatan kam bo'lib, ilmiy-tadqiqot ishlarini tijoratlashtirish imkoniyatlari cheklangan. Innovatsion dastur va grantlar mavjud bo'lsa-da, ular Yevropadagi darajada keng ko'lamda emas.

❖ **Tadbirkorlik madaniyati va ta'lim**

- Yevropa: Yevropada tadbirkorlik ta'limi va tadbirkorlik madaniyati ancha rivojlangan. Universitetlar, kasb-hunar markazlari va tadbirkorlik uchun inkubatorlar keng miqyosda faoliyat ko'rsatib, tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirishga katta hissa qo'shmoqda. Shuningdek, tadbirkorlik bo'yicha treninglar, mentorlik dasturlari va kurslar juda keng tarqalgan.
- O'zbekiston: O'zbekistonda tadbirkorlik madaniyati so'nggi yillarda rivojlanib bormoqda, ammo hali ham tadbirkorlik ta'limi va amaliy dasturlar nisbatan cheklangan. Tadbirkorlik bo'yicha trening va kurslar ko'paymoqda, lekin ular keng qamrovli emas va ko'p hollarda markazlashgan shaharlar bilan cheklangan.

❖ **Infratuzilma va logistika**

- Yevropa: Yevropa davlatlari tadbirkorlar uchun yuqori sifatli infratuzilma va logistika tizimlarini ta'minlaydi. Zamonaviy transport tizimlari, raqamli infratuzilma va keng miqyosli logistika xizmatlari orqali tadbirkorlar o'z mahsulotlarini oson va tez yetkazib berish imkoniyatiga ega.
- O'zbekiston: O'zbekistonda infratuzilma so'nggi yillarda rivojlanayotgan bo'lsa-da, ayrim hududlarda transport va logistika xizmatlari hanuz takomillashtirilishi zarur. Yevropa bilan solishtirganda raqamli infratuzilma va logistika tizimlari ko'lamida O'zbekiston hali ham ortda qolmoqda.

❖ **Raqobat muhiti**

- Yevropa: Yevropa davlatlarida raqobat muhiti nisbatan shaffof va erkin. Monopoliyalar kamaytirilgan bo'lib, kichik bizneslarning bozorga kirishi va ularda faoliyat olib borishi uchun qulay shart-sharoitlar mavjud
- O'zbekiston: O'zbekistonda ayrim sohalarda monopoliyalar mavjud bo'lib, bu kichik bizneslar uchun bozorga kirishda to'siqlar yaratadi. Raqobat siyosati Yevropaga qaraganda nisbatan zaifroq va monopoliyalar bozor dinamikasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda, ammo huquqiy barqarorlik, moliyaviy resurslarga kirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, soliq tizimi va infratuzilma kabi sohalarda Yevropaga nisbatan ortda qolmoqda. Ushbu sohalarda rivojlanish uchun islohotlarni yanada chuqurlashtirish va tadbirkorlik muhitini

yaxshilash zarur. O'zbekistonda tadbirkorlik muhitini yaxshilash uchun bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Quyidagi takliflar tadbirkorlikni rag'batlantirish, biznes muhitini yanada raqobatbardosh va barqaror qilishga yo'naltirilgan:

- Xususiy mulkni yanada mustahkamlash;
- Barqaror va aniq qonunchilik tizimini yaratish;
- Kichik bizneslarga nisbatan qonunchilikni soddalashtirish;
- Moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish;
- Startup ekosistemi rivojini qo'llab-quvvatlash;
- Ta'lim va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish;
- Tadbirkorlik bo'yicha ta'limni takomillashtirish.

Muallifning fikricha, yuqorida keltirilgan takliflar O'zbekistonda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, innovatsiyalarni rag'batlantirish va tadbirkorlik uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu takliflar hududdagi kichik bizneslarning xalqaro bozorga chiqishi, innovatsiyalarni rivojlantirishi va turli moliyaviy, texnik va huquqiy qo'llab-quvvatlashdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu imkoniyatlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va tadbirkorlar uchun qulay biznes muhitini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Tadbirkorlik asoslari: kasb ta'limi (iqtisodiyot) yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'l. H. R. Hamroyev; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Yangi nashr, 2010. – 360 b.
2. B.J.Ishmuxamedov, A.A.Abdurasulov. Kichik biznes va tadbirkorlik: O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnika instituti, 2018, -143 bet
3. Й. Ш умпетер Теория эконом ического развития. — М., 1982. 29-6.
4. Экономический словарь./ Багудина Е.Д., Болшаков А.К. и др.; /отв.ред. Архипов А.И. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004. -624 с
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 663-664-b
6. Daron Ajemo'g'li, Jeyms A. Robinson: Mamlakatlar tanazzuli sabablari
7. S.V.Shishin. "Maloe predprinimatelstvo: suщnost, mesto i rol v natsionalnoy ekonomike". M: Olma-press, 2012, 151-b.
8. <https://www.sciencedirect.com/>
9. <https://stat.uz/uz/>
10. <https://lex.uz/uz/>
11. Gazeta.uz
12. <https://www.statista.com>
13. Qalampir.uz
14. <https://kapital.uz>

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

IMPROVING THE SCIENTIFIC METHODOLOGY OF INVESTMENT ACCOUNTING IN ENTERPRISES

Abdullayev Altinbek Yangibayevich,

TSAU, Professor of the “Accounting, analysis and audit” department,
doctor of economic sciences, associate professor

Kholyorov Parda Sadullaevich,

TSAU, Senior teacher of the «Accounting, analysis and audit» department

Abstract. The article develops directions for improving the methodological aspects of investment accounting at a processing plant. The purpose of the study is to form an idea of the theoretical, methodological rules and tools for accounting for investments at a processing plant. The article analyzes retrospective indicators in order to increase the production of flour and compound feed at a processing plant, describes the technology of the influence of turnover and composition of investments (grain) on the increase in production, their general relationship and the level of influence on them. , development of models and algorithms for turnover and composition of investments (grain). In the study, by assessing the impact of investments (grain) on the efficiency of combined production of flour and compound feed, a decision-making mechanism for the joint production of flour and compound feed is proposed and an investment forecast for them for 2030 was developed.

Key words: investment accounting, flour and feed, turnover and investment structure, decision-making, increasing production efficiency, searching for internal reserves to reduce costs.

КОРХОНАЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНИНГ ИЛМИЙ-МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич,

ТДАУ «Бухгалтерия ҳисоби, таҳлил ва аудит» кафедраси
профессори, и.ф.д., профессор

Холиёров Парда Саъдуллаевич,

ТДАУ «Бухгалтерия ҳисоби, таҳлил ва аудит» кафедраси
катта ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада қайта ишлаш корхонасида инвестициялар ҳисобининг методологиясини такомиллаштириш йўналишлари ишлаб чиқилган. Тадқиқотнинг мақсади қайта ишлаш корхонасида инвестициялар ҳисобининг назарий, услубий қоидалари ва воситалари билан боғлиқ концепцияни шакллантирилган. Мақолада қайта ишлаш корхонасида ун ва ем маҳсулотларини кўпайтириш мақсадида ретроспектив кўрсаткичлар таҳлил қилинади, инвестициялар (дон) айланмаси ва таркибининг маҳсулот ишлаб чиқаришни кўпайтиришга таъсир кўрсатиш технологияси тавсифланади, уларнинг умумий алоқадорлиги ва уларга таъсир кўрсатиш даражаси инвестициялар (дон) айланмаси ва таркибининг моделлари ва алгоритмлари ишлаб чиқилган. Тадқиқотда инвестициялар (дон)нинг ун ва омихта ем маҳсулотларини биргаликда комплекс ишлаб чиқариш самарадорлигига таъсирини баҳолаш орқали қарорлар қабул қилиш механизми, ун ва омихта ем маҳсулотларини биргаликда ишлаб чиқариш ва улар учун киритиладиган инвестицияларнинг 2030 йилга мўлжалланган прогнози ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: инвестициялар ҳисоби, ун ва ем маҳсулотлари, инвестициялар айланмаси ва таркиби, қарорлар қабул қилиш, ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, харажатларни камайтириш учун ички захираларни излаш.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N16>

Кириш. Инвестициялар ҳисобининг илмий методологиясини такомиллаштириш ва амалиётга жорий этиш масаласи иқтисодиётда илмий–тадқиқот ишларининг долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади. Бугунги кунда инвестициялар ҳисобини тадқиқ қилишнинг барча босқичларида ушбу муаммоларни ўрганишга жиддий эътибор қаратилмоқда. Шу кунга қадар ишлаб чиқаришни бошқариш амалиётида инвестициялар ҳисобининг методологиясини такомиллаштириш ва амалиётга жорий этиш бўйича муайян тажрибалар тўпланди.

Инвестициялар ҳисобининг илмий методологиясини такомиллаштиришда қуйидаги тамойилларга асосланиш тақозо этилади:

- 1) корхонанинг иқтисодий шароитларига максимал даражада мос келиши;
- 2) инвестициялар ҳисобидаги асосий элементларнинг бир-бири билан ўзаро боғлиқлиги;
- 3) инвестициялар ҳисобидаги асосий элементларнинг ўзаро таъсири;
- 4) инвестициялар ҳисобидаги элементларнинг самарадорлиги;
- 5) ишлаб чиқаришнинг яхлитилиги.

Ушбу тамойилларнинг барчаси инвестициялар ҳисобининг методологиясини ўрганиш объекти сифатида инвестициялар ҳисобидаги элементларнинг яхлитлиги, ички тузилишининг мураккаблиги, элементларнинг ташқи муҳит билан ўзаро боғлиқлигини кўрсатади.

Тизимли ёндашув тамойилларига кўра, инвестицияларни ҳисобга олиш методологиясини такомиллаштиришнинг асосий шарти унинг ташқи омиллар билан бевосита чамбарчас боғлиқлигидир.

Демак, инвестициялар ҳисобининг методологиясини такомиллаштиришдан асосий мақсад ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш ва харажатларни камайтиришда ишлаб чиқариш ички захираларни излаш, ички салоҳиятдан оптимал фойдаланиш, иқтисодий самарадорликка эришишдан иборат.

Корхонада маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмининг интенсив ўсиши инвестициялар айланмаси ва таркибининг ўзгариши ҳамда таъсир кўрсатувчи омиллар ҳисобига таъминланади. Бунда айнан, инвестициялар айланмаси ва таркибининг илмий асослаб берилиши муҳим ўрин тутди. Мақсадимиз - корхонада инвестициялар (дон) айланмаси ва таркибининг бир-бири билан ўзаро боғлиқ элементларини яхлит тизимга келтиришдан иборат. Бунда ишлаб чиқариш дастурининг ўзагини – инвестициялар (дон) айланмаси ва таркиби ташкил этади.

Республикамизнинг корхоналарни ривожлантиришнинг ҳозирги ҳолати озиқ-овқат хавфсизлиги ҳамда чорва озуқаларини ишлаб чиқаришдаги жиддий камчиликларни таҳлил қилиш ва бартараф этиш билан тавсифланади. Дон маҳсулотлари ишлаб чиқаришдаги бу каби камчиликларга инвестициялар айланмаси ва таркибининг паст даражадалиги, номукамал режалаштириш, ишлаб чиқариш ва бошқарувни ташкил этиш тамойилларининг бузилиши сабаб бўлмоқда. Ушбу

масаланинг ечимини топишда инвестициялар (дон) айланмаси ва таркибининг илмий асослаб берилиши ёрдам беради[14; Б. 12-15].

Адабиётлар таҳлили ва методология. Инвестициялар ҳисобининг илмий методологиясини такомиллаштириш ва амалиётга жорий этиш муаммолари бўйича Сташкова И.В., Конева А.А., Мирошниченко Т.А., Павлова С.А., Прохорова Э.Л., Гутова А.В., Дранишникова Д.Н. каби иқтисодчи олимлар томонидан илмий тадқиқот олиб борганлар. Хусусан, Сташкова И.В. пул айланмасининг иқтисодий моҳияти, амалга ошириш шакллари, бошқарувдаги ролининг яхлитлик концепциясини шакллантирган; қора металлургия корхоналарида пул айланмасини шакллантириш ва улардан фойдаланишнинг умумий ва ўзига хос қонуниятларини аниқлаб берган; қора металлургия корхоналарининг молиявий аҳволи, ликвидлик, тўлов қобилияти ва рентабеллик кўрсаткичлари ўртасидаги бевосита боғлиқликни акс эттирувчи кўрсаткичларнинг баҳолаш тизимини таклиф этган; капитал усулидан фойдаланган ҳолда пул айланмасини баҳолашда яратилган моделларга киритилган коэффицентларни ҳисоблаш алгоритмларини ишлаб чиққан; барқарор рентабелли корхоналар томонидан тўлов қобилиятини йўқотиш хавфини олдини олиш ва камайтиришга қаратилган фаолият турлари бўйича пул айланмаси таркибини ҳисобга олган ҳолда фойдани тақсимлаш бўйича бошқарув қарорларини қабул қилиш учун тавсиялар ишлаб чиққан[12; Б.110 – 116].

Конева А.А. бозор иқтисодиёти шароитида пул айланмасининг моҳиятини асослаб берган, пул маблағлари айланма ҳаракатини бухгалтерия регистрларида акс эттиришни такомиллаштириш бўйича тавсиялар берган; балансдан ташқари ҳисобварақларда пластик карточкаларни ҳисобга олишнинг услубияти ишлаб чиқилган, Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари талабларини ҳисобга олган ҳолда пул айланмаси тўғрисидаги ҳисоботни тузиш бўйича услубий тавсиялар ишлаб чиққан; пул айланмасининг ретроспектив таҳлилин аналга ошириш билан боғлиқ методологик ёндашувни математик жиҳатдан тавсифлаган; пул айланмасининг прогноз методологиясини қишлоқ хўжалиги корхоналари фаолияти хусусиятларига мослаштирган[6; Б. 130 - 136].

Мирошниченко Т.А. қишлоқ хўжалиги корхоналарида пул айланмасини бошқариш методологиясини тизимлаштирган; касса ҳисобварақлари учун бухгалтерия ҳисобининг регистрларини ишлаб чиққан, касса ҳисобварақларида маблағлар кирими ва чиқими, корхонанинг фаолият турлари бўйича дебет ва кредит айланмаси, пул маблағларининг келиб тушиши ва харажатларнинг йўналишларини изоҳлаб берган[9;Б.83-92].

Павлова С.А. капитал рентабеллигининг мавжуд моделларини кенгайтириш орқали пул айланмасини оптималлаштиришда омилкор моделни ишлаб чиққан; чакана савдо корхоналарининг дебиторлик қарзлари таркибини аниқлашга янгича ёндашувлар ва улар асосида корхоналарнинг дебиторлик қарзларини оптималлаштириш бўйича тавсиялар таклиф этган; ялпи даромадни кўпайтириш ва харажатларини тақсимлаш орқали камайтириш, корхонанинг пул айланмасини оптималлаштириш орқали чакана савдонинг ўзига хос хусусиятлари бўйича тизим таклиф этган[10; Б. 47 - 63].

Прохорова Э.Л. молиявий беқарорлик шароитида пул муомаласининг хусусиятлари унинг иқтисодий мазмунига нисбатан мавжуд назарий ёндашувларни тизимлаштирган; пул айланмаси концепциясига мавжуд ёндашувлардан фарқли, аниқ мақсад ва вазифалар, функцияларни амалга ошириш учун режалаштириш, ташкил этиш, ҳисобга олиш ва тартибга солиш, рағбатлантириш, назорат қилиш, бошқариш жараёнларини киритган; тўлов инқирозини ҳал қилишнинг асосий усуллари ва воситаларини таснифлаш асосида уларнинг пул айланмаси балансига таъсирининг самарадорлиги таҳлил қилинган; Федерал Ҳисоб палатаси томонидан саноат корхоналарининг векселларини ҳисобга олиш учун фойдаланишга асосланган вексел айланишини тартибга солишнинг оригинал схемасини таклиф этган[11; Б. 27 - 39].

Аммо қайта ишлаш корхоналарида комплекс ишлаб чиқариш ҳисобининг методологиясини такомиллаштириш, ун ва омихта ем маҳсулотларини биргаликда ишлаб чиқаришга сарфланган харажатлар ва асосий ишлаб чиқариш фондининг ўртача ва юқори даражадаги самарадорлиги, чекланган ресурслар билан таъминлаш даражаси, инвестициялар (дон) айланмаси ва таркибини баҳолаш билан боғлиқ қарорлар қабул қилиш, ун ва омихта ем маҳсулотларини биргаликда ишлаб чиқаришга йўналтирилган инвестицияларнинг 2030 йилга мўлжалланган прогнози ва сифатли маҳсулот ишлаб чиқаришнинг оптимал вариантлари илмий усуллар асосида асосланмаган.

Ушбу мақсадни амалга ошириш учун инвестициялар ҳисобининг методологик жиҳатлари устида тўхталамиз. Инвестициялар айланмаси ва таркибига математик тавсиф беришда корхонанинг инвестициялари таркибини қуйидаги кўрсаткичлар орқали ифодалаймиз: корхонанинг ўз маблағлари (соф фойда, амортизация ажратмаси); корхонага жалб қилинган маблағлар (хорижий инвестициялар, мулкка тенглаштирилган манбалар, суғурта товонлари, акциядорларнинг маблағлари, бюджет маблағлари, акцияларни жойлаштириш (IPO), кредитлар); корхонанинг қарз маблағлари (хорижий инвестициялар, тижорат кредитлари, банк кредитлари, марказлаштирилган кредитлар, лизинг, форфейтинг, франчайзинг, лойиҳаларни молиялаштириш) ва бошқа. Инвестициялар айланмаси ва таркиби муддатлилик, таъминланганлик, тўловчанлик, қайтаришлик, мақсадли ишлатилиши каби тамойилларга таянади.

Инвестицияларнинг ҳар бир гуруҳида айланма ҳаракатни тавсифловчи миқдор ва сифат кўрсаткичларини эътиборга олиш зарур. Муайян давр (вақт)да инвестициялар айланмаси ва таркибидаги гуруҳларнинг бошланғич қолдиғи тўлиқ ёки қисман янгиланиши шарт. Инвестициялар айланмаси ва таркибининг янгиланиши инвестициялар айланмасининг кирими (ўз маблағлари, жалб қилинган маблағлар, қарз маблағлари, бошқа маблағлар) ва чиқими бўйича дастлабки ҳолатларнинг ўзгаришини кўзда тутати.

Инвестициялар айланмаси ва таркиби тўлиқ янгиланганда уларнинг бошланғич қолдиғи айланма ҳаракатнинг чиқим қисмида тўлиқ ҳисобга олинади. Улар қисман - қисман янгиланганда эса айланма ҳаракатнинг чиқим қисмидан фойдаланилмайди ёки ушбу гуруҳда ўзгармас ҳолатда қолади.

Амалда инвестициялар айланмаси ва таркибини ҳисоблашда баланс усулидан фойдаланилади. Инвестициялар айланмаси ва таркибида стандарт фундаментал

шартлар ҳисобга олинади. Қуйида инвестициялар айланмаси ва таркибининг стандарт фундаментал шартлари таркиби (алгоритмлар) ишлаб чиқилган:

1. Инвестициялар кирими (I_{ik}) корхонанинг ўз маблағлари (I_{om}), қарз маблағлар (I_{qm}), жалб қилинган маблағлар (I_{jm}) ва бошқа маблағларни (I_{bm}) ташкил этади:

$$I_{ik} = I_{om} + I_{qm} + I_{jm} + I_{bm}.$$

2. Инвестициялар чиқими (I_{ich}) хом ашёлар қиймати (I_{xq}), ишлаб чиқариш таннархи (I_{it}), давр харажатлари (I_{dx}), молиявий фаолият харажатлари (I_{mx}) ва бошқа маблағлардан (I_{mb}) иборат:

$$I_{ich} = I_{xq} + I_{it} + I_{dx} + I_{mx} + I_{mb}$$

3. Режа даври бошига киритилган инвестициялар (I_{ki}) билан кирим қилинган инвестициялар (I_{ik}) йиғиндиси режа даврининг охирига киритилган инвестициялар (I_{ik}) билан чиқим қилинган инвестициялар (I_{chi}) йиғиндисига тенг бўлиши шарт

$$I_{ki} + I_{ik} = I_{ich} + I_{chi}.$$

4. Инвестициялар ҳажми (I_{ih}) корхонанинг ўз ихтиёридаги соф фойда (I_{sf}), амортизация ажратмаси (I_{aa}), хорижий инвестициялар (I_{xi}), мулкка тенглаштирилган манбалар (I_{tm}), суғурта товонлари (I_{st}), акциядорларнинг маблағлари (I_{am}), бюджет маблағлари (I_{bm}), акцияларни жойлаштириш (I_{aj}), тижорат кредитлари (I_{tk}), банк кредитлари (I_{bk}), марказлашган кредитлар (I_{mk}), лизинг (I_{lz}), форфейтинг (I_{ff}), франчайзинг (I_{fr}), лойиҳаларни молиялаштириш (I_{lm}) ва бошқа инвестициялар (I_{bh}) турига тенг

$$I_{ih} = I_{sf} + I_{aa} + I_{xi} + I_{tm} + I_{st} + I_{am} + I_{bm} + I_{aj} + I_{tk} + I_{bk} + I_{mk} + I_{lz} + I_{ff} + I_{fr} + I_{lm} + I_{bh}$$

5. Маҳсулотни сотишнинг ялпи фойдаси (зарари) (MD_{yf}) - маҳсулотларни сотишдан тушган соф тушум (MD_{st}) билан сотилган маҳсулот таннархининг (MD_{mt}) фарқига тенг

$$MD_{yf} = MD_{st} + MD_{mt}.$$

6. Давр харажатлари (DX_{dx}) сотиш харажатлари (SX_{sx}), маъмурий сотиш харажатлари (MX_{mx}), бошқа операцион харажатлар (OX_{ox}) ва келгусида солиққа тортиладиган базадан чиқариладиган ҳисобот даври харажатларининг (KX_{kx}) йиғиндисига тенг бўлиши шарт

$$DX_{dx} = SX_{sx} + MX_{mx} + OX_{ox} + KX_{kx}.$$

7. Асосий фаолиятнинг фойдаси (зарари) (AD_{af}) маҳсулот сотишнинг ялпи фойдаси (зарари) (MD_{yf}) билан асосий фаолиятнинг бошқа даромадлари (AD_{fb}) йиғиндиси давр харажатлари (DX_{dx}) ўртасидаги фарққа тенг

$$AD_{af} = MD_{yf} + AD_{fb} - DX_{dx}$$

8. Молиявий фаолият бўйича даромадлар (DM_{fd}) дивидендлар шаклидаги даромадлар (DM_{dd}), фоизлар шаклидаги даромадлар (DM_{fsh}), узоқ муддатли молиявий лизингдан олинган даромадлар (DM_{ld}), валюта курси фарқидан олинган даромадлар (DM_{vk}), молиявий фаолият бўйича бошқа даромадлар (DM_{bf}) йиғиндисига тенг

$$DM_{fd} = DM_{dd} + DM_{fsh} + DM_{ld} + DM_{vk} + DM_{bf}$$

9. Молиявий фаолият бўйича харажатлар (XM_{fx}) фоизлар шаклидаги харажатлар (XM_{fsh}), узоқ муддатли молиявий лизинг бўйича фоизлар шаклидаги харажатлар (XM_{lf}), валюта курси фарқидан зарарлар (XM_{vk}), молиявий фаолият бўйича бошқа харажатлар (XM_{bx}) йиғиндисига тенг

$$XM_{fx} = XM_{fsh} + XM_{lf} + XM_{vk} + XM_{bx}$$

10. Умумхўжалик фаолиятининг фойдаси (зарари) (UF_{fz}) асосий фаолиятнинг фойдаси (зарари) (AF_{fz}), молиявий фаолият бўйича даромадлар (DM_{fd}) йиғиндиси билан молиявий фаолият бўйича харажатлар (XM_{fx}) ўртасидаги фарққа тенг

$$UF_{fz} = AF_{fz} + DM_{fd} - XM_{fx}$$

11. Ҳисобот даврининг соф фойдаси (зарари) (SF_{fz}) фойда солиғи тўлангунга қадар фойда (зарар) (FS_{fz}), фойда солиғи (SF_{fs}) ҳамда фойда ҳисобидан тўланадиган солиқлар ва йиғимлар (FC_{sy}) фарқига тенг

$$SF_{fz} = FS_{fz} - SF_{fs} - FC_{sy}$$

12. Инвестициялар рентабеллик даражаси (IR_{rd}) соф фойда (SF_{fz}) ва амортизация ажратмаси йиғиндисининг (AA_{rd}) инвестициялар ҳажмига (I_{ix}) бўлган нисбат

$$IR_{rd} = (SF_{fz} + AA_{rd}) * 100\% : I_{ix}$$

13. Инвестицияларни қоплаш муддати (IT_{km}) инвестициялар ҳажмининг (I_{ix}) соф фойдага (SF_{fz}) бўлган нисбат

$$IT_{km} = I_{ix} : SF_{fz}$$


14. Инвестициялар айланмасининг шартлари қуйидаги тенгсизликлар кўринишида ифодаланади:

$$I_{ik} > I_{ich}; \quad MD_{st} > MD_{mt}; \quad (MD_{yf} + AD_{fb}) > DX_{dx}; \\ (AD_{af} + DM_{fd}) > XM_{fx}; \quad FS_{fz} > (SF_{fz} - FC_{sy}).$$

Демак, ушбу модель ва алгоритмлар маълум бир давр (ой, чорак, йил) учун инвестициялар айланмаси ва таркибини тузиш учун асос бўлиб хизмат қилади. Инвестициялар айланмаси ва таркибининг типик шартлари, айланма ҳаракатнинг режа даврига хос хусусиятлари миқдор ва сифат жиҳатдан ҳисобга олиб умумлаштирилади.

Муҳокама ва натижалар. Корхонада инвестицияларнинг айланма ҳаракати дон айланма ҳаракатига жиддий таъсир кўрсатади ва тизимдаги муаммоларини ҳал қилишга ёрдам беради. Доннинг ойлик айланма ҳаракати маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва сотиш ҳажмини ҳамда ҳар қандай даврда ҳам маҳсулотлар унумдорлигини аниқлаб беради. Ойлик айланма ҳаракати ишлаб чиқаришни оператив бошқариш ва ташкил этиш талабларига максимал даражада жавоб беради. Чораклик дон айланма ҳаракати йиллик дон айланма ҳаракатини тузишдаги оралиқ босқич сифатида хизмат қилади. Чораклик айланма ҳаракатида ойлик дон айланма ҳаракати кўрсаткичлари акс эттирилади. Доннинг йиллик айланма ҳаракати йил давомида дон айланма ҳаракатини ифодаловчи умумий ҳужжатдир. Доннинг айланма ҳаракати тўхтаганда эришилган натижалар умумлаштирилиб, ишлаб чиқариш ва сотиш кўрсаткичлари аниқланади (1–расм).

Компютерда экспериментал ҳисоб-китобларни амалга ошириш учун функционал таъминот, дастурий таъминот, ахборот таъминоти ва бошқа ташкилий-услубий чоратадбирлар ишлаб чиқилди.



1 – расм. Дон маҳсулотлари айланмасининг умумий схемаси.

Ҳисоблашнинг функционал таъминоти қайта ишлаш корхонаси фаолиятининг шартлари ва хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда дон ишлаб чиқариш дастурига доир моделлар ва алгоритмларга асосланади. Моделлар билан алгоритмлар ўртасидаги муносабатлар ягона ахборотлар базаси асосида таъминланади. Ягона ахборотлар базаси ахборот таъминотининг негизини ташкил этади. Ахборотларга ишлов бериш бўйича ахборот базаларининг таркибига киритиладиган ва чоп этиладиган маълумотлар алоҳида гуруҳларга ажратилади. Киритиладиган маълумотлар тўплами корхонанинг молиявий ҳисоботлари, бухгалтерия ҳисоби, меъёрлар ва бошқа шу каби маълумотлардан иборат бўлади.

Компютердаги маълумотлар орқали дон ишлаб чиқариш дастурининг ҳисоб-китоблари ҳамда иқтисодий кўрсаткичлар ҳолати таҳлил қилинади. Дон ишлаб чиқариш дастуридаги иқтисодий кўрсаткичларнинг оптимал қийматлари қабул

қилинган чегаралар доирасида дастлабки параметрларни қайта ўзгартиришлар киритиш орқали шакллантирилади.

Оралиқ ҳисоб-китоб итерацияси (цикли)дан сўнг олинган натижалар версияси чоп этилади. Олинган натижаларнинг қониқиш даражасига қараб, экспериментатор тажрибани давом эттириш ёки тугатиш тўғрисида қарор қабул қилади.

Ахборотни қайта ишлаш учун республикадаги бир қатор қайта ишлаш корхоналарининг ташкилий, ишлаб чиқариш ва хўжалик фаолиятини ўргандик. Дон ишлаб чиқариш дастурига таъсир этувчи омилларнинг таъсирини объектив ва субъектив гуруҳга ажратдик. Объектив гуруҳга табиий-иқлим шароитлар; корхонанинг ишлаб чиқариш йўналишлари; моддий-техника базаси ва ишлаб чиқариш технологияси ҳолати; дон нави; корхонанинг молиявий аҳволи киради.

Субъектив гуруҳга қайта ишлаш корхоналари фаолиятнинг ҳолатини ўрганиш ва таҳлил қилиш имконияти; дон бўйича қабул қилинган қарорларнинг илмий асосланганлиги; ходимларнинг моддий ва маънавий рағбатлантиришини ташкил этиш; дон ва бошқа ресурсларга ижобий муносабатда бўлиш ва улардан самарали фойдаланишни рағбатлантириш ташкил этади.


Дон ишлаб чиқариш дастурини шакллантиришда ҳар бир гуруҳ алоҳида кўриб чиқилади ва якуний натижалар корхона даражасида умумлаштирилади. Дон ишлаб чиқариш дастурининг асосий мақсад корхоналарининг ишлаб чиқариш салоҳиятидан самарали фойдаланишни ҳисобга олган ҳолда дон маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг максимал ҳажмини аниқлашдан иборат.

Турли даражадаги менежерлар бошқарув ҳисобининг маълумотларига асосланган ҳолда қайта ишлаш корхоналари фаолиятини тезкор назорат қилиб боради. Улар қайта ишлаш корхоналарида реал вақт режимида давом этаётган жараёнларни кузатиб боради, харажатларнинг кўпайишига ва рентабелликнинг пасайишига олиб келадиган камчиликларни бартараф этиш учун ўз вақтида чоралар кўради.

Бунинг учун бошқарув ҳисоби маъмурий бошқарувнинг турли даражадаги менежерларини ахборот билан таъминлаши, раҳбарлар ва мутахассисларнинг масъулият даражаси ва ҳуқуқларидан келиб чиққан ҳолда ишлаб чиқаришни бошқариш масалаларини ҳал қилишга қаратишлари шарт.

Қайта ишлаш корхонаси қабул қилган қарорларнинг самарадорлиги, уларнинг маҳсулотлар таннархи ва молиявий натижаларига таъсири тўғрисидаги ахборотга эга бўлиши лозим. Улар ахборотлардан фойдаланиш орқали қайта ишлаш корхоналари хўжалик фаолиятининг ички назоратини самарали ташкил этиши, корхонанинг иқтисодий барқарорлигини таъминлаши ва бу борада тезкор бошқарув қарорларини қабул қилишлари мумкин [1;2;3;4;5; Б. 1316, 1547, 76, 84].

2 – расм. Инвестициялар айланмаси ва таркибини баҳолаш механизми



Ушбу мақсадни амалга ошириш учун биз масаланинг тизимли ахборот ва мантиқий алоқалар қоидасига асосланиб, дастурий таъминот ёрдамида қайта ишлаш корхоналарида инвестициялар (дон) айланмаси ва таркибининг самарадорлигини баҳолаш схемасини ишлаб чиқдик (1-расм).

Қайта ишлаш корхоналарида ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш масаласининг ечимларини топиш алгоритмлари ва моделини туздик. Уларни реализация қилиш орқали қўйилган масаланинг ечимли параметрларини шакллантирдик. Ушбу параметрлардан баъзи бирлари ҳисоблашнинг кейинги босқичларида прогноз ва аналитик масалалар мақбул ечим параметрлари сифатида фойдаланилади.

Қайта ишлаш корхоналарида ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш билан боғлиқ барча кўрсаткичлар мутаносибликка эришилгандан сўнг, турли даражадаги менежерлар муқобил вариантлар бўйича қабул қилинган қарор натижаларини қиёсий баҳолайди.

Агар ҳосил бўлган муқобил сценария вариантларидан биронтасининг натижаси қаноатлантирмаса, турли даражадаги менежерлар маълумотлар базасига қайтадан мурожаат қилади, миқдорий шаклдаги янги массив маълумотлардан фойдаланиб алгоритмлар ва моделларни реализация қилади.

Корхонада ишлаб чиқариш самарадорлиги масаласининг ижобий натижалари сценария вариантлари ёрдамида топилгунга қадар процедура давом этаверади. Маълумотлар базаси қайта ишлаш корхонанинг иқтисодий шарт-шароитларини тизимли ҳисобга олган ҳолда ахборотлардан фойдаланиш имкониятини кўзда тутади.

Инвестициялар айланмаси ва таркибини кўп вариантли таҳлил қилиниши мутаносиб қарорлар қабул қилишга олиб келади. 1-жадвалда «Дўстлик дон маҳсулотлари» АЖ инвестициялари айланмаси ва таркибини ҳисоблаш алгоритмларининг параметрларини тавсифловчи маълумотлар (шартли бирликда (сўм/тн)) келтирилган.

Маълумотларга кўра, йил бошида инвестициялар жами 1 232 876 сўмни, шундан ун маҳсулоти учун 782 298 сўм ёки 60,98%, омихта ем учун эса 500 578 сўм ёки 39,02% ни ташкил этади.

Корхонанинг ўз маблағлари манбаи жами 1 739 826 сўмни, шундан ун маҳсулоти учун 1 138 269 сўм ёки 63,07%, омихта ем учун эса 601 557 сўм ёки 36,93% ни, қарз маблағлари жами 635 030 сўмни, шундан ун маҳсулоти учун 321 884 сўм ёки 48,11%, омихта ем учун эса 313 146 сўм ёки 51,89% ни, жалб қилинган маблағлар жами 550 419 сўмни, шундан ун маҳсулоти учун 339 560 сўм ёки 59,23%, омихта ем учун эса 210 859 сўм ёки 40,77% ни, бошқа маблағлар жами 594 079 сўмни, шундан ун маҳсулоти учун 382 551 сўм ёки 61,54%, омихта ем учун эса 211 528 сўм ёки 37,99% ни ташкил этади.

1-жадвал. «Дўстлик дон маҳсулотлари» АЖ нинг инвестициялари айланмаси ва таркибининг ҳисоб-китоби*

Кўрсаткичлар	Ун маҳсулоти		Омихта ем маҳсулоти		Жами
	сўм	%	сўм	%	
Йил бошига қолдиқ	782 298	60,98	500 578	39,02	1 282 876
Кириш:					
ўз маблағлар манбаи	1 138 269	<u>63,07</u> <u>52,16</u>	601 557	<u>36,93</u> 44,99	1 739 826
қарз маблағлари	321 884	<u>48,11</u> <u>14,75</u>	313 146	<u>51,89</u> <u>23,42</u>	635 030
жалб қилинган маблағлар	339 560	<u>59,23</u> <u>15,56</u>	210 859	<u>40,77</u> 15,77	550 419
бошқа маблағлар	382 551	<u>61,54</u> <u>17,53</u>	211 528	<u>37,99</u> <u>15,82</u>	594 079
Жами	2 182 264	<u>59,56</u> 100	1 337 090	<u>40,44</u> 100	3 519 354
Чиқим:					
ишлаб чиқариш таннархи	2 038 706	<u>62,38</u> 95,29	1 229 454	<u>37,62</u> 91,95	3 268 160
давр харажатлари	95 635	<u>47,41</u> 4,47	104 026	<u>52,09</u> 7,78	199 660
молиявий фаолият харажатлари	5 135	<u>58,60</u> 0,24	3 610	<u>41,40</u> 0,27	8 745
бошқа маблағлар	0,00		0,00		0,00
Жами	2 139 475	<u>61,54</u> 100	1 337 090	<u>38,46</u> 100	3 476 565
Йил охирига қолдиқ	825 087	56,49	500 578	43,51	1 325 665

*«Дўстлик дон маҳсулотлари» АЖ нинг молиявий ва статистик маълумотлари асосида тузилган.

Корхонада маҳсулот ишлаб чиқариш таннархи жами 3 268 160 сўмни, шундан ун маҳсулоти учун 2 038 706 сўм ёки 62,38%, омихта ем учун эса 1 229 454 сўм ёки 37,62% ни, давр харажатлари жами 199 660 сўмни, шундан ун маҳсулоти учун 95635 сўм ёки 47,41%, омихта ем учун эса 104 026 сўм ёки 52,09% ни, молиявий фаолият харажатлари жами 8 745 сўмни, шундан ун маҳсулоти учун 5 135 сўм ёки 58,60%, омихта ем учун эса 3 610 сўм ёки 41,40% ни ташкил этади.

Инвестициялар таркиби ун ва омихта ем маҳсулотлари таркиби ва манбаларига нисбатан фарқланади.

2-жадвалда итерация вариантлар бўйича ун ва омихта ем маҳсулотлари бўйича эришиладиган фойда маълумотлари келтирилган. Экспериментал ҳисоб-китоблар ун ва омихта ем маҳсулотларининг самарадорлик кўрсаткичларини ифодалайди. Экспериментал натижалар келгусида режалаштириш даврлари учун инвестиция айланмаси ва таркиби самарадорлигини кўрсатади.

2 – жадвал. «Дўстлик дон маҳсулотлари» АЖ да маҳсулот сотишдан олинган фойданинг муқобил вариантлари бўйича ҳисоб-китоблар

Кўрсаткичлар	2023 й. ҳақиқатда, минг сўм	Итерация бўйича ҳисоб-китоб вариантлари, минг сўм			2023 й. ҳақиқатга нисбатан ҳисоб-китоб вариантлари, %		
		1	2	3	1	2	3
Фойда	1 364 302	1 379 941	1 396 859	1 424 108	101,15	102,39	104,38
шундан:							
ун маҳсулоти	445 813	454 700	464 675	472 533	101,99	104,23	105,99
омихта ем маҳсулоти	918 489	925 241	932 184	951 575	100,74	101,49	103,60

Экспериментнинг давомийлиги киритиладиган маълумотларни жамлаш ва қайта ишлаш, итерациялар сони, ун ва омихта ем маҳсулотлари турларининг омиллар билан боғлиқ. Экспериментларини жорий этиш ун ва омихта ем маҳсулотларини ишлаб чиқаришни кўпайтириш, чекланган ресурслардан самарали фойдаланиш захираларини излаш, қабул қилинган қарорларнинг асослигини таъминлаш, иқтисодий кўрсаткичлар мутаносиблигини таъминлаш имконини беради.

«Дўстлик дон маҳсулотлари» акциядорлик жамиятида ретроспектив кўрсаткичлар асосида ун ва омихта ем маҳсулотлари ва уларга таъсир этувчи омиллар ҳажми ва улардан олинadиган соф фойданинг прогноз кўрсаткичларини ишлаб чиқдик (5-жадвал). Маълумотларга кўра, 2024 – 2030 йилларда «Дўстлик дон маҳсулотлари» акциядорлик жамиятида ун маҳсулоти 72 335 430 минг сўмдан 80 783 934 минг сўмга, омихта ем маҳсулотлари 23 489 506 минг сўмдан 27 335 812 минг сўмга кўпайиши тахмин қилинади. Аммо ушбу миқдордаги ун маҳсулотини ишлаб чиқариш учун корхонага сарфланадиган инвестициялар 54 660 734 минг сўмдан 58 892 664 минг сўмгача, омихта ем маҳсулотини ишлаб чиқариш учун сарфланадиган умумий харажатлар 23463612 минг сўмдан 26 315 068 минг сўмгача пул маблағларига эҳтиёж туғилади [6, Б. 74 - 89].


«Дўстлик дон маҳсулотлари» АЖ корхонаси барча имкониятларидан фойдаланган ҳолда инвестиция миқдорини кўпайтирмоқда. Инвестициялар миқдорининг кўпайиши ишлаб чиқариш жараёнини фаоллаштириш, инвестициялар таркибий гуруҳи сифатини яхшилаш, инвестициялар ҳажмини кўпайтириш усуллари асосида инвестиция таркибининг миқдорини оширишга бўлган таъсири натижасида иқтисодий самарадорликка эришиш мумкин.

3 – жадвал. «Дўстлик дон маҳсулотлари» АЖ нинг ун ва омихта ем маҳсулотлари бўйича ретроспектив ва прогноз кўрсаткичлари**

Йил	Ун маҳсулоти, минг сўм				Омихта ем маҳсулоти, минг сўм			
	Инвестиция ҳажми	Ун маҳсулоти ҳажми	Умумий харажатлар	Фойда	Инвестиция ҳажми	Омихта ем маҳсулоти ҳажми	Умумий харажатлар	Фойда
2011	45731077	57909487	44834389	364019	17816888	18291291	17467537	700191
2012	45010553	56997084	44127993	358283	17536169	18003099	17192323	689159
2013	48364308	59495393	47415988	373988	18304819	18792215	17945901	719366
2014	47582136	60304560	46649153	379094	18553773	19047798	18189974	729150
2015	47183547	59824732	46258379	376058	18406146	18896240	18045241	723349
2016	49905203	61956058	48926670	389455	19061886	19569440	18688124	749119
2017	51577405	65451199	50566083	411426	20137230	20673416	19742382	791379
2018	48423904	64072091	47474416	402757	19712922	20237811	19326394	774704
2019	52598540	67243643	51567196	422693	20588707	21239577	20283046	813052
2020	49381705	65394783	48413436	411071	20119871	20655596	19725364	790697
2021	54349907	69085175	53284223	434269	19632028	20154762	19247086	771525
2022	52810800	70012188	51775294	440096	23185123	23802465	22730513	911159
2023	53496812	70921646	52447855	445813	23371080	24170342	22912824	918489
2024	54660734	72335430	53588955	454700	23463612	24170314	22317661	925241
2025	55424680	73922326	54337922	464675	23587924	24351702	22911030	932184
2026	55883022	75172372	54787276	472533	23885143	24900304	23416807	951575
2027	56817567	76704585	55703497	482164	24508405	25615827	24027848	978685
2028	57560721	78253222	56432079	491899	25155212	26364837	24661973	1007054
2029	58055143	79463716	56916807	499508	25710191	27025721	25206070	1032041
2030	58892664	80783934	57737906	507807	26315068	27745853	25799086	1059285


**«Дўстлик дон маҳсулотлари» АЖ нинг молиявий ва статистик маълумотлари асосида тузилган.

2–расмда 2024 йилдан 2030 йилгача давр учун корхонанинг инвестициялари ва ун маҳсулотини ишлаб чиқариш бўйича прогноз маълумотлари асосида график тузилган. Графикда ун маҳсулотини ишлаб чиқариш функциясининг кўриниши $y = 12888x^2 + 994059x + 6E^{07}$, функция билан омиллар ўртасидаги боғлиқлик $R^2 = 0,9871$; инвестициялар бўйича функция $y = 387,74x^2 + 689419x + 4E^{07}$ кўриниши ва функция билан омиллар ўртасидаги боғлиқлик $R^2 = 0,9283$ га тенг.




3 – расм. Ун маҳсулотини ишлаб чиқариш прогнози

3–расмда 2024 йилдан 2030 йилгача давр учун корхонанинг инвестициялари ва омихта ем маҳсулотини ишлаб чиқариш бўйича прогноз маълумотлари асосида график тузилган. Унда омихта ем маҳсулотини ишлаб чиқариш функциясининг кўриниши $y = 9128,6x^2 + 282338x + 2E^{07}$, функция билан омиллар ўртасидаги боғлиқлик $R^2 = 0,9521$; инвестициялар бўйича функциянинг кўриниши $y = 4746,7x^3 - 151574x^2 + 2E^{06}x + 2E^{07}$, функция билан омиллар ўртасидаги боғлиқлик $R^2 = 0,1145$ га тенг.



4 – расм. Омихта ем маҳсулотини ишлаб чиқариш прогнози

4–расмда 2024 йилдан 2030 йилгача давр учун корхонанинг ун ва омихта ем маҳсулотларидан олинган фойда бўйича прогноз маълумотлари асосида график тузилган. Унда ун ва омихта ем маҳсулотларидан олинган фойда бўйича функциянинг кўриниши $y = 503,78x^2 + 9195,3x + 679528$, функция билан омиллар ўртасидаги боғлиқлик $R^2 = 0,9596$; инвестициялар бўйича функциянинг кўриниши $y = 351053e^{0,0186x}$, функция билан омиллар ўртасидаги боғлиқлик эса $R^2 = 0,9596$ га тенг.



5 – расм. Ун ва омихта ем маҳсулотларидан олинган фойданинг прогнози

Маълумотларга кўра, 2011–2023 йилларда «Дўстлик дон маҳсулотлари» акциядорлик жамиятида инвестициялар (дон) айланма ҳаракатининг ун ва омихта ем маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмининг кўпайиши таъсири билан белгиланади.

Демак, «Дўстлик дон маҳсулотлари» акциядорлик жамиятида инвестициялар айланмасининг таъсири ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш ва ҳаракатларни камайтиришда ишлаб чиқариш ички захираларни излаш, ички салоҳиятдан оптимал фойдаланишга имконият яратар экан.

Хулоса. Инвестициялар ҳисобининг методологик жиҳатларини такомиллаштиришдан асосий мақсад ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш ва харажатларни камайтиришда ишлаб чиқариш ички захираларни излаш, ички салоҳиятлардан оптимал фойдаланиш, иқтисодий самарадорликни оширишдан иборат. Корхонада маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмининг интенсив ўсиши инвестициялар айланмаси ва таркибининг ўзгариши, ишлаб чиқаришга кучли таъсир этиш ҳисобига таъминланади. Бунда айнан инвестициялар айланмаси ва таркибининг илмий асосланиши муҳим ўрин тутди. Муаллифнинг мақсади корхонада инвестициялар айланмаси ва таркибининг ўзаро боғлиқ элементларини яхлит тизимга келтиришдан иборат.

Тадқиқотда тузилган модель ва алгоритмлар муайян давр (ой, чорак, йил) учун инвестициялар айланмаси ва таркибини тузиш учун асос бўлиб хизмат қилади ҳамда инвестициялар айланмаси ва таркибининг типик шартлари, гуруҳларда инвестициялар айланмаси ҳаракати режалашган давридаги хусусиятлари орқали улар миқдор ва сифат жиҳатдан ҳисобга олиниб умумлаштирилади.

Тадқиқотда ун ва омихта ем маҳсулотларини биргаликда ишлаб чиқаришга сарфланган инвестициялар таъсири, ун ва омихта ем маҳсулотларини биргаликда ишлаб чиқариш самарадорлигини баҳолаш билан боғлиқ қарорлар қабул қилиш механизми, корхонада ун ва омихта ем маҳсулотларини биргаликда ишлаб чиқаришнинг 2030 йилга мўлжалланган ун ва омихта ем маҳсулотлари билан боғлиқ параметрларнинг прогнози ишлаб чиқилган.

Корхонада инвестицияларнинг таъсири натижасида ун маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми 22,47 фоизли бандга, омихта ем маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми 32,14 фоизли бандга кўпайганлигига гувоҳ бўламиз. Бу ҳолат ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш тенденцияни юзага келтиради.

Корхонада ун ва омихта ем маҳсулотларини ишлаб чиқариш тенденциясига инвестицияларнинг 16,98 фоизга кўпайиши маҳсулотлар ҳажмининг кўпайиши ва ишлаб чиқариш самарадорлигининг ошишига олиб келади.

Корхонада ун маҳсулоти ишлаб чиқариш ҳажмининг 22,47 фоизли бандга, омихта ем маҳсулоти ишлаб чиқариш ҳажмининг 32,14 фоизли бандга кўпайиши ун маҳсулотидан олинган фойданинг 22,46 фоизга, омихта ем маҳсулотидан олинган фойданинг 31,18 фоизга ошишига олиб келар экан. Бу ҳолат корхонада ишлаб чиқаришнинг иқтисодий самарадорлигини оширишида ижобий тенденцияни юзага келтиради [7; Б. 415 - 428].

Адабиётлар/Литература/References:

1. Abdullayev A.Ya. Methods of assessment and risk assessment of economic security of banks in Uzbekistan // Journal of Hunan University (Natural Sciences). Vol. 49. No. 09 September 2022. <https://johuns.net/index.php/abstract/423.html>
2. Abdullayev A.Ya. Empirical approach to assessing the reliability rating of Uzbekistan commercial banks // Journal of Hunan University (Natural Sciences). Vol. 49. No. 10 October 2022. <https://johuns.net/index.php/abstract/447.html>
3. Абдуллаев А.Я. Совершенствование научно-методических подходов к оценке риска экономической безопасности банков Узбекистана // Научный журнал «Финансовый менеджмент». № 1, 2023. <http://www.finman.ru/annotations/2023/1/>.
4. Абдуллаев А.Я. Исследование влияния структуры финансовых ресурсов на обеспечении экономической безопасности банков // Научный журнал «Финансовый менеджмент». № 2, 2022. <http://www.finman.ru/annotations/2022/2/>
5. Абдуллаев А.Я. Исследование оценки обеспечения экономической безопасности коммерческих банков в Узбекистане // Научный журнал «Финансовый менеджмент». № 4, 2022. <http://www.finman.ru/annotations/2022/4/>
6. Abdullayev A.@Abdullayev J. Improvement of scientific methodological approaches of complex production accounting in grain processing factories // The Seybold report (SCOPUS). ISSN 1533 – 9211. p. 415 – 428. DOI: 10.5281/zenodo.13986497
7. Конева А.А. Особенности прогнозирования денежных потоков сельскохозяйственных организаций // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Экономические науки - 2007 - № 3-1(51). - с 130- 136.
8. Курочкина И.П. Методологические основы программно-ориентированного анализа // Вестник Университета управления. - 2009. - № 15.
9. Лапшин П.В. Роль производственного учета в информационном обеспечении финансового менеджмента организации. // Журнал "Экономический анализ: теория и практика". - М.: Изд. дом "Финансы и кредит", 2006, № 23 (80).
10. Мирошниченко Т.А. Некоторые вопросы анализа отчета о движении денежных средств // Экономические и институциональные исследования Альманах научных трудов - Ростов н/Д Изд-во Рост ун-та, 2002. с. 83-92.
11. Павлова С.А. Особенности денежного оборота предприятий розничной торговли // Объединенный научный журнал, М., 2005. №2 (130). с. 47 – 63.

12. Прохорова Е.Л. Совершенствование управления денежным оборотом на основе развития вексельного обращения в условиях платежного кризиса. М., 1998, № 6. с. 27 – 39.
13. Сташкова И.В. Денежные потоки как объект управления финансовыми ресурсами в современных экономических условиях //Социально-экономическая и финансово-кредитная политика в регионе: тез. рег. науч.-практ. конф. -Челябинск: ВЗФЭИ, 2002. с. 110 – 116.
14. Зонова А.В. Учет и анализ кругооборота средств сельскохозяйственных предприятий / А.В. Зонова. - Киров: Изд-во ВГГУ, 2002. - 235 с.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE DEMAND OF THE TIMES OF MODERNIZATION OF PASSENGER TRANSPORTATION SYSTEM ON “UZBEKISTAN TEMIR YOLLARI”

Payazov Murod Maksudovich,

Fergana Polytechnic Institute Doctoral Student (DSc)
Department of Management, Associate professor, PhD
E-mail: fayz19700308@gmail.com

Abstract. This article analyzes the passenger transportation services of JSC “Uzbekistan temir yollari”. Despite many years of experience, the company has been operating at a loss for several years; insufficient work has not been done on this issue. Development mechanisms based on consumer demand have not been developed. Based on this, taking into account that the holding company JSC “Uzbekistan temir yollari” has entered a new stage of development, we described that the time has come to bring passenger transportation services to a new stage of development, and that this is one of the necessary conditions that passenger transportation services should be adapted to the time, to the needs of the population providing real services. At this stage, based on the financial capabilities of the company, we substantiated the need to focus on the targeted use of financial resources, putting forward the phrase: “Services should be adapted to the needs of the consumer, and not vice versa, the adaptation of the consumer to the service provided”.

Key words: investment, spiritual and physical, social, passenger transportation, investment attractiveness, legal capacity.

“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AJDA YO‘LOVCHI TASHISH TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH DAVR TALABI

Payazov Murod Maksudovich,

Farg‘ona politexnika instituti “Menejment”
kafedrasida (DSc) doktoranti, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ da tahlil qilingan yillar davomida yo‘lovchi tashish xizmatlaridan qator yillar davomida faqat zarar ko‘rib ishlayotganligi, ushbu masalada birorta o‘rinli qaror qabul qilinmaganligi, temir yo‘l orqali yo‘lovchi tashish mexanizmini aholi ehtiyojlariga muvofiqlashtirish borasida etarli ishlarni hali hanuzgacha amalga oshirilmaganligini guvohi bo‘ldik. Shundan kelib chiqib “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ xolding kompaniyasining yangi rivojlanish bosqichiga o‘tganligini hisobga olib, yo‘lovchi tashish xizmatlarini ham yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqish vaqti kelganligini, yo‘lovchi tashish xizmatlarini zamonga, haqiqiy xizmat ko‘rsatadigan aholining ehtiyojlariga moslashi kerakligi zaruriy shartlardan biri ekanligini tavsifladik. Shu o‘rinda kompaniya o‘zining moliyaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib: “Iste‘molchi ko‘rsatilayotgan xizmatga emas, xizmatlar iste‘molchi ehtiyojiga moslashishi kerak”- degan iborani ilgari surgan holda moliyaviy mablag‘larni maqsadli ishlatishida ahamiyatga olinishi zarurligini asosladik.

Kalit so‘zlar: Investitsiya, ma‘naviy va jismoniy, asosiy vositalar, yo‘lovchi tashish, investitsion jozibadorlik, raqobatbardoshlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N17>

Kirish. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yilning 6-avgust kuni temir yo‘l sohasida olib borilayotgan ishlar va kelgusida rejalarga oid taqdimot bilan tanishib, 2023-yil 10-oktyabrida qabul qilingan “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatini transformatsiya qilishga oid Prezident qarori qabul qilinganligini, ushbu jarayonga ko‘maklashishi maqsadida xalqaro konsalting kompaniyasi jalb etilgan bo‘lsada keyingi vaqtlarda yo‘lovchi vagonlarning ahvoli, sovitish tizimidagi muammolar bo‘yicha ko‘p e‘tirozlar bo‘layotganligini, 143 ta vagon ta‘mirtalab, 59 ta lokomotiv xizmat muddati o‘tganligi ta‘kidlandi[1]. Shu bilan birga aholi hamda temir yo‘l xizmatlari yuzasidan ekspertlarining fikriga murojaat qilinganida, temir yo‘l transportida yo‘lovchilarni tashish aholini ehtiyojlariga mos kelmasligi, aksincha aholi temir yo‘llardagi sharoitdan kelib chiqib ular tomonidan taklif qilinayotgan xizmatga moslashishga majburiliklarini bildirdilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Transport tarkibiy qismi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy etish darajasi turlicha bo‘lgan hududlarni o‘zaro bog‘lab turish bilan birga, ko‘plab shaharlar, iqtisodiy markazlar va areallarning noqulay va geografik jihatdan uzoqda joylashganligi bilan bog‘liq ba‘zi kamchiliklarni oldini olib, yangi resurslar va hududlar o‘zlashtirilishini rag‘batlantiradi, davlat iqtisodiy makonida yangi o‘sish qutblarini shakllantirib, eskilarini qayta tiklaydi[2]. Agar shaharda korxonalar, savdo markazlari, turli xizmat ko‘rsatish joylarining hududdagi joylashuv zichligi past darajada bo‘lsa, unda shaxsiy transportni ahamiyati oshadi. Aksincha, agar mazkur zichlik yuqori darajada bo‘lsa, unda jamoatchilik yo‘lovchi transportini qo‘llash yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlaydi[3]. Tashish tezligi va sifatning oshishi, transport xizmati bahosining arzonlashuvi transport-iqtisodiyot aloqalari rivojlanishini rag‘batlantiradi, aholi harakatchanligi va turmush sharoitining yaxshilanishiga olib keladi[4]. Yo‘lovchi tashishni jadal rivojlantirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va yo‘lovchilar uchun qulayliklarni yaratishda o‘z o‘rnini topadi[5]. Bozor iqtisodiyotida iste‘molchilar tomonidan qo‘yilayotgan talablarni to‘liq qondirish tijorat faoliyatini samarali bo‘lishini kafolatlaydi. Bundan tashqari, kuchli raqobatga asoslangan transport xizmatlari bozorida kompaniya o‘z o‘rnini mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. Bu vazifani amalga oshirishda, kompaniya tomonidan eng avvalo yo‘lovchilar temir yo‘l transportidan qanday va qay darajada xizmatlarni kutayotganligini aniqlash lozim[6]. Yo‘lovchi tashish xizmatlari bozorini o‘rganish ma‘lum bir guruh yo‘lovchilarning xizmatlarga bo‘lgan munosabatiga qarab, ya‘ni yo‘lovchilar afzal ko‘rgan xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirish, potensial yo‘lovchilar uchun xizmatlarni tahlil qilish (foydaliligi, jozibadorligi) va raqobatchilarning shu xizmatlari bilan taqqoslash asosida yangi xizmat turlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi[7]. Temir yo‘l transporti orqali yo‘lovchi tashishda logistika taomillarini qo‘llash uchun yo‘lovchilarni eng kam sarf xarajatlar va sifatli xizmat ko‘rsatish bilan tashish asosida transport infratuzilmasini rivojlantirish, tashish jarayonlarini amalga oshirishda muqobil rejalar tuzgan holda kam vaqt sarflash, transport turlaridan to‘g‘ri foydalanish hamda barcha jarayonlarni boshidan oxirigacha nazoratga olish muhimdir[8].

Tadqiqot metodologiyasi. Temir yo‘l xizmatlarini transport xizmatlarini yo‘lovchi tashish xizmatlarini rivojlanishi hamda rivojlantirishni yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlarning ilmiy-tadqiqot natijalari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy bazasi sifatida xizmat qildi. Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, menejment tadqiqot usullari, qiyosiy va omili tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash va boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Temir yo‘l xizmatlari O‘zbekiston hududi uchun samaradorligi yuqori tarmoqlardan biri bo‘lishi lozim. Chunki, transport tarmoqlari ichida dunyoda dengiz transportidan so‘ng temir yo‘l transporti yuk tashish hajmiga ko‘ra hamda yuklarni tashish ta‘rif stavkalariga ko‘ra eng arzon transport hisoblanadi. Lekin ming afsuski, bugungi kunda ushbu transport turi jahondagi raqobatbardosh transport xizmatlari tizimida munosib o‘rnini topganicha yo‘q. Birinchi holatda yo‘lovchi tashish temir yo‘l transporti narxlarini tayyoragoh, avtobus, yo‘nalishdagi xususiy taksi narxlariga solishtirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Temir yo‘l transporti orqali yo‘lovchi tashish xizmatlarini boshqa transport turlari orqali yo‘lovchi tashish xizmatlariga 2024 yil ma‘lumotlari asosida solishtirildi.

№	Yo‘nalishlar	Masofasi (km)	Vagon turi	Temir yo‘l transporti tariflari	Avia tariflar	Avtobus o‘rtacha ta‘riflari	Xususiy taksi tariflari	Xususiy taksi bilan farqlar +/-
Temir yo‘l yo‘lovchi poyezdlar								
1	Toshkent-Qarshi	500	BIZNES	440130	338802	78000	100000	
			EKONOM	201500				-201500
2	Toshkent-Buxoro	586	VIP	530000	427123	89000	200000	
			BIZNES	385000				
			EKONOM	280000				
3	Toshkent-Samar-qand	343	VIP (1V)	451268	381920	51000	150000	
			BIZNES (1S)	262050				-23000
			EKONOM (2V)	173081				
4	Toshkent — Andijon	423	VIP	284185	756602	-	120000	
			BIZNES	266191				
			EKONOM	208069				-88000
Oddiy yo‘lovchi poyezdlar								
5	Toshkent — Nukus	1275	SV	829850	1566871	200000	300000	
			KUPE	461264				
			PLASKART	314173				-14000
6	Toshkent — Samar-qand	337	SV	458979	206355	51000	150000	
			KUPE	251767				
			PLASKART	187076				-37000
7	Toshkent — Xiva	1003	SV	2297040	1157847	153000	300000	
			KUPE	374438				
			PLASKART	328523				-28000
8	Toshkent — Termiz	819	SV	684043	411965	117000	200000	
			KUPE	350000				
			PLASKART	257337				-57000
9	Toshkent — Buxoro	586	SV	524926	427123	89000	200000	
			KUPE	278186				
			PLASKART	230775				-30775

Yuqori tezlikdagi elektropoyezdlar								
1	Toshkent – Samar-qand	343	VIP	396000	51000	150000		
			BIZNES	276000			534441	
			EKONOM	204000			178147	-54000
2	Toshkent — Qarshi	500	VIP	534000	78000	150000		
			BIZNES	390000			583517	
			EKONOM	282000				-132000
3	Toshkent — Buxoro	586	VIP	890000	89000	200000		
			BIZNES	600000			427123	
			EKONOM	403000				-203000

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, temir yo'l transporti narxlari avtobus va xususiy taksi ta'riflaridan yuqori bo'lishi bilan birga doimiy zarar bilan ishlayotgan transport turlariga kiradi. Buning asosiy sabablaridan biri, ekspertlarning xulosalariga ko'ra temir yo'l transportida yo'lovchi uchun qulay imkoniyatlarning nisbatan pastligidir. Birinchi navbatda yo'lovchi tashish vaqti mijoz talablariga javob bermaydi. Oddiy bir eksperiment sifatida Toshkent-Andijon yo'nalishidagi xususiy taksilar harakatlanishi o'rganildi. Yo'nalishda to'rt yuzdan ortiq xususiy taksilar harakatlanadi. Harakatlanishdagi oraliq vaqt deyarli 5-10 minutni tashkil etadi. Istalgan vaqtda mijozni uyigacha kuzatib qo'yadi. Bunday qulaylik temir yo'l xizmatlarida hali yo'lga qo'yilmagan.

Buning asosiy sabablari temir yo'lda yo'lovchi tashish xizmatlarini rivojlantirish masalasida etarlicha investitsiyaning jalb etilmaganligi aniqlandi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

2018-2023 yillarda transport xizmatlariga kiritilgan investitsiya

mlrd.so'mda.

		2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y
49,1	Temir yo'l orqali yo'lovchi tashish, shaharlararo	367,6	1118,7	5,4	5,5	-	2,1
49,31	Shahar va shahar atrofiga qatnaydigan quruqlikdagi yo'lovchi transporti	x	x	x	x	x	x
49,32	Taksi faoliyati	x	x	x	x	x	x
49,2	Temir yo'l yuk transporti	30,6	2723,9	158,7	17,0	7,9	106,7
49.42	Avtomobil transportida yuk tashish	x	x	x	x	x	x

Shunisi qiziqki, investitsiyani kiritishdan asosiy maqsad, sohani moliyaviy barqarorligini ta'minlash, faoliyatini rivojlanishiga moliyaviy ko'mak berishdir. Temir yo'llarga yillar davomida kiritilgan investitsiya sohaga daromad keltirmagan (3-jadvalga qarang).

3-jadval

2018-2023 yillarda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ temir yo‘l orqali yuk va yo‘lovchi tashish moliyaviy natijasi foyda yoki zarar.

(trln. so‘mda)

	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y
Temir yo‘l yuk transporti	907,9	-420	-4,7	242	-1156	-1172
Temir yo‘l orqali yo‘lovchi tashish	X	X	X	X	-0,7	4,5

Albatta zarar bilan ishlashiga bir qancha sabablar bor. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ dagi asosiy vositalar ma‘naviy ham jismoniy eskirgan. Moddiy texnika bazasi xarajat talab texnikaga aylanib qolgan. Jamiyatda jami 428 ta lokomotiv bo‘lsa, shundan 78 tasi kapital ta‘mirga muhtoj. Shu bilan bir qatorda lokomotivlarning 347 tasi ma‘naviy va jismoniy jihatdan eskirgan, foydalanilayotganiga 30 yildan oshgan. Temir yo‘llardagi ushbu holat juda ham achinarli hisoblanadi. Vaholanki, 72,9 foiz lokomotivlar ma‘naviy va jismoniy jihatdan eskirgan va 13,9 foiz lokomotivlardan umuman foydalanib bo‘lmaydi. Yo‘lovchi tashish vagonlarining 70 foizi ma‘naviy va jismoniy jihatdan eskirib bo‘lgan (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Yo‘lovchi vagonlarning 2024 yil 1yanvar holatiga xizmat muddati tarkibi

Xizmat muddati	Soni, dona	Ulushi %
29 yildan ortiq	469	62,8
21 dan 28 yilgacha	31	4,1
11 dan 20 yilgacha	40	5,4
10 yilgacha	207	27,7
Jami:	747	100

2024 yilning 1 yanvar holatiga 747 ta yo‘lovchi vagonlari mavjud bo‘lib 60 foizidan yuqorisi 29 yildan ortiq ishlatilib ma‘naviy, jismoniy jihatdan eskirgan va ta‘mirlash uchun yuqori xarajatlarni talab etmoqda. Shu bilan birga elektrovozlar, teplovozlar va manyovr lokomotivlari ham ma‘naviy hamda jismoniy jihatdan eskirgan (5-jadvalga qarang).

5-jadval

“O‘zbekiston temir yo‘llari” Ajning 2024 yil 1yanvar holatiga lokomotiv investor parkining yosh tarkibi.

Tur	10 yilgacha	10 yildan 30 yilgacha	20 yildan 30 yilgacha	30 yildan oshgan	Jami
Elektrovozlar	79	12	31	35	154
Teplovozlar	-	10	-	113	123
Manyovr lokomotivlar	-	-	-	199	199
Jami lokomotivlar	76	22	31	347	476

Temir yo‘l transport sohasi samaradorligining pastligi hozirgi vaqtda O‘zbekistonda infratuzilma va harakat tarkibining yomonlashgani, avtotransport parki va avtotransport vositalarining etishmasligi bilan bog‘liq. Harakatlanuvchi tarkibning yuqori eskirishi tufayli poyezdlarning harakat tezligi 40-50 foizga kamayib, poyezdni ishlatish va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari sezilarli darajada oshdi.

Jahon tajribasiga yo'lovchi tashish tizimni rivojlanishi borasida olib borilayotgan ishlarga nazar tashlasak.



1-rasm Yaponiya tezyurar poyezdi

Xitoyning markazida tezyurar temir yo'li yotqizilishi boshlandi. U orqali poyezd samolyot tezligi – 1000 km/soat tezlik bilan harakatlanishi mumkin. Xitoy tezyurar temir yo'l aloqasi sohasida dunyo etakchisi hisoblanadi. Mamlakat poyezdlar tezligi 350 km/soatni tashkil qiluvchi temir yo'l tarmog'i bilan qamrab olingan. Bunday poyezdlarning yo'lovchilar bilan o'rtacha yuklanishi 82 foizga etdi (1-rasm).

Hozirda temir yo'lda yo'lovchi tashish tezligi Yaponiyaga tegishli bo'lib, bu yerda shunday poyezd tajribaviy uchastkada 603 km/soat tezlikda harakatlantirilgan.

Haqiqiy holatga baho beradigan bo'lsak, O'zbekistonda transport xizmatidan foydalanuvchi temir yo'l transporti tomonidan texnika va texnologiyasi og'ir sharoitda bo'lishiga qaramasdan yo'lovchi uchun tegishli xizmatlarni ko'rsatib kelmoqda. Bundan xulosa qilish mumkinki iste'molchi taklif qilinayotgan xizmatlardan foydalanishga moslashyapti.

Xulosa. Shu yerda savol paydo bo'ladi. Nima qilmoq va qanday amalga oshirmoq hamda qanday natijaga erishish mumkin?

“O'zbekiston temir yo'llari”AJda qator muammolar to'lanib qolgan. Ushbu muammolar tizimni investitsion jozibadorligini oshirish uchun loyihalar hamda investitsiyalarni qoplash manbalarini maqsadli yo'naltirish bilan erishiladi.

Birinchiidan, temir yo'l transporti to'liq asosiy va aylanma mablag'lari inventarizatsidan qaytatdan to'liq o'tkazishda sohaning yetuk mutaxassislari tomonidan amalga oshirish zarur. Inventarizatsiya davomida har bir xo'jalik obyektining ustida turib modernizatsiya qilish yoki hisobdan chiqarish masalasini qat'iy qo'yish kerak.

Ikkinchiidan, zamonning eng yetuk temir yo'l transporti rivojlangan davlatlaridan yuqori komfortga ega bo'lgan yo'lovchi tashish vagonlarini sotib olish kerak. Uchinchiidan, O'zbekistonda zamonaviy vagonlarni ishlab chiqaradigan zavodni to'liq ilmfanning, texnologiyaning so'nggi yutuqlaridan samarali foydalangan holda ishlab chiqarish quvvatini oshirish kerak.

To'rtinchiidan, yo'lovchi tashish grafiklari hamda yo'lovchi tashish vagonlarini tezligini 500 km/soatga kelgusida esa Xitoy tajribasidan kelib chiqib 1000 km/soatga chiqarish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

Beshinchiidan, temir yo'llarda yo'lovchi xizmatlari jozibadorligini, qulayligini ta'minlash maqsadida yo'lovchi tashish HABlarini yaratish kerak.

Oltinchiidan, rivojlangan davlatlarda temir yo'l transportini rivojlantirish sohasida minglab olimlar, ko'plab institutlar, ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyat yuritayotganida rivojlangan davlatlarning tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Temir yo'l xizmatlarining ichki qamrovini yanada kengaytirish, temir yo'l transporti va hududlarida xizmatlarni tashkil etishning zamonaviy usullarini, rivojlangan davlatlar Xitoy va Yaponiya tajribasini kiritish zarur.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati xolding kompaniyasi taraqqiyotning yangi yo‘nalishi, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini ta‘minlanishida muhim lokomotivga ega bo‘lmoqchi ekan mazkur sohani rivojlantirishni yanada takomillashtirishi, “yo‘l xarita”ga yo‘lovchi tashish xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish uchun bor imkoniyatlarini ishga solishi lozim.

Temir yol orqali yo‘lovchi tashishning yuqori natijalariga erishish mamlakatda ichki turizm, savdo, madaniy, ijtimoiy aloqalarni rivojlanishida ahamiyatlidir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Temir yo‘l sohasidagi natijalar va rejalar ko‘rib chiqildi. [Elektron manbaa] : <https://president.uz/uz/lists/view/7442> (qaraldi 13.11.2024).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi"ning 07.02.2017 yildagi PQ-4947-sonli qarori.
3. B.Abdullayev, Yo‘lovchilarni tashishning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent-2021, 208 b. 2
4. <http://mintrans.uz>
5. Yu.Ozatbekov. Temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(10), 406–415. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss10-pp406-415>
6. M.Akbarov va boshqalar. Temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarini takomillashtirishda marketing tadqiqotlarining o‘rni. J.: Iqtisodiyot va ta‘lim / 2020. 152-154 b.
7. M.Jalolova. O‘zbekistonda temir yo‘l transportining iqtisodiy samaradorligini baholash. J.: “Iqtisodiy va innovatsion texnologiyalar” ilmiy, elektron jurnali. №5, sentyabr-oktyabr,2021. 178-186 b.
8. D.Butunov va boshqalar. Temir yo‘l transportida yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarini takomillashtirish. J.: Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2/ISSUE 6. Pp. 259-263.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

PREDICTION OF PRODUCTION DEVELOPMENT IN ECONOMIC NETWORKS, THEIR METHODOLOGICAL BASIS

Yunusov Begench Mavlanberdievich,

Doctor of Philosophy in Technical Sciences (PhD)

Ministry of Water Management of the Republic of Uzbekistan

E-mail: begenc8806@mail.ru

Abstract. Maintaining land records using the correct modern methods and, when carrying out full compliance of land areas and rational use of land resources, the accuracy of cadastral data is important for forecasting and planning the development of production in economic sectors, ensuring economic stability in the regions. In this regard, the article provides information on improving the economic efficiency of cadastral indicators, the development and use of methods of economic development of regions.

Key words: cadastre, state cadastres, unified system of state cadastres, land registration, cadastral system, socio-economic stability, territory, efficiency.

ИҚТИСОДИЁТ ТАРМОҚЛАРИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ РИВОЖЛАНИШНИ БАШОРАТЛАШ, УЛАРНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ

Юнусов Бегенч Мавланбердиевич,

Техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги

Аннотация. Ер ҳисобини тўғри замонавий усулларда юритиш ва, ер майдонларини тўлиқ хатловдан ўтказиш ҳамда ер ресурсларидан оқилона фойдаланиш, кадастр маълумотларнинг аниқлиги иқтисодий тармоқларида ишлаб чиқариш ривожланишини башоратлаш ва режалаштиришга, ҳудудларда иқтисодий барқарорликни таъминлашда муҳим аҳамият касб этади. Шу нуқтаи назардан мақолада кадастр индикаторларининг иқтисодий самарасини ошириш, ҳудудларда иқтисодий ривожлантириш услубларини ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланиш юзасидан маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: кадастр, давлат кадастрлари, давлат кадастрлари ягона тизими, ер ҳисоби, кадастри тизими, ижтимоий-иқтисодий барқарорлик, ҳудуд, самарадорлик.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N18>

Кириш. Ўзбекистон Республикасининг бозор муносабатларига ўтиш жараёнида ер ресурсларидан самарали фойдаланишни бошқаришнинг объектив асоси бозор иқтисодиёти қонунлари механизми ҳисобланади. Ер муносабатларини тартибга солиш бошқарувнинг ҳуқуқий асосларига суянган ҳолда ишлаб чиқариш муносабатлари таркибида ер муносабатларини тартибга солишга хизмат қилади[6]. Бу механизмнинг асосий вазифаси ерлардан фойдаланишда қонунийликни таъминлашдан иборат. Бозор муносабатлари қарор топиши шароитида ерларни давлат бошқарувининг мажмуали

услугини энг қулай қўллаш ва бюджет даромадларини кўпайтиришни таъминловчи, ердан фойдаланишнинг энг самарали ва иқтисодий жиҳатдан мақсадга мувофиқ шакли сифатида ерни ижарага беришнинг ривожланиши айниқса муҳим аҳамиятга эга бўлади. Шу билан бирга ер муносабатларининг давлат бошқарувидаги ягона тартибини ўрнатиш, ижара ҳақи миқдорини усулларини ишлаб чиқиш, ер бозорининг ҳолатини аниқ акс эттирадиган минтақа иқтисодиётининг ҳолати ва ундаги жараёнларни бошқариш тизимида, ер ижара сиёсатида тадбирлар мажмуасини шакллантиришнинг бирламчилигини ҳисобга олиш ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлади. Ер муносабатларини тартибга солишнинг услубий назариясини ишлаб чиқиш, ернинг олди-сотди шакллари ва услубини фаоллаштириш, ер участкаларини хусусийлаштириш жараёнларини, инвестицион, баҳолаш, суғурта фаолияти, ипотека, кредитлаштириш, ерга оид қимматбаҳо қоғозлар билан муомала ўтказишни рағбатлантириш зарур. Ишлаб чиқариш муносабатларининг объектив мажмуи одамларнинг онги ва иродасига боғлиқ эмас, шу билан бирга ишлаб чиқариш муносабати бу одамлар ўртасида таъсир кўрсатадиган онгли ва иродавий муносабатдир.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Ер ресурсларидан самарали фойдаланишни бошқаришнинг иккита бир-бирига узвий боғлиқ бўлган бошқарув вазифаси бўлиб, булар биринчидан, ташкилий ва иккинчидан, бевосита хўжаликдаги фойдаланиш шакллари дир. Бошқарувни бу икки шакли алоҳида йўналиш сифатида ер ресурсларидан самарали фойдаланишни бошқаришнинг ташкилий томонини акс эттиради. Ер ресурсларини бошқариш жараёни бир қатор ташкилий, иқтисодий ва ҳуқуқий механизмларни ўз ичига олади. Ер ресурсларини бошқариш механизмлари қуйидаги тизимда ўз аксини топган. Ер кадастрини юритиш - Ўзбекистон Республикаси “Ер кодекси”нинг 15-моддасига ҳамда “Давлат ер кадастри тўғрисида”ги қонунга мувофиқ ташкил этилган тизим бўлиб, у ерларнинг ҳуқуқий ва хўжалик ҳолати, миқдори ва сифати, унумдорлик даражаси, қиймат баҳоси, ушбу ер фондининг ер тоифалари, ер эгалари, ердан фойдаланувчилар ва мулкдорлар ўртасидаги тақсимооти тўғрисидаги маълумотлар ва ҳужжатлар тизимидан иборатдир[1].

Ер ресурсларидан фойдаланиш тизимини янада такомиллаштириш мақсадида қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланиш тизимли таҳлил қилишни йўлга қўйиш кадастр тизими давлат томонидан бошқарилишини таъминлаш ва айти пайтда давлат ва ердан фойдаланувчилар эҳтиёжларини ҳисобга олиш ўта муҳим масала бўлиб, шу асосида ер ресурсларини бошқаришнинг давлат ва бозор механизми тизимларини ишлаб чиқиш ва ривожлантириш талаб этилади. Айти шу маънода, ер ресурсларидан фойдаланишда ягона давлат сиёсатини амалга оширишнинг истиқболдаги асосий йўналишлари


Ер ҳисоби (ер баланси) маълумотлари билан ҳудудларда тегишли ташкилотлар томонидан ўтказилган хатлов натижаларининг маълумотлари ўзаро солиштириш услуби орқали юзага келган коррупция, қалбаки қарор асосида суғориладиган ерлардан фуқароларга ер ажратиш бу ва бу каби бошқа ер ажратишга асос бўлмайдиган ҳужжатларга асосан ҳамда ерларни қаровсиз қолдириш, ернинг экологик ҳолатини қасддан бузиш каби ноқонуний ишлар натижасида талон-тарож қилинган ерларни аниқлаш орыали йўқотилган маблағлар кўрсатилган1-расм)



1-расм. Ер ҳисобини олиш бўйича қонунчиликда белгиланган механизмнинг ҳозирги ҳолати

Унга асосан Республика аэрогеодезия маркази 1-иловага мувофиқ маъмурий-худудий бирликлар чегараларини белгилаш ишларини амалга оширади, 2-иловага мувофиқ ер турлари ва майдонларининг контурлари бўйича ҳисобланган маълумотлар келтирилади, 3-иловада Ердан фойдаланувчилар бўйича ҳисоблаш 4-иловага мувофиқ ердан фойдаланишда аниқланган қонун бузилиш ҳолатлар келтирилади.

Тадқиқот ишларини олиб бориш мобайнида ер кадастри тизимини ҳамда ер ресурсларини аниқ ҳисобини юритишни тизимли йўлга қўйишнинг шаффофликни таъминлаш ер ҳисобини тўғри шаклланишнинг такомиллашган механизми ишлаб чиқилди (2-расм).



2-расм. Ер ҳисобини олишнинг қонунчиликда белгиланган механизмнинг такомиллаштирилган ҳолати

Чунки мавжуд механизм асосида ҳудудларда ер кадастри тизимини бошқариш, ер ресурсларининг аниқ ҳисобини юритишда ҳуқуқий муносабатларини четлаб ўтиш ҳолатлари ҳамда ер кадастрининг қишлоқ ва сув хўжалиги, ўрмон хўжалиги ва бошқа саноат ерлари инфратузилмалари ишлаб чиқариш ривожланишини илмий-амалий башоратлаш ёки режалаштириш ишларининг амалга оширилмаганлиги натижасида туманларда ерлар талон-тарож қилинган, қалбаки қарорлар асосида ер ажратиш авж олган. Ноқонуний ер олди-сотдиси натижасида ҳудудда ўзбошимчалик билан қурилган якка тартибдаги ўй жойлар кўпайган.

Муҳокама. Ер ҳисоби (хатлов) маълумотларида суғориладиган ерлар туманда мавжуд ер ҳисоботига нисбатан 4 475 гектар камайиб кетганлигини кўриш мумкин (1-жадвал). Жойига чиқиб, қишлоқ хўжалиги хариталари билан таққослаш ишлари амалга оширилганда, ерлар қаровсиз қолдирилганлиги ва фойдаланишдан чиқиб кетганлигига амин бўлинди. Ҳолбуки, бу ерларда сув ресурслари етарли эканлигини инобатга олсак қайта фойдаланишга тиклаш имкониятининг мавжудлиги лекин бу ерларда бир неча йиллар давомида агротехник ишларнинг олиб борилмаганлиги сабабли ёмон ҳолатга келиб қолганлиги аниқланди. Бундан ташқари ҳудудларда ерларнинг тўлиқ давлат рўйхатидан ўтказилмай турганлиги ерларнинг талон-тарож бўлишига янада йўл очиб берган. Ўрганишлар натижасида Қорақалпоғистон Республикасида 2023 йил январ ойи ҳолатига мавжуд миллий ҳисобот кўрсаткичларига нисбатан давлат рўйхатидан ўтказилган ер участкаларни таҳлил қилинганда 311 865,8 га ер давлат рўйхатидан ўтказилмасдан келинган.

1-жадвал

Элликқалъа тумани 2023 йил давомида хатловдан ўтказилган ер ҳисоби маълумотлари таҳлили

2024 йил 1 январь ҳолатига															30-сеп			
Т/Р	Худудлар номи	Натижа	Умумий ер майдони	шундан														
				Экин ерлар			шундан				Бўз ерлар	Пичанзор ва яйловлар	Қишлоқ хўжалиги ерлари	Томорка ерлар ва богдорчилик сабзавот уюшма ерлари	Мелиоратив курилиш ҳолатидаги ерлар	Ўрмонзорлар	ш.ж теракзор	Бошқа ерлар
				сувли	лалми	Кўп йиллик дарахтзорлар	боғ	тоқ	тут	бошқа								
1	Элликқалъа	Ер ҳисоботи	541 920	28 678		909	466	28	415		612	357 273	387 472	4 283	3 547	29 207	80	117 411
		Хатлов	540 128	24 203		1 459	750	242	409	58	5 240	372 487	403 388	13 447	2	29 551	135	93 739
		фарқи +/-	-1 792	-4 475		550	284	214	-6	58	4 628	15 214	15 916	9 164	-3 545	344	55	-23 672

Ҳудудларда ер кадастрининг иқтисодиёт тармоқларида ишлаб чиқариши ривожланишини башоратлаш ва режалаштиришда ер баланси таҳлил қилинмасдан шунингдек, унумдор ерларни ҳисобини инобатга олмасдан ишлар юритилган. Ер ҳисоби таҳлили натижалари юзасидан Элликқалъа туманида камайиб кетган 4 475 гектар суғориладиган экин ерларида жойига чиққан ҳолатда илмий тадқиқот ишлари олиб борилди.

Мазкур ерларда ҳудуд учун қанча иқтисодий ресурс бўлишини ушбу тумандаги “Тоза боғ жайрони” Фермер хўжалигида ўрганишлар асосида бир гектарга ғалла экинини режалаштириш ҳисобига таҳлили ишлаб чиқилди

Мазкур Ф/Х мисолида, бир гектар ерга нисбатан агротехник ишларининг дизель ёқилғиси, минерал ўғитлар, дон маҳсулотлари сарф харажатлари ҳисоблаб чиқилди. Шунингдек, йиғим-терим харажатлари, техника, қўл меҳнати, ишчилар маошлари ҳамда сув сарфи суммаси, ер солиғи, ҚҚС кабилар ҳисобга олинди. Бир гектар ер участкага экин экиш давридан уни йиғиб олиш ва маҳсулотни сотишгача бўлган давр ўрганиб чиқилиб ҳисоби олинди. Олинган ҳисоб-китобларга кўра бир гектар ер ҳисобига йўқотилган сумма 5 592 000 сўм соф фойда, шу фойдани туманда йўқотилган 4 475 гектар суғориладиган ерга ҳисоблаганимизда ердан фойдаланувчи фермерларга умумий ҳисобда 25 млрд сўм атрофида соф фойда қолиши баҳоланди

Худудларни ривожлантиришда биринчи навбатда қишлоқ хўжалиги ерлари билан боғлиқ муносабатлар барқарорлиги таъминланиб, уларнинг мониторингини юритиш, ер майдонларидан самарали фойдаланиш ва муҳофаза қилиш тизимини тубдан такомиллаштириш зарур. Кейинги йилларда қишлоқ хўжалиги ерлари учун ажратилган ерлардан унумли фойдаланиш изчил ҳамда аниқ мақсадга қаратилган бўлиб, тадбиркорлик субъектлари ва аҳолига томорқа учун ер ажратишда аҳоли сонининг кўпайиши, иқтисодиётнинг ўсиш критерияларини инобатга олиб ердан фойдаланувчиларга ер ажратишга худудларни тайёрлашда олдиндан башоратлаш талаб қилинади.

Бунинг учун йиллар давомида қишлоқ хўжалиги ерларининг тақсимланиши ва уларга ажратилган ер майдонларини ўрганишимиз керак бўлади. Прогнозлаш йўналишларига кўра изланишли ва норматив бўлиши мумкин. Изланишли башорат – агар ҳозирги тенденциялар сақланиб қолса, “иқтисодий тизим қандай ривожланади?”, деган саволга жавоб беради. Бошқа сўз билан айтганда тизимга таъсир этувчи омиллар ўзгармаса, у қандай ҳолатга келиши мумкин? Илмий адабиётларда маҳсулотларини етиштириш хажми ва унинг бозор конъюктурасини башоратлашнинг турли вариантлари, услубиятлари, усуллари қўлланилишини кузатишимиз мумкин. Улар экстраполяция усули, прогнозлашнинг эксперт баҳолаш усули ҳамда моделлаштириш усулларидан иборат. Биз эконометрик моделлаштириш усулидан фойдаланамиз. Прогнозлашни амалга ошириш учун аввало кўп омилли регрессия таҳлилини амалга оширамиз.

$$1) \quad y = \alpha_0 + \sum_{i=1}^n a_i x_i \quad (1)$$

бу ерда y - натижавий кўрсаткич; x_1, x_2, \dots, x_n - натижавий кўрсаткичга таъсир этувчи омиллар, a_0, a_1, \dots, a_n - номаълум параметрлар.

Берилган чизиқли $y=f(x_1, x_2, \dots, x_n)$ моделда боғланишни аниқлаш учун a_0, a_1, \dots, a_n номаълумлар параметрларини аниқлаш керак бўлиб, бунинг учун энг кичик квадратлар усулидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Бу усулдан фойдаланишда қуйидаги нормал тенгламалар системасини тузиш ва бу тенгламалар системасини ечиш орқали номаълум параметрларни аниқлаш мумкин:

$$\begin{cases} na_0 + a_1 \sum x_1 + a_2 \sum x_2 + \dots + a_n \sum x_n = \sum y \\ a_0 \sum x_1 + a_1 \sum x_1^2 + a_2 \sum x_1 x_2 + \dots + a_n \sum x_n x_1 = \sum y x_1 \\ \dots \\ a_0 \sum x_n + a_1 \sum x_1 x_n + a_2 \sum x_2 x_n + \dots + a_n \sum x_n^2 = \sum y x_n \end{cases} (2)$$

Номаълум параметрлар сони 2 тадан ошгандан кейин уни мавжуд компьютер дастурларидан фойдаланиб амалга ошириш мақсадга мувофиқдир.

Натижалар. Тадқиқот натижаларига кўра, ер кадастри билан ҳудудларни ривожлантиришда ўзаро боғлиқликни прогноз қилиш соҳанинг ўзига хос хусусиятлари ва кўрсаткичларини эътиборга олишни тақозо этади. Тадқиқот жараёнида ушбу масаланинг ечимини топиш орқали, ер кадастри билан ҳудудларни ривожлантиришда ўзаро таъсир қилувчи бир нечта омилларнинг бир-бирининг боғлиқлиги аниқланди. Бунда, миллий ер ҳисоботи бўйича майдони, минг га, натижавий омил сифатида қаралиб, таъсир қилувчи қуйидаги муҳим омиллар асос қилиб олинди:

Y- миллий ер ҳисоботи бўйича майдони, га; X₁- умум фойдаланишдаги ер майдонлар, га; X₂- ҳуқуқий ҳужжати йўқ турар жойлар майдони, га; X₃- озиқ-овқат экинлари экиш имкони мавжуд қўшимча аниқланган ерлар майдони, га; X₄ – мақсадли фойдаланишга йўналтирилган ерлар майдони, га;

X₅- ички йўллар эгаллаган ерлар майдони, га; X₆- сув объектлари эгаллаган ерлар майдони, га. Бу омиллар қуйидаги маълумотларидан фойдаланиб, кўп омилли регрессия таҳлилини амалга оширамиз.

Юқоридаги омиллар қийматлари асосида, ер кадастри билан ҳудудларни ривожлантиришда ўзаро боғлиқликни ифодаловчи жуфт корреляция коэффицентларининг қуйидаги корреляция матрицаси excel дастури орқали ҳосил қилинди (2-жадвал).

2-жадвал

Натижавий кўрсаткичга таъсир қилувчи омиллар билан ва омилларнинг ўзаро боғланиш даражалари жуфт корреляция коэффицентлари матрицаси

	Y	X1	X2	X3	X4	X5	X6
Y	1						
X1	0,040216	1					
X2	0,508861	0,582568	1				
X3	0,371344	-0,49491	0,163682	1			
X4	0,268502	0,023471	0,044405	-0,03683	1		
X5	0,247398	0,733172	0,668971	-0,10652	0,193916	1	
X6	0,128738	-0,24071	-0,09987	0,309701	0,299795	-0,02563	1

Бу матрицани ҳосил қилиш орқали ёнма ён турган омиллар орасида зич боғланиш мавжуд ёки мавжуд эмаслиги, яъни мультиколлениарлик мавжуд ёки мавжуд эмаслигини аниқлаш мумкин.

Бунга кўра ер кадастри билан ҳудудларни ривожлантиришга таъсир этувчи омиллар асосида регрессион модел тузиш учун мультиколлениарлик муаммоси мавжуд эмас экан. Буни эътиборга олиб, excel дастурида кўп омилли чизиқли регрессия

моделини юқоридаги маълумотлар асосида амалга оширганда қуйидаги модел ҳосил қилинди:

$$\hat{y} = 212.13 - 0,55X_1 - 0,12X_2 + 0,033X_3 + 0,001X_4 - 1,04X_5 - 0,027X_6$$

Бу ечимни таҳлили қуйидагича: 212,13 озод ҳад таҳлил қилинмайди. x_1 олдидаги коэффицент $-0,55 X_1$ - умум фойдаланишдаги ер майдонлар, га 1 бирликка оширганда, Y - миллий ер ҳисоботи бўйича майдони, га $-0,55$ га камайар экан, X_2 - ҳуқуқий ҳужжати йўқ турар жойлар майдони, га 1 бирликка ошганда, Y - миллий ер ҳисоботи бўйича майдони, га $0,12$ бирликка камаяр экан, X_3 - озиқ-овқат экинлари экиш имкони мавжуд қўшимча аниқланган ерлар майдони, га бир бирликка ўзгарганда, Y - миллий ер ҳисоботи бўйича майдони, га $-0,13$ га камаяр экан, X_4 - мақсадли фойдаланишга йўналтирилган ерлар майдони, га 1 бирликка ошса, Y - $0,01$ га ошар экан, X_5 - ички йўллар эгаллаган ерлар майдони, га, 1 бирликка ошса, Y - $1,04$ га камаяр экан, X_6 - сув объектлари эгаллаган ерлар майдони, га 1 бирликка ошса, Y - $0,027$ га камаяр экан. Бу омиллар ичида Y - ҳажмига энг катта таъсир кўрсатувчи озиқ-овқат экинлари экиш имкони мавжуд қўшимча аниқланган ерлар майдони экан. Шунингдек, мазкур эконометрик модел бўйича миллий ер ҳисоботи бўйича майдон ҳажмини прогноз қилиш учун унга таъсир этувчи ҳар бир омил бўйича функциялари аниқланди. Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар миқдори 2020 йилдан бошлаб ўсиб борган. Буни графикда детерминация коэффиценти қийматидан ҳам кўриш мумкин: $D = R^2 = 0,64$.

Захира ерлар майдони эса камайиб борганлиги графикда келтирилган. Буни регрессия моделидан ҳам кўриш мумкин, боғланиш тескари боғланиш эканлигидан далолат беради. Ишлаб чиқилган тренд функцияларидаги ноъмалум сонлар ўрнига юқорида фойдаланилган модел ва формулалар ёрдамида олинган реал рақамларни қўйиш асосида амалга оширилган ҳисоб-китоблар натижаларига мувофиқ миллий ер ҳисоботи бўйича майдони 2010-2024 йиллардаги динамикаси асосида 2024-2030 йиллар бўйича прогноз майдонлари асослаб берилди (3-расм). Худди шунингдек захира ерлар майдони прогнози ҳам асосланди (4-расм)

Барча ер тоифалари бўйича шунга ўхшаш прогноз қийматларни ҳосил қилиш мумкин. Кўп омилли чизиқли регрессия моделнинг умумий сифат кўрсаткичини аниқлашда детерминация коэффиценти (R^2) қуйидаги формула ёрдамида ҳисобланади:



3-расм. Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар



4-расм. Захира ерлар

$$R^2 = 1 - \frac{\sum_{i=1}^n (y_i - \hat{y}_i)^2}{\sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y})^2} \quad (3)$$

y_i - натижавий кўрсаткичнинг кутилаётган даражаси;

\bar{y} - натижавий кўрсаткичнинг ўртача арифметик қиймати;

\hat{y} - натижавий кўрсаткичнинг аниқланган, прогнозлаштирилган, текисланган миқдорлари; n – кузатишлар сони.

Кўп омилли моделда корреляция коэффициенти юқори: $R=0,80$.

Демак натижавий омил ва таъсир қилувчи омиллар орасидаги боғланиш даражаси жуда юқори. Бундан детерминация коэффициенти хам юқорилиги келиб чиқади: $D = R^2 = 0,64$. Бундан келиб чиқадики, Y - миллий ер ҳисоботи бўйича майдонга юқоридаги омилларнинг таъсири 64% ташкил қилар экан. Қолган 0,36% бу ерда ҳисобга олинмаган омиллардан иборат. Детерминация коэффициенти моделга киритилган омилларнинг натижавий кўрсаткичга таъсирини фоизда кўрсатади. Барча омилларга тегишли кўрсаткичлар $[0;1]$ диапазон ичидаги қийматларда ифодаланиб, агар уларнинг қиймати 1 га қанчалик яқин бўлса, моделга киритилган омилларнинг натижавий кўрсаткич даражасини ҳаққоний баҳолашдаги ўрни муҳимлигини асослайди. Бошқа томондан эса моделларни турли миқдордаги омиллар билан таққослаш имкониятининг борлиги ва ушбу омиллар миқдорининг R^2 статистик кўрсаткичга таъсир этмаслиги учун одатда текисланган детерминация коэффициентида фойдаланилади, яъни:

$$R_{\text{текис}}^2 = 1 - \frac{s^2}{s_y^2} \quad (4)$$

Мазкур кўп омилли регрессия моделининг статистик аҳамияти ва ўрганилаётган жараёнга мос келишини аниқлаш учун Фишернинг F -мезони асос қилиб олинади ва унинг қийматини ҳисоблаш учун қуйидаги формула ишлатилади¹, яъни:

$$F = \frac{R^2}{1-R^2} * \frac{(n-k-1)}{k} \quad (5) \quad -0,27$$

бу ерда: n – кузатувлар сони;

k - кўп омилли регрессия тенгламасидаги омиллар сони.

Кейинги босқичда F - Фишер мезонининг ҳисобланган қиймати ($F_{\text{ҳис}}$) назарий ҳисобланган ($F_{\text{жадвал}}(\alpha; k; n-k-1)$) қиймати билан таққосланади. Агар $F_{\text{ҳис}} > F_{\text{жадвал}}$ бўлса, у ҳолда қўлланилган модел аҳамиятли ёки ўрганилаётган жараёнга адекват ҳисобланади.

¹ Dimitrios Asterio and Stephan G.Hal. Applied econometrics. A modern approach using Eviews and Microfit. Revised edition. Palgrave Macmillan, New York, 2007. – p.397): [101; c. 65-66].

Шундан кейин Стъюдентнинг t -мезони асосида кўп омилли регрессион эконометрик модел параметрлари ва корреляция коэффицентларининг ишончилигини текширилади. Уларнинг қиймати қуйидаги формула ёрдамида тасодифий хатолар қийматлари билан таққосланади:

$$t_b = \frac{b}{m_b}; \quad t_a = \frac{a}{m_a}; \quad t_r = \frac{r}{m_r}. \quad (6)$$

Эконометрик моделни қўллаш асосида олинган параметрлар ва корреляция коэффицентларининг тасодифий хатолари қуйидаги формулалар бўйича ҳисобланади:

$$m_b = \sqrt{\frac{\sum(y - \hat{y}_x)^2 / (n - 2)}{\sum(x - \bar{x})^2}}; \quad (7)$$

$$m_a = \sqrt{\frac{\sum(y - \hat{y}_x)^2}{(n - 2)} \cdot \frac{\sum x^2}{n \sum(x - \bar{x})^2}} = \sqrt{S_{\text{қолдик}}^2 \frac{\sum x^2}{n^2 \sigma_x^2}} = S_{\text{қолдик}} \frac{\sum x^2}{n \sigma_x}; \quad (8)$$

$$m_{r_{xy}} \sqrt{\frac{1 - r_{xy}^2}{n - 2}}. \quad (9)$$

t -мезони бўйича ҳисобланган ($t_{\text{ҳис}}$) ва олинган натижаларни акс эттирувчи жадвалдаги ($t_{\text{жад}}$) қийматларни таққослаб, қабул қилинган H_0 гипотезанинг асосланганлик даражаси текширилади. Бунинг учун t -мезон асосида ишлаб чиқилган жадвалдаги омиллар қийматининг ишончилик эҳтимоли (α) ва эркинлик даражаси ($\gamma = n - k - 1$) шартлар доирасида топилади. Бу ерда n - кузатувлар сони, k - омиллар сони. Юқоридаги эконометрик модел ва унинг таркибий формулалари асосида олинган натижалар амалиётдаги реал кўрсаткичлар билан солиштирилиб, тегишли хулоса ва тавсиялар ишлаб чиқилади.

Excel дастури ёрдамида ушбу банднинг 2-жадвалида келтирилган статистик қийматлар асосида амалга оширилган ҳисоблаш ишларида олинган натижалар қуйидаги 3 ва 4 - жадвалларда келтирилган. Жумладан, 3-жадвал маълумотларидан фойдаланиб, танланган кўп омилли регрессия эконометрик моделнинг функционал формуласи қуйидагича:

Константант	Стандартлаштирилмаган коэффицентлар		t-статистика	Эҳтимоллиги
	Коэффицент	Стандарт хатолик		
		212,1349		
X1	-0,5539	0,3152	-1,7573	0,1094
X2	0,1209	0,0752	1,6085	0,1388
X3	0,0329	0,3125	0,1052	0,9183
X4	0,0013	0,0040	0,3334	0,7457
X5	1,0497	0,8555	1,2270	0,2479
X6	-0,0271	0,1635	-0,1657	0,8717

Ҳисобланган R^2 детерминация коэффицентининг 0,64 га тенг бўлиши натижавий кўрсаткичнинг киритилган омиллар билан кучли боғланганлигини

кўрсатиб, қолган 0,36 улуш эса ҳисоблаш жадвалига киритилмаган ҳамда маргинал омиллар таъсири деб қарашимиз мумкин.

Корректлаштирилган детерминация коэффицентининг 0,57 қийматга тенг бўлиши ва R^2 нисбатан яқинлиги олинган натижавий кўрсаткичга таъсир этувчи омиллар сонининг ўзгаришига боғлиқ тарзда вужудга келадиган қийматлар даражасидир.

3-жадвал

Кўп омилли эконометрик моделнинг сифати ва аҳамиятини текшириш мезонлари

Кўп омилли корреляция коэффицент и, R	Кўп омилли детерминация коэффицент и, R-квадрат	Корректлаштирилган R-квадрат	Баҳолашнинг стандарт хатоси	F-ҳисобланган	P-қиймат	DW
0,64	0,64	0,57	2,72	15,5	$1,8 \cdot 10^{-9}$	1,90

Умуман, қўрилган модел асосида ишлаб чиқилган натижаларнинг кўрсатишича, миллий ер ҳисоботи бўйича майдони ҳажмига таъсир қилувчи омиллар таҳлили бўйича F- Фишер мезонининг ҳисобланган қиймати $F_{\text{ҳис}} = 15,5$, шунингдек эркинлик даражалари сурат бўйича $\gamma_1 = 4$ ва махраж бўйича $\gamma_2 = 17 - 6 - 1 = 10$ га тенг бўлганда, Фишер мезонининг қиймати, яъни моҳиятлик даражаси $F_{\text{жад.}} = 3,48$.

4-жадвал

Миллий ер ҳисоботи бўйича майдони ўзгаришининг 2030 йилгача бўлган прогноз кўрсаткичлари

Йиллар	Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар	Аҳоли пунктлари ерлари	Саноат, трансп., алоқа, мудофаа бошқа ерлар	Табиатни муҳофаза қиладиган ерлар	Тарихий-мадан аҳамиятга эга молик ерлар	Ўрмон фонди ерлари	Сув фонди ерлар	Заҳира ерлар
2010	3 272,0	29,4	1 296,9	0,4	24,0	4 367,0	57,1	7 151,2
2011	3 271,4	29,7	1 279,9	0,4	24,0	4 366,8	57,1	7 168,7
2012	3 271,1	29,8	202,7	0,4	0,0	4 366,7	57,1	8 246,2
2013	3 271,1	29,8	202,7	0,4	0,2	4 366,7	57,1	8 245,0
2014	3 218,8	36,6	186,5	0,4	2,8	4 489,0	57,4	8 664,6
2015	3 011,6	36,6	176,4	628,7	2,8	5 907,5	57,4	6 835,0
2016	3 218,8	36,7	186,5	0,4	2,7	4 489,0	57,4	8 664,6
2017	3 011,6	36,6	176,5	628,7	2,8	5 907,5	57,4	6 835,0
2018	3 166,9	36,4	177,5	628,7	2,8	5 751,6	57,4	6 834,8
2019	3 206,1	36,2	177,9	628,7	2,8	5 751,6	57,7	6 795,7
2020	6 197,7	36,2	177,9	628,7	2,8	6 587,4	79,5	2 702,8
2021	6 032,5	32,7	55,4	2 194,9	2,8	6 432,4	79,5	1 582,2
2022	6 407,1	36,6	178,2	631,9	2,8	6 614,5	81,1	2 703,9
2023	6 242,6	33,5	56,3	2 194,9	2,9	6 462,6	81,1	1 582,2
2024	6 243,5	33,2	55,8	2 194,8	2,9	6 732,2	81,2	1 312,5
2025	6 481,5	33,5	-10,1	2 028	1,9	7 271,3	82,9	1 107,4
2026	6 742,3	33,9	-70,4	2 180,5	1,0	7 123,3	85	1 204,5
2027	7 003,1	34,2	-130,8	2 332,9	0,1	7 667,1	87,1	1 301,5
2028	7 263,9	34,5	-191,1	2 485,4	-0,8	7 519,1	89,1	1 398,6
2029	7 524,7	34,9	-251,5	2 637,9	-1,7	8 062,9	91,2	1 495,7
2030	7 785,6	35,2	-311,8	2 790,3	-2,6	7 914,9	93,2	1 592,8

Демак, $15.5 > 3.48$ бўлганлиги учун қўлланилган кўп омилли модел адекват ҳисобланиб, ундан миллий ер ҳисоботи бўйича майдон ҳажмини келгуси даврлар учун прогнозлашда фойдаланиш мумкин. Ишлаб чиқилган тренд функцияларидаги ноъмалум сонлар ўрнига юқорида фойдаланилган модел ва формулалар ёрдамида олинган реал рақамларни қўйиш асосида амалга оширилган ҳисоб-китоблар натижаларига мувофиқ миллий ер ҳисоботи бўйича майдон ҳажми 2008-2024 йиллардаги динамикаси асосида 2025-2030 йиллар бўйича прогнози асослаб берилди.

Бунда бизнингча қишлоқ хўжалиги ерларига ажратилиши керак бўлган ҳудудларни олдиндан танлаб олиб қишлоқ хўжалиги фондига ўтказиш учун керак бўлган барча шарт-шароитларини таъминлашни талаб қилади.

Ушбу таҳлиллар биргина қишлоқ хўжалиги фондининг миқдори ва улардан фойдаланиш ҳисобини юритишни тартибга солиш зарурлигини англатади. Бу эса назоратни тўғри ташкил қилиш, тезкор ахборотларни шакллантиришдаги камчилик ҳамда жиддий муаммолар келишининг олдини олишни тақозо қилмоқда.

Хулоса ва таклифлар. Бизнингча айнан кадастр маълумотлари асосида ҳар бир ҳудуд бошқарув соҳасида иқтисодиёт тармоқларида ердан фойдаланиш самарадорлигини баҳолаш ва режалаштириш услубиётига эга бўлиши зарур. Шунингдек, яна шуни қўшимча сифатида аграр деҳқон ва фермерлар ерларидан унумли фойдаланиш самарадорликни ошириш суғориладиган ерларни сақлаш муҳофаза қилиш мақсадида қуйидагилар тавсия этилади:

1. Қишлоқ ва сув хўжалиги, экология, молия ҳамда бошқа органлар билан биргаликда қишлоқ хўжалиги ер майдонларидан фойдаланаётган деҳқон, фермер ёки бошқа қишлоқ хўжалиги корхоналари фаолиятининг самарадорлигини ўрганиш ва унинг натижаларига кўра хулосалар ишлаб чиқиб натижалари бўйича Кадастр агентлиги ва туман ҳокимликлари билан белгиланган тартибда чоралар кўриш;
2. Ушбу хўжаликлар фойдаланаётган қишлоқ хўжалиги ер майдонларининг аниқ миқдори ва бонитет бали, шунингдек, ерларнинг хўжалик, технологик ва экологик ҳолатларини аниқлаш ва улар юзасидан ташкилий-ҳуқуқий, картографик ҳужжатлар, ер майдонлари бўйича қайдномаларни ишлаб чиқиш ва тегишли тартибда тасдиқланишини ташкил қилиш;
3. Туманда (шаҳарда) ер балансининг ҳақиқий ҳолатини танқидий ўрганган ҳолда юқоридаги ўрганишлар натижаларига кўра туман (шаҳар) ер баланси ва у билан боғлиқ барча ер ҳисоби ҳужжатларига ўзгартишлар киритиш ҳамда тегишли тартибда муҳокама қилиш ҳамда тасдиқлаш ишларини ташкил этиш;

Деҳқон, фермер ва бошқа қишлоқ хўжалиги корхоналари томонидан ерлардан фойдаланиш мақсадининг бузилганлиги, ерлар унумдорлиги пасайганлиги, ерлар деградацияси, агротехник ва экологик меъёрларнинг бузилиши оқибатида ерлардан самарасиз фойдаланиш ҳолатлари аниқланган тақдирда келтирилган зарарни қоплаш имкониятларини ўрганган ҳолда ушбу корхоналар билан ер ижараси шартномасини тузиш ва кадастр рўйхатига олиш юзасидан асослантирилган хулоса ишлаб чиқиб халқ депутатлари туман (шаҳар) Кенгашига тақдим этиш.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси “Ер кодекси”нинг 15- моддасига ҳамда “Давлат ер кадастри тўғрисида”ги Қонун
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 14 февралдаги “Қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш тўғрисида”ги ВМ-71-сон Қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 23 апрелдаги “Маъмурий-худудий бирликлар чегараларини белгилаш, ер ресурсларини хатловдан ўтказиш ҳамда яйлов ва пичанзорларда геоботаник тадқиқотларни ўтказиш тартибини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 299-сон Қарори
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 апрелдаги “Ғаллани етиштириш ва сотишда бозор тамойилини жорий этишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-262-сон Қарор
5. Алтийев А.С. Ер ресурсларидан фойдаланиш тизимини тартибга солиш муаммолари: Монография. – т., “Фан”, 2018.
6. Рахмонов Ш. К. Ер ресурсларини тармоқлараро тақсимоотида қишлоқ хўжалигининг устуворлигини таъминлаш.-2018
7. Чертовиский А.С., Базаров А.к. Система землепользования Узбекистана. /Т: “Фан”, 2007.
8. Юнусов Б.М. Кадастр ма’лумотларининг аниқлик даражасини таҳлил қилиш орқали ҳудудларни комплекс ривожлантиришга та’сирини баҳолаш / “ТИҚХММИ”МТУ “Ўзбекистонда ер ресурсларни бошқаришнинг устувор йўналишлари: муаммо ва ечимлар” мавзусидаги халқаро конференция, № 1 сон, Нашр: 2023йил 25 май.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

PROBLEMS IN SHAPING THE CIRCULATION TOOLS OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP ENTITIES AND PROSPECTS FOR THEIR DEVELOPMENT

Kuchkarov Bahtiyor Hoshimjanovich,
independent researcher
E-mail: bahtiyorkuchkarov85@gmail.com

Sayitbaev Shermirza Datkamirzayevich,
Namangan Institute of Engineering Technology,
doctor of economic sciences, professor

Abstract. The article examines the main types of funding sources, features and problems of capital formation for small businesses using the Namangan region as an example. It identifies the factors that determine the composition of sources of funding for small businesses, and identifies the advantages of using alternative investments and alternative online funding as priority areas for providing resources to small businesses.

Key words: investments, financial business, financial aid, crowdfunding, working capital.

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI AYLANMA VOSITALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Qo'chqarov Baxtiyor Hoshimjanovich,
mustaqil tadqiqotchi

Sayitbaev Shermirza Datkamirzaevich,
Namangan muhandislik texnologiya instituti
iqtisod fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Maqolada Namangan viloyati misolida tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish manbalarining asosiy turlari, ularning kapitalini shakllantirish xususiyatlari va muammolari ko'rib chiqilgan. Kichik biznesni moliyalashtirish manbalari tarkibini belgilovchi omillar ko'rsatilib, kichik korxonalar faoliyatini resurslar bilan ta'minlashni ustuvor yo'nalishlari sifatida alternativ investitsiyalar hamda muqobil onlayn moliyalashtirishdan foydalanishning afzalliklari aniqlangan.

Kalit so'zlar: investitsiyalar, kichik biznes, moliyaviy yordam, kraudfanding, aylanma mablag'lar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N19>

Asosiy qism. Kichik biznes bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylandi. Kichik biznesni rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotidagi

tarkibiy o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu soha zarur raqobat muhitini yaratadi, qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishiga va aholi daromadlarining oshishiga xizmat qiladi[4]. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy tarixi shuni isbotlaganki, xususiy sektor, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari qo'llab-quvvatlanmasdan milliy muammolarni hal qilish mumkin emas[5]. Kichik biznes faoliyatini to'liq moliyalashtirish va rivojlantirish masalalari har qanday davlat iqtisodiyoti uchun doimo dolzarb masala hisoblangan. Odatda, yirik korxonalariga nisbatan kichik biznesda asosiy va aylanma mablag'larni shakllantirish uchun an'anaviy manbalar tanlovi cheklangan bo'ladi, va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari ham har doim yetarlicha samarali bo'lmaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun moliyaviy mablag' bo'lishi birinchi navbatda resurs ta'minlovchi funksiyani bajarib, korxonaning joriy va asosiy vositalarining zarur miqdorini shakllantirish imkonini beradi. Korxonada yetarli miqdordagi moliyaviy resurslarning mavjudligi uning doimiy operativ faoliyati va ishlab chiqarish dasturini amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy resurslarini shakllanish manbalariga ko'ra, ular uch turda, ya'ni 1-xususiy o'z resurslari, 2-jalb qilingan va 3-qarz-kreditorlik kabi ko'rinishlarda shakllanishi mumkin. Korxonaning o'z xususiy moliyaviy resurslarining asosiy manbalari-bu xo'jalik yurituvchi subyektning operatsion faoliyati natijasi bo'lgan foyda va amortizatsiya to'lovlari hisoblanadi [3]. Bundan tashqari, moliyaviy resurslarga bo'lgan joriy ehtiyojlarni qondirish uchun barqaror majburiyatlardan foydalanish ham mumkin, ya'ni notijorat asosida jalb qilingan mablag'larning korxonaga tomonidan haqiqatda doimiy foydalaniladigan qismi (masalan, kreditorlik qarzidorlikni minimal darajada pasaytirilgan qismidan). Shuningdek, korxonaning tashqi manbalardan qaytarib olinmaydigan va nominal bepul asosida olingan mablag'lari ham o'z moliyaviy resurslariga tenglashtiriladi. Jalb etilgan moliyaviy resurslar manbalariga aksiyali qimmatli qog'ozlarni qo'shimcha chiqarish natijasida jalb qilingan mablag'lar, davlat yoki mahalliy byudjetlardan olingan mablag'lar, jismoniy va yuridik shaxslardan tekinga olingan boshqa mol-mulklar ham kiradi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda faqat xususiy va jalb etiladigan mablag'lariga tayanib, ishlab chiqarish quvvati va sotish hajmining yuqori o'sish sur'atlariga erishish mumkin emas[2].

Kichik biznes rivojida korxonani ilg'or faoliyati uchun moliyaviy ta'minlashda muddatli to'lov va boshqa to'lov shartlari asosida beriladigan uchinchi turdagi qarz mablag'laridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Kichik biznesni rivoji uchun korxonani mablag' bilan ta'minlashda aynan qaytara oluvchalik, to'lovchanlik, zudlik shartlari asosida olinadigan qarz mablag'larini salmoqli o'rin tutadi. Korxonaga qarzga olinadigan moliyaviy resurslarni turli manbalardan olishi mumkin. Jumladan:

–bank kreditlari, bankdan tashqari moliya-kredit institutlarining kreditlari (lizing va faktoring kompaniyalari, investitsiya fondlari);

–tijorat kreditlari (tovar ko'rinishida-olingan kreditlar va avanslar);

–qarzidorlik qimmatli qog'ozlarini chiqarish va joylashtirish yo'li bilan moliya bozorida keng doiradagi ishtirokchilardan jalb qilingan mablag'lar (masalan, korporativ obligatsiyalar).

Yuqoridagi uch turdagi moliyalashtirishdan tashqari so'nggi yillarda tadbirkorlik subyektlarini, jismoniy va yuridik shaxslar faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda muqobil onlayn moliyalashtirishni roli ortib bormoqda. Moliyaviy tadbirkorlik sohasidagi bu shakllar kichik biznes sohasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy va aylanma mablag'larni ko'paytirishga qaratilgan muqobil moliyalashtirish manbalari hisoblanadi.

Xususan, bularga quyidagilar kiradi:

–**Peer to peer** kreditlari, ya'ni jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'larini onlayn platformalar orqali va an'anaviy moliyaviy vositachi ishtirokisiz bevosita jalb qilishdir. Bu holatda qarz oluvchi bankka murojaat qilmay, keng ommaga o'z loyihasini taklif etadi. Ixtiyoriy loyiha yoqqan kishi, summasi qancha bo'lishidan qat'iy nazar mablag' kiritadi, loyiha egasi esa, u pulni biznesga sarflashi va olgan kreditni protsentlar bilan qaytarish majburiyatini oladi.

–tadbirkorlik subyektlari uchun balans kreditlari-onlayn platformalar orqali kreditlash yo'li bilan amalga oshiriladiganda kredit summasi platformani boshqaruvchi muassasa balansidan to'g'ridan-to'g'ri debitlanadi;

–foydani taqsimlash shartlari asosidagi kraudfanding, ya'ni loyihani yoki g'oyani moliyalashtirish uchun unga qiziqqan ko'p kishilar–investorlardan loyihani amalga oshirishdan olingan foydani bir qismini dividendlar, royaltlar va boshqalar ko'rinishida to'lash sharti bilan moliyalashtiriladi, bu shartnoma mablag'larni oluvchi tomonidan o'z loyihasini to'la nazoratini saqlab qolishni o'z ichiga oladi. Kraudfanding (inglizcha kraudolomon, ko'p sonli odamlar, fanding finans ma'nosini bildiradi)–bu korxonani, loyihalarni yoki g'oyani moliyalashtirish usuli bo'lib, unda ko'pchilikdan internet platformalari yoki kraudfanding saytlari orqali mablag' yig'iladi.

–debitorlik qarzlarni moliyalashtirish (onlayn faktoring), ya'ni korxonadan tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga onlayn platformalar orqali mavjud hisob varaq-fakturalarni sotish;

–korxonaning oddiy aksiyalari, dividendlar yoki boshqaruvda ishtirok etish huquqi evaziga onlayn-investorlardan mablag' olishga asoslangan aksiyadorlik kraudfandingi;

–birjadan tashqari ta'minlanmagan qarzдорlik qimmatli qog'ozlarini jismoniy va institutsional investorlarga onlayn sotishni amalga oshirilganda, qarzдорlik qimmatli qog'ozlaridan foydalanish vositasida berilgan kreditlar.

–investitsiya yoki boshqa loyiha uchun real mablag' yo'qligi tufayli mablag' jalb qilinganda, moliyaviy bo'lmagan haq to'lanadigan kraudfanding. Bunda olingan qarz resurslardan foydalanish evaziga to'lov sifatida ishtirokchilarga turli shakllardagi moliyaviy bo'lmagan har xil manfaatli mukofotlar (innovatsiya mahsulotini birinchilardan bo'lib olish imkoniyati, tovar mahsulotlari narxlarida chegirmalar yoki boshqa manfaatlar) beriladi.

–pul mablag'larini oluvchilarning (boshqaruvchilarning) moliyaviy donorlar oldidagi majburiyatlari bo'lmagan holda bepul va qaytarib berilmaydigan asosda mablag'larni jalb qilishga asoslangan haq to'lanmaydigan kraudfanding;

–muqobil moliyalashtirish korxonadan tomonidan ham qarz, ham aksiyadorlik asosida amalga oshirilishi mumkin. Bu uning turlarini qarzga olingan yoki jalb qilingan moliyaviy manbalar sifatida tasniflash imkonini beradi. Kraudfandingning ayrim turlari shartli (qisman) qarz sifatida tasniflanishi mumkin, ya'ni moliyaviy bo'lmagan mukofotlar bilan olinadigan kraudfanding.

–daromad yoki kompaniyani boshqarishda ishtirok etishni ta'minlovchi kapital asosni aksionerlik shaklida moliyalashtiriladigan kraudfanding yoki foydani taqsimlash shartlari bo'yicha kraudfanding.

Biz aylanma mablag'larni ko'paytirishga qaratilgan muqobil moliyalashtirish manbalarini o'rganayotganimizning sababi, tadbirkorlikdagi muqobil moliyalashtirish manbalari kichik bizneslarning rivojlanishi va aylanma mablag'larni yaxshilashda muhim rol

o'ynaydi. Birinchidan, kraudfanding va online platformada amalga oshiriladigan kreditlar, tadbirkorlarga an'anaviy moliyaviy vositachilarsiz, keng auditoriyadan mablag' jalb qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, foydani taqsimlash shartlari asosida kraudfanding, investorlarga kompaniyaning rivojlanishida ishtirok etish va foyda olish imkonini yaratadi. Bu biznesni samarali boshqarish uchun muhimdir, chunki biznes egasi loyihaning nazoratini saqlab qoladi. Uchinchidan, debitorlik qarzlarni moliyalashtirish, onlayn faktoring orqali biznesning likvidligini oshirishga yordam beradi. To'rtinchidan, moliyaviy bo'lmagan mukofotlar taklif qiluvchi kraudfanding turlari, investorlarga turli manfaatlar bilan rag'batlantirishni ta'minlaydi, bu esa loyihalarni mablag'lash uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Umuman olganda, korxonaning moliyaviy resurslarini shakllantirish manbalarining haqiqiy tarkibi ko'plab omillarga bog'liq, ular orasida eng muhimlari:

–korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli va hajmi;

–korxonaning hayot faoliyatini real bosqichlari holati (yangi tashkil etilgan yoki uzoq vaqtdan beri faoliyat yuritayotgan va bozorda mavjudlik ko'lamini kengaytirish bosqichida, faoliyati va mahsulot assortimentini diversifikatsiyalash bosqichida, operatsiyalarni bajarishni barqarorlik yoki faoliyatning qisqarishi bosqichida bo'lishi kabilar);

–tashqi moliyaviy resurslardan foydalanish yo'nalishlari (asosiy kapitalga investitsiyalar, aylanma mablag'larning doimiy yoki o'zgaruvchan qismini moliyalashtirish).

Bundan tashqari, kichik biznes subyektlari uchun yuqorida ko'rsatilgan moliyaviy resurslar manbalarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga va foydalanishda muayyan obyektiv cheklovlarga ega. Masalan, kichik biznes subyektlarining o'z moliyaviy resurslari hajmi odatda, cheklangan, shuning uchun kichik biznes ko'pincha qimmat investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega emas, faoliyat masshtabini cheklanganligi esa, yuqori texnologik innovatsion sohada mustaqil izlanishlarni olib borishga imkon bermaydi. O'zining tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra, kichik biznes asosan yakka tartibdagi tadbirkorlar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar doirasida yoki kamroq tarqalgan xususiy aksiyalar shaklida aksiyadorlik jamiyati ko'rinishida tashkil topadi[6].

Tashqi cheklovlarga qo'shimcha ravishda (eng kam ustav kapitaliga qo'yiladigan talablar, aksiyalarni fond birjasida joylashtirishni ta'minlashdagi qiyinchiliklar), kichik korxonalar egalari ko'pincha yangi ishtirokchilar paydo bo'lishi sababli kompaniya ustidan nazoratni yo'qotishni xohlamaydilar (xususan, mojarolar va yo'qotish xavfi ortishi orqali). Shuningdek aksiyalarni qo'shimcha kirim oqimini va foyda kirimi oqimini kichik biznesni moliyaviy manbai resurslari sifatida foydalanish ancha cheklangan holda bo'ladi. Uzoq muddat ijobiy kredit olish tarixini yo'qligi, aylanma mablag' hajmlari va diversifikatsiya darajasini pastligi odatda kichik korxonalar uchun maqbul shartlarda kerakli kredit miqdorini olishni juda murakkablashtiradi.

Bundan tashqari, tadbirkorlar ko'pincha bank kreditlarini o'zlarining moliyaviy resurslarini shakllantirishning mumkin bo'lgan manbasi deb hisoblamaydilar, buning sababi sifatida bank kreditlarini olishning uzoq va murakkab tartibini, moliyaviy-iqtisodiy texnik-iqtisodiy asoslash va loyihalarning investitsiya istiqbollarni baholash bo'yicha mutaxassislarning etishmasligini ko'rsatadilar[1].

Agar kredit olish mumkin bo'lsa ham, uning shartlari, qiymati, miqdori, garovga qo'yiladigan talablar va boshqa parametrlar ko'pincha kichik biznes uchun juda og'ir yoki moliyaviy jihatdan nomaqbuldir. Ko'rsatilgan barcha murakkabliklarni hisobga olganda kichik

biznes faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy ta'minlashni tarkibiy qismlari ichida alternativ moliyaviy ta'minot modeli muhim ahamiyatga egaligini ko'rish mumkin.

Moliyaviy resurslarning an'anaviy va muqobil manbalarini ko'rib chiqishda yangi tashkil etilgan va allaqachon faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun mablag'larni jalb qilishdagi mavjud farqlarni hisobga olish kerak. Yangi tashkil etilgan korxonalar uchun moliyaviy resurslarning ichki manbalari, odatda, ustav kapitali orqali shakllanadi, faoliyat yuritayotgan korxonalar esa, buning ustiga, foyda va amortizatsiya ajratmalari shaklida o'z moliyaviy resurslarini ham to'playdi. Qarz mablag'larini jalb qilishda ham o'ziga xos farqlar kuzatiladi. Shunday qilib, banklar ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan, bozorda ancha uzoq tajribaga ega bo'lgan korxonalarga, shuningdek, faol bank hisob raqamlariga ega bo'lgan mijozlariga kamroq ehtiyotkorlik bilan va yaxshiroq shartlarda kredit beradilar. Uzoq muddatli ijobiy kredit tarixi bo'lmasa, kamroq qiziqish bilan qaraladi.

Ushbu qiyinchiliklarni inobatga olgan holda, muqobil moliyalashtirish modellarini kichik korxonalar faoliyati va rivojlanishini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning muhim tarkibiy qismiga aylantirish mumkin. Ya'ni, yangi tashkil etilgan korxonalar uchun an'anaviy usullardan tashqari, kraudfanding platformalari kabi muqobil manbalardan foydalanish, ayniqsa ko'plab investorlar uchun jozibador bo'lgan innovatsion biznes sohasini moliyalashtirishni ancha osonlashtiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, moliyalashtirishda aktivlar turiga qarab korxonalarni moliyalashtirish manbalari tarkibidagi farqlarni hisobga olish zarur, chunki bu aktivlar asosiy vositalarni moliyalashtirish, aylanma mablag'larning doimiy yoki o'zgaruvchan qismini moliyalashtirish va boshqa maqsadlar uchun investitsiya qilinadi.

Bank va nobank moliya institutlarining rivojlangan sektori bilan birga, tobora keng tarqalib borayotgan onlayn platformalar orqali muqobil moliyalashtirish vositalarining Yevropa tajribasi alohida e'tiborga loyiqdir. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, onlayn moliyalashtirishning bunday darajaga erishish kichik biznesni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yuqori ulushi bilan bog'liqdir.

So'nggi yillarda kichik va o'rta biznes uchun muqobil onlayn moliyalashtirish ba'zi mamlakatlarda jadal rivojlanmoqda, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda esa, hozirgi kunda ixtisoslashgan onlayn platformalardan foydalangan holda kichik va o'rta biznesni moliyaviy resurslarni real manbalar bilan ta'minlashda muqobil onlayn moliyalashtirish modellarining roli ortib bormoqda. Muqobil moliyani rivojlantirish-bu an'anaviy moliyalashtirish manbalariga kirish imkoniyati kichik bo'lgan va joriy faoliyatni va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni moliyalashtirish uchun o'z moliyaviy resurslarining yetishmasligini boshdan kechirayotgan kichik korxonalar uchun juda muhimdir. Hozirgi kunda korxonalar biznesni muqobil onlayn moliyalashtirish modellarini, xususan, peer-to-peer biznes kreditlari, aksiyadorlik kraudfanding, foydani taqsimlash, moliyaviy birlamgan mukofotlar bilan kraudfanding va onlayn debitorlik qarzlarni moliyalashtirish modellaridan foydalanishga o'tib bormoqdalar.

Ushbu tendensiyalarning o'sishini davlat tomonidan tartibga solishning cheklovlari va boshqaruv darajasining pastligi, investitsiya jarayonining shaffof emasligi, ko'plab investorlar o'rtasida xavfning diversifikatsiyasining yo'qligi, shuningdek, investorlarning bank tizimi va qimmatli qog'ozlar bozoriga an'anaviy investitsiyalari rentabelligining pasayishi (ba'zan hatto salbiy qiymatlarga tushishi) bilan izohlash mumkin.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini aylanma vositalarini shakllantirishda tashqi an'anaviy kanallardan moliyaviy mablag' olishga nisbatan (fond bozori va bankdan) alternativ onlayn modellari orqali moliyalashtirish qator afzalliklarga ega. Jumladan:

-bank kreditidan farqli o'laroq, muqobil moliyalashtirish modellari biznes g'oyasining paydo bo'lishi bosqichida yoki yangi tashkil etilgan korxonalar uchun zarur miqdorda (ehtiyotning 100% gacha va ko'pincha bir necha barobar ko'p) haqiqiy garovsiz mablag'larni jalb qilish imkonini beradi;

-an'anaviy bank kreditidan farqli ravishda, peer-to-peer kreditlashda kredit summasini muddatidan oldin to'lashdagi mumkin bo'lgan jarimalarni qo'llashni ko'zda tutmaydi[6; 7];

-alternativ onlayn moliyalashtirish usuli mablag' oluvchini ham mablag' beruvchini ham o'zining soddaligi, tezkorligi operatsiyalarni tushunuvchanligi bilan jalb etadi.

Investor uchun muqobil moliyalashtirish bu mablag'ni yangi qo'shimcha yo'nalishga yo'llash va foyda olish, hamda jamiyat uchun muhim va ahamiyatli bo'lgan biznes g'oyani yoki innovatsion loyihani qo'llash imkoniyatidir[8].

Umuman olganda, butun dunyo mamlakatlari sharoitida korxonalarining aylanma mablag'larini moliyalashtirish manbalarining tarkibiy tuzilishi investitsiyalarni moliyalashtirishga xos bo'lgan tendensiyalarni takrorlaydi. Korxonalarining bank kreditlaridan foydalanishdagi ulushi katta bo'lgan mamlakatlarga Chili, Braziliya, Irlandiya kabilarni kiritish mumkin. Kichik va o'rta biznesni muqobil moliyalashtirishning eng katta rivojlanishi esa, so'nggi yillarda Xitoy, Janubiy Koreya va Fransiya, Germaniya, Niderlandiya va Ispaniya kabi Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kuzatilmoqda. Aytish kerakki, hamma vaqt ham muqobil onlayn moliyalashtirish oson kechavermaydi. Onlayn moliyalashtirish turini tanlash korxonaning moliyaviy resurslaridan foydalanish yo'nalishiga bog'liq bo'lib, ko'pincha kraudfanding platformalaridan foydalanuvchi potensial investorlar mavjud biznes doirasidagi yangi investitsiya loyihalarini va startup loyihalarini moliyalashtirish uchun sarmoya tikadilar. Kraudfanding va peer-to-peer platformalaridan foydalanadigan potensial investorlar ko'proq "g'oya", mutlaqo yangi loyihaga sarmoya kiritadilar yoki yangi asbob-uskunalar sotib olish uchun mavjud biznesni qo'llab-quvvatlaydilar, shu ma'noda kichik korxonalar uchun o'z ehtiyojlarini qondirishda muqobil moliyalashtirish manbalarini jalb etish ancha murakkab. Aylanma mablag'larni tezda to'ldirish onlayn faktoring orqali debitorlik qarzlarni moliyalashtirishni ta'minlashi mumkin, ammo bunday mexanizm hozirda faqat bir necha mamlakatlarda ustuvorlik kasb etmoqda va hozirda mikro kreditlar kichik biznes uchun aylanma mablag'larni moliyalashtirishning eng qulay manbai bo'lib qolmoqda[1]. **Shu o'rinda ta'kidlash joizki, qulaylik va natijalar samarasini oshirishda**, kichik korxonalar uchun korxonalarining ichki resurslari ulushi, bank kreditlari, lizing kreditlari, ta'sisчилarning badallari va muqobil manbalarni har birini va resurslar aylanish dinamikasi o'zgarishini kompyuter dasturidan foydalanib faoliyat olib borishni yo'lga qo'yilishi, korxonalar operatsiyalarini shaffofligini va boshqaruvda e'tibor lozim tomonlarni tezda aniqlash bilan rentabellik natijalarga erishishga yordam beradi.

Jahonda investitsiyalarni moliyalashtirish tanqisligini boshdan kechirayotgan kichik korxonalar uchun korxonalarining ichki resurslarining o'rtacha ulushi 71,3% ni tashkil etadi; bank kreditlari – 14,3% (investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun bank kreditlaridan foydalanadigan korxonalar ulushi atigi 25%) lizing kreditlari, ta'sisчилarning badallari va muqobil manbalarni har biri taxminan 5% ni tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, kichik

biznesning moliyalashtirishida asosan o'z mablag'lariga tayanayotganini va bank kreditlari esa kichik korxonalarining moliyalashtirishdagi an'anaviy manbalarga nisbatan murojaat qilishidagi qiyinchiliklarni ko'rsatadi.

Namangan viloyatida kichik biznes subyektlariga ularning aylanma mablag'larini ko'paytirish uchun kiritilgan investitsiya mablag'leri tarkibiy qismlarini keyingi 2019-2023-yillarda o'zgarishi dinamikasi quyidagi 1-jadvaldagicha bo'lgan.

Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlarining aylanma mablag'larining shakllantirish manbalari (mln. so'mda) 1-jadval¹

№	Ko'rsatkich nomi	Yillar				
		2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.
1	Hukumat mablag'leri hisobiga	-	-	-	-	-
2	Qarz mablag'leri hisobiga (bank kreditlari)	1344,3	1545,5	2703,8	2638,3	1114,2
3	O'z mablag'leri hisobiga	1220,9	1262,7	1431,4	1477,6	1008,3
4	Chet el investitsiyasi hisobiga	2229,5	2987,7	2295,8	2381,5	3995,4
5	Boshqa beg'araz yordamlar hisobiga	60	733,4	14,1	682,3	-
6	Boshqa manbalardan	39,8	7,3	2,0	11,5	4110,2

Bulardan ko'ramizki, viloyatda kichik biznesni moliyalashtirishni tarkibiy qismlarida beg'araz yordamlarni o'z mablag'leri sifatida tasniflaganda korxonaning o'z mablag'leri ulushi bank kreditlaridan katta farq qilmaydi. Lekin chet el investitsiyasini dinamik o'sib borishi biznes rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. Turli manbalardan kiritilgan investitsiya tarkibida muqobil kraudfanding modelidan foydalanishni ulushi deyarli yo'q.

Shuningdek, respublika bo'yicha tijorat banklari tomonidan asosiy vositalar sotib olish va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun keyingi yillarda ajratilgan kreditlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar to'g'risida ma'lumot. (mlrd. so'mda) 2-jadval²

№	Sana	Shundan:	
		Asosiy vositalar sotib olish uchun	Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun
1	2020-yil	39,009.8	43,797.0
2	2021-yil	43,447.8	63,319.8
3	2022-yil	44,087.4	75,663.4
4	2023-yil	47,784.9	80,015.2
5	2024-yil 6 oylik	15,812.2	52,684.9

Kichik biznesni moliyalashtirishda aylanma hamda asosiy vositalarni sotib olish uchun ajratilgan kredit mablag'larni yildan yilga ortib borishi kuzatilsa-da, muqobil moliyalashtirish modellaridan foydalanish ancha ortda qolayotganini ko'rish mumkin.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi Namangan viloyat boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

² Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari (<https://cbu.uz/oz/statistics/buletin/1812588>)

Shunday qilib, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, kichik va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalarining asosiy qismini tadbirkorlarning o'z mablag'lari, shuningdek, ularga tenglashtirilgan moliyaviy resurslar va bank kreditlari tashkil etadi, degan xulosa qilish mumkin. Shu bilan birga, biznesni muqobil onlayn moliyalashtirish modellari, jumladan, peer-to-peer biznes krediti, aksionerli kraudfanding, daromadda ishtirok etish sharti bilan kraudfanding, mablag'siz mukofotlash va debitor qarzdorlikni onlayn moliyalash kabi turlarini qo'llash, biznesni moliyalashtirishning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ushbu yangi moliyalashtirish usullarini mamlakatimizda joriy etish yuqori samaralar keltirishi mumkin.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Алкаиси Т. Современные источники формирования капитала в сфере малого бизнеса. // Студенческий вестник. 2022.. № 5-4 (197). С. 36-37.
2. Аббасова О. М. Совершенствование развития предприятий малого бизнеса // Вестник Академии знаний. 2020. № 3 (38). С. 10–14.
3. Бикметова З. М. Основные направления обеспечения финансовой безопасности предприятия // Актуальные вопросы современной экономики. 2019. № 6 (1). С. 363-370.
4. Досова А. А. Исследование сущности и содержания финансовой устойчивости предприятий малого бизнеса // Финансы и учетная политика. 2020. № 3 (18). С. 20-25.
5. Мамаева М. Р. Совершенствование механизма управления финансовой устойчивостью организациии малого бизнеса // Стратегия бизнеса. 2019. № 3. С. 139-141.
6. Prodanova N. A., Ilyin M. N. "Tashkilotning moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini baholashning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati" // Biznes va dizayn sharhi. 2016. T. 1. No 1(1). S. 1.
7. Salimov A. A. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari va istiqbollari // Fan va amaliyot xabarnomasi. 2022. T. 8. No 5. 462-466-betlar. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/78/54>
8. <https://cbu.uz/oz/statistics/buletin/1812588/>
9. <https://stat.uz/uz>

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

STRATEGIC PRIORITY DIRECTIONS OF REGIONAL ECONOMIC POLICY

Madrakhimov Kahramon Egamberganovich,

Mamun University NTM "Economics"
associate professor of the department
E-mail: mkakhramon0617@gmail.com

Abstract. This study examines the formulation and implementation of Uzbekistan's regional economic policy, focusing on addressing economic disparities, promoting sustainable growth, and supporting regional development. Using systematic and analytical approaches, this study defines the theoretical framework and strategic priorities of regional economic policy. The proposed model emphasizes resource efficiency, economic diversification and innovation as key drivers of regional economic development.

Key words: regional economic policy, economic diversification, regional differences, sustainable growth, innovation, economic competitiveness.

МИНТАҚАВИЙ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТНИНГ СТРАТЕГИК УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ

Мадрахимов Кахрамон Эгамберганович,

Маъмур университети НТМ "Иқтисодиёт"
кафедраси доценти

Аннотация. Ушбу тадқиқот Ўзбекистоннинг минтақавий иқтисодий сиёсатини шакллантириш ва амалга оширишни ўрганиб, асосий эътиборни иқтисодий номутаносибликларни бартараф этиш, барқарор ўсишни рағбатлантириш ва минтақавий ривожланишни қўллаб-қувватлашга қаратади. Тизимли ва таҳлилий ёндашувлардан фойдаланган ҳолда ушбу тадқиқот минтақавий иқтисодий сиёсатнинг назарий асослари ва стратегик устуворликларини белгилайди. Таклиф этилаётган модел ресурс самарадорлиги, иқтисодиётни диверсификация қилиш ва инновацияларни минтақавий иқтисодий ривожланишнинг асосий омиллари сифатида таъкидлайди.

Калит сўзлар: минтақавий иқтисодий сиёсат, иқтисодий диверсификация, минтақавий тафовутлар, барқарор ўсиш, инновациялар, иқтисодий рақобатбардошлик.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N20>

Кириш. Глобал ва минтақавий даражадаги иқтисодий ривожланишнинг муҳим жиҳатларидан бири иқтисодий сиёсатни, хусусан, минтақавий иқтисодий сиёсатни шакллантириш ва амалга оширишнинг самарали механизмларини ишлаб чиқишдир. Ҳозирги кунда давлат ва минтақалар олдида иқтисодий фаолиятни диверсификация қилиш, барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш, аҳоли бандлигини ошириш ва ҳудудлараро номутаносибликларни бартараф этиш каби муҳим вазифалар турибди. Бунда давлатнинг минтақавий иқтисодий сиёсатини тўғри йўналтириш ва ҳудудий

иқтисодий ривожланишни қўллаб-қувватлаш стратегияси алоҳида аҳамият касб этади[1].

Мазкур тадқиқотнинг мақсади маъмурий ва молиявий марказсизлашув шароитида минтақавий иқтисодий сиёсатни шакллантириш ва ривожлантириш бўйича назарий ва услубий тамойиллар, илмий-услубий ёндашувлар ва амалий тавсиялар ишлаб чиқишдир[2]. Бунда, ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органларининг роли, иқтисодий фаолиятни амалга оширишда давлат ва хусусий шериклик асосидаги механизмларни ишлаб чиқиш, иқтисодий фаолиятни диверсификация қилиш ва инновацияларни қўллаб-қувватлаш муҳим ўрин тутди[3].

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан қабул қилинган 2022-2026 йилларга мўлжалланган “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” мамлакатнинг барқарор ривожланиш йўлини белгилаб берувчи асосий ҳужжат ҳисобланади. Ушбу стратегияда ҳудудларда тадбиркорликни ривожлантириш, ишсизлик ва қашшоқликни камайтириш, минтақавий иқтисодий сиёсатнинг устувор йўналишларини белгилаш ва ҳудудий ривожланишни қўллаб-қувватлаш вазифалари қўйилган. Шу муносабат билан, минтақавий иқтисодий сиёсатнинг мазкур тадқиқотда таклиф этилган концептуал модели иқтисодий ўсиш омилларини, ҳудудлараро интеграциялашув жараёнларини ва ижтимоий-иқтисодий ривожланишни қўллаб-қувватлаш усулларини ўз ичига олади.

Тадқиқот объекти сифатида Ўзбекистон Республикасининг минтақавий иқтисодий сиёсатини шакллантириш ва амалга ошириш жараёнлари танланди.

Адабиётлар шарҳи. Минтақавий иқтисодий сиёсатнинг таклиф этилаётган концептуал модели устувор йўналишлар ва уларга эришишнинг стратегик мақсадларини ўз ичига олади. Минтақа жаҳон тараққиёти йўлларидаги репродуктив тузилма ҳисобланади. Бундан ташқари, минтақа бир-бири билан “сиёсий” алоқада бўлган, яъни ўз ривожланиш лойиҳасига (минтақавий ишлаб чиқаришнинг келажаги ҳақидаги мақсадлари, ғоялари ва ундан фойдаланиш йўналишлари) эга бўлган турли манфаатдор гуруҳларнинг фаолияти ва ўзаро таъсири майдонидир), бу субъектларнинг ўзаро боғлиқлиги ва маъмурий бўйсунуш ўртасида иерархик муносабатлар мавжуд эмас[4]. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” тўғрисидаги ПФ-60 сонли фармони доирасида мамлакатимиз тараққиётини белгиловчи 100 та мақсад ишлаб чиқилди. Ушбу стратегиянинг 29-мақсаднинг 5-бандида “Ҳудудларда тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш, ишсизлик ва камбағалликни қисқартириш бўйича мавжуд тузилмалар фаолиятини такомиллаштириш” вазифаси қўйилган. Юқоридаги мақсадларни амалга оширишда минтақа салоҳияти ва таркибий сиёсат дастурлари, минтақавий иқтисодий сиёсатнинг стратегик устувор йўналишларига алоҳида эътибор қаратилиши керак. Минтақани ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегиясининг асосий мақсади аҳолининг ҳаёт сифатини яхшилашдан иборат. Бунга эришиш учун муносиб турмуш даражасини таъминлаш, минтақавий иқтисодий сиёсати стратегиясини ишлаб чиқиш ва самарали рақобат муҳитини яратиш зарур. Давлатнинг минтақавий иқтисодий сиёсати - бу давлатнинг ҳудудларни ижтимоий, иқтисодий ва экологик ривожланишини бошқариш бўйича мақсадли фаолияти бўлиб ҳисобланади. Умуман олганда, минтақа

ғояси – бу кўпайиш ва ривожланиш жараёнлари биргаликда ташкил этилган аниқ макондир.



1-расм. Минтақавий иқтисодий сиёсатни шакллантириш ва амалга оширишни услубий ёндашув

“Давлатнинг минтақавий сиёсати доирасида бир нечта соҳалар, хусусан, иқтисодий, инновацион, ижтимоий, гуманитар, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш,

миграция, саноат ва бошқалар ажратилишига олиб келди. Уларнинг барчаси ҳам миллий, ҳам минтақавий даражада вакиллик қилишини инобатга олган ҳолда, уларни мувофиқлаштириш ва бир-бирини тўлдириш зарурати туғилади. Минтақавий ижтимоий-иқтисодий ва ижтимоий-сиёсий ривожланишни таъминлашда давлат томонидан тартибга солиш, давлат-хусусий шериклик асосида иқтисодий муносабатларда бевосита давлат иштироки ва бошқалар ҳам амалга оширилиши мумкин[5]. Ткачук таъкидлайдики, агар давлатнинг минтақавий сиёсатининг анъанавий парадигмаси ресурсларни кўпроқ ривожланган ҳудудлардан кам ривожланган ҳудудларга қайта тақсимлашга йўналтирилган бўлса, янгиси минтақавий ривожланишнинг барча субъектларини жалб этиш орқали рақобатбардош ҳудудни ривожлантиришни таъминлаши керак[6]. Самарали минтақавий тузилмавий сиёсат устуворликларни танлашнинг юқорида қайд этилган мезонларини ҳисобга олиши ва номутаносибликни бартараф этиш ва мезон даражада мувозанатни тиклаш учун турли хил воситаларни мувозанатли қўллашга асосланган бўлиши керак[7]. Минтақавий иқтисодий сиёсатни стратегиясини устувор йўналишларини аниқлаш жараёнида объектив ва субъектив омиллар таъсирининг ўзаро боғлиқлигининг таҳлил қилиш керак. Минтақавий иқтисодий сиёсатни ўрганишга методологик ёндашув ушбу тадқиқотнинг мақсади, вазифалари, объекти, предмети, усуллари ва ахборот базасидан келиб чиқадиган ҳаракатлар кетма-кетлигига асосланиши керак (1-расм).

Минтақавий иқтисодий сиёсатнинг устувор йўналишларининг моҳиятини, унинг функцияларини ва таркибий қисмларини аниқлаш, иқтисодий ўсиш назарияларининг мақсадли йўналишларини асослаш, иқтисодий ўсиш назариясини ўрганишнинг услубий асосларини белгилаш ва минтақавий иқтисодий сиёсатни шакллантириш ва амалга ошириш зарур. Минтақа иқтисодиётининг ривожланиши марказий органлар томонидан турли даражадаги ҳудудий органларнинг функциялари ва ўзаро ҳамкорлигини белгилаб берувчи маҳаллий ўзини ўзи бошқариш нуқтаи назаридан кўриб чиқилиши керак.

Минтақавий иқтисодий сиёсатнинг устувор йўналишларини ишлаб чиқишда қарама-қаршилиқларни бартараф этиш учун барча иқтисодий муносабатлар субъектларининг иқтисодий манфаатларини ҳимоя қилиш ва амалга оширишни таъминлайдиган, ҳудудларнинг барқарор ва самарали ижтимоий-иқтисодий ривожланишини қўллаб-қувватлайдиган махсус мувофиқлаштириш механизми зарур. Стратегияни мақсади минтақа хусусиятларини, мамлакатни ривожлантиришнинг стратегик йўналишларини ҳисобга олган ҳолда барча манфаатдор тадбиркорлик субъектларининг бозорга муваффақиятли кириши учун шарт-шароит яратишдан иборат. Минтақанинг табиий ресурслари ва илмий-техник салоҳиятидан самарали фойдаланиш, шунингдек ҳудудлар ўртасидаги ҳамкорликни кучайтириш орқали мамлакатнинг миллий бойлигини ошириш; ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасини ва ҳудудий меҳнат тақсимотининг самарадорлигини босқичма-босқич яхшилаш, аҳоли пунктларини оптимал ташкил этиш; иқтисодий ислохотларни амалга оширишда ҳудудларнинг иқтисодий, ижтимоий, тарихий-маданий ва бошқа хусусиятларини ҳисобга олиш; ижтимоий-иқтисодий ривожланиш, экологик ҳолат, ижтимоий-демографик ва ижтимоий-сиёсий жараёнлар бўйича ҳудудий мувозанатни таъминлаш муҳим масаладир. Минтақавий иқтисодий сиёсатни амалга

оширишда хорижий тажрибани ҳисобга олган ҳолда, биз молиявий имкониятларга эга ҳудудий ҳамжамиятларни яратиш иқтисодий ўсишнинг асосий катализаторларидан бири бўлишига, шу орқали Хоразм вилояти ва унинг ҳудудларидаги реал ижтимоий ўзгаришларга олиб келишни устувор йўналишларини аниқлаб олишимиз керак. Минтақанинг рақобатбардошлигини ошириш давлат ва ҳудудлар учун ҳам бирдек муҳим вазифа бўлиб, бу маҳаллий ва минтақавий даражада қулай инвестиция муҳитини яратиш, ҳудудий иқтисодиётни таркибий ўзгартириш жараёнларини фаоллаштириш билан бевосита боғлиқдир.

Биз Г.В.Вознякнинг ҳудудларнинг эндоген йўналтирилган ижтимоий-иқтисодий ривожланишини таъминлашда маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органларининг ролини кучайтириш мақсадида бугунги кунда маъмурий-ҳудудий тизимни ислоҳ қилишни яқунлаш, деган фикрга қўшиламыз. чунки бирлашган ҳудудий ҳамжамиятларнинг янада барпо этилиши маъмурий-ҳудудий ташкил этиш тизимига, айниқса, туманлар миқёсида ҳалокатли таъсир кўрсатмоқда, ҳам кадрлар, ҳам молиявий ресурслардан нораціонал фойдаланишни кучайтирмоқда [8].

Методология. Мазкур тадқиқотнинг методологик асоси тизимли, мантиқий умумлаштириш, тарихий таҳлил, иқтисодий-статистик таҳлил ва иқтисодий-математик моделлаштириш каби илмий усулларга асосланган. Тадқиқотда минтақавий иқтисодий сиёсатнинг назарий асослари, уни шакллантириш ва амалга ошириш жараёнларига таъсир этувчи омиллар, шунингдек, минтақавий иқтисодий сиёсатнинг концептуал модели таҳлил қилинади.

Тадқиқотда асосан қуйидаги усуллар қўлланилди:

- Таҳлил ва синтез: Минтақавий иқтисодий сиёсатни шакллантиришда фойдаланиладиган назарий ва амалий тамойиллар, иқтисодий сиёсатнинг устувор йўналишлари ва мақсадларини аниқлаш учун таҳлил қилинди ва умумлаштирилди.
- Иқтисодий-статистик таҳлил: Ҳудудлараро номутаносиблик даражасини аниқлаш, иқтисодий ўсиш омилларини баҳолаш учун статистика маълумотлари асосида таҳлил ўтказилди.

Натижалар. Тадқиқот натижалари минтақавий иқтисодий сиёсатни такомиллаштириш бўйича муҳим маълумотларни тақдим этади. Асосий натижалар қуйидагича:

1. Минтақавий иқтисодий сиёсат модели: Тадқиқотда Ўзбекистон ҳудудлари учун ишлаб чиқилган минтақавий иқтисодий сиёсатнинг концептуал модели ҳудудий ўсиш ва ривожланишни қўллаб-қувватлаш, ресурсларни самарали тақсимлаш ҳамда маҳаллий шарт-шароитларга мослаштирилган стратегияларнинг афзалликларини кўрсатади. Ушбу модель ҳудудий ўзига хосликларни ҳисобга олиб, иқтисодий фаолиятни диверсификация қилиш ва ресурслардан самарали фойдаланишни таъминлашга қаратилган.
2. Иқтисодий ўсиш омилларини аниқлаш: Тадқиқот натижалари Ўзбекистон ҳудудлари учун асосий иқтисодий ўсиш омилларини белгилашда ёрдам берди. Бу омиллар орасида инфратузилмани ривожлантириш, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш, иш ўринларини яратиш ва чет эл инвестицияларини жалб қилиш кабилар мавжуд.

3. Номутаносибликни камайтириш стратегиялари: Тадқиқотда иқтисодий ва ижтимоий номутаносибликларни камайтиришга йўналтирилган аниқ тавсиялар ишлаб чиқилди. Жумладан, ҳудудлар ўртасидаги фарқларни бартараф этиш учун давлат томонидан субсидия ва грантлар ажратиш, инвестиция лойиҳаларини қўллаб-қувватлаш каби чора-тадбирлар таклиф қилинди.
4. Инновацион ривожланиш: Ҳудудларнинг инновацион имкониятларини ошириш учун кластерлар, технопарклар ва илмий-тадқиқот марказларини ташкил этишнинг иқтисодий афзалликлари ва ушбу ташаббусларнинг минтақавий иқтисодий ривожланишга қўшадиган ҳиссаси таҳлил қилинди.

Натижалар минтақавий иқтисодий сиёсатни такомиллаштиришда давлат сиёсатини оптималлаштириш, иқтисодий фаолиятни диверсификация қилиш, ижтимоий тенгсизликларни камайтириш ва иқтисодий ўсишни таъминлаш учун зарур бўлган чоралар ва тадбирларни ишлаб чиқиш имконини беради.

Минтақавий иқтисодий сиёсатнинг устувор йўналишларини амалга ошириш қуйидаги вазифаларни бажаришни талаб қилади:

- ҳудудлар иқтисодиотида таркибий ўзгаришларни рағбатлантириш ҳамда глобал ва миллий миқёсда тармоқларни улашни яратадиган тармоқларнинг устувор ривожланишини стратегиянинг асосли ихтисослашув тамойиллари ва устуворликларига мос равишда таъминлаш;

- ҳудудий иқтисодиётнинг инновацион даражасини ошириш;
- маҳаллий ва хорижий инвестицияларни жалб қилишни фаоллаштириш;
- кичик ва ўрта тадбиркорликни ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратиш;
- бизнесни фазовий ташкил этишнинг янги шаклларини (кластерлар, технопарклар ва бошқалар) ривожлантиришни рағбатлантириш.

Бугунги кунда мавжуд бўлган ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий шароитлар иқтисодий ўсишни таъминлашда ташқи омилларнинг афзалликларини умуман кўрсатмайди, шунинг учун иқтисодий фаолликни рағбатлантириш сиёсатини қайта кўриб чиқиш зарурдир. Давлат ва ҳудудлар олдидаги энг муҳим ўрта муддатли вазифа ҳудудий иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни рағбатлантириш ва ақлли ихтисослашув (интеллектуал ихтисослашув) бўйича ривожланиши керак бўлган салоҳиятли ривожланиш марказларини яратиш орқали барқарор эндоген йўналишдаги ўсишга эришиш учун қулай шарт-шароитларни яратишдан иборат.

Ушбу стратегия нейтрал эмас, балки вертикалроқ аралашув мантиғига эътибор қаратади, чунки у ҳудудларнинг инновацион ривожланишига ҳисса қўшиши мумкин бўлган аралашув учун жозибадор ҳудудларни, технологияларни, қўйи тизимларни аниқлаш ва танлаш жараёнини ўз ичига олади. Шу билан бирга, ақлли ихтисослашувнинг жорий этилиши замонавий технологияларни ривожлантиришнинг энг ривожланган ҳудудларда концентрацияси хавфи билан боғлиқ. Бу, албатта, ҳудудий ривожланишнинг номутаносиблигининг ўсишига ёрдам беради. Ақлли ихтисослашув концепцияси бизнес, фан ва жамоат соҳаси ўртасидаги муносабатларни фаоллаштиришни ўз ичига олади. Шу сабабли, ушбу ҳудудларда фан ва таълимни ривожлантиришнинг мумкин бўлган йўналишларини уларнинг ўзига хос ижтимоий-иқтисодий шароитларига максимал даражада мослаштириш орқали алоҳида ҳудудлар салоҳиятидан оптимал фойдаланиш старт-ихтисослашувнинг асосий мақсади

ҳисобланади. Бунда, ҳокимиятнинг роли фақат шу ёки бу ихтисосликни танлаш билан чекланиб қолмайди, балки уларнинг ихтисосликни шакллантириш жараёнига турли ҳамкорларни жалб қилиш, янги ихтисосликларга қўшимча инвестицияларни аниқлаш ва бизнесни кенгайтиришда иштирок этишни ҳам ўз ичига олади. Минтақавий ақлли ихтисослашув – ишлаб чиқариш фаолиятининг янги йўналишларини ривожлантириш асосида ҳудуд иқтисодиётини диверсификация қилишга олиб келадиган таркибий ўзгаришлар моделидир. Унинг натижаси саноатнинг асосий тармоқларини оддий технологик модернизация қилишдан анча кенгроқдир. Бу, аслида, маълум бир фаолият ва билим соҳасида минтақавий иқтисодиётнинг жорий ва келажакдаги кучли томонларини боғлайдиган кўмүлатиф жараён сифатида бутун минтақавий иқтисодиётнинг таркибий эволюциясидир. Ақлли ихтисослашув минтақаларнинг устувор йўналишларини ва қарорлар қабул қилиш учун бошқарув моделини аниқлаш нуқтаи назаридан минтақавий ривожланишни тартибга солишнинг муҳим воситасига айланиши мумкин ва иқтисодиёт тузилмасини оптималлаштириш ҳамда диверсификация қилиш ҳисобига минтақавий рақобатбардошликни оширишга ёрдам беради. Ақлли ихтисослашувдан фойдаланиш минтақавий иқтисодий сиёсатнинг оқилона, барқарор ва инклюзив ўсишни таъминлаш бўйича стратегик мақсадларига мос келади, чунки биринчи навбатда, билим ва инновацияларга асосланган иқтисодиёт замонавий ривожланиш шароитида асосий вазифалардан бири бўлиб қолмоқда. Айниқса, ақлли ихтисослашув стратегияси барқарор ўсишга эришиш учун долзарбдир, чунки у ресурсларни тежовчи ва кам углеродли “яшил” иқтисодиётга ўтишга ёрдам беради. Шунингдек ақлли ихтисослашув ҳудудларда инклюзив ўсишга ёрдам беради, ҳудудий бирдамликни мустаҳкамлайди ва таркибий ўзгаришларни қўллаб-қувватлайди, янги, яхшироқ иш ўринлари ҳамда ижтимоий инновацияларни таклиф қилади. Иқтисодий ривожланишнинг инновацион моделига эътибор қаратмасдан туриб, иқтисодий ўсиш мумкин эмас. Ҳудуд иқтисодиётининг инновацион даражасини ошириш муҳим ва мураккаб вазифадир, чунки иқтисодиётнинг инновационлиги масаласи ишлаб чиқаришнинг инновацион даражаси, кадрларнинг малакаси ва уларнинг мамлакат иқтисодиётига жалб қилиниши, шунингдек, ишлаб чиқаришнинг инновацион даражасини ошириш масалалари билан боғлиқ. Инновацион жараёнлар иқтисодий ўсишнинг манбаи ҳисобланади. Бугунги кунга қадар Хоразм вилоятида иқтисодиётнинг реал секторида инновацияларни ривожлантириш стратегияси бир қатор ишлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикаси ва унинг ҳудудларида минтақавий иқтисодий ривожланишнинг инновацион моделини амалга оширишнинг устувор мақсадлари илмий тадқиқотлар учун бюджет харажатларини кўпайтириш, турли соҳалардаги амалий илмий ишланмаларга эътиборни кучайтириш, инновацион маҳсулотлар ва хизматларнинг ривожланган бозорини шакллантириш ва иқтисодиёт, инсон, молиявий ресурслар ва билимларнинг таркибий ҳаракатчанлигини оширишдан иборат. 2020 йилда Ўзбекистон Республикасида илмий-тадқиқот ишларига сарфланган харажатлар ялпи ички маҳсулотнинг 1,02 фоизини ташкил этган бўлса, 2023 йилда бу кўрсаткич 0,9 фоизга тушиб қолмоқда, ривожланган мамлакатларда эса бу кўрсаткич 3-4 фоизга етади. Илмий-инновацион соҳани молиялаштиришнинг бундай паст даражаси нафақат давлатда инновацион фаолиятнинг интенсивлиги ва самарадорлигини

пасайтирибгина қолмай, балки юқори технологияли ва илм-фанни талаб қилувчи маҳсулотлар бозорлари учун курашда унинг рақобатдош мавқейини ҳам чеклайди.

Дунёнинг кўплаб мамлакатларида илмий-тадқиқот ва илмий ишлар учун сарфланадиган харажатларнинг ошиши илм-фан иқтисодий ўсиш ва жамият тараққиётининг муҳим омили сифатида қаралаётганини кўрсатади. Шу сабабли, илмий-тадқиқот муассасалари ва хусусий бизнес томонидан илмий тадқиқот ва ишланмаларга рағбат бериш, илмий тадқиқот институтлари билан олий ўқув юртлари ўртасида технологияларни трансфер қилиш ва уларни тижоратлаштириш борасидаги корпоратив сектор билан ҳамкорликни мустаҳкамлаш бугунги кунда долзарб вазифа эканлиги аниқ. Инновацион фаолият ресурслари ва инновацияларни ташувчиларнинг ҳаракатчанлиги муаммоси Ўзбекистон Республикаси учун ҳам, бошқа мамлакатлар учун ҳам жуда муҳим бўлиб қолмоқда. Инновация ташувчиларнинг ҳаракатчанлиги, бир томондан, олимларнинг миллий ва халқаро миқёсдаги ўзаро ҳамкорлигига, замонавий технологиялар соҳасида билим алмашишига ва ҳоказоларга ёрдам беради. Бироқ, бошқа томондан, бугунги кунда кўплаб ёшлар кейинги ишга жойлашиш умиди билан хорижга ўқишга кетмоқда. Шу боис давлатнинг чора-тадбирлари қайтиш миграциясининг кучайишига, яъни мутахассисларнинг ўқишни тугатгандан ва меҳнат шартномасини тугатгандан сўнг қайтишига, олимлар ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг янги шакллари ривожлантиришга ёрдам берадиган шарт-шароитларни яратишга қаратилиши керак. Инновациялар ташувчиларнинг ҳаракатчанлиги муаммоси ҳақида гапирганда, у нафақат фазовий ҳаракатни, балки узлуксиз таълим тизими орқали амалга ошириладиган “малакали ҳаракат”ни ҳам ўз ичига олишини ҳисобга олиш керак. Бунинг учун Хоразм вилоятининг муаммоли ҳудудларини ривожлантиришни стратегик режалаштириш ва прогнозлашнинг ягона тизимини яратишни, биргаликдаги ҳаракатлар соҳасини белгилашни, ҳамкорликни шакллантиришни назарда тутувчи ҳудудларни ривожлантиришни молиявий ва инвестициявий қўллаб-қувватлашнинг самарали ва шаффоф механизми, маҳаллий ҳамжамиятларнинг молиявий самарадорлигини кафолатлаш, маҳаллий ўзини ўзи бошқариш тизимини ривожлантиришга кўмаклашиш, ҳокимиятни ҳудудий ташкил этиш тизимини оптималлаштириш каби самарали механизмни ишлаб чиқиш зарур. Хоразм вилояти ҳудудларини ривожлантириш бўйича минтақавий иқтисодий сиёсатни шакллантиришнинг асосий таркибий қисмлари қуйидагилардан иборат: субсидиялар сиёсатидан ривожланиш сиёсатига ўтиш, рақобатбардош устунликларни аниқлаш ва рақобатбардош ҳудудий иқтисодиётни яратиш, ривожланаётган ва депрессияга учраган ҳудудларни ҳудудий ривожлантириш дастурларини амалга ошириш, илмий таъминот учун илмий-тадқиқот муассасаларини жалб қилиш, иқтисодий фаолиятнинг устувор ва тарихий жиҳатдан қийматли турларини оммалаштириш, ижтимоий ва экологик манфаатларнинг иқтисодий манфаатлардан устун қўйилиши ва бошқа жиҳатлар.

Юқоридагиларни ҳисобга олган ҳолда, ҳал этилиши лозим бўлган учинчи стратегик мақсадга эришишга ижобий таъсир кўрсатадиган муҳим вазифа қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини ва қайта ишлаш саноатини рағбатлантириш эканлигини таъкидлаш мумкин.

уларнинг иқтисодий ўсиши учун шарт-шароит яратиш, бир томондан, жорий маблағни молиялаштириш воситаси бўлган грантлар, субвенциялар ва қўшимча

тўловлар беришдан кўра арзонроқдир. Иқтисодий диверсификация қилиш қуйидаги йўналишларда амалга оширилиши керак:

- рақобатбардош корхоналарни шакллантириш, рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқариш ва аҳоли бандлигини таъминлашга хизмат қиладиган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ва қайта ишлаш маҳсулотлари турларини кенгайтиришни рағбатлантириш;

- қишлоқ ва муаммоли ҳудудларда аҳолининг ўзини ўзи иш билан таъминлашга, яқка тартибдаги тадбиркорликни ривожлантиришга, савдо ва маиший объектларнинг мутаносиб инфратузилмасини яратишга ёрдам берадиган қишлоқ хўжалигидан ташқари тадбиркорлик турларини ривожлантиришни қўллаб-қувватлаш;

- қишлоқда халқ хунармандчилигини ривожлантириш, бу миллат тили, маданияти ва анъаналарини сақлашни таъминлайди. Шундай қилиб, диверсификация жараёни қишлоқ ва муаммоли аҳоли пунктларида турли хил иқтисодий шакллар ҳамда фаолият турларини ривожлантириш учун кенг майдон очади, бу эса ўз навбатида янги иш ўринларини яратиш ва аҳоли бандлиги соҳасини кенгайтириш, даромадларни оширишга ҳисса қўшади. Буларнинг барчаси ушбу ҳудудларни ривожлантиришнинг устувор йўналишларини шакллантиришга ўз таъсирини ўтказди. Марказизлаштириш жараёнида ўзини-ўзи бошқарувчи ҳудудий ҳамжамиятларнинг ривожланиши уларнинг ҳаётини таъминлашнинг энг муҳим функциялари билан таъминланади, улардан асосийси, албатта, аҳоли бандлигини таъминлаш бўлади.

Хулоса. Ушбу тадқиқотда Ўзбекистон Республикасининг минтақавий иқтисодий сиёсатини шакллантириш ва такомиллаштириш учун зарур бўлган асосий йўналишлар ва амалий чора-тадбирлар аниқлаб берилди. Тадқиқотнинг асосий хулосалари қуйидагилардан иборат:

1. Минтақавий иқтисодий сиёсатнинг стратегик йўналишларини ишлаб чиқиш зарурати: Ижтимоий-иқтисодий ривожланишдаги номутаносибликларни қисқартириш, иқтисодий ресурсларни самарали тақсимлаш ва ҳудудий ўсишни таъминлашда давлат сиёсатининг аҳамиятини ошириш лозим. Давлат ва маҳаллий ҳокимият органлари томонидан ишлаб чиқиладиган стратегик режалаштириш ва кўмак дастурлари ҳудудлар ўртасидаги иқтисодий тенгликка эришишда муҳим восита бўлиб хизмат қилиши мумкин.
2. Инновацияларни қўллаб-қувватлаш: Минтақалар иқтисодий инновацион ривожланиш даражасига боғлиқ эканлиги кўрсатилди. Инновацияларни ривожлантириш учун технопарклар, кластерлар ва илмий-тадқиқот марказларини барпо этиш, маҳаллий тадбиркорлик ва илмий ҳамжамиятлар ўртасидаги ҳамкорликни кенгайтириш каби чора-тадбирлар минтақаларнинг инновацион салоҳиятини оширишда муҳим рол ўйнайди.
3. Иқтисодий ўсишни қўллаб-қувватлаш: Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, минтақаларнинг иқтисодий ўсишини таъминлаш учун инфратузилмани ривожлантириш, тадбиркорликни рағбатлантириш, инвестицияларни жалб қилиш каби чоралар амалга оширилиши зарур. Бунда, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш учун муҳим бўлган ресурслардан самарали фойдаланиш ва янги иш ўринларини яратиш мақсадида иқтисодий фаолиятни диверсификация қилишга алоҳида эътибор қаратиш керак.

4. Худудий номуносивбликларни камайтириш: Давлат томонидан минтақалар ўртасидаги иқтисодий фарқларни қисқартириш мақсадида субсидиялар, грантлар ва бошқа молиявий ёрдамлар тақдим этиш, шунингдек, кам ривожланган худудларда инфратузилмани ривожлантириш катта аҳамиятга эга. Бу чора-тадбирлар худудий тенгсизликни бартараф этишда ва барча минтақаларнинг барқарор ривожланишини таъминлашда ёрдам беради.

Умуман олганда, мазкур тадқиқот натижалари Ўзбекистоннинг худудий иқтисодий сиёсатини такомиллаштириш ва минтақаларо иқтисодий тенгликни таъминлаш бўйича амалий тавсияларни ишлаб чиқишга хизмат қилади. Ушбу тавсиялар давлат органлари, тадбиркорлик субъектлари ва илмий тадқиқот институтлари учун минтақавий сиёсатни шакллантиришда методологик асос бўлиб хизмат қилиши мумкин. Шу тарзда, иқтисодий ривожланишнинг самарали усуллари орқали мамлакатнинг минтақавий ривожланишидаги барқарорлик ва ўсиш имкониятларини янада кучайтириш мумкин бўлади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. K. Fozil Saribaevich, “МИНТАҚАДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ,” *Iqtisodiyot va ta’lim*, vol. 24, no. 2, pp. 386–391, Apr. 2023, doi: 10.55439/ECED/VOL24_ISS2/A62.
2. X. F. Saribayevich, X. X. Sariyevich, S. Davlatov, H. Turobova, and S. Ruziyev, “Analysis of Factors Affecting CO2 Emissions: In the Case of Uzbekistan,” *International Journal of Energy Economics and Policy*, vol. 14, no. 4, pp. 207–215, Jul. 2024, doi: 10.32479/IJEEP.16193.
3. F. S. Xolmurotov, X. S. Xolmuratov, and Y. R. Yakubova, “Assessment of the impact of agriculture on the regional socio-economic development,” *E3S Web of Conferences*, vol. 548, p. 01003, Jul. 2024, doi: 10.1051/E3SCONF/202454801003.
4. X. F. Saribayevich, X. X. Sariyevich, S. Davlatov, H. Turobova, and S. Ruziyev, “Analysis of Factors Affecting CO2 Emissions: In the Case of Uzbekistan,” *International Journal of Energy Economics and Policy*, vol. 14, no. 4, pp. 207–215, Jul. 2024, doi: 10.32479/IJEEP.16193.
5. V. Bryntsev, “Principle of freedom of doing business (entrepreneurship) and its implementation into the system of innovative law of Ukraine,” *Law and innovative society*, no. 1 (16), Jul. 2021, doi: 10.37772/2309-9275-2021-1(16)-1.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

IMPORTANCE OF INVESTMENT POLICY IN ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT INTO THE ECONOMY OF THE COUNTRY

Palvaniyazov Anvar Amatovich,

Doctor of Philosophy in Economics, PhD.

Associate Professor of the "Economics" Department of UrSU

Email: 1982anvar@mail.ru

Abstract. This article analyzes the importance of investment policy in attracting foreign investments to the country's economy. The activities of the Council of Investors in the formation of the investment policy for attracting foreign investments to the economy of the country, the rates of investments in fixed capital have been studied.

Key words: investment, investment policy, investment environment, investments in fixed capital.

MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA INVESTITSION SIYOSATNING AHAMIYATI

Palvaniyazov Anvar Amatovich,

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

UrDU "Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti v.v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda investitsion siyosatning ahamiyati tahlil qilingan. Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda investitsion siyosatini shakllantirishda investorlar Kengashi faoliyati, asosiy kapitalga investitsiyalar sur'atlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion siyosat, investitsion muhit, asosiy kapitalga investitsiyalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N21>

Kirish. Mamlakatimizda investitsiya iqlimini yaxshilash, eksport salohiyatini oshirish va biznes muhitini jadal rivojlantirish uchun investitsiya va tashqi savdo faoliyatini samarali tartibga solish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada investitsiya jarayonlarini samarali amalga oshirish va yuqori daromad keltiradigan darajada ta'minlash zarur bo'lib, ushbu ishlarni samarali rivojlantirish borasida alohida chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi doirasida yaqinda qabul qilingan "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" davlat dasturida mamlakatni rivojlantirishning eng muhim va ustuvor yo'nalishlari keltirilgan bo'lib, iqtisodiy o'sish sohasida shakllangan qarashlarni tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Chunki, milliy

iqtisodiyotning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuviga bo'lgan ehtiyoj bozorlar taraqqiyotini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishni talab qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 28-yanvarda "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinib, unda respublikamizda yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish, xorijiy, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishni muvofiqlashtirish, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, shuningdek, tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy hamkorlik sohasida yagona davlat siyosatini shakllantirish va muvofiqlashtirish belgilab qo'yilgan.

Investitsiya siyosatining naqadar ahamiyatli bo'lishini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: "Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz har yili Investitsiya dasturi doirasida katta mablag' ajratib, bu yo'nalishdagi ishlarni albatta jadal davom ettiramiz. Bunga qo'shimcha ravishda respublika va mahalliy budjetlarning prognozdan yuqori tushumlarining yarmini infratuzilma obyektlarini rivojlantirishga yo'naltirish asosiy vazifalardan biri bo'lishi kerak"[1].

Shuningdek, mamlakatimizda kutiladigan investitsiyalash jarayonlarini rivojlantirish bugungi kunda yangi bosqichga kirib bordi. Bu bosqichda unda ishtirok qiluvchilar va hamkorlarning roli kuchaydi. Ya'ni, bu borada respublikamizda xorijiy investorlar kengashi tashkil qilindi[2]. Mazkur Kengashning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ilg'or jahon tajribasi va amaliyotlariga tayangan holda O'zbekiston hukumatiga mamlakatni investitsiyaviy, sanoat-texnologik va innovatsion rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlari bo'yicha maslahatlar berish;

- qulay investitsiya muhitini shakllantirishda, mahalliy hamda xorijiy tadbirkorlarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari va hududlarga raqobatbardosh eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi zamonaviy korxonalarni tashkil etish maqsadida sarmoya kiritishlarini rag'batlantirishning samarali mexanizmlarini shakllantirishda bevosita ishtirok etish, shuningdek, investitsiyalarni, eng avvalo to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishga va o'zaro manfaatli savdoni rivojlantirishga ko'maklashish;

- davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning xorijiy kompaniyalar, banklar, investitsiya va boshqa tuzilmalar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini ta'minlash;

- investitsiyalarni jalb qilish va investorlarning, shu jumladan, xorijiy investorlarning faolligiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillarni aniqlash va tahlil qilish, respublikada qulay ishbilarmonlik va investitsiya muhitini saqlab turishni ta'minlash;

- davlat organlari, O'zbekistonda faoliyat yurituvchi xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, xorijiy kompaniyalar, banklar, investitsiyaviy va boshqa tuzilmalarning hamkorlikdagi sa'y-harakatlari bilan investitsiya jarayonlariga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan samarali takliflarni ishlab chiqish;

- eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga, savdo infratuzilmasini, elektron tijorat tizimini izchil rivojlantirishga, mahalliy tovarlar va xizmatlarni tashqi bozorlarga olib chiqish uchun qulay sharoitlar yaratishga, samarali transport yo'laklari, zamonaviy logistika zanjirini shakllantirishga ko'maklashish;

- mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy tizimlarini shakllantirish va ulardan foydalanish, mahalliy mahsulotlarning xalqaro standartlar va texnik reglamentlarga

muvofiqligini ta'minlashning bosqichma-bosqich choralari ko'rish, ularning raqobatbardoshligini oshirish, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlash choralari amalga oshirish jarayonlariga ijobiy xorijiy tajribani joriy etish;


- O'zbekiston Respublikasida investitsiyaviy faoliyatni tartibga solish sohasidagi huquqiy bazani yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar tayyorlash;

- O'zbekistonning xalqaro imijini, xalqaro reyting va indeksdagi o'rnini yaxshilash bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni aniqlash va samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Mazkur Kengash maslahat organi sifatida ham faoliyat yuritib, uning tarkibiga investitsiya va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan xorijiy kompaniyalar, banklar, investitsiyaviy va boshqa tuzilmalar, xalqaro moliya institutlari hamda xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, shu jumladan, YeTTBning rahbarlari va vakillari kiradi.

Metodologiya. Har bir mamlakat o'z iqtisodiyotining barqaror rivojlantirish yo'nalishlarini izlab topishga intiladi. Bunda ushbu maqsadga ta'sir qiluvchi omillar va ularning samaradorligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda dolzarb hisoblanadi. Chunki rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish talab etiladi, bu esa zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv tizimining kirib kelishiga hamda ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish imkoniyatini yaratishi mumkin. Lekin, bu yerda tabiiy savol tug'iladi, ushbu xorijiy investitsiyalarning har bir mintaqa iqtisodiy tizimiga qanday ta'sir ko'rsatadi, ularning iqtisodiy tizimdagi ulushi darajasi, iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi, ekologiyaga ta'siri va barqaror iqtisodiy rivojlanish istiqbollarni belgilashda o'rni kabi masalalarni o'rganishni talab etadi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar o'z iqtisodiy tizimni rivojlanishini ta'minlash maqsadida ko'proq "yashil investitsiya"larga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Ushbu investitsiyalar asosan transport, energetika va qattiq chiqindilarni qayta ishlash sohasiga jalb etilishi kuzatilmoqda.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda investitsiyalash jarayonlarini rivojlantirish uchun qulay huquqiy muhit shakllangan. Biroq, uning yanada ta'sirli va samarali bo'lishi uchun iqtisodiy muhit ham zarur bo'lib, bu borada investitsiyalarning o'zlashtirilishi va jalb qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)

Mamlakatimiz hududlari kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 148,8 % ni qayd etib, Jizzax viloyati hisoblanadi. Shu bilan birga, Surxondaryo viloyatida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, 2022-yilga nisbatan 145,4 % ni tashkil qilgan. Navoiy viloyatida ham bu ko'rsatkich 133,6 % ga o'sgan.

2023-yilda jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi, ya'ni 55,7 % i respublikaning besh hududida, jumladan, Toshkent shahrida – 19,3 %, Toshkent viloyatida – 12,6 %, Samarqand viloyatida – 7,6 %, Buxoro viloyatida – 8,9 % hamda Navoiy viloyatida – 7,3 % investitsiyalar o'zlashtirildi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Navoiy viloyatida – 24 278,9 ming so'm (yoki 2022 yilga nisbatan taqqoslaganda – 131,0 %), Toshkent shahrida – 22 644,8 ming so'm (yoki 107,2 %) va Sirdaryo viloyatida – 16 954,7 ming so'm (yoki 111,6 %) miqdorida qayd etilgan.

Xulosa va tavsiyalar. Umuman olganda, investitsion siyosatni amalga oshirishdan asosiy maqsadi bo'lib, investitsiya salohiyatini oshirishga, iqtisodiyotning ustuvor soha va tarmoqlariga investitsiyalarni samarali keng jalb qilishga, investitsiya kiritish jarayonining raqobatbardosh eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlashga qaratiladi va bu orqali investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirishga erishiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. www.president.uz
2. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/horijiy_investorlar_kengashi_tashkil_etildi
3. Важенина И. С. Теоретико-методологические основы определения сущности репутации территории. Екатеринбург: Ин-т экономики УрО РАН, 2006.
4. Гитман Л. Дж., Джонк М. Д. Основы инвестирования; [пер. с англ. О.В. Буклемишев и др.]. М.: Дело, 2010.
5. Махмудов Э.А. Прямые иностранные инвестиции в экономику Узбекистан: достижения, проблемы и перспективы. – Ташкент: 2007.
6. Прохоровский В.С., Чайникова Л.Н. Финансы малых предприятий: Учеб. пособие. - Тамбов: Тамб. ГТУ, 2003.
7. Вахобов А.В., Хажибакйев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорийй investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – Т.: «Moliya», 2010.
8. G'ozibekov D.G., Qoraliyev T.M. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish.-Т.: TMI, 2007.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

USING FOREIGN EXPERIENCE IN FORMING INDUSTRIAL AGGLOMERATIONS IN THE REGIONS

Rakhimbaev Akmal Azatboevich,

Doctor of Philosophy in Economics, PhD.

Associate Professor of the Department of Tourism, UrSU

Email: rakhimbaevakmal@gmail.com

Abstract. One of the main directions of the industrial development policy implemented in the developed countries of the world is the application of innovative technologies, ensuring the effective integration of industrial complexes in the directions of agglomeration. World experience shows that today one of the important directions of effective development of the territories of countries is the formation of industrial agglomerations. This article presents research on effective organizational mechanisms for the formation of agglomerations in countries with a developed world industrial agglomeration, such as the USA, China, Japan, and Poland.

Key words: industry, agglomeration, regional industry, industrial agglomeration, foreign investments.

HUDUDLARDA SANOAT AGLOMERATSIYALARINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Raximbayev Akmal Azatboyevich,

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD.

UrDU "Turizm" kafedrasi dotsent v.v.b.

Annotatsiya. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida amalga oshirilayotgan sanoati rivojlantirish siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri innovatsion texnologiyalarini qo'llash, aglomeratsiya yo'nalishlari bo'yicha sanoat komplekslari samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilmoqda. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, bugungi kunda mamlakatlar hududlarini samarali rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sanoat aglomeratsiyalarini shakllantirish hisoblanadi. Ushbu maqolada jahon sanoat aglomeratsiya sohasi rivojlangan AQSH, Xitoy, Yaponiya, Polsha kabi mamlakatlarda aglomeratsiyalarni shakllantirishning samarali tashkiliy mexanizmlarini haqida izlanishlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, aglomeratsiya, hududiy sanoat, sanoat aglomeratsiyasi, xorijiy investitsiyalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N22>

Kirish. Xorijiy rivojlangan mamlakatlar sanoati siyosatining asosiy yo'nalishlari zamonaviy texnologiyalarini qo'llash, mintaqalarda sanoat komplekslari va mahalliy klasterlar faoliyatini raqobatbardoshligini oshirish bilan birga qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish orqali raqobatbardoshlikka erishishdan iboratdir. Jahondagi sanoati rivojlangan AQSH, Yaponiya, Xitoy va Koreya kabi mamlakatlar sanoat aglomeratsiyalarini yaratish asosida shakllangan

sanoat klasterlari jahon sanoatida yaratilayotgan qo‘shilgan qiymatni 50 foizidan, innovatsiyalarning 85 foizidan ortig‘iga egalik qilmoqda[1; 11-12 b.].

boshqa xizmatlar	4,0	2,4	2,3	3,0	2,7

Xizmat ko'rsatish sohasi faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlari sonining ko'p miqdorda ekanligi bilan tavsiflanadi va mazkur soha korxonalar va tashkilotlarining imkoniyatlari ichki va tashqi omillar ta'siri darajasi bilan belgilanadi. Shunday ekan, o'zining yo'nalishi, miqdori va mavjud resurslari miqdoriga ko'ra tasniflanuvchi korxonalar faoliyatini rivojlanishi muayyan normalar bilan cheklanadi. Ushbu normalar investitsiya faoliyatini amalga oshirishning ko'lamini va ahamiyatini aniqlaydi. Shuni aytish kerakki, xizmat ko'rsatish sohasida investitsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan dasturlar va chora-tadbirlar realizatsiya qilinayotgan investitsion faoliyat samaradorligining istiqbolda yuksalishiga olib kelmaydi. Ushbu holat esa alohida subyektlar va umuman sohada qo'yilgan maqsadlarga aniq vaqtda erishish imkoniyatini qiyinlashtiradi. Bundan ko'rinadiki, xizmat ko'rsatish sohasi boshqa tarmoqlarga nisbatan o'ziga xos jihatlarga ega.

Samarqand viloyatida 2023-yilda bozor xizmatlarining 2022-yilga nisbatan o'sish sur'atiga e'tibor qaratsak, jami ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmi o'sish 113,7 % tendensiyasiga ega bo'lgan (2-rasm).



2-rasm. Samarqand viloyatida 2019-2023-yillar bozor xizmatlarining o'sish (o'zgarish) sur'ati (o'tgan yilning mos davrlariga nisbatan, foizda)

R. Solou tomonidan 1987-yilda ishlab chiqilgan "Unumdorlik paradoksi"ga¹ muvofiq kompyuterlarga qilingan investitsiyalar hajmining o'sib borishi, shunga mos ravishda xizmat ko'rsatish sohasida unumdorlikni oshishiga olib kelmagan. Uning ta'kidlashicha, XX asrning 80-yillarida AQShda kompyuter texnologiyalariga qilingan investitsiyalar 1 trln. AQSh dollarini tashkil qilgan, uning 85,0 %i xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilgan. Biroq ushbu sohada mehnat unumdorligining yillik o'sish hajmi 1,0 %ni tashkil qilgan. O'tgan asrning 90-yillarida esa AQSh sanoatida unumdorlikning o'sish sur'ati 3,0 %ni, yaxlit iqtisodiyotdagi unumdorlikning o'sishi 1,1 %ni tashkil etgan. Mazkur holat bo'yicha shunday xulosa qilish mumkin, unumdorlikni umumiy ko'rsatkichini past ko'rsatkichga ega bo'lishiga uchinchi sektorda (xizmat ko'rsatish sohasida) unumdorlik darajasining pastligi sababdir.

Xizmat ko'rsatish sohasida unumdorlik darajasining pastligi sababini quyidagicha izohlash mumkin. Bir tomondan, xizmatlar fan sig'imi yuqori kapital va intensiv (kognitiv) bilim talab etadigan tarmoqlarni o'z ichiga qamrab olsa, ikkinchi tomondan, texnologik jihatdan past

¹ Solow R We'd Better Out // New York Review of Books. 1987. July 12-p36

bo'lgan va mehnat talabchanligi yuqori bo'lgan tarmoqlarni ham o'zida mujassamlashtiradi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida yuqori malakaga ega va yuqori ish haqi oladigan xodimlar ham, past ish haqi oladigan xodimlar ham faoliyat yuritadi. Mazkur holat albatta unumdorlik darajasini pasayishiga ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, xizmat ko'rsatish sohasi kelgusida iqtisodiyotning muhim sohasiga aylanadi. Shu munosabat bilan, viloyatning shahar va qishloqlarida xizmat sohaslarini rivojlantirishning konseptual yo'nalishlarini hayotga tatbiq etishda quyidagilarni inobatga olib yondashish maqsadga muvofiqdir:

- milliy qadriyatlarimizga ko'ra, an'anaviy xizmatlar va kasanachilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi oilalarning tadbirkorlik faoliyatini tiklashni rag'batlantirish va rivojlantirish;
- milliy hunarmandchilikni rivojlantirish yo'nalishidagi oilaviy korxonalarni tiklashda, ularga o'z faoliyatlarini boshlab olishi uchun zarur bo'lgan boshlang'ich mablag' bilan ta'minlashda imtiyozli kreditlarni yo'lga qo'yish lozim.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar va fundamental tadqiqotlarga e'tibor qaratsak, barcha xizmat turlari mehnatini kapitalga (unumli) almashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarini bir xilda qabul qilish xususiyatiga ega emas, bu esa o'z navbatida korxonalar unumdorligiga ta'sir qiladi. Shu bilan birga, iste'mol bilan bog'liq va ijtimoiy xizmatlar samaradorligini past ekanligi bir qancha sabablar bilan izohlanadi. Amalda mavjud bo'lgan ba'zi an'anaviy xizmatlar (mehmonxona, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat kabilar subyektiv jihatlarga ega) standartlashtirish va texniklashga ko'p hollarda muvofiq kelmaydi. Ba'zi xizmat turlari, masalan, sog'liqni saqlash xizmati fan texnika yutuqlarini o'ziga tez qabul qilsa ham, ular ko'proq iste'molchining xohishi va istagiga, xizmat ko'rsatish darajasiga bog'liqdir. Agar bu xizmatlar past darajada bo'lsa, mazkur holat ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun xizmatning ushbu turlarida unumdorlik darajasini o'sishiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari unchalik katta ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Iste'mol va ijtimoiy xizmatlarda unumdorlik darajasi past bo'lishi muayyan qiyinchiliklarni, xususan, xizmat sohasida band bo'lganlar mehnat haqi va unumdorligi nisbatida muammolarni keltirib chiqaradi. Bu holatning tahliliy jarayonini keyingi paragraflarda ko'rib chiqamiz. Xulosa qilsak, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish ish bilan bandlik muammosini ayniqsa, xotin-qizlar, yoshlarni ish bilan ta'minlash, oilalar daromadlarini sezilarli darajada ko'paytirish hamda aholi farovonligini oshirish imkoniyatini vujudga keltiradi. Bu birinchidan, aholini ish bilan ta'minlash orqali oilalarning muhim daromad manbai va mulkdorlar sinfini shakllantirishning asosi bo'lsa, ikkinchidan, mamlakatimiz bozorlarini xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish orqali aholi turmush darajasini oshishiga olib keladi.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Ismailov B.A. Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida). // Diss. PhD. – Nukus: QDU, 2022. 82-b.

2. Urakov J.R. Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi (Samarqand viloyati misolida) // diss. iqt. fan. nomzodi. – T.: SamISI. 2011. 15-16 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmonining 1-ilovasi «2023-2030 yillarda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi" //Lex.uz

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE ROLE OF "RENEWABLE ENERGY SOURCES" IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN

Kodirov Bahodir Tursunovich,

Senior lecturer of the Department of "Branches of Economics"
Andijan Institute of Economics and Construction (PhD)
E-mail: godirovbahodir0175@gmail.com

Abstract. The article discusses the global experience of using "renewable energy sources" such as solar, wind energy, earth temperature (geothermal), natural movement of watercourses, biomass energy in the environment, as well as the peculiarities of Uzbekistan's transition to "renewable energy sources", its socio-economic and environmental advantages.

Key words: solar and wind power plants, renewable energy sources and energy-saving technologies, solar photovoltaic plant, economic development, natural resources.

"QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI"NING O'ZBEKISTON IJTIMOY-IQTISODIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Qodirov Bahodir Tursunovich,

Andijon Iqtisodiyot va Qurilish Instituti "Iqtisodiyot tarmoqlari"
kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Maqolada atrof-muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasi kabi "qayta tiklanuvchi energiya manbalari"dan foydalanishda jahon tajribasi va O'zbekistonning "qayta tiklanuvchi energiya manbalari"ga o'tish xususiyatlari, uning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik foydalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: quyosh va shamol elektr stansiyasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalari, quyosh fotoelektr stansiyasi, iqtisodiy rivojlanishi, tabiiy resurslari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N25>

Kirish. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar elektr energiyasini ishlab chiqarishda an'anaviy energiya ishlab chiqarish usulidan foydalanadi. Ya'ni, tabiiy uglevodlarni yoqish orqali issiqlik energiya stansiyalari asosida elektr energiyalarini ishlab chiqaradilar. Albatta, tabiiy resurslar zaxirasi cheklangan. Bu esa elektr energiyasini ishlab chiqarishning muqobil variantlariga o'tishni taqozo etmoqda.

2019-yil mayda "qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, soha rivoji uchun asos yaratildi. Xorijiy investorlar jalb qilinib, ko'plab istiqbolli loyihalar ishlanib chiqildi. 2021-yil avgustda Navoiy viloyatida yurtimizdagi ilk quyosh fotoelektrstansiyasi ishga tushirildi. O'sha yilning sentyabrda Samarqandda yana bir

shunday stansiya foydalanishga topshirildi. Umuman olganda, 2022-24-yillarda 3 mlrd. AQSH dollar xorijiy investitsiyalar hisobiga, jami quvvati qariyb 3 ming MVt 10 ta quyosh va shamol elektr stansiyasini barpo etish ko'zda tutilgan[1].

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham energetika tizimini rivojlantirish borasida chora-tadbirlar belgilangan. Xususan, iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "yashil" iqtisodiyot texnologiyalarini barcha sohaga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, 2026-yilga borib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 30 mlrd. kVt/soatga oshirib, jami 100 mlrd. kVt/soatga etkazish maqsad qilingan. O'zbekiston energetika tizimining qo'shni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashini ta'minlash, sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish, uy-joy kommunal xo'jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa tarmoqlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorlikni oshirish natijada iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqadigan zararli gazlari hajmini qisqartirish mo'ljallangan[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish va ularning energiya ishlab chiqarish salohiyatini baholashda iqtisodiy-matematik usullar hamda ekonometrik modellardan keng foydalanish orqali xalqaro miqyosda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, iqtisodchi A.Gorlov[3] qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari rivojlanish dinamikasini baholash uchun xarajatlarning pasayishi — elektr energiyasining tekislangan narxi (LCOE – Levelised Costs of Energy) ekonometrik baholash usulini qo'llashni taklif etgan va uni dengiz shamol texnologiyalarini tadqiq qilish bilan bog'liq modifikatsiyalashgan variantini ishlab chiqqan. Quyosh energiyasining texnik salohiyatini baholash ya'ni, quyosh fotoelektr stansiyalarining ko'rsatkichlari o'rganish, baholash va prognozlash bo'yicha Avezova N.R., Matchanov N.A., Raximov E.Y., Xakimov M.X., Dalmuradova N.N., Dexkonova M.X.lar[4] ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, kartogramma, analitik taqqoslash va mantiqiy fikrlash usullari keng qo'llanilgan. Shuningdek, mazkur mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari tahlil qilingan. Tahlillarda xalqaro va mahalliy rasmiy statistik manbalar ma'lumotlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Prezidentimizning "Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga ko'ra, umumiy quvvati 4300 MVt bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari, jumladan 2100 MVt yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari, 1200 MVt ijtimoiy soha obyektlari, xo'jalik subyektlarining bino va inshootlari hamda xonadonlarda o'rnatilgan quyosh panellari, 550 MVt tadbirkorlar tomonidan barpo etiladigan kichik fotoelektr stansiyalari ishga tushiriladi[5]. Natijada iste'molchilar tomonidan o'rnatilgan energotejamkorlik evaziga, 2023-yilda qo'shimcha 5 mlrd. kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish va 4.8 mlrd. m³ tabiiy gazni iqtisod qilish ko'zda tutilgan.

XXI asrda iqlim o'zgarishlari, ozon qatlami yemirilishi va atrof-muhit ifloslanishi oqibatida butun insoniyat oldida ekologik xavfsizlik masalasi yanada murakkablashdi. Yer yuzida aholi sonining o'sib borishi, fan-texnika taraqqiyoti va mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi, tabiiy resurslarning ko'p miqdorda o'zlashtirilishi oqibatida tabiatga katta zarar etkazmoqda[6].

Energetika va elektrlashtirishni rivojlantirmasdan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni amalga oshirish mumkin emas. Insoniyatning energiyaga muhtojligi va unga bo'lgan ehtiyoji yil sayin ortib bormoqda. Shu bilan birga, an'anaviy tabiiy yoqilg'i (neft, ko'mir, gaz va boshqalar) zaxiralari cheklangan, qayta tiklanmaydigan yoqilg'i resurslaridir, yadro yoqilg'isi – uran va toriy zaxiralari, ulardan plutoniyni seleksioner reaktorlardan olish mumkin.[7] Shuning uchun bugungi kunda nafaqat yoqilg'i va materiallarning narxini, balki stansiyaning qurish uchun zarur bo'lgan qurilish, foydalanishning soddaligi va uning mustahkamligini hisobga olgan holda foydali energiya manbalarini topish muhim ahamiyatga ega. Xo'sh, hozirgi murakkab va keskinlik sharoitida energiya ta'minotiga ehtiyojni qanday qoplash mumkin? Shubhasiz, bu borada eng istiqbolli yechim qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishdir.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil maydagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalari – atrof-muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasi tushinishi ko'rsatilgan. Ya'ni "yashil" energiyaning zamirida yer yuzidagi hayot manbai bo'lgan quyosh turadi. Ko'mir, neft, tabiiy gaz va uran rudasi kabi qazilma yoqilg'isidan farqli o'laroq, ushbu energiya manbalari tugamaydi, aksincha tabiiy holda qayta tiklanish xususiyatlariga egadir. Shuning uchun atrof-muhitga deyarli zarari bo'lmagani uchun "yashil" energiya deb ta'riflanadi.

Bugungi kunda, yer yuzida jumladan, O'zbekistonda ham energiya ishlab chiqarish, asosan ko'mir, neft, tabiiy gaz va uran rudasi evaziga amalga oshiriladi, ularning o'rnini egarlashi mumkin bo'lgan energiyaga esa, "muqobil" maqomi berilgan. Hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonda yiliga 10 mlrd. dollarlik elektr va gaz iste'mol qilinadi. Bundan tashqari, hozirgi paytda 2-3 mlrd. KVt/soat elektr energiyasiga qo'shimcha talab ham mavjud. Kelgusi 5 yilda bu ehtiyoj 10 mlrd. KVt/soatga oshishi kutilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston MDH davlatlari orasida elektr energiyasi ishlab chiqarish xajmi bo'yicha 4-o'rinda turadi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda o'zaro bog'liq energiya tizimida o'rnatilgan quvvatlarning taxminan 50 foiz ga egalik qilib, yetakchilik qiladi[8]. Xalqaro miqyosda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hajmida "yashil" quvvatlarning ulushi oxirgi 5 yilda 2 barobarga o'sishini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun Avstraliya 2026-yilga borib, butun aholisini 77 foizni quyosh energiyalari hisobiga ta'minlashni rejalashtirmoqda.

Shuni aytib o'tish joizki, 2024-yilda jahon elektr energiya ishlab chiqarish kesimida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 1/3 ga [ortishi kutilmoqda](#). Bu haqda Xalqaro energetika agentligining hisobotida qayd etildi. Hisobot mualliflari tomonidan 2024-yilda talabning o'sishi sekinlashishi hisobiga joriy yilning o'zida qayta tiklanuvchi energiya manbalari elektr energiyaga bo'lgan qo'shimcha ehtiyojni to'liq qoplaydi. Mazkur prognoz ko'rsatkichlari talabning o'sishi ortgan taqdirda ham 2025-yilda ham takrorlanishi kutilmoqda[9].

Shu jumladan, Germaniyada qazib chiqariluvchi yoqilg'ilardan tabiatga zararsiz va ishonchli hamda arzon energiya turlariga o'tish jarayonini anglatib, Hukumat 2035-yilgacha o'zidagi energiyaning 100 foiz ni Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olishni rejalashtirmoqda. Chunki Germaniya olimlarining fikricha, mamlakat to'laligicha qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish uchun infratuzilmani yaratmagan va atom o'rnini hatto zaharli ko'mir bilan to'ldirmoqda[10].

Xitoy Respublikasi elektr energiyani qayta tiklanuvchi manbalardan olib AQSH, Yevropadan o'zib ketdi va quyosh batareyalar bozorida 40 foizi – quyosh energiyasi, 20 foizi shamol energiyalarini sotmoqda. Xitoy chiqindilarni 24 xilini chetga eksport qilishni taqiqlab qo'ydi. Ularni qayta ishlamoqda, mahsulot ishlab chiqarmoqda.

Germaniya elektr energiya ishlab chiqarishni 40 foizini shamol elektr stansiyalaridan oladi, atom elektr stansiyalarini yopdi ko'mir eksportini to'xtatdi.

Shvetsiya bu sohada o'ziga xos yo'l tutmoqda chiqindilarning 50 foizini qayta ishlab mahsulot tayyorlamoqda 49 foizi yoqib bioenergiya ishlab chiqarilmoqda. Buning ustida Norvegiya va Avstraliya 1-2 million tonna chiqindi sotib olmoqda. Shvetsiya ko'mir, gaz, neft va atom energiyasidan to'liq voz kechdi.

Avstraliya shamol energiyasidan 100% foydalanmoqda, shu bilan birgalikda 50% quyosh energiyasidan foydalanmoqda. Dunyoda (2019 yil) yirik kompaniyalar to'la qayta tiklanuvchi energiyaning iste'mol qilmoqdalar.

Sh o'rinda aytish joizki, So'nggi statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish quvvatlarining butun dunyo bo'ylab o'sishining qariyb 60 foizi Osiyo hissasiga to'g'ri kelgan.

Xalqaro qayta tiklanadigan energiya agentligining 2023-yildagi qayta tiklanuvchi quvvatlar statistikasi hisobotida 2022-yilda qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish quvvatlarining butun dunyo bo'ylab o'sishining qariyb 60 foizi Osiyo hissasiga to'g'ri keldi va bu yil oxiriga kelib jami 1,63 Teravatt (TW) qayta tiklanuvchi quvvatga ega bo'ldi. Mazkur o'sishning katta qismi Xitoy hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Osiyoda dunyo aholisining 50 foizdan ortig'i istiqomat qiladi va so'nggi yillarda mintaqada iqtisodiy o'sish kuzatildi. Mahalliy iqtisodiyotning o'sishi bilan mintaqada energiyaga bo'lgan talab dunyoning boshqa joylariga qaraganda tezroq o'sib bormoqda. Osiyo qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish bo'yicha Shimoliy Amerika va Yevropani ortda qoldirdi.

Global miqyosda qayta tiklanuvchi quvvatlar 2022-yilda 9,6 foizga o'sishi natijasida butun dunyo bo'ylab rekord darajadagi 295 gigavatt quvvat manbalari qo'shildi. Hisobotda aytilishicha, bu o'tgan yili qo'shilgan barcha energiya quvvatlarining 83 foizini tashkil etadi va o'tgan yil oxiriga kelib qayta tiklanuvchi ishlab chiqarish quvvati 3 372 gigavattga yetkazildi[11].

Mutaxassislarni fikricha, O'zbekiston ham qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha katta salohiyatga ega. Bu imkoniyatning 98 foiz ga yaqini quyosh energiyasiga to'g'ri keladi. Ya'ni ona zaminimizda bir yilda qariyb 300 kun quyoshli hisolanadi[12]. Bu borada quyosh energetikasi rivojlangan Ispaniyadan ham o'zib etishimiz to'g'rida o'ylab ko'rish vaqti keldi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 98 foizini muqobil elektr stansiyalarida quyosh fotoelektr stansiyalari orqali ishlab chiqarilmoqda. O'zbekistonda 2022-2026-yillar ichida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan quyidagicha foydalanamiz.

- a) Quyosh energiyasida 98,0 foiz
- b) Hidroenergetikadan 1,5 foiz
- c) Shamol energiyasida 0.5 foiz



Davlatimiz rahbarining 2022-yil fevraldagi qarori bilan Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish borasidagi ishlarni jadallashtirish bo'yicha dastur qabul qilindi. Unga ko'ra, joriy yilda ijtimoiy soha va davlat idoralarida 220 MVt quvvatga ega quyosh panellari o'rnatilishi ko'zda tutilgan. Qayd etilishicha, bugungi kunda Respublikamizda 107 MVt quyosh panellari o'rnatilgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifida 4.4 mlrd. dollarlik jami 4.8 GVt quvvatga teng 11 ta quyosh va shamol stansiyalarini qurish bo'yicha kelishuvga erishildi[13].

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar mamlakatimizda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim o'rin tutadi. 2022-yil sentyabrdagi "Energiya tejavchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmonida aholi va tadbirkorlik subyektlarining qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishini rag'batlantirish uchun ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etildi[5].

Xulosa va takliflar. Asosiy faoliyati quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilmalari hamda kichik gidroelektrstansiyalari qurilmalarini ishlab chiqarish bo'lgan eridik shaxslar 3 yillik foyda solig'i va mol-mulk solig'ini 50 foiz miqdorida to'lashi belgilangan.

Mamlakatimizning energiya bilan ta'minlash muammosini 3 yo'nalishda hal etish ko'zda tutilmoqda.

1. Yirik ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish orqali mamlakatning turli mustaqil energiya manbalariga asoslangan umumiy energetika tizimi shakllantirilmoqda.

2. Aholi va va tadbirkorlik subyektlarining qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan ta'minlash rag'batlantirilmoqda.

3. Binolar va inshootlarning energiya samaradorligini kengaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu masalani yana bir tomoni chekka qishloq va ovullarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy qilish bilan energiya ta'minotini barqarorligini yaratish imkonini ta'minlanadi.

Muxtasar qilib aytganda, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish tabiiy resurslarni tejash va tabiatga yetkaziladigan zarar miqdorini kamaytirishga sharoit

hozirlaydi. Bu energetika tarmoqlarida turli avariylarning oldini olishni, texnologik yo‘qotishlarni kamaytirishni, sanoatda ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar faoliyatini davomiyligini ta‘minlaydi. Eng muhimi, ekologik toza, “yashil” energiyaga o‘tish jarayoni faollashadi. Bunday sa‘y-harakatlar nafaqat bugun, balki kelajak uchun ham dolzarb hisoblanadi. Chunki, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivoj topishida va atrof-muhitni toza hamda tabiiy holda kelajak avlodga topshirishda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining roli muhimdir.

Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-y. kungi PF-60-son Farmoni
3. Горлов А.А. Обоснование методического подхода к оценке динамики развития технологий оффшорной ветровой энергетики (на примере Германии) // МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). 2018. Т. 9. No1. С.53–66.
<https://DOI:10.18184/20794665.2018.9.1.53-66>
4. Авезова Н.Р., Матчанов Н.А., Рахимов Э.Ю., Хахимов М.Х., Далмурадова Н.Н., Дехконова М.Х. Оценка потенциала солнечной энергии Кашкадарьинской области. Альтернативная энергетика и экология (ISJAEE). 2022;(01):18-31.
<https://doi.org/10.15518/isjaee.2022.01.018-031>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-y. kungi PF-220-sonli Prezident Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari
7. “Зелённая” Экономика и сели устойчивого развития для Россия. Москва 2019 г.
8. Р.В.Городов, В.Е.Губин, А.С.Матвеев Нетрадиционные и возобновляемые источники энергии. Учебное пособие. – 1-е изд. – Томск: Изд-во ТПУ, 2009. – 294 с.
9. <https://uzgidro.uz/news/view/4769>
10. <https://uzgidro.uz/news/view/4523>
11. <https://solargis.com/maps-and-gis-data/download/uzbekistan>
12. Что такое зелёная экономика. Статья 2021 г. “Зелённая бизнес” статья 2022 г.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2022 y. kungi PQ-57-son Qarori
<https://www.weforum.org/agenda/2023/03/electricity-generation-renewables-power-iea/>

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE IMPORTANCE OF EFFECTIVE MARKETING STRATEGIES IN DEVELOPING LEASING RELATIONSHIPS

Bekjanov Dilmurad Yuldashovich,

Associate Professor, Head of Business and Management Department
Urgench state university

E-mail: dilmurad.bekjanov@urdu.uz

Goyibnazarov Mukhammad Xamidbekovich,

Master's student in Marketing, Urgench state university

E-mail: muxammadgoyibnazarov@gmail.com

Abstract. The article discusses the implementation of mechanisms for the effective organization of leasing relations, the selection of sales channels and the use of effective marketing strategies.

Key words: leasing, leasing relations, marketing, marketing strategy, risk management, manufacturer's lease, bank leasing.

LIZING MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHDA SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARINING AHAMIYATI

Bekjanov Dilmurad Yuldashovich,

Dotsent, Biznes va boshqaruv kafedrasini mudiri
Urganch davlat universiteti

G'oyibnazarov Muxammad Xamidbekovich,

Marketing mutaxassisligi magistrati,
Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada lizing munosabatlarini samarali tashkil qilish mexanizmlari joriy qilish, sotuv kanallarini tanlash va samarali marketing strategiyalaridan foydalanish tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: lizing, lizing munosabatlari, marketing, marketing strategiyasi, risklarni boshqarish, ishlab chiqaruvchi lizingi, bank lizingi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N26>

Kirish. Jahon mamlakatlarida lizing munosabatlarini rivojlantirish va asosiy ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan talabni qondirishda hamda korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. "AQShda 2021-yil yakunlariga ko'ra lizingga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar o'tgan yilga nisbatan 31 foizga oshib, 32,4 mlrd dollarni tashkil qildi. Yaponiyada 2019-yil yakunlariga ko'ra

5,333 mlrd. iyena miqdorida lizing bitimlari imzolangan bu esa o'tgan yilga nisbatan 6,4 foizga o'sishi erishgan"[1]. Bu esa lizing xizmatlari ko'rsatish sifatini yangi bosqichga ko'tarish, lizing munosabatlarini jahon talablari darajasida amalga oshirish, lizing korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Yangi O'zbekistonda biznes yuritishning zamonaviy yo'nalishlarini tanlash, innovatsiyalarga asoslangan marketing strategiyalarini ishlab chiqish, lizing munosabatlarida yuz beradigan ishlab chiqarish, savdo-logistika, sotish jarayonlarni muvofiqlashtirish, xizmat ko'rsatishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish asosida iqtisodiy o'sishga erishishga qaratilgan yo'nalishlarga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan Raqamli O'zbekiston — 2030 strategiyasida "qishloq xo'jaligi korxonalariga lizing asosida yetkazib beriladigan texnikalar uchun mobil ilova dasturini yaratish" vazifalari belgilab berilgan[2]. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi erkin bozor sharoitida lizing ishtirokchilari o'rtasida o'zaro munosabatlarni tashkil etish, lizing xizmatlari sifatini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish, raqamli marketing strategiyalarini keng joriy qilish, lizing munosabatlarini rivojlantirishda tarkibiy modellarni qo'llashni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Lizing – bu biznesning moliyaviy, buxgalteriya, yuridik va soliqqa tortish masalalari bilan bog'liq dolzarb mavzusidir[3]. Lizing — bu "ikki tomon o'rtasida tuzilgan shartnoma" hisoblanib, bir tomon boshqa tomonga ma'lum muddatlarda foydalanish uchun aktiv taqdim etadi[4]. Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) mutaxassislari tomonidan u quyidagicha talqin qilingan: "Lizing – bu mulkiy munosabatlar majmui bo'lib, bunda bir taraf ikkinchi tarafning topshirig'iga binoan, uchinchi tarafdan lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni mulk qilib sotib oladi va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga ma'lum muddatga beradi[5]. Yevropa lizing kompaniyalari uyushmalari federatsiyasining ta'rifiga ko'ra, lizing deganda ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanish uchun asosiy ishlab chiqarish vositalarini, shuningdek boshqa tovarlarni ijaraga olish tushuniladi. Ayni vaqtda lizing bitimiga ko'ra, lizing beruvchi bitim oxirigacha mulkchilik huquqini saqlab qoladi[6]. Lizing va kredit munosabatlari o'rtasida uzviy aloqadorlikning mavjudligini e'tirof etadi va har ikkala kategoriyaning taqsimlash funksiyasiga ega[7]. Lizing sohasida marketing bevosita lizing xizmatlari va faoliyatining oldi-sotdi qilish jarayonlariga asoslanadi. Shunga asosan, marketing asosida quyidagi yo'nalishlarda bozor har taraflama chuqur o'rganiladi[8]:

- talabni o'rnatish;
- bozor tarkibini aniqlash;
- tovarni o'rnatish;
- raqobat sharoitlarini tadqiq qilish;
- sotish shakli va uslublarini tahlil etish.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishida meta-analiz, omilli tahlil, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Lizing munosabatlarida lizing kompaniyalari o'zlarining mahsulotlarini iste'molchilarda taklif qilishlarida marketing funksiyalaridan samarali foydalanishadi. Bunda ular bevosita sotuv jarayonida ishlab chiqaruvchi lizingi, bilvosita va to'g'ridan to'g'ri lizing va bank orqali lizing shakllaridan foydalanishadi. Lizing munosabatlarida sotish kanallari

Bevosita sotuv shaklida lizing orqali yetkazib beruvchi potensial mijoz bilan aloqaga chiqadi. Bunda ular ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, kundalik gazeta va maxsus jurnallarda e'lonlarni chiqarishga e'tibor qaratishadi va shu orqali lizing kompaniyasini tanitishga qaratilgan marketing chora-tadbirlarini amalga oshirishadi. Amaliyotdagi tajribada bu yondashuvlarning muvaffaqiyatlilik darajasi unchalik yuqori sanalmaydi, chunki investor uchun to'siqlar bartaraf etilmagan bo'ladi.

1-jadval

Lizing munosabatlarida sotish kanallarining tasniflash¹

Sotuv kanallari	Lizing kompaniyasi uchun ahamiyati	Lizing oluvchi uchun ahamiyati
Bevosita sotish	<ul style="list-style-type: none"> - savdo jurnallaridagi reklamalar - mijozga yaqinlik talab qilinadi - filiallarning yaqin tarmog'i - o'rtachadan yuqori malakali xodimlar talab qilinadi - konsalting-intensiv lizing biznesi - yuqori moliyaviy va kadrlar xarajatlari 	
Ishlab chiqaruvchi lizingi	<ul style="list-style-type: none"> - Investitsiyalar va bir vaqtda moliyalashtirish takliflari orqali sotishni rag'batlantirish - Ishlab chiqarish, yetkazib berish, nuqsonlarni bartaraf etish, texnik xizmat ko'rsatish va moliyalashtirish xizmatlar paketi yechim sifatida taklif etiladi. - Muammo: Qarzdor risklarini o'z zimmasiga olish kredit boshqaruvini talab qiladi. - Muqobil variant: lizing kompaniyasini jalb qilish 	<ul style="list-style-type: none"> - - Mahsulot bilan bog'liq va individual moliyalashtirish xizmatlari kutilmoqda. - - Paketli yechimlar mijoz tomonidan so'raladi.
Ishlab chiqaruvchi va lizing kompaniyasi o'rtasidagi hamkorlik	<ul style="list-style-type: none"> - - Ishlab chiqaruvchi lizing kompaniyasi va lizing oluvchi o'rtasidagi lizing shartnomasini qabul qilishga bog'liq. - - Ishlab chiqaruvchi va lizing beruvchi o'rtasidagi yaqin aloqa - i. d. R. yetkazib beruvchiga va mahsulot nou-xausiga. - - qabul qilish siyosati va lizing muddati tugagandan so'ng lizingga olingan tovarlarni utilizatsiya qilish bo'yicha shartnomalar foydalidir. - - Kredit tekshiruvlari va kredit riski lizing beruvchiga tegishli. 	<ul style="list-style-type: none"> - Noqulay shartlar va chegirmalar berilgan

¹ Manba. Mualliflar ishlanmasi

To'g'ridan-to'g'ri sotish lizingi	<ul style="list-style-type: none"> - Bir qo'lda paketli yechimlar - Voris biznesini ta'minlash - mijozga yo'naltirilgan kredit layoqati bo'yicha tezkor qarorlar - Lizing muddati davomida yuzaga keladigan muammolarni osonroq hal qilish mumkin. 	
Mustaqil lizing kompaniyasini jalb qilish		<ul style="list-style-type: none"> - Lizing oluvchiga chegirmalar berilishi lizingni moliyalashtirishni yanada tejamkor qiladi.
Bank orqali lizing	<ul style="list-style-type: none"> - kreditlash biznesini to'ldirish - Banklar uchun marketing vositasi - lizing shartnomalarini qayta moliyalashtirish - Mijozlar o'zlarining investitsiyalariga individual ravishda moslashtirilgan moliyalashtirish xizmatlarini oladilar. - Mijoz ma'lum, chunki maqsadli maslahat. - Muammo: lizingni moliyalashtirish orqali kredit limitini kengaytirish (KWG, Bazel III) - lizingni moliyalashtirish mahsulotining turli yo'nalishlarini biladigan malakali bank maslahatchilari talab qilinadi. 	<ul style="list-style-type: none"> - Muammo: mijoz o'zining kredit muassasasiga juda bog'liqni his qiladi.

Tashqi savdo xizmatlari to'g'ridan-to'g'ri sotuvning samarali shakli sifatida qaraladi. Bunda lizing munosabatlarning muvaffaqiyatlilik darajasi mijozga yaqinlikka bog'liq, chunki o'sib borayotgan biznes makon masofalarini oshiradi, bu esa muloqot va ko'maklashish muammolarini kuchaytiradi. Shuning uchun o'sishga yo'naltirilgan lizing kompaniyasi mijozga yaqinlikni kengroq doiradagi sotuv kanallari orqali mustahkamlashi lozim.

Bevosita sotuvning asosiy muammosi shundan iboratki, qiziquvchilarni topish yoki investitsiyaga moyil korxonalarini lizing mijozlariga aylantirishdir. Shu sababli lizing sotuvi yuqori malakali, ishbilarmon va moliyaviy bilimdon, ishontira oladigan xodimlarni talab qiladi. Lizingning to'g'ridan-to'g'ri sotuvi konsalting xizmatlari uchun ko'p xarajatlarni va yuqori ish haqi xarajatlarini talab qiladi.

Ishlab chiqaruvchi lizingida investitsiya mahsulotlarini sotishdan tashqari ishlab chiqaruvchi/yetkazib beruvchi mijozga bir vaqtning o'zida jozibali moliyalashtirishni taklif qiladi. Bu taklif moliyaviy yechim izlayotgan mijozlarga va investitsiya loyihasi uchun paketli yechimni istaydigan mijozlarga mo'ljallangan. Taklif odatda ishlab chiqaruvchi/yetkazib beruvchi tomonidan amalga oshiriladi. U har kuni bozor bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lib, mijozlar nafaqat mahsulotni, balki qo'shimcha xizmatlarni ham talab qilishini biladi. Yetkazib beruvchi uchun moliyaviy xizmatni to'g'ridan-to'g'ri taqdim etish qiyin jarayon hisoblanadi, chunki bu qo'shimcha risk va kredit boshqaruvini talab qiladi. Shu sababli bunday vaziyatda ishlab chiqaruvchi kredit muassasasi yoki lizing kompaniyasi bilan hamkorlik qilishni afzal ko'radi.

Bilvosita sotuv lizingida yetkazib beruvchi va boshqa bir lizing kompaniyasi bilan hamkorlik turli darajada bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda yetkazib beruvchi mijozga o'z ishonchli lizing kompaniyasini tavsiya qiladi. Yoki yetkazib beruvchi lizing kompaniyasiga mijozni ma'lum bir shartlar asosida tavsiya qiladi. Bunda yetkazib beruvchi keyingi jarayonlarga kam ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon ko'pincha kompaniyaning qaroriga bog'liq bo'ladi va lizing shartnomasi rad etilsa, u o'z mijozini ham yo'qotishi mumkin. Bunda yaqin hamkorlik qilish ikkala tomon uchun ham foydali, chunki bu orqali mahsulot tomonlarning o'zaro tushunishi, lizing mahsuloti haqida yetarli axborot bo'lishi, riskning pasayishi hamda lizing munosabatlarining samaraliligi ortadi. Hamkorlik odatda shartnoma asosida bo'ladi va bu orqali kredit ajratish siyosati va lizing muddati tugaganida mahsulotga kelgusidagi egalik qilish huquqi kelishib olinadi. Mijoz bilan oldindan kelishilgan shartlar asosida yetkazib beruvchi lizing kompaniyasining vakili sifatida chiqish qiladi va shartnomalar bilan bog'liq ishlarda qatnashadi.

Bevosita sotuv lizingida yirik moliyaviy hajmdagi ishlab chiqaruvchilar o'zining Lizing kompaniyasini tashkil qilgan. Bu rivojlanishga sabablar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Mijozlar moliyalashtirish yo'li bilan sotib olishdan tortib asosiy ijara muddati tugagandan so'ng mulk taqdiri to'g'risida qaror qabul qilishgacha, xususan, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda "bir qo'lda" saqlanadi.
- Keyingi xaridlar kafolatlanadi.
- Kredit qarorlarini tez va mijozga yo'naltirilgan tarzda qabul qilish mumkin bo'ladi.
- Ishlab chiqaruvchi va lizing kompaniyasi o'rtasidagi yaqin aloqa tufayli, lizing shartnomalari muddati rejalashtirilganda ham, muddatidan oldin tugashida ham yuzaga keladigan muammolarni uchinchi tomon lizing kompaniyasi jalb qilinganidan ko'ra osonroq hal qilish mumkin.

Vaqt o'tishi bilan tez texnik o'zgarishlar bo'ladigan va eskiradigan mulklarni ijaraga berishda ishlab chiqaruvchi lizing kompaniyalari shartnomalarida ijarani uzaytirish va sotib olish shartlari ham yo'q bo'lishi mumkin. Masalan: kompyuterlar, nusxa ko'chirish mashinalari, shuningdek, mashinasozlik va avtotransport vositalari. Shunda ishlab chiqaruvchi ijara muddatini uzaytirishdan ham, lizing shartnomasi muddati tugaganidan keyin ham tizimni lizing oluvchiga yoki uchinchi shaxsga sotishdan manfaatdor emas. Uning asosiy qiziqishi yangi yetkazib berish bitimi va yangi lizing shartnomasini tuzishdan iborat. Bir tomondan, u ushbu strategiyani ishlab chiqarish va sotishni rag'batlantirish uchun ishlatmoqchi. Boshqa tomondan, ishlab chiqaruvchi lizing biznesidan qo'shimcha daromad olishni yoki yetkazib berish biznesida ko'pincha qo'shimcha foyda olishga intilib kompaniyaning qo'shimcha daromadiga erishish uchun harakat qiladi. Biroq, bunday vaziyatda lizing oluvchiga yetkazib beruvchidan mustaqil bo'lgan lizing kompaniyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bank orqali lizingda banklar uchun lizing kreditor biznesiga qo'shimcha sifatida kiritiladi. Bundan tashqari, banklar marketing instrumenti sifatida Lizing xizmatlariga ham sarmoya kiritishgan. Banklar bilan Lizing shartnomasi tuzish mijozga bankdan tanish moliyalashtirish xizmatlarini olishga imkon yaratadi. Bu jarayon, albatta, mijozning moliyaviy holatini yaxshi bilgan bank tomonidan o'tkaziladi. Lizingni bank orqali olishning kamchiligi shundaki, mijoz bankka kuchli bog'liq bo'lib qolishi mumkin. Bank xodimlari esa Lizingning turli xususiyatlari va afzalliklarini tushunishi zarur, shuningdek mijozga Lizing va kredit o'rtasidagi farqlarni aniq tushuntirishi lozim.

Tadqiqotda Lizing munosabatlarini rivojlantirishda marketing strategiyalari samaradorligini hisoblashda sof marketing ulushi (Net Marketing Contribution (NMC)) ko'rsatkichidan foydalandik. Ushbu ko'rsatkich marketing va sotuv bilan bog'liq xarajatlarning qoplanish qiymatini ifodalaydi. NMCni aniqlashda eng muhim jihatlar bo'lib, lizing kompaniyasining joriy bozor ulushi va bozordagi taklif miqdori hisoblanadi va quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$NMS = SR * GP - ME$$

Bunda,

SR-sotishdan tushgan tushum;

GP – yalpi foyda;

ME- marketing xarajatlari

Agar lizing kompaniyasida sotishdan tushgan tushum 3 100 mln. so'm bo'lsin, yalpi foyda 15.50 mln. so'mni tashkil qilsin, 5 000 mln so'mlik marketing xarajatlari qilingan bo'lsa unda lizing kompaniyasida sof marketing ulushi 43 050 mln so'mni tashkil qiladi. Aksariyat lizing kompaniyalari savdo tahlilini ma'lum bir mintaqadagi marketing hududlarining tumanlari bo'yicha iyerarxik usulda amalga oshiradilar. Bundan tashqari, ular odatda mahsulot va xaridorlarning tuzilishini geografik tuzilishlar bilan birlashtiradi: Janubiy mintaqaning bir qismi bo'lgan lizing kompaniyalari joylashgan yirik xaridorlar tomonidan mahsulotini sotib olish, ularning imkoniyatlarini aniqlash uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirganlariga to'liq ishonch hosil qiladilar. Hududlar bo'yicha sotishni tahlil qilishning birinchi bosqichi qaysi geografik birlikni boshqarish uchun ishlatilishini hal qilishdir. Odatda bu kichik tumanlardir, chunki kichik tumanlar savdo hududlari kabi yirik bloklarga birlashtirilishi mumkin, shuningdek, bu aholi, ish bilan bandlik, daromad va savdo kabi ko'plab turdagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan geografik maydon. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik tumanlardagi haqiqiy sotuvlarni (kompaniya hisob varag'idan olingan) savdo potentsiali va o'tgan yilgi inflyatsiyani to'g'rilangan savdo kabi omillarni hisobga olgan holda sotish kvotasi kabi qoidalar bilan taqqoslashlari mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda lizing bozori lizing munosabatlarini rivojlantirishda marketing strategiyalaridan keng foydalanishni talab qiladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Lizing munosabatlarini rivojlantirishda korxonalar marketing faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yib, marketingni ichki va tashqi muhitga aniq yo'naltirishi;
- Lizing munosabatlarini rivojlantirishga innovatsion nuqtai nazardan yondashish va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda marketing strategiyalarini ishlab chiqish;
- Lizing munosabatlarini rivojlantirishda korxonalar rivojlantirish omillarini o'rganib chiqish va marketing xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish

Lizing munosabatlarida raqamli marketing vositalaridan keng foydalanish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://www.cbre.com/insights/figures/q4-2021-us-net-lease-figures>
2. https://www.leasing.or.jp/english/statistics/docs/20e_04e.pdf

3. Рақамли Ўзбекистон — 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, ПФ-6079-сон 05.10.2020.
4. Simon S. Gao, International leasing strategy and decision, by Routrage, 2018.
5. Fletcher M. Freeman R. Sultanov M. and Umarov U. Leasing in development. Guidelines for emerging economies. IFC. 2005.
6. Лизинг инфо. Лизинг что это такое? Бизнес Вестник Востока, 23 мая 2002. №21 (539)
7. Новиков С.Л. Лизинговые изделия. - М.: Вершина, 2008, 57с.
8. G'ozibekov D.G', Sobirov O.Sh., Mo'minov A.G., Quljonov O.M, Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent.: «Fan va texnologiya», 2004. - B. 43.
9. I.S.Abdullaev (2020) Marketing. “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, Т.: 2020.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE IMPACT OF DIGITAL PLATFORMS ON GLOBAL FOREIGN TRADE: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES

Masharipova Durdona,

PhD base doctoral student at Banking and Finance Academy

E-mail: muhammadusmon3@gmail.com

Abstract. This article explores the transformative impact of digital platforms on global foreign trade and highlights the opportunities and challenges they present. It comprehensively analyzes how digital platforms facilitate cross-border trade by simplifying logistics, increasing market access, and fostering real-time communication between stakeholders. Among the main opportunities discussed are the democratization of trade, reduction of transaction costs, expansion of opportunities for small and medium-sized enterprises (SMEs) to participate in the world market. The article is international in transactions. The rapid development of technologies such as artificial intelligence and blockchain, which strengthen transparency and security, will be considered. At the same time, the analysis highlights important problems such as regulatory complexity, problems related to data security, and the digital divide, which prevents equal use of technological benefits in different regions. The problems associated with cybersecurity threats and the need for a holistic international policy to manage digital trade have also been studied in depth. While digital platforms hold great promise to increase trade efficiency and inclusivity, strategic action needs to be taken to address these challenges in order to unlock their full potential. The article concludes with policy recommendations and strategic actions for stakeholders and proposes a balanced approach that ensures technological progress and sound governance will be.

Key words: digital platforms, global trade, opportunities, challenges, SME, blockchain, AI, cybersecurity, regulatory policy, inclusiveness.

RAQAMLI PLATFORMALARNING GLOBAL TASHQI SAVDOGA TA'SIRI: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Masharipova Durdona,

Bank Moliya akademiyasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli platformalarning global tashqi savdoga o'zgartiruvchi ta'sirini o'rganib chiqadi va ular taqdim etayotgan imkoniyatlar va muammolarni ta'kidlanadi. U raqamli platformalar logistikani soddalashtirish, bozorga kirish imkoniyatini oshirish va manfaatdor tomonlar o'rtasida real vaqtda muloqotni rivojlantirish orqali transchegaraviy tijoratni qanday osonlashtirishini har tomonlama tahlil qiladi. Muhokama qilingan asosiy imkoniyatlar qatoriga savdoni demokratlashtirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, kichik va o'rta korxonalarining (KO'K) jahon bozorida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish kiradi. Maqolada xalqaro tranzaksiyalarda shaffoflik va xavfsizlikni kuchaytiruvchi sun'iy intellekt va blokcheyn kabi texnologiyalarning jadal rivojlanishi ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, tahlil tartibga solishning murakkabligi, ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq muammolar va turli mintaqalarda texnologik imtiyozlardan teng foydalanishga to'sqinlik qiluvchi raqamli tafovut kabi muhim muammolarni ham ta'kidlaydi. Shuningdek, kiberxavfsizlik tahdidlari bilan bog'liq muammolar va raqamli savdoni boshqarish uchun yaxlit xalqaro siyosat zarurligi ham chuqur o'rganilgan. Raqamli platformalar savdo samaradorligi va inklyuzivligini oshirish uchun katta va'dalar bersa-da, ularning to'liq imkoniyatlarini ochish uchun ushbu muammolarni hal qilish uchun strategik choralar ko'rish kerak. Maqola manfaatdor tomonlar uchun siyosiy tavsiyalar va strategik harakatlar bilan yakunlanadi va texnologik taraqqiyot va mustahkam boshqaruvni ta'minlaydigan muvozanatli yondashuvni taklif qilindi.

Kalit soʻzlar: raqamli platformalar, global savdo, imkoniyatlar, muammolar, KOʻK, blokcheyn, AI, kiberxavfsizlik, tartibga solish siyosati, inklyuzivlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N27>

Kirish. Raqamli inqilob global iqtisodiyotning koʻplab tarmoqlarini tubdan oʻzgartirdi va tashqi savdo uning eng sezilarli taʼsir koʻrsatadigan sohalaridan biri hisoblanadi. Soʻnggi yigirma yil ichida raqamli platformalar uzluksiz aloqani taʼminlash, operatsion samaradorlikni oshirish va geografik masofalarni bogʻlash orqali xalqaro savdoni osonlashtiradigan muhim vositalar sifatida paydo boʻldi. Transchegaraviy savdoni qoʻllab-quvvatlaydigan elektron tijorat gigantlaridan tortib, tranzaksiyalarni tartibga soluvchi raqamli toʻlov tizimlarigacha, bu platformalar global savdo ekotizimida muhim infratuzilmaga aylandi[1].

Ushbu maqola raqamli platformalarning global tashqi savdoga taʼsirining ikki tomonlama xususiyatini oʻrganib, ularning keng qoʻllanilishi bilan birga keladigan imkoniyatlar va muammolarga oydinlik kiritadi. Bir tomondan, raqamli platformalar bozorga kirishni demokratlashtirib, barcha hajmdagi korxonalariga, jumladan, kichik va oʻrta korxonalariga (KOʻK) xalqaro bozorga kirish va raqobatlashish imkonini beradi. Logistika va moliyaviy toʻsiqlarni kamaytirish orqali ushbu platformalar kichikroq oʻyinchilarga butun dunyo boʻylab xaridorlar va etkazib beruvchilar bilan bogʻlanishni osonlashtirdi. Bundan tashqari, sunʼiy intellekt (AI) va blokcheyn texnologiyasidagi yutuqlar savdo operatsiyalarida shaffoflik, ishonchlilik va xavfsizlikni oshirishga, tranzaksiyalarni yanada samarali va ishonchli qilishga yordam berdi.

Biroq, bu imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy muammolar ham bor. Tez oʻsish va raqamli platformalarga boʻlgan ishonch kiberxavfsizlik tahdidlari, tartibga solishdagi nomuvofiqliklar va maʼlumotlar maxfiylik bilan bogʻliq muammolar kabi murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Raqamli tafovut muhim toʻsiq boʻlib qolmoqda va turli darajadagi texnologik infratuzilmaga ega boʻlgan hududlar oʻrtasidagi iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirmoqda. Bundan tashqari, mamlakatlar oʻrtasidagi raqamli savdo siyosatidagi farqlar ishqalanishni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa biznesning global miqyosda kengayishi va faoliyat yuritishiga qaratilgan saʼy-harakatlarni murakkablashtiradi. Ushbu boʻlaklangan tartibga solish landshafti koʻpincha korxonalaridan muvofiqlik talablari labirintida harakat qilishni talab qiladi, bu cheklangan resurslarga ega boʻlgan KOʻK korxonalarini uchun ayniqsa ogʻir boʻlishi mumkin[2].

Maqolada ushbu imkoniyat va muammolar jahon tashqi savdosining hozirgi va kelajakdagi holatini qanday shakllantirishini chuqur tahlil qilishga intiladi. U raqamli platformalar xavfsizlik va inklyuzivlikka putur etkazmasdan rivojlanishi mumkin boʻlgan muhitni qoʻllab-quvvatlashda strategik siyosat asoslari va xalqaro hamkorlikning muhimligini taʼkidlashga qaratilgan. Rivoyat texnologik yutuqlarni tartibga solish, axloqiy va operatsion muammolarni hal qilishda foydalanish uchun zarur boʻlgan muvozanatlash aktiga qaratilgan.

Ushbu tahlillar orqali maqola raqamli savdo landshaftini uygʻunlashtira oladigan yaxlit xalqaro siyosat zarurligini taʼkidlaydi. Ushbu muvofiqlashtirish korxonalar faoliyati uchun yanada bashorat qilinadigan va xavfsiz muhitni yaratish, zaifliklarni kamaytirish va kiber tahdidlarga chidamlilikni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Maqolada salohiyatni oshirish tashabbuslari qanday qilib raqamli tafovutni bartaraf etishda yordam berishi,

imtiyozlar tengroq taqsimlanishi va rivojlanayotgan bozorlar raqamli platformalarning barcha imkoniyatlaridan foydalanishi mumkinligi haqida gapiriladi.

Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, raqamli platformalar global tashqi savdoni kengaytirish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni taqdim etsa-da, oldinga siljish hamkorlik, innovatsiyalar va barqaror rivojlanishga yordam beruvchi faol choralarni talab qiladi. Raqamli savdo bilan bog'liq muammolarni hal qilish uning to'liq salohiyatini ochish va inklyuziv, xavfsiz va gullab-yashnayotgan global iqtisodiyotga hissa qo'shishini ta'minlash uchun juda muhimdir.

Adabiyotlar sharhi va metodologiyasi. Bo'rixadjayeva M. S. Ushbu tadqiqot ishida hozirgi kunda dunyoda ko'plab rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga raqamli iqtisodiyot va ularni rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazmoqda, shuningdek davlat iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyotning o'rnini muhim hisoblanishi keltirilgan. "Raqamli iqtisodiyot nima?", "Raqamli iqtisodiyot vazifalari va maqsadlari", hamda "Raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va to'siqlari" kelib chiqish omillari va ularning yechimlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan[3].

Maxmudov Lazizbek. Muallif tadqiqotlarida quyidagicha natijalarni ko'rib chiqdi. Elektron tijoratning O'zbekiston iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasi katta va u o'sishda davom etmoqda. 2022-yilda O'zbekistonda elektron tijorat bozori 311 million AQSH dollariga yetdi, bu 2018-yilga nisbatan 5 baravar ko'pdir. KPMG tahliliga ko'ra, 2023-2027 yillarda elektron tijorat bozorining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 41,4% dan 47,4% gacha oralig'ida bo'ladi. 2022-yilda elektron tijoratda sotuvlar hajmi 2021-yilga nisbatan 1,8 baravarga oshib, 10,8 trillion so'mdan ortiqni tashkil etdi, bu yalpi chakana savdoning 4 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, elektron tijoratning O'zbekistonning iqtisodiy o'sishida va innovatsiyalar drayveri sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi. "TradeUZ" kabi milliy elektron tijorat platformalari yetkazib berish geografiyasining kengayishiga, eksport hajmining o'sishiga va umuman mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Elektron tijorat O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotida, jumladan, elektron Hukumat tizimida, aqlli texnologiyalarni joriy etishda va Internet-buyumlar texnologiyalaridan keng foydalanishda muhim rol o'ynaydi[4].

Nomozov Umid Iskandarovich. Xalqaro savdo raqamli platformalarni ta'siri- bu turli mamlakatlardagi kompaniyalar tomonidan tovarlar va xizmatlarni sotib olish va sotish. Raqamli platformalar iste'mol tovarlari, xom-ashyo, oziq-ovqat va mashinalar xalqaro bozorda sotib olishda va sotishdagi tas'iri. Xalqaro savdo mamlakatlarga o'z bozorlarini kengaytirish va ichki bozorda mavjud bo'lmagan tovarlar va xizmatlardan foydalanish imkonini beradi. Xalqaro savdo natijasida bozorda raqobat kuchayadi bu oxir-oqibat raqobatbardosh narxlarni keltirib chiqaradi va iste'molchiga arzonroq mahsulotni olib keladi[5].

Tahliliy natija. Raqamli platformalarning paydo bo'lishi global iqtisodiyotning turli jihatlarini tubdan o'zgartirdi, bunda tashqi savdo eng muhim ta'sir ko'rsatgan sohalardan biri bo'ldi. So'nggi o'n yilliklar mobaynida raqamli platformalar nafaqat chegaraoldi savdoni soddalashtirish orqali qulaylik yaratibgina qolmay, balki bozor kirish imkoniyatlarini ham tubdan qayta belgilab berdi. Ushbu texnologik vositalar barcha o'lchamdagi korxonalar, xususan kichik va o'rta korxonalar (KO'K), xalqaro bozorlar bilan aloqalarini kengaytirib, global savdoni cheklab kelgan to'siqlarni kamaytirish imkonini berdi.

Raqamli Platformalarning Yaratgan Imkoniyatlari:

1. Bozorga Kirish Imkoniyatlarining Kengayishi: Raqamli platformalar KO'Klarning yirik korxonalar bilan teng ravishda xalqaro bozorlarga kirishiga imkon yaratdi. Amazon, Alibaba va MercadoLibre kabi elektron tijorat platformalarining ko'lami kompaniyalarga jismoniy infratuzilmaga katta sarmoya kiritmasdan butun dunyo bo'ylab mahsulotlarini sotish imkonini berdi.

2. Tranzaksiya Xarajatlarining Pasayishi: Raqamli to'lov tizimlari, aqlli shartnomalar va blokcheyn texnologiyasining joriy etilishi savdoning moliyaviy jihatlarini soddalashtirib, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va xalqaro biznes sheriklari o'rtasida ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, blokcheyn texnologiyasi shaffoflik va xavfsizlikni ta'minlaydi, bu esa xalqaro tranzaksiyalarni uzluksiz bajarishga imkon beradi.

3. Logistika va Ta'minot Zanjirining Yaxshilanishi: Raqamli platformalar logistika boshqaruvi, yetkazib berish yo'nalishlarini optimallashtirish va real vaqtda inventarni kuzatish uchun integratsiyalashgan yechimlarni taqdim etadi. Bu xalqaro savdo bilan bog'liq kechikishlarni kamaytirib, samaradorlikni oshiradi.

4. KO'Klarning Qo'llab-quvvatlanishi: Chegaradan tashqari savdoga kirishda katta to'siqlarga duch kelgan KO'Klar endi onlayn bozorlar orqali global iste'molchilarga yetib borish imkoniyatiga ega. Bu kichik bizneslarning rivojlanishi va innovatsiyalarni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.

5. Texnologik Yutuqlar: Sun'iy intellekt (SI), mashinani o'rganish va katta ma'lumotlar tahlili kabi texnologiyalar savdo operatsiyalarini yaxshilashda yordam beradi, qaror qabul qilish jarayonlarini, mijozlar tajribasini va shaxsiylashtirilgan marketing strategiyalarini yaxshilaydi. SI orqali boshqariladigan algoritmlar bozor tendensiyalarini oldindan aytib berib, xalqaro aloqalarni optimallashtirish uchun strategiyalarni taklif qilishi mumkin.

Raqamli Platformalar Tomonidan Yuzaga Keladigan Qiyinchiliklar:

Imkoniyatlarga qaramay, raqamli platformalar bir qator e'tiborga loyiq bo'lgan qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi:

1. Regulyativ Murakkabliklar: Mamlakatlar o'rtasidagi regulyativ farqlar raqamli savdoga to'siq bo'lishi mumkin. Har bir davlatda ma'lumotlar maxfiyligi, soliq siyosati va raqamli tranzaksiyalarga oid o'ziga xos qonunlar mavjud bo'lib, xalqaro talablarni osonlikcha bajarishni qiyinlashtiradi.

2. Ma'lumotlar Xavfsizligi va Kiberxavflar: Raqamli tizimlarga tayanuvchi global savdo katta kiberxavfsizlik xavf-xatarlariga duch keladi. Ma'lumotlarning o'g'irlanishi va kiberhujumlar savdo operatsiyalarini buzishi va savdo ishtirokchilari o'rtasidagi ishonchni yo'qotishiga olib kelishi mumkin.

3. Raqamli Tafovut: Barcha mintaqalar raqamli yutuqlardan bir xil foydalana olmaydi. Rivojlangan davlatlarda raqamli infratuzilma mustahkam bo'lsada, rivojlanayotgan davlatlar ko'pincha raqamli savdoda to'liq ishtirok etishga xalaqit beruvchi cheklovlariga ega. Bu raqamli tafovut iqtisodiy tengsizliklarni kuchaytirishi va savdoda nomutanosibliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

4. Texnologiyaga Bog'liqlik: Texnologiyaga kuchli bog'liqlik savdo operatsiyalarining tizim nosozliklari yoki uzilishlarga nisbatan zaifligini oshiradi. Texnik xatoliklar, uzilishlar yoki xakerlik hujumlari global savdo tarmoqlarining ishonchligiga putur yetkazishi mumkin.

5. Regulyativ Parokandalik: Raqamli savdo siyosati uchun yagona global ramkaning yo'qligi xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi bizneslarning harakatlarini murakkablashtiradi.

Ushbu regulyatsiyalarni muvofiqlashtirish davlatlar, savdo tashkilotlari va bizneslarning hamkorligini talab qiladi[6].

Raqamli platformalar taqdim etayotgan imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun global ishtirokchilar ushbu qiyinchiliklarni hal qilishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarni qabul qilishlari zarur. Hukumatlar raqamli iqtisodiyotda barcha davlatlarning teng ishtirok etishini ta'minlash uchun regulyatsiyalarni uyg'unlashtiruvchi siyosatlarni amalga oshirishlari kerak. Kiberxavfsizlik infratuzilmasiga sarmoya kiritish savdo faoliyatini himoya qilish va ishtirokchilar o'rtasida ishonchni mustahkamlash uchun zarur. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va chegaraoldi savdoni silliq amalga oshirishni rag'batlantiruvchi yagona standartlarni yaratish kerak.

Muhokama. Raqamli platformalarning global tashqi savdoga ta'siri murakkab va ko'p qirrali bo'lib, unda imkoniyatlar bilan bir qatorda turli qiyinchiliklar ham mavjud. Ushbu munozara qismi raqamli platformalarning savdo sohasida qanday o'zgarishlar keltirib chiqarayotganini, qanday imkoniyatlarni taqdim etayotganini va mavjud qiyinchiliklarni chuqur tahlil qilishni maqsad qiladi.

Imkoniyatlarning Tahlili: Raqamli platformalar savdoga kirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi, bu esa KO'klar uchun katta yutuq hisoblanadi. Amazon va Alibaba kabi platformalar KO'klarga global bozorlarga chiqish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qildi. Bu platformalar yordamida kichik kompaniyalar xalqaro iste'molchilar bilan muloqot qilishda osonlik yaratadi, bu esa ularning savdo hajmini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, raqamli to'lov tizimlari va blokcheyn texnologiyasi tranzaksiya jarayonlarini osonlashtiradi. Ularning xavfsizlik va shaffoflik darajasi yuqori bo'lib, savdo jarayonidagi ishonchni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, blokcheyn texnologiyasi tranzaksiyalarni oson kuzatish va ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlash imkonini beradi.

Logistika va ta'minot zanjirlarini boshqarish ham raqamli platformalar yordamida ancha soddalashdi. Real vaqt rejimida kuzatish va inventar boshqaruvi savdo samaradorligini oshirib, kechikishlarni kamaytiradi. Bu, ayniqsa, xalqaro miqyosda tezkor yetkazib berish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashda yordam beradi[7].

Qiyinchiliklarning Tahlili: Biroq, raqamli platformalar tomonidan keltirib chiqarilgan qiyinchiliklar ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Regulyativ muammolar ko'p davlatlarda muhim muammolardan biri hisoblanadi. Mamlakatlar o'rtasidagi turli qonunlar va siyosatlar kompaniyalarning xalqaro miqyosdagi savdo faoliyatini murakkablashtiradi. Ayniqsa, ma'lumotlar maxfiyligi va kiberxavfsizlikka oid qonunchilikning turlicha talqin qilinishi bizneslar uchun katta to'siq bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, raqamli platformalarga qaramlik savdo tarmoqlarini texnologik uzilishlar va kiberxavfsizlik xatarlariga nisbatan zaif qiladi. Kiberhujumlar va ma'lumotlar o'g'irlanishi global savdoning uzilishiga olib kelishi va ishonchni yo'qotishi mumkin. Bu esa savdo jarayonining xavfsizligini ta'minlash uchun kuchli kiberxavfsizlik strategiyalarini talab qiladi.

Raqamli tafovut ham katta muammo bo'lib, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kuchaytiradi. Rivojlangan davlatlarda mustahkam raqamli infratuzilma mavjud bo'lsa-da, rivojlanayotgan davlatlar hali ham bu imkoniyatlardan to'liq foydalana olmayapti. Bu esa global savdo jarayonida tengsizliklarni keltirib chiqaradi.

Raqamli platformalar global savdoning samaradorligini oshirish va biznes imkoniyatlarini kengaytirish uchun katta salohiyatga ega. Biroq, ulardan samarali foydalanish uchun davlatlar va bizneslar regulativ moslashuvchanlik, kiberxavfsizlik va infratuzilmani rivojlantirishga e'tibor qaratishlari lozim. Xalqaro hamkorlik va siyosiy uyg'unlik ushbu qiyinchiliklarni yengish uchun muhim ahamiyatga ega.

Raqamli savdoning ijobiy va salbiy tomonlarini muvozanatlash orqali global savdo tizimi barqaror va samarali bo'lishi mumkin.

Xulosa. Raqamli platformalar bugungi kunda global tashqi savdoning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ular turli o'lchamdagi kompaniyalarga xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatini yaratmoqda. Ushbu maqolaning xulosasida, raqamli platformalarning ta'sirini baholash orqali global savdoning istiqbollari va amaliy muammolari yanada chuqurroq o'rganildi.

Birinchi navbatda, raqamli platformalarning yaratilgan imkoniyatlari ta'kidlandi. Ular kichik va o'rta korxonalariga (KO'K) xalqaro savdoda ishtirok etish imkoniyatini kengaytirib, yangi bozorlar bilan aloqalarni o'rnatishga yordam berdi. Bunday platformalar savdo xarajatlarini kamaytirib, blokcheyn kabi texnologiyalar orqali ishonch va shaffoflikni oshiradi. Shuningdek, logistika va ta'minot zanjirlarini raqamli vositalar yordamida samarali boshqarish xalqaro savdo jarayonini yanada tezkor va ishonchli qildi. Bularning barchasi savdo samaradorligini oshirib, global iqtisodiyotni o'sishiga turtki berdi.

Biroq, raqamli platformalarning o'sishi bilan bog'liq qiyinchiliklar ham mavjud. Ularning eng dolzarb muammolaridan biri – turli davlatlardagi regulativ farqlar. Mamlakatlar o'rtasidagi qonunchilikning farqlanishi va ma'lumotlar maxfiyligiga oid turlicha yondashuvlar kompaniyalarning xalqaro savdoga kirishida to'siq bo'lishi mumkin. Kiberxavfsizlikning ta'minlanmaganligi esa xalqaro savdo ishtirokchilarining ishonchini susaytiradi va savdo jarayonining barqarorligiga putur etkazadi. Shu sababli, raqamli savdoda xavfsizlik strategiyalari va infratuzilmani mustahkamlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, raqamli tafovut ham global savdoga ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda. Rivojlangan davlatlarda raqamli infratuzilma yuqori darajada bo'lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlar bunday imkoniyatlardan to'liq foydalana olmayapti. Bu esa xalqaro savdoda tengsizliklarga olib keladi va rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy salohiyatini to'liq amalga oshirishiga to'siq bo'ladi.

Umumiy qilib aytganda, raqamli platformalar global savdoni rivojlantirishda katta imkoniyatlarni ochib bergan bo'lsa-da, ularning samarali va xavfsiz foydalanilishi uchun bir qator choralar ko'rish zarur. Davlatlar va biznes subyektlari xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, regulativ masalalarni uyg'unlashtirish va kiberxavfsizlik choralarni kuchaytirish orqali raqamli savdoda barqaror rivojlanishni ta'minlashlari kerak.

Kelgusida, raqamli savdoni yanada rivojlantirish uchun xalqaro miqyosdagi siyosiy uyg'unlik, innovatsion texnologiyalarning tatbiqi va infratuzilmani rivojlantirish muhim rol o'ynaydi. Raqamli platformalarning ijobiy va salbiy tomonlarini balanslash orqali, global savdo tizimi barqaror, xavfsiz va samarali bo'lishi mumkin. Shu tarzda, raqamli iqtisodiyotning kelajakdagi muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun keng qamrovli strategiyalar va jamoaviy yondashuvlar talab qilinadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ayupov, R. H., and G. R. Boltaboeva. "Raqamli iqtisodiyot asoslari." Darslik. T.: TMI 575 (2020).
2. Khusanova, Gulchekhra. "Xalqaro savdo operatsiyalari va xalqaro savdo xuquqi." Nordic_Press 3.0003 (2024).
3. Bo'Rixadjayeva, M. S. "BUGUNGI KUNDAGI JAHON MIQYOSIDAGI RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI RAQAMLI IQTISODIYOTGA TA'SIRI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3.8 (2023): 266-278.
4. Maxmudov, Lazizbek. "Elektron tijoratning zamonaviy iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish va uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash." (2023).
5. Nomozov, Umid Iskandarovich. "BUGUNGI KUNDA JAHON MIQYOSIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA STATISTIK TAHLILI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3.9 (2023): 371-377.
6. Jabbarov, Sunnatilla I. "PRIORITY DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS IN CENTRAL AND SOUTH ASIA." Journal of Social Research in Uzbekistan 4.03 (2024): 14-20.
7. Ayupov, RAVHAN HAMDAMOVICH. "Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar." O'quv qo'llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU 554 (2020).

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

LEGAL ASPECTS OF IMPLEMENTATION OF INITIATIVE BUDGETING IN UZBEKISTAN

Nurmukhamedova Barno Ismailovna,

Tashkent State University of Economics

Department of Finance and Financial Technologies, Associate Professor

Urunova Gulnara Charikulieva,

Tashkent State University of Economics

2nd year master's student in the master's program

“Public Finance and International Finance”

Abstract. The article examines the legal aspects of the introduction and implementation of participatory budgeting in Uzbekistan, and presents in detail the results of work to improve the practice of financial support for projects formed on the basis of public opinion.

Key words: participatory budgeting, civil initiative projects, open budget, civil budget, local budgets, civil initiative fund.

ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ РЕАЛИЗАЦИИ ИНИЦИАТИВНОГО БЮДЖЕТИРОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Нурмухамедова Барно Исмаиловна,

Ташкентский государственный экономический университет,

кафедра «Финансы и финансовые технологии», доцент

Урунова Гульнара Чарикулиевна,

Ташкентский государственный экономический

университет, магистрант 2-курса специальности магистратуры

«Государственные финансы и международные финансы»

Аннотация. В статье изучены правовые аспекты внедрения и реализации инициативного бюджетирования в Узбекистане, подробно изложены результаты работы по совершенствованию практики финансового обеспечения проектов, сформированных на основе общественного мнения.

Ключевые слова: инициативное бюджетирование, проекты гражданских инициатив, открытый бюджет, гражданский бюджет, местные бюджеты районов, фонд гражданских инициатив.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N28>

Введение. Инициативное бюджетирование – это современный, эффективный метод финансирования проектов, в котором граждане напрямую участвуют в

распределении определенной части государственного бюджета. Данный механизм позволяет более эффективно распределять государственные ресурсы. Инициативное бюджетирование ориентировано на привлечение гражданского общества к эффективному расходованию средств государства, что требует глубокого изучения результативности данных процессов в перспективе. Для эффективного внедрения и реализации инициативного бюджетирования в стране, наряду с другими факторами, должна быть создана соответствующая правовая база, надлежащая политическая поддержка властей, широкая поддержка общественности.

Обзор литературы. Учитывая, что история внедрения и реализации инициативного бюджетирования не уходит в далекое прошлое и что использование бюджетных средств на проекты, сформированные с участием граждан – относительно новая практика в управлении государственными финансами, теоретические и практические аспекты участия граждан в использовании бюджетных средств и актуальность внедрения партисипаторного (инициативного) бюджетирования изучены и обсуждены в научных трудах только современных (как зарубежных, так и отечественных) ученых-экономистов. Так, Вагин В.В. рассматривает в своей статье анализ практик и механизмов общественного участия, применяемых в России для вовлечения граждан в решение вопросов местного значения с точки зрения соответствия основным чертам инициативного бюджетирования, некоторые успешные кейсы из практики субъектов Российской Федерации [1, 2-19]. Он считает, что «Процесс активного развертывания инициативного бюджетирования на федеральном и муниципальном уровнях требует комплексного анализа и всесторонней популяризации. В российских регионах нарабатана значительная база практик, обладающих потенциалом для проектирования оригинальных инструментов и запуска новых программ инициативного бюджетирования».

Фадейкина Н.В. утверждает, что «приоритетной задачей государства в области общественных (государственных и муниципальных) финансов является модернизация бюджетного процесса, предопределяющая необходимость вовлечения граждан в обсуждение и принятие решений по вопросам местного значения, а также участия граждан в реализации общественного контроля, в том числе направленного на повышение прозрачности и доступности информации о бюджетном процессе и управлении общественными финансами» [2]. Она в своей статье обосновывает концептуальные и теоретические основы инициативного бюджетирования, показывает институциональные противоречия и правовые коллизии, сдерживающие развитие механизма инициативного бюджетирования.

Паксиваткина В.А. изучает передовой международный опыт нормативного регулирования партисипаторного бюджетирования и других форм общественного участия в публичном управлении, ею в своих научных разработках выделены несколько форм нормативно-правовых актов, регулирующих вопросы участия граждан в бюджетном процессе в зарубежных странах, изучение и внедрение которых в отечественную практику инициативного бюджетирования послужит совершенствованию его нормативного регулирования [3, 68-72].

Из отечественных ученых экономистов Срождиддинова З.Х. в своей статье отмечает, «чтобы двигаться к более продвинутым моделям партисипаторного

бюджетирования, основанным на реальном участии граждан в принятии решений, необходима финансовая и административная децентрализация, реформа, предусматривающая развитие института выборности местных органов власти, формирование стимулов и механизмов их взаимодействия с населением и подотчетности перед ним, продолжение укрепления органов самоуправления граждан»[4, 122-142].

Таким образом, во многих научных трудах ученых-экономистов подробно и всесторонне изучены вопросы внедрения и дальнейшей реализации инициативного бюджетирования, большинство из них едины во мнении, что для успешной реализации какого-либо новшества требуется политическая воля руководства страны и безупречно разработанная нормативная база, которая бы не противоречила ожиданиям населения и не препятствовала успешной его реализации, которое в конечном итоге привело бы улучшению качества жизни и благосостояния населения.

Методология исследования. В процессе осуществления научного исследования по данной проблематике были использованы такие методы научного познания, как наблюдение, индукция, дедукция, группировка, метод сравнительного анализа и прогнозирования.

Анализ и результаты. В Узбекистане механизмы инициативного бюджетирования внедряются с 2018 года после принятия Постановления Президента Республики Узбекистан «О мерах по обеспечению открытости бюджетных данных и активного участия граждан в бюджетном процессе» № ПП-3917 от 22.08.2018 г. В соответствии с данным постановлением:

- с 2019 года внедряется механизм участия граждан в распределении бюджетных средств, предусматривающий направление не менее 10 процентов сверхпрогнозных доходов бюджетов районов (городов) на финансирование мероприятий, сформированных на основе общественного мнения;

- начиная с 2020 года государственный бюджет и бюджеты государственных целевых фондов утверждаются законом с детальной разбивкой информации, подготовленной в соответствии с передовыми международными стандартами;

- проекты государственного бюджета и бюджетов государственных целевых фондов, основных направлений налогово-бюджетной политики, а также отчеты об исполнении государственного бюджета и бюджетов государственных целевых фондов подлежат обязательному общественному обсуждению до их направления в Законодательную палату Олий Мажлиса Республики Узбекистан;

- параллельно с проектами государственного бюджета и бюджетов государственных целевых фондов и отчетами об их исполнении публикуется для общественного обсуждения информационное издание «Бюджет для граждан», разрабатываемое Министерством экономики и финансов Республики Узбекистан;

- заключения Счетной Палаты Республики Узбекистан по проектам государственного бюджета и бюджетов государственных целевых фондов, основных направлений налогово-бюджетной политики, а также по результатам внешнего аудита и оценки ежегодных отчетов об исполнении государственного

бюджета и бюджетов государственных целевых фондов подлежат обязательному опубликованию[5].

С принятием 13 апреля 2021 года Постановления Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по обеспечению активного участия граждан в бюджетном процессе” № ПП-5072 введено[6]:

- поэтапное внедрение нового порядка направления 5 % утвержденных общих расходов соответствующих бюджетов на финансирование мероприятий, сформированных на основе общественного мнения, начиная с мая 2021 года – в пилотных районах (городах), начиная с 1 января 2022 года – во всех районах (городах) республики;

- повышение начиная с 1 июля 2021 года с 10 процентов до 30 процентов минимального размера дополнительных средств бюджетов районов (городов), выделяемых на финансирование мероприятий, сформированных на основе общественного мнения.

Постановлением Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему расширению финансирования мероприятий, сформированных на основе общественного мнения посредством Информационного портала «Открытый бюджет» № ПП-5250 от 22 сентября 2021 года [7]:

- выделено в 2021 году из республиканского бюджета дополнительно 57,9 миллиарда сумов – районам и городам, Фонд гражданских инициатив которых сформирован в объеме менее 1 миллиарда сумов;

- дополнительно выделено 59,5 миллиарда сумов – районам и городам, в которых через информационный портал «Открытый бюджет» поступило свыше 100 предложений;

- начиная с 1 января 2022 года 50 процентов средств, выделяемых на ремонт местных внутренних дорог в параметрах бюджетов районов и городов, направляется на ремонт внутренних дорог, определенных на основе общественного мнения посредством информационного портала «Открытый бюджет».

Постановлением Президента Республики Узбекистан “О дальнейшей поддержке участия граждан в процессах направления средств районного и городского бюджетов на мероприятия, сформированные на основе общественного мнения” № ПП-197 от 7 апреля 2022 года [8]:

- выделено районам (городам) дополнительно 85,4 млрд. сумов средств на реализацию проектов, каждый из которых набрал более 2 тысяч голосов, но не был признан победителем в процессах инициативного бюджетирования, проведенных в феврале-марте 2022 года;

- установлено, что оценка своевременного финансирования и выполнения мероприятий, сформированных на основе общественного мнения, осуществляется районными и городскими Кенгашами народных депутатов по итогам каждого квартала;

- по итогам отчетного года Инспекция государственного финансового контроля при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан

осуществляет итоговый контроль за выполнением мероприятий, сформированных на основе общественного мнения;

- хокимы районов (городов) регулярно отчитываются в средствах массовой информации о результатах проектов, реализуемых на основе инициативного бюджетирования.

- внедряется практика заслушивания в Сенате Олий Мажлиса по итогам каждого квартала отчетов председателя Совета Министров Республики Каракалпакстан, хокимов областей, города Ташкента, районов и городов о выполнении мероприятий, сформированных на основе общественного мнения.

Постановлением Президента, принятым 10 апреля 2023 года № ПП-117 «О мерах по дальнейшему совершенствованию практики инициативного бюджетирования и поддержке активных махаллей»[9]:

- определено, что дополнительно выделяемые средства направляются за счет средств, запланированных в рамках программ «Обод кишлок» и «Обод махалла» на 2023 год;

- установлено, что в рамках процессов инициативного бюджетирования руководящим работникам запрещается отдавать поручения своим работникам по обязательному сбору голосов, при этом принуждение к сбору голосов классифицировать как привлечение работников соответствующей организации к принудительному труду.

- утвержден План мер по дальнейшему совершенствованию процессов инициативного бюджетирования, устранению отдельных недостатков, наблюдающихся на местах, а также направленных на обеспечение более прозрачной и справедливой организации этих процессов.

Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об утверждении положения о порядке реализации программ “Обод кишлок” и “Обод махалла” посредством процессов инициативного бюджетирования на основе общественного мнения» установлено:

- мероприятия, финансируемые в рамках программ «Обод кишлок» и «Обод махалла», будут определяться путем голосования на портале «Открытый бюджет» на основе общественного мнения;

- ежегодно проекты будут формироваться на предстоящий год в ноябре-декабре в информационном портале «Открытый бюджет» на основе общественного мнения;

- в каждой махалле будет сформирован пакет проектов общей стоимостью не более 8 млрд. сумов, а также реализация ряда мероприятий.

В соответствии с Положением о порядке реализации программ “Обод кишлок” и “Обод махалла” посредством процессов инициативного бюджетирования на основе общественного мнения установлено, что:

- пакет проектов должен быть сформирован председателем схода граждан соответствующей махалли на основе предложений, высказанных гражданами махалли, помощниками хокима, женскими активистками и молодежными лидерами;

- распределение общей суммы ассигнований по республике будет осуществляться исходя из численности населения и махалли;
- создаются специальные комиссии и их примерный состав при районных (городских) хокимиятах по изучению и отбору проектов, сформированных председателями махалли;
- проведение гражданами процедур голосования по проектам, отобранным специальными комиссиями, в частности, в целях обеспечения достоверности и прозрачности определения победителей, внедрение порядка подсчета голосов с применением специального коэффициента для малонаселенных кварталов;
- в махаллях, признанных победителями, в ближайшие годы не будут реализованы проекты в рамках программ «Обод кишлок» и «Обод махалла».

Выводы и рекомендации. По результатам исследования правовых аспектов внедрения инициативного бюджетирования и изучив практику его реализации в стране, можно выделить следующие этапы внедрения инициативного бюджетирования в Республике Узбекистан:

2019 год – внедряется механизм участия граждан в распределении бюджетных средств, предусматривающий направление не менее 10 процентов дополнительных источников бюджетов районов (городов) на финансирование мероприятий, сформированных на основе общественного мнения;

2021 год – на финансирование мероприятий, сформированных на основе общественного мнения направляется 5 процентов утвержденных общих расходов бюджетов районов (городов) и 30 % минимального размера дополнительных средств соответствующих бюджетов;

2022 год – для обеспечения своевременного и результативно-ориентированного финансирования иницируемых гражданами проектов, 50 процентов средств, выделяемых на ремонт местных внутренних дорог в параметрах бюджетов районов и городов направляется на ремонт внутренних дорог, определенных на основе общественного мнения;

2023 год – мероприятия, финансируемые в рамках программ «Обод кишлок» и «Обод махалла», определяются путем голосования на портале «Открытый бюджет» на основе гражданских инициатив.

Для успешной реализации проектов инициативного бюджетирования необходимо создание следующих условий[10]:

институциональные условия – совершенствование нормативно-правовых основ, улучшение правового регулирования практики инициативного бюджетирования, работы проектных центров, дальнейшее совершенствование системы обучения активистов и ответственных лиц органов местного самоуправления;

экономические условия – расширение источников финансирования, обеспечение экономического роста, развития инфраструктуры;

информационное сопровождение – расширение информационных компаний по повышению информированности населения, активизация работы средств массовой информации по пропаганде возможностей и преимуществ инициативного бюджетирования.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Вагин В.В., Шаповалова Н.А. Инициативное бюджетирование и смежные практики. Финансовая аналитика: проблемы и решения 38 (2016) 2–19. Издательский дом ФИНАНСЫ и КРЕДИТ, 2016.
2. Фадейкина Н.В. Инициативное бюджетирование как инструмент системы общественных финансов. Сибирская финансовая школа. Март–1/2020.
3. Паксиваткина В.А. Нормативное регулирование партисипаторного бюджетирования: передовой международный опыт. Сборник материалов международного форума «Участие граждан в бюджетном процессе: обмен опытом и перспективы развития». - Ташкент, 2022. Стр. 68-72.
4. Срождидинова З. Х. Система государственных финансов: реформа управления, направления совершенствования в Республике Узбекистан // Финансовый журнал. 2023. Т. 15. № 3. С. 122–142. <https://doi.org/10.31107/2075-1990-2023-3-122-142>.
5. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по обеспечению открытости бюджетных данных и активного участия граждан в бюджетном процессе» № ПП-3917 от 22.08.2018.
6. Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по обеспечению активного участия граждан в бюджетном процессе» № ПП-5072 от 13.04.2021.
7. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему расширению финансирования мероприятий, сформированных на основе общественного мнения посредством Информационного портала «Открытый бюджет» № ПП-5250 от 22.09.2021.
8. Постановление Президента Республики Узбекистан «О дальнейшей поддержке участия граждан в процессах направления средств районного и городского бюджетов на мероприятия, сформированные на основе общественного мнения» № ПП-197 от 7.04.2022.
9. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию практики инициативного бюджетирования и поддержке активных махаллей» № ПП-117 от 10.04.2023.
10. Нурмухамедова Б., Васюнина М. Л. АНАЛИЗ ВНЕДРЕНИЯ ПАРТИСИПАТОРНОГО БЮДЖЕТИРОВАНИЯ КАК ИННОВАЦИОННОЙ ПРАКТИКИ В СФЕРЕ УПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ФИНАНСАМИ. International Finance and Accounting 2022.1 (2022): 1.
11. AKHUNOVA Y., NURMUKHAMEDOVA B. STUDYING THE OPEN BUDGET SURVEY AS A KIND OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS //THEORETICAL & APPLIED SCIENCE. – 2022. – №. 6. – С. 220-223.
12. Nurmukhamedova, Barno. "ANALYSIS OF THE IMPLEMENTATION OF PARTICIPATORY BUDGETING AS AN INNOVATIVE PRACTICE IN THE SPHERE OF PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT."International Finance and Accounting 2022.1 (2022): 1.
13. Jumaniyazov, I., & Qayumova, M. (2023). Fuqarolik ishtirokidagi "Tashabbusli byudjet" turlari va uni O'zbekistonda qo'llash dolzarbligi. Science and Education, 4(6), 853–859. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6101>
14. Jumaniyazov, I. T., & Islomov, A. (2023). O 'RTA MUDDATLI DAVR UCHUN FISKAL STRATEGIYANI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 121-127.
15. Бахронов, Ж., & Жуманиязов, И. (2023). Партисипатор бюджетлаштириш ва уни Ўзбекистонда қўллаш долзарблиги. Science and Education, 4(2), 1486–1493. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5234>
16. Jumaniyazov, I. T. (2022). O'zbekistonda davlat moliya tizimidagi islohotlar va rivojlantirish istiqbollari. Science and Education, 3(5), 1637-1645.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

INCREASING THE COMPETITIVENESS OF THE JOINT STOCK COMPANY THROUGH CORPORATE GOVERNANCE MECHANISMS

Xidirova Marguba Rustamovna,
TSUE, Innovation management
PhD

Zakirov Asilbek Adilovich,
Master

Abstract. In this article, in order to increase the competitive potential of the joint-stock company, the mechanisms of corporate governance were considered in detail. In the process of analysis, international standards related to the field of effective corporate governance were studied and important principles were defined.

Key words: joint stock company, investment, corporate governance, OECD, corporate governance mechanisms, external and internal mechanisms.

KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI ORQALI AKSIYADORLIK JAMIYATINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

Xidirova Marg'uba Rustamovna,
TDIU, Innovatsion menejment, PhD.
UrDU "Turizm" kafedrası dotsent v.v.b.

Zakirov Asilbek Adilovich,
Magistr

Annotatsiya. Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatining raqobatbardosh salohiyatini oshirish maqsadida korporativ boshqaruv mexanizmlarini batafsil ko'rib chiqildi. Tahlil jarayonida samarali korporativ boshqaruv sohaga oid xalqaro standartlar o'rganilib, muhim tamoyillar belgilab olindi.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyat, investitsiya, korporativ boshqaruv, OECD, korporativ boshqaruv mexanizmlari, tashqi va ichki mexanizmlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N29>

Kirish. Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va xorijiy strategik investorlarni jalb etish orqali milliy iqtisodiyotning yuqori sur'atlarini ta'minlash korporativ boshqaruv sifati va samaradorligini oshirishga e'tiborning kuchayishiga olib keldi. Ayni paytda mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyati faoliyati xorijiy investorlar ishtirokini taqozo etayotganligi sababli, korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish, xalqaro standartlar talablari asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash, boshqaruv

samaradorligini ta'minlash va nazorat qilish, boshqaruv tizimini to'g'ri shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli investitsiya qarorlarini qabul qilishda investitsiya qiluvchi kompaniyalarda korporativ boshqaruvning qay darajada tatbiq etilishi va uning samaradorligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xuddi shunday, kompaniyalarning korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini baholash va diagnostika qilish mezonlari va usullari ham takomillashmoqda. Bu, o'z navbatida, korporativ boshqaruv bo'yicha, kompaniya reytinglarini aniqlash bo'yicha, xizmatlarni ishlab chiqish bo'yicha reyting agentliklari o'rtasida kuchli raqobat muhitini shakllantirishga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarida samarali boshqarish tizimini tashkil etishda korporativ boshqaruvni takomillashtirish yo'llari, va korporativ boshqaruv standartlarini kiritishda rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Korporativ boshqaruvga doir masalalar I. Ansoff, U. Batner, D. Yermax, R. Lazer, D. Lorsh, K. Meyr, P. Milgrom, B. Meyn, D. Seyler Mixaylov D.M., D. Tobin, M. Xessel, D. Charxem, A. Shleyfer kabi bir qator xorij olimlarining ilmiy asarlarida ko'rib chiqilgan. Ularda korporativ boshqaruvga bag'ishlangan tadqiqotlarning asosiy qismi rivojlangan g'arb mamlakatlari misolida o'rganilgan. Shu jumladan, moliya bozorlari, Kuzatuv kengashi, aksiyadorlarning huquqlari va vazifalari tadqiq etilgan. Turli huquqiy tizimlarning korxonaga ta'siri o'rganilgan. Korporativ boshqaruv sifatini baholashning yagona reyting tizimini yaratish to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

O'zbekiston Respublikasining Korporativ boshqaruv kodeksiga ko'ra, korporativ boshqaruv deganda aksiyadorlik jamiyati faoliyatini samarali tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnika vositalarni modernizatsiya qilish maqsadida aksiyadorlik jamiyatlarining ijro etuvchi organi, kuzatuv kengashi, aksiyadorlar tushuniladi. Texnologik qayta jihozlash, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va tashqi bozorga eksport qilish, mehnat jamoasi va boshqa manfaatdor shaxslar, shu jumladan kreditorlar vakillari, bu shaxslar manfaatlarining uyg'unligiga erishish tizimi sifatida tushuniladi. Shu bilan birga, samarali korporativ boshqaruv bo'yicha turli xil qarashlar mavjud. Xususan, samarali korporativ boshqaruvning mazmun-mohiyati ishonchli boshqaruv tizimini yaratishda namoyon bo'ladi.

Samarali korporativ boshqaruv sohaga oid xalqaro standartlarni joriy etishni ham talab qiladi. Hozirgi vaqtda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) zamonaviy korporativ boshqaruv tamoyillari quyidagicha tizimlashtirilgan:

1. Korporativ boshqaruvning samarali mexanizmlari uchun zarur asoslarni ta'minlash;
2. Aksiyadorlarning huquqlari, teng huquqlilik va asosiy mulkchilik funksiyalari;
3. Institutsional investorlar, fond bozorlari va boshqa vositachilar;
4. Korporativ boshqaruvda manfaatdor tomonlarning roli;
5. Axborotning ochiqligi va shaffofligi;
6. Kengashning vazifalari.

Samarali korporativ boshqaruvning muhim tamoyillari sifatida bir qator tamoyillarni ham ajratib ko'rsatish mumkin. Bizningcha, korporativ boshqaruvni samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi tamoyillar juda muhim:

1. Qobiliyat. Kuzatuv kengashi va ijroiya organining kompaniyani samarali boshqarish va nazorat qilish qobiliyati, shuningdek, zarur malaka, tajriba va iste'dodga ega bo'lishi samarali

korporativ boshqaruvning asosiy tamoyilidir. Xususan, M. Nadler yanada samarali kengashlarni yaratish uchun strategik fikrlash va biznes va u tegishli bo'lgan sohani tushunish zarurligini ta'kidlaydi. KPMG tomonidan 2016-yilda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra Buyuk Britaniya direktorlarining atigi 39 foizi kengashlarning malakasi va tajribasidan qoniqish hosil qilgan. Respondentlarning 82 foizi biznesning xususiyatidan kelib chiqib, to'g'ri malaka va tajribaga ega bo'lgan direktorlarni topishda to'siqlar mavjudligini ta'kidladilar.

2. Yaxlitlik. Kengash kompaniyani halol va axloqiy tarzda ishlashga yo'naltirishi kerak. Kengash samarali bo'lishi uchun u ichki axloqiy tamoyillar haqida qayg'urishi kerak. Bundan tashqari, direktorlar kengashida halollik va odob-axloq qoidalarini ta'minlash uchun endilikda direktorlar kengashi gender bo'yicha diversifikatsiya qilingan, bunda salmoqli ulush ayol direktorlardan iborat. Biroq, Kengashdagi ayol direktorlarning og'irligini oshirishning kompaniya faoliyatiga ta'siri bo'yicha konsensus yo'q (ko'pgina tadqiqotlarda samaradorlik kompaniyaning daromadliligi bilan o'lchanadi aktivlar — ROA). Boshqacha qilib aytganda, tadqiqotchilarning bu boradagi xulosalarini ikkiga bo'lish mumkin: 1) ayol direktorlar va kompaniya faoliyati o'rtasida ijobiy munosabatlar mavjud; 2) bu ikki ko'rsatkich o'rtasida sezilarli bog'liqlik yo'q.

3. Yetakchilik. Rahbarlik kompaniyaning ishchi jamoasini umumiy maqsadga erishishga yo'naltiradi va zarur ko'rsatmalar beradi. Kuzatuv kengashi va ijro etuvchi organ samarali yetakchilik tamoyillarini amalga oshirishi kerak.

4. Javobgarlik. Hisobdorlik shaffoflikka asoslanadi. Korporativ javobgarlik kompaniyaning faoliyati, xatti-harakati yoki uning sabablarini tushuntirish majburiyati va javobgarligini anglatadi. Kengash aksiyadorlar va boshqalar bilan munosabatlarni ta'minlashi kerak, manfaatdor tomonlar shaffof va muvozanatli asosda tashkil etilgan bo'lishi kerak.

5. Barqarorlik. Barqarorlik korporativ boshqaruvning yangi paydo bo'lgan, ammo muhim tamoyilidir. Shu nuqtai nazardan, ushbu tamoyil kompaniyaning rolini tushunishni talab qiladi.

Tahlil va Natija. Korporativ boshqaruv mexanizmlari — bu tashkilotning majburiyatlari zaruriyati bo'yicha rahbarlarning xatti-harakatlarini to'g'ri monitoring qilish va nazorat qilish orqali tashkilotlarning yo'nalishi va ishlashiga yordam beradigan protseduralar, siyosatlar va vositalar. Masalan, kengash tarkibi (insayder direktorlar, tashqi direktorlar va kengash hajmi), kengash qo'mitalari (audit, nomzodlar va mukofotlar), bosh ijrochi direktor (bosh direktor) ikki tomonlama (ya'ni, bosh direktor/raisni ajratish), boshqaruv kengashi yig'ilishlari va aksiyadorlarning konsentratsiyasi.

Mulkdorlar va yollanma menejerlar, nazorat qiluvchi aksiyadorlar va minoritar aksiyadorlar o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish uchun korporativ boshqaruvning ikki turi — ichki va tashqi mexanizmlardan foydalanish mumkin.

Quyidagi ichki mexanizmlar ajratiladi:

- mulkchilik tuzilishi;
- direktorlar kengashi;
- rahbarlar mehnatiga haq to'lashning to'g'ri tuzilishi;
- moliyaviy shaffoflik va axborotni oshkor qilish.

To'rtta ichki boshqaruv mexanizmlaridan mulkchilik tuzilmasi korxonaga qiymatini maksimal darajada oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar mulk boshidanoq tarqalib ketgan bo'lsa, yirik aksiyadorning paydo bo'lishi yumshatiladi.

Direktorlar kengashi aksiyadorlar korxonaga boshqaruviga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ikkinchisi bo'lib, u asosan menejerlardan iborat bo'lsa, u sezilarli darajada samarasiz bo'ladi.

Aksiyadorlar va aksiyadorlar o'rtasidagi kelishuvga imkon beradigan uchinchi mexanizm — bu bozor qiymatiga ham, buxgalteriya hisobi bo'yicha korxonaga faoliyati ko'rsatkichlariga ham bog'langan menejerlarning to'g'ri tuzilishi. Top-menejmentning iqtisodiy manfaatlari, agar ular kompaniyadagi muhim ulushga ega bo'lsa, aksiyadorlarning manfaatlari ko'proq mos keladi.

Moliyaviy shaffoflik va axborotning to'g'ri oshkor etilishi korporativ boshqaruvning muhim mexanizmlari hisoblanadi. Korxonaga faoliyati, uning moliyaviy ahvoli va tashqi sharoitlari to'g'risida yetarli, aniq va o'z vaqtida ma'lumotga ega bo'lish aksiyadorlarning kompaniyaga faoliyatini nazorat qilish va nazorat qilish, investitsiya qarorlarini qabul qilishlari uchun zarurdir. Birjada aksiyalarni sotuvchi kompaniyalarda moliyaviy shaffoflik, muntazam auditlar va xalqaro buxgalteriya tizimini joriy etish korporativ boshqaruv sifatini baholashni yaxshilashga yordam beradi.

Korporativ boshqaruvda tashqi mexanizmlar ichki mexanizmlardan kam rol o'ynaydi. Bularga quyidagilar kiradi: fond bozori, korporativ nazorat bozori, mehnat bozori va boshqalar. Ular sxematik tarzda iqtisodiyotning xususiy sektorida hamda qonunchilik va bozorni tartibga solish sohasida faoliyat yurituvchi omillarni o'z ichiga oladi.

Korporativ boshqaruv mexanizmlari "manfaatlarni muvofiqlashtirish" asosiy mavzusida ishlaydi va shuning uchun uni aksiyadorlar, atrof-muhit, umuman jamoatchilik kabi barcha manfaatdor tomonlar manfaatlarining izchil uyg'unlashuvi deb tushunish mumkin. Kompaniyani yaratish jarayoni, bu o'z navbatida kompaniyaga va uning biznesi olib borilayotgan ideallarni aks ettiradi. To'g'ri bo'lsa-da, bugungi rivojlanayotgan davrda kompaniyaning asosiy maqsadi pul foydasi bo'lmasa-da, kompaniyaning davom etishi uchun ma'lum miqdorda foyda olish juda muhimdir. Shunday qilib, korporativ boshqaruv mexanizmlari kompaniyaning ma'naviy, ijtimoiy va moliyaviy majburiyatlari o'rtasidagi muvozanatni yaratishga qaratilgan.

Xulosa. Shuni ta'kidlash o'rinlidirki, mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarini korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirishda kompaniyaga e'tibor va talab katta.

Korporativ boshqaruvning mexanizmlari davlat tartibga solish organlari, sud organlari va ishbilarmonlar doiralarida ishlab chiqilgan ma'lum bir qoida, me'yor va andozalari asosi va doirasida ishlaydi. Ushbu qoida, me'yor va andozalarning majmuasi korporativ boshqaruvning institutsional asoslarini tashkil qiladi. Rivojlangan mamlakatlar qonunlari korporatsiya maqomini muayyan tashkiliy tuzilmaga, huquq va majburiyatlarga ega va haqiqiy mavjud bo'lgan yuridik shaxs sifatida belgilab bir vaqtning o'zida korporativ hamjamiyat ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarishning asosiy me'yorlari va mexanizmlarini ham belgilab beradi.

Bundan tashqari, Korporativ boshqaruvning kompleks mexanizmi: korporativ strategiya, korporativ boshqaruvni, moliyaviy va axborot shaffofligi, aksiyadorlar, kreditorlar va boshqa qimmatli qog'ozlar egalari huquqlarni himoya qilish tizimining mavjudligi kabi tarkibiy elementlarni o'z ichiga olib, ularning har biri korporativ boshqaruvning samaradorligi uchun ahamiyatlidir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoyalash to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1996 yil. 26 apr. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. -2003.
2. Investitsiya faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni // Xalq so'zi, 1999 yil 12 yanvar.
3. Беркинов Б., Корпоратив бошқарув: мақсад ва вазифалар // Р. Халқ сўзи.-2004. №102
4. Беркинов Б.Б. Корпоративные структуры (Основы создания и управления). -Т.: Изд-во Нац.б-ки Узбекистана, 2005.
5. Хашимов А.А. Ўзбекистонда интеграциялашган корпоратив тузилмаларни бошқариш методологиясини такомиллаштириш.: Иқтисод фанлари доктори дисс.иши.-Т.: 2007
6. Дости А., Чен И., Надеждина М., Ўзбекистонда корпоратив бошқарув: муаммолар ва ҳал этиш йўллари // Ж. Экон. обозрение.- 2003
7. Зайнутдинов Ш.Н., Рахимова Д.Н. Корпоратив бошқарув асослари. - Т.: Академия, 2007

09.00.00-FALSAFA FANLARI – PHILOSOPHICAL SCIENCES

Received: 10 November 2024

Accepted: 15 November 2024

Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

**ACTUAL PROBLEMS OF FORMATION OF PHILOSOPHICAL
THINKING IN STUDENTS**

Ismailov Makhamadixon,

Professor of Namangan Institute of Engineering and Construction,

Doctor of Philosophy,

E-mail: m.ismoilov67@gmail.com

Abstract. This article analyzes the current issues of forming a philosophical worldview among students. Philosophical outlook is important for students not only in acquiring scientific and academic knowledge, but also in making life decisions and understanding social and cultural values. The article discusses the main problems encountered in the formation of a philosophical worldview, including the development of students' critical thinking skills, effective methods of teaching philosophical knowledge, the practical importance of the science of philosophy and its role in society. Also, issues of modernization of philosophical education, use of interactive teaching methods and orientation of students to think globally will be considered. The article proposes necessary measures and innovative approaches to make the philosophical education of the educational system more effective and attractive.

Key words: philosophical outlook, critical thinking in students, teaching of philosophy, interactive teaching methods, philosophical education, societal values, methodological approaches, global thinking, educational system.

**TALABALARDA FALSAFIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

Ismoilov Maxamadixon,

Namangan muhandislik qurilish instituti professori,

Falsafa fanlari doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda falsafiy dunyoqarashni shakllantirishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Falsafiy dunyoqarash, talabalar uchun nafaqat ilmiy va akademik bilimlarni o'zlashtirish, balki hayotiy qarorlar qabul qilishda, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni anglashda ham muhim ahamiyatga ega. Maqolada falsafiy dunyoqarashni shakllantirishda duch kelinadigan asosiy muammolar, jumladan, talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, falsafiy bilimlarni o'qitishning samarali metodlari, falsafa fanining amaliy ahamiyati va jamiyatdagi o'rni muhokama qilinadi. Shuningdek, falsafiy ta'limni modernizatsiya qilish, interaktiv o'qitish usullarini qo'llash va talabalarni global miqyosda o'ylashga yo'naltirish masalalari ham ko'rib chiqiladi. Maqolada ta'lim tizimining falsafiy ta'limni yanada samarali va jozibador qilish uchun zarur choralar va innovatsion yondashuvlar taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: falsafiy dunyoqarash, talabalarda tanqidiy fikrlash, falsafa fanini o'qitish, interaktiv o'qitish usullari, falsafiy ta'lim, jamiyat qadriyatlari, metodologik yondashuvlar, global tafakkur, ta'lim tizimi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N30>

Kirish. Falsafaning inson hayotida tutgan o‘rni haqida gapirganda, uni insoniyatning mavjudligi, maqsadi va axloqi haqida chuqur o‘ylash imkonini beruvchi bir muhim vosita sifatida ko‘rishimiz kerak. Falsafa, asrlar davomida insonning ichki dunyosini, jamiyatdagi o‘rnini va tabiat bilan bog‘liqligini anglashda yordam bergan. Hayotning ma‘nosi, erkinlik, adolat, baxt, o‘lim va boshqa mavjudlik masalalari falsafaning markaziy mavzularidir. Shu bois, falsafa faqat ilmiy yoki nazariy fikr yuritishning bir usuli bo‘lib qolmay, balki har bir insonni o‘z hayoti va o‘zligini anglashga undovchi kuchga ega. Falsafaning inson hayotidagi o‘rni shundan iboratki, u bizga nafaqat “qanday yashash kerak?” degan savolni beradi, balki shu savolga javob topish jarayonida ruhiy va aqliy o‘shirimizga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Falsafa, insoniyatning eng qadimiy va chuqur fanlaridan biri bo‘lib, u hayotning ma‘nosi, axloqiy qadriyatlar, erkinlik, adolat va insoniyatning mavjudligi haqidagi savollarni o‘rganadi. Falsafaning roli faqat nazariy bilimlarni shakllantirishda emas, balki jamiyatda axloqiy va ruhiy izlanishlarni amalga oshirishda ham nihoyatda muhimdir. Shuning uchun, falsafiy fanlarga befarqlik, ayniqsa zamonaviy jamiyatda, turli salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Birinchidan, falsafaga befarqlik insonning o‘zligini anglashiga to‘sqinlik qiladi. Falsafa yordamida inson o‘zining ichki dunyosini, hayot maqsadini va axloqiy masalalarni aniqlaydi. Falsafiy mulohazalar hayotning noaniqliklariga nisbatan aniqroq qarashlarni shakllantiradi. Agar inson falsafaga befarq bo‘lsa, bu uning hayotiy qarorlarida, shaxsiy va jamiyatdagi o‘rnida adashishga olib kelishi mumkin. Masalan, axloqiy qarorlar va tanlovlar har doim yagona to‘g‘ri javobni taqdim etmaydi, lekin falsafiy tafakkur yordamida inson murakkab holatlarni chuqurroq tushunib, to‘g‘ri yo‘lni tanlashi mumkin.

Ikkinchidan, falsafaga befarqlik jamiyatning axloqiy va madaniy zaiflashuviga olib keladi. Falsafa insoniyatni yaxshilash, adolat va erkinlikni targ‘ib qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Agar jamiyat falsafiy ta‘limotlarni e‘tiborsiz qoldirsa, bu, o‘z navbatida, axloqiy zo‘ravonlik, korrupsiya, adolatsizlik kabi salbiy hodisalarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Falsafaning rivojlanishiga befarq bo‘lgan jamiyatlar ko‘pincha manfaatparastlik va shaxsiy erkinlikni yuksaltirishda, balki umumiy yaxshilikka xizmat qilishda zaiflashadi.

Uchinchidan, falsafiy bilimlarning etishmasligi siyosiy va ijtimoiy muammolarga olib kelishi mumkin. Falsafa, insoniyatning umumiy qadriyatlarini va demokratik tamoyillarni shakllantirgan, jamiyatda erkin fikrlashni, adolatli qarorlar qabul qilishni targ‘ib etgan. Falsafaga befarq bo‘lgan jamiyatda esa, bu qadriyatlar o‘zgarishi yoki yo‘qolishi mumkin. Bunday hollarda, ayrim odamlar yoki guruhlar o‘z manfaatlarini, jamiyatning umumiy manfaatlariga qarshi qo‘yishi ehtimoli oshadi.

Shu bilan birga, falsafiy fanlarga befarqlik global miqyosda ham ijobiy o‘zgarishlarga to‘sqinlik qiladi. Falsafaning insoniyatni birlashtiruvchi kuchi mavjud. Falsafa, insonning barchasini birlashtiradigan qadriyatlarni, axloqiy tamoyillarni va erkinlikni ilgari suradi. Falsafaning ahamiyatini inkor etish, madaniy farqlarni va nizolarni kuchaytirishi mumkin, chunki insonlar o‘rtasida umumiy tushunchalar, qadriyatlar va tamoyillar o‘rnatilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, falsafaga befarqlik nafaqat shaxsiy darajada, balki jamiyat va butun insoniyat darajasida salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Falsafiy tafakkur, nafaqat bilishga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytiradi, balki jamiyatni yaxshilash, adolatni ta‘minlash va insoniyatning umumiy ravnaqiga hissa qo‘shish uchun zarur bo‘lgan asoslardir. Shunday ekan,

falsafiy fanlarga befarqlik – bu nafaqat bilim va tafakkur, balki axloqiy, madaniy va siyosiy izlanishlarning zaiflashuvi demakdir.

Muhokama. Yuqoridan fikrlardan falsafiy tafakkurini shakllantirish ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi, bu nafaqat o'quvchilarga ilmiy bilimlar, balki hayotga, jamiyatga, insoniyatga nisbatan chuqur va tanqidiy qarashni ham o'rgatadi. Falsafiy tafakkur — bu dunyoni tahlil qilish, undagi o'zgarishlarni tushunish, mantiqiy fikrlash, axloqiy qadriyatlarni qadrlash, shuningdek, inson hayotining maqsad va mazmunini anglashni o'z ichiga oladi. Falsafiy tafakkur, shuningdek, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni idrok etish, jamiyatdagi turli muammolarga intellektual yondashuvni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Falsafiy tafakkur talabalarga nafaqat aniq fanlar bo'yicha bilim berish, balki umumiy mantiqiy fikrlashni, muammolarni keng nuqtai nazardan ko'rishni va xulosa chiqarishni o'rgatadi. Falsafiy tafakkur, o'z navbatida, talabalarni faol fikr yuritish, qaror qabul qilishda yanada chuqurroq tahliliy yondashuvga, fikrlarning asosli va izchil bo'lishiga o'rgatadi.

Falsafiy tafakkur, talabalarni faqat o'zining kichik dunyosida emas, balki global miqyosda ham fikrlashga undaydi. Falsafaning asosiy tamoyillari, masalan, inson huquqlari, erkinlik, adolat, etik qadriyatlar, tarixiy va madaniy farqliliklar kabi masalalar talabalarda keng dunyoqarashni rivojlantiradi. Bu talabalarni jamiyatdagi muammolarni, xususan, ijtimoiy adolatsizlik, ekologik inqiroz, global isish kabi masalalarni ongli ravishda anglashga yordam beradi.

Falsafa, ayniqsa axloqiy tamoyillarni o'rgatish orqali talabalarni yuksak ma'naviy qadriyatlar va insonparvarlik g'oyalari bilan tanishtiradi. Talabalar o'z qarorlarini faqat ilmiy, balki axloqiy jihatdan ham to'g'ri qabul qilishni o'rganadilar. Bu, o'z navbatida, ularning shaxsiy hayotida, jamiyatda va professional faoliyatda to'g'ri va mas'uliyatli qarorlar qabul qilishlariga yordam beradi.

Falsafiy tafakkur talabalarda jamiyatdagi o'z o'rnini anglash va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishni kuchaytiradi. Falsafa orqali talaba nafaqat o'zining huquqlari, balki jamiyat oldidagi burchlari va mas'uliyatlarini ham anglaydi. Bu, o'z navbatida, yosh avlodni ijtimoiy jihatdan faollashtiradi, ular jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etishga tayyorlanadi.

Falsafiy tafakkur, talabalarning kreativ va innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ham katta hissa qo'shadi. Falsafa turli qarashlarni tahlil qilish, an'anaviy fikrlar bilan tanishish, yangi g'oyalar va yondashuvlarni qabul qilishga undaydi. Bu, ayniqsa, ilmiy va texnologik yangiliklar yaratishda, yangicha yondashuvlarni taklif etishda foydalidir.

Falsafiy tafakkur talabalarni ilmiy izlanishlarga yo'naltirish bilan birga, jamiyatning taraqqiyotiga hissa qo'shishga tayyorlaydi. Falsafa, tarixiy va ijtimoiy tajriba asosida, hayotdagi turli murakkabliklarni va qarama-qarshiliklarni tushunishga yordam beradi. Bu nafaqat ilmiy faoliyatda, balki jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarga bilimli yondashuvni shakllantiradi[1,45].

Talabalarda falsafiy tafakkurni tashkil etish, nafaqat ilmiy bilimlarni oshirish, balki ularning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va keng dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Falsafiy tafakkur talabalarga faqat axloqiy va mantiqiy masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda yordam berib qolmay, balki ularni jamiyatda faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllantiradi. Shu sababli, ta'lim tizimida falsafiy tafakkurni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Falsafa fani talabalar

orasida qiziqish va motivatsiyani oshirish uchun bir qator mexanizmlar va metodlarni qo'llash mumkin. Bu metodlar talabalarni falsafani nafaqat nazariy bilim sifatida, balki hayotda qanday qo'llanilishini anglashga yo'naltiradi. Quyida ba'zi mexanizmlar keltirilgan:

Falsafa ko'plab talabalar uchun noaniq yoki uzoq, murakkab ilm sifatida ko'rinishi mumkin. Shuning uchun falsafaning kundalik hayot bilan bog'lanishini ko'rsatish muhim. Masalan, axloqiy dilemmalar, siyosiy masalalar, ekologik muammolar va insonning mavjudlik masalalari haqida gapirish talabalarni qiziqtirishi mumkin. Falsafa bo'yicha faqat nazariy ma'lumotlar berishdan ko'ra, interaktiv metodlar, ya'ni talabalarga munozara va bahslarni tashkil qilish, turli falsafiy savollarni guruhlarda muhokama qilish talabalar qiziqishini oshiradi. Bu jarayon o'z fikrini ifoda etish va boshqalarning fikrlarini eshitish imkoniyatini yaratadi. Falsafiy mavzularni o'rgatishda film va adabiyotlarni qo'llash yaxshi metod bo'lishi mumkin. Misol uchun, "Matrix", "Inception" yoki "The Truman Show" kabi filmlar mavjudlik va haqiqatning falsafiy masalalarini ko'rsatadi. Bu filmlar talabalarda falsafiy savollarni tug'diradi va ularni yanada chuqurroq o'rganishga undaydi.

Falsafiy tarixdagi katta shaxslar, masalan, Sokrat, Platon, Aristotel, Kant, Nietzsche va boshqalar haqida ma'lumotlar berish va ularning o'z zamonasida qanday muammolarga javob izlaganini tushuntirish talabalarni qiziqtirishi mumkin. Shuningdek, zamonaviy falsafiy qarashlar va dunyoqarashlarni tahlil qilish talabalar uchun foydali va qiziqarli bo'ladi. Falsafiy metodlarni amaliyotga qo'llash ham muhim. Masalan, deduksiya, induksiya, tanqidiy fikrlash kabi usullarni talabalarga o'rgatish va ularni muammolarni hal qilishda ishlatishga undash. Falsafa o'rganilayotgan soha bo'lib, talabalarga qarorlar qabul qilishda yordam beradigan yondashuvlarni o'rgatadi[4,18].

Natijalar. Falsafaning boshqa fanlar, masalan, psixologiya, siyosatshunoslik, iqtisodiyot yoki san'at bilan qanday bog'lanishini ko'rsatish, talabalar uchun qiziqarli bo'lishi mumkin. Bunday integratsiya, falsafa fanining keng doiradagi muammolarga ta'sirini tushunishga yordam beradi. Talabalar uchun savol-javob sessiyalari tashkil qilish yoki ularga o'z savollarini berish imkoniyatini yaratish, fikrlarni ochiq tarzda muhokama qilish, falsafaga qiziqishni oshiradi. Ular nafaqat o'qituvchilardan, balki guruhdoshlaridan ham yangi g'oyalarni olishadi. Falsafaning murakkab konsepsiyalarini oddiy, tushunarli va ta'sirchan tarzda talabalarga taqdim etish zarur. Darslarni misollar, analogiyalar va vizual materiallar yordamida boyitish talabalar uchun juda samarali bo'lishi mumkin.

Falsafiy dilemmalar, masalan, "Tashabbus va erkinlik", "Axloqiy qarorlar", "Adolat" kabi mavzular orqali talabalarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yordam berish mumkin. Bu talabalarga falsafiy g'oyalarni tahlil qilishda va o'z pozitsiyalarini yaratishda foydali bo'ladi. Falsafaga bo'lgan qiziqishni oshirish uchun o'qituvchining yondashuvi ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining intellektual qiziqishi, shaxsiy motivatsiyasi va talabalar bilan yaqin aloqada bo'lishi talabalarda o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi[2,82].

Bu metodlar orqali falsafa talabalarga nafaqat ilmiy bilim, balki hayotiy tajriba va falsafiy qarashlarni shakllantirishda yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, falsafa talabalar uchun nafaqat ilmiy soha, balki dunyoqarashni shakllantiruvchi va hayotiy qarorlarni qabul qilishda yordam beruvchi bir jarayon sifatida qiziqarli bo'lishi kerak. Bu fanni o'rganishda talabalar shaxsiy va ijtimoiy masalalarga chuqurroq yondashuvni, tanqidiy fikrlashni va mantiqiy tahlilni rivojlantiradilar.

Falsafaning ahamiyatini talabalar uchun ochib berish, uni ularning kundalik hayoti va zamonaviy muammolari bilan bog'lash orqali o'rganish yanada samarali bo'ladi.

Talabalarni falsafaga qiziqtirish uchun o'qituvchi darslarni interaktiv, amaliy va zamonaviy uslublar orqali olib borishi, talabalarning o'z fikrini ifoda etish imkoniyatlarini yaratishi, shuningdek, falsafiy konsepsiyalarni real hayotdagi misollar bilan bog'lash zarur. Falsafa fani shunchaki ilmiy tushunchalar to'plami emas, balki insonning ichki va tashqi dunyosi haqida chuqurroq fikrlashni rivojlantirishga yordam beradigan kuchli vositadir.

Shu bilan birga, talabalarni falsafaga qiziqtirishda ularning ijodiy va intellektual potensialini ochib berish muhimdir. Buning uchun savol-javoblar, munozaralar, filmlar va adabiyotlar kabi metodlar orqali talabalarda fikrlashning yangi ufqlarini ochish zarur. Falsafa faniga qiziqish faqat bilim olish bilan cheklanmaydi, balki insonni o'zi va atrofidagi dunyo haqida chuqurroq o'ylashga undaydi, bu esa uning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, falsafani talabalar uchun qiziqarli, motivatsiyali va amaliy tarzda taqdim etish, ularning o'z hayotlari va qarorlariga yanada ongli yondashuvni shakllantiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Akademik M.M.Xayrullaevning ilmiy me'rosi va falsafa fanlarining dolzarb masalalari mavzusida ilmiy-nazariy seminar materiallari. –T.: 1-kitob, O'zR FA Falsafa va huquq instituti, 2011.
2. N.Jo'rayev. "Taxayyul, tasavvur, tafakkur". 193-bet, T., "Yangi asr avlodi", 2015-yil.
3. Ruzmatova G, Karimov R, "Falsafa tarixi: Eng yangi davr g'arb falsafasi", 81-bet, T., "Universitet", 2017.
4. "Emergence of the history of Chinese philosophy", Comparative Approaches to Chinese Philosophy. Cua, Anthony S.
5. D.Rutherford (ed.), The Cambridge Companion to Early Modern Philosophy (Cambridge UP, 2006)

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

RELATIONSHIPS OF MAN AND SOCIETY: BALANCE AND DEVELOPMENT

Shaidullayev Normuhammad,

Associate Professor of the Department of Social Sciences
Namangan Engineering Construction Institute

Abstract. The article is devoted to the topic "Interactions between man and society: balance and development" and analyzes the complex relations between man and society. Man is an integral part of society and directly participates in its social, economic and cultural development. However, for the stable and successful development of society, it is very important to maintain a balance between the interactions between people and the structures of society. The article examines how the loss of balance can lead to social, moral, and political problems in society, as well as how the development process is related to social changes, technological innovations, and political decisions. The role of man in society and its influence, at the same time, the factors affecting the sustainable development of society are analyzed. The article aims to understand the interaction between man and society and develop recommendations that will help to develop these processes in a balanced way in the future.

Key words: man and society, interactions, balance, development, social changes, cultural development, economic development, stability, justice and equality, social structures, social problems.

INSON VA JAMIYAT O'ZARO ALOQALARI: MUVOZANAT VA RIVOJLANISH

Shaydullayev Normuhammad,

Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti
Namangan muhandislik qurilish instituti

Annotatsiya. Maqola "Inson va jamiyatning o'zaro aloqalari: Muvozanat va rivojlanish" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, inson va jamiyat o'rtasidagi kompleks aloqalarni tahlil qiladi. Inson jamiyatning ajralmas bir qismi bo'lib, uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida bevosita ishtirok etadi. Biroq, jamiyatning barqaror va muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va jamiyatning strukturalari orasidagi muvozanatni ta'minlash juda muhimdir. Maqolada muvozanatning yo'qolishi jamiyatda qanday ijtimoiy, axloqiy va siyosiy muammolarga olib kelishi mumkinligi, shuningdek, rivojlanish jarayonining ijtimoiy o'zgarishlar, texnologik yangiliklar va siyosiy qarorlar bilan bog'liqligi ko'rib chiqiladi. Insonning jamiyatdagi roli va uning ta'siri, shu bilan birga, jamiyatning barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil etiladi. Maqola inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tushunishga va bu jarayonlarni kelajakda muvozanatli rivojlantirishga yordam beradigan tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: inson va jamiyat, o'zaro aloqalar, muvozanat, rivojlanish, ijtimoiy o'zgarishlar, madaniy rivojlanish, iqtisodiy rivojlanish, barqarorlik, adolat va tenglik, jamiyat strukturalari, ijtimoiy muammolar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N31>

Kirish. Inson va jamiyat o'rtasidagi aloqalar doimo murakkab va o'zgaruvchan jarayonlardir. Inson jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, uning faoliyatini, madaniyatini va qadriyatlarini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. Shu bilan birga, jamiyat ham insonning ijtimoiy, psixologik va ma'naviy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zaro ta'sir va aloqalar

jamiyatning tashkil topishida, uning tarixi davomida yuzaga kelgan me'yorlar, qadriyatlar va institutlar bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muvozanatning ta'minlanishi juda muhimdir. Insonlar va jamiyat o'rtasida doimiy muvozanat o'rnatish, bir-birining ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olish, jamiyatda adolat, tenglik va o'zaro hurmatni ta'minlashga olib keladi. Jamiyatdagi o'zgarishlar, texnologik rivojlanish, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, shuningdek, insonlarning ijtimoiy roli va burchlarini qanday bajarishi, jamiyatning kelajagini belgilaydi.

Muvozanatning yo'qolishi, ya'ni insonlarning jamiyatga bo'lgan munosabatlarida disbalans yuzaga kelishi, ijtimoiy tartibsizliklarga, axloqiy krizislarga va rivojlanishning to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, jamiyatda muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanish uchun insonning rolini to'g'ri tushunish va uning jamiyatga ta'sirini yaxshilash zarur.

Ushbu maqolada inson va jamiyatning o'zaro aloqalari, bu aloqalarning jamiyatda muvozanat va barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi o'rni, shuningdek, bu jarayondagi potensial to'siqlar va ularga qarshi kurashish yo'llari tahlil etiladi. Muvozanatning ahamiyati va rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini o'rganish orqali, biz jamiyat va inson o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yaxshiroq tushunishga harakat qilamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Inson va jamiyat o'rtasidagi aloqalar haqidagi adabiyotlar keng spektrni qamrab oladi – jamiyatshunoslik, falsafa, ijtimoiy psixologiya, siyosatshunoslik va boshqa sohalarda yozilgan asarlarda muvozanat va rivojlanishning turli tomonlari yoritilgan.

Emil Durkheim o'zining "Ijtimoiy bo'linish" (1893) asarida ijtimoiy integratsiyaning va o'zaro bog'liqlikning ahamiyatini ta'kidlagan. Uning "Ijtimoiy bo'linish" asari jamiyatda ishlayotgan bo'linmalar va institutlarning o'zaro aloqalari orqali muvozanatning qanday saqlanishi kerakligini tushuntiradi. Durkheim, jamiyatning barqarorligini jamiyatdagi an'anaviy me'yorlar va qadriyatlar bilan bog'laydi, hamda jamiyatda "normativ" muvozanatni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Jamiyatda ijtimoiy tartibni va barqarorlikni saqlash uchun har bir individning o'z roli va majburiyatlarini to'g'ri bajarishi muhimdir[1,43].

Karl Marksning "Kapital" (1867) asarida inson va jamiyat o'rtasidagi aloqalar iqtisodiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. U jamiyatdagi sinflar o'rtasidagi ziddiyatlar va bu ziddiyatlarning jamiyatdagi rivojlanishga ta'sirini tahlil qiladi. Marksning g'oyalariga ko'ra, jamiyatda mavjud iqtisodiy bo'linmalar va ishlab chiqarish munosabatlari rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Insonlar va jamiyat o'rtasidagi aloqalar iqtisodiy va sinfiy jihatdan ta'sirlanadi. Muvozanat esa, faqat iqtisodiy tizimdagi o'zgarishlar bilan emas, balki insonlarning ijtimoiy va siyosiy roli bilan ham chambarchas bog'liqdir[2,61].

Maks Weber "Ijtimoiy amaliyot va iqtisodiy xulq-atvor" asarida (1905) jamiyat va inson o'rtasidagi aloqalarni faqat iqtisodiy va materialistik jihatlardan emas, balki diniy, madaniy va siyosiy omillar nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqadi. Weber jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi va uning axloqiy qadriyatlar bilan qanday bog'lanishini tahlil qiladi. Weberning fikriga ko'ra, iqtisodiy rivojlanish jamiyatdagi ijtimoiy strukturalar, diniy qadriyatlar va insonning axloqiy amaliyotlari bilan bog'liq. Bu o'zaro aloqalar jamiyatdagi muvozanatni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi[3,11].

Friedrich Hayek "Erkin jamiyat" asarida, jamiyatda erkinlik, bozor iqtisodiyoti va davlatning roli haqida fikr yuritadi. Hayekning asosiy g'oyalaridan biri shundaki, erkin jamiyatda bozor tizimi orqali muvozanat va rivojlanish ta'minlanadi. Insonning erkinligi va

jamiyatning rivojlanishi, bozor aloqalaridagi o'zaro ta'sirga bog'liq. Jamiyatdagi erkinlik va iqtisodiy yangilanishlar o'zaro uyg'un bo'lsa, rivojlanish va muvozanatga erishish mumkin.

Inson va jamiyat o'rtasidagi aloqalar va ularning muvozanati rivojlanishning markaziy omillaridan biridir. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyatda barqaror rivojlanish uchun ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy omillar o'rtasidagi muvozanatni saqlash juda muhimdir. Durkheim, Marks, Veber, Hayek va Sen kabi olimlar, jamiyatni rivojlantirish va barqaror muvozanatni ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'zgarishlar va xususiyatlarni o'z asarlarida turlicha yondashuvlar orqali tahlil qilganlar. Bularning barchasi, insonning jamiyatdagi roli va jamiyatning rivojlanishiga ta'sirini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Muhokama. Inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik tarixan har doim bir-birini shakllantirgan va bir-biriga ta'sir etgan ikki muhim omil bo'lib kelgan. Jamiyat insonni rivojlantiradi, uning ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradi, lekin shu bilan birga inson ham jamiyatni shakllantiradi va uning qadriyatlarini, madaniyatini, iqtisodiyotini, siyosatini ta'sir qiladi. Bu o'zaro bog'liqlik har bir ijtimoiy tuzumda, xususan, har bir millat va madaniyatda o'ziga xos tarzda ifodalanadi.

Insonning jamiyatga ta'siri juda katta. Har bir inson jamiyatda o'zining kichik bir roli orqali katta o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, uning qonunlari, axloqiy qadriyatlari, an'analar va madaniyati insonlar tomonidan belgilab olinadi va vaqt o'tishi bilan o'zgartiriladi. Ijtimoiy o'zgarishlar, yangi ijtimoiy guruhlarning paydo bo'lishi yoki eski qadriyatlarning yangilanishi — bularning barchasi insonlar orasidagi o'zaro aloqalar orqali amalga oshadi.

Boshqa tomondan, jamiyatning insonga ta'siri ham juda kuchlidir. Har bir inson jamiyatdagi o'z o'rnini topishda uning ijtimoiy tuzilmalari, normativlar, qonunlar va madaniy qadriyatlaridan ta'sirlanadi. Insonning rivojlanishi, dunyoqarashi va axloqiy qarashlari ko'pincha jamiyatning ta'lim tizimi, diniy qarashlari, tarixiy merosi va ijtimoiy tajribalariga bog'liq bo'ladi. Jamiyat insonni o'z qoidalari va me'yorlari bilan cheklaydi, lekin shu bilan birga, inson o'z ijtimoiy muhitida o'zining shaxsiy xususiyatlarini rivojlantiradi.

Ijtimoiy institutlar — oila, maktab, ish joyi, hukumat, diniy va siyosiy tashkilotlar — jamiyatning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi va ular insonni ijtimoiy hayotga integratsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu institutlar insonni jamiyatning o'ziga xos talablariga moslashtirish, unga jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradi. Masalan, oila odamning birinchi ijtimoiy tajribasini beradi, maktab esa uni kengroq ijtimoiy tizimga kirishga tayyorlaydi. Ish joylari va hukumat esa insonni iqtisodiy va siyosiy tizimga o'rgatadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy institutlar insonning jamiyatdagi o'z o'rnini belgilashda katta ahamiyatga ega. Misol uchun, ijtimoiy mavqe, kasb, jinsi va etnik kelib chiqishi shaxsning jamiyatdagi mavqeyi va imkoniyatlarini belgilashda katta rol o'ynaydi.

Jamiyat doimiy ravishda o'zgarib boradi. Texnologik, iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar jamiyatni shakllantiradi va insonlarning hayot tarzini belgilaydi. XXI asrda texnologiyalar, masalan, internet va sun'iy intellektning rivojlanishi, jamiyatda yangi ijtimoiy tarmoqlar va ish joylarini yaratmoqda. Bu holat insonlarning ish faoliyati, ta'lim olish usullari, va ijtimoiy aloqalari shaklini o'zgartirmoqda.

Natijalar. Jamiyatning o'zgarishi bilan birga, insonlar ham o'zgarishga majbur bo'lishadi. Yangi sharoitlarga moslashish, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish zaruriyati jamiyatdagi har bir kishiga o'zgarishlar bilan birga yashashni o'rgatadi.

Inson va jamiyatning o'zaro aloqadorligi to'liq va o'zgaruvchan jarayon bo'lib, ular bir-birini shakllantiradi va rivojlantiradi. Jamiyat insonni o'zining qadriyatlarini, me'yorlari va institutlari bilan bog'lab turadi, inson esa o'z faoliyati va ijtimoiy aloqalari orqali jamiyatni o'zgartiradi. Bu o'zaro ta'sir inson va jamiyatning kelajagini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. O'zgaruvchan dunyoda ushbu o'zaro bog'liqlikni to'g'ri tushunish va unga moslashish jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhimdir.

Inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar murakkab, ko'p qirrali va doimiy ravishda o'zgarib turadigan jarayonlardir. Jamiyat o'zining ijtimoiy tuzilmalari, qadriyatlarini va me'yorlari bilan insonga asosiy yo'nalishlarni belgilab beradi, shu bilan birga insonlar o'z harakatlari va qarorlar orqali jamiyatni rivojlantirishga yoki o'zgartirishga ta'sir o'tkazadi. Bu o'zaro aloqalar orasidagi muvozanat va o'zgarishlar jamiyatning barqarorligini, dinamikasini va rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Insonning ijtimoiy tizimga kirishishi va unga moslashishi jarayonida muvozanatni saqlash muhimdir. Jamiyatning normal ishlashini ta'minlash uchun uning institutlari (oilalar, ta'lim, hukumat va boshqalar) insonga o'z o'rnini to'g'ri topishga yordam berishi kerak. Biroq, jamiyatdagi me'yorlar va qoidalarga haddan tashqari qattiq yopishib qolish yoki ulardan to'liq voz kechish ham jamiyatning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda doimiy ravishda muvozanatni izlash zarur.

Inson va jamiyatning o'zaro aloqalari rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Jamiyatning iqtisodiy, madaniy, siyosiy va ijtimoiy tizimlari yangilanib borishi kerak, bu esa insonning o'zgaruvchan ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Jamiyatni rivojlantirishda texnologik yutuqlar, ta'lim tizimining modernizatsiyasi, ijtimoiy tenglikka erishish va barqaror iqtisodiy o'sish kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ijtimoiy o'zgarishlar va yangi ijtimoiy shakllarning paydo bo'lishi jamiyatni yanada ilg'or qilishda insonga asoslangan faoliyatlarni rag'batlantiradi.

Biroq rivojlanish jarayoni faqat tashqi o'zgarishlarga qaratilgan bo'lmasligi kerak. Jamiyatning madaniy va axloqiy asoslari ham rivojlanishning ajralmas qismi bo'lib, insonning ijtimoiy maqsadlari va qadriyatlarini jamiyatning umumiy maqsadlari bilan uyg'un bo'lishi zarur. Jamiyatning axloqiy qadriyatlarini, adolat, tenglik va erkinlik kabi prinsiplar insonning yuksalishiga xizmat qiladi va jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi.

Xulosa. Inson va jamiyat o'rtasidagi aloqalar uzviy va o'zaro bog'liq bo'lib, ular bir-birini shakllantiradi va rivojlantiradi. Har ikki tomonning ehtiyojlari va maqsadlari muvozanatda bo'lishi kerak, chunki bu ijtimoiy tizimning barqarorligi va rivojlanishini ta'minlaydi. Jamiyatda har qanday ijtimoiy o'zgarish yoki rivojlanish insonning shaxsiy, ijtimoiy va axloqiy yuksalishiga bog'liq bo'lganidek, insonning o'zgarishi va rivojlanishi ham jamiyatni yangi bosqichga olib chiqadi. Shu sababli, inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar va muvozanatni saqlash, ayniqsa o'zgaruvchan zamonlarda, ijtimoiy rivojlanishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishining asosi bo'ladi.

Inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar nafaqat ijtimoiy tizimning asosiy poydevorini tashkil etadi, balki uning barqarorligi va rivojlanishining ta'minlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Muvozanat va rivojlanishning uyg'unligi jamiyatni ilg'or va mustahkam qilishda katta ahamiyatga ega. Jamiyatning barqaror ishlashini ta'minlash uchun, uning institutsional va ijtimoiy tuzilmalarining moslashuvchanligi va insonlarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga javob bera olish qobiliyati zarur.

Rivojlanish esa faqat tashqi iqtisodiy yoki texnologik yutuqlarda emas, balki jamiyatning madaniy, axloqiy va siyosiy jihatlarida ham amalga oshirilishi kerak. Ijtimoiy adolat, tenglik, erkinlik kabi qadriyatlar asosida qurilgan jamiyatda insonning har bir yangi bosqichdagi rivoji nafaqat uning o'ziga, balki jamiyatning umumiy farovonligiga xizmat qiladi. Jamiyatni doimiy ravishda yangilash, insonlarning shaxsiy erkinliklari va huquqlarini hurmat qilish, ularga imkoniyatlar yaratish rivojlanishning ajralmas qismidir.

Shunday qilib inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni to'g'ri tushunish va uni muvozanatli tarzda rivojlantirish, jamiyatning kelajagini barqaror qilish va ijtimoiy adolatni ta'minlashning eng muhim omili bo'ladi. Har ikki tomonning manfaatlari uyg'unlashgan va o'zaro ta'sirlar uyg'un bo'lganda, biz barqaror va rivojlangan jamiyatga erishamiz, bu esa har bir insonning imkoniyatlarini kengaytiradi va farovonligini oshiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Durkheim Emil. Sociology. Its subject, method and purpose. HISTORY OF SOCIOLOGY IN MONUMENTS. The series was founded in 1993. P. 67.
2. Razvodovsky Yu.E., Zotov P.B. Suicides and mortality from other poisonings: a comparative analysis of trends. Siberian Bulletin of Psychiatry and Narcology, 2019 2 (103): 47-54.
3. Gerth, H. H., Weber, M., & Mills, W. (2013). From Max Weber: essays in sociology. Routledge.
4. Xolmatov, S. (2023). FALSAFA FANINING JAMIYATDAGI O 'RNI. Journal of technical research and development, 1(3), 169-173.
5. Davronovich, D. Z., Lutfullaevich, S. B., & Umirzoq o'g'li, T. A. (2024). DUNYOQARASHNI SHAKLLANISHIDA FALSAFANING O 'RNI. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(2), 34-37.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE UNIQUE IDENTITY OF THE AESTHETIC CLICHÉ IN THE ARTISTIC AND LITERARY HERITAGE OF SHAROF RASHIDOV

Rajapboeva Khurshida Maksudovna,

Andijan State Medical Institute

Independent researcher of the Department of Social Humanities

Abstract. This article examines the prism of aesthetic clichés in the works of Sharof Rashidov, in particular, provides an analysis of the illumination of high aesthetic taste, deep philosophical world and continuous mood.

Key words: Sharof Rashidov, aesthetics, aesthetic cliché, beauty, sophistication, philosophical world.

ШАРОФ РАШИДОВ БАДИЙ-АДАБИЙ МЕРОСИДАГИ ЭСТЕТИК КЛИШЕНИНГ УНИКАЛ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

Раджапбоева Хуршида Мақсудовна,

Андижон давлат тиббиёт институти

Ижтимоий гуманитар фанлар кафедраси мустақил изланувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада Шароф Рашидов асарларида эстетик клишелар призмасига мурожаат қилиниб, хусусан, юқори эстетик дид, чуқур фалсафий олами англаш, давомий кайфиятни ёритилганлиги тўғрисида таҳлиллар берилган.

Калит сўзлар: Шароф Рашидов, эстетика, эстетик клише, гўзаллик, нафосат, фалсафий олам.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N32>

Кириш. Тарихий ривожланиш натижасида эстетик кечинмалар эстетик онгнинг турли хил ижтимоий жабҳаларини шакллантиради. Эстетик қадриятлар ва уларга баҳо берувчи эстетик дид ҳақида тушунчалар ва бадий ижоднинг мустақил концепциялари шаклланади (халқ ижоди, адабиёт, санъат, архитектура, дизайн, расм ва кино санъати ва х.к.). Инсониятнинг маънавий ва амалий фаолияти шаклида – эстетик идеал шаклланди, у ўз навбатида бадий ижод, жамият, инсон ва табиатнинг гуманистик моҳиятини белгилаб беради. Буларнинг барчаси уни, эстетик онгнинг мураккаб компоненти эканлигидан далолат беради. Инсон умрини нафосатсиз тасаввур этиб бўлмайди. Тонг отиш пайтидаги тиниқ сокинликдан иборат фэйзли бир манзара, баҳор табиатининг ўзига хос латофати-ю фарзанд чеҳрасидаги пок табассумдан тортиб то мумтоз эшитилаётган ёқимли мусиқа инсон қалбини тўлқинлантиради, унга завқ бахш этади.

Шароф Рашидовнинг “Кашмир қўшиғи”да берган клише образлари, осмонўпар тоғларнинг жамоли, гулзор ва боғларнинг, кўм-кўк водийнинг дилга ором ва ҳаяжон

бахш этадиган латофати ва нақадар гўзал манзаралари, китобхонда севинч ва ҳаяжон эстетик ҳиссиётлар кўламини кенгайтиради.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Ш.Рашидов бадиий меросида клише хусусида гап кетганда, Л.А.Зеленов ва Г.И.Куликовларнинг концепцияси концептуал аҳамиятга эгадир. Уларнинг фикрига кўра: «...«Эстетик фаолият тизимида 12 компонент ёки структурали тугунларни ажратиш мумкин, ва улар қуйидаги тушунчаларда акс этади: 1) эстетик объект – бу туғма табиий эстетик аҳамиятга эга воқеа-ҳодисалардир; 2) эстетик субъект – бу маънавий эстетик фаолиятни амалга оширишга қодир ва эҳтиёжманд инсон; 3) эстетик субъективизация жараёни – бу билиш шаклидаги, эстетик объектни баҳолай олиш шаклидаги ва маънавий эстетик ижод шаклидаги фаолият; 4) эстетик субъективизация маҳсули – бу эстетик онг шаклидаги маънавий эстетик фаолият натижалари умумий йиғиндиси; 5) ижодкор – бу эстетик субъект, у эстетик онгни эстетик асарларда гавдалантира олиш қобилияти ва эҳтиёжга эга; 6) эстетик объективация воситалари – бу эстетик онгни гавдалантириш мақсадида фойдаланиладиган табиий ва сунъий материал, қурол-аслаҳа ва тузилмалар; 7) эстетик объективация жараёни – бу эстетик онгни гавдалантиришдаги ижодкорнинг моддий эстетик фаолияти; 8) эстетик объективация маҳсули – бу ижодкор объектив фаолиятининг эстетик асарлар шаклидаги натижалари умумий йиғиндиси; 9) иккиламчи эстетик объект – бу жамият идроки кўламига киритилган эстетик асарлар; 10) иккиламчи эстетик субъект – бу ижодкорлар фаолияти маҳсулини идрок этиш, баҳо бериш қобилиятига эга жамият ва унинг аъзолари йиғиндиси; 11) иккиламчи эстетик субъективизация – бу эстетик асарларни ўзлаштиришга қаратилган маънавий-амалий эстетик фаолият; 12) иккиламчи эстетик субъективизация маҳсули – бу жамият томонидан ўзлаштиришга қаратилган эстетик асарларни мажмуаси»[1, 30-31]

Ҳар бир нарса инсоннинг маълум ижтимоий, миллий ва умумбашарий мақсад ва идеаллари нуқтаи назаридан баҳоланганида унинг эстетик фазилати намоён бўлади. Масалан, бирор гўзал манзарани кўрган рассом маълум эстетик идеалга суянгани учун ўша манзарани полотнода акс эттириш ва уни кишилар олдида намойиш қилиш иштиёқида бўлади. Агар шу манзарани акс эттиришнинг инсоният учун аҳамияти бўлмаганда, рассом учун ҳам унинг қиммати бўлмас эди. Чунки умуман одамзод табиати, айниқса, унинг эстетик кечинмалар оламининг ўзига хос хусусиятларидан бири шундан иборатки, киши бирор нарсдан қувонса, эстетик таъсирланса, шу кечинмаларини бировга етказиш, ўртоқлашиш, ана шу кайфиятнинг ўзгаларда ҳам такрорланишига иштиёқ сезади. Бу эса эстетик кечинманинг нақадар порлоқ, буюк ва олижаноб кечинма эканлигидан дарак беради. Кишининг барча олижаноб фазилати эса жамиятда ташкил топади, жамият учун хизмат қилади.

Ҳаёт гўзаллигини ҳис этиш, ундан завқ ола билиш керак. Гап бирор нарсанинг, предмет ёки ҳодисанинг кўпчиликка турлича таъсир этишида эмас, балки ана шу нарса ва ҳодисаларнинг турлича эстетик идрок этилишидадир. Шунга кўра, бир замонда кишиларга гўзал туюлган нарса бошқа шароитда, бошқа кишиларга ўзгача туюлади. Демак, ҳаётдаги объектив гўзалликни кўриш, билиш учун инсон маълум даражада инсоният тараққиёти тўплаган ижтимоий билимни ўзлаштириши керак.

Ана шу жараёнда майдонга эстетик акс эттиришда мураккаблик туғдирадиган клише эффекти келади. Инсон предмет ёки воқеликни эстетик диди билан акс эттирар

экан албатта ундан аввалги ижод намуналарига мурожаат қилади, ва шу ҳодиса унга асардаги ўзига хослик, оригиналликни англаб етишга, илғашга тўсиқ бўлиб қолиши мумкин.

Муҳокама. Клише эффекти аслида нима? Нима сабабдан биз, бировни кўрганимизда, “Сизни кўрганимдан хурсандман”, деймиз? Аслида, биз ҳақиқатдан у инсонни кўрганимиздан хурсандмизку.

Умумий баналлик ва максимал рационаллик кесишган чегарада клише нафақат эстетик категория, балки, этиканинг доирасига ҳам кириб кетади. Бирон нарсани клише деб аташ – бу нафақат эстетик тафаккур юритиш, балки, ахлоқ ҳукмини ҳам амалга оширишдир.

Французча cliché сўзи бизга нашриётдан кириб келган, аввалида у нашрларни қайта ишлаб чиқариш учун мўлжалланган металл ёки дарахтдан кесилган пластина маъносини англатган, кейинчалик эса, у, техникадан эстетикага кўчиб, салбий маънога эга, ўзининг оригиналликни йўқотган тасаввур ёки образ маъносига эга бўлди. Биз бадий асарда клишега дуч келар эканмиз, унга диққатни қаратмаймиз ва уни оддий клише сифатида қабул қиламиз, бу сохта “таниш” орқали биз унинг асл маъно ва мазмунини англагандек бўламиз гўё. Шунга қарамасдан, клишени “оддий клише” сифатида идрок этиш, унинг кейинчалик анализига салбий таъсир кўрсатади. Штамп, клише ва баналлик нафақат бир-бирига жуда яқин тушунчалардир, балки, улар гўзаллик тушунчаси каби жуда хиралашган.

Бугунги кундаги санъат, адабиёт, кинематографиядаги эстетик клишелар, инсонни, жанрларнинг аниқ схемасига туширишга қаратилган. Замоनावий санъат асарини кузатар эканмиз айнан шундай типик сюжетлар гувоҳи бўламиз. Ҳар қандай янги яратилган адабиёт ҳам аввал “клише”га солинади, чунки унинг айнан муваффақияти уни яратган ижодкорнинг моддий манфаати билан боғлиқ. Янги фильм яратилар экан, унинг сценарийси аввало томошабиннинг қизиқиш қутбига мослаштирилади. Типик сюжетдан доимо типиклик кутилади, оригиналликдан эса оригиналлик. Аммо, ҳар бир ижодкорнинг юксак орзуси доимо одамлар қалбидан ўчмас жой олган персонажни яратиш бўлиб қолади.

Ш.Рашидов ижодидаги эстетик тамойилларда шу келтириб ўтилган клишеларни биз ўзгача форматда кўрамиз. Улар аслида анъанавий, белгиланган сюжет кўринишида бўлса-да, ўзининг оригинал нафасини уфуриб туради. Бу ҳаётни ижодий асарлар мерос қилиб олмаган, аксинча, улар бизга маълум бир вазият ва воқеликка қандай реакция қилишни ўргатади. Биз, муҳаббат, рашк, инсонийлик, эзгулик, ваҳшийлик қандай кўринишда эканлигига ўрганганмиз, чунки улар маълум клишелар асосида бизнинг онгимизга сингдирилган. Шу белгиланган клишеларни чуқур билиб олсакгина биз, клишелар қаторидан оригинал ижод маҳсулини ажратиш оламиз. Даврлар, йиллар ўтган сайин одамзоднинг кўзи ўрганган клишелар ҳам эскириб боради. Ва табиийки ижод маҳсулининг эстетик қиймати ҳам пасайиб кетади. Шундай бешафқат вақт гирдобига тушиб кетган ижодкорларнинг кўпини биз бугун эсламаймиз ҳам. Аммо, қаҳрамонимизнинг эстетик тафаккури замонасидан анча илгарилаб кетганини, унинг образларидаги келтирилган эстетик клишелар бугунги кунда ҳам ўз қийматини, ўзига хослигини йўқотмаганини кўришимиз мумкин. Светлана Бойм сўзи билан айтганда, ҳар

қандай миллий ва тарихий баналлик ўзининг оригиналликка эга бўлиши мумкин, худди шундай ҳаёт прозаси ҳам ўзининг шеърятига эгадир[2,35].

Замонавий оммавий маданият адаптивлик ва универсалликка интилади, қайта ишлаб чиқариш даврида у, ноилож клише рельсларидан юришга мажбур. Агарда ижодий асарнинг эстетик жабҳаларини ўчмас клишелар билан муҳрлаш истаги бўлса, ушбу поезд вагонларига янги таркиб улаш кифоя бўлади. Шунда клише ҳам у қадар шаблон кўринишда бўлмайди ва сюжет ишлашни бошлайди. Токи ҳаётда одамзоднинг “бахт”, “муҳаббат”, “эзулик” ва х.к.лар каби сентиментал категорияларга эҳтиёжи бор экан, биз ноилож баналлик билан юзлашамиз. Аммо, айнан ана шу баналликни қай тарзда оммага тақдим этиш, ҳар бир ижодкорнинг эстетик тафаккурига боғлиқ бўлади.

Шуни қайд этиш керакки, умуман оламни билиш жараёни, хусусан эстетик идрок этиш ҳиссиёт ва ақлнинг ўзаро диалектик бирлигига асосланади. Ақлни тўлдирган нарса қалбни бўм-бўш ва бефарқ қолдирмайди. Қалбни ҳаяжонга келтирган ҳодисалар кишининг тафаккур доирасини ҳам кенгайтириб боради. Ш.Рашидов ижодида ана шундай умумий гўзаллик категорияси призмасида ўзига хос равишда маънавий гўзаллик улашишни кўриш мумкин.

Тўғри, масалан “Кашмир қўшиғи”ни олсак, юксак ҳислар, гўзаллик, муҳаббат, ёвузлик абстракт тушунчалар кўринишида келтирилган. Айтишимиз мумкин, фантастик воқелик ҳақиқий ва етук эстетик кечинмалар, ҳаяжонлар туғдирмаслиги мумкин. Лекин Ш.Рашидов қўллаган бадиий эстетик усуллар, унсурлар содир бўлган эстетик кечинманинг кучи ва даражасига бевосита объектни идрок этиб олиндиган таассуротдан анча фарқ қилган ҳолда таъсир этган. Бу ҳол инсон руҳий “мувозанати”нинг қанчалик ўзгарувчанлигини, эстетик завқнинг сифат ва характериға ижодкорнинг маҳорати қанчалик таъсир қилиши мумкинлигини кўрсатади. Шубҳасиз, Ш.Рашидов келтирган ҳаётнинг бевосита манзараси унинг клишеси бўлган айрим сўз-тушунчалардан кўра ранг-баранг, унинг инсонга таъсир этиш даражаси ҳам юксакдир.

Табиат ва жамиятдаги турли-туман нарсаларға инсон эстетик муносабатда бўлар экан, ҳеч қачон уларға бефарқ қарамайди. Инсон воқеликни эстетик идрок этиш пайтида ҳис-туйғуларға бурканмаса, кулмаса, изтироб чекмаса, қувонмаса, ачинмаса, бирон маънавий лаззат топмаса- бундай муносабат эстетик муносабат эмас[3, 89].

Натижалар. Ш.Рашидов ижоди маҳсулида эстетик кечинмалар кўп қиррали, инсоннинг жуда кўп фазилат, хусусият ва сезгиларининг уйғунлиги ва бирлиги асосида содир бўлади. Эстетик кечинманинг ўзига хос хусусиятларидан бири инсон бирор нарса ва ҳодисаларға эстетик муносабатда бўлиб, уни кузатиш, ўрганиш ва мушоҳада қилиш жараёнида кузатиш ва шахсий руҳий-ҳиссий фаоллик кайфияти биринчи ўринга чиқади. Шароф Рашидовнинг Ҳиндистонга қилган ташрифи, ва буюк ўлканинг жозибадор, ранг-баранг турланувчи табиати, кескин, баъзида мўтадил иқлими, чуқур фалсафий мушоҳадага суянган афсона ва халқ оғзаки ижоди намуналари, бу эртаксимон жозибадорлик билан йўғрилган гўшалари унинг эмоционал фаоллик кайфиятиға бурканишға ва эстетик кечинма палласини бошидан кечирганини кўрсатган. Бу ҳиссий кўтаринлик “Кашмир қўшиғи” асарини яратилишиға замин яратган. Асарда адибнинг эстетик кечинмалари хусусияти унинг мураккаб ва турланувчанлиги, ўз тизими доирасида зиддиятли бирликни ташкил этишида намоён бўлади. Қувонч ва қайғу, нафрат ва муҳаббатларнинг эстетик моҳияти вақт ва маконға қараб турлича намоён

бўлади. Табиат образлари орқали инсониятнинг азалий қадриятлари, эстетиканинг муайян тамойиллари уфуриб кетади. Эстетик кечинма, гарчи инсоннинг табиий сезгилари асосида содир бўлса-да, бу кечинма бевосита сезгилар устида бунёд этилган, табиий сезгиларнинг “инсонлаштирилган” кўринишидир. Масалан, санъат асарлари асосида пайдо бўладиган қўрқув, қувонч, бахтиёрлик, севги сингари туйғулар ҳаётдаги қўрқув, қувонч, бахтиёрлик ва севгидан фарқ қилади. Эстетик мазмун касб этган ҳис-туйғулар мураккаб кечинмалар сифатида чуқур таъсир қилиш хусусиятига эга бўлади.

Ана шу маънода Ш.Рашидов асарларидаги эстетик кечинмалар замирида инсоний меъёр ва ахлоқий юк катта аҳамият эгаллайди. Кашмир қўшиғининг клишеси ҳам бу эмоционал фаоллик, маънавий-руҳий кайфият инсон тасаввури ва фантазиясини ҳаракатга келтиришдир. Ҳаракатга келган тасаввур эса инсонни ижтимоий, маънавий қадриятлар оламига етаклайди. Ҳодисани эстетик идрок этган ҳолда унинг ижтимоий, тарихий, миллий ва инсоний аҳамияти идрок этилади. Бу нарса эстетик кечинманинг ўз моҳияти билан тарихий ва ижтимоий ҳодиса эканлигидан далолат беради.

Ижодкоримиз асарларидаги нарса ва ҳодисаларнинг шакл ва шамойили кишига эстетик таъсир этади, бу шакл ва шамойилларнинг кўркамлиги, уйғунлиги, мақсадга мувофиқлиги, таъсирчанлиги ва келишганлиги фикримиз далилидир. Шу ўринда асарларнинг уйғунлик, ритм, уйғунлик, мутаносиблик, яхлитлик эстетик шаклнинг дастлабки кўриниши сифатида кишида эстетик кечинма уйғотиш манбаи ҳисобланишини таъкидламай илож йўқ.

Хулоса. Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, адабиёт ва санъатда ҳар қандай улуг ғоя ҳам ўзининг муносиб, мутаносиб шаклий ифодасини, таъсирчанлигини топгандагина ўқувчи ва томошабинда ҳақиқий эстетик кечинма уйғотади. Акс ҳолда бадиий асар нурсиз ва маъносиз туюлади. Шароф Рашидов асарларида ана шу эстетик клишелар призмасига назар солсак, юқори эстетик дид, чуқур фалсафий оламни англаш, давомий кайфиятни кўришимиз мумкин.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Л.А.Зеленов, Г.И.Куликов. Методологические проблемы эстетики. Москва. «Высшая школа», 1982, 30-31 стр
2. Светлана Бойм. Общие места. Мифология повседневной жизни. Новое литературное обозрение. Москва. 2023 год.
3. Sharof Rashidov. Kashmir qo'shig'i. – T.: Niso poligraf, 2020. – B. 18.
4. O'roqova O.J. Sharq romantizmining estetikasi: vorisiylik. – T.: GRAND KONDOR PRINT, 2024. 185 b.
5. Болтабоев Ҳ. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 2-жилд. Ўрта асрлар Уйғониш даври (IV-VII) . / Ҳ. Болтабоев, М. Маҳмудов. – Т.: «MUMTOZ SO'Z», 2016. – 419.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

YUSUF KHOS KHAJIB'S WORK "QUTADGU BILIG" IS A QUESTION OF ETHICS

Abdullayeva Markhabo,

Under the Republican Spirituality and Enlightenment Center
Independent researcher of the Institute of Social and Spiritual Studies

Abstract. Yusuf Khos Hajib's work "Kutadgu bilig" ("Knowledge that leads to happiness") is an invaluable and rare example of medieval literature, spirituality, and history. Spiritual and moral issues of the medieval period are interpreted in the work. In the work, our writer, who has a deep knowledge of family life, lifestyle and education methods, gives a philosophical interpretation of these important moral problems in his own way. The importance of morality and manners in human life is revealed in the interpretation of artistic symbols and with the help of life examples.

Key words: Yusuf Khos Khajib, "Kutadgu Bilig", spirituality, morality, manners, education, philosophy, history, culture, science.

YUSUF XOS XOJIB "QUTADG'U BILIG" ASARIDA AXLOQ MASALASI

Abdullayeva Marhabo Uskinbayevna,

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi
Email: marhaboabdullayeva9@gmail.com

Annotatsiya. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Baxt-saodatga yo'llovchi bilim") asari o'rta asr adabiyoti, ma'naviyati, tarixining bebaho va nodir namunasi. Asarda o'rta asr davrning ma'naviy-axloqiy masalalari talqin qilingan. Asarda oilaviy hayot, turmush tarzi va tarbiya usullarini chuqur bilgan adibimiz mazkur muhim axloqiy muammolarini o'ziga xos tarzda falsafiy talqin qiladi. Inson hayotida axloq va odob nechog'liq muhimligi badiiy timsollar talqinida va hayotiy misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Yusuf xos Xojib, "Qutadg'u bilig", ma'naviyat, axloq, odob, tarbiya, falsafa, tarix, madaniyat, ilm-fan.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N33>

Kirish. Insoniyat tarixda nomlari qolgan buyuk siymolar juda ko'p. Ular o'zlarining eng ajoyib ijodiy faoliyati, ko'plab ilmiy, tarixiy, adabiy asarlari bilan zamondoshlarning hurmat va e'tiborini qozonishgan. Qolaversa, keyingi avlodlarning ham e'tiroflariga sazovor bo'lishgan. Ammo shunday ijodkorlar ham borki, ulardan bizgacha faqat birgina asar yetib kelgan xolos. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariy ("Devonu lug'ot it-turk"), Yusuf Xos Hoji ("Qutadg'u bilig"), Ahmad Yugnakiyning ("Hibat ul-haqoyiq") kabi allomalarning asarlaridir. Ularning uchalasi ham insoniyat tarixidagi Sharq Renessansi -Uyg'onish davrida yashagan aniqrog'i, o'sha ilk Renessansning ravnaqiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishgan insonlardir. Biz bu o'rinda Yusuf Xos Hojib haqida mulohaza yuritimiz.

Yusuf xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” asari turkiy xalqlar dunyosining umumiy nodir boyligi hisoblanadi va o‘n asrdan ortiq davr davomida o‘z dolzarbligini saqlab qolgan, o‘rta asrlarda turk dunyosidagina emas balki, butun Sharq xalqlari hayotidagi shoh kitob sifatida dovuq qozongan. Shu bois ham asar bir necha avlod turkologlari tomonidan muntazam ravishda o‘rganilib, tadqiq etib kelinmoqda. Biz hozir ko‘rib chiqmoqchi bo‘lgan mavzu ham aynan asarning ijtimoiy-ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarining ahamiyati haqida. “Qutadg‘u bilig” asari Yusuf Balosog‘uniy tomonidan yaratilgan, ayni paytda hamon o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, avlodlardan — avlodlarga axloq va tarbiya, bilim va fan, haqidagi chuqur mulohazalarni yetkazib kelayotgan turkiy madaniyatning ulkan yodgorligidir. “Qutadg‘u bilig” asarni o‘rganish, tadqiq etish, ularda mujassamlangan ma‘naviy imkoniyatlardan bugungi kun ma‘naviy-ma‘rifiy jarayonlarda foydalanish jamiyatimiz a‘zolarini, ayniqsa yoshlarni har tomonlama komil insonlar qilib tarbiyalashda ayricha ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tarixdan ma‘lumki, Yusuf Xos Xojib o‘rta asr insoniyat ma‘naviyati tarixida birinchilardan bo‘lib “komil inson” tushunchasini ko‘tarib chiqqan. U “komil inson”ni tugal bir “er kishi” deb atadi. Har tomonlama yetuk, ham ma‘nan, ham jismonan sog‘lom shaxs adibimiz orzusidagi komil inson bo‘lgan. Jismonan sog‘lomlik nima buni hammamiz yaxshi bilamiz lekin, ma‘naviy sog‘lomlik shoirimiz nazdida yetuk axloqli va ma‘rifatli kishi komil inson darajasiga faqat va faqat bilim saodati tufayligina yo‘l ochiladi va shu orqali inson ma‘naviy komillikka erishadi deb tushuntiradi. Yusuf Xos Xojib bu haqida shunday yozadi:

Kishi ikki narsa tufayli qarimaydi,
Biri-ezgu xulq, biri-ezgu so‘zi.
Mendan senga kumush oltin qolsa,
Ularni sen bu so‘zga teng tutmagan![1, 31]

Yusuf Xos Xojib “Qutadg‘u bilig” asari orqali o‘z tasavvurida eng komil, jamiyatning o‘sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday ko‘rgan bo‘lsa, shu asosda u o‘z his-tuyg‘ularini bayon etadi. Mana shunday axloqiy masalalardan biri oila va farzand tarbiyasi masalasidir.

Muhokama. Adibimiz asarda umuminsoniy axloqiy me‘yorga ayniqsa, Sharq etikasi juda katta ahamiyat berib kelgan. Sharq xalqlarining eng ulug‘ an‘anasini, oilaviy hayotini, turmush tarzi va tarbiya usullarini chuqur bilgan adibimiz mazkur muhim axloqiy muammolarini o‘ziga xos tarzda falsafiy talqin qiladi. Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak deb, bu borada asrning bir qancha bo‘lim va boblarida to‘xtalib o‘tadi.

Shoirimiz Yusuf Xos Xojib asarda aynan axloq va odob bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lim va boblar jumladan: “So‘zlamoq yaxshiroqmi yoki so‘zlamay jim turmoq ekanligini aytdi”, “O‘g‘il-qiz tug‘ilsa, ularni qanday tarbiyalashni aytdi”, “O‘gdulmish ovqatga taklif qilmoq, ovqatga (ya‘ni mehmondorchilikka) bormoqlik qoidalarini o‘rgatadi”, “O‘gdulmish O‘zg‘urmishga ziyofatga taklif qilmoqlik qoidasini o‘rgatadi”, “Kim oldin salom bersin”, “To‘g‘rilikka – to‘g‘rilik, odamgarchilikka odamgarchilik qilmoqligini aytdi”, “Zamona buzuqligini, do‘stlar jafosini aytdi” kabi mavzuda so‘z va mulohazalar yuritadi. Bu borada adibimizning quyidagi gaplari insonning axloq va odobi uning umr kamolotiga ham ta‘sir qilishini uqtiradi: Agar solih farzand tug‘ilib, uning yaxshi inson qilib tarbiya qilmoqchi bo‘lsang, deydi adibimiz:

O‘g‘il – qiz kichikligida nimani o‘rgansa,

To qarib o'lmaguncha unutmaydi[1, 51].

Bu nima degan? Yoshlikda o'rgangan barcha yaxshi narsalar, yaxshi tarbiya, namunali xalq –atvor, yoshlikda egallangan bilimlar toshga o'yilgan naqsh kabi bo'ladi deya uqtirmoqchi. Asarning "O'g'il-qiz tug'ilsa..." deb nomlangan bobi mavjud bo'lib, ushbu joyida agar oilada farzand tug'ilsa, uni qanday tarbiya qilmoq kerak? degan savolga adibimiz shunday javob beradi:

O'g'il-qiz tug'ilsa, yaxshi bilki, bas,
 Uyda tarbiya qil, boshqa joydamas.
 Ustozning yaxshisin tanla albatta,
 O'g'il-qiz pok o'sar, yomondan chetda.
 O'g'il-qizga o'rgat bilim ham odob,
 Baxtga yor bo'lar u, bo'lmagay xarob.
 O'g'ilga xotin ol, qizni erga ber,
 Qayg'u g'amsiz yana, ayo qutli er.
 O'g'il topsin san'at- hunarda kamol,
 Bu hunar bilan u topa berar mol,
 O'g'ilni tergap tur: bo'sh qo'yima zinhor,
 Benaf, bebosh bo'lar, yugurar bekor[2, 97].

Natijalar. Demak, har bir yaxshi fazilat yoshligidan to'g'ri singdirilsa va amalda to'g'ri ko'rsatib berilsa bu narsalar inson to umrining oxirigacha unutilmasligini, bundan X asr oldin aytib isbot qilib bergan. Bu so'zlarning isboti sifatida mutafakkirni yana bir jumlasini eslamay o'tmaslikning iloji yo'q. Asarning "Kim oldin salom bersin?" deb nomlangan bobida shunday jumlar mavjud.

"Elig O'gdulmishga yuzlanib shunday deydi:

Bilarsanki, salom fazli ko'p ulug',
 Oldin salom degan yo'l ochar to'liq.
 Meni ko'rding, ammo salom qilmading,
 Nega bu kalomni lozim bilmading?
 O'zg'urmish javob berdi:

-Senga ataylab salom bermadim. To'g'ri, salom berish kishiga sog'lik, salomatlik tilashdir. Salom – sog'liqqa asos. U kishiga eminlik, omonlikdir. Quyidagi so'zlar juda yarashiq tarzda aytilgan. Unga quloq ber:

Omon berdi erga salom berguvchi,
 Salomatlik topdi alik oluvchi.
 Salom bo'ldi odam tinchiga garov,
 Sog'liq olar salom bilan qoluvchi[3, 110].

Salomlashish qoidasida ulug'lar kichikka salom berishsa, yetuk ish bo'ladi. Kichiklar kamtarlik yo'lini tutib, ulug'lar so'zini olsa, o'zini ulug'lik sari eltadi - deb javob beradi[3, 111]. Elig, O'gdulmish va O'zg'urmish o'rtasidagi ushbu savol javobdan ko'rinadiki, odob- axloq boshi bu salom kalimasidir. Uni avvalo yoshi kattalar bermog'i va kichiklar esa bundan ibrat olmog'i muhimligini o'rgatadi. Asarda bu kabi ibratli suhbat va voqealarga ko'plab guvoh bo'lishimiz mumkin.

"Qutadg'u bilig" asarida ma'naviy barkamol o'g'il-qizlar tarbiyasi, axloq – odob, halollik, kishining ulug' xislatlari, chin insoniylik, komil inson haqidagi teran falsafiy qarashlari,

kishining ma'naviy-ma'rifiy dunyosi badiiy qahramonlar obrazi shaklda bayon etilgan. Ulug' mutafakkirning falsafasi o'rta asrlardagi Sharq falsafiy dunyoqarashlarining eng yuqori cho'qqisida turadi.

“Qutadg'u bilig” axloqiy-ta'limiy yo'nalishga ega bo'lib, unda kishilar o'rtasidagi muomala-munosabat madaniyatining eng oddiy ko'rinishidan eng yuksak insoniy fazilatlari haqida fikr yuritiladi. Asarning bir necha bobi axloq va odob masalalariga bag'ishlangan. “Til ardami” (Til odobi) nomli 7-bobi ham mana shular jumlasidandir. Unda shoir tilning, ya'ni muloqot, so'zlashuv fazilatlari va qusurlari haqida so'z yuritilgan. Til bilan inson ro'shnolikka chiqadi va aksincha, juda ko'p so'zlash esa inson uchun ziynat emasligi uqtiriladi. Ilohiy ne'mat bo'lgan so'zni har bir inson qadrlamog'i kerak. “Qutadg'u bilig” asaring “Tilingni avayla omondur boshing” yoki “So'zlamog' yaxshiroqmi yoki so'zlamay jim turmog' ekanligini aytdi” deb nom olgan qismida Elig Oyto'ldi o'rtasidagi suhbat mazmuni shunday yoritiladi.

- Oyto'ldi Eligga kattalar so'ramasdan turib so'z boshlash odobsizlik ekanini aytadi. Kimki boshqalarni o'z huzuriga chorlar ekan, so'zini dastlab chorlagan kishi boshlamog'i joiz. So'ramasdan oldin so'z boshlashi insoniy odatlarga zid bo'lib, bu hayvonlar qatoridagi ish bo'lur edi. Telba, tentak, aqli zaif bo'lganlarga boshqalarning savol va qiziqishlarini kutib turmasdan, gap boshlab yubora beradilar. Shuning uchun ham ular ko'p dakki eshitishadi.

Donishmand kalomin eshit bir o'zing,

So'ramasdan avval so'zlama so'zing.

Kimnidir chorlasa agar bir odam,

Avvalo so'zlagay damo-dam.

So'ramasdan oldin nogoh so'z desang,

Ne ajab eshitib dakki, pand yesang.

Qisqa qilar umring qizil til seni,

Omonlik istasang, qattiq tut uni.

Omonlik istasang, tiling tiy mudom,

Boshing yegay tiling istagan har on [4, 102-103] — degan so'zlari insonning tili uning boshini har doim balolarga qoldirishi mumkinligini va agar tilini har doim tiyib yurishi uning tinchligiga kafolatligini anglatadi. “Qutadg'u bilig” asarida bu kabi insonning axloq va odobiga, uning ma'naviy kamolotiga ta'sir qiluvchi ibratli so'zlarni yoki hikoyalar mana shunday tarzda talqin qilinadi. Masalan asarning “O'gdulmish ovqatga taklif qilmoq, ovqatga (ya'ni mehmondorchilikka) bormoqlik qoidalarini o'rgatadi” va “O'gdulmish O'zg'urmishga ziyofatga taklif qilmoqlik qoidasini o'rgatadi” – deb nom olgan bobida insonning mehmondorchilik fazilatlari, ziyofat odobi qanday bo'lishi kerakligi ochib beradi. Bu borada shunday suhbat keltirilgan, O'zg'urmish O'gdulmishdan bir savolga oydinlik kiritishini so'rab, savol beradi:

- Men kishilar orasiga kirsam, tabiiyki, ular bilan muomala qilishim kerak. Axir, meni oshga – mehmondorchilikka undab turishlari bor. Buning aksincha, men ham boshqalarni uyga taklif etishim kerak. Lekin men qanday borishni, u yerda o'zimni qanday tutishim lozimligini ham bilmayman. Bularni ham menga ochiq qilib ber, yaxshilab tushuntir.

O'gdulmish javob berdi:

Nima bo'lmasin bu ziyofat, yemak,

O'ylab ko'r: borish yo bormaslik kerak.?

Taklif etsa do'stu qarindoshlaring,

Boru namoyon et tuzuk hunaring.

Agar taklif etsa seni yot-o'zga,
 Ozmi –ko'p tamaddi qilib tur ko'zga.
 Chaqirishsa agar yaqin qo'shnilar,
 Yoki do'sting esa, ko'ngling ham tilar.
 Ular uyiga bor topib sen evin,
 Ularni sevintir, o'zing ham sevin.
 Agar osh qilishga o'zinga atab,
 Borgil odamiylik burchini o'tab.
 Agar bo'lsa bundan bo'lakcharoq osh,
 Borib yurma, unda qiynaladi bosh.

Ushbu misralarda biror joyga mehmondorchilikka borish odoblari va u yerda o'tirish odoblari shu tariqa tushuntiriladi va mutafakkir tomonidan shu tariqa ochiq lab beriladi.

Necha turli oshda bo'lar esang sen,
 Odob bilan osh ye, bilar esang sen.
 Ulug'lar qo'lini cho'zmaguncha to,
 Odoblim, qo'lingga olmagin g'izo.
 Nima olsang tishla, chayna maydalab,
 Puflamagin ammo ovqatga qarab.
 Yemakni surmagan o'zingga yaqin,
 Ozor bermasin bu qilig'in tag'in[2, 101-102].

Mehmondorchilik odobi va qonun-qoidalari insonlarning yuksak insoniy va samimiy fazilatlari asosiga qurilgan, mehmonga borish va mehmon kutish borasidagi o'zaro muloqoti va munosabatlarida amal qilinadigan odob-axloq talablari, muayyan tartib-qoida va udumlarni ifodalaydigan tushuncha. Mehmondorchilik xalqimizning madaniyati va ma'naviy qadriyati hisoblanadi. Mehmondorchilik odobini bilish, unga amal qilish ma'naviyatlilik belgisidir deya, Ziyofat odati borasida quyidagi misralarni yozadi:

Agar sen chorlasang uyingga mehmon,
 Oldin taraddud qil, e dono inson.
 Pok bo'lsin oshu non, uy-joy, to'n-to'shak,
 Bergan tuzing manzur bo'lmog'i kerak.
 Nazorat qil,tutgin barchaga suv, osh,
 Kechikkanlar bo'lsa, xoh keksa, xoh yosh.
 Ovqat yesalar so'ng tutgin ichimlik,
 Ne tilasa bergin, bo'lar singimlik.
 Ulug'lar oshni yeb, bas qilsa agar,
 Kichiklarga ovqat uzat sar-basar.
 Quyuq-suyuqdan so'ng shira-sharbat qil,
 Bular bilan meva qo'ygin quruq- ho'l.

Darhaqiqat, insonlarning hayotdagi zavqlaridan biri bir-birlarinikiga borishlari, hol-ahvol so'rashlari, o'zaro hamjihatlikda yashashlari bilan bo'ladi. Bu xislatlar esa xalqimizning mehmondorchilik odatida mujassamdir. Xalqimiz mehmondo'st bo'lib, u mehmon kelishi bilan xursand bo'ladi, ammo mehmon ketsa, xafa bo'ladi. Mehmondorchilik xalqimizning ajralmas oliy insoniy fazilatidir. Bu orqali xalqimiz orasida do'stlik, mehri-muhabbat

rishtalari mustahkamlanadi. Mehmondorchilik xalqimizning o‘zaro hamjihatda, tinch-osoyshta yashash yo‘lida xizmat qilishini adibimiz Yusuf Xos Xojib shu tariqa tushuntiradi.

“Qutadg‘u bilig” – baxt-saodat haqidagi kitob. Asar nomidan ham shuni anglash mumkinki, asardagi barcha ezguliklarni inson hayoti davomida qo‘llab kelsa u albatta baxt – saodatga erishadi. Ya‘ni asarni o‘qib, undan ibrat olgan, undagi ko‘rsatmalarga doimiy amal qilgan insonlarga saodat eshiklari ochiladi va baxt kulib boqadi. Bu borada adib shunday deb yozadi:

Kitab ati urdum “Qutadg‘u bilig”,

Qutadsu, o‘qig‘liqa tutsu yelig[2, 16].

Ma‘nosi: (Kitobga “Qutadg‘u bilig” deb nom qo‘ydim,

Baxtga eltsin, o‘qigan kishining qo‘lidan tutsin.)

Bilamizki, bolani yoshligidanoq to‘g‘ri fikrlash, idrok etish va anglashga o‘rgatish, foydasiz va zararli ma‘lumotlardan, fikrsiz, g‘oyasiz bo‘lishdan ehtiyotkorlikka chorlash, odamlarning og‘irini yengil qilish, ularning dardlariga malham bo‘lish, kichikligidayoq insonlar, vatanga xizmat qilish ruhida tarbiyalash kabi xislatlar barkamol shaxs sifatida shakllanish garovidir. Zero, jamiyatdagi ijtimoiy voqelik axloq-odob mezonlari bilan uyg‘un bo‘lsagina barkamol shaxs tarbiyasi muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Hayot go‘zaldir, deydilar donolarimiz. Albatta hayot go‘zal, lekin u inson bilan go‘zaldir. Inson go‘zalligini belgilovchi asosiy mezon bu albatta axloq va odob hisoblanadi. O‘zbek xalqining “Inson odobi bilan go‘zal”- degan maqolning mazmunida ham xuddi shunday falsafiy ma‘no mujassam. Go‘zal axloq va odob bilan o‘lchanadigan ma‘naviy fazilatlar odamlar o‘rtasidagi barcha munosabatlarga singib ketgandagina haqiqiy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun axloq va odob masalalari barcha davrlarda ham shaxs ma‘naviy kamoloti, jamiyat rivojining asosiy va muhim bosqichi hisoblanib kelgan.

Xulosa. Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan kelib chiqib shunday xulosaga kelish mumkin, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” asari X-XI asr pandnomasi shunday falsafiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va didaktik ruhdagi asardir. Adib o‘z dostonida ilm-u ma‘rifatni, axloq va odobni, adolat va insonparvarlikni, halollik, mehr-oqibatni tarannum etgan hamda bu asar bugungi kun yoshlari uchun ham ibrat maktabidir. Yusuf Xos Xojib bola tug‘ilishi bilanoq uning tarbiyasi bilan shug‘ullanilsa, farzandning odobi, axloqi, ta‘lim- tarbiyasi risoladagidek bo‘ladi degan xulosaga keladi.

Adibimizning ma‘naviyat, axloq-odob haqidagi fikrlari, g‘oyalari insonga haqiqatdan ham ulug‘lik olib kelishiga yana bir bor hayotimiz davomida guvoh bo‘laveramiz. Bugungi kun yoshlari Yusuf Xos Xojib kabi buyuk ajdodlarimiz yaratgan ma‘naviy boyliklarni o‘qib o‘rganmasak va ularni kelajak hayotimizda qo‘llay bilmasak, demak biz asl nafosatdan bebahra yashagan bo‘lamiz. Axloq – bu borlig‘imiz. Buyuk allomalarning fikrlariga ergashish esa ilmlar ichra eng maroqlisi hisoblanadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. В. То‘хлиев. *Билим - ezgulik yo‘li*. Yulduzcha. Т.: 1997 – 219 б
2. Юсуф Хос Хожиб. *Қутадғу билиг*. Юлдузча. Т: 1990 – 192 б
3. Yusuf Xos Xojib “Qutadg‘u bilig” Yulduzcha Т.1989 – 202 б
4. Юсуф Хос Хожиб. *Қутадғу билиг*. Янги асп авлоди. Т.2000 - 557 б

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

ORDER AND CHAOS: HISTORICAL STUDY OF IDEAS OF SELF-ORGANIZATION

Rizaev Ilhom,

Samarkand branch of Tashkent University of Information Technology
Doctor of Philosophy

Abstract. The article comprehensively analyzes the history of the concept of self-organization and its philosophical foundations, and also examines the scientific, mythological and philosophical sources of the emergence of the idea of self-organization. The author examined the evolution of ideas about chaos and order in various worldview systems (mythology, Western and Eastern philosophy) and explored their place in human thinking and the development of society.

Key words: self-organization, synergetics, chaos, order, space, Western and Eastern philosophy, mythology, postmodernism.

ТАРТИБ ВА ХАОС: ЎЗ-ЎЗИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ ҒОЯЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ ТАДҚИҚИ

Ризаев Илҳом,

Тошкент ахборот технологиялари университети Самарқанд филиали
фалсафа доктори (PhD)

Аннотация. Мақолада ўз-ўзини ташкиллаштириш концепциясининг тарихи ва унинг фалсафий асослари кенг қамровли таҳлил қилиниб, унда ўз-ўзини ташкиллаштириш ғояси келиб чиқишининг илмий, мифологик ва фалсафий манбалари кўриб чиқилган. Муаллиф турли хил дунёқараш тизимларидаги (мифология, Ғарб ва Шарқ фалсафаларидаги) хаос ва тартиб тушунчаларининг эволюциясини кўриб чиқиб, уларнинг инсон тафаккуридаги ва жамиятнинг ривожланишидаги ўрнини тадқиқ этган.

Калит сўзлар: ўз-ўзини ташкиллаштириш, синергетика, хаос, тартиб, космос, Ғарб ва Шарқ фалсафаси, мифология, постмодернизм.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N34>

Кириш. Ўз-ўзини ташкиллаштириш концепциясининг тарихий ретроспективасини яратиш бир қатор сабабларга кўра қийин вазифа бўлиб туюлади. Бу биринчидан, келажакдаги барча тарихий маълумотларнинг мавзуга доир табиати билан, иккинчидан эса ўз-ўзини ташкиллаштириш ғоясининг кўп векторли эканлиги ва ўтмишда ҳам, келажакда ҳам айнан фикрлашнинг амалий имконсизлиги билан боғлиқ.

Илмий билимларнинг пайдо бўлиши ва ўзгаришининг мунтазамлиги муаммосини ҳал қилган кўплаб тадқиқотчилар ҳар қандай илмий ишни ёзишда умумеътироф этилган давр ва кўриб чиқиладиган концепция тарихига мурожаат

қиладилар. Бу ҳақда Р.Мертон шундай ёзган эди: “Илмий ғояларнинг тарихий узлуксизлиги бўйича тадқиқотчининг саъй-ҳаракатлари арқон устидаги дорбоз ҳаракатларига ўхшайди: ҳар қандай томонга сал кичикроқ оғиш ва мувозанат мувозанат йўқолади. Бир томондан тадқиқотчи илмий ғоянинг узлуксизлиги тўғрисидаги қарашнинг ўзи мавжуд бўлмаган жойда нотўғри хулоса чиқариши хавфини туғдиради. Бошқа томондан реал ҳаётнинг узлуксизлиги шунчаки эътибордан четда қолиши мумкин” [7. Б. 106].

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Аввалги (“эски”) тадқиқотлар янгилари билан алоқаси ҳақидаги саволга замонавий, тўғрироғи, постмодернистик муносабат таклиф қиладиган контекст янада мураккаб муаммо бўлиб кўринади. Бундай нуқтаи назар доирасида, санъатдаги, фандаги, фалсафадаги янгилик, диққат билан кўриб чиқилса, маълум ва аллақачон мавжуд бўлган ғоялар билан боғлиқ иқтибослар ва ассоциациялар асосига қурилганини кўриш мумкин. Ассоциатив қатламлар ҳар хил йўналишларда ва ҳар қандай томонга йўналиши мумкинлиги сабабли, “эски”нинг муаммосини ҳал қилиш қийин кўринади. Постмодерн мафкурачилардан бири М. Фуко эса бундай турдаги дискурсив амалиётларни “тўхтовсиз, дискрет, жасоратли... тартибсиз ва ҳалокатли, улуғвор, чексиз ва улкан қайнаш” [1. Б. 318] деб таърифлайди.

Биз ўз-ўзини ташкиллаштириш назариясини ва инсон билимларининг бошқа илмий шакллари билан бирлаштирадиган дунё тавсифининг умумий моделлари ҳақида гапиришимиз керак бўлган кенг тарихий контурга кўпроқ тўхталамиз. Шу тарзда қўйилган вазифа синергетика ва ўз-ўзини ташкиллаштириш ғоялари билан боғланиши мумкин бўлган кенг тарихий материални кўриб чиқишда уни амалга ошириш учун фундаментал тарихий ва назарий тадқиқотларни талаб қилади.

Ушбу тадқиқот иши учун тарихий ретроспектив асос бўлган таъкидни қуйидагича шакллантириш мумкин: гарчи синергетика инсоният тамаддунининг кейинги босқичларида кашф этилган бўлсада, синергетик кўринишга яқин бўлган дунёни тушуниш моделлари нафақат илмий, балки инсонга хос бўлган дунёни тушунишнинг бошқа соҳаларида ҳам илдиз отган. Улар афсона ва мифларнинг энг қадимги космогоник кўринишларида мавжуд бўлган. Шунга ўхшаш мотивларни ҳам Ғарб, ҳам Шарқнинг фалсафий тасаввурларида учратиш мумкин. Диққат билан кўриб чиқилса, инсоният дунёни билиш тажрибасининг барча турлари: туш, бадий фантазия, кундалик билиш тартиб ва хаос, детерминизм ва тасодифийлик каби ҳодисалар динамикасининг қутбланмаган нозичиқли синергетика мантиғига таянади.

Ўз-ўзини ташкиллаштириш соҳасидаги кўплаб замонавий изланишларга асос ва фундаментал тадқиқот И. Пригожин ва И. Стенгерсларнинг “Хаосдан тартиб томон” (Order out of chaos) асаридир. Тадқиқотчилар унинг принципларига ҳамма вақ мурожаат қилиб келишади.

Тадқиқот методологияси. Қадимги космогонияларда тақдим этилган тартиб ва хаос ўртасидаги муносабатлар динамикасини уларнинг барча мавжуд ўзгарувчанлиги билан иккита: мифологик ва синергетик дунёқарашни бирлаштиради. Шу маънода Антик давр ва Қадимги Шарқ мифологиясида тартиб ва хаос нисбати ҳақидаги ғояларни батафсил кўриб чиқиш лозим. Кўрсатилган космогоник тизимлардан олинган кўплаб мисолларда ушбу қарашларнинг асосий қоидалари очиқ берилган, уларни қуйидагича шакллантириш мумкин:

1. Хаос ва Космос (тартиб) бир-бири билан чамбарчас боғлиқ ва икки томонлама муносабатларда мавжуд бўлади. Хаос нафақат тартибни йўқ қилиш манбаи, балки унинг тубида тартибнинг олдиндан белгиланган тизимларини ўз ичига олган ижодий кучдир. Барча фундаментал мифологик тизимларда дунёнинг бирламчи туғилиши Худонинг Зулмат (Эрѐб), Тубсизлик (Тартар), Хаос (Иброний мифологияда Худо Яхве ва махлуқ Рахов, Миср афсоналарида Худо Ра ва аждарҳо Апоп ва бошқалар) кучлари устидан ғалаба қозониши натижасида содир бўлган.

2. Хаос ҳар доим тартибнинг ички томони сифатида мавжуд бўлиб, у ҳамма вақт янги қайта скульптуралаш учун потенциалликдир. Бу дунё узлуксиз ўзгаришининг асосидир. Янги тартиб, албатта қурбонлик натижасида вужудга келади (Қаҳрамон ёки Худонинг вақтинча ўлими). Ўз-ўзини ташкил этувчи моделларда бу қурбонлик тартибнинг туғилиши учун баъзи эркинлик даражаларининг бошланғич элементларидан воз кечишга ўхшайди. Худо ёки Қаҳрамоннинг ғалабаси натижасида хаос бутунлай йўқолиб кетмайди, балки бошқа дунё, Тартар, Аид, Лета, дунё қулаши мумкин бўлган тубсизлик шаклида қолишда давом этади, токи, яна қайта туғилмагунча.

3. Тартибнинг туғилиш жараёни хаос элементларини қайта тартибга солиш, уларни бир хил (жинсли) ликдан маҳрум қилиш, мутлақлаштирмаслик ёки бир-бирини бостирмаслик, лекин шу билан бирга уйғун нисбатда бўлган баъзи асосий таркибий қисмлар (эркак - аёл, актив - пассив, само - эр, оқилона - нооқилона, ин - ян, сув - олов) га бўлиш орқали содир бўлади. Антик давр нуқтаи назаридан, бу нисбатлар олтин ўрталиққа мос келади. Ҳар қандай янги тартибни ўзгартириш ушбу нисбатларнинг бузилиши, уйғунликнинг вақтинча йўқолиши, кескинлик ва азоб-уқубатлар билан боғлиқ. Синергетик моделлардаги тартиб ҳам дастлаб тизимланмаган муҳитда яхлитликнинг бузилиши, ҳар бир элементда дифференциация хусусиятларининг пайдо бўлиши туфайли туғилади.

4. Тартибсизликдан структуранинг туғилиши марказ, манба атрофида жойлашган локал тартибларнинг пайдо бўлиши орқали содир бўлади. Манбадаги структуралар ўз-ўзини ташкиллаштириши алоҳида йирик бир мавзудир. Бундан ташқари, бундай структураларнинг жойлашуви ўз-ўзини ташкиллаштириш тартибининг ўзига хос хусусияти ҳисобланади.

5. Идеал тартиб фақат назоратсиз ташқи таъсирлардан ҳимояланган локал тизимдагина бўлиши мумкин. У носимметрик ва узоқ вақт давомида ўзининг уйғун ҳолатини сақлаб туришга қодир. Тартиб чегарани ўрнатиш, назоратсизликни рад этиш сифатида юзага келади. Мифологияда идеал тартиб шакли сфера ва/ёки шарсимон объектлар билан боғлиқ. Ер шарсимон бўлиб, ундаги барча ҳаёт цикл бўйлаб ҳаракатланади. Тухум ҳам ҳаётнинг универсал рамзи сифатида барча мифологик тизимларнинг ўзгармас элементи, барча бошланишларнинг асоси ҳисобланади. Мандала (буддизмда муқаддас таъно яширинган такрорланувчи элементларнинг геометрик нақшлари) тартибнинг архетипи сифатида симметрик, думалоқ шаклга эга. Дунё тартибининг синергетик схемалари космоснинг айнан шундай архетипик шакларининг пайдо бўлишини тасвирлайди ва уларни ўз-ўзини ташкиллаштирувчи деб ҳисоблайди.

6. Дунё Тартиб ва Хаос, бир хиллик ва гетерогенлик, алоҳидалик ва умумийлик, кескинлик (конфликт) ва уйғунлик каби диалектик категорияларнинг циклик

алмашинувида мавжуд. Оламий тартиб уруғи бир томондан ўз-ўзидан қайта структураланиш, лекин бошқа томондан кескинлик ва мушкул ҳаракатлар натижасида дастлабки тартибсизликдан туғилади. Бундай мифологик мавзуларда ўз-ўзини ташкиллаштирувчи структураларнинг спонтан пайдо бўлиши, уларнинг процессуал табиати ва кескинлиги, шунингдек, фазо ва вақтдаги тартиблилик шакли, цикликнинг мавжудлиги яққол сезилиб туради.

7. Дунё тартибланишининг бу қонуниятлари универсалдир, микрокосмос ва макрокосмосга, Космосга, жамиятга ва инсоннинг ички дунёсига хосдир. Синергетика билан шуғулланадиганлар кўпинча айнан холизмга, дунёнинг бўлинмаслиги ғоясига тез-тез мурожаат қилишади[12. Б. 106-107].

Албатта, турли мифологик-маданий анъаналардаги тартиб ва хаос ғояларини батафсилроқ кўриб чиқсак, биз нафақат кўплаб ўхшашлик ва умумийликларни, балки кўплаб фарқларни ҳам топамиз. Масалан, ушбу фарқлардан бири Ғарбий (антик) ва Шарқий (хусусан, Марказий Осиё) анъаналари ўртасида кузатилади.

Файласуф М. Эргашева бундай ғояларнинг бир томондан социоформацион омилга, иккинчи томондан Марказий Осиё ва Антик маданиятнинг ўзига хос хусусиятларига боғлиқлигини кузатиб, уларнинг аниқ белгиланган ва фарқли динамикасига ишора қилади. Биз архаикликдан ривожланган қабилавий муносабатлар орқали давлатчилик бошланган жамиятларга ўтганимиз сари бу маданиятларнинг дунёқараш тизимида космос ва хаос гўё бир-биридан тобора узоқлашиб бораётгандай туюлади. Ҳамма жойда ва ҳамма вақт мавжуд бўлган хаос тартиб олами билан регламентация қилинадиган муносабатлар билан чегараланади. “Амбивалент хаос ва космос ўртасида алмашинув ва ўзаро бир-бирига ўтиш ўрнатилади, улар бир-бирини тақозо қилади ҳамда мувозанат ҳолатида мавжуд бўлади”. Кейинчалик жамият шаклланиш фазаларини босиб ўтиши билан космос ҳукмрон кучга айланади. “...Космосни яратадиган ва ҳосил қиладиган хаос эмас, аксинча, барча ижодий кучлар космос томонида, уни муайян мавжуд ҳолатидан кўра мукамалроқ космик тартибни ўрнатиш йўлида ҳаракат қилади”[5. Б. 28-32]. Бундан ташқари, Эргашева коинот ва хаос ўртасидаги муносабатларни мос равишда Марказий Осиё ва Антик тафаккур тарзи турлари билан боғлайди. Дунёнинг ўз-ўзини ташкиллаштирувчи манзараси (олам динамикасида тартиб ва хаос нисбий мувозанатини талаб қилиш) модернистик дунёқарашга қараганда архаикка анча яқинроқ, Ғарбий менталитетга қараганда Шарққа кўпроқ мос келади.

Замонавий Ғарб онгининг мантиқий доминантани тавсифловчи бинар, чизиқли формал мантиқ ночизиқли ўз-ўзини ташкиллаштирувчи мантиқнинг тескариси бўлиб, миф мантиғига кўп хиллик, кўп ўлчовлилик, классик казуалликдан фарқ қилувчи сабабийлик билан ҳам қарши чиқади. Г. Султанова бу афсона мантиғини тасаввур мантиғи билан боғлайди: “Реал воқеликда сабабий кетма-кетлик вақтинчалик кетма-кетликдир. Мифнинг мўъжизавий воқелигида сабаблар кетма-кетлиги вақтдан ташқарида бўлиши мумкин. Бирор нарса содир бўлиши учун аввалги муайян ҳолатларда ҳеч қандай ўзгаришларга ҳожат йўқ”[10. Б. 21-22]. Шунингдек, ўз-ўзини ташкиллаштириш концепцияси чизиқли фикрлаш мантиғидан келиб чиқадиган вақт ва сабабларга қараганда бутунлай бошқача қарашларни таклиф қилади. “Ҳозирги воқеалар

кўпинча ўтмиш билан боғланади аслида эса бу ҳолат келажакдаги тартибнинг тақдирига боғлиқ” [20. Б. 48-49].

Таҳлил ва натижалар. Ғарб тафаккури анъанаси доирасида синергетиканинг пайдо бўлишини замонавий Ғарб маданиятининг Шарққа, замонавийликни эса архаик, тўғрироғи, неорархаик томонга қўйган маълум бир қадами сифатида кўриш мумкин. Масалан, замонавий Ғарб маданиятида бундай тенденцияларнинг мавжудлиги замонавий файласуф олим Х. Саматов томонидан кўрсатилган: “Бугунги кундаги янги эскидан ва ҳаттоки энг эскидан вужудга келади. Коинот яна архаик синкретизмни эслатувчи оламга бирлашади, у объектни субъектдан, руҳни танадан, материяни онгдан, одамни табиатдан қандай ажратишни билмайди. Бу яқинлик янги фаннинг қадимий мистик ва тасаввуф таълимотлари билан мулоқоти...” [11. Б. 49] учун бошланғич нуқта бўлди. Уни биринчи бўлиб бошлаганлардан бири физик Фритоф Капра эди. Ўз даврида “Физика Даоси” китоби унга улкан шуҳрат келтирди. У постклассик физика яратган дунёнинг манзараси барча мистик, айниқса Шарқ диний ва фалсафий тизимлари – ҳиндуизм, буддизм, даосизм ва дзен ғояларига жуда яқин эканлигини исботлайди. “Физика Даоси” нинг учинчи нашрида Капра эски парадигмани янгисидан ажратиб турадиган бир қанча мезонларни шакллантиради. Дунё алоҳида элементлардан йиғилган шунчаки структура эмас, балки бир бутундир. Олам предметлардан эмас, балки жараёнлардан иборат, шунинг учун билиш қисмдан бутунга эмас, балки бутундан қисмга қараб боради” [3. Б. 375].

Тўғри, диалектика билан ўхшашликни воқеалар ривожини мантиқига оид умумий ғоялар даражасида кузатиш мумкин, лекин синергетика таклиф қиладиган ғоялар ва натижаларнинг бутун мажмуаси даражасида эмас.

Б. Раҳманов синергетик ғояларнинг тарихий илдизларини ўрганар экан, кўплаб назарияларда тизимли синергетик мотивларнинг мавжудлигини кўради. У тадқиқотида бундай мотивларнинг мавжудлигини қайд этган Европа файласуфларининг анчайин рўйхатини келтиради: “Бу элементларни Пифагор, Гераклит, Эмпедокль, Аристотель, Платон, Сократ, Лукеций Кар, Плотин ва бошқаларнинг ғояларида ҳам учратиш мумкин” [9. Б. 2]. Бизнинг фикримизча, уни сезиларли даражада кенгайтириш мумкин.

Европада олам бирлиги ва яхлитлигининг тизимли-синергетик тамойили Д. Вико, И. Гердернинг туғилиш ва ўлимнинг циклик умумий моделини қайд этган қарашларида ўз аксини топган. Аммо олам ва жамиятни тизимли-синергетик идрок этишга яқин бўлган энг етук ғоялар Г. Лейбниц, А. Шопенгауер, Г. Гегель, К. Маркс, Г. Спенсер, А. Бергсон, Й. Хейзинга, Х.О. Гассет, О. Шпенглер, А. Тойнби, К. Ясперс, К. Поппер. П. Сорокин ва бошқалар номлари билан боғлиқ.

Биз танлаган муаммонинг ёритилиш ракурсини ҳисобга олиб, бу қаторда айниқса Ф.Ницше ва ўз даврида маърифатпарварлик, рационализмга қарши дастур ишлаб чиққан барча файласуфларнинг изланишларини эслатиб ўтишимиз керак. Бу XX аср Ғарб маданиятининг мафкуравий йўналишларини сезиларли даражада ўзгартирди. Ницше биринчилардан бўлиб Ғарб тафаккурининг формал мантиққа ҳаддан ташқари мойиллигига эътибор қаратди. У дунёнинг исканжасидан халос бўлишни Дионисий ва Аполлон ҳаётини тамойиллари ҳуқуқларини тенглаштиришда кўради ҳамда бу синергетик қарашлар билан таққослаганда, хаосни қайта тиклаш, унинг потенциал ижодий кучини пайқаш деб тушуниш мумкин.

Синергетика ғоялари билан доимо боғлиқ бўлган Ғарб файласуфлари ва маданиятшуносларининг номлари рўйхатида О. Шпенглер, А. Тойнби, К. Ясперс, П. Сорокиннинг маданий–циклик назарияларини алоҳида эслатиб ўтиш зарур. Синергетика томонидан ўрганиладиган олам жараёнларининг цикликлери, цикликнинг ўз-ўзини ташкиллаштириш қонунлари билан ҳосил бўлган барқарор фазо ва вақт структураси сифатида юқоридагиларнинг тадқиқотлари ижтимоий-маданий динамикага нисбатан амалга оширилган.

Ғарбнинг фалсафий тафаккурида ўтмишдошларига эга бўлган синергетик конструкциялардан келиб чиқадиган олам тартиби ғояси кўплаб тадқиқотчиларга Шарқ фалсафий ва диний қарашлари ғоялари билан янада кўпроқ боғлиқ бўлиб туюлади. Бу позициянинг батафсил далилларини Ф. Капранинг юқорида қайд этилган “Физика Даоси”[4] асарида топамиз. Бу мавзу И. Ппигожин ва И. Стенгерс[8], С.П. Курдюмов ва Е.Н. Князева[16], В.В. Василкова[13], С. Гомаюнов[15], Т. Гпигорева[14], шунингдек маҳаллий тадқиқотчиларимиз Б.О. Тураев, М.Х. Эргашева, Б.У. Раҳманов, З.О. Муминова, Ж. Очилов[19], Д. Бозаров[2] ва бошқалар асарларида қайта-қайта кўтарилган.

Синергетик муносабат бизга олам ва ундаги ҳамма нарсага беэътиборлик билан, унинг яширин моҳиятини англамасдан муносабатда бўлишга имкон бермайди. Синергетика инсонни дунёнинг бирлиги, уни қисмларга парчалашнинг ноадекватлиги, аналитик усулининг мувофиқлиги ҳақидаги ғояга қайтаришга ҳаракат қилади.

Европа синергетикасида онг янги мантиғининг пайдо бўлиши орқали янги бирлик қўлга киритилиши кузатилади. У қатъий ва асосли равишда иккига парчаловчи, Аристотелнинг учинчисини истисно мантиғига қарши туришга ҳаракат қилади. Шарқ ва Ғарб фалсафасининг яқинлашиши дунёга нисбатан синергетик муносабатларни қабул қилишнинг ғоявий таъсиридан биридир.

Кундалик ҳаёт инсон тажрибасининг яна бир қатлами бўлиб, у ўзига хос воқеалар мантиғига ва билим тизимларига эга. Шу билан бирга, кундалик ҳаёт орқали биз анъанавий равишда илоҳий оламга қарама-қарши бўлган ноилоҳий оламни эмас, балки кундалик ижтимоий-маданий амалиётлар дунёсини тушунамиз. Бу орқали ижтимоий-маданий воқеликни тўғридан-тўғри такрор ишлаб чиқариш ва ўзгартириш амалга оширилади. Бу ҳолатни М. Фуко “Тартибнинг соф амалиёти ва унинг мавжуд бўлиш усуллари”[6. Б. 24] деб атаган эди. Ушбу амалиётлар уларнинг ақлий асоси сифатида воқеликнинг қандайдир ярим онгли образига эга. Бу бизнинг нуқтаи назаримиздан унинг ночизиқли характерига асосланади, воқеалар ривожланишининг ночизиқли мантиғига таянади.

Кундалик ҳаёт мантиғи ўзида нимани ифодалайди? Ушбу масала бўйича тадқиқотчилар ҳар қандай эмпирик социологик тадқиқотлар даражасида учрайдиган кундалик онгнинг амбивалентлигига бир неча бор эътибор қаратдилар[17. Б. 54]. Бундай амбивалентликда нафақат оддий маълумот этишмаслиги, балки воқеликнинг қандайдир яхлит образига асосланган ҳис-туйғулар мантиғи ҳам мавжуд.

Кундалик тасаввурлар вақт билан жуда ўзига хос тарзда муносабатда бўлади. Вақтнинг ушбу модели ҳаётини воқеаларнинг ривожланиши, уларнинг изчил, сабаб-оқибат занжирига мос келиши анъанавий формал мантиқдан, яъни чизиқли кўринишдан узоқдир. Кундалик вақт оқимининг ночизиқлилиги синергетиканинг

эквивалентлик (жараённинг бошланғич нуқтасидан етарлича масофаси билан ўтмишдаги дастлабки позицияларга нисбатан ҳозирги натижанинг мустақиллиги ёки кам боғлиқлиги). принцинга мос келади. Аввало мантиқий конструкциялари сатҳида кундалик онг кўп жиҳатдан мифологик онгга ўхшайди, бу реалликнинг синергетик ва кундалик моделларининг яқинлиги, бундай моделлар томонидан ўрнатилган кундалик воқеалар динамикаси ҳақидаги тасаввурларнинг ўхшашлиги ҳақида гапиришга имкон беради.

Хулоса ва таклифлар. Юқорида айтилганларнинг барчаси, бизнинг нуқтаи назаримиздан, синергетик парадигманинг муҳим интегратив салоҳияти ҳақида хулоса чиқаришга йўл очади:

Биринчидан, унинг қоидаларида фанлараро интеграциянинг асосларини кўриш мумкин. “Синергетик парадигманинг асосий ғояси дунё ҳақидаги яхлит билимни фрагментап илмий предметларга бўлишнинг нотўғрилигига ишонтиради” [21. Б. 16].

Иккинчидан, синергетикани инсон тажрибасининг турли қатламларидан келиб чиқадиган ҳар хил турдаги билимларнинг яхлит билимга интеграциялашнинг илмий мақсади сифатида кўриш мумкин. Худди мифология, фалсафа, бадиий фантазия, орзулар, кундалик билимларни боғлагани сингари[9].

Учинчидан, Ғарб ва Шарқ маданиятининг асосий фалсафий ва мафкуравий позициялари ўртасида кўприк ўрнатадиган маданиятлараро интеграция вектори бўлиши мумкин.

Албатта, синергетиканинг бу имкониятлари ўз-ўзидан навбатдаги мифологияга айланиши ва натижада муваффақиятсиз лойиҳа бўлиб чиқиши ҳам мумкин. Аммо синергетик ғояларнинг мазмунидан келиб чиқадики, ижтимоий-маданий ўзгаришларнинг ўз-ўзини ташкиллаштирувчи динамикаси айнан шу йўл бўйлаб давом этади. Мифологик маконлардаги ўзгаришлар, бу алданиш эмас, балки жамиятнинг ижтимоий-маданий ҳаётининг ўз-ўзини ташкиллаштирувчи томонидир.

Адабиётлар/Литература/References:

1. 1970—1971: Leçons sur la volonté de savoir, Paris, Gallimard, 2011, 318 p.
2. Bozarov D.M., Karimova G.Y. Role of The Self-Organization Model in Complex Social Systems //Oriental Journal of Social Sciences. – 2021. – С. 1-9.
3. Capra F. The Tao of physics: An exploration of the parallels between modern physics and eastern mysticism. – Shambhala publications, 2010. – P. 375.
4. Dull A. The Tao of Physics: An Exploration of the Parallels between Modern Physics and Eastern Mysticism. – 1978.
5. Ergasheva M.X. The synergistic nature of the struggle between good and evil in Zoroastrianism //Theoretical & Applied Science. – 2015. – №. 9. – С. 28-32.
6. Foucault M. This is not a pipe. – Univ of California Press, 1983. – №. 24.
7. Merton R. K. On social structure and science. – University of Chicago Press, 1996. – P. 106.
8. Prigogine I., Stengers I. Time, chaos, quantum. On the solution of the paradox of time //Moscow: Editorial, URSS. – 2000.
9. Schütz A., Luckmann T. Strukturen der lebenswelt. – Utb, 2017. – №. 2412.
10. Sultanova G.S. The essence and nature of postnonclassical scientific thinking //Школа Науки. – 2019. – №. 3. – С. 21-22.

11. Ulmasjonovich K.S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 45-48.
12. Василькова В.В. Порядок и хаос в развитии социальных систем. — С.106–107
13. Василькова В.В. Порядок и хаос в развитии социальных систем. — СПб. 1999.
14. Григорьева Т. Синергетика и Восток // Вопросы философии. — 1997. — № 3. — С.90–102.
15. Гомаюнов С. От истории синергетики к синергетике истории // Общественные науки и современность. — 1994. — № 2. — С.99-106.
16. Князева Е.Н., Курдюмов С.П. Законы эволюции и самоорганизации сложных систем. — М. Наука, 1994.
17. Попова И.М. Повседневные идеологии. Как они живут, меняются и исчезают. — К., 2000. — С.54.
18. Рахманов Б. У. Античная философия и идеи духовно-психической самоорганизации человека //Credo new. – 2016. – №. 1. – С. 2-2.
19. Тураев Б.О. ва бошқ. Синергетика: моҳияти, қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши –Т.: Наврўз нашриёти. – 2017. – С. 12-13.
20. Тураев Б.О. Онтология, гносеология, логика ва фан фалсафаси муаммолари. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Б. – 2015. – С. 48-49.
21. Шалаев В.П. Социосинергетика: истоки, теория и практика в современном мире. 2015— С.16.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE ROLE OF THE FAMILY IN CREATING REASONABLE LIVING CONDITIONS

Niyazova Nilufar,
Tashkent Medical Academy
Associate Professor of the Department of Social Sciences
candidate of philosophy

Abstract. This article pays special attention to the content of the reforms carried out to strengthen the family in our republic, the tasks of the family and the formation of a reasonable way of life instead.

Key words: family, society, development, lifestyle, woman, generation, healthy lifestyle.

OQILONA TURMUSH SHAROITINI YARATISHDA OILANING O'RNI

Niyozova Nilufar,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
Ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti
falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada respublikamizda oilani mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar mazmuni, oilaning vazifalari va oqilona turmush tarzini shakllantirishda uning o'rniga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: oila, jamiyat, taraqqiyot, turmush tarzi, ayol, avlod, sog'lom hayot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N35>

Kirish. Oila jamiyatning asosiy poydevorlaridan biri bo'lib, biz har kuni boshdan kechirayotgan turmush sharoitimizni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Birlamchi ijtimoiy tuzilma sifatida oilalar o'z a'zolarini tarbiyalash, qo'llab-quvvatlash va ta'minlash uchun mas'uldirlar, bu esa pirovardida shaxslar va jamoalarning umumiy farovonligiga hissa qo'shadi. Iqtisodiy va ijtimoiy muammolar tez-tez yuzaga keladigan doimiy rivojlanayotgan dunyoda oilaning ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Ushbu maqola oila dinamikasi, qadriyatlari va mas'uliyati oqilona yashash sharoitlarini yaratishga qanday hissa qo'shishini o'rganadi, barcha oila a'zolari uchun sog'lom va barqaror muhitni yaratishda hamkorlik, muloqot va o'zaro yordam muhimligini ta'kidlaydi.

Asosiy qism. Oila qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog'langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Ko'p jamiyatlarda oila bolalar ijtimoiylashuvi uchun asosiy institut vazifasini o'taydi. Antropologlar oilalarni matrilokal (ona

va uning bolalari), er-xotin (bolalari bo'lsa, nuklear oila deyiladi) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynata-qaynana birga yashovchi) tiplarga ajratishadi.

Davlatlar taraqqiyotida millat genofondini avaylab asrash, uning salomatligini saqlash, kelajagini ta'minlash jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan oila va uning madaniyati bilan uzviy bog'liq. Oqilona turmush sharoiti hamisha inson salomatligi, yashash davomiyligini uzaytirish, qolaversa, madaniy hamda ma'naviy dunyosi o'zgarishlarini belgilab beradigan muhim mezon hisoblanadi va doimiy ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo'lib kelgan. Zero, har qanday tarixiy davrda oqilona turmush sharoitini yaratishda oilaga e'tibor berish davlatlar siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, buning asoslarini o'rganish muhimdir. Oila — nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi.

Birinchidan, respublikamizda oila faolligini ta'minlash borasida ko'plab sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Umuman sog'lom va oqilona turmushni shakllantirishda oilaning o'rnini tibbiy-ijtimoiy, tarbiyaviy va pedagogik jihatlarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda.

Ikkinchidan, oqilona hayot oiladagi munosabat va o'ziga xos an'analarga bevosita bog'liq bo'lganligidan, uni rivojlanishiga doir dolzarb muammolarini o'rganish, tahlil qilish va yechimini topish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Uchinchidan, oila va oqilona turmushning gumanistik mazmuni moddiy va ma'naviy yuksalish, munosib sharoitlarga ega bo'lish, sifatli ta'lim olish, qadriyatlarini asrash, salomatlikni mustahkamlash, barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat bo'lib, kelgusida ham bunga e'tibor qaratish jamiyat a'zolarining olijanob burchiga aylanishi kerak.

To'rtinchidan, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida millat genofondini toza saqlash, jismoniy va ma'naviy baquvvat avlodni voyaga etkazish jahonning eng katta ijtimoiy masalasiga aylandi. "Shu sababli yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, chetdan kirib kelayotgan har xil zararli ta'sirlardan, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi tahdid va xatarlardan asrash masalalari bir zum ham e'tiborimizdan chetda qolmasligi darkor"[1]ligini inobatga holda oilalar sharoitiga alohida e'tibor berishimizni taqozo etadi.

Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo'lmagan. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to'da-to'da bo'lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo'lmay, to'dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiy er-xotin hisoblangan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin muayyan tartibga solina boshlandi. Dastlab ota-ona bilan farzandlar, so'ngra aka-uka va opa-singillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiqlanib, guruhli oila paydo bo'lgan, lekin bu oilalarda hali er-xotin nikohi barqaror alohida xo'jalikka ega bo'lmagan. Bu davrda tabiiy omil o'z vazifasini tugalladi, ya'ni jinsiy munosabatlar doirasidan qon-qarindoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatiga aylandi (yana qarang: Patriarxal oila, Poliandriya, Poligamiya, Poliginiya).

Oila ko'pincha jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida ta'riflanadi va buning yaxshi sababi bor. U shaxslar uchun birinchi aloqa nuqtasi bo'lib, ularga hayot uchun zarur bo'lgan hissiy, ijtimoiy va iqtisodiy yordam beradi. Tez texnologik taraqqiyot va ijtimoiy o'zgarishlar bilan ajralib turadigan doimiy o'zgaruvchan dunyoda oqilona turmush sharoitlarini yaratishda oilaning roli hech qachon muhim bo'lmagan. Oilaning oqilona yashash sharoitlarini yaratishdagi o'rni zamirida hissiy qo'llab-quvvatlash yotadi. Oila a'zolari odamlar o'z his-tuyg'ularini va fikrlarini hukm qilmasdan ifoda etishlari mumkin bo'lgan xavfsiz joyni ta'minlaydi. Ushbu hissiy asos ruhiy salomatlik uchun juda muhim va umumiy hayotdan qoniqishga bevosita ta'sir qiladi. Oilalar sevgi, tushunish va ishonchni taklif qiladi, bu qiyinchiliklarga qarshi chidamlilikni rivojlantirish uchun zarurdir. Agar odamlar o'zlarining oila muhitida o'zlarini xavfsiz his qilsalar, ular o'z maqsadlariga erishish uchun ko'proq qobiliyatga ega bo'ladilar va shu bilan kengroq jamiyatga ijobiy hissa qo'shadilar.

Oila qadimdan xalqlarning mustahkam qo'rg'oni bo'lib, jamiyatning asosiy bo'g'inini tashkil etadi. Oqilona turmush sharoitini yaratishda oilaning o'ziga xos o'rni bo'lib, bu avlodlar davomiyligi, munosib turmush tarzi va yuksak taraqqiyot darajalarini mustahkamlaydi.

Tabiiyki, oila unga mansub a'zolarining birliklaridan tarkib topgan bo'lib, u ota-ona va farzandlarning o'zaro ijobiy munosabatlari doirasida rivojlanib boradi. Ayniqsa, oiladagi salomatlikka e'tibor, shu muhitning turli omillari: ovqatlanish, kiyinish, foydalanish, munosabat madaniyatlarining mujassamligida namoyon bo'ladi.

Oila salomatligi faqatgina a'zoldan biri betob bo'lib qolganida tibbiy yordam ko'rsatish bilan chegaralanmaydi, balki buning asosiy omili har bir jarayon hamda predmetga nisbatan oqilonalidir. Bu oilada o'ziga xos ko'rinishda ifodalandi. Oilada oqilona muhitni qaror toptirishni quyidagi asoslarga ajratish mumkin.

Oilalar resurslarni birgalikda boshqaradigan iqtisodiy birliklar sifatida xizmat qiladi. Ushbu boshqaruv uy xo'jaliklari xarajatlarini byudjetlashtirish, kelajakdagi ehtiyojlar uchun tejash va investitsiyalar va xarajatlar bo'yicha qarorlar qabul qilishni o'z ichiga oladi. To'g'ri moliyaviy boshqaruvni qo'llagan oilalar qulay uy-joy, sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash kabi qulayroq yashash sharoitlarini yaratishi mumkin. Bundan tashqari, oilalar birgalikda umumiy muammolarga duch kelish, qiyin paytlarda resurslarni birlashtirish va yosh oila a'zolariga moliyaviy savodxonlikni o'rgatish orqali iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shishlari mumkin. Ta'lim oqilona yashash sharoitlarini belgilashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Farzandlariga ta'limning qadr-qimmatini singdirishda oilalar muhim rol o'ynaydi. O'rganish va ilmiy yutuqlarni qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berish orqali oilalar o'z a'zolariga yaxshi ish imkoniyatlariga intilish va hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi. Ular, shuningdek, ijtimoiy, akademik va kasbiy kompetensiyalarni oshiradigan darsdan tashqari tadbirlarni rag'batlantirish orqali ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Ta'lim va ko'nikmalarni egallash orqali oilalar qashshoqlik siklini buzishga bevosita hissa qo'shadi, natijada keyingi avlodlar uchun turmush sharoiti yaxshilanadi. Oila dinamikasi salomatlik va farovonlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Sog'lom oilalar to'g'ri ovqatlanish odatlarini, jismoniy faollikni va muntazam sog'liqni saqlashni targ'ib qiladi. Sog'lom turmush tarzini saqlashda bir-birini qo'llab-quvvatlagan holda, oilalar surunkali kasalliklar xavfini kamaytirishi va o'z a'zolarining umumiy farovonligini oshirishi mumkin. Bundan tashqari, oilalar ko'pincha o'z yaqinlari uchun himoyachi bo'lib, ularga zarur tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Salomatlikni birinchi o'ringa qo'yish orqali oilalar odamlar o'zlarini qobiliyatli va

baquvvat his qiladigan muhitni yaratishi mumkin, bu esa to‘laqonli hayot kechirish uchun zarurdir.

Oilalar ijtimoiylashuv jarayonida muhim rol o‘ynaydi, odamlarga ijtimoiy me‘yorlar, qadriyatlar va mas‘uliyatni o‘rgatadi. Ushbu ijtimoiylashuv jamiyatning faolligini va fuqarolik mas‘uliyatini rag‘batlantiradi, oila a‘zolarini jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishga olib keladi. Ko‘ngillilik, mahalliy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash yoki oddiygina yaxshi qo‘shni bo‘lish orqali oilalar hamma uchun yashash sharoitlarini yaxshilaydigan qo‘llab-quvvatlovchi jamiyat muhitini yaratishga hissa qo‘shadi. Bundan tashqari, ijobiy oilaviy qadriyatlar bolalarning o‘z jamiyatlari farovonligini birinchi o‘ringa qo‘yadigan mas‘uliyatli fuqarolar bo‘lib o‘lishiga ta‘sir qilishi mumkin.

1. Oqilonalikning gnoseologik-funksional xususiyati, ya‘ni bunda oila boshliqlarida (ota-onada) unga doir bilimlarning mavjudligi va unga amalga qilishdagi vazifalar.

2. Prakseologik xususiyatida oqilona turmush sharoitining oilada (ota-ona tomonidan) amalda tatbiq etilishi va uni nazorat qilishda namoyon bo‘ladi.

3. Akseologik – oqilona turmush sharoitini yaratishni qadriyat deb bilish, bunda axloqiy, diniy, estetik va boshqa ijobiy xislatlarini keyingi avlodlarga ma‘naviy meros sifatida qoldirish.

4. Induktiv – oilada shakllangan oqilonalik jamiyatga ta‘sir ko‘rsatishi (xususiylikdan umumiylikka).

Oilada ayolning mavqeyi faqatgina bola tarbiyasida emas, balki tozalikka rioya qilish va ta‘minlashga ko‘ra ham ajratiladi. Shu nuqtai nazardan uning zimmasiga oila salomatligini muhofaza qilishdagi bosh “rol” yuklatiladi. Bu masalada sog‘lom farzandni voyaga etkazish va tarbiyalash jiddiy e‘tiborni talab etadi. Negaki ayolning tozalikka rioya qilishi, bu borada uning o‘rnak bo‘lishi farzandlarining sog‘lom bo‘lib ulg‘ayishini ta‘minlaydi. Bundan nafaqat oilaviy sog‘lom muhit, balki butun jamiyat farovonligi, nasl sofligi qaror topadi. Shuning uchun ham ayollarning sanitariya-gigiyena borasidagi o‘z bilimlarini yuksaltirish, ijobiy rivojlantirish ularning ma‘naviy imkoniyatlarini, oiladagi ayollik va onalik mavqeyi hamda obro‘cini kumulyativ jihatdan mustahkamlaydi. Darhaqiqat, “...agar ayol, ona baxtli bo‘lsa, oila baxtli bo‘ladi, oila baxtli bo‘lsa, butun jamiyat, davlat mustahkam va barqaror bo‘ladi”[2].

Professor X.A.Shayxovanning e‘tirof etishicha, “Inson uchun zarur bo‘lgan olijanob insoniy tuyg‘u va fazilatlar, inson kamoloti oiladan, uning sog‘lom turmush tarzidan boshlanadi. ...oilada kamol topgan insoniy fazilatlar maqsad va manfaatlariga mos ravishda rivojlanib boradi. Oiladagi axloqiy munosabat va ma‘naviy muhit oiladagi sog‘lom turmush tarzi, imkoniyat, ehtiyoj hamda munosabat madaniyati va qoidalariga bog‘liq”[3]. Shundan kelib chiqib aytish joizki, oila nafaqat muayyan shaxsning, balki butun jamiyatning jismoniy va ma‘naviy sog‘lomligini kafolatlovchi, ta‘minlovchi, rag‘batlantiruvchi tuzilmadir.

Oiladagi oqilona hayotni ta‘minlashda ovqatlanish madaniyati ham muhim sanaladi. Oilada tarbiya topayotgan o‘g‘il-qizning jismoniy va ma‘naviy kamoloti ular iste‘mol qilayotgan ozuqalarning sifati, tayyorlanish uslubi, ota-onasi bilan o‘zaro munosabati asnosida belgilanadi. Taom tayyorlash jarayonida farzandlarning ishtirok etishi (kattaroq yoshdagi farzandlar nazarda tutilgan), nafaqat ularni mehnatsevarlikka undaydi, balki ota-onasining sog‘lom ovqatlanishga xos bilimlarini ham egallashga xizmat qiladi. Bu uchun albatta, ota-onaning o‘zi sifatli ovqatlanishga doir amaliy ko‘nikma va tajribalarga ega bo‘lmog‘i zarur. Farzandlarni yarim fabrika mahsulotlari bilan kunora “aldash” kelajakda ularning ma‘naviy dunyosi, hayotiy tajribalarini sustlashtiradi. Onaning mehr bilan tayyorlagan oddiy taomi bolaning unga

nisbatan munosabatini yanada mustahkamlaydi. Shuningdek, tanovuldan so‘ng oilaviy o‘zaro shirin suhbat orqali (bir piyola choy ustida oilaning kun davomida erishgan yutuqlari, o‘ziga xos kamchiliklari, ko‘rgan-kechirgan tafsilotlari bilan o‘rtoqlashish) oilaviy muhitni yaxshilaydi. Sharq odobiga ko‘ra, farzandlar onalariga xush ta‘m ovqat uchun tashakkur izhor qiladi.

Respublikamizda oilani mustahkamlash borasida juda ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda. Olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning asosiy maqsadi – oilaning jamiyatdagi o‘rnini yanada mustahkamlash, barkamol avlodni bekamu-ko‘st voyaga etkazishdan iborat. Bunda eng avvalo oqilona turmush tarzini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oila a‘zolarining ongi, dunyoqarashining shunga mos takomillashib borishi oilaning sog‘lom bo‘lishini ta‘minlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, oila oqilona yashash sharoitlarini yaratishda ko‘p qirrali rol o‘ynaydi. Oilalar hissiy qo‘llab-quvvatlash, resurslarni boshqarish, ta‘limga ustuvor ahamiyat berish, salomatlikni mustahkamlash, ijtimoiylashuvga ko‘maklashish, nizolarni hal qilish va madaniy qadriyatlarni uzatish orqali shaxs va jamiyat farovonligining asosini tashkil qiladi. Oilalarning rolini tushunish va mustahkamlash biz zamonaviy hayotning murakkabliklarida harakat qilayotganimizda juda muhimdir. Oilani oqilona yashash sharoitlarini izlashda muhim ishtirokchi sifatida tan olsak, biz odamlar gullab-yashnashi va jamoalar gullab-yashnashi uchun sharoit yaratishimiz mumkin. Birgalikda biz barcha uchun yorqinroq, adolatli kelajakni ta‘minlash uchun oilalarni muhim rollarida qo‘llab-quvvatlash yo‘llarini o‘rganishimiz kerak.

Albatta, jismonan va ma‘nan sog‘lom avlodni tarbiyalashda oila va jamoat tashkilotlarining integratsion bog‘liqligi har jihatdan bilimli, yuksak saviyali jamiyat a‘zolari doirasini kengaytiradi. Zero, hozirgi davrning muhim vazifasi “...jismonan sog‘lom, ma‘naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini kuchaytirish va shu maqsadda oila institutining ta‘lim hamda tarbiya masalalari bilan o‘zaro amaliy hamjihatligini mustahkamlash, ularning yaqin va samarali hamkorligini ta‘minlash” dan iborat[4].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. T.: O‘zbekiston, 2015. 235-bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. T.: O‘zbekiston, 2019. 165-bet.
3. Shayxova X.A. Ma‘naviyat – kamolot ko‘zgusi. T.: G‘G‘ulom nashriyoti, 2009. 99-101 betlar.
4. “Mustahkam oila yili” Davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // Xalq so‘zi gazetasi, 2012 yil 28 fevral soni

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

SYSTEM ANALYSIS OF THE CONCEPT OF SCIENTIFIC ETHICS

Usmonov Farrukh,
Doctor of Philosophy,
University of Economics and Pedagogy

Abstract. The article examines the importance of science in the life of man and society, as well as its contribution to maintaining the balance between nature and society. It also reveals the concept of the ethics of science, aimed at observing ethical requirements in the development of science and educating scientists about their social responsibility. The author emphasizes the ethics of science, the need for scientists to comply with moral standards, maintain trust in science, promote scientific achievements that are useful to society, and support science in ensuring a balance between man and nature. Thus, at the present stage of scientific development, attention is paid to ethical issues.

Key words: ethics of science, society and nature, responsibility of the scientist, ecology, bioethics, scientific research, values, spirituality.

FAN ETIKASI TUSHUNCHASINING TIZIMLI TAHLILI

Usmonov Farrux,
Falsafa doktori (PhD)
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada fanning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini, tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni saqlashdagi hissasi o'rganilgan. Shuningdek, fan taraqqiyotida etika talablariga rioya qilish va olimlarning ijtimoiy mas'uliyatini tarbiyalashga qaratilgan fan etikasi tushunchasi ochib berilib, muallif fan etikasi, olimlarning axloqiy me'yorlarga amal qilishi zarurligi, ilm-fanga bo'lgan ishonchni saqlash, jamiyat uchun manfaatli ilmiy yutuqlarni targ'ib qilish, inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda fanning yordamini ta'kidlagan.

Kalit so'zlar: fan etikasi, jamiyat va tabiat, olim mas'uliyati, ekologiya, bioetika, ilmiy tadqiqot, qadriyat, ma'naviyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N36>

Kirish. Fan inson va insoniyat istiqboli, yer yuzida tinchlik va barqarorlik, tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatning saqlanishiga xizmat qilishdan iboratdir. Fan va insoniyat taraqqiyoti ko'p qirrali bo'lib, uning buyukligi ma'naviy kamolot darajasi bilan ham belgilanadi. Yetuk ma'naviyatga ega bo'lgan insongina jamiyat muammolarini ratsional tarzda yecha oladi. Shu bilan birga insonlarga xos bo'lgan axloq me'yorlari jamiyat taraqqiyoti va hayotiy ehtiyojlar ta'sirida o'zgarib turadi. Ta'lim-tarbiya, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi insonlarning xatti-harakatlari, ular o'rtasidagi munosabatlar ma'naviyat va axloq bilan bog'lanmasa ular imkoniyatlar chegarasidan tobora uzoqlashtirib boradi. Axloq

ma'naviyatning amalda namoyon bo'lishi bo'lib, insondagi bilim, dunyoqarash, idrok va iymon uning xulqida o'ziga xos tarzda aks etib, ma'naviyati axloqiy fazilatlar sifatida ko'rinadi. Ta'kidlash zarurki, axloq yo'q joyda inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi. Faqat axloq zaminidagina insonlarda hayotning mazmuni va maqsadi, jamiyat oldidagi burchi va mas'uliyati shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Inson jamiyatda faoliyat yuritar ekan, asosan axloq qoidalariga amal qilib yashaydi. Shunday ekan fan bilan shug'ullanuvchi olimlar ham axloqiy tomonlarni inobatga olgan holda ijod qiladilar. Fandagi axloqni o'rganuvchi va tartibga soluvchi qismi fan etikasi deb nomlanadi. Fan etikasining maqsadi fanni tadqiq etuvchi olimning axloqiy qiyofasini tarbiyalash, inson va insoniyat taqdiri uchun javobgar ekanligini anglatuvchi mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalash bilan bog'liq. Shu bilan birga bu fanning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi ilmiy tadqiqotlar jarayonida, ilmiy bilishda amal qiluvchi axloqiy normalarni tushuntirish va o'rganishdan hamda fanni ilgari siljitish jarayonida jamiyatda ro'y beradigan odob-axloqqa oid masalalarni tahlil etishdan iboratdir.

Fan etikasi — ilm-fan bilan shug'ullanishda olimning faoliyatini jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qadriyatlarga qay darajada mos ekanligini ko'rsatuvchi mezonlar va uning faoliyatidagi mazmuni va ahamiyati jihatdan axloqiy masalalarga, etikaga aloqador masalalarni aks ettiruvchi tasavvurlar sistemasi dir [1].

Fan etikasining maqsadi sifatida quyidagilarni ko'rish mumkin:

- fanning manfaatparastlik maqsadlariga xizmat qilishining oldini olish;
- ilmiy tadqiqot va eksperimentlarning shaxsga, jamiyatga, ekologik muhitga destruktiv ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'ymaslik;
- insoniyatning, jamiyat va tabiatning kelajagini ta'minlash.

Aniq, gumanitar va tabiiy fanlar hamda genetika, fiziologiya, mikrobiologiya, sanoat, meditsina, qishloq xo'jaligi, axborot texnologiyalari fanlarini rivojlantirishda fan etikasi katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga fan etikasi fanni inson va insoniyat, ularning istiqboli, yer yuzida tinchlik va barqarorlikning saqlanishi, tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatning, garmonik munosabatning saqlanishi uchun xizmat qildirish hisoblanadi.

Muhokama. “Fan etikasi” atamasini birinchi marta amerikalik faylasuf Robert King Merton tomonidan qo'llanilgan va nazariy jihatdan asoslab bergan.

Merton fan etikasi sohasida asosiy qoidalar sifatida quyidagilarni kiritadi:

1. “Fan etikasi” atamasining kiritilishi (ingl. “ethos of science”). Merton ilm-fan axloqini olimlar faoliyatini tartibga soluvchi qadriyatlar va me'yorlar tizimi sifatida ko'rib chiqadi;
2. Ilm-fan axloqining to'rtta asosiy imperativini ajratib ko'rsatish:
 - Universalizm — ilmiy yutuqlarni baholash olimning shaxsiy xususiyatlaridan mustaqil bo'lishi kerak.
 - Kommunizm — ilmiy bilimlar jamoat mulki hisoblanadi.
 - Fidoyilik — olimlar shaxsiy manfaatlarga emas, balki haqiqatga intilishga undashlari kerak.
 - Uyushgan skeptitsizm — har qanday ilmiy da'volarga tanqidiy yondashuv;
3. Ilm-fanning samaradorligi va rivojlanishini ta'minlash uchun axloqiy me'yorlarga rioya qilish zarurligini asoslash [2].

Shu bilan birga fan etikasini rivojlanishiga katta hissa qo'shgan bir nechta olimlarni ham keltirish mumkin. Jumladan, Norbert Viner “Kibernetika, aloqa va boshqarishda hayvon yoki

mashina” (1948) kitobida kibernetika rivojlanishi bilan bog‘liq axloq masalalarini ko‘targan [3] bo‘lsa, Vannevar Bush “Ilm — cheksiz chegara” (1945) nomli maqolasida ilmiy tadqiqotlarda axloqiy masalalarning ahamiyatini ta‘kidlaydi. Maykl Polani ilm-fan sohasida “shaxsiy bilim”ning ahamiyati va ilmiy hamjamiyatda axloqiy me‘yorlar zarurligiga to‘xtalib o‘tadi.

Umumiy tarzda qaralganda, “fan etikasi” atama sifatida ilmiy tadqiqotlar uchun axloqiy tamoyillarni ishlab chiqishga intilgan ko‘plab olimlar, faylasuflar va sotsiologlarning birgalikdagi sa‘y-harakatlari natijasida shakllangan.

Zamonaviy ilm-fanning ajoyib xususiyatlaridan biri shundaki, unda axloqiy masalalar tobora muhim o‘rin egallab bormoqda. Bu muammolarga qiziqish bugun paydo bo‘lib qolmagan bo‘lsada o‘zining uzoq va mazmunli tarixiga ega. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, olimning tadqiqot erkinligi va mas‘uliyati masalasi hozirgi kunda keskin ko‘rinishga kelib qoldi. Xo‘sh, olimning tadqiqot erkinligi ya‘ni huquq ekanligi va mas‘uliyati chegaralarini aniqlash nima uchun kerak? Bu borada buyuk fizik A. Eynshteyn “... bizni nafaqat tinchlikni ta‘minlash va saqlashning texnik muammosi, balki ta‘lim va ma‘rifatning muhim vazifasi ham qiziqtiradi. Agar biz shaxsiy va intellektual erkinliklarni bostirish bilan tahdid qiladigan kuchlarga qarshi kurashmoqchi bo‘lsak, unda biz nimani xavf ostiga qo‘yayotganimizni va o‘jar kurash natijasida ota-bobolarimiz biz uchun qo‘lga kiritgan erkinlik uchun nimalar qarzdor ekanligimizni aniq bilishimiz kerak. Bu erkinliksiz bizda Shekspir ham, Gyote ham, Nyuton ham, Paster ham, Faradey ham, Lister ham bo‘lmas edi. Bizda shinam turar joy, temir yo‘l, telegraf, radio, arzon kitoblar, epidemiyalardan himoyalaniş mavjud bo‘lmas edi. Madaniyat va san‘at hammaga ham xizmat qilavermas edi. Ishchini birinchi o‘rindagi zarur bo‘ladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq og‘ir mehnatdan ozod qiladigan mashinalar bo‘lmas edi. Bizning ko‘zimiz oldida hayotning qadr-qimmatini tan oladigan ruhning ixtirolari va ijodlari mualliflariga faqat erkin odamlar aylanishi mumkin edi”[4] deb ta‘kidlaydi. Shuningdek, G.S.Xromov “Fundamental ilmiy tadqiqotlar natijalari zamonaviy sivilizatsiya mavjudligining asosini tashkil etadi va uning kelajakdagi rivojlanishiga umid bog‘lab, tabiat haqidagi bilimlarni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish bilan bog‘liq”[5] ligiga to‘xtalib o‘tgan. Shunday qilib, tadqiqot erkinligi har qanday olim uchun bir xil darajada ahamiyatlidir. Uning fundamental, texnik yoki gumanitar fanlar bilan shug‘ullanishi prinsipial jihatlari muhim ahamiyat kasb etmaydi.

Tadqiqot erkinligi evolyutsiyasida qadimgi davrdan to hozirgi kunga qadar o‘rganish masalasida ta‘limni rivojlantirish va tadqiqotlar olib borishni imkonsiz qilgan turli iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy omillar ham ko‘plab uchraydi. Lekin qadimgi dunyoda tadqiqot va intellektual faoliyatga jiddiy cheklovlar qo‘yilmagan. Bu davrda olimlarni ta‘qib qilishning mavjud faktlari kamdan-kam istisno hisoblangan. Misol uchun Suqrotning fikrlari qiziq bo‘lsada, aslida uning sud jarayoni fonida jamiyat haqida asl qarashlarga ega edi. Qizig‘i shundaki, uning talabalari ayblovchilar orasida bo‘lib, bu ishning asosiy sababi talabalarining o‘zlariga yaxshi tanish bo‘lgan jamiyatni boshqarish haqidagi nazariyalarini jamoatchilikka yetkazishni istamaganligi haqidagi fikrlar bo‘lgan. Aslida, bu tadqiqot erkinligiga ma‘lum bo‘lgan birinchi cheklovlardan biri edi. Qadimgi dunyoga bo‘lgan barcha xayrixohlik bilan, bu ilm-fanga iqtisodiy tazyiqqa ta‘sir qila olmaydigan qul egasi bo‘lgan jamiyat ekanligini unutmaymiz. Shunday bo‘lsada, antik davrda olimlarning ko‘pi bilan 25 foizi empirizmni qo‘llab-quvvatlab, ixtirolar qildilar. O‘rta asrlarda, ya‘ni V asrdan XIII asrgacha texnik taraqqiyotdagi kabi ilmiy taraqqiyotda ham sezilarli pasayish yuz berdi. Buning birinchi sababi iqtisodiy inqiroz edi. Lekin, ikkinchi sababi – qadimgi jamiyat erkinliklarining yo‘qolishi va olimlarni ta‘qib

qilinibdir. Bu davrda Iskandariya qadimgi dunyoning eng yirik ilmiy markazi bo'lib, Iskandariya muzeyi bir vaqtning o'zida mashhur kutubxona va rasadxonasiga ham ega edi. Davrning ko'plab olimlari u yerda o'qigan va ijod qilishgan. Biroq, IV asrda Rimda yangi din – xristianlik davlat maqomini olgach, 391 yilda Iskandariya muzeyi aqidaparastlar tomonidan vayron qilinib va ko'plab taniqli olimlar qatag'on qilindi.

Natijalar. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, fan etikasining predmeti fan va axloq o'rtasidagi munosabatlar, ya'ni fan hamda uning rivojiga axloqiy baho berish, olimlarning xulq-atvori va ilmiy faoliyatini axloqiy jihatdan tartibga solish hisoblanadi. Fan etikasining asosiy tamoyillari orasida halollik ajralib turadi va bu olim ilmiy faoliyatning barcha jabhalarida 1921 yilda L.Vitgenshteyn “Nima haqida gapirish mumkin bo'lmasa, o'sha haqida sukut saqla” [6], degan aforizmi neopozitivistlar tomonidan shu qadar jiddiy qabul qilindiki, axloqning ilmiy tabiati va uning fan falsafasidagi o'rni masalasiga e'tibor qaratmaslikka harakat qildi. Tajriba va his-tuyg'ular axloqiy bo'lishi mumkin, ammo ilmiy jihatdan ahamiyatli emas degan qarorga kelishdilar.

M.Shlik falsafa va fan bir-biridan ajralmasligini “Tabiatni o'rganish falsafa haqida gapirmaydi, balki uni o'zida olib yuradi”[7] tarzida ta'kidlaydi va unda fan etikasini ajratish mumkin emas deb hisoblaydi. K.Popperring tanqidiy ratsionalizmida bu masala sal boshqacharoq ko'rinishga ega bo'lsa, I.Lakatos “falsifikatsionizm” talabini — faqat empirik tarzda rad etiladigan takliflarni ilmiy – “ilmiy g'urur kodeksi”[8], deb hisoblaydi. Mazkur talabning bajarilishi ilmiy ratsionallikning sharti bo'lsa, bunday shartni qabul qilish yoki qabul qilmaslik olimga bog'liq va tanlov faqat axloqiy jihatdan oqlanadi. K.Popperring ta'kidlashicha, ratsional “munosabat”ning asosini “aqlga irratsional ishonish”[9] tashkil etadi. Bu atama chalg'itmasdan qarasa bunda irratsionalizm yo'q. Ratsional munozara ishtirokchisi bo'lish uchun olimlar ratsional prinsiplarning o'zlariga nisbatan hukmronligini tan olishlari kerak. Popper ta'kidlagan metodologik tartibga solishning dastlabki asosi fandagi tanqidiy ratsionalizm axloqiy tartibga solinishiga to'g'ri keladi. Ammo boshqa har qanday ma'nodagi etika fanning usullari yoki mazmuni fan falsafasi bilan aloqada bo'lmaydi.

Fan falsafasida fan etikasi obyekt haqidagi olingan bilimlarning nafaqat faoliyat vositalari va operatsiyalarining o'ziga xos xususiyati bilan, balki qiymat-maqсадli tuzilmalar bilan ham bog'liqligini hisobga oladi va “Ilmiy maqsadlarning ilmiy bo'lmagan, ijtimoiy qadriyatlar va maqsadlar bilan bog'liqligi izohlanadi”[10]. Bugungi kunda “Zamonaviy ilm-fan tadqiqotlarining avvalida noyob, tarixiy rivojlanayotgan tizimlarni tadqiqot markaziga qo'yib, inson maxsus tarkibiy qism sifatida kiritildi. Bunday vaziyatda qadriyatlarni tushuntirish talabi nafaqat dunyo haqida obyektiv ravishda haqiqiy bilimlarni olishga bo'lgan an'anaviy munosabatga zid kelmay, balki ushbu munosabatni amalga oshirishning sharti sifatida ham ishladi”[12].

Fanlar evolyutsiyasi jarayoni shuni ko'rsatadiki, bioetika va ekologiya axloqiy tushunchalarning ilmiy bilimlar tarkibiga kirishi olib keldi. “Bioetik tadqiqotlarning rivojlanishi insonning o'zini o'zi identifikatsiyalashning an'anaviy intellektual texnologiyalarini tubdan qayta qurishga olib keladi. Inson mavjudligi chegaralarining tabiiy haqiqati illyuziyasini yo'q qilib, shifokorlar va jamoatchilik o'rtasidagi muloqot sohasiga o'tkazdi”. Shunday qilib, ilmiy — biologik, tibbiy — nutq olimni tanlov bilan duch keltiradi. Olimlarning qarorlarni qabul qilishi inson hayoti va o'limi ustidan hokimiyat chegaralarini belgilashni anglatardi[13]. Bunday vaziyatda etika va fan uzviy semantik bog'lanishga birlashdi.

Xulosa. Ekologiya sohasida N.Moiseyev inson va biosferaning koevolutsiyasini ta'minlovchi prinsiplarni hozirgi zamon fanida mavjud bo'lgan usullar yordamida yetarli aniqlik bilan shakllantirish mumkinligini ta'kidlab o'tdi. Ushbu tamoyillar ratsional xatti-harakatlarning asosi sifatida qabul qilinishi va insonga, aniqrog'i insoniyatga bog'liq bo'lib, axloqiy ko'rsatmalarni tubdan o'zgartirishni talab qiladi[14]. Ekologik madaniyat ekologik yo'naltirilgan ko'pchilik odamlarning irodasi bilan mos bo'lmaydi. Ekologik qonunlar muqarrarlik bilan ishlaydigan va odamlarning axloqiy tamoyillari hamda madaniy yo'nalishlariga bog'liq bo'lmagan mexanikadan farqli o'laroq ekologik "ssenariylarni" amalga oshirishi odamlarning o'z iroda va axloqlari bilan ishtirokini ta'minlaydi. Bu borada I.K.Liseyev ijtimoiy fikr, madaniy universallar tizimini shakllantirishga antroposentrik, sotsiosentrik, kosmosentrik va hatto biosentrik yondashuvlar bosqichlaridan ketma-ket o'tib, ularning barchasi aslida ekologik falokatga olib kelishiga ishonch hosil qilgani hoida "...texnogen sivilizatsiya rivojlanishini aniqlagan dominantlar ekogen sivilizatsiya dominantlari bilan almashtirilishi kerak ekanligini anglashga tobora ko'proq moyil" [15] deb ta'kidlaydi. Jamoat fikridagi o'zgarish nafaqat odamlarning ekologik bilimlarga bo'lgan munosabatiga, balki bu bilimlarning o'ziga ham ta'sir qiladi.

Umuman olganda, fan etikasining tizimli tahlili jiddiy masala sanaladi. Muammoga javob berish uchun har bir fan tarkibiga axloqni kiritish bilan masala yechilmaydi. Fanlarning o'zi aslida axloqqa, ilmiy bilimlar sohasida madaniy universallarni erkin tanlash nazariyasiga aylanishi kerak bo'ladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Тўраев Б. Фан этикаси. 2020 йил 6 август. <https://www.bukhari.uz/?p=11373>
2. Мертон Р. Социальная теория и социальная структура. Москва. Хранитель. 2006. – С. 770.
3. Винер Н. Кибернетика, или Управление и связь в животном и машине. / Пер. с англ. И.В. Соловьева и Г.Н. Поварова; Под ред. Г.Н. Поварова. – 2-е издание. – М.: Наука; Главная редакция изданий для зарубежных стран, 1983. – 344 с.
4. А. Эйнштейн, «Собрание научных трудов»; - с. 128.
5. Г.С. Хромов, «О свободе научных исследований», Российский химический журнал, №6, 1999
6. Витгенштейн Л. Философские работы. Ч.1. М.,1994. – С.73.
7. Шлик М. Философия и естествознание // Эпистемология и философия науки. -2004. - Т. I. - № 1. - С. 226.
8. Лакатос И. Фальсификация и методология научно-следовательских программ. -М., 1995. - С. 17.
9. Поппер К. Открытое общество и его враги. Т. 1. - М., 1992. - С. 67.
10. Степин В.С. Теоретическое знание. Структура, историческая эволюция. - М., 2000. - С. 634.
11. Усмонов Ф. Н. Основные этапы развития научной рациональности //Theoretical & Applied Science. – 2017. – №. 11. – С. 181-184.
12. Тищенко П.Д. Феномен биоэтики // Вопросы философии. - 1992. - № 3. - С. 111.
13. Rizaev I. I. The structure of the social system as the basis for the self-organization of society //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 7. – С. 190-195.
14. Моисеев Н.Н. Человек и ноосфера. - М., 1990.
15. Лисеев И.К. Экологические императивы современной цивилизации // Человек. Наука. Цивилизация. К 70-летию академика РАН В.С. Степина. - М., 2004. - С. 760.

16. Tadjievna H. L., Radjabovich E. T. Human Spiritual Potential and Popular Culture //European Scholar Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 25-27.
17. Yuldasheva D. Bioethics in the context of modern science //American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 6. – С. 49-54.
18. Аликулов С., Ризаев И. И. Образование и современные технологии //Моделирование и конструирование в образовательной среде. – 2021. – С. 27-31.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

SOCIAL, ECONOMIC, AND CULTURAL FOUNDATIONS OF WOMEN'S EMPOWERMENT: FROM HISTORY TO THE PRESENT

Mirjavkharova Feruzakhon Usmonjonovna,
independent researcher of Fergana State University

Abstract. The article examines the factors leading to women's economic freedom, their support in the labor market and workplaces, economic policies and their role in society, and how these changes affect the development of society. Also included are cultural values, traditional norms, and cultural initiatives undertaken to combat them. Today, the results of global and national initiatives to ensure gender equality and reduce violence against women are discussed. The article emphasizes the importance of supporting women as an integral part of development in all spheres of society and reflects on the measures that need to be implemented in this regard in the future.

Key words: women's support, social equality, economic freedom, gender equality, historical development, women's rights, cultural values, women's protection, labor market, women's social protection

AYOLLARNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIIY, IQTISODIY VA MADANIY ASOSLARI: TARIXDAN BUGUNGI KUNGACHA

Mirjavxarova Feruzaxon Usmonjonovna,
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada, xotin-qizlarni iqtisodiy erkinlikka erishish yo'lidagi omillar, ularni mehnat bozori va ish joylarida qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy siyosatlar va jamiyatdagi roli hamda bu o'zgarishlarning jamiyat taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani o'rganiladi. Shuningdek, madaniy qadriyatlar, an'anaviy normativlar va ular bilan kurashish uchun amalga oshirilgan madaniy tashabbuslar ham kiritiladi. Bugungi kunda gender tengligini ta'minlash va xotin-qizlarga qarshi zo'ravonlikni kamaytirish bo'yicha global va milliy miqyosdagi tashabbuslarning samarasi haqida ham so'z yuritiladi. Maqola ayollarni qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini jamiyatning barcha sohalaridagi taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida ta'kidlaydi va kelajakda bu borada amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar haqida fikr yuritadi.

Kalit so'zlar: ayollarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy tenglik, iqtisodiy erkinlik, gender tengligi, tarixiy rivojlanish, ayollarning huquqlari, madaniy qadriyatlar, ayollarni himoya qilish, mehnat bozori, ayollarni ijtimoiy himoya qilish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N37>

Kirish. Ayollarni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy asoslari millatlar va xalqlar rivojlanishining ajralmas qismi sifatida shakllangan. Har bir jamiyatda ayolning o'rni, uning jamiyatdagi roli va huquqlari tarix davomida o'zgarib borgan, ayniqsa, zamon o'tishi bilan dunyo miqyosida gender tengligi masalasi jiddiy ravishda ko'tarildi. Ayollarni qo'llab-quvvatlash faqatgina ularga adolatli imkoniyatlar yaratish bilan cheklanmaydi, balki bu

jamiyatning yanada barqaror va farovon rivojlanishini ta'minlashga yordam beradigan strategiya sifatida ko'riladi.

Tarixiy manbalarda ayollarning oila va jamiyatdagi o'рни alohida ta'kidlanadi. Eng qadimgi davrlardan boshlab, ayollar oilaning mustahkamligi va avlodlarning tarbiyasiga mas'uliyatli ravishda ta'sir ko'rsatib kelganlar. Ular o'z oilalari va jamiyatlari uchun kurashib, ko'pincha erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo'lmasalar ham, o'z yurtlarini, o'z xalqini himoya qilishda faol ishtirok etganlar. Ayollar qadimdan o'z oilalari, jamiyatlari va davlatlari uchun, ayniqsa, inqilobiy davrlarda, urushlarda yoki siyosiy o'zgarishlar paytida, alohida ahamiyat kasb etgan. Bunday tarixiy kontekstda ayollarni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy va madaniy asoslari shakllanib, keyinchalik iqtisodiy hamkorlikni ta'minlashda mustahkam poydevor yaratdi.

Ayniqsa, XX asrda ayollarning jamiyatdagi o'рни, huquqlari va imkoniyatlari sezilarli darajada o'zgardi. Ayollarning siyosatga, iqtisodiy jarayonlarga va ijtimoiy hayotga faol ravishda aralashishlari, ularga saylov huquqining berilishi, ta'lim olish imkoniyatlarining oshishi kabi muhim qadamlar atrof-muhitda tenglikni yaratish, jamiyatni yanada rivojlantirish va jamiyatdagi ayrim stereotiplarga qarshi kurashish bo'yicha mustahkam asoslarni yaratdi.

Bugungi kunda ayollar faqatgina oila va farzand tarbiyasiga mas'ul emas, balki davlat boshqaruviga, iqtisodiy faoliyatga, san'atga va ilm-fanga faol hissa qo'shadigan jamiyatning ajralmas qismlariga aylandilar. Ayollarni qo'llab-quvvatlash – bu jamiyatda adolatli va barqaror rivojlanishni ta'minlashning asosiy omillaridan biridir.

Ayollarni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy asoslari ham juda muhimdir. Agar ayollar jamiyatning iqtisodiy faoliyatiga to'liq jalb qilinsa, ular nafaqat o'z oilalarining farovonligini oshiradilar, balki butun jamiyatga katta foyda keltiradilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollarning iqtisodiy ishtirokini oshirish, nafaqat ularning shaxsiy farovonligini yaxshilaydi, balki butun jamiyatni barqaror va izchil rivojlantirishga olib keladi. Jamiyatda ayollarning rolini tan olish va ularni qo'llab-quvvatlash, ularga teng huquqlar berish – bu nafaqat huquqiy, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali strategiyadir.

Bundan tashqari, ayollarni qo'llab-quvvatlashning madaniy asoslari ham jiddiy ahamiyatga ega. Har bir millatning madaniyati, an'analari va qadriyatlari ayollarni qanday e'zozlash va hurmat qilishiga bevosita ta'sir qiladi. Ayollar jamiyatning ma'naviy yuksalishida, an'analarini saqlab qolish va yangi qadriyatlarni shakllantirishda alohida rol o'ynaydi. Ularning madaniy hayotdagi ishtiroki nafaqat milliy qadriyatlarni yashashda, balki global madaniy xazinaning bir qismi sifatida muhimdir.

Bularning barchasi ayollarni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarini o'zaro bog'lab, ularning jamiyatdagi o'рни va roli davomiy ravishda kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Maqsad, faqatgina ayollarni o'z huquqlariga erishishlari uchun sharoit yaratish emas, balki ular jamiyatning barcha sohalarida faol ishtirok etishlarini ta'minlashdir.

Ushbu maqolada ayollarning jamiyatdagi o'рни, ularni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy asoslari haqida batafsil tahlil qilinadi. Tarixdan bugungi kungacha bo'lgan davrda ayollarning o'рни qanday rivojlanib borganini, ularni qo'llab-quvvatlashning jamiyat uchun qanday ahamiyatga ega ekanini ko'rsatishga harakat qilamiz. Bu orqali ayollarning jamiyatdagi roli va ularning huquqlarining kengayishi, nafaqat ularning o'zi, balki butun insoniyatning rivojiga qanday ta'sir ko'rsatishini tushunishga yordam beramiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ayollarni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy asoslari haqida adabiyotlar tahlilini amalga oshirishda O'zbekiston va xorij olimlarining ilmiy ishlaridan foydalanish zarur. Bu sohada ko'plab tadqiqotlar va ilmiy asarlar mavjud bo'lib, ular ayollarning jamiyatdagi o'rni, huquqlari, iqtisodiy ishtiroki, ta'lim, sog'liqni saqlash, siyosatdagi roli va boshqa ko'plab sohalarda muhim o'rin tutadi. Quyida bu mavzu bo'yicha ba'zi asosiy adabiyotlar va tahlil qilinadigan jihatlar keltirilgan:

Rano Nuralieva o'z ilmiy ishlarida o'zbek ayollarining huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyatdagi o'rni va statusini ko'rib chiqadi. U O'zbekistonda ayollarning ijtimoiy himoyasi va turmush sharoitlarini yaxshilashga doir qonuniy va ijtimoiy chora-tadbirlarni tahlil etadi. Dilorom Kholmiraeva esa, ayollarning oiladagi o'rni, gender tengligi va jamiyatda ayollarga nisbatan stereotiplarni o'zgartirishga qaratilgan tahlillarni olib boradi.

Xorij olimlaridan Judith Butler "Gender Trouble" asarida genderning ijtimoiy konstruktsiya sifatida shakllanishi va ayollarga nisbatan stereotiplarning ijtimoiy rolini tahlil qiladi.

Amartya Sen "Development as Freedom" asarida ayollarni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ko'rsatadi. Uning fikricha, ayollarga imkoniyatlar yaratish, ularning iqtisodiy ishtirokini oshirish jamiyatning umumiy taraqqiyotiga olib keladi.

Ayollarni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy asoslarini o'rganish ko'plab ilmiy yondashuvlarni, jumladan, gender tengligi, iqtisodiy imkoniyatlar va madaniy normativlar kabi masalalarni o'z ichiga oladi. O'zbek olimlarining ishlarida milliy xususiyatlar va o'zbek jamiyatidagi o'ziga xos masalalar ko'rib chiqilsa, xorij olimlarining asarlari global miqyosda ayollarni qo'llab-quvvatlashning umumetnik yondashuvlarini tahlil qiladi.

Muhokama. Insoniyat bugungi kunga qadar ulkan ijtimoiy o'zgarishlar va siyosiy inqiloblar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va globalashuv davrini boshdan kechirdi. Ushbu tarixiy jarayonlar barcha sohalarga xususan, ayollarning jamiyatdagi mavqeyiga ham jiddiy ta'sir o'tkazdi. Quldorlik davridan to bugungi davrgacha ayollarning jamiyatdagi o'rni bosqichma bosqich yuksalib borgan bo'lsada, uning tubdan o'zgartirish davri XX asrga to'g'ri keladi. O'tgan asr davomida yuz bergan tarixiy o'zgarishlar jamiyatning turli sohalarda ayollarning rolini sezilarli darajada o'zgartirdi. Ayollarning huquqiy maqomida tub o'zgarishlar ro'y berdi, gender tengligi g'oyasi odamlar ongini zabt eta boshladi. Aynan, XX asrda dunyoning aksariyat mamlakatlarida ayollar birinchi marta saylov huquqini qo'lga kiritdilar va siyosiy jarayonlarning to'liq ishtirokchisiga aylandilar. Ko'pgina demokratik mamlakatlarda, jumladan, Buyuk Britaniya va Amerika Qo'shma Shtatlarida ayollar birinchi jahon urushigacha ovoz berish huquqini qo'lga kirita olishmadi. 1893-yil 19-sentyabrda gubernator lord Glazgo yangi saylov to'g'risidagi qonunni imzoladi. Ushbu muhim qonunchilik natijasida Yangi Zelandiyada ayollar parlament saylovlarida ovoz berish huquqiga ega bo'lgan dunyodagi birinchi davlatga aylandi. Bu yutuq Keyt Sheppard boshchiligidagi saylovchilarning ko'p yillik sa'y-harakatlari natijasi edi. 1891-, 1892- va 1893-yillarda ular parlamentni ayollarga ovoz berish huquqini berishga chaqirgan bir qator ommaviy petitsiyalarni tuzdilar.¹

So'ngi yillarda saylovda ayollar qatnashish kerakmi yoki yo'qmi degan savollarga umuman o'rin qolmagan. Ayollar nafaqat saylash, balki saylanish huquqiga ham ega bo'ldilar. Hozirda ayollar barcha mamlakatlar parlamentlari va hukumatlarida o'zlarining munosib

¹ New Zealand women and the vote, URL: <https://nzhistory.govt.nz/politics/womens-suffrage>, (Manatū Taonga — Ministry for Culture and Heritage), updated 19-Sep-2023

o‘rin;ariga ega. UPA Parline: Global data national parliaments tashkilotining internet saytlarida berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, milliy parlamentlarda ayollar ulushi 2024-yil iyun holatiga ko‘ra 26,9 foizni tashkil etmoqda, 1997-yil 1-yanvar holatiga xuddi shu ko‘rsatgich taxminan 11 foizni tashkil etgan.¹ 2024-yil iyun oyi hisobiga ko‘ra, Ruanda parlamentida 2018-yilgi saylovlardan so‘ng ayollar 61,3% ni tashkil etdi va bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinni egalladi. O‘zbekiston 2019-yilgi saylovlardan so‘ng, parlamentning quyi palatasidagi ayollarning ulushi 34,6 foizni tashkil etib, dunyo reytingida 47 o‘rinda turibdi.

Tarixiy tahlillardan ko‘rish mumkinki, dunyo miqyosida ayollar va erkaklar teng huquqliligi rasman XX asrda tan olingan va huquqiy jihatdan e‘tirof etilgan bo‘lsa ham, ayollar insoniyatning ko‘p ming yillik tarixida eng keskin vaziyatlarda o‘z oilasi va jamiyat manfaatlarini doimo erkaklar bilan bir safda turib, himoya qilganlar. Ayol doimo jamiyatning eng muhim a‘zosi va ustunlaridan biri bo‘lib kelgan. Zero, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan xotin-qizlarni e‘zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi”²

Ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni va ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy jarayonlardagi ishtiroki ko‘plab tarixiy manbalarda e‘tirof etilgan. Xususan, davlatchiligimiz va milliy-madaniy taraqqiyot tarixini o‘rganish bo‘yicha eng muhim manbalardan biri bo‘lgan “Avesto”da ayollarning oila va jamiyatdagi o‘rni haqida atroflicha bayon etilgan.

“Markaziy Osiyo xalqlarining “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Go‘r o‘g‘li”, “Oysuluv”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho”, “Manas” kabi dostonlarida erkak va ayol o‘rtasidagi sof insoniy munosabatlar, muhabbat, sadoqat, yorga vafo mavzusi yoritilgan. Ayol doimo erkak kishiga sodiq do‘st va yor, oqila, topqir, oilaviy tinchlikning posboni sifatida ulug‘langan, jamiyat hayotida faol inson sifatida gavdalantirilgan.”³ Asrlar davomida bunday dostonlar jamiyatda ayolga oilaning teng a‘zosi, farzandlar tarbiyasida muhim asos, davlat boshlig‘ining ishonchli maslahatchisi sifatida qarashlariga muhim omil vazifasini o‘tab keldi.

Boy tariximizda nafaqat oila taqdiri, balki butun millatlar, davlatlar taqdiriga katta ta‘sir o‘tkaza olgan, buyuk va qudratli ayollar juda ko‘p bo‘lgan. Ular davlat rahbari, maslahatchi, yetuk olim, shoira sifatida tarixiy taraqqiyot va o‘zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari bo‘lgan. Misol uchun, To‘maris qadimiy massaget qabilalarining, Zinoviya qadimiy Palmiraning hukmdorlari bo‘lishgan. Ro‘yxatni ispan qirolichasi Izabella, arman malikasi Tamaralar bilan davom ettirish mumkin. Bunday kuchli va shijoatli ayollar tarix sahnasida munosib o‘ringa ega bo‘lishgan va tarixiy taraqqiyotga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatishgan.

Nafaqat Sharq xalqlari balki butun dunyo tarixchilari nazariga tushgan To‘maris va uning jasorati haqida fikr-mulohazalar juda ko‘plab tarixiy manbalarda uchraydi⁴.

Yunon tarixchisi Gerodotning yozishicha, “o‘sha davrda Eronda yuzaga kelgan ahamoniylar saltanati juda katta hududlar– Midiya, Lidiya va Bobilni egallagan. Shunday katta hududni zabt etgan ahamoniylar saltanati hukmdori Kir II o‘zining qariyb ikki yuz ming kishilik lashkari bilan mamlakatimiz hududiga hujum qilganida, massagetlar qabilasi boshlig‘i To‘maris

¹ UPA Parline: Global data national parliaments: Women in national parliaments. <http://archive.ipu.org/wmn-e/arc/world010197.htm>

² Mirziyoyev Sh.M. Ayollarimizning baxti – xalqimiz, jamiyatimizning baxtidir // Xalq so‘zi, 2018, 8 mart.

³ Kayumova, G. N. (2024). Sharq mutafakkirlarining oila mustahkamligining me‘zonlari xususidagi qarashlari. *International sciences, education and new learning technologies*, 1(5), 28-31.

⁴ Геродот, История (в девяти книгах), Л., 1972; Ўзбекистон тарихи — давлат ва жамият тараққиёти, 1 қисм, Тўмарис, 2000.

bilan to'qnashadi. Kir II ning o'z nikohiga olish taklifini rad etgan To'marisning o'g'li xiyla bilan qo'lga olinadi. Lekin To'maris dushmanga yon bermay, uni jangga chaqiradi. Yunon tarixchilarining e'tirof etishicha, To'maris boshchiligidagi massagetlar ahamoniylarga shunchalik qaqshatqich zarba beradilarki, natijada dushmanning bitta ham jangchisi omon qolmaydi. Bu hol juda qadimdan oq mamlakatimizda nihoyatda jasur, erksevar, harbiy mahorati yuksak va boshqaruv qobiliyati kuchli ayollar bo'lganligidan dalolat beradi".¹

Keyingi davrlarda ham ayollar davlat va jamiyat boshqaruvida, ijtimoiy-madaniy munosabatlarda faol bo'lganlarini VII o'rtalari Buxoroni boshqargan malika Qabaj xotun misolida ko'rishimiz mumkin. Malika zukko, adolatli va xalqparvarlik bilan davlatni boshqargan. Davlat boshqaruv juda mas'uliyat bilan yondashgan.

Tariximizdan bunday malikalarga juda ham ko'plab namunalar keltirishimiz mumkin. Ayniqsa Temuriylar davrida ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi yanada ortganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga albatta, Amir Temurning ayollarga nisbatan yuksak ehtirom va ishonch bilan munosabatda bo'lganligi sabab bo'lgan, deyish mumkin.

Amir Temur o'z faoliyati davrida ayollarning oila, jamiyat va davlat hayotidagi ahamiyatini teran tushungan, o'g'illari va nabiralariga kelin tanlash ishiga davlat ishi darajasida qaragan. "O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'liq-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosha berib, kelin tushirdim"². Balki, shu sababli temuriy malikalar orasidan ko'plab kuchli ayollar chiqqan. Amir Temurning rafiqasi Saroymulk xonim, Shohruh Mirzoning rafiqasi Gavharshod begim, Xalil Sulton Mirzoning xotini Shod Mulk Xotun, Husayn Bayqaroning xotini Xadicha begim, Zahiriddin Muhammad Boburshohning qizi Gulbadan begim, Shox Jahonning xotini Mumtoz Mahal va boshqalar. Ushbu ro'yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Temuriy malikalar haqida ko'plab asarlarda qiziqarli ma'lumotlar mavjud. "Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Sharofiddin Ali Yazdining "Zafarnoma", Ibn Arabshohning "Ajoyib ulmakdur fi axbori Taymur", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Xondamirning "Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar", Gulbadan begimning "Humoyunnoma" kabi asarlar shular jumlasidandir".³

Bu malikalar orasidan Bibixonim (Saroymulk xonim) faoliyatiga alohida to'xtalib o'tish zarur. Ushbu tahlil bizga tarixiy jarayonlarda ayollarning roli qanday bo'lganligini yanada ochiqlaydi. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida keltirilishicha: "Bibixonim o'z zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor, maslahatdon va yetuk aql-zakovat sohibasi, shuningdek, husn-latofat bobida ham Benazir edi. Bibixonim insonparvar, vatanparvar, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo'lgan"⁴. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Bibixonim ilm-ma'rifatga alohida e'tibor berib, ilm olish istagida bo'lgan ilmi toliblarga har doim xomiylik qilgan. Bibixonim o'z mablag'lari hisobidan

¹ Абулова М. "O'zbek" davlatchiligi tarixida ayollarning o'rni va roli //Цифровизация современного образования: проблема и решение. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 53-57.

² Amir Temur o'g'itlari, – Т.,1992, 58-bet.).

³ Файзиев Турғун, Темурий маликалар. Рисола. Т., А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994, 3 б.

⁴ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. Тошкент. 299 бет.

Samarqandda onasining xotirasiga bag'ishlab katta madrasa qurdirgan¹. Ushbu faoliyatni o'sha davrda ilm olishga intilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun qilingan eng yuksak namunalardan biri sifatida baholash mumkin. Bibixonim madrasasi o'z davrining yetakchi oliy dargohlaridan hisoblangan va u yerda minglab yoshlar ta'lim olgan.²

Amir Temurning shavkatli davlatchiligida Bibixonimning ham alohida orni bor deyish mumkin. Ko'plab harbiy yurishlarida Bibixonim Sohibqironga hamrohlik qilgan. Tarixchi T.Fayziyevning asrlarida keltirilishicha: "tarixiy manbalarning yakdillik bilan bergan ma'lumotlariga ko'ra, o'ta ziyrak, tadbirkor Saroy Mulk xonim saltanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda o'zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Amir Temur Saroy Mulk xonimga oshkora bo'ysunmasa-da, biroq uning oqilona maslahatlariga o'zida qandaydir ehtiyoj sezib turgan"³.

Amir Temur va Bibixonim munosabatlari, malikaning davlat siyosati va boshqaruvidagi ishtiroki haqida juda ham ko'plab tarixiy faktlar bilan birgalikda xalq og'zaki ijodida juda ham ko'p rivoyatlar mavjud. Amir Temur Eronga qarshi yurish boshlaganda, Isfahonning qamali ko'pga cho'zilib, qo'shinni ozuqa bilan ta'minlashga mablag' yetishmay qoladi. Nihoyat, Amir Temur Samarqandga chopar yo'llab, Saroy Mulk xonimga maktub jo'natadi. Maktub qisqa bo'lib, "Qo'shinning zaxirasi tugadi, xazinadan zar yuboring", deyilgandi. Saroy Mulk xonim maktub mazmunidan ogoh bo'lgach, maktubning orqa tomoniga "Ulug' amir, zaringiz tugagan bo'lsa, siyosatingiz ham tugadimu?" — deb yozadi va uni choparga tutqazadi. Amir Temur maktubni olgach, Saroy Mulk xonimning kinoyali fikrini o'ylab-o'ylab, nihoyat bir qarorga keladi: lashkargohda so'yib yeyilgan qo'y, qoramol, ot va tuya suyaklarini o'sha kuniyoq yig'dirib, turli hajmlarda qirqtirib, katta hajmdagisiga katta qiymat, kichigiga kichik qiymat belgilab, unga po'lat muhrni qizdirib tang'a bostiradi hamda muvaqqat pul o'rnida muomalaga kiritishga farmon beradi. Natijada, qo'shni shahar va qishloqlarda suyak pulga qo'shin uchun oziq-ovqat sotib olinadi. Tez kunda Isfahon shahri taslim bo'lgach, suyak pullar zar bilan almashtiriladi.

Keyingi davrlarda ham ayollar adabiyot, san'at, madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda juda faol bo'lishgan. Bu harakatlar XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida yanada jadallashgan. Jadidchilik harakati vakillari bu davrda jamiyatning umumiy savodxonligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy muammolarni hal etishga qaratilgan yuksak maqsadlar bilan sug'orilgan g'oyalar atrofida birlashishgan. Nozimaxonim, Ra'noxonim, Xayriniso Majidova, Maryam Sultonmurodova, Tojiyaxonim, Soliyaxon Abduxoliq qizi, Matluba Muhammedova, Layloxonim va boshqa yana ko'plab ayollar jadidchilik harakati g'oyalarini keng yoyish uchun maorif, tibbiyot, madaniyat va san'at sohalarida jonbozlik ko'rsatishgan.

Natijalar. Bugungi kunga kelib, ayollar faqat oila bekasi, tarbiyachigina emas, u jamiyatning barcha sohalarida jonbozlik ko'rsatuvchi faol inson. Ayol kishi tabiatan nafis, mehribon, san'atga oshufta, jonkuyarlik kabi fazilatlar bilan ko'p sohalarda namuna bo'la oladi. Nima uchun ayollarni qo'llab-quvvatlash masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratamiz? Chunki, oiladagi maishiy yumushlar, xo'jalik yuritish va farzand tarbiyasining

¹ Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406). М., 1990, с.211, Зоҳидов П., Темур даврининг меъморий қаҳқашони. Т., 1996.

² Вамберн, Ҳерман. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Китобдан парчалар /Тўпл.: С. Аҳмад/. — Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. 96 бет.

³ Файзиев Турғун, Темурий маликалар. Рисола. Т., А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994, 6 б.

aksariyat yuki ayollarga tushadi, bu ayniqsa sharqona oilaviy an’alarda yaqqol ko’zga tashlanadi. Jamiyatda muvaffaqiyatga erishgan ayollarning bosib o’tgan yo’liga e’tibor berilsa, ularning orqasida doimo ularni qo’llab-quvvatlab turadigan yaqinlari yoki ma’lum bir ijtimoiy sharoit yuzaga kelganligi bilan izohlash mumkin.

So’ngi yillarda ayollarning barcha sohalar kabi rahbarlik lavozimlarida ham ulushlari ortdi. Rahbar sifatida ayollar talabchanlik, mehnatsevarlik, jonbozlik, insonparvarlik fazilatlarini namoyon etishmoqda. Mamlakatimizda rahbar ayollarning ulushi 27 foizga yetdi.

Quyida ba’zi manbalarga murojaat qilgan xolda fikrimizni asoslaymiz:

O’zbekiston Oliy Majlisning Qonunchilik palatasida ayollar soni 2024-yilga kelib, umumiy deputatlarning 22% ni tashkil etmoqda. 2019-yilda bu raqam 17% edi. 2024-yilda Oliy Majlis Senatida 25% ayollar ishtirok etmoqda.¹ Mahalliy kengashlar va boshqaruv tizimida ayollar soni 2023-yilga kelib 30% ni tashkil etmoqda. Bu, O’zbekistonda ayollarning siyosiy ishtirokini oshirishga qaratilgan kengaytirilgan tashabbuslarning natijasidir.

Ayollarni qo’llab-quvvatlash va gender tenglikka oid davlat siyosatini amalga oshirish asnosida Ayollarni siyosiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta’minlash uchun 2016-yilda “Ayollarni qo’llab-quvvatlash va gender tengligini ta’minlash komissiyasi” tashkil etildi.

O’zbekistonda 2020-yilda “Ayollarga nisbatan zo’ravonlikni oldini olish va gender tengligini ta’minlash” bo’yicha yangi qonunlar va dasturlar qabul qilindi. Bu qonunlar ayollarga qarshi zo’ravonlikni kamaytirish va ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.²

O’zbekistonda ayollarning tadbirkorlik sohasidagi faolligi oshmoqda. 2023-yilda ayollar o’rtasida tadbirkorlik darajasi 23% ni tashkil etdi. Bu 2018-yilda 14% edi. Ayollarga tadbirkorlik faoliyatida yordam berish maqsadida davlat tomonidan maxsus grantlar va moliyaviy qo’llab-quvvatlash dasturlari ishlab chiqilgan.³

O’zbekiston BMTning “Ayollarni qo’llab-quvvatlash dasturi” (UN Women) bilan hamkorlikda ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini kengaytirish bo’yicha ko’plab tashabbuslarni amalga oshirmoqda. O’zbekistonning BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi natijasida gender tenglikni ta’minlash, ayollarning huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy himoyaga oid ko’plab xalqaro shartnomalar ratifikatsiya qilindi.⁴

Bundan tashqari, nodavlat muassasalar tomonidan ham ayollar faolligini qo’llab-quvvatlaydigan juda ham ko’plab loyihalar ishlab chiqilmoqda. Shulardan bir “SelfMama Uzbekistan” loyihasidir. Ushbu loyiha doirasida O’zbekistonda ilk bor ayollar karyera forumi (Uzbekistan Women Career Forum – 2021) o’tkazildi. Ushbu forumda o’zining sohasida yetuk marralarga erishgan, ijtimoiy faol ayollar, olimalar, tajribali ayollar yoshlarga o’zlarining tajriba va fikr-mulohazalari bilan o’rtoqlashishdi. Ular ayollar jamiyatda oila mustahkamligi va farzandlar tarbiyasida qanday rol o’ynasalar, millat va mamlakat rivojida ham ana shunday muhim o’rnolari borligini alohida ta’kidlashdi.

Xulosa. O’zbekistonda ayollarning siyosiy va ijtimoiy faolligi sezilarli darajada oshmoqda. Ayollarning siyosiy hayotda ishtiroki, iqtisodiy faoliyatga qo’shgan hissasi, hukumat tomonidan gender tengligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar so’nggi yillarda sezilarli darajada yaxshilandi. Biroq, hali ham bu sohada amalga oshirilishi kerak bo’lgan ko’plab islohotlar va tashabbuslar mavjud.

¹ O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi rasmiy veb-sayti, [oliymajlis.uz](<https://www.oliymajlis.uz>)

² O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti, [president.uz](<https://www.president.uz>)

³ O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi, [stat.uz](<https://www.stat.uz>)

⁴ BMTning O’zbekistondagi vakolatxonasi, [unwomen.org](<https://www.unwomen.org>)

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. New Zealand women and the vote, URL: <https://nzhistory.govt.nz/politics/womens-suffrage>, (Manatū Taonga — Ministry for Culture and Heritage), updated 19-Sep-2023
2. UPA Parline: Global data national parliaments: Women in national parliaments. <http://archive.ipu.org/wmn-e/arc/world010197.htm>
3. Mirziyoyev Sh.M. Ayollarimizning baxti – xalqimiz, jamiyatimizning baxtidir // Xalq so‘zi, 2018, 8 mart.
4. Kayumova, G. N. (2024). Sharq mutafakkirlarining oila mustahkamligining me‘zonlari xususidagi qarashlari. International sciences, education and new learning technologies, 1(5), 28-31.
5. Геродот, История (в девяти книгах), Л., 1972; Ўзбекистон тарихи — давлат ва жамият тараққиёти, 1қисм, Тўмарис, 2000.
6. Абулова М. “O ‘zbek” davlatchiligi tarixida ayollarning o ‘rni va roli //Цифровизация современного образования: проблема и решение. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 53-57.
7. Amir Temur o‘g‘itlari, – Т.,1992, 58-bet.).
8. Файзиев Турғун, Темурий маликалар. Рисола. Т., А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994, 3 б.
9. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти Тошкент. 299 bet.
10. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406). М., 1990, с.211, Зоҳидов П., Темур даврининг меъморий қаҳқашони. Т., 1996.
11. Вамберн, Ҳерман. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Китобдан парчалар /Тўпл.: С. Аҳмад/.— Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. 96 bet.
12. Файзиев Турғун, Темурий маликалар. Рисола. Т., А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994, 6 б.
13. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi rasmiy veb-sayti, [oliymajlis.uz](<https://www.oliymajlis.uz>)
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti, [president.uz](<https://www.president.uz>)
15. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, [stat.uz](<https://www.stat.uz>)
16. ВМТning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, [unwomen.org](<https://www.unwomen.org>)

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

SPIRITUAL AND IDEOLOGICAL MECHANISMS FOR ENSURING THE STABILITY OF SOCIETY

Primov Baxriddin Abdirakhmonovich,
Tashkent State University of Economics
Acting Professor of the Department of Philosophy
G-mail: baxriddinprimov57@gmail.com

Abstract. In our article, the idea that the events related to the processes taking place in the world are, first and foremost, increasing the scope of technological progress and various ideological and ideological views influencing it, and this is manifesting its power, as if imperceptibly for national values, does not leave a single person who thinks about the state and society indifferent. We consider it our important task to cover the processes that have such a strong impact.

Key words: cultural threats, modern technological threats, global threats, global problems manifest in a person's lack of meaning in life, lack of goals, rejection of their values, feelings of anxiety and depression, indifference and indifference, loss of human freedom, following any ideas.

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MA'NAVIY VA G'OYAVIY MEXANIZMLAR

Primov Baxriddin Abdiraxmonovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Falsafa kafedrası v.b., dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda dunyoda kechayotgan jarayonlari bilan bog'liq hodisalar eng avvalo texnologik taraqqiyotning va unga ta'sir etuvchi turli g'oyaviy va mafkuraviy qarashlarning ko'lami oshib borayotgani bu esa milliy qadriyatlarga sezdirmagandek o'z kuchini ko'rsatayotgani tafakkuri o'y-g'oyasi davlat hamda jamiyat sha'nini o'ylaydigan hech bir shaxsni befarq qoldirmaydi. Ana shunday, kuchli ta'siri vositasiga ega bayonlarni yoritib berishni muhim vazifamiz deb hisoblaymiz.

Kalit so'zlar: madaniy tahdidlar, zamonaviy texnologik tahdidlar, global tahdidlar, global mumammolar, insonda hayot mazmunining yo'qligi, maqsadlari yo'qoligi, o'z qadriyatlaridan voz kechish, tashvishni va tushkunlikni his qilishi, loqaydlik va beparvoligi, inson erkinligini yo'qotishi, istalgan g'oyalarga ergashishida namoyon bo'lmoqda.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N38>

Kirish. Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan ziddiyatlar o'zaro g'oyaviy va mafkuraviy to'qnashuvlar dunyo jamoatchiligi oldida xavotirlarni oshirmoqda. Ma'lum bir tahdidlar orqali o'zning geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirishda ayrim hududlarni g'oyaviy va mafkuraviy poligonlarga aylantirmoqda. Aslida bunday holatlarning olini olishni paysalga solayotgandek taassurot uyg'otmoqda. Ana shunday jarayonlarni anglagan holda fikr va tafakkur qilish uchun mulohaza yuritib izohlashga harakat qilmoqdamiz.

Adabiyotlar tahlili. Dunyoning bir bo'lagi bo'lgan mamlakatimizda ham davlat va jamiyat barqarorligiga tahdid soluvchi ma'naviy va g'oyaviy mexanizmlar mavjudgi bo'nga ko'plab olimlar o'z fikr hamda qarashlarini ilgari surib ular S.Agarmal, A.Sureka, A.Adeyri, M.Yemmuet, O'.Odag, A.Leiser, K.Boyehnke, J.Kadirov maxsus ilmiy-nazariy qarashlarni ishlab chiqishgan. Lekin ma'naviy-axloqiy jihatlariga yechim sifatida e'tibor qaratishmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Jamiyat barqarorligini tahdid soluvchi turli g'oyaviy va mafkuraviy ilgari surgan va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan hamda ilmiy-falsafiy qarashlarida ifodalagan olimlar I.Saifnazarov, A.Muxravov, T.Sultonov, B.To'rayev, G.G'affarova, A.Tulepov, M.Yoqubova, Muhammad Amin Yahyo, F.Usmonov, B.Primov va A.Boboqulovlarda o'z ilmiy maqolalarida e'tibor berishgan. Lekin biz yana ana shu kabi jarayonlarni analiz-sintez, o'tkazilgan onlayn so'rovlar orqali, ilmiy va metodologik jihatdan tahlil yetish zaruratini ko'rsatmoqda.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy tarmoq va undagi axborotlarni oson qo'lga kiritish mumkin bo'lgan shuningdek madaniy va ma'naviy chegaralar tarmoq ta'sirda yuvilib ketayotgan bir davrda ma'naviy va axloqiy jihatdan himoyalani har doimgidan-da muhim masala. Eng avvalo Yangi O'zbekistonda ma'naviy tahdidlardan himoyalani va ma'rifatli jamiyat barpo etish ta'lim, ma'naviy yuksalish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, jamoatchilik ishtiroki va madaniy merosni asrab-avaylashni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab etadi.

Global o'zgarishlar va chaqiriqlar sharoitida yangi O'zbekistonning madaniy-ma'naviy asoslarini himoya qilishni ta'minlash, ayni paytda ma'rifatli va bilimli jamiyat barpo etishga hissa qo'shish muhim ahamiyatga ega. Globallashuv va yangi chaqiriqlar bilan tavsiflangan tez o'zgarib borayotgan dunyo sharoitida Yangi O'zbekistonning madaniy-ma'naviy asoslarini asrab-avaylash vazifasi ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu nafaqat milliy o'zlikni saqlash, balki butun mamlakatni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun zarur shartdir. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlash va yangi sharoitlarga moslasha oladigan ma'rifatli va bilimli jamiyat yaratishga intilish zarur.

Ma'naviy tahdid tushunchasi keng va murakkab tushuncha bo'lib u bir qancha maqsadlar va bir qancha sohalar bilan bog'liq hisoblanadi. Ma'naviy tahdid eng avvalo inson va jamiyatning hayot ma'nosiga, qadriyatlariga, ichki olamiga, e'tiqodiga, insoniyat sifatida umumiy potensialining barqarorligiga putur yetkazuvchi omillar hisoblanadi. Ma'naviy tahdidning salbiy ta'siri, inson hayot ma'nosi, maqsadlari yo'qolishida; o'z qadriyatlaridan voz kechishida; tashvishli va tushkun his qilishida; loqayd va beparvoligida; inson erkinligini yo'qotishida; istalgan g'oyalarga ergashishida namoyon bo'ladi.

Har qanday jamiyat yoki tizim bo'lsin uning shakllanishi va ravnaq topishi undagi barqaror aloqalar va barqaror mexanizmlar bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyatning barqaror faoliyati undagi fuqarolarning me'yoriy aloqalari va ushbu aloqalarning mustahkamligi shuningdek ziddiyatsiz amalga oshishi bilan bog'liq. Xuddi shunday mexanizmlardan biri bu ma'naviy va g'oyaviy mexanizmlar hisoblanadi.


Ma'naviy mexanizmlar din, ijtimoiy normalar, axloqiy qadriyatlar va hattoki qonunlar zamirida shakllanadi va rivojlanadi. Ma'naviy tizimlar insonlarning o'zaro hurmat va ishonch kabi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi tizimlardan tortib adolat va ijtimoiy javobgarlik kabi qonuniy mexanizmlarni ham o'z ichiga oladi. O'zaro hurmat, o'zaro ishonch, hamkorlik, adolat va fuqaroviy javobgarlik kabi ma'naviy tizimlar dastlab universal axloq va din zamirida

shakllangan bo'lsa ular keyinchalik legallashtirish jarayonidan o'tib qonuniy ahamiyat kasb eta boshlaydi.

Ekstremizm va terroristik harakatlar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq bir qator asosan ham jinoiy javobgarliklar belgilangan. Bu boradagi onlayn o'tkazilgan so'rovlarimiz ham quyidagi natijalarni ko'rsatmoqda.

9. Diniy radikalizm va terorizmning internet to'ridan foydalanishni bilasizmi. Uni tarqatmaslik, saqlamaslik va layk bosmasliknichi?

191 OTBET



“Diniy ta’limotlar ijtimoiy xulq-atvorni boshqaradigan va ijtimoiy xulq-atvorni targ’ib qiluvchi axloqiy asoslarni ta’minlaydi” [1].

Jamiyatning barqaror faoliyati ziddiyatsiz aloqalar, fuqarolarning mustahkam normalarga amalga qilish bilan belgilanadi. Optimal ijtimoiy munosabatlar bu asrlar davomida sinalgan qadriyatlar, ruhiy kechinmalar, axloqiy normalar kabi ma’naviy mexanizmlar hisoblanadi. Optimal ijtimoiy munosabatlarning mavjudligi, mamlakat milliy identligi va jamiyat madaniy kodining barqaror yuritilishi bilan proporsionaldir, ya’ni ular bir-birini tashkil etadi.

Ma’naviy va axloqiy mexanizmlar jamiyatdagi mavjud g’oyalar, din va umuminsoniy tamoyillar asosida boyitiladi va shakllanadi. Uning eng asosiy tamoyillaridan bir bu insoniylik, hamjihatlik, farovonlik va barqaror jamiyat. Aynan ma’naviy qadriyatlarning jamiyat tomonidan normal qaralishi va uning rivojlanishiga bo’lgan ehtiyojlar, ularning ommalashishiga va qonunlashtirilishiga yo’l ochadi. Aks xolda jamiyatlarda istalgan keng tarqaluvchi tamoyil va mexanizmlar normaga aylanish xavfi bor. Masalan bir paytlar quldorlik kabi inson qadr qimmatini kamsituvchi, tenglik va adolatni buzuvchi tamoyillar norma sifatida qaralgan va ular to’g’risida hattoki qonunlar qabul qilingan. Insoniyat tafakkuri rivoji va demokratik tamoyillar ta’sirida tenglik va adolat tushunchalariga qayta baho berildi. Bu yerda qonun ma’naviy va axloqiylik kabi umumiy tamoyillarga murojaati orqali shakllanganini ko’rishimiz mumkin.

“Ma’naviy va axloqiy qadriyatlarning huquqiy tizimlarga integratsiyalashuvi ularni huquqiy jihatdan majburiy qiladi, bu jamiyatda tartibni saqlashga, adolat va ijtimoiy mas’uliyat hissini kuchaytirishga yordam beradi”[2]. Shunday qilib, din, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlar asosida shakllangan ma’naviy mexanizmlar jamiyat barqarorligini saqlashda asosiy rol o’ynaydi. Ushbu mexanizmlarni qonuniylashtirish ularning ahamiyatini oshiradi va

fuqarolar tomonidan qat'iy normalarga rioya qilishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida ijtimoiy totuvlikni va milliy o'zlikni barqaror boshqarishni qo'llab-quvvatlaydi.

“O'zaro hurmat, ishonch, hamkorlik, adolat va fuqarolik mas'uliyati kabi ma'naviy tizimlar umuminsoniy odob-axloq va din asosida shakllanadi. Oila, din va ta'lim ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, axloqiy asos va jamiyat tuyg'usini ta'minlaydi, keyinchalik qonunlar va huquqiy mexanizmlar orqali mustahkamlanadi”[3].

Yangi O'zbekistonni ma'naviy tahdidlardan asrash, ma'rifatli jamiyatni shakllantirish davlat idoralaridan tortib, fuqarolik jamiyati, har bir insonning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladigan vazifadir. Ma'naviy-axloqiy asoslarni mustahkamlash, ta'lim sohasidagi islohotlar, axborot xavfsizligini ta'minlash va ijtimoiy hamjihatlikni rag'batlantirish ushbu vazifaning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Ommaviy madaniyat, globallashuv, ekstremizm va radikalizm barqaror taraqqiyot va ma'rifatga intilayotgan har qanday jamiyat oldiga jiddiy vazifalarni qo'yimoqda. Bu hodisalar ijtimoiy va madaniy asoslarga putur yetkazishi, jamiyatdagi oriyentatsiyalar buzilishi va kelishmovchilikni keltirib chiqarishi mumkin. Islohot va modernizatsiya yo'lidan borayotgan yangi O'zbekiston uchun bu to'siqlarni anglash va yengish juda muhim hisoblanadi.

Ommaviy madaniyat, globallashuv, ekstremizm va radikalizm mamlakatdagi barqaror axloqiy va ma'naviy tizimlarni go'yoki “yangicha” erkinlik va ozodlik g'oyalari ortidan turib tanqid qiladi. Jamiyat barqarorligini ta'minlab kelayotgan ma'naviy va g'oyaviy tizimlarni, eskilik qoldig'i yoki anglanmagan qadriyat sifatida baholab, o'z g'oyalari va qarashlarini yangilik sifatida majburiy singdirishga harakat qiladi. Demokratik tamoyillarni mamlakat, xalq va jamiyat tafakkuri, axloqi va ma'naviyati tashkil qiladi. Jamiyat tomonidan normal deb qaralgan tamoyillarning legalizatsiya qilinishini demokratik jarayon sifatida talqin qiladigan bo'lsak, ommaviy madaniyat, globallashuv, ekstremizm va radikalizm tarafdorlarining asosiy maqsadi ham mamlakatdagi ular o'rnatmoqchi bo'lgan tizimni normal qaralishiga erishish hisoblanadi. Ya'ni asosiy maqsad jamiyatda o'z tarafdorlarini ko'paytirish maqsadida, o'z qarashlarini jamiyatga singdirish va ma'lum muddat bosqichida jamiyatda norma sifatiga aylantirish hisoblanadi. Ular o'z g'oyalari va qarashlarini yangi va ilg'or g'oya sifatida taklif qiladilar, ularni jamiyatga zo'rlik bilan singdirishga harakat qilishadi. Bu esa erkinlik, tenglik va xilma-xillikni hurmat qilish tamoyillariga asoslangan demokratiyaga jiddiy tahdid soladi. Ushbu vaziyatda kuchli axloqiy-ma'naviy tizimlar muhim o'rin tutadi. Ular odamlardagi qadriyat yo'nalishini belgilaydi, ularga to'g'rini noto'g'ridan ajratishga va to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Ommaviy madaniyat, globallashuv, ekstremizm va radikalizm tarafdorlari o'z g'oyalarini qonuniylashtirishga harakat qilganda, aslida mamlakatda o'rnatmoqchi bo'lgan tizimni normallashtirishga harakat qiladilar. Ularning maqsadi jamiyatda o'z tarafdorlari sonini ko'paytirish, o'z qarashlarini tanishtirish va ularni me'yorga aylantirishdir.

Ommaviy madaniyat va globallashuv mamlakatda yangilik, betaraflik va zamonaviylik soyasida kirib kelsa, radikalizm va ekstremizm eski va mavjud g'oya va tamoyillarining tanqidi o'laroq ommalashadi. Umumiy mexanizm esa yagona mamlakatdagi barqaror ma'naviy muhitni buzish va bu orqali yangi maqsad, industriya va boshqaruvni o'rnatish hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda targ'ibot, dezinformatsiya, imtiyozlar berish va qo'rqitish va kerak bo'lsa kuch ishlatish usullaridan foydalanishadi.

Ijtimoiy tarmoqlar insonlarning tobora e'tiborini tortishi bilan birga o'ziga bo'lgan talabni ham shakllantirishini kuzatishimiz mumkin. Ijtimoiy tarmoq insonlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishi bilan birga, real jamiyatdan farq qiladigan yangi virtual jamiyat va aloqalarni yo'lga qo'yimoqda. Virtual jamiyatda turli ma'naviy va madaniy chegaralar yuvilib, barcha standart qoliplarda aloqaga kirishayotganligini kuzatishimiz mumkin. Axborot urushi va total madaniyatlarning o'rnatilishini, individuallik, identik, o'zlikning yo'qolishi va ommaviy odamga aylanish sifatida baholash mumkin.

“Axborot urushi madaniy an'analarni qadrsizlantirish va ommaviy madaniyatni rivojlantirish orqali ma'naviy xavfsizlikni buzishi mumkin, bu esa jamiyatning va madaniyatning parchalanishiga olib keladi”[4].

Ijtimoiy tarmoqlarda total madaniyat va qarashlarning o'rnatilishi, birinchi o'rinda mamlakatlarni milliy madaniyat va ma'naviyatning yemirilishi, ikkinchi navbatda umumiy nazorat mexanizmi, manipulyatsiya va eng asosiysi, yangi industriya demakdir. Ma'naviyat va axloqiy qadriyatlar inqirozi, yillar davomida yig'ilgan kollektiv faoliyat mexanizmi sifatida, uning jamiyat sifatida mavjud bo'lishi, birlashishi, tashqi xavflarga nisbatan qarshi turish kabi funksiyalardan ayiradi. Bu esa ijtimoiy tarmoq yoki sahna ortidagi boshqaruvchilarga, bo'lib tashla hukmronlik qil kabi tamoyillar asosida boshqaruv imkoniyatini beradi. Chunki identligini, ma'naviyatini, madaniyatini yo'qotgan shaxslarni boshqarish oson va ular o'z taomillarini tez o'zgartirishadi, shuningdek ularning yashash tarzi va taomillarini ham tarmoq egalari va ommaviy madaniyat tashkil etadi.

“Ma'naviyat va ijtimoiy media o'zaro bog'liq bo'lib, ijtimoiy media ko'pincha mazmunli aloqalar o'rniga yuzaki aloqalarni targ'ib qilish orqali an'anaviy ma'naviy qadriyatlar va amaliyotlarni susaytiradi”[5].

“Ijtimoiy media shaxsiy va jamoaviy o'ziga xoslikni bostirish orqali din va madaniyatga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa noyob madaniy qadriyatlarning yo'qolishiga olib keladi”[6].

Xulosa va takliflar. Ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyativ kontentlar ta'sirida ma'naviy va axloqiy gomogenlashuvni kuzatishimiz mumkin. Bu birinchi navbatda fikrlar xilma-xilligi va insonning tanlov erkinligi va tom ma'nodagi erkinligiga jiddiy xavf tug'diradi. Manipulyativ kontentlar yordamida shakllangan gomogen ma'naviyat va madaniyat bir yoqlama qarashga olib keladi va ma'naviyatning asl mazmuniga putur yetkazadi. Gomogenlashuv insonni shaxs sifatida yo'q qilib, jamoaga ergashuvchi qiladi, tom ma'noda insonda erkinlik yo'qoladi. Tarmoqning muttasil ta'sirida tanlov qilayotgan inson barcha narsalarni erkin tanlayotgandek aslida esa majburiy tanlagan hisoblanadi. Uzluksiz monoton g'oyalarning axborot maydonidan tarqalishi erkinlik illyuziyasini yaratadi. Tarmoq foydalanuvchilariga singdirilgan axborot, tarmoq egalari belgilagan ehtiyojni hosil qiladi, bunday holatda foydalanuvchilar barcha narsalarni o'zi tanlayotgandek his qilsa-da, aslida ularning tanlovi tarmoq tomonidan oldindan belgilangan bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Muh. Afrilsah. “Investigating The Role Of Religion In Shaping Moral Values And Social Norms.” Published by Mahogany Journal De Social. This is an open access article under the CC BY-SA License(<https://creativecommons.org/licenses/by-sa/4.0>). 14 February 2024

2. Brennan, Geoffrey, and others, "Moral and social norms", Explaining Norms (Oxford, 2013; online edn, Oxford Academic, 26 Sept. 2013), <https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780199654680.003.0004>, accessed 13 Nov. 2024.
3. Rameshwor, Baral. (2023). "Exploring the Prominent Role of Social Institutions in Society". International research journal of MMC, 4(2):68-74. doi: 10.3126/irjmmc.v4i2.56015
4. Igor, A., Medyanik, Oksana, A., Bogdanova., Ashkhen, V., Abovyan., Liana, R., Barashyan., Olga, M., Shevchenko. (2019). "Modern information warfare and spiritual security of russia: threats and limiting strategies." Humanities and social sciences, 7(5):738-743. doi: 10.18510/HSSR.2019.7591
5. Sonica, Rautela., Adya, Sharma. (2019). "Spirituality and Social Media: Connecting the Dots." International Journal of Interactive Mobile Technologies (ijim), 13(09):81-98. doi: 10.3991/IJIM.V13I09.8863
6. Dr. Gurudutta P. Japee Pages (2023). "Social media, cyber religion and culture." Gap interdisciplinarity - a global journal of interdisciplinary studies, 6(2):58-70. doi: 10.47968/gapin.620008
7. Б.Примов. "Ахборотлашган даврда оммавий ахборот воситаларининг ўрни". Фалсафа ва ҳуқуқ.Тошкент -2024. Б-208
8. Б.Примов. "Ахборотлашган даврда ахлоқий қадриятларнинг емирилиши". Oriental Journal of History, Politics and Pages: 286-292 Law. <https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>
9. Б.Примов. "Ахборотлашган даврда ахлоқий қадриятлар". International journal of philosophical studies and social sciences. <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss> Vol 4, Issue 4 (2024) Б-143-148
10. Б.Примов. "Ахборот асрида кибер инфорлатцион хавфсизлик". ЎЗМУ хабарлари. Тошкент -2024. Б-147-149
11. Б.Примов. "The impact of cyber information on human life". Высшая школа: научные исследования. Материалы Межвузовского международного конгресса (г. Москва, 17 октября 2024 г.): Том 1. – Москва: Издательство Инфинити, 2024. – 110 с.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

SPECIFIC ASPECTS OF THE NATIONAL IDENTITY OF THE OWNERSHIP STRATUM IN THE REFORM PROCESS

Rakhmankulov Farkhod Rahimkulovich,

Termez State Pedagogical Institute
Teacher at the Department of Philosophy,
Fundamentals of Law and Legal Education
E-mail: fedizara07@gmail.com

Abstract. This article analyzes the unique aspects of understanding national identity within the owner class during the reform process. It examines the formation of this class, its relationship to national interests, and its impact on the socio-economic development of society. The article focuses on the role of national pride and a sense of responsibility in entrepreneurial activity. The author demonstrates that the process of realizing national identity for owners requires an approach that considers not only economic success but also social responsibility and duty to society. This study is significant for exploring the positive influence of national identity on the development of national culture, spiritual values, and social progress in the context of economic reforms.

Key words: reform, the layer of owners, the perception of the national self, national pride, value, spiritual reform, progress, ascension.

ISLOHOTLAR JARAYONIDA MULKDORLAR QATLAMINING MILLIY O'ZLIGINI ANGLASHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Raxmankulov Farxod Raximkulovich,

Termiz davlat pedagogika instituti
Falsafa, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada islohotlar jarayonida mulkdorlar qatlamining milliy o'zligini anglashga xos bo'lgan o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Mulkdorlar qatlamining shakllanishi, milliy manfaatlariga bo'lgan munosabatlari va ular orqali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'rib chiqiladi. Maqola, asosan, milliy g'urur va mas'uliyat hissingin tadbirkorlik faoliyatidagi rolini aniqlashga qaratilgan. Muallif milliy o'zlikni anglash jarayonini mulkdorlar uchun nafaqat iqtisodiy muvaffaqiyat, balki ijtimoiy mas'uliyat va jamiyat oldidagi burch sifatida ham yondashishni talab qilishini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot iqtisodiy islohotlar jarayonida milliy o'zlikni anglashning milliy madaniyat, ma'naviy qadriyatlar, va jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sirini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: islohot, mulkdorlar qatlami, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur, qadriyat, ma'naviy islohot, taraqqiyot, yuksalish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N39>

Kirish. Jahonda rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, taraqqiylashgan davlatlarda asosan mulkdorlar qatlamining tadbirkorlik bilan shug'ullanishi va ko'plab milliy mahsulotlarni ishlab chiqarishi bevosita ularning hayot darajasini tez sur'atlar

bilan o'sishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, mulkdorlar qatlamidagi munosabatlar tizimida milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ulari mustahkam, ijtimoiy mas'uliyat kuchli bo'lsa, mamlakatning milliy iqtisodiyoti yanada jadal rivojlanishidan dalolat bermoqda. Shunga qaramay, ayni paytda ushbu mamlakatlarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usiga sodiq, vatanparvar mulkdorlar qatlami safini yanada kengaytirish zaruratiga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Mamlakatimizda barqaror iqtisodiyotning komponenti bo'lgan mulkdorlar qatlamini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Iqtisodiy islohotlar davomida bu borada tadbirkorlar jamoasi shakllandi. "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash – fuqarolar, xalqimiz farovonligini oshirishning eng samarali yo'li, Yangi O'zbekistonni barpo etishning pirovard maqsadidir"[1].

Ma'lumki, islohotlarning maqsadi jamiyatni zamonning o'zgaruvchan voqeligi va muammolariga moslashtirishdir. Ular jamiyatning ehtiyojlari va ustuvorliklarini aniqlashga asoslangan bo'lishi lozim. Islohotlar iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, siyosat va boshqalar kabi turli sohalarni qamrab olishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ta'kidlash joizki, islohotlar barqarorlik va ijtimoiy totuvlikni saqlash bilan o'zgarishlarni muvozanatlashtirishga intiladi. Ular qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish, yangi dasturlar va siyosatlarni joriy etish, shuningdek, o'zgarishlarni boshqarish uchun yangi institutlarni yaratishni o'z ichiga olishi mumkin. Bu haqda professor Q.Nazarov quyidagicha ta'kidlaydi, "Islohot (arab. "islohot" – yaxshilash, o'zgartirish, tuzatish) – isloh qilish, o'zgartirish, qaytadan qurish ma'nosida ishlatiladi: 1) mavjud ijtimoiy munosabatlarga putur yetkazmasdan ijtimoiy hayotning biron-bir sohasini yoki barcha jabhalarini zamona talablari asosida o'zgartirish; 2) har qanday ilg'or yangilikni joriy etish"[2].

Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, islohotlar jamiyat hayotini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan. Ular jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, unga o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish va hayotning turli sohalarda yanada qulay natijalarga erishish uchun ilg'or yangiliklarni joriy etish imkonini beradi.

Islohot jamiyatda jamiyatni turli xil sohalarni yangilashda qo'llaniladi. Professor Q.Nazarovning ta'kidlashicha islohotni, "iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayotni o'zgartirish va qayta qurish ma'nosida bugungi kunda ham keng qo'llanilayotganini kuzatish mumkin"[2].

Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotni tahlil qilib shuni ta'kidlash mumkinki, "islohot" tushunchasi dolzarb bo'lib qolmoqda va zamonaviy sharoitda keng qo'llanilmoqda.

Islohotning mohiyati jamiyatning o'zgaruvchan sharoit va zamonaviylik muammolariga moslashish istagi yotadi. Bu eskirgan usul va yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish va innovatsion yechimlarni joriy etishni o'z ichiga oladi.

Bugungi dunyoda islohotlarning joriy etilishi siyosat, iqtisodiyot, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat va boshqa ko'plab sohalarni qamrab oladi. Ushbu islohotlar har bir mintaqada mustaqil ravishda ham, turli darajadagi kompleks chora-tadbirlar doirasida ham amalga oshirilishi mumkin.

Siyosiy islohotlar – bu boshqaruv va siyosiy faoliyat usullarini yangilash va takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. Ushbu jarayon jamiyat taraqqiyoti va farovonligiga hissa qo'shadigan yanada samarali, ochiq va mas'uliyatli siyosiy institutlarni yaratishga qaratilgan.

Siyosiy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri demokratiya va fuqarolarning siyosiy hayotdagi ishtirokini oshirishdir. Bunga saylov tizimidagi o'zgarishlar, fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish, hokimiyat va aholi o'rtasidagi aloqa mexanizmlarini kengaytirish kiradi.

Muhokama va natijalar. Korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat organlari faoliyatida shaffoflikni mustahkamlash ham siyosiy islohotlarning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bunga korrupsiyaga qarshi qonunlarni kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi mustaqil organlarni yaratish va davlat moliyasini monitoring qilishning elektron tizimlarini joriy etish kiradi.

Iqtisodiy sohada olib borilayotgan islohotlar iqtisodiy o'sishni faol rag'batlantirish, qashshoqlikni kamaytirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga doir o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri soliq tizimini qayta ko'rib chiqishdir. Bunga soliq tartib-qoidalarini soddalashtirish, korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq stavkalarini pasaytirish, shuningdek, iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga investitsiyalar uchun imtiyozlar yaratish kiradi.

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga sarmoya kiritish ham iqtisodiy islohotlar markazida turadi. Bunga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va innovatsiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kiradi.

Ma'naviy sohadagi islohotlar ham madaniy islohotlar kabi jamiyatning rivojlanishida ma'naviy amaliyotlarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli tadbirlarni qamrab oladi.

Ma'naviy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri diniy sohadagi olib borilayotgan ishlar hisoblanadi. Bunga dinning erkin amal qilishi uchun sharoit yaratish, ziyoratgohlar va ibodat joylariga kirishni ta'minlash, shuningdek, dinlararo muloqot va tushunishni targ'ib qilish kiradi.

Ma'naviy islohotlarda ma'naviyat va axloqni rivojlantirish ham muhim o'rin tutadi. Bunga ma'naviy tarkibiy qismlarni ta'lim dasturlariga kiritish, axloqiy masalalarni muhokama qilish va shaxsiy o'sishga yordam beradigan seminar-treninglar va tadbirlarni tashkil etish kiradi.

Ma'naviy sohadagi islohotlarga fuqarolarning ma'naviy sohadagi salohiyatini ro'yobga chiqarish, shu jabhadagi huquqlarini kuchaytirish, din erkinligi, kamsitishlarning oldini olish va ozchiliklarni himoya qilish mexanizmlarini yaratish kiradi.

Islohotlarga kompleks yondashuv muammolarni muvozanatli tarzda o'rganish va hal qilish, shuningdek, yanada muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun turli sohalar o'rtasidagi munosabatlardan foydalanish imkonini beradi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng davlat va jamiyat hayotini yangidan isloh qilish maqsad qildi. Islohot dastlab, ma'naviy, huquqiy va iqtisodiy sohalarda amalga oshirildi.

1989-yil 21-oktyabrda "O'zbek tiliga davlat tili" maqomi berildi. Bu ma'naviy islohotlarning boshlang'ichi edi. Ushbu qadam o'zbek xalqining ko'p asrlik orzusini amalga oshirdi. Mamlakatda Prezidentlik lavozimining joriy qilinishi, mustaqillikning e'lon qilinishi, davlat ramzlari va Konstitutsiyamiz qabul qilinishi, bularning bari dastlabki huquqiy sohadagi islohotlarni tashkil etdi. Keyinchalik bozor munosabatlariga o'tishimiz, xususiy mulkning joriy

qilinishi, kichik-biznes va tadbirkorlikning tashkil etilishi iqtisodiy sohadagi islohotlarning natijasi edi.

Mustaqillikning keyingi yillarida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib kelindi.

Sh.Mirziyoyev Prezident bo'lib saylanganlaridan keyin "2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi"ni qabul qildilar. Ushbu strategiya besh yilga mo'ljallangan bo'lib, 5 ta ustuvor yo'nalishni o'z ichiga qamrab oldi.

Ushbu hujjatda ijtimoiy sohada ham katta masshtabdagi ishlarning amalga oshirilishi, ta'lim sohasidagi islohotlar, yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, Oliy ta'lim muassasalarining sonini ko'paytirish va ular faoliyatidagi yangi o'zgartirishlar nazarda tutilgan edi.

2019-yil 20-mart sanasida Prezidentimiz boshchiligida videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "yoshlarimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalari"[3] to'xtalib o'tdi.

Ushbu yig'ilishda Prezidentimiz 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdi. Bular:

"Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi" [4].

Ilgari surilgan tashabbus mamlakatimiz hayotida so'nggi yillarda ma'naviy sohada amalga oshirilgan islohotlarning eng kattasi bo'ldi. Bu ma'naviy islohotga asosan yoshlar qamrab olindi. Ta'lim muassasalarida, mahallalardagi uyushmagan yoshlar orasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Bu ma'naviy islohotni amalga oshirish zamirida mamlakatimizdagi barcha davlat organlari va muassasalari, korxonalar va tashkilotlar, hatto mulkdorlar qatlami hisoblanmish tadbirkorlar ham jalb qilindi.

Xususi sektor vakillari, ayniqsa, beshinchi tashabbus, ya'ni xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalari bo'yicha ishlarni amalga oshirishda ko'maklashmoqda.

Bundan keyin ham islohotlarni amalga oshirish jarayoni to'xtab qolgani yo'q. Bunga misol qilib, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ni aytsak bo'ladi. Strategiya o'zida 7 ta ustuvor yo'nalishdan iborat bo'lgan 100 maqsadni o'z ichiga oldi

Taraqqiyot strategiyasida keltirilgan 7 ta ustuvor yo'nalish va ushbu yo'nalishdagi ilgari surilgan 100 ta maqsad mamlakatning barcha sohalarini isloh qilishni, yangilashni nazarda tutadi.

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 5-ustuvor yo'nalishi ya'ni, "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" haqida alohida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, mamlakatimizning muhim strategik hujjatida ma'naviy taraqqiyot masalasiga e'tibor berilganligi, bu sohada Respublika bo'ylab ma'naviy islohotlar amalga oshirilayotganligi

va unda aholining turli qatlamlari ishtirok etayotganligi bizni quvontiradi, albatta. Agar qaysi davlat ma'naviyat masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor bersa, bu davlatda qolgan barcha sohalar ham rivojlanadi. Chunki ma'naviyat isloh qilinsa, aholining barcha qatlamlari ziyoli bo'lishadi, adabiyot, teatr, kino, tarix, kitobxonlik rivojlanadi, boy ma'naviy tarixiy meros yosh avlodga yetkaziladi va ma'naviy muhitda kamol topgan insonlar madaniyat bilan boshqa sohalarning rivoj topishiga o'z hissani qo'shadi. Ma'naviyat jamiyat va davlatning muhim sohasi hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir"[5].

2023-yil 11-sentyabrda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilindi[6]. Mazkur strategiya o'zida 5 ta ustuvor yo'nalish hamda 100 maqsadni qamrab oldi. Bu borada mamlakatimizda barcha sohalarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bir masalaga alohida to'xtalib o'tishimiz kerakki, davlat har bir islohotni amalga oshirish uchun ma'lum bir mablag'larni sarflaydi. Davlat byudjeti yig'ilishi ko'proq aholining mulkdorlar qatlamiga, ya'ni tadbirkorlar va ishbilarmonlar hisobiga to'g'ri keladi.

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan ijtimoiy sohadagi islohotlar jamiyatning barcha jabhalariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ammo shuni anglash kerakki, bu jarayonda mulkdorlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlarning roli shubhasiz ahamiyatga ega.

Mulkdorlar qatlami ijtimoiy farovonlikka katta hissa qo'shishini alohida ta'kidlash zarur. Ularning faoliyati mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi [7].

Ma'naviy taraqqiyot axloqiy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarning rivojlanishi bilan ham bog'liq. Bunga yuqori mehribonlik, rahm-shafqat, bag'rikenglik va boshqalarga hurmat ko'rsatishga intilish kiradi. Ma'naviyat amaliyoti inson fazilatini rivojlantirishga va jamiyatda uyg'un munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Mazkur jarayonning muhim qismi ham o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini anglash amaliyotidir.

Bu yo'l insonga hayotning chuqur va axloqiy jihatlariga e'tibor qaratib, yanada to'liq va mazmunli yo'lni topishga imkon beradi. Shu sababli ushbu islohotning bunyodkorlari hisoblanmish mulkdorlar qatlamida ma'naviy taraqqiyotga daxldorligini amalga oshirish dolzarb vazifadir.

Ma'naviy islohotlar hayotning turli jabhalariga ta'sir qiladi, bu esa chuqur ma'naviy taraqqiyotga erishishga imkon beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar ma'naviy tamoyillariga muvofiq yangilanib, barkamol va ongli jamiyat yaratishga hissa qo'shadi.

Ma'naviy islohotlarning faol ishtirokchilari sifatida mulkdorlar qatlami ma'naviy taraqqiyotga erishishda muhim rol o'ynaydi. Ular biznesga, ijtimoiy mas'uliyatga va jamoat hissasiga yangi yondashuvlarni shakllantirish imkoniyatiga egadir[8]. Ularning ma'naviy islohotlardagi ishtiroki ularning ichki dunyosini boyitadigan va hayotiy qadriyatlarni chuqurroq anglashga hissa qo'shadigan ma'naviy amaliyotlarga jalb qilishni nazarda tutadi.

Ma'naviy sohadagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim vazifasi shundan iboratki, bu mulkdorlar qatlamida ma'naviy taraqqiyotga chuqur daxldorlik hissini shakllantirish hisoblanadi. Ma'naviy islohotlar chuqur o'zgarishlar uchun sharoit yaratadi, odamlarning ichki dunyosini boyitadi va mulkdorlar qatlamining ushbu jarayonda faol ishtirokchi sifatida ishtirokini rag'batlantiradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot islohotlar jarayonida mulkdorlar qatlamining milliy o'zligini anglashidagi o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish orqali milliy g'urur va mas'uliyat hissining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga qaratildi. Tadqiqotda mulkdorlar qatlamining jamiyatdagi roli, milliy o'zlikni anglash orqali ijtimoiy barqarorlikka qo'shayotgan hissasi va mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga qo'shayotgan ulushi tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mulkdorlar qatlamining milliy g'oya va qadriyatlar asosida tarbiyalanishi nafaqat ularning o'z mulki va jamiyatga bo'lgan mas'uliyat hissini kuchaytiradi, balki mamlakatning mustahkam iqtisodiy asoslarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Bu jarayon davomida davlat tomonidan yaratilgan iqtisodiy islohotlar sharoiti mulkdorlar qatlamining milliy o'zlikni anglashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlandi. Ayniqsa, milliy ma'naviy qadriyatlarga asoslangan ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, mulkdorlarning jamiyat oldidagi majburiyatlarini anglashiga va ularda milliy mas'uliyatni kuchaytirishga yordam beradi.

Tahlilimiz davomida mulkdorlar qatlamining milliy o'zligini shakllantirish omillari sifatida iqtisodiy taraqqiyot, ma'naviy qadriyatlar, tarixiy xotira va davlat tomonidan yaratilayotgan qo'llab-quvvatlov mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, u mulkdorlar qatlamining milliy mas'uliyatini oshirishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda foydali bo'lib, milliy manfaatlarni himoya qilishda yanada kuchli va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy muhitni ta'minlashga yordam beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. – Toshkent “O'qituvchi “MU MCHJ”, 2021. – Б.20.
2. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси 1-китоб Тошкент: “Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти”, 2022. – 534-б.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 20-mart sanasidagi videoselektor yig'ilishi.
4. <https://kun.uz/news/2019/03/20/prezident-beshta-muhim-tashabbusni-ilgari-surdi-ular-nima>
5. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahbarligida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidan nutq.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni. – www.lex.uz.
7. Рахманкулов, Ф. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА МУЛҚДОРЛАР ҚАТЛАМИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(13), 58-61.
8. Farhod, R. (2024). Important aspects of the formation of a sense of patriotism in the layer of owners. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 28, 11-14.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF PRAGMATIC APPROACHES TO NATIONAL AND GENERAL HUMAN VALUES IN NEW UZBEKISTAN

Asatov Sadiq Safarovich,

Fergana State University, Department of philosophy and national idea, researcher

Abstract. In this article, as a philosophical analysis of national and universal values, friendship, hospitality, humanitarianism, moral purity, generosity, politeness, imagination, neatness, cheerfulness, kindness, courage, sincerity, kindness, love for the motherland and people, religiousness, priority issues of forming human virtues such as honesty, honor, hard work, respect for the past, national pride, patriotism, nationalism are epistemologically explained.

Key words: social progress, spiritual and moral education, democratic state, civilization, neighborliness, well-rounded person, global problems, spiritual heritage, sustainable development, individual society.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA PRAGMATIK YONDASHUVLARNING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI

Asatov Sadiq Safarovich,

Farg‘ona davlat universiteti, Falsafa va milliy g‘oya kafedrasida tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy va umuminsoniy qadriyatlarni falsafiy tahlili sifatida, yoshlarda, do‘stlik, mehmondo‘stlik, insonparvarlik, axloqiy poklik, saxiylik, xushmuomalalik, hayolilik, ozodalik, xushchaqchilik, xushfe‘llik, mardlik, samimiylik, lutfi karamlik, ona yurt va xalqiga muhabbatlilik, diyonatlilik, halollik, or-nomuslilik, mehnatsevarlik, o‘tmishga hurmat, milliy g‘urur, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi insoniy fazilatlarini shakllantirish ustuvor masalalari epistemologik jihatdan asoslab yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy taraqqiyot, ma‘naviy-axloqiy tarbiya, demokratik davlat, sivilizatsiya, qo‘shnichilik, barkamol shaxs, global muammolar, ma‘naviy meros, barqaror taraqqiyot, kishilik jamiyati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N40>

Kirish. Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bir necha muhim bo‘lgan yo‘nalishlarda izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, siyosiy hayoti, huquqiy tizimi va boshqa sohalarida yangi zamonaviy standartlarni joriy qilishga qaratilgan bo‘lib, Yangi O‘zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga pragmatik yondashuvlarni shakllanishida ijtimoiy-falsafiy jihatlari “kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas‘uliyatni anglagan holda”[1] zamon talablari asosida asos bo‘la oladi. Bugungi kunda mamlakatimizda milliy qadriyatlarni yangilash, ularni globallashuv jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga molik bo‘ladi. Milliy qadriyatlarning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati shundaki milliy qadriyatlar — bu har bir xalqning etnik tarixiy,

madaniy va ijtimoiy merosidan kelib chiqadigan, uning o'zligi va farqini belgilaydigan asosiy elementlardan biri ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu borada Yangi O'zbekistonda milliy qadriyatlarni tiklash va ularni o'sish manbai sifatida qo'llab quvvatlashga alohida joriy etishda faollik ko'rsata olmayotgan"ligiga[2] e'tibor qaratilmoqda. Umuminsoniy qadriyatlar esa umuminsoniy qadriyatlar inson huquqlari, adolat, erkinlik, hamjihatlik kabi tamoyillarni o'z ichiga olgan bo'lib, yangi O'zbekistonda esa bu qadriyatlarni qabul qilish orqali global jamiyatga integratsiyalashishni ko'zlab bormoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Har bir sohada pragmatik yondashuv mavjud bo'lib, shu jumladan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishi ham pragmatik yondashuvlar asosida shakllanadi.

Ijtimoiy taraqqiyotda pragmatizm – bu amaliy natijalar va foydalarga asoslangan yondashuvdir. Yangi O'zbekistonda pragmatik yondashuvlarni tatbiq etgan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash maqsad qilinmoqda. Bu ikki tizimning o'zaro ta'siri iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlikka olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan e'tibor qaratganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Har ikki tizimning sintezi orqali yangi ideyalar, konsepsiyalar va amaliyotlarni yaratish mumkin.

Yangi O'zbekistonda "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik"[3] rezolyutsiyasi tinchlik va osoyishtalikni saqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga pragmatik yondashuvlar ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muhim vosita hisoblanib, bu jarayonlarda har bir fuqaro o'z hissasini qo'shishi kerak bo'ladi va bu orqali mamlakatimiz barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

Muhokama. Mazkur islohotlarning maqsadi — Yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanishi va aholining turmush darajasini yaxshilashdan iborat bo'ladi. Yangi O'zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni pragmatik yondashuv bilan rivojlantirish ilmiy-texnologik salohiyatini oshirish"[4]dagi zaruriy islohot mamlakatning ijtimoiy barqarorligi va iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim rol o'ynaydi. Zero bu jarayon fuqarolarni faol ishtirok etishga rag'batlantiradi hamda jamiyatdagi muvozanatni saqlashga yordam beradi. Yangi O'zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga pragmatik yondashuvlarning falsafiy tahlili, avvalo, milliy qadriyatlarimiz va ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liqligini aniqlashga yordam beradi.

Milliy qadriyatlar – bu xalq va millatning tarixiy, madaniy, diniy va ijtimoiy merosidan kelib chiqadigan tushunchalar, urf-odat hamda an'analaridir. O'zbek xalqi uchun milliy qadriyatlar orasida:

- Mehmondo'stlik
- Oilaviy bag'rikenglik
- Til va madaniyatni asrab-avaylash

Kelajakda bu qadriyatlarni rivojlantirish jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Umuminsoniy qadriyatlarga inson huquqlari, adolat, tenglik, erkinlik kabi tushunchalar kiradi. Bu tushunchalar dunyo miqyosida qabul qilingan standartlarga asoslanadi. Yangi O'zbekistonning global dunyodagi pozitsiyasi mazkur qadriyatlarni qabul qilish hamda ularni rivojlantirish bilan bog'liq va aniq maqsadlarga yo'naltirilgan. Yangi O'zbekiston sharoitida pragmatik yondashuv milliy va umuminsoniy qadriyatlarni integratsiyalashtirishga yordam

beradi. Ushbu yondashuv ko'p hollarda iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik hamda demokratik institutsionalizatsiya bilan bog'liq bo'ladi.

Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda: milliy va umuminsoniy qadriyatlarning sintezi har ikki tomon uchun foydali bo'lishi mumkin. Masalan, mehmondo'stlikni umuman insonparvarlik kontekstida ko'rib chiqish mumkin.

Pragmatik yondashuv faqat amaliy natijalarga erishishni emas, balki ilmiy qarashlar bir-birini to'ldirishga xizmat qiladi"[5] va asoslanishi kerak bo'ladi.

Dinamika: Qadriyatlar doim o'zgarib turadi, ular jamiyatning o'zi bilan birgalikda rivojlanishi zarurligi inobatga olingan.

Natijalar. Yangi O'zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni pragmatik yondashuv asosida rivojlantirish, zamonaviy fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi, shu bilan birga, falsafiy tahlil bunday jarayonlarning samaradorligi va etik mas'uliyatini ta'minlashga yordam beradi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarixan qaraganda qadriyatlar muammosining falsafiy tahlili zaminimizda yaratilgan qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish va targ'ib qilish"[6] da xalq og'zaki ijodida ko'proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor berilgan bo'lib, ularning mazmuni va mohiyati turlicha talqin qilinadi. Jumladan, Spitamen, Alpomish, To'maris va Shiroq to'g'risidagi dostonlarda ularning vatanparvarligi, yurt tinchligi va ozodligi uchun kurashi fidoiylik ruhi bilan badiiy tasvirlangan. Bu dostonlarni qadimgi yunonlarning "Illiada" va "Odisseya" dostonlari bilan qiyoslash mumkin. Borliq to'g'risida o'ylaganlarida, afsona, hikoyat yoki dostonlar so'ylaganlarida olamning qadri, uning cheksizligi, koinot va odamzod aloqalari, inson umrining ma'nosi, mazmuni, maqsadi hamda botirlik, oqillik, xokisorlik, yaxshilik, vafodorlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarga izoh berganlar, hatto ularning ba'zilarini ilohiylashtirganlar. Qadriyatlar mavzusi "Moniy davri falsafiy-ilohiy ta'limotida xam yaqqol ifodalangan. Moniy fikricha ikki dunyo "Zulmat va ziyo dunyosi" mavjud, birinchisi; adolatsizlik, zulm, ikkinchisi; abadiy yemirilmaydigan, doimiy qadriyatlar dunyosidir. Moniy ta'limotida qadimgi zamonning asosiy qadriyatlari jamlangan, ularning umumiy tizimi mifologiya, filosofiya, kosmogoniya, astronomiya va boshqa ijtimoiy-tabiiy bilim sohalari bilan bog'lilikda bayon qilingan.

Qadriyatlar mavzusining izlari VI asrda yashagan Mazdak ta'limotida ham ko'zga tashlanib turadi. Afsuski, islom rasmiy dinga aylanganidan so'ng bu izlari xiralashib, ularning izlarini topish qiyinlashgan qolgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, vatanimiz sivilizatsiyasining qadriyatlari arab dunyosi madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek kabi mutafakkirlar, shuningdek, Buxoriy, Termiziy, Kubro, Yassaviy, Naqshband, Bobur, Bedil, Mashrab kabi buyuk zotlarning shakllanishida nafaqat islom, balki bizning sivilizatsiyamizning madaniyati va qadriyatlari muhim rol o'ynagan.

Sharq madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan buyuk mutafakkir alloma Farobiy xam qadriyatlarga katta e'tibor bergan. Uning qadriyatlar to'g'risidagi fikrlari "Madina al-Fozila" risolasida o'z aksini topgan. Alloma o'zining fozil jamiyat to'g'risidagi ta'limotida yuksak g'oyalar, adolatli ijtimoiy munosabatlar qaror topgan davrda vujudga keladigan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining umumiy tizimini izohlab bergan. Farobiy bunday jamiyatda diniy qadriyatlar ham muayyan ahamiyatga ega bo'lishini, ammo unda Kalom va fiqh vakillari

kishilarning ma'naviy-axloqiy kamoloti uchun javob beradigan sohalarni boshqarishlari, ijtimoiy munosabatlarning asosiy sohalari esa faylasuf-hukmdorlar tomonidan boshqarib borilishini ta'kidlaydi. Mutafakkir diniy qarashlar g'oyaviy sohada eng asosiy ahamiyat kasb etgan o'sha davrda, nafaqat Alloh g'oyasini, balki inson, jamiyat va ilm fan qadriyatlarini falsafiy bilimlarining asosiy mavzularidan biri sifatida qamrab olgan dastlabki Sharq faylasuflaridan biri bo'lganligini uning qarashlaridan ham bilsa bo'ladi.

Beruniy asarlarida qadriyatlar mavzusi ham muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, ma'naviy qadriyatlarining yuzaga kelishi ijtimoiy munosabatlar, odamlarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, kishilar o'rtasidagi hamkorlik, odamlarning birlashish ehtiyoji, himoya vositalarining yetarli emasligi va dushmanlardan o'zini himoya qilish zaruriyati tufayli yuzaga kelganini ta'kidlaydi. Beruniy hunar, savdo, mamlakatlararo madaniy va ilmiy aloqalarni rivojlantirish, ijtimoiy hayotda ilm-fanning rolini oshirishni qo'llab-quvvatladi. Shuningdek, u arab bosqinchilarining yurtimiz madaniy yodgorliklarini yo'q qilish siyosatini qoralab, madaniy taraqqiyotda vorislikning muhimligini urg'uladi.

Qadriyatlar muammosi Ibn Sinoning ham diqqat markazida turgan. Olim asarlarining katta qismi falsafiy muammolarga bag'ishlab yozilgan bo'lib, ularning ayrimlari, masalan, "Adolat" nomli falsafiy ensiklopediyasi, "Sharq falsafasi", "Yaxshi ish va gunoh" asarlari bizgacha yetib kelmagan. Qadriyatlar muammosi Ibn Sinoning "Donishnoma", "Solomon va Iqbol" kabi bizgacha yetib kelgan asarlarida o'z ifodasini topgan. Uning nazarida borliq va tabiat insonni o'rab turuvchi abadiy makondir. Shu jihatdan uning qadri beqiyos, inson esa hamma boyliklarni tabiatdan oladi, undan o'ziga davo topadi.

O'rta asrlardagi siyosiy qadriyatlarining rivojlanishida Amir Temurning ham xizmatlari kattadir. Uning podshohlar, hukmdor va siyosiy arboblarning axloq-odob talablari, davlat va siyosat qadriyatlariga katta ahamiyat berilgan asarlari Sharqda va G'arbda mashhur bo'lgan va ko'p marta chop etilgan. Unda siyosatdonning yurish-turishi, siyosat bobidagi faoliyati, xalq, qo'shin, ulamolar, arkoni-davlat va boshqalarga munosabati uchun asosiy mezon bo'ladigan siyosiy qadriyatlar o'sha zamon nuqtai nazaridan bayon qilingan. Temurning tariximizdagi o'rni va mamlakatni obod qilishdagi xizmati katta. Uning mohir davlat arbobi, tajribali siyosatdon sifatidagi o'git va nasihatlar keyingi davrning siyosiy arboblari uchun qo'llanma bo'lib xizmat qilgan.

Qadriyatlar tahlilida Ulug'bekning fikrlari ham o'ziga xos o'rin tutadi. U o'z atrofiga to'plagan Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi mutafakkirlar bilan birga qadriyatlar, koinot sirlari, unda ro'y berayotgan jarayonlarning ahamiyatini o'rganish borasida o'z zamonasidan ilgarilab ketdi. Ulug'bek akademiyasining faoliyati o'rta asrlar ilmiy hurfikrligining eng yorqin namunalaridan biridir, U boshchilik qilgan olimlar esa koinot va yulduzlarni inson uchun abadiy makon bo'lgan olamning bashariy qadriyatlari sifatida tushunganlar va tadqiq qilganlar.

Yurtimiz madaniyatida o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zining asarlarida qadriyatlar masalasiga katta e'tibor bergan. Uning fikrlari xam tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq bo'lib, ushbu ta'limot faqat Navoiy emas balki Sa'diy, Jomiy kabi boshqa o'rta asr mutafakkirlarining qarashlarida xam o'z aksini topgan.

Navoiyning odil jamiyat to'g'risidagi qarashlarida umumijtimoiy qadriyatlar tizimi, komil inson ta'limotida esa inson qiyofasiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ta'riflangan. Bunda

ikki qadriyatlar tizimining aloqadorligi yaqqol ko‘rinib turadi. Mutafakkirning ma‘naviy qadriyatlari to‘g‘risidagi g‘oyalar bugungi mustaqillik sharoitida katta ahamiyat kasb etmoqda.

XIX asrning oxirlari XX asr boshlarida yurtimizda vujudga kelgan “Qadimlar” va “jadidlar” oqimi hayotda ro‘y berayotgan turli o‘zgarishlarni o‘rganish, umummilliy qadriyatlarimizni jahon taraqqiyoti talablari nuqtai nazaridan tahlil qilish kabi g‘oyalarni ilgari surdi. Bunda Ismoilbey Gaspirali, Behbudiy, Sufizoda, Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, Fitrat kabi ilg‘or kishilarning xizmatlari katta.

Qadriyatlar bilan bog‘liq muammolar jadidlarning diqqat markazida turgan, ular sharqona qadriyatlarning borasida ham qimmatli fikrlarni bayon qilganlar. Bu borada Abdulla Avloniyning o‘rni alohida bo‘lib, uning “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobida o‘ziga xos ma‘naviy qadriyatlar tizimi ta‘riflab berilgan. Asarda matonat, nazokat, g‘ayrat, riyozat, shijoat, qanoat, ilm, sabr kabi qadriyatlar — “yaxshi xulqlar” degan umumiy nom ostida tahlil qilinib, jamiyat va shaxs hayotidagi buyuk yaratuvchilik[7] “Yomon xulqlar”ga esa g‘azab, jaholat, razolat, adovat, g‘iybat, haqorat kabi xususiyatlar misol bo‘lishligi aytib o‘tiladi.

Xulosa. Yosh avlodimizning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash bundan buyon ham barcha darajadagi eng asosiy, hal qiluvchi vazifasi bo‘lib qoladi”[8]. Yurtimizda qadriyatlar mavzusi o‘zining o‘tmishiga ega, uning ildizlariga esa qadim zamonlarga borib tarqaladi. Qadriyatshunoslikning asl durdonalarini nafaqat G‘arbdan, balki Sharqdan ham qidirilmog‘i lozim. Yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash barqaror taraqqiyotga erishishning eng muhim sharti ekanini yaxshi tushunamiz”[9]. Qadriyatshunoslik asosan qadriyatlar, ularning namoyon bo‘lish shakllari, qadrlash hissi, qadrlash tuyg‘usi, realikka qadriyat bilan munosabat va aksiologik yondashuv taraqqiyot jarayonida qadriyatlar sohasidagi o‘zgarishlar, qadrlash va qadrsizlanish muammolari, tarixni aksiologik tushunish, qadriyat tizimlarining amal qilish xususiyatlari to‘g‘risidagi masalalarni o‘rganadi va ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda turli millat vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e‘tibor qaratiladi”. Yangi O‘zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga pragmatik yondashuvlar ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Муқаддима. –Тошкент: Ўзбекистон. 2023 й.
2. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. –Тошкент: Ўзбекистон. 2019. 3-том.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. // Халқ сўзи, 2017 йил 19 сентябрь.
4. Каримов Иброҳим. Имон ва маслак тарихи. –Тошкент: Yangi nashr, 2010.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. –Тошкент: Ўзбекистон. 2020. 4-том.
6. Peter Harrison. “Science” and “Religion”: Constructing the Boundaries. The Journal of Religion, Vol. 86, No. 1 (January 2006), pp. 81-106.
<http://www.jstor.org/stable/10.1086/497085>
7. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Тошкент: Ўзбекистон. 2018. 2-том.

8. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Тошкент: Ўзбекистон. 2018. 2-том.
9. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. –Тошкент: Ўзбекистон. 2019. 3-том.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE NEED FOR A MORAL IDEAL IN THE DEVELOPMENT OF MORAL THINKING

Yusupova Feruza Zoyirovna,

Navoi State Mining and Technology University

Senior Lecturer

Email: usupovaferuza35@gmail.com

Abstract. This article highlights that the need for a moral ideal for improving moral thinking are defining, complementing each other, and in the transition to the form of conviction in relation to ideal morality, the moral ideal connects the past and the future, unites high concepts, national-ethnic values and universal values in the person of one person.

Key words: moral thinking, ideal, moral ideal, personality, moral education, value, transformation.

AXLOQIY TAFAKKURNING TAKOMILASHUVIDA AXLOQIY IDEALGA BO'LGAN EHTIYOJ

Yusupova Feruza Zoyirovna,

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

katta o'qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada axloqiy tafakkurning takomillashuvi uchun axloqiy idealga ehtiyoj mavjudligi ideal axloqqa nisbatan belgilovchi, to'ldiruvchi va e'tiqod shaklini o'tashi, axloqiy ideal o'tmish va kelajakni bog'lab, yuksak tushunchalar, milliy-etnik qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlarni bitta shaxsga birlashtirishini ta'kidlash orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy tafakkur, ideal, axloqiy ideal, shaxs, axloqiy tarbiyalash, qadriyat, transformatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N41>

Kirish. Har bir ijtimoiy-tarixiy davr o'ziga xos idealga ega bo'ladi. Shakllangan ideal o'z davrini axloqiy, estetik va ijtimoiy-siyosiy hayotini, orzu-intilishlarini bir tizimga soladi. Antik zamonda ideal deganda, u dunyoviylikdan, kundalik tashvishlardan ajralgan holda haqiqatni anglash haqida fikr yurituvchi kishini nazarda tutadi. Yangi zamonda axloqiy idealni har bir shaxs ichidagi "komil inson" bilan o'lchanadigan harakat va harakat ko'rsatmalari deb hisoblaganlar. Inson o'sha ichki hukm ta'sirida yashaydi, ijod qiladi, lekin u bilan hech qachon bir darajada qoniqmaydi, yuqori darajaga ko'tarilishga ulgura olmaydi.

Umuman, dastlabki umuminsoniy axloqni asl sifatini saqlab qolish uchun konstitutsiyalarda, kodekslarda va turli xalqaro me'yorlarda inson qadrini tarannum qiluvchi "ideallar"ga katta e'tibor berilgan. Bu masala yuzasidan Sharqda va G'arbda alohida yondashuv

mavjud. Sharqda axloqiy tafakkur o'zining dinamik xususiyatini yo'qotmagan va faqat din bilan bog'langan qadriyatlar o'zining statik xususiyatini saqlab qolgan. G'arb jamiyati va undan kelib chiqqan globallashuv oqibatlarini natijasida axloqiy tafakkur o'z ijobiy xususiyatini yo'qotgan. Faylasuf, teolog olim N.A.Berdyayevning fikricha, "axloqiy muammo, eng avvalo, empirik "men" bilan ideal, ma'naviy, normal "men" o'rtasidagi munosabatdir. Axloq, avvalo, insonning o'z-o'ziga ichki munosabatidir. O'zining ma'naviy "menini" axtarish va amalga oshirish, "normativ" ongning "empirik" ong ustidan tantanasidir. Odatda, bu insonda shaxsiylikning taraqqiyoti deb ataladi. Axloqiylik, insonning insonga munosabati sifatida, har bir insonda uning "menini" va uning huquqlarini e'tirof etishdir"[3;56-78-b.]. Axloqiy tafakkur insoniyatning axloqiy munosabatlari bilan bog'liq milliy-etnik, kundalik empirik ongning axloqiy tajribalari, turli ideal ta'sirida me'yoriy ongga kelishi, nazorat, ijtimoiy-axloqiy boshqaruvni aks ettiruvchi majmuasidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Falsafiy tafakkur tarixida ideal tushunchasining mohiyati, unga berilgan ta'riflar juda ko'p. Biz uning ayrimlarini mulohaza qilamiz. Idealni "insoniyat jamiyati uchun real qonunlarning eng ishonchli, eng haqiqatga mos keluvchi" [10] tushuncha sifatida, idealni "uchinchi dunyo" [7;259-b.] (K.R.Popper), ya'ni dastlabki ikkita (moddiy va aqliy) kabi haqiqiy bo'lgan, ideal dunyoga kiritish mumkin. Tadqiqotchi A.R.Samadov idealning umumnazariy, falsafiy-ontologik tuzilishiga e'tibor qaratib, an'anaviy yondashuvni o'zgartirgan, ya'ni ideal – "1) tuzilishiga ko'ra – bilim-e'tiqod, g'oya, nazariya-maqсад, modellar va qadriyatlar tizimidan tashkil topadi; 2) tarkibiga ko'ra – mavhum, xayoliy, konstruktiv-bunyodkor va g'oyaviy-mafkuraviy; 3) emotsional-ruhiy darajasiga ko'ra – motivatsion, optimistik, nigilistik va skeptik; 4) tipiga ko'ra – diniy, ilmiy, axloqiy, estetik, ekologik, ijtimoiy-siyosiy; 5) inson hayotidagi ahamiyatiga ko'ra – o'tmishni ideallashtirish, shaxs idealini shakllantirish uslublarini aniqlash, ilmiy-badiiy ijodda ifodalash, san'at va sportda maqsad va mo'ljalni beruvchi, idealning qadriyatli xususiyati va uni shaxs hayotida zaruriyatini asoslash, inson shaxsining doimiy optimistik, motivatsion, biriktiruvchi-konstruktiv, ishonchli-epistimologik faoliyati bilan bog'langan bo'ladi" [9;20-b.]. Demak, ideal tushunchasining genezisiga nazar tashlansa, insonga biror ishonchni, e'tiqodni (falsafiy ma'noda epistimologiyani) yaratish maqsadida ideal obrazga, timsolga va yaxlitlikka, transendentga ehtiyoj sezilar ekan. Insonning ideal haqidagi ratsional qarashlari rivojlanishi natijasida asta-sekin sinkretik-mifologik axloqiy qarashlar, ya'ni birinchi inson ideali, tashqi dunyodan farq qiluvchi chin insoniylik obrazi shakllanadi. Nemis faylasufi E.Kassirerning iborasi bilan aytganda, "sodda kosmologiya sodda antropologiya bilan qo'shildi"[6;472-b.]. Inson hayotida qadriyatli mo'ljalni olish uchun unga ta'sir o'tkazuvchi, oqar suv kabi shakl beruvchi ideallar qurshovida yashashi kerak ekan.

Ideal ko'proq san'atda timsollar orqali yaxshiroq ifodalanadi. Bizning idrokimiz uchun ma'lum ramzlar orqali berilgan tushunchalar to'plami yanada jozibador. Chunki bu bizning ongimizga tushunish va tushuntirish uchun yengillik beradi. Ma'nolar mag'zini aks ettiruvchi tushunchalar mavhum, abstrakt xususiyatga ega, reallikka mos emas, tabiiy fanlardagi konstantaga ega emas. Lekin ma'naviy-ruhiy ishlab chiqarishda, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilishda juda zarur tushunchalardir. "Ideal o'ziga xos ong holatini aks ettiradi, u standartga qaratilgan, unga o'ziga xos qimmatli hodisa va eng oliy maqsad sifatida intiladi. Ideal inson yoki jamiyatning o'zi bo'lishi kerak bo'lgan narsaga, eng mukammal va shuning uchun yaxshi narsaga bo'lgan istagini ifodalaganligi sababli, bu istak inson va jamiyat hayotining turli

jabhalarida turlicha namoyon bo'ladi. U bilishda haqiqatga intilish, axloqda ezgulikka intilish, estetikada go'zallikka intilish sifatida namoyon bo'ladi, lekin ayni paytda bu hodisaning barcha tomonlari va qirralari o'zaro ichki bog'liqdir. Ideal — yaxlitlik, xilma-xillikda birlik, to'liqlik, mukammallikdir"[5;28-b.].

Muhokama. Axloqiy nazariya va oddiy axloqiy ong kategoriyalar mazmunini turli darajada qabul qiladi. Har bir axloqiy g'oya (tushunish) me'yoriy xususiyatga ega. Axloqiy ideal "taqlid" deganda yuksak axloqiy ma'naviyat va hayotda taqlid qilishga intilishni yuzaga keltiradigan axloqiy fazilatlar tashuvchisi bo'lgan yuksak axloqiy shaxs obrazi orqali axloqiy talablarni idrok etish jarayoni tushuniladi. Har bir tarixiy davr o'ziga xos axloqiy idealga ega bo'lgan. O'sha ideal haqidagi fikr va qarashlar falsafiy ta'limotlarda, diniy ta'limotlarda, azaliy asarlarda o'z ifodasini topdi. Masalan, Immanuil Kant axloqiy idealni har bir shaxs ichidagi "komil inson" bilan o'lchanadigan harakat va harakat ko'rsatmalari deb hisoblagan. Inson o'sha ichki hukm ta'sirida yashaydi, ijod qiladi, lekin u bilan hech qachon bir darajada turolmaydi, uning darajasiga ko'tarila olmaydi. Har bir faylasuf, olim, dinshunos o'z ideali bilan yashaydi. Axloqiy ideal shaxsni axloqiy tarbiyalash maqsadini ham belgilaydi. Ushbu idealga erishish uchun inson irodasi axloqiy idealga erishish istagini amalga oshirish uchun harakat qiladi.

Axloqiy tafakkurning normal taraqqiyotiga xalal beruvchi bu texnokratik tafakkurdir. Jamiyatda yalpi axborotlashtirish jarayoni mantiqiy tafakkursiz insonni qadriyatlar olamidanda chalg'itadi, foyda, manfaatga asoslangan utilitar pragmatik natijalarga, inson dunyoqarashining bir yoqlamaligiga yo'naltiradi. Insonlar o'z hayotlarini o'zlari tanlagan hamda amal qiladigan qadriyatlar tizimiga asoslangan holda qurishadi. Lekin bunday tanlovlarni ro'yobga chiqarishi uchun, u doimo o'zini o'zi takomillashtirish bilan shug'ullanishi, hayotining turli jabhalarida yuksak mohiyatga ega mukammal namunalardan mo'ljal olmog'i lozim.

Axloqiy ideal axloqiy tamoyillar va me'yorlarning mazmuniga ham ta'sir qiladi. Ta'sir darajasi insonning qiziqishiga, vaziyat va sharoitlarga bog'liq. Masalan, saxovatli, obro'li, qat'iyatli, shuningdek, o'z vatanini, aziz va yaqinlarini himoya qilish uchun uni eng zarur hollarda qo'llaydigan shaxsni axloqiy ideal deb hisoblash mumkin. E.B.Andriyanov ta'kidlashicha, "Axloqiy ideal — bu odamlarning eng yaxshi axloqiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan komil inson haqidagi g'oyasi va namunasi, xatti-harakati standarti, insonning sa'y-harakatlari yo'naltirilishi kerak bo'lgan maqsad. Axloqiy ideal odamlarning o'z hayotlaridan noroziligiga, axloqiy o'zini o'zi yaxshilash yoki mavjud voqelikni o'zgartirish orqali uni yaxshiroq, baxtli qilish istagiga asoslanadi"[1;220-223-b.].

Axloqiy ideal tushunchalari butun jamiyat darajasida ham mavjud. Oliy adolat va insonparvarlikka asoslangan jamiyat haqidagi orzular hamisha jamoatchilik ongida yashab kelgan. Ijtimoiy ideal — bu ma'lum bir ijtimoiy guruhning yaxshiroq ijtimoiy tuzilish va yuqori adolat haqidagi g'oyalari aks ettirilgan mukammal jamiyat g'oyasidir.

Axloqiy kategoriya bo'lgan "ideal" tushunchasiga quyidagi talablar qo'yiladi: barcha ne'matlarni odamlar o'rtasida teng taqsimlash, inson huquq va burchlari o'rtasidagi mutanosiblik, insonning o'z mahorati va qobiliyatiga ko'ra jamiyatdagi o'rni, har kimga qadrli bo'lishi, u keltiradigan ijtimoiy foyda nuqtayi nazaridan, shaxsiy va jamoat, xayrixoh hayot va baxtga erishish imkoniyati o'rtasidagi muvofiqlikning mavjudligi va boshqalar. Tadqiqotchi N.Eshonkulova ta'kidlashicha, "Hayotiy ideal o'ziga xos, kishi hayot yo'lini ko'rsatib turadigan mayoqdir. Turmush mashaqqatlari kishi xayolini, maqsadlari va niyatlarini o'zgartirib yuborishi mumkin. Tez o'zgaruvchan dunyo uchun hech nima muqaddas, muqim emas, u eng

qadrli hisoblangan an'analarni ham o'z ketidan chopishga majbur etadi. Hayotdan orqada qolmaslik uchun kishi ba'zida hayotiy maqsad va orzu-umidlarini o'zgartirishga majbur. Shunday ekan, idealni barqaror qadriyat sifatida qabul qilish hayotdan orqada qolishga olib kelmaydimi? Maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, idealga kishilar yuqori talablar qo'yishadi. U avvalo, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lishi lozim"[11]. Faqat yuksak axloqiy qadriyatlardan bahramand bo'lish orqali idealga erishish yo'lida yurish kerak.

Islom dini bo'yicha inson shu real dunyodagi xatti-harakatlari tufayli keyingi dunyoda jannat (huzur-halovat) yoki do'zax (cheksiz azob-uqubat)ga kirishi mumkin. Bu yerda "qo'rqinch" asosiy qadriyat bo'lib, buyuk transsendentdan qo'rquv musulmon kishisini axloqiga shakl beradi, chizgilar qoldiradi. A.S.Xomyakovning fikricha, "bizning barcha bilimlarimizni tashkil etuvchi anglashning dastlabki aktlari e'tiqoddir. Ushbu birlamchi ma'lumotlar "mantiqiy ongdan oldinroq", ular "hayotiy ong" yoki "hayotiy bilim"ni tashkil etadi"[2;23-b.]. Insonning ongli va intellektual intilishi, joiz bo'lsa, e'tiqodining shakli bu idealdir. Ideal intellektual qadriyat sifatida inson kamolotining timsoli, eng yuqori cho'qqisi hisoblanadi. U insonga mukammallik, har jihatdan komillik, haqiqiy insoniylik kabi qadriyatlarni shakllanishiga katta yordam bergan. Ideal obyektiv tarzda jamiyatning madaniy rivojlanish belgisini va hukmron qadriyatlarini tizimlashtirishni belgilasa, subyektiv tarzda ijtimoiy idealni anglashga yordam beradi. Shuning uchun nemis mumtoz faylasuflari I.Kant, V.Gegellar idealni inson tafakkurining eng yuqori kamoloti belgisi sifatida e'tirof etadilar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ideal turkumlashda qadriyatlarning barcha shakllariga qarab emas, inson, shaxsning millati, ma'naviyati, intilishi, maqsadi, ruhiyati asos qilib olinsa maqsadga muvofiq bo'lardi. "Ideal muammosi qadimdan to hozirgacha inson ma'naviy borlig'ining mukammallik (barkamollik namunasi, yagona nazariya), farovon hayot (baxt, orzu va go'zallik), yashashning umuminsoniy andazasi va yagona intilish obyekti (abadiy qadriyatlar, transsendent, yagona, mutlaq borliq) bo'yicha izlanishlarining markazida bo'lib kelgan"[9;30-b.]. Ideal qadriyat sifatida insoniyatning yuksak maqsadlarga, konstruktiv mohiyati tufayli hayotni mohiyati va yashashdan maqsadni belgilashda, kelajakka ishonch sifatida yuksak insoniylik tamoyillariga egadir[12].

Natijalar. Axloqiy tafakkurning takomilashuvi uchun axloqiy idealga ehtiyoj mavjud. "Axloqiy ongning tarkibida bor bo'lgan va bo'lishi kerak bo'lgan narsa o'rtasidagi qarama-qarshilik tufayli paydo bo'ladi. Axloqiy ideal komil inson g'oyasini aks ettiradi"[4;17-36-b.]. Ideal qadriyat sifatida "insonning dunyoga bo'lgan munosabatlarining tiplariga ko'ra: kognitiv, estetik, axloqiy kabi samarali ko'rinishlarda shakllanishi mumkin"[8;518-b.]. Ideal axloqqa nisbatan belgilovchi, to'ldiruvchi va e'tiqod shaklini o'taydi. Axloqiy ideal o'tmish va kelajakni bog'lab, yuksak tushunchalar, milliy-etnik qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlarni bitta shaxsga birlashtiradi.

Axloqiy tafakkur tarixida "axloqiy idealning shaxsiy, milliy va umumbashariy xususiyatlari tarqaqiyoti bilan bir vaqtda ideologik muhitni aks ta'siri ikki xil qarashni yuzaga keltirgan: birinchidan, axloqiy idealning mohiyatini tashkil etuvchi ezgulik, baxt, adolat, muhabbat, axloqiy go'zallik mezonlari, mutlaq poklik, insoniylik, olijanoblik haqidagi tushuncha, tasavvur va namunalarning milliy xususiyatlari bilan umuminsoniy qadriyat qorishgan holda muayyan barqarorlikka da'vo sifatida estetik ideal xususiyatlari bilan qorishgan bo'lsa, ikkinchidan, voqelikning subyekt ongidagi ideallashtirilgan obrazlariga shaxsiy, milliy, mafkuraviy ehtiyojlarni ifodalovchi voqelikni ham o'zida aks ettirib kelgan. Bu

ikki yoqlama ta'sir axloqiy idealning ijtimoiy-tarixiy vaziyat va jamiyat ma'naviy-mafkuraviy ta'sirida bo'lishini ko'rsatadi"[9;91-92-b.]. Demak, axloqiy ideal azaliy qadriyatlar bilan chambar-chas bog'liq bo'lib, ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-axloqiy xususiyatlarni boyitib, rivojlantirib, an'analarda transformatsiyaga uchraydi.

Xulosa. Makon va zamondan qat'iy nazar ideal murakkab ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida shaxs ongi va ruhiyatida chuqur iz qoldiradi. Ideal individual qiyofa, namuna, obraz tarzida har bir inson qalbi va ongida shakllanadi. Uning tarbiyaviy mohiyati shundan iboratki, ideal har bir shaxsga tabiat, jamiyat va insonga nisbatan shaxsiy munosabatlarni belgilashga, o'z tafakkur olamini boyitishga hamda faoliyat yo'nalishini belgilab olishga imkon beradi. Ideal u qaysi shakl va kimda bo'lishidan qat'iy nazar, optimistik xarakterga ega bo'ladi.

Yoshlarda ma'naviy borlig'ida axloqiy ideal takomillashtirilsa, milliy o'zligini anglash, dunyo voqealarini teran tushunish, zamon bilan hamnafas qadam tashlaydigan shaxslar bo'lib yetishadilar. Bunday shaxslarga har qanday aqidaparast, ekstremist va "ommaviy madaniyat" tarzida chiroyli qog'ozlarga, bejirim shiorlarga burkab beriladigan g'arazli g'oyalari, bema'ni da'vatlar ta'sir eta olmaydi. Demak, bilim, imon, e'tiqod, ma'rifat va yuksak axloqiy ideal buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashda yoshlarimiz ongi va qalbi uchun mustahkam qalqon vazifasini o'taydi. Shuningdek, xudbinlik, loqaydlik, beparvolik, qarindosh-urug'chilik, mahalliychilik, ichiqoralik, baxillik va hasadgo'ylik singari illatlardan forig' bo'lishga ham yordam beradi[13].

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Андриянов Е.В. Нравственный идеал как предмет воспитания / Е.В.Андриянов, А.В.Деникин // Вестник Университета (Государственный университет управления), 2013. № 3. - С.220-223.
2. Барышков В.П. Аксиология личностного бытия / В.П.Барышков / под ред. В.Б.Устьянцева. – М.: Логос, 2005. –192 с.
3. Бердяев Н.А. Этическая проблема в свете философского идеализма // Проблема идеализма. – М.: Канон+: Реабилитация, 2002. – 655 с.
4. Дробницкий О.Г. Структура морального сознания /О.Г.Дробницкий/ Хрестоматия по педагогической аксиологии. – М.: Издательство Московского психолого-социального института МОДЭК, 2005. – 480 с.
5. Ильин И.А. Спасение в цельности: собр. соч.: в 10 т. / И.А.Ильин. – М.: Русская книга, 1994. – Т.3. – 592 с.
6. Кассирер Э. Опыт о человеке: введение в философию человеческой культуры. – М.: Гардарики, 1998. – 784 с.
7. Поппер К.Р. Эволюционная эпистемология / К.Р.Поппер // Эволюционная эпистемология и логика социальных наук: Карл Поппер и его критики. – М.: Эдиториал УРСС, 2000. – 464 с.
8. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб: Издательство: Питер, 2002. – 720 с.
9. Samadov A.R. Philosophical Analysis of the synthesis of Morality and Aesthetics in Spiritual Life //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. – 2021. – Т.2. – №3. – С.1-7.
10. Трифонов Е.В. Пневмапсихосоматология человека. Русско-англо-русская энциклопедия, 18-е изд./ Е.В.Трифонов. – 2015. – Режим доступа: <https://tryphonov.ru/tryphonov1/terms1/ideal.htm#0>

11. Eshonkulova N.A., Yusupova F.Z. Phenomena Of Happiness In Philosophy And The Meaning Of Life //Boletin de Literatura Oral-The Literary Journal. – 2023. – Т. 10. – №. 1. – С.3944-3948.
12. Юсупова Ф.З. Конструктивная связь нравственно-эстетической культуры и нравственного идеала молодежи // Электронный журнал Научные исследования в Кыргызской Республике. – Бишкек, 2023. 4 квартал. – №4. – С.80-90.
13. Yusupova F.Z., Eshonkulova N.A. Ideal And Values As The Expression Of The Aspiration Of The Human Towards Spiritual Perfection// Boletin De Literatura ral - The Literary Journal, 10(1), Vol. 10 No. 1 (2023). Pg no: 3939-3943. ISSN: 2173-0695 (Scopus).

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE INFLUENCE OF SYNERGETICS ON THE PHILOSOPHICAL AND SOCIAL OUTLOOK

Aripova Zulfiyakhan Solizhonovna,
Doctor of Philosophy Associate Professor
Andijan Institute of Mechanical Engineering
"Humanities" department
Email: zulfiyaxonaripova@gmail.com

Abstract. This article analyzes the relationship between synergetic science and philosophy, as well as how synergistic ideas and principles influence social and philosophical worldviews. Synergy provides new scientific approaches to understanding systems and complexity, leading to a broadening of philosophical thinking and a new way of looking at social systems and processes. The article first examines key concepts of synergistic theory, such as ideas such as self-organization, interactions between systems, and the emergence of new order through chaotic processes.

Also, the article pays special attention to the harmony of philosophy with synergetics, what innovations it has brought to modern life, and its role in understanding uncertainty and probability. Practical aspects of the use of synergistic models in social life are also covered. As an example, the use of synergistic approaches in the management and development of complex systems in economy, ecology and politics is shown.

Key words: synergetics, philosophy, systems theory, social outlook, complex systems, chaos, order and uncertainty, modern scientific approaches.

SINERGETIKANING FALSAFIY VA IJTIMOY DUNYOQARASHGA TA'SIRI

Aripova Zulfiyaxon Solijonovna,
Falsafa fanlar nomzodi dotsent
Andijon mashinasozlik instituti
"Gumanitar fanlar" kafedrası

Annotatsiya. Mazkur maqola sinergetika fani va falsafaning o'zaro aloqalarini, shuningdek, sinergetik g'oyalar va tamoyillarning ijtimoiy va falsafiy dunyoqarashga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qiladi. Sinergetika, tizimlar va murakkabliklarni tushunish bo'yicha yangi ilmiy yondashuvlarni taqdim etadi, bu esa falsafiy tafakkurni kengaytirishga va ijtimoiy tizimlar va jarayonlarni yangicha qarashga olib keladi. Maqolada, avvalo, sinergetik nazariyaning asosiy tushunchalari, masalan, o'z-o'zini tashkil etish, tizimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va kaotik jarayonlar orqali yangi tartibning paydo bo'lishi kabi g'oyalar ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, maqolada falsafaning sinergetika bilan uyg'unligi, uning zamonaviy hayotga nisbatan qanday yangiliklar olib kelgani, noaniqlik va ehtimollikni tushunishdagi roliga alohida e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy hayotda sinergetik modellarni qo'llashning amaliy jihatlari ham yoritiladi. Misol sifatida, iqtisodiyot, ekologiya va siyosatdagi murakkab tizimlarni boshqarish va rivojlantirishda sinergetik yondashuvlarning qo'llanilishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: sinergetika, falsafa, tizimlar nazariyasi, ijtimoiy dunyoqarash, murakkab tizimlar, xaos, tartib va noaniqlik, zamonaviy ilmiy yondashuvlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N42>

Kirish. Falsafaning zamonaviy metodlaridan biri sinergetik metoddir. Sinergetika o‘z-o‘zidan tashkil topish mexanizmlari va qonuniyatlarini taraqqiyot jarayonining universal komponenti sifatida o‘rganadi. Bu universallik o‘z-o‘zidan tashkil topish nazariyasi uchun shu qadar muhimki, sinergetika tadqiqotchilaridan biri G.Xaken bu fanning asosiy masalasini u bilan bog‘laydi. “Nima uchun, — deb yozadi u,- o‘z tabiatiga ko‘ra turli komponentlardan – elektronlar, atomlar, molekulalar, fotonlar, hujayralar, hayvonlar yoki hatto odamlardan iborat bo‘lgan tizimlar o‘z-o‘zidan tashkil topganda, ayni bir prinsipga bo‘ysunib, suyuqlikdagi tuzilmalar, elektr tebranishlari, hayvonlar populyatsiyalari yoki ijtimoiy guruhlarini tashkil etishi kerak?”¹.

O‘z-o‘zidan tashkil topish hodisalarining bu qadar keng ko‘lami sinergetikada postulat qilib olinmaydi. U mutaxassislarning turli tuman bilim sohalarida tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning umumiy determinantlarini kashf yetishi natijasidir. Shu tufayli sinergetika alohida fan g‘oyalarining yig‘indisi sifatida yemas, balki fizik, ximik, biolog va matematik o‘z materialini ko‘radigan umumiy qarashlar tizimi sifatida va, aksincha, bulardan har biri, o‘z fani metodini qo‘llab, sinergetikaning rivojlanishiga biron bir tarzda hissa qo‘shadi. “Men yangi fanni “sinergetika” deb atadim, bunga sabab, — deb yozadi G. Xaken,-unda tizimlarning ko‘pgina elementlarining birgalikdagi harakati tadqiq yetilishigina yemas, balki o‘z-o‘zidan tashkil topishni boshqaruvchi umumiy prinsiplarni topish uchun ko‘pgina turli-tuman fanlarning kooperatsiyalashuvi zarurligidir”².

Sinergetika bu turli tabiatli tuzilmalarning o‘z-o‘zidan tashkil topish, barqarorlik, parchalanish va qayta paydo bo‘lish jarayonlarini tadqiq yetuvchi nazariyadir.

Sinergetika dialektikaning quyidagi g‘oyasini tasdiqlaydi: har bir obyekt olamdagi hodisalarning umumiy bog‘liqligi tufayli uni o‘rab turgan turli jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir vaqtning o‘zida turli qism tizimlaridan iboratdir. Obyektning har bir tarkibiy qismi boshqa qismlar va tashqi dunyo bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Shu bois, har bir tarkibiy qism o‘ziga xos aloqalar tizimiga ega bo‘lib, bu uni o‘ziga xos harakat va ichki dinamizmga olib keladi, natijada obyektning ichki o‘z-o‘zidan differentsiatsiyalashuvi tendensiyasi yuzaga keladi. Shuningdek, bir butun obyekt uning birligini saqlash davomida o‘z qismlariga ta‘sir ko‘rsatadi, bu esa obyektning ichki o‘z-o‘zidan integratsiyalashuv tendensiyasini keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sinergetika taraqqiyot konsepsiyasini chuqurroq ifoda yetishga imkon beradi. I.Prigojin ta‘kidlashicha: “ham klassik, ham kvant mexanikada agar qaysidir bir vaqtda sistemaning holati yetarli aniqlikda ma‘lum bo‘lgan bo‘lsa, unda kelajakni juda bo‘lmaganda prinsipda oldindan aytish mumkin yedi. Buning ustiga bunday turdagi nazariy sxema ko‘rsatdiki, qaysidir bir ma‘noda “hozir” o‘zida o‘tmish va kelajakni saqlaydi. Ko‘rib turganimizdek, haqiqatda unday yemas. Kelajak o‘tmishning tarkibiy qismiga kirmaydi. Hatto fizikada (xuddi sotsiologiyadagidek) atigi xilma-xil mumkin bo‘lgan “ssenariylar”nigina oldindan aytish mumkin”¹.

¹ Г.Хакен. Синергетика, М., 1980. 31 бет.

² Ўша жойда, 15-бет.

¹ Пригожин И. От существующего к возникающему: Время и сложность в физических науках. М. 1985. 16-17-б.

Sinergetika taraqqiyotning qator fundamental o'ziga xosliklarini ochib berishga imkon beradi. Taraqqiyot jarayonida tizimning umumiy muhitida tebranishlar hosil bo'lishi, ya'ni tizim muhitini yangi tashqi ta'sir vujudga keltirayotgan yangi tarkibi sifat jihatdan sakrash nuqtasiga yaqin bosqichda hal qiluvchi hisoblanadi. Bu jarayon flaktatsion jarayon deb ataladi. Bu bifurkatsiya nuqtasini, ya'ni taraqqiyotning bundan keyingi yo'nalishining aniq bir variantining ko'pdan ko'p mumkin bo'lgan variantlardagi "tanlovi"ni hosil qiladi. Taraqqiyot jarayoni kogerentlik, turbulentlik, dinamik tartibsizlik, dissipativ va avtoto'lqinli strukturalar dinamikasi, keng masshtabli spontan fluktuatsiyalar kabi bungacha taraqqiyot konsepsiyasi qamrab ololmagan ko'pgina boshqa fenomenlarni o'z ichiga oladi¹. Rivojlanish va taraqqiyot jarayonida bifurkatsiya nuqtalari orasida deterministik qonunlar, bifurkatsiya nuqtalarida esa ehtimoliy qonunlar ustunlik qiladi. Bu murakkab jarayon yangilanish elementlari orqali yangi o'zaro bog'liqlikda bo'lgan mikro va makro darajadagi tizimlarni hosil qiladi.

Bizga ma'lumki, materiyaning o'z-o'zidan tashkil topishi haqidagi tasavvurlarni uning harakati va rivojlanishi haqidagi tasavvurlar sifatida o'rganish falsafaning an'anaviy muammosidir. *O'z-o'zidan tashkil topish* – bu obyektning komponentlarining faqat ichki aloqalari hisobidan va o'tmish tarixiga muvofiq kollektiv harakati natijasida vujudga kelishidir. Rivojlanish, murakkablashish va o'z-o'zidan tashkil topish jarayonlari uzoq vaqtgacha faqat jonli tizimlar bilan bog'lab kelindi.

Muhokama. Jonsiz tabiatda o'z-o'zidan tashkil topish hodisalarining kashf etilishi ko'pgina jarayonlarga yangicha qarashga imkon berdi, jonsizdan jonlikka o'tish mexanizmi to'g'risidagi bilimni boyitdi. Bu jihatdan *sinergetika* nomini olgan yangi ilmiy yo'nalish doirasida ishlab chiqilayotgan g'oyalar diqqatga sazovordir.

Sinergetika o'z-o'zidan tashkil topish mexanizmlari va qonuniyatlarini taraqqiyot jarayonining universal komponenti sifatida o'rganadi. Bu universallik o'z-o'zidan tashkil topish nazariyasi uchun shu qadar muhimki, sinergetika tadqiqotchilaridan biri G.Xaken bu fanning asosiy masalasini u bilan bog'laydi. "Nima uchun, — deb yozadi u, - o'z tabiatiga ko'ra turli komponentlardan – elektronlar, atomlar, molekulalar, fotonlar, hujayralar, hayvonlar yoki hatto odamlardan iborat bo'lgan tizimlar o'z-o'zidan tashkil topganda, ayni bir prinsipga bo'ysunib, suyuqlikdagi tuzilmalar, elektr tebranishlari, hayvonlar populyatsiyalari yoki ijtimoiy guruhlarni tashkil etishi kerak?"¹

Sinergetika alohida fan g'oyalarining yig'indisi sifatida emas, balki fizik, ximik, biolog va matematik o'z materialini ko'radigan umumiy qarashlar tizimi sifatida va, aksincha, bulardan har biri, o'z fani metodini qo'llab, sinergetikaning rivojlanishiga biron bir tarzda hissa qo'shadi. "Men yangi fanni "sinergetika" deb atadim, bunga sabab, — deb yozadi G. Xaken,-unda tizimlarning ko'pgina elementlarining birgalikdagi harakati tadqiq etilishigina emas, balki o'z-o'zidan tashkil topishni boshqaruvchi umumiy prinsiplarni topish uchun ko'pgina turli-tuman fanlarning kooperatsiyalashuvi zarurligidir".²

Shunday qilib, yunonchadan tarjima qilinganda, "ko'mak"ni, "hamkorlik"ni bildiruvchi "*sinergetika*" so'zi ikki xil ma'noga ega. Bir tomondan, bu murakkab tizimli elementlarning kooperativ harakati, ikkinchi tomondan, bu turli bilim sohasidagi olimlarning hamkorligidir. Aynan o'z ma'nosida aytganda, *sinergetika bu turli tabiatli tuzilmalarning o'z-o'zidan tashkil topish, barqarorlik, parchalanish va qayta paydo bo'lish jarayonlarini tadqiq etuvchi nazariyadir.*

¹ Пригожин И., Стенгерс И. Время, хаос, квант. М.,1994; Haken H. Information and self-organization: a makroscopic approach to complex systems. Berlin, 2000

Sinergetika dialektikaning quyidagi g'oyasini tasdiqlaydi: har bir obyekt olamdagi hodisalarning umumiy bog'liqligi natijasida uni o'rab turgan turli jarayonlar bilan uzviy aloqada bo'lib, shu bilan birga turli qism sistemalardan iboratdir. Obyektning har bir tarkibiy qismi boshqa qismlar va tashqi muhit bilan o'zaro bog'langan holda mavjud bo'ladi. Shu sababli, har bir tarkibiy qism o'ziga xos aloqalar tizimiga ega bo'ladi, bu esa uni o'ziga xos harakatga va ichki harakatga olib keladi, natijada obyektning ichki o'z-o'zidan differentsiatsiyalashuv tendensiyasi paydo bo'ladi. Shu bilan birga, bir butun obyekt uning birligi saqlanishi davomida o'z qismlariga ta'sir o'tkazadi, bu esa obyektning ichki o'z-o'zidan integratsiyalashuv tendensiyasini keltirib chiqaradi.

O'z-o'zidan differentsiatsiyalashuv va integratsiyalashuv ziddiyati obyekt tarkibida bir-biriga qarama-qarshi tomonlarning shakllanishiga olib keladi. Ushbu tomonlar obyekt tarkibidagi bir xil turdagi qismlarning o'zini-o'zi tashkil qilish jarayonida yuzaga keladi. Qismlarning bir guruhining bir turda qolishi va o'zini-o'zi tashkil qilib, integratsiyalashish jarayoni, ularning bir butunlik tarkibidagi o'xshashligi va yaqinligi bilan bog'liq. Qarama-qarshi tomonlarning bir-birini inkor etish jarayoni har bir tomonning ichki birligini mustahkamlaydi. Ushbu ziddiyatli o'zaro ta'sir jarayonida tomonlar quyidagi bosqichlardan o'tib rivojlanadi: ayni holat, birlik, farqlanish, qarama-qarshilik, ziddiyat, to'qnashuv, antagonizm. Rivojlanish jarayonida qarama-qarshi tomonlardan biri boshqasini dialektik tarzda inkor etishni boshlaydi. O'zgacha tarkibiy qismlar o'zaro birlashib, jipslashib, sifat jihatdan yangi butunlikka aylanadi, bu esa sakrashni keltirib chiqaradi. Yangi butunlik tarkibida yana o'z-o'zini differentsiyalashuv va integratsiyalashuv jarayonlari boshlanadi. O'z-o'zidan differentsiatsiyalashuv jarayoni orqali rivojlanish natijasida faqatgina bir-biriga yaqin va bog'lanmagan elementlar majmuasi emas, balki yaxlit tizimga birlashgan, sintezlashgan va integratsiyalashgan xilma-xillik shakllanadi. Shu tarzda rivojlanish jarayonida dialektik sintez ham yuz beradi.

Natijalar. Sinergetika taraqqiyot konsepsiyasini chuqurroq ifoda etishga imkon beradi. I.Prigojin ta'kidlashicha: "ham klassik, ham kvant mexanikada agar qaysidir bir vaqtda sistemaning holati yetarli aniqlikda ma'lum bo'lgan bo'lsa, unda kelajakni juda bo'lmaganda prinsipda oldindan aytish mumkin edi. Buning ustiga bunday turdagi nazariy sxema ko'rsatdiki, qaysidir bir ma'noda "hozir" o'zida o'tmish va kelajakni saqlaydi. Ko'rib turganimizdek, haqiqatda unday emas. Kelajak o'tmishning tarkibiy qismiga kirmaydi. Hatto fizikada (xuddi sotsiologiyadagidek) atigi xilma-xil mumkin bo'lgan "ssenariylar"nigina oldindan aytish mumkin"³.

Sinergetika taraqqiyotning qator fundamental o'ziga xosliklarini oshib berishga imkon beradi. U quyidagilarni ko'rsatadi: 1) taraqqiyot jarayonida fluktuatsiyalarning o'rni keskin o'tish, sifat jihatdan sakrash nuqtasiga yaqin bosqichda hal qiluvchi hisoblanadi, ular bu sakrash arafasida kuchayadi va u haqida darak beradi; 2) bu sakrash jarayonida amaldagi sharoit va vaziyatlarga bog'liq bo'lgan taraqqiyotning ko'rinishi shakllanadi, bifurkatsiya nuqtasida taraqqiyotning bundan keyingi yo'nalishining aniq bir variantining ko'pdan ko'p mumkin bo'lgan variantlardan "tanlovi" sodir bo'ladi; 3) taraqqiyotning bunday bifurkatsion tabiati oqibatida taraqqiyotning qaytmaslik xususiyati paydo bo'ladi; 4) taraqqiyot jarayoni umumiy holatda muvozanatsiz sistemalar rivojlanishi va muvozanatsiz bosqichli o'tishlar bilan bog'liq va shuning uchun o'zida tebranishlar, fazoviy strukturalar va tartibsizliklar shakllanishini qamrab oladi; 5) taraqqiyot jarayoni kogerentlik, turbulentslik, dinamik tartibsizlik, dissipativ va avtoto'lqinli strukturalar dinamikasi, keng masshtabli spontan

flukuatsiyalar kabi bungacha taraqqiyot konsepsiyasi qamrab ololmagan ko'pgina boshqa fenomenlarni o'z ichiga oladi⁴; 6) taraqqiyot jarayonida determinatsiyaning o'ziga xosligi mavjud va bifurkatsiya nuqtalari orasida deterministik qonunlar, bifurkatsiya nuqtalarida esa ehtimoliy qonunlar ustunlik qiladi; 7) har qanday sistemalarning tuzilish barqarorligining chegaralari mavjud bo'ladi, tegishli muvozanatdan chiqaruvchi ta'sirlar orqali ularga yetib borish mumkin, keyin yangilanish elementlari va yangi sistemalar shakllanadi va bu jarayon tuganmasdir; 8) taraqqiyot jarayonining makro va mikro darajalari o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjud⁵.

Xulosa. Shunday qilib, sinergetikaning zamonaviy rivojidan chiqarilishi mumkin bo'lgan asosiy falsafiy saboq shundaki, u noorganik tabiatda o'z-o'zidan tashkil topishning mavjudligini isbotladi. Materiya tashqi ta'sirga asoslanib o'zgarmaydigan inert obyekt sifatida emas, balki o'zini-o'zi tashkil qila oladigan, o'z "irodasini" va ko'p tomonlamaligini namoyon eta oladigan obyekt sifatida qaraladi. Bu, statistik va jonli materiya tushunchalari orasidagi farqni sezilarli darajada kamaytirdi. Agar biz bir tomondan o'z-o'zidan tashkil topuvchi tuzilmalarning xususiyatlari va paydo bo'lish sharoitlarini, ikkinchi tomondan, biologik evolyutsiyaning asosiy jihatlarini taqqoslasak, o'zgartirishlar har ikkala holatda ham bir xil qonunlarga asoslanib, o'xshash tendensiyani namoyon qilishini ko'ramiz.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – B. 233.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelesajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. – B. 19.
4. Mirziyoev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.464-bet.
5. Yusupov E., Tulenov J., Gafurov Z. Milliy masala bo'yicha falsafiy suhbatlar. –Toshkent: Fan, 1990.– B. 77.
6. Aripova Z. Milliy ma'naviyat millat mavjudligining muhim belgisidir // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar jurnali. – Toshkent, 2006. –№3. – B. 26-29.
7. Fofurov Z., Siddiqov B. Milliy istiqloq - ma'naviy-ma'rifiy yuksalish. – Toshkent, 2000. – B. 89.
8. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. –1-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 1996. –B. 84.
9. A'zamxo'jaeva S. Ijtimoiy ideal ro'yobi // Tafakkur. –Toshkent, 2007. –№2. –B. 87.
10. Fofurov Z., Siddiqov B. Milliy istiqloq - ma'naviy-ma'rifiy yuksalish. –Toshkent, 2000. –B. 89.
11. Aripova Z. Milliy ma'naviyat millat mavjudligining muhim belgisidir // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – Toshkent, 2006. №3. – B. 27.
12. Temirov F., Nazarov S. Jamiyat va kadriyat. –Toshkent: O'zbekiston, 1992. – B. 19.
13. AZ Solijonovna. The process of national and spiritual democracy of the personal socialization and its functions// Hunan Daxue Xuebao/Journal of Hunan University Natural Sciences// Vol. 48. No. 12. 湖南大学学报 (自然科学版), 2021. Pages 1565-1571. <https://johuns.net/index.php/abstract/239.html>
14. Solijonovna, Z. A. (2020). Modern Information Technologies - A Factor Of Increasing Youth Education, Potential And Spirituality. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(09), 554-560. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue09-83>
15. Aripova, Z. S. Informatizing society as one of the reasons for creating a global society / Z. S. Aripova, A. A. Aysachev // Ekonomika i sotsium. – 2021. – No 4-1(83). – P. 62-65.

16. Aripova, Z. S. Cultural traditions: their essence and structure / Z. S. Aripova // *Ekonomika i sotsium.* – 2020. – No 5-1(72). – P. 16-19.
17. Aripova, Z. S. Essence and life meaning of world view / Z. S. Aripova // *Ekonomika i sotsium.* – 2020. – No 11(78). – P. 78-81.
18. Aripova, Z. S. Philosophy as a unity of scientific and non-scientific knowledge / Z. S. Aripova // *Ekonomika i sotsium.* – 2022. – No 3-2(94). – P. 46-49. – EDN MIJHSE

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

FORMING A CULTURE OF PREVENTING NATURE POLLUTION AND CONSERVING IT AMONG YOUTH

Saodatov Alimardon Abdurakhmonovich,

Doctoral student of the National University of Uzbekistan

Abstract. This article focuses on the protection of nature, cleaning of waste and prevention of its pollution, and in this spirit the continuous enrichment of youth culture. In the history of the evolution of doctrines about the role of ecological culture, it is analyzed that the ideas advanced in the works of ancient philosophers Anaximenes, Anaximander, Heraclitus, Hesiod, Aristotle, Democritus, Plato, Seneca, Thales, and Epicurus are also important.

Key words: nature protection, ecology, ecological culture, ecology and environmental protection, "human-society-natural environment".

YOSHLARDA TABIAT IFLOSLANISHINI OLDINI OLISH VA UNI ASRAB AVAYLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Saodatov Alimardon Abduraxmonovich,

O'zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiatni muhofaza qilish, chiqindilardan tozalash va uni ifloslanishini oldini olish va shu ruxda yoshlar madaniyatini doimiy ravishda boyitib borish haqida to'xtalib o'tilgan. Ekologik madaniyatning roli haqidagi ta'limotlar evolyutsiyasi tarixida antik faylasuflar Anaksimenes, Anaksimandr, Geraklit, Gesiod, Aristotel, Demokrit, Aflotun, Seneka, Fales, Epikur asarlarida ilgari surilgan fikrlar ham muhim ahamiyat kasb etishi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tabiatni muhofaza qilish, ekologiya, ekologik madaniyat, ekologiya va atrof-muhitni muhofazasi, "inson-jamiyat-tabiiy muhit".

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N43>

Sharq va G'arbning ilg'or qarashlarida tabiat va inson hamisha uyg'un muvozanatda bo'lish, bu mutanosiblikni buzilishi tuzatib bo'lmis mislsiz ekologik fojia va falokatlariga olib kelishiga doir qimmatli fikrlar bildirib kelingan. Masalan, zardushtiylik dinning muqaddas kitobi "Avesto"da tabiat unsurlari suv, tuproq, olov, havo, quyoshni e'zozlash va insonning tabiat boyliklariga boylik qo'shish borasidagi yaratuvchilik mehnatini ulug'lagan. Shuningdek, nisbatan keyingi davrlarda Islom dini manbalari "Qur'on Karim" va "Hadis Sharif"dagi ilohiy o'git va aqidalar ekologik dunyoqarashning ma'naviy ildizlaridir.

Ekologik madaniyatning roli haqidagi ta'limotlar evolyutsiyasi tarixida antik faylasuflar Anaksimenes, Anaksimandr, Geraklit, Gesiod, Aristotel, Demokrit, Aflotun, Seneka, Fales, Epikur asarlarida ilgari surilgan fikrlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda ekologik voqelikda

sabab-oqibat munosabatlari va uning tabiati, voqea-hodisaning ro'y berishi haqidagi o'ziga xos qarashlari mavjud bo'lib, ular keyinchalik ekologiya va atrof-muhit xatarlarining mohiyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tushunishga "inson-jamiyat-tabiiy muhit" triadasida o'zaro bog'liq jarayonlarini har tomonlama tahlil qilish uchun asos yaratgan.

Ekologik xavf-xatarlarni oldini olishning ijtimoiy-falsafiy muammolari Abu Ali Ibn Sino[1], Abu Rayhon Beruniy[2], Abu Nasr Forobiy[3], Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, Mahmud Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Xoja Samandar Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Z.M.Bobur, tasavvuf ilmining buyuk allomalari Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Aziziddin Nasafiy, Muhammad G'azzoliy asarlarida o'z ifodasini topgan.

Umuman olganda, kishilik jamiyati tarixida inson va tabiat munosabati bilan bog'liq muammolar turli fan sohalarini qiziqtirib kelgan hamda turli davrlarda o'ziga xos tadrijiy rivojlanishni boshidan kechirgan.

Urf-odatlarimiz tizimida "Avesto" davridan buyon Olovga bo'lgan hurmat va e'tibor odatlarining ba'zi bir ko'rinishlari O'rta Osiyo xalqlari, aholisi turmush tarzida hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Ota-bobolar odati va tasavvuricha, olovsiz o'choq — misoli egasiz, kimsasiz uydur. Uchoqda yonayotgan olovni bulg'amaslik uchun iflos narsalarni, hatto iflos o'tinni yoqish ham taqiqlangan. Iflos o'tin yoqishdan oldin quyoshda quritilgan yoki suv bilan yuvib tozalangan. Olov yongan uchoqqa qalampir, non, ovqat qoldiqlari tashlash, har xil axlat yoqish yoki o'choqdan chiqqan kulni axlatxonalarga tashlash, harom chiqindilarni uchoq olovda kuydirish gunoh hisoblangan. Vodiya kul bilan axlatni qo'shish qat'iy taqiqlangan. Bunga sabab, agar axlat bilan kul bir joyga tashlansa, ushbu xonadonning tuy va aza marosimlari bir-biriga qo'shib ketar ekan. Motam marosimlarida esa olovni bulg'amaslik uchun uch kungacha xonadon uchoqqa olov yoqib ovqat tayyorlanmagan. Bundan tashqari, nikoh to'yi marosimlarida kelin-kuyovlarni ins-jinlardan poklash maqsadida olov atrofida aylantirish va safarga ketayotganda xonadon olovidan boshqalarga bermaslik odatlari ham qaysidir ma'noda zardushtiylik marosimlari bilan borliq bo'lsa kerak[4].

"Avesto"da go'ristonlarni shahar va qishloqlardan yiroqda, balandlikda joylashtirish, uni o'rab qo'yish uqtirilgan. Odam yoki it murdasi teggan yerda bir yilgacha ziroat ekish mumkin emas, deyiladi. "Vendidod"da murda teggan libos, yerlarni qatron qilish, o'likni dafngacha asrash, uning libosini maxsus joyda asrash, uni barahna (yalang'och) quyish va boshqa omillar xususida foydali maslahatlar mavjud. Go'riston yeri 50 yildan so'nggina o'zining oldingi pok holatiga keladi. Zardushtiylik odatiga binoan ana shundan keyingina bunday zaminda mevali daraxtlar o'tqazish yoki u yerda ziroatchilik bilan shug'ullanish mumkinligi uqtirilgan [4].

"Avesto"da doimiy badantarbiya bilan shug'ullanish, kunda yuz-qo'lni bir necha marta yuvish, qo'lni yuvmasdan turib tananing boshqa joyini ushlamaslik, sochni toza tutib, tirnoqlarni tozalab turish maslahat berilgan. Chunonchi, "Vendidod"ning 17-bobida shaytonning najosati to'planadigan va kesib tashlanadigan tirnoq-sochni nima qilish kerakligi to'g'risida yo'l-yo'riq beriladi. Soch va tirnoqlarning afsungarlik xossalari haqidagi zardushtiylik qarashlari izlari xalqimiz hayotida bugungi kungacha saqlanib qolgan. Keksa yoshli onaxonlarimizning ta'kidlashlaricha, tirnoqlarni olganda chekka yerga tashlash lozim. Agar chekka yerga tashlanmasa, qiyomatda o'sha odamning oyoq ostidan teshib chiqar emish. Shu bois odamlar tirnoqlarini olganda kafanga o'xshatib qog'ozga o'rab: "Qora yer senga topshirdim. Shamol sen guvoh bo'l", deb chetroq yerga ko'mib qo'yganlar. Farg'ona vodiysida

odatda olingan yoki yuvganda to'kilgan sochlarni ham o'tga, suvga tashlanmagan. Chunki sochni o'tga, suvga tashlash og'ir gunoh hisoblangan. Shu bois olingan yoki to'kilgan sochni devorlarning kovagiga quyilgan yoki mevali daraxtning tagiga ko'milgan[4].

Zardushtiylik tuproq, havo, suv va olovni muqaddaslashtirdi. Ularga olamning, borliqning, tabiatning, barcha narsa va predmetlarning moddiy asosini tashkil etuvchi unsurlar deb qaraldi. Odamlarning kundalik turmushida, madaniyatida bu to'rt unsurga nisbatan e'zozli munosabatda bo'lish me'yorlari vujudga keldi. Ariqlar, quduqlar, hovuzlar, buloqlar, daryolar (suv manbalari) toza saqlanishi, iflos qilinmasligi kabi qoidalar shakllandi. Hozirgacha ularning ayrimlari yashab kelmoqda. Masalan, ko'chadan ariq o'tgan bo'lsa, o'zbeklar ko'cha supurganlarida, ariq tomonga emas, devor tomonga qarab supuradilar. Suvga chang va chiqindilar tashlash uvol bo'ladi, deb hisoblaydilar. Biror qurigan daraxtni kessalar albatta, o'rniga, yoniga yosh ko'chatni ekadilar.

Suv manbalari buloqlar, daryolar, quduqlar, hovuzlarni, suv yo'llari — ariqlar, kanallar, anhorlarni toza saqlash, suvga chiqindilar tashlamaslik, uni isrof qilmaslik, keksa daraxtlar o'rniga, yosh nihollarni o'tqazish, olov atrofini pok saqlash, bo'g'oz hayvonlarni ovlash, suyishni taqiqlanishi, yerni almashlab, dam berish ekish va boshqalar ma'naviy-madaniy qadriyatlarimiz tizimida hozirgacha yashab kelmoqda.

Qur'oni karimning ikki yuz ellik oyatida tabiat mavzusi zikr etilgani Islomda bu masalaga katta e'tibor qaratilganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, tabiat ne'matlari cheklanganligi, uni asrab-avaylash muhimligi qayd etilgan.

Jumladan, Qur'oni karimning Qamar surasi 49-oyatida "Albatta, biz har bir narsani o'lchov bilan yaratdik", deb yozilgan.

Ma'lumki, Qur'on Islom dinining asosiy manbai bo'lsa, Hadislar esa, uning murakkab joylarini izohlab umumiy joylarni konkretlashtiradi. Hadislarda Muhammad (s.a.v.) shunday deydi: "Men sizlarga ikki narsani qoldirdim, agar sizlar uni mahkam ushlasangizlar, hech qachon adashmaysizlar, bu – Qur'on va mening sunnatimdir"[5]. Qur'oni Karimda inson uchun yaratilgan Yer bandalarga omonat qilib berilganligi ta'kidlanadi. Omonatga xiyonat esa, kechirilmas gunohdir. Masalan, Baqara surasining 22-oyatida shunday deyiladi: "U sizlar uchun yerni poyandoz, osmonni "bino" qilib qo'ydi va osmondan suv tushirib, u sababli sizlarga rizq sifatida mevalar undirdi(2:22). Boshqa oyatda bunday deyiladi: "(U) Yer-u osmonlarning yaratuvchisidir. Biror ish qiladigan bo'lsa, (faqatgina unga) "Bo'l" desa, u bo'ladi"(2:117). Odamlarni jismoniy va ma'naviy poklikka undovchi g'oyalar Qur'on mazmuniga singib ketgan.

Aristotelning fikricha, "Tabiat insonga intellektual va axloqiy kuchni bergan, ammo u bu quoldan teskari tomonga ham foydalanishi mumkin. Shuning uchun axloqiy kafolatlarsiz bo'lgan inson eng murtad va yovvoyi mavjudotdir"[6]. Ushbu fikrdan inson tabiatidagi tabiatga qarshi mayllarni, tiriklikka nisbatan agressiyani cheklovchi sotsiomadaniy tormozlarga, xususan, diniy qadriyatlarga ehtiyoj hayotiy zaruriyat egaligini ham anglash mumkin. Keyinchalik, Sharqda Abu Nasr Farobiy Aristotel ta'limotini rivojlantirib, o'zining "Fozil odamlar shahri"[7] asarida inson ruhiy olamiga ta'siri haqida o'z davri uchun progressiv bo'lgan ilg'or fikrlarni ilgari surgan.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037-yillar) buyuk tabobat olimi, faylasuf, tilshunos bo'lish bilan birga, zabardast adib ham edi. Uning "Tayr", "Solomon va Ibsol"[8] kabi nasriy asarlarida va she'rlarida tabiat borlig'ini asrab-avaylash, mehrlil bo'lish, jonzotlarga, o'simliklarga ozor

yetkazmaslik kabi g'oyalarni ifodalagan. "Agar dunyoda chang bo'lmaganda, inson ming yil umr ko'rardi", deb aytgan edi ulug' alloma.

Hazrat Alisher Navoiyning dostonlari va lirik she'rlarida ilgari surilgan, tabiat muhofazasi bilan bog'liq bo'lgan ibratli ekologik g'oyalar necha asrki, inson tafakkurida beqiyos ahamiyat kasb etib kelmoqda. Masalan, "Layli va Majnun" dostonida o'tkinchi dunyo tashvishlari va odamlarining ta'na-yu dashnomlaridan bezor bo'lgan Qays sahroga chiqib, "vahshatlik eldin ulfat rishtasini uzib, vahshiylar bilan do'stlashadi"[9]. Sahro jonivorlarini Navfal singari ovchilar zulmidan qutqazib, himoya qiladi. Qaysni odamlar "majnun-telba" deb, atashsa-da, uning qalbida borliqqa, tabiatga, uning jonzotlariga mehr-muhabbat, rahm-shafqat, achinish hissi o'zi yashagan jamiyat odamlariga nisbatan baland va cheksiz. Buni kitobxon Qaysning Navfal bilan bo'lgan muloqotidagi bahs talab qat'iy fikrlari orqali ham uqishi mumkin: "Nafsingni xursand qilish uchun odamlarni to'plab, ko'ngling qon to'kishni tilayaptimi. Shunday zulm qilib topgan ovqating ovqat bo'ladimi, senga bu ish munosibmi? Agar tikan oyog'ingga nish ursa, ko'ngling oyog'ing uchun alam chekadi. O'q otib jonivorlarni o'ldirish senga martaba beradimi?"[10]. Sharqning buyuk ijodkori Qays obrazi orqali tabiat tabiiyligiga nisbatan odamiylik munosabati qanday bo'lishi zarurligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, "Farhod va Shirin" dostonining bosh qahramoni Farhodning ariq qazib, elga suv keltirishi epizodi, yoki "G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish"[11] ruboiysining falsafiy g'oyasi mohiyatida ham sof insoniylikka xos ekologik idrok va tafakkur, his-tuyg'u o'z ifodasini topgan. Umuman olganda A.Navoiy "tabiatga eng qimmatli, noyob boyluk sifatida qaragan"[12], uni o'rganish, avaylab-asrash kishini baxtli qiladi, deb hisoblagan.

Aholining ekologik madaniyatini oshirish, shuningdek, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga alohida e'tibor qaratgan holda keng ko'lamlı targ'ibot faoliyatini tashkil etish ishlarini kuchaytirilganligi ekologik hushyorlikni oshirmoqda.

Ekologik muammolarga yechim topish borasida mamlakatimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-apreldagi "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-oktyabrdagi "Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlashda aholi va yuridik shaxslarning qattiq maishiy chiqindilarni saralashda ekologik madaniyatini oshirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuni inobatga olish kerakki, konserva banka 10 yil davomida tuproqda parchalanadi. Plastik idishlar esa quyoshda 200 yilgacha, tuproq ostida 500 yilgacha chirydi, polietilen paketlarning yo'q bo'lishi uchun 400 yil ketadi. Turli gazlangan ichimliklarning alyuminiy qutilari 500 yilda yo'q bo'ladi. Shisha idishlar yo'q bo'lishiga ming yillar ketadi. Hozirgi vaqtda muammoning eng dolzarb va oqilona usuli – chiqindilardan ongli ravishda xomashyo sifatida keng foydalanish. Biz qayta ishlanadigan qog'oz karton, polimerlar, metall, eskirgan maishiy texnikalar, kiyim-kechaklar, simobli lampochkalar, termometrlar, batareyalarni saralab, qayta ishlashga beribgina sayyoramizni ko'proq ifloslanishdan saqlaymiz. Qattiq maishiy chiqindilarning tarkibiy qismi 60-80% qayta ishlashga yaroqli materiallar hisoblanishini ham unutmaylik.

Germaniyada maishiy chiqindilarni alohida yig'ish 1980-yillardan boshlangan bo'lsa, 2015-yildan Germaniyada chiqindilarni tanlab yig'ishning yagona tizimi ishlab kelmoqda. Germaniyaliklar maishiy chiqindilardan biomassa, qog'oz, shisha, metallar va plastmassalarni alohida-alohida to'playdi. Bu turdagi chiqindilar uchun maxsus rangli idishlar o'rnatilgan. Masalan, ko'k – qog'oz mahsulotlari uchun (gazetalar, jurnallar, karton qutilar); yashil – organik chiqindilar uchun. Dorixonalarda muddati o'tgan dori-darmonlar qabul qilinadi, do'konlarda eski batareyalar uchun yig'ish punktlari mavjud bo'lib, Germaniyada maishiy chiqindilar 66% qayta ishlanadi.

Yaponiya plastmassani qayta ishlash bo'yicha dunyoda yetakchilardan biri bo'lib, kunchiqar mamlakatda 1997-yilda qabul qilingan qonun asosida sanoat va uy xo'jaligidagi polimerlarni boshqa toifadagi chiqindilardan ajratish majburiy hisoblanadi. Shu sabab ishlab chiqarishda ishlatiladigan plastmassaning ulushi 39% dan (1996-y.) 83% gacha (2014 y.) oshgan. U yerda sanoat chiqindilari qurilish materiali sifatida ishlatiladi. Nagoya shahri yaqinidagi xalqaro aeroport Tyubu va Kansay (Osaka)da parchalangan sanoat chiqindilaridan barpo etilgan sun'iy orollar qurilgan.

Amerika Qo'shma Shtatlarida, masalan, San-Fransisko kabi 80% gacha chiqindilar qayta ishlanadigan shaharlar bor. Chet el tajribasi shuni ko'rsatadiki, chiqindilarni boshqarish tizimining barcha ishtirokchilariga ta'sir ko'rsatadigan samarali rag'batlar bo'lsa, chiqindilarni alohida yig'ishni joriy etish mumkin. Ba'zi mamlakatlarda, masalan, noto'g'ri tashlab yuborilgan sigaret qutisi yoki qog'ozga katta miqdorda jarimalar solinadi, boshqa tomondan, fuqarolarni chiqindilarni saralashga undash maqsadida, rasmiylar ularni olib chiqish xarajatlarini kamaytiradi.

2012-yili Moskvada chiqindilarni alohida yig'ish bo'yicha tajriba o'tkazildi. Ko'p qavatli uylar hovlisida qog'oz, plastmassa, shisha va metall chiqindilarga "foydali chiqindilar" uchun shaffof to'rtli idishlar o'rnatildi. Tajriba yaxshi samara berdi va uning ko'lamini kengaytirishga qaror qilindi. Endilikda bu shahardagi deyarli har bir uy hovlisida o'zining shaffof chiqindi qutilari bor.

Mamlakatimizda ham saralanadigan chiqindilar ulushini ko'paytirib, qattiq chiqindilar poligonlari maydonini kamaytirishdan iborat. Muammo shundaki, hayotimizning ajralmas qismiga aylangan chiqindilarni chiqindixonaga yuborish texnologiyasini o'zgartirish zarur. Shu sababli aholi turar va noturar joylarda QMChni saralash tizimini joriy yetish, ularning hosil bo'lishi oldini olib poligonga ko'mish uchun yo'naltiradigan chiqindi hajmini qisqartirish lozim.

Chiqindilar miqdorini kamaytirishga imkon beradigan texnologiyani keng qo'llash va chiqindilarni eng ko'p darajada qayta ishlab chiqitga chiqarishni maksimal kamaytirishni amalga oshirish, ularning atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirining oldini olishga xizmat qiladi[13]. Chiqindilarni saralashning asosiy maqsadi atrof-muhit ifloslanishi oldini olishdir.

Hozirgi vaqtda chiqindi muammosi nafaqat O'zbekistonni, butun dunyo ahlini o'yantirmoqda. Yo'lda ketayotgan insonning qo'lidagi plastik idish yoki boshqa chiqindi biz uchun muammo bo'lib ko'rinadi. Vaholanki, mazkur chiqindini nafaqat to'g'ri tarzda yig'ib yo'q qilish, balki undan yaxshigina moddiy foyda qilish mumkin.

Prezidentimizning 2024-yil 4-yanvardagi "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, 2024–2026-yillarda – Toshkent, Angren va Buxoro shaharlari hamda Toshkent tumanida chiqindilarni "qayta ishlanadigan", "qayta

ishlanmaydigan” va “oziq-ovqat” toifalariga saralagan holda yig'ish bo'yicha tajriba o'tkazilishi hamda ushbu turdagi chiqindilarni yig'ish uchun alohida paketlar aholiga bepul berilishi, shuningdek, ko'p qavatli uylar joylashgan hududlarda chiqindi yig'ish maydonlarida “qayta ishlanadigan” toifaga mansub chiqindi turlari aholidan sotib olinishi belgilangan.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Абу Али Ибн Сино. Тарбия ҳақида. Тиб қонунлари. 3-томлик. Т-1. –Тошкент: Мерос, 1992. –Б.75.
2. Абу Райҳон Беруний. “Минерология” Педагогика тарихидан хрестоматия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. –Б.54.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мерос нашриёти, 1993.-Б. 72, 172.
4. Аширов Адхамжон. “Авестомдан мерос маросимлар. — Т.: Абдулла Қрдирий номидаги халқ мероси нашр., 2001. -Б. 25
5. Ш.З.Бабаханов. Становление хадисоведения и выдающиеся мухаддисы Средней Азии//В кн.: «Исследования по истории, истории науки и культуры народов Средней Азии». Т.: Фан, 1993. 130-131-б.
6. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари.-Т.: “Маънавият”, 2008. –Б. 162.
7. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри (Танланган асарлар). “А.Қодирий номидаги халқ мероси” -Т.: 1993. - Б. 110-125.
8. Раҳмонов Н., Болтабоев Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 1-жилд. –Тошкент: Фан, 2003. - Б. 114-123.
9. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – Б. 467.
10. А.Навоий. Лайли ва Мажнун (достоннинг ихчам насрий баёни). –Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. –Б. 31.
11. Алишер Навоий. Топмадим: Ғазаллар/. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. –Б. 778-779.
12. Шермухамедов С, Умирзоқова Н. Давримиз алломаси. –Тошкент: Ўз. Республикаси ФА“Фан”, 1998. –Б.24.
13. <https://www.uznature.uz/uz/site/page?numer=1185>

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

ANALYTICAL AND CRITICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF PHILOSOPHICAL THINKING

Matluba Abdukodirovna Abdalimova,
University of Economics and Pedogogy
Candidate of Philosophy, Associate Professor

Abstract. The importance of analytical and critical approaches in teaching philosophy helps deepen students' thinking processes. This article, first of all, talks about the role of analytical thinking in the analysis of philosophical issues and its practical application. Through analytical approaches, the student acquires the skills of systematic separation, comparison and deep analysis of ideas. Also, the critical thinking approach, that is, the careful analysis of thinking, identifying the differences between arguments and views, and distinguishing between right and wrong opinions, is important in the process. The article discusses how analytical and critical thinking develops in the educational process, how they can be effectively used in teaching, as well as the role of philosophy students in raising their level of thinking. Modern teaching methods, including methods of forming analytical and critical thinking skills through interactive learning and group discussions, are analyzed.

Key words: philosophy, analytical thinking, critical thinking, teaching methods, interactive approaches in education, critical thinking, higher education, philosophical analysis, development of thinking, pedagogical methods.

FALSAFIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA ANALITIK VA KRITIK YONDASHUVLAR

Matluba Abduqodirovna Abdalimova,
University of Economics and Pedogogy
Falsafa fanlar nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Falsafa fanini o'qitishda analitik va kritik yondashuvlarning ahamiyati talabalarining fikrlash jarayonlarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Ushbu maqolada, avvalo, analitik tafakkurning falsafiy masalalarni tahlil qilishdagi roli va uning amaliy qo'llanilishi haqida so'z boradi. Analitik yondashuvlar orqali talaba g'oyalarni tizimli ravishda ajratish, taqqoslash va chuqur tahlil qilish ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Shuningdek, kritik tafakkur yondashuvi, ya'ni fikrlashni sinchkovlik bilan tahlil qilish, argumentlar va qarashlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash, to'g'ri va noto'g'ri fikrlarni ajratish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada, analitik va kritik tafakkurning ta'lim jarayonida qanday rivojlanishi, ularni o'qitishda qanday metodologiyalar yordamida samarali qo'llash mumkinligi, shuningdek, falsafa fani talabalarining fikrlash darajasini oshirishdagi roli haqida bahs yuritiladi. Zamonaviy o'qitish metodlari, jumladan, interaktiv o'rganish va guruh muhokamalari orqali analitik va kritik tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish usullari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: falsafa fani, analitik tafakkur, kritik tafakkur, o'qitish metodlari, ta'limda interaktiv yondashuvlar, tanqidiy fikrlash, oliy ta'lim, falsafiy tahlil, tafakkurni rivojlantirish, pedagogik metodlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N44>

Kirish. Falsafiy tafakkur inson fikrlashining eng chuqur va mantiqiy shakllaridan biridir. Bu, nafaqat nazariy ma'lumotlarni o'rganish, balki dunyo haqidagi tushunchalarni, ijtimoiy, axloqiy va ilmiy muammolarni tahlil qilish orqali yangi qarashlarni rivojlantirish jarayonidir. Oliy ta'limda, ayniqsa falsafa fani doirasida, talabalarni o'ylashga va o'z fikrlarini to'g'ri ifodalashga o'rgatish, analitik va kritik tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Ushbu ko'nikmalar, nafaqat falsafiy g'oyalarni tushunishga, balki kundalik hayotda, ijtimoiy va siyosiy muhitda ham samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Analitik tafakkur va kritik tafakkur o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlardir. Analitik tafakkur, asosan, muammolarni tizimli ravishda tahlil qilish va ularga aniq, mantiqiy yechimlar topishga qaratilgan. Bu yondashuv talabdan ma'lumotlarni chuqur o'rganish, dalillarni ko'rib chiqish va ularni mantiqan to'g'ri bog'lashni talab qiladi. Analitik fikrlashni rivojlantirish, talabalarni murakkab g'oyalar va tushunchalarni anglash, ularni bir-biri bilan taqqoslash va to'g'ri xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

Kritik tafakkur esa, yanada kengroq va chuqurroq yondashuvni talab qiladi. Bu, asosan, fikrlarni, qarashlarni va nazariyalarni sinchkovlik bilan tekshirish, ularning asoslarini, ishonchliligini va adolatini baholash jarayonidir. Kritik tafakkurning rivojlanishi, talabalarni aniq dalillarga tayanishga, kengroq nuqtai nazarlarni ko'rishga va noaniqliklar, qarama-qarshiliklar yoki mantiqiy xatolarga nisbatan sezgir bo'lishga undaydi. Bu tafakkur shakli, falsafa fanining butun mohiyatini tushunishda muhim o'rin tutadi, chunki falsafa nafaqat nazariy bilimlarni o'rgatadi, balki haqiqat, axloqiy qadriyatlar, insoniyatning maqsadi va dunyoqarashlarini sinchkovlik bilan o'rganishga chorlaydi.

Bugungi kunda, ta'lim tizimida falsafiy tafakkurni rivojlantirishda analitik va kritik yondashuvlar muhim o'rin tutmoqda. Oliy ta'limda falsafa fani o'qituvchilari, talabalarni nafaqat ma'lumot bilan ta'minlash, balki ularni tafakkur qilish, savollar berish va mavjud g'oyalarni tahlil qilishga o'rgatishlari kerak. Bu jarayon talabalar uchun muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi: tanqidiy fikrlash, masalalarni turli nuqtai nazarlardan ko'rib chiqish, mustaqil o'ylash va qarorlar qabul qilish qobiliyatlari.

Ushbu maqolada analitik va kritik tafakkurning o'qitishdagi ahamiyati, ularni rivojlantirishning pedagogik metodlari, falsafa fanini o'qitish jarayonida bu yondashuvlarning qanday qo'llanilishi va ularning talabalarning umumiy fikrlash darajasiga qanday ta'sir qilishi muhokama qilinadi. Shuningdek, zamonaviy o'qitish metodlari va innovatsion yondashuvlar yordamida falsafiy tafakkurni rivojlantirishning samaradorligi ham o'rganiladi. Maqolada, analitik va kritik tafakkurni rivojlantirish orqali talabalar falsafaning faqat nazariy jihatlarini emas, balki uni amaliyotga qo'llashni ham o'rganadilar, bu esa ularning hayotiy qarorlarini qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Falsafiy tafakkurni rivojlantirishda analitik va kritik yondashuvlar haqida turli ilmiy manbalar va tadqiqotlar mavjud. Ushbu yondashuvlar, nafaqat falsafa fani o'qitilishida, balki umumiy ta'lim jarayonida ham katta ahamiyatga ega. Analitik tafakkur haqidagi asarlar, ayniqsa Lyudvig Vittgenstein va Bertrand Russellning ishlari, tahlil qilish va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Vittgensteinning "Tozalangan til" (Tractatus Logico-Philosophicus) asarida til va mantiqni o'rganish orqali, narsalarning mohiyatini va ularga nisbatan aniq fikrlarni ishlab chiqish kerakligi ta'kidlanadi. Russell esa o'zining "Falsafa tarixi" (A History of Western Philosophy) asarida falsafiy tizimlarni mantiqan tahlil qilib, g'oyalar va ularning ishonchliligini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatgan[1].

Mazkur maqolada analitik va kritik tafakkurni rivojlantirishda zamonaviy metodlarni o'rganish uchun adabiyotlarni tahlil qilish, ta'lim tajribasini o'rganish, empirik tadqiqotlar, tahliliy metodlardan foydalanilgan.

Muhokama. Falsafiy tafakkur, insonning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy hamda madaniy muhitni tushunish qobiliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu tafakkur shakli, nafaqat o'rganish jarayonida g'oyalarni mantiqiy va tizimli tahlil qilishni talab qiladi, balki o'z fikrlarini sinchkovlik bilan tekshirish, xatolarga nisbatan sezgirlikni oshirish va qarorlar qabul qilishda mustaqillikni ta'minlashga xizmat qiladi. Analitik va kritik tafakkur ushbu jarayonda markaziy o'rin tutadi. Ularning har biri o'ziga xos yondashuvni taqdim etadi va falsafiy masalalarni o'rganishda talabalarni chuqurroq fikrlashga undaydi.

Analitik tafakkur — bu murakkab g'oyalarni va muammolarni tizimli ravishda ajratish, tahlil qilish, mantiqan bog'lash va xulosalar chiqarish jarayonidir. Falsafa fanini o'qitishda analitik tafakkur, talabalarni o'ylash va ularni tanqidiy tahlil qilishga undaydi, shuningdek, ular g'oyalarni to'g'ri anglash va izohlashni o'rganadilar[2].

Talabalar, avvalo, har bir g'oya yoki konseptni alohida o'rganishlari kerak. Tizimli tahlil qilish orqali ularning har bir qismiga alohida e'tibor beriladi, bu orqali umumiy tizimni tushunishga imkon beradi. Masalan, René Dekartning “Men o'ylayman, demak, mavjudman” g'oyasini o'rganishda, talabalar avvalo uning tarkibiy qismlarini ajratib, keyin esa ularning mantiqiy aloqalarini ko'rishlari kerak. Bu yondashuv, talabalarga falsafiy g'oyalar va ularning ishonchliligini aniq tahlil qilishni o'rgatadi.

Falsafiy tafakkurni rivojlantirishda mantiqiy fikrlashning o'rni katta. Talabalar mantiqiy xatolarni aniqlash va argumentlarni baholash orqali muammolarni hal qilishga o'rganadilar. Masalan, Aristotelning deduktiv mantiqiy usuli, talabalarni aniq, mantiqan to'g'ri xulosalarga olib keladigan tizimli fikrlashga o'rgatadi.

Falsafiy g'oyalar va tushunchalarni aniqlik bilan ajratish, ularga aniqlik kiritish zarurati talabalar uchun muhim ko'nikma hisoblanadi. Bu usul orqali talabalar, g'oyalarni va ularning tushunchalarini aniqlash, ularning oqilona va mantiqiy asoslarini topishga o'rgatiladi.

Kritik tafakkur esa, nafaqat muammolarni o'rganish, balki ular ustida chuqur mulohaza yuritish va ularning asoslarini, haqiqiylikni tekshirishga qaratilgan. Tanqidiy fikrlash — bu aniq va adolatli qarorlar qabul qilishda yordam beradigan qobiliyat bo'lib, g'oyalar, argumentlar va dalillarni baholashni o'z ichiga oladi. Kritik tafakkurni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar quyidagi jihatlarga qaratilgan:

Kritik tafakkur, savollarni berish va ularning javoblarini sinchkovlik bilan tahlil qilishdan iborat. Falsafa o'qitishda talabalarni savollar berishga undash, nafaqat ma'lumot olishni, balki o'z bilimlarini shakllantirishni ta'minlaydi. Savollar talabalarni o'ylashga undaydi va ularning g'oyalarni chuqurroq tushunishga imkon beradi. Misol uchun, Sokratning dialektik usuli, talabalar o'rtasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi[3].

Tanqidiy fikrlashning asosiy ko'nikmalaridan biri – argumentlarni tekshirishdir. Bu jarayonda talabalar, har bir dalilning ishonchliligini va uning boshqa fikrlar bilan qanday bog'lanishini o'rganadilar. Argumentning kuchliligini va zaif tomonlarini aniqlash, talabalar uchun muhim ko'nikmadir. Karl Popperring “Falsifikatsiya” nazariyasi, talabalarga g'oyalarni sinchkovlik bilan tekshirishni va ularning ilmiy haqiqatligini baholashni o'rgatadi.

Kritik tafakkur, faqat ma'lumotni tahlil qilish bilan cheklanmaydi, balki qarashlar va fikrlardagi subyektiv xatolarni aniqlashga ham qaratiladi. Talabalar, o'z qarashlarini

sinchkovlik bilan tekshirib, xatolarni va biaslarni aniqlashga o'rgatiladi. Bu jarayon, ular uchun o'z fikrlarini mustaqil ravishda shakllantirishga yordam beradi.

Natijalar. Falsafiy tafakkurni rivojlantirishda analitik va kritik yondashuvlar o'quv jarayonida bir-birini to'ldiradi. Falsafa o'qituvchilari, talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta'minlash, balki ularning tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan metodlarni qo'llashlari zarur. Quyidagi metodlar analitik va kritik tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi:

- Interaktiv o'qitish metodlari: Guruh muhokamalari, debatlar va fikr almashish o'quv jarayonida talabalar uchun analitik va kritik tafakkurni rivojlantirishning samarali vositalaridir. Bu metodlar talabalarga fikrlarini erkin ifodalash, boshqalar bilan muhokama qilish va g'oyalarni mantiqan asoslashga yordam beradi.
- Case-study (holatni o'rganish): Falsafa fanini o'qitishda real hayotdagi masalalar asosida case-study metodini qo'llash talabalarni o'z fikrlarini izchil ravishda ishlab chiqish va tahlil qilishga o'rgatadi. Bu metod, talabalar uchun o'z bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi.
- Muammoli ta'lim: Falsafiy masalalarni o'rgatishda, talabalarni sinovdan o'tkazish va ularga muammolarni yechishda yordam berish metodlari ham samarali. Masalan, talabalarni turli falsafiy nazariyalar va qarashlarni baholashga undash, ularning tanqidiy fikrlarini shakllantirishga yordam beradi[4].

Analitik va kritik tafakkurni rivojlantirishning asosiy ahamiyati, talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini kuchaytirish, mantiqiy tahlil qilish, va qarorlar qabul qilishda tanqidiy yondashuvni shakllantirishda namoyon bo'ladi. Bu ko'nikmalar talabalarni nafaqat falsafiy g'oyalarni o'rganishga, balki kundalik hayotda qarorlar qabul qilishda, ijtimoiy muammolarga yondashishda ham samarali bo'lishga yordam beradi. Falsafa o'qitish metodlarida analitik va kritik tafakkurni rivojlantirish orqali, talabalar nafaqat o'z bilimlarini kengaytiradilar, balki ular jamiyatdagi faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida o'z o'rinlarini topadilar.

Xulosa. Falsafiy tafakkurni rivojlantirishda analitik va kritik tafakkur yondashuvlarining o'rni beqiyosdir. Ushbu tafakkurlar, nafaqat falsafa fanini o'qitishda, balki talabalarni mustaqil fikrlashga, mantiqan tahlil qilishga va o'z qarorlarini sinchkovlik bilan qabul qilishga undaydi. Analitik tafakkur g'oyalarni tizimli tahlil qilish, dalillarni to'g'ri bog'lash va xulosalar chiqarish orqali talabalarni murakkab fikrlashga o'rgatadi. Kritik tafakkur esa, talabalarni qarashlarni baholash, ularning ishonchliligini tekshirish va xatolarni aniqlash orqali yanada chuqurroq mulohaza yuritishga undaydi.

Zamonaviy o'qitish metodlarida analitik va kritik tafakkurni rivojlantirish uchun interaktiv o'rganish, guruh muhokamalari, case-study metodlari, debatlar va problema-yo'nalishli o'qitish usullari samarali qo'llanilmoqda. Ushbu metodlar talabalar fikrini erkin ifodalash, boshqalar bilan konstruktiv muloqot o'rnatish, va falsafiy g'oyalarni o'rganishda sinchkovlik va mantiqiylikni shakllantirishga yordam beradi.

Falsafa fani o'qituvchilari, analitik va kritik tafakkurni rivojlantirishni ta'lim jarayonining markaziga qo'yishlari kerak. Bu, o'z navbatida, talabalarni nafaqat ilmiy bilimlar bilan ta'minlash, balki ularni mas'uliyatli, tanqidiy fikrlaydigan va jamiyatda faol ishtirok etadigan fuqarolar sifatida tayyorlashga yordam beradi. Falsafiy tafakkurni rivojlantirish, faqatgina o'quvchilarni ilmiy jihatdan yaxshi tayyorlashni emas, balki ularga dunyoqarashni

kengaytirish va to'g'ri qarorlar qabul qilishda yordam beradigan ko'nikmalarni berishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, analitik va kritik tafakkur zamonaviy ta'limning ajralmas qismi sifatida, o'quvchilarni har tomonlama rivojlanishga va jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga olib boradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Abduraxmonovna, K. D. (2022). Methods of Improving the Reflective Abilities of Preschool Children. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 17, 148-153.
2. Abdurakhmonovna, K. D. (2021). Role of Innovative Activities in Formation of Creative Thinking of Children in Organization of Preschool Education. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 1(12), 118-122.
3. Voxobjonovna, X. S., & Abduraxmonovna, X. D. Formation of Skills of Artistic Creativity in Preschool Children. *International Journal on Integrated Education*, 3(12), 484-486.
4. Zokirovna, X. D. (2021). A Modern Approach to the Organization of Art Activities for Preschool Children. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 331-336.
5. Худайкулова, Д. З. (2019). МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДЕТСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ. *Экономика и социум*, (11 (66)), 739-742.
6. Zokirovna, H. D. (2019). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE MANIFESTATION OF CREATIVE ABILITIES IN PRESCHOOLERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
7. Khudoyqulova, D. (2022). THE BASIC PRINCIPLES OF THE FORMATION OF CREATIVE THINKING IN THE PROCESS OF PREPARING PRESCHOOL CHILDREN FOR SCHOOL. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(4), 736-742.
8. Xudaykulova, D. (2024). BOLALARNING MUSTAQIL BADIY FOALIYATLARIGA RAHBARLIK QILISH METODLARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (3), 194-194.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE ROLE OF KATIBA CHALABI IN THE DEVELOPMENT OF EASTERN SCIENCE

Safarova Tumaris Rustamkulovna,

Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor

Tashkent State University of Economics

E-mail: tsafarova925@gmail.com

Abstract. This article provides information about the philosophical views of Kotib Chalabi, one of the leading scholars of the Ottoman Empire, who grew up in the 17th century. Kotib Chalabi was a highly qualified specialist in the field of psychic and religious sciences and was a scientific leader of his time. Also in the works of this scientist, the proof of the necessity and knowledge of God is analyzed in detail, which is an important topic of discussion in Islamic metaphysical thinking.

Key words: Marifatullah, metaphysics, Keshfuz-Zununun, divine qualities, divine actions, achieving happiness, achieving the highest happiness.

KOTIB CHALABIYNING SHARQ ILM-FAN TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNINI

Safarova Tumaris Rustamkulovna,

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TDIU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada XVII asrda yetishib chiqqan Usmonli imperiyasining yetakchi olimlaridan biri Kotib Chalabiyning falsafiy qarashlari to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan. Kotib Chalabiy ham aqliy va diniy ilmlarda yuqori malakali, ham o'z davrining ilmiy rahbari edi. Shuningdek, mazkur olim asarlarida Islom metafizik tafakkurida muhim muhokama mavzusi bo'lgan Allohning zarurligi va ilmi isboti batafsil tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Ma'rifatulloh, metafizika, Keshf'u-zununun, ilohiy sifatlar, ilohiy amallar, baxtga erishish, oliy saodatga erishish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N45>

Kirish. XVII-XVIII asrlarda Usmoniylar imperiyasida ijod etgan mutafakkirlar beqiyos ilmiy xazina yaratdilar va ularning durdona meroslari, boy ijodi, ilmiy va falsafiy fikrlari bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Turli xil sohadagi olimlar, buyuk faylasuf va allomalarning asarlari jahon sivilizatsiyasining oltin xazinasidan munosib o'rin olgan, jahon fani va madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan. Mutafakkirlarining ijodini tadqiq etgan olimlarning ilmiy tadqiqotlarida bu o'z ifodasini topgan.

Ma'lumki, Usmoniylar ilm-fani va madaniyati Sharq olamida yangi falsafiy va ilmiy bilimlarning rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yerdan chiqqan buyuk allomalar va

mutafakkirlar turli xil sohadagi fanlarning shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Jumladan, ularning ilmiy meroslarida zamonaviy ilmiy texnologiyalarning asosi bo'lgan bilimlar integratsiyasi, fanlararo yondashuv namunalari juda ko'plab ko'rishimiz mumkin[1; 265-b].

Albatta bu kabi ilmiy yutuqlar, fan sohasidagi muvaffaqiyatlar, mamlakatning iqtisodi, ijtimoiy hayoti bilan birgalikda ilm-fan sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.

Har bir davrda bo'lgani kabi, bu davrda ham ilm-fanning yetuk darg'alari yetishib chiqdi. Mana shu kabi olimlardan biri, Kotib Chalabiy – Hoji Xalifa (asli ismi Mustafo ibn Abdulloh; 1609, Istanbul — 1657.24.7) – turk geografi, tarixchi, faylasufi. Yevropada Hoji Xalifa taxallusi bilan mashhur bo'lgan. Dastlabki ilmni otasi Iso Xalifa al-Qrimiydan olgan. Keyinchalik boshqa olimlardan tarix, ilmi nujum, geografiya va matematika fanlarini o'zlashtirgan. 1622-yildan saroyda kotiblik qilgan. 1627-1635-yillarda harbiy yurishlarda qatnashgan. 1643-yildan saroyda munosib ishlari bilan shug'ullangan[2; 151-b].

Kotib Chalabiyning ta'kidlashicha, insonning o'rganishga bo'lgan istagi bor. Unga ko'ra insonda mavjud bo'lgan bu bilimga intilish unga aqli bilan bilim olishga imkon beradi. Inson olgan bilimi bilan metafizik haqiqatlarni idrok etishi va oliy saodatga erishish yo'llarini o'rganishi mumkin. Shunday qilib, Ma'rifatulloh haqida bilim olish mumkin.

Kotib Chalabiyning fikricha, Ma'rifatulloh inson erisha oladigan eng yuqori darajadir.

Bu yuqori darajadagi bilimdir. Mutafakkir bu yuksak bilim darajasiga faqat metafizika ilmi orqali erishadi. Uning ta'kidlashicha, bu o'rganish orqali amalga oshishi mumkin. Chunki metafizika ilmi ham Xudo, ham borliq va birlik, ilohiy sifatlar va ilohiy amallar haqidagi bilimlarni qanday olish mumkinligi va inson unda abadiy baxtning maqsadi hamda bu baxtga qanday erishish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. Chalabiy islom tafakkuri an'alarida, ayniqsa, taraqqiyparvarlik davrida mustaqil o'rin tutadi. Risolalar tuzish orqali kosmopolit teologiya-falsafa masalasiga aylandi. U Ma'rifatulloh ilmiga erishish uchun ikki xil usul ilgari surilganini aytdi. Bu usullardan biri – xulosa chiqarish; Ikkinchisi — kashfiyot va kuzatish. Uning so'zlariga ko'ra, ikkita yo'l bor bo'lsa-da, garchi ular bir-biridan farqli bo'lsa ham, ikkala yo'l ham bir haqiqatga olib boradi [1; 266-b].

Chunki bu yo'llarning biridan harakatlanib, ikkinchisiga erishish mumkin. Aftidan bir-biridan farq qiladigan har ikki yo'lning yo'lovchilari xuddi ikki dengiz uchrashadigan joy, ya'ni bu yo'llar orqali bir xil haqiqatga erishish mumkin. Shuning uchun Kotib Chalabiy ikkala yo'l ham bir-birini to'ldiradi, deydi. Shuningdek, fikrlash va ikkala usulni birgalikda qo'llash orqali inson Xudoni tushunishi mumkin, ya'ni Chalabiy ta'biri bilan aytganda Xudoni tanib olishini bildiradi. Shu nuqtai nazardan, Kotib Chalabiy tadqiqotda aytib o'tgan ma'rifatullohga olib keladigan ikkita usulga oid sharhlar, hissalar va tanqidlar batafsil bayon etilgan [2; 151-b].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kotib Chalabiy tarixiy “Taqvim ut-tavorix” (“Tarixlar taqvimi”), dengiz janglari tarixi to'g'risida “Tuhfat ul-kibor fi asfor il-bihor” (“Dengiz yurishlari haqida ulug'larga tuhfa”), tarixiy-geografik “Jahonnamo” (“Jahon ko'zgusi”), bibliografik “Kashf uz-zunun” hamda moliya masalalariga oid asarlar muallifi hisoblanadi. “Jahonnamo” to'plamida boshqa xalqlar tarixi, etnografiyasi, geografiyasi, shuningdek, topografiya va toponimikaga oid qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Muallif bu asarni yozishda Sharq olimlarining bizgacha yetib kelmagan ko'pgina asarlaridan foydalangan. Asarda hozirgi O'rta Osiyo hududiga qariyb 2 bob ajratilgan. Unda O'rta Osiyo geografiyasi, xalqlarining

tarixiga oid ma'lumotlar bor. "Jahonnamo"da u birinchi bo'lib yevropalik va Sharq olimlarining mamlakatlar haqidagi ma'lumotlarini qiyoslagan [7].

"Tarih-i Frengiy tarjiması" asari 1548-yilda Parijda nashr etilgan Iogann Karionning yilnomasi tarjiması hisoblanadi. Kotib Chalabiy uni fransuz dinini qabul qilgan Mehmed Ixlosiy yordamida tarjima qilgan. Tarjimon o'zining asl tarixi uchun manba sifatida tarjima qilgan ushbu kitobga boshqa asarlardan ba'zi qo'shimchalar kiritib, Sulaymon alayhissalom va musulmonlarning Ispaniyadan quvg'in qilinishini ham tilga olgan. Asarning yagona qo'lyozma nusxasi Koniya Izzet Koyunog'lu kutubxonasida.

Shuningdek, yana bir asari – Takvîmü't-tevarih. Bu Odam Atodan boshlangan va 1648 yilgacha bo'lgan voqealarning o'ziga xos xronologik jadvalidir, shu jumladan muallifning arabcha Fezleke asarida Kotib Chalabiy ikki oyda yozganini aytgan asar, keyinchalik chet tillarga ham tarjima qilingan. Asar Muteferrika bosmaxonasida bosilgan (1146), Ali Suavi esa bu asarni eslatma va qo'shimchalar bilan nashr ettirgan (Parij 1291).

U o'z davrining rivojlanishlaridan xabardor odam. U o'z asarlarida Allohning borligi va birligini isbotlash, ilohiy sifatlar va shunga o'xshash mavzular haqida gapiradi.

Muhokama. Kotib Chalabiy Usmonlilar imperiyasining XVII asrida o'sgan taniqli shaxs. U yetuk olimlardan biridir. U mumtoz madrasa ta'limini olmagan bo'lsa ham, ko'plab aqliy va diniy ilmlardan xabardor. Bundan tashqari, o'sha davrda G'arb dunyosida ilmiy tadqiqotlarda o'zi ishtirok etgan, Islom ilmlaridagi o'zgarishlardan xabardor bo'lgan Kotib Chalabiy, u an'anani qayta tiklashga harakat qildi. Aslini olganda, uning bu kabi maqsadlarini amalga oshirishini uning "Keshfü'z-zununun" nomli asarida ko'rish mumkin. Chunki yuqorida tilga olingan asarda ham aqliy, ham diniy ilmlarda qanchalik malakali ekani va islom ilmi va tafakkuri merosini qanday namoyon etishi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Darhaqiqat, mutafakkirning Keshfü'z-zunun nomli asaridan olgan tajribasi ushbu davrgacha yozilgan ko'plab tarix va biografiya asarlarini o'rganganidan dalolat beradi.

Kâtip Chalabiy insonning ilm sohasi bor narsa, ya'ni Xudo va uning borligini ta'kidlaydi. Unda dunyodan tashqarida yaratilgan mavjudotlar borligi aytiladi. Shu nuqtai nazardan, insonlar uchun Ilmning eng oliy darajasi Ma'rifatulloh ekanligini ta'kidlaydi. Chunki Chalabiy o'zining "Mizanu'l-hakk", "Keshfü'z-zununun", "Sullemlü'l-vusul" kabi asarlarida insonning yuksak qadriyatlarini ta'riflaydi. Baxtga erishish – mavjud narsalar va ayniqsa, Alloh taolo haqidagi bilimlar haqida ma'lumot olishdir. Uning ta'kidlashicha, buning imkoni bor. Shu nuqtai nazardan, u Ma'rifatullohga ikki yo'l bilan erishish mumkinligini aytadi [4; 870-b].

Agar bu ikki usul bo'lsa ular, shuningdek, metafizika bilimlarini olish uchun ishlatiladigan usullardir. Chalabiy, Keshfü'z-zunun Ibn Sino avvalroq "Ilm-i ilohiy" maqolasida ta'kidlaganidek, metafizika ilm mavzusiga to'xtalib o'tadi. Uning fikricha, metafizika fan sifatida mavjud narsalarni ularning mavjudligidan boshlab tekshiradi.

Shunga ko'ra:

- metafizika ilohiy ilm, chunki u ilm va borliqni qamrab oladi;
- universal bilim yordamida mavjud universalliklarni qamrab oladi;
- materiya va moddiy narsalardan tashqari tekshirish imkoniyatini beradi [3; 174-b].

Kotib Chalabiy tilga olgan metafizika ilmi besh bo'limga ega ekanligini ta'kidlaydi. bu besh bo'lim;

1. mavjudlik, mohiyat, birlik, ko'plik, zarur, mumkin, kattalik;
2. ilm asoslari;

3. Allohning mavjudligi va birligining isbotiga oid dalillar, ilohiy sifatlar;
4. aqllar, qalblar, Farishtalar, jinlar va shaytonlar kabi mavhum mavjudotlar va ularning haqiqatini isbotlash;
5. bu o'limdan keyin inson ruhining holati haqida [5; 313-320-b].

Shuning uchun, Kotib Chalabiy, o'zidan oldingi mutafakkirlarga murojaat qilib, metafizika sarlavhalaridan biri, ehtimol, eng muhimi, Xudoning mavjudligi va zarurligini tekshirish va buni isbotlash ekanligini bildiradi. Chalabiy metafizika ilmini o'rganish inson uchun majburiy ehtiyoj, deb hisoblaydi. Ana shu ehtiyoj tufayli bu fanda turli yo'llar borligini eslatib o'tadi. Aslini olganda, u metafizika fanini tadqiqot va tekshirish orqali tushunishni maqsad qilgan. Uning aytishicha, buni istaganlar tadqiqotchi hakamlardir.

Chunki metafizika fani nuqtai nazaridan qaralganda, albatta, bu borada vakolatli hisoblangan Aristotel va Avitsennaga murojaat qilish o'rinlidir; (I) aniq dalil bo'lgan joyda xulosa chiqarish; (II) ruhni tozalash usuli orqali erishilgan kashfiyot u metafizika faniga kuzatish shaklida ikki yo'l borligini ta'kidlaydi. Chunki, uning fikricha, Ma'rifatullohga faqat shu ikki usul orqali erishish mumkin. Ushbu ikki usuldan biridan, fikrlash yo'li yoki nazariy ilm (tarikatu'l-istidlol), ikkinchisidan, bu ruhiy kashfiyot yoki tasavvuf tajribasi (tarikatü'l-muṣahede) sifatida tilga olinadi.

Bu ikki omil Kotib Chalabiy tilga olgan bilim yoki haqiqatga olib keladi. Bu usul – O'rta asrlarda ko'plab mutafakkirlar tomonidan ifodalangan masala. Darhaqiqat, bu davrning yetakchi mutafakkiri Fahriddin er-Roziy (vaf. 606/1210), u "el-Metalibu'l-Aliye" nomli asarida Ma'rifatullohga olib boradigan ikki yo'lni batafsil bayon qiladi [4; 871-b]. Bu yo'llardan biri tafakkur va tafakkur tarafdorlari (ashobun-nazar ve'l- istidlol); Ikkinchisi esa zohidlik va kurash tarafdorlar (ve'l-mujohid) yo'li.

Roziy, xulosa chiqarish yo'li metafizik faylasuflarga tegishlidir deb aytib o'tgan. Aslini olganda, uning fikricha, bu yo'l o'z mohiyati bilan zaruriy mavjudligini isbotlaydi. Uning aytishicha, ikkinchi yo'l zohidlik tarafdorlarining usulidir. Roziy bu yo'lni birinchi yo'lga nisbatan qiziqarli, zavqli, kuchli, mustahkam va hukmronroq deb biladi. Uning so'zlariga ko'ra, bu yo'lni tanlagan kishi qalbini to'liq anglab yetadi. U Allohni zikr qilish bilan band bo'ladi, Undan boshqa hamma narsani qalbidan olib tashlaydi va natijada u yuksak nurlar va ilohiy sirlarga ega bo'lish imkoniyatini qo'lga kiritadi [5; 313-320-b].

Natijalar. Peripatetik faylasuflar islom tafakkurida falsafa/donolik fanlarini eng oliy fan sifatida qabul qilgan. Kotib Chalabiy ta'kidlaganidek, muhimlar mavjud Yana bir bahs – Allohni bilish imkoniyati masalasidir. Peripatetik faylasuflar tomonidan "Xudoni bilish" ratsionalizm falsafasida "ma'lumdan noma'lumga erishish" deb ta'riflanadi. Binobarin, boshqacha qilib aytganda, Xudoning borligini isbotlash masalasiga metafizik ilmlar orqali murojaat qilish mumkin. Uning haqiqatini qachon bilish mumkin, bu munozarali masala xosdir [6].

Kerakli narsani zarur deb bilish uning haqiqatini bilishni bildiradi. Binobarin, Ibn Sino falsafasiga ko'ra, inson zarur bo'lsa-da, garchi Xudoning mavjudligi haqida ba'zi isbot usullarini ishlab chiqargan bo'lsa ham, Uning haqiqatini borligicha bilish mumkin emasdek tuyuladi. Chunki inson U isbotlash usuli orqali olgan nazariy bilimlari o'zining aqliy chegarasida bo'ladi. Chunki Inson o'zining aqliy kuchi chegarasida oladigan bilim Xudoning haqiqati bilan bir xildir, deb xulosa qilish noto'g'ri bo'lishi mumkin.

Kotib Chalabiy, peripatetik mutafakkirlar bilan birga, Allohni bilish imkoniyati masalasida u nazar va xulosa usulini qo'llagan dinshunos olimlarga ham murojaat qiladi. Unga

ko'ra Ilohiyot olimlari rivoyat asosida Allohni bilish imkoniyati masalasiga e'tibor qaratadilar. Aslini olganda, faylasuflar Xudoni bilish imkoniyatini muhokama qilganda, teologik ulamolar bu ilmning majburiy yoki aniq bilim ekanligi borasida ixtilof qiladilar. Islom tafakkuri an'analarida ba'zi olimlar insonni ta'kidlaydilar. Uning Xudoni bilishi tabiiy ekanligini aytish bilan birga, ulardan ba'zilari aqlga, ya'ni ratsional xulosaga asoslanadi. Ular Xudoni yomon qalban yoki g'ayri oddiy yo'l bilan bilish mumkinligini da'vo qilishdi [7].

Xulosa. Uning asarlarida ilgari surilgan mulohazalar va hissalar tekshirilsa, Kotib Chalabiyning o'z tafakkuridagi ilmiy bilimlar haqidagi bilimi diqqatga sazovordir. Xulosa Kotib Chalabiyning fikricha, inson uchun eng oliy baxt – Ma'rifatulloh, boshqacha qilib aytganda, Xudoni bilishdir. Xudoni bilish, Uning hamma ilmlarini bilish, U hamma narsani eng mukammal tarzda yaratgan va Undan chiqadigan amallarda hech qanday nuqson yo'q. Bu shuni anglatadiki, bu yo'lda hech qanday kamchilik yoki nuqson bo'lishi mumkin emas.

Umuman olganda, Kotib Chalabiyning ilmiy qarashari va nazariyalariga e'tibor beradigan bo'lsak, u o'z asarlarida Ma'rifatullohga erishish, ya'ni Allohni tanishni – eng oliy baxt sifatida ko'radi. Va bu maqsadga erishishda insonlarga metafizika ilmi yordam berishini ta'kidlab o'tgan. Shuningdek, u o'z qarashlarini yoritishda, Arastu va Ibn Sinoning metafizikaga oid ilmlarini o'zlashtirganligini ham ko'rish mumkin.

Kotib Chalabiy asosan bibliograf olim bo'lishiga qaramay, din, ilohiyot, tarix, geografiya ilmiga oid bir qancha asarlar yozganini ko'rib o'tdik. Mazkur asarlar albatta, hozirgi kunda ham alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Kotib Chalabiy mehnatkash, yaxshi xulqli, kam gapiradigan, ko'p yozadigan obro'li shaxs sifatida tanilgan. U arab va fors tillarini, lotin tillarini ham bilardi. U Usmonlilar saltanatida G'arb ilmlariga juda qiziqqan va bu fanlarni Sharq ilmlari bilan qiyoslagan va sintez qilgan birinchi turk olimlaridandir. 2009-yil YuNESKO tomonidan uning tavalludining 400 yilligi munosabati bilan Kotib Chalabiy yili deb e'lon qilindi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bilal Yurtoğlu, Kâtip Çelebi (Ankara: Atatürk Kültür Merkezi, 2009), 310; a. mlf., "XVII. Yüzyılda Bir İshrâkî: Kâtip Çelebi'nin Bilim Anlayışı", Doğumunun 400. Yıl Dönümünde Kâtip Çelebi, ed. Bekir KarlığaMustafa Kaçar (Ankara: T.C. Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları, 2009), 265.
2. Bedi N. Şehsuvaroğlu (ed.), Kâtip Çelebi (Hayatı ve Eserleri Hakkında İncelemeler) (Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1985), 151.
3. Cahid Şenel, "İbnü'l-Ekfânî'nin İrşâdü'l-kâsıd'da İlimler Sınıflaması", İlimleri Sınıflamak İslam Düşüncesinde İlimler Tasnifi, ed. Mustakim Arıcı (İstanbul: Klasik Yayınları, 2019), 211; Kâtip Çelebi, Keşfü'z-zunûn, 1/174.
4. Kâtip Çelebi, Keşfü'z-zunûn, 2/566. Krş. İbn Haldun, Mukaddime, çev. Süleyman Uludağ (İstanbul: Dergah Yayınları, 2015), 2/870.
5. Taşköprîzâde, Miftâhu's-sa'âde ve Misbâhu's-siyâde fî mevzû'ati'l-ulûm, nşr. K. Kâmil Bekrî-A. Ebunnûr (Kahire: y.y., 1968), 1/313-320.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE FEATURES OF MYTHOLOGICAL WORLDVIEW AND ITS IMPACT ON HUMAN THINKING

Tursunov Muxiddin Boltayevich,
Termez University of Economics and Service,
Associate Professor
E-mail: muxiddintursunov@mail.ru

Abstract. The article analyzes the essence of mythological worldview, its influence on human thinking and culture. Through legends, a person's first aspirations to understand the world, his views on nature and society, as well as his role in the formation of moral rules, are illuminated. The symbolism of legends, their influence on the spiritual development of man and modern art and literature are considered.

Key words: mythical worldview, mythology, symbolism, ethical rules, imagination, human thinking, culture, art, modernity.

АФСОНАВИЙ ДУНЁҚАРАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УНИНГ ИНСОН ТАФАККУРИГА ТАЪСИРИ

Турсунов Мухиддин Болтаевич,
Термиз иқтисодиёт ва сервис университети
«Ижтимоий-гуманитар фанлар» кафедраси доценти

Аннотацияю Мақолада афсонавий дунёқарашнинг моҳияти, унинг инсон тафаккури ва маданиятига таъсири таҳлил қилинади. Афсоналар орқали инсоннинг дунё тушунишга бўлган илк интилишлари, табиат ва жамият ҳақидаги қарашлари ҳамда ахлоқий қоидаларни шакллантиришдаги ўрни ёритилган. Афсоналарнинг рамзийлиги, уларнинг инсоннинг маънавий ривожланиши ва замонавий санъат ва адабиётга таъсири хусусида фикр юритилган.

Калит сўзлар: афсонавий дунёқараш, мифология, рамзийлик, ахлоқий қоидалар, тасаввур, инсон тафаккури, маданият, санъат, замонавий давр.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N46>

Кириш. Тарихан дунёқарашнинг биринчи шакли мифологиядир. У ижтимоий ривожланишнинг дастлабки босқичида пайдо бўлган. Кейин инсоният афсоналар, яъни мифлар воситасида бутун оламнинг келиб чиқиши ва тузилиши, энг муҳим табиат ҳодисалари, ҳайвонлар ва одамларнинг пайдо бўлиши каби глобал саволларга жавоб беришга ҳаракат қилди. Шу билан бирга, афсоналарда одамлар ҳаётининг турли босқичлари, туғилиш ва ўлим сирлари, инсонни ҳаёт йўлида кутаётган ҳар хил синовларга катта эътибор берилган.

Афсонавий дунёқараш инсоният тарихи давомида шаклланган энг қадимий ва фундаментал тафаккур шаклларида биридир. Бу дунёқараш инсоннинг табиат, жамият ва ўзлигини тушунишга бўлган илк уринишлари сифатида намоён бўлади. Афсоналар, ривоятлар ва ҳикоялар орқали инсон ўзи тушунмаган воқеликлар маъно беришга ва уларга ўзига хос тарзда жавоб беришга ҳаракат қилган. Мазкур дунёқарашни моҳиятига кўра дунёни иррационал тушуниш деб аташ мумкин, чунки у табиат қонунлари ва илмий асосларга эмас, балки инсон тасаввури, ҳиссий тажриба ва жамоавий ақидавий қарашларга асосланган.

Афсона (юнонча. *mithos* — афсона, ривоят, асотир) — “қадимги одамнинг воқеликка бўлган онгсиз ҳиссий муносабати ифодаси бўлиб, табиат ва жамият ҳаётининг турли қирралари моҳиятини тушунтирувчи энг қадимги тасавурлар силсиласидир”[1]. Улар табиат ҳодисаларини жонлантириш, осмон, ер, сув каби объектларни илоҳий қувватларга эга деб ҳисоблаш асосида пайдо бўлган. Масалан, кўпгина қадимий халқлар қуёшни ҳаёт берувчи илоҳ ёки қаҳрамон сифатида кўрган. Бу қараш инсониятнинг табиат билан яқин алоқада бўлганлигини ва уни тушунишга бўлган интилишини кўрсатади. Шу билан бирга, афсоналар жамоавий ҳаёт тарзини мустаҳкамлаш, ахлоқий меъёрларни шакллантириш ва авлоддан-авлодга ўтиш жараёнида муҳим рол ўйнаган. Масалан, афсоналар “Авесто”, “Илиада”, “Рамаяна”, “Шоҳнома”, “Калевала”, “Алпомиш”, “Гўрўғли” каби адабий ёдгорликларнинг яратилишида ҳам салмоқли ўрин тутган[4].

Адабиётлар таҳлили ва методология. Машхур инглиз этнографи Б.Малиновский миф яшаб ўтиладиган воқелик эканлигини таъкидлаган. Бу интеллектуал машқ ёки бадиий ижод эмас, балки ибтидоий жамоанинг ҳаракатларига амалий қўлланма ҳисобланган. Афсонавий тафаккурнинг ҳукмронлиги даврида махсус билимларни эгаллаш зарурати ҳали пайдо бўлмаган эди. Шундай қилиб, миф билимнинг асл шакли эмас, балки дунёқарашнинг алоҳида тури, табиат ҳодисалари ва жамоавий ҳаётнинг ўзига хос образли синкретик ғоясидир. Миф инсоният маданиятининг дастлабки шакли сифатида билим, диний эътиқод, вазиятни ахлоқий, эстетик ва ҳиссий жиҳатдан баҳолашнинг асосларини бирлаштиради.

Афсонавий дунёқарашнинг муҳим хусусиятларидан бири — унинг рамзийлиги. Афсонадаги қаҳрамонлар, воқеалар ва образлар кўпинча чуқур маъновий ва ахлоқий мазмунга эга бўлиб, улар орқали инсон ҳаёт ва ўлим, яхшилик ва ёмонлик, ирода ва тақдир каби универсал тушунчаларни англаб етишга ҳаракат қилади. Жумладан, зардуштийлар учун “Ахура Мазда – нурафшон, порлоқ ёруғлик хилқат ҳисобланган. Маъбуда Ардви Сура Анаҳита кўркама, бўйчан, қўлларида билакузук, тўпиқларида кўнғироқ (занг) боғлаган, уч юз сувсар мўйнасидан почапўстин кийган, тўрт оқ от кўшилган аравада шитоб билан бораётган қиёфада тасвирланиши”[7] – булар зардуштийликдан аввалги табиат кучлари даврининг “гўзал достони” қолдиғи сифатида “Авесто”га кирган. Масалан, Афродита ёки Гера, каби илоҳлар нафақат гўзаллик ва муҳаббат тимсоли, балки инсоннинг ички ҳиссиётларини ифодалаш воситаси сифатида ҳам намоён бўлади. Шунингдек, афсоналар турли халқларнинг маданияти ва дунёқарашини акс эттириб, улар ўртасида умумий тил вазифасини бажаради.

Муҳокама ва натижалар. Афсонавий дунёқараш замонавий даврда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. Бугунги кунда у адабиёт, кино ва санъат каби соҳаларда ўзининг янги кўринишларини топмоқда. Замонавий инсон афсоналар орқали нафақат ўзининг илдизларини англайди, балки улар орқали янги маънолар кашф этади. Масалан, мифология замонавий фантастика ва фолклор асарларига илҳом манбаи бўлиб хизмат қилади, бу эса унинг инсоният маданий меросидаги ўрни нақадар муҳимлигини кўрсатади.

Афсоналар инсон тафаккурининг ривожланишига катта таъсир кўрсатган, чунки улар инсон онгидаги саволларга жавоб топишга интилишнинг илк кўринишларидан бири сифатида намоён бўлади. Инсон ўзининг табиат билан ўзаро муносабатида кўпинча тушунарсиз ҳодисалар билан тўқнаш келган ва бу ҳодисаларга жавобан уларга маъно беришга ҳаракат қилган. Бу жараёнда инсон табиат ҳодисалари, ҳаёт ва ўлимнинг моҳияти, тақдир ва эркинлик каби асосий саволларга жавоб излаган. Афсоналар ана шу саволларга инсоний тасаввур ва ҳиссий тажрибалар орқали жавоб беришга интилишнинг ифодаси бўлган. Шу билан бирга, улар инсон тафаккурини фаоллаштириб, уни чексиз тасаввур қилиш қобилиятини ривожлантирган. Масалан, осмонда ёруғлик чироғи бўлиб турган қуёш қадимги инсонлар учун ҳаёт манбаи сифатида кўрилган.

Қуёшнинг ҳаракати, унинг кундузга нур улашиши ва кечаси ғойиб бўлиши инсон тафаккурини ҳайратга солган ва бу жараёни тушунтириш учун афсоналар пайдо бўлган. Қадимги халқларда қуёшга бағишланган турли афсоналар шаклланган: уни қаҳрамон, илоҳ ёки ҳатто жонли мавжудот сифатида тасвирлаганлар. Қуёшга бағишланган афсоналар нафақат инсоннинг табиатни англашга бўлган интилишини, балки унинг илк диний қарашлари ва ҳиссий тажрибаларини акс эттиради. Шу билан бирга, афсоналар инсон тафаккурини символик тушунчалар воситасида чуқурлаштирган.

Афсоналардаги қаҳрамонлар, воқеалар ва образлар кўпинча инсоннинг энг мураккаб ҳиссий ва маънавий жараёнларини рамзлар орқали ифода этган. Масалан, Грек мифологиясидаги Прометей образи инсоннинг илмий ва маънавий қудратини намоён этади. Прометейнинг одамзодга оловни тақдим этиши инсоннинг билимга бўлган интилишини, инновацияларга қўрқмасдан қадам ташлашини ва шу билан бирга жамиятнинг чекловларига қарши курашишни ифода этади. Бу каби образлар инсон онгидаги мураккаб саволлар ва қарама-қаршиликларни тушуниш ва уларга ечим топиш учун рамзий восита сифатида хизмат қилган.

Афсоналар фақат индивидуал тафаккурга эмас, балки жамоавий онга ҳам таъсир кўрсатган. Улар орқали жамият ўзининг умумий қадриятларини, меъёрларини ва урф-одатларини мустаҳкамлаган. Афсоналар инсонлар ўртасида ўзаро муносабатларнинг аниқ қоидаларини белгилашга ёрдам берган. Масалан, турли халқлардаги афсонавий қаҳрамонлар турли ахлоқий хулқ-атвор меъёрларини тарғиб қилган: ҳалоллик, жасорат, меҳнацеварлик, яхшилик қилиш каби фазилатлар афсоналар орқали тарғиб этилган. Бу орқали афсоналар жамиятнинг ахлоқий асосларини шакллантиришда муҳим восита бўлган. Шунингдек, афсоналар инсоннинг ижодий қобилиятларини ривожлантирган. Улар орқали инсон ўз тасаввурида янги дунёлар, қаҳрамонлар ва воқеаларни яратиб, ўзининг ички ҳис-туйғуларини баён этган. Афсоналар санъат, адабиёт ва бошқа ижодий

соҳаларнинг илк кўринишлари учун асос бўлиб хизмат қилган. Масалан, қадимги халқлардаги мусиқа, рақс ва тасвирий санъат элементлари кўпинча афсоналарнинг мазмунига асосланган. Бу жараён инсоннинг эстетик ҳис-туйғуларини ривожлантирган ва унинг ижодий дунёқарашини бойитган.

Замонавий даврда ҳам афсоналар инсон тафаккури учун муҳим аҳамиятга эга бўлиб қолмоқда. Бугунги кунда улар нафақат тарихий ва маданий мерос сифатида, балки замонавий илмий ва ижтимоий жараёнларни тушуниш учун илҳом манбаи сифатида ҳам хизмат қилмоқда. Афсоналар орқали инсон ўзининг илдизларини, маънавий қадриятларини ва маданий анъаналарини англайди. Шу билан бирга, улар замонавий фантастика, кино ва адабиётда янги ғояларни яратиш учун асос бўлиб хизмат қилади. Бу, ўз навбатида, инсон тафаккурини янада бойитиб, унинг ижодий имкониятларини кенгайтиради.

Хулоса. Хулоса қилиб айтганда, афсоналар инсон тафаккурининг ривожланишида алоҳида ўрин тутаяди. Улар инсоннинг ўзини англашга бўлган илк қадамлари сифатида намоён бўлиб, унинг ахлоқий, ижодий ва маданий ривожланишида муҳим аҳамият касб этади. Афсоналар орқали инсон нафақат ўз ўтмишига, балки ўз келажагига ҳам йўл топиш имкониятига эга бўлган. Шу тариқа, афсонавий дунёқараш нафақат инсоннинг ўтмишига, балки унинг бугуни ва келажагига ҳам таъсир кўрсатиб келмоқда. У инсоннинг чексиз тасаввур қила олиш қобилиятини намоён қилиб, ҳаётга маъно қўшишга ва жамиятнинг маънавий асосларини мустаҳкамлашга хизмат қилади. Афсоналар орқали инсоният ўзининг илк саволларига жавоб излаш билан бирга, доимий равишда янги маънолар ва тушунчаларни кашф қилиш имкониятини қўлга киритган.

Adabiyotlar/Literatūra/References:

1. Jonathan Z. Smith[angl.], Richard G.A. Buxton. myth (angl.). Encyclopædia Britannica.
2. Turabova, S. K., & Juraeva, V. F. (2019). The Socio-Political Significance Of The Phenomenon Scientific Discussion In The Development Of Thinking Of The Peoples Of The East. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(8), 168-174.
3. Жўраев М., Шомусаров Ш., Ўзбек мифологияси ва араб фолклори. – Т., 2001.
4. Мелетинский Е. М., Поэтика мифа, М., 1976; Стебл и н — Каменски й М. И., Миф, Л., 1976; Мифи народов мира. В двух томах. – М. 1991.
5. Турабова, С. (2023). О ЁРТА АСРЛАР ШАРҚ ФАЛСАФАСИ ТАРИХИДА ИЛМИЙ БАҲС МУАММОСИ ВА УНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТАФАККУР РИВОЖИГА ТАЪСИРИ. Наманган давлат университети Илмий ахборотномаси, (8), 294-298.
6. Турабова, С. К. (2023). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ МОЛОДЁЖИ. Интернационал ссиентифис жоурнал оф Бируни, 2(3), 132-137.
7. Урабова Р.Т., Ашуров А.Б. Зардуштийликда аёл маъбудаларнинг вазибалари. –Т.: «Фан ва технология», 2012, -5.БЧориев, А. (2006). Инсон фалсафаси. Тошкент.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

ORIGIN OF CHRISTIANITY AND ITS SPREAD TO WESTERN COUNTRIES

Mamanov Jamoliddin Abdurakhimovich,

Alfraganus University, Senior Lecturer,

Department of Social Sciences, (PhD)

Email: jamolmamanov89@gmail.com

Abstract. This article examines the history of the Christian religion, the socio-political and economic-cultural situation of the period of its emergence, an analysis of the reasons that led to the emergence of the Christian religion and the influence of the mode of production, which was formed under the influence of the climatic conditions of Western Europe. The history of religions is considered from the position of the geographical school in sociology. In addition, the article contains a philosophical opinion on the reasons for the spread of the Christian religion from the territory of Israel to all Western European regions, the emergence of the Catholic Church and the establishment of dominance over secular power, as well as the weakening of religious power and the end of the dominance of the Catholic Church in the following stages of the historical development of Western society.

Key words: christianity, judaism, Moses, Israel, Jerusalem, the idea of the presence of God, the Roman Empire, geographical factor, irrigated agriculture, dry farming, nomadic cattle breeding, Western Europe, the Catholic Church.

XRISTIANLIK DININING KELIB CHIQISHI VA G'ARB DAVLATLARIGA TARQALISHI

Mamanov Jamoliddin Abduraximovich,

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası

katta o'qituvchisi, (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada xristian dini tarixi, paydo bo'lgan davr ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy vaziyatning holati, xristian dinining paydo bo'lishiga olib kelgan sabablar tahlili va ushbu dinga yahudiylik dinining ta'siri geografik omil yondashuvi asosida ochib berilgan. Bundan tashqari maqolada xristian dinining Isroil hududidan chiqib butun G'arbiy Yevropa hududlariga tarqalishi, katolik cherkovining paydo bo'lishi va dunyoviy hokimiyat ustidan hukmronlik o'rnatishining sabablari hamda xristian dini tarixiy taraqqiyotining keyingi bosqichlarida diniy hokimiyatning zaiflashuvi va Katolik cherkovi hukmronligiga chek qo'yish borasidagi tarixiy vaziyatlar haqida falsafiy fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: xristianlik, yahudiylik, Muso, Isroil, Quddus, xudo yarlaqaganlik g'oyasi, Rim imperiyasi, geografik omil, sug'orma dehqonchilik, lalmikor dehqonchilik, ko'chmanchi-chorvadorlik, G'arbiy Yevropa, Katolik cherkovi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N47>

Kirish. Xristianlik dini yakkaxudolikka asoslangan eng qadimgi dinlardan biri. Ushbu dinning insoniyat taraqqiyotida o'ziga xos o'rni bor. Bu dinning o'rnini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ilm tarixida shunchalik ko'pki, bu dinning kelib chiqishi va tarqalishini ilmiy o'rganishga hech bir ehtiyoj yo'qdek ko'rinadi. Lekin oxirgi ilmiy izlanishlar,

xususan, Sharq va G'arb taraqqiyotidagi tafovutlarning sabablarini aniqlash borasidagi tadqiqotlar ushbu hududlarda keng yoyilgan va ushbu hududlarning ko'p asrlik tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan diniy qarashlarni tadqiq etish bizga insoniyat tarixiy taraqqiyotini to'g'ri tushunish va turli hududlar taraqqiyotidagi tafovutlarni sabablarini aniqlash imkonini beradi. Xristianlik dini xuddi shunday G'arbiy Yevropa mamlakatlarining taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan din hisoblanadi.

Materiallar va metodlar. Xristianlik dini ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan hamda insoniyat tarixiy taraqqiyotida katta o'ringa egaligi bilan alohida ajralib turuvchi din hisoblanadi. Shu boisdan ushbu maqolada xristianlik dini paydo bo'lishi tarixiylik metodi asosida ushbu din paydo bo'lgan davrning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatlari tahlil etildi. Shuningdek, vorisiylik metodi asosida yahudiylar dinining xristianlik diniga ta'siri hamda qiyosiy tahlil metodi asosida Sharq va G'arb mintaqalarida tarqalgan dinlarning o'zaro qiyosiy tahlilini amalga oshirish asnosida xulosalar chiqarildi.

Muhokama va natijalar. 2000 yillik tarixga ega bo'lgan xristianlikning vujudga kelishida Iudaizmning tutgan o'rni haqida tadqiqotchilar ko'plab asarlar yozishgan. Ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra xristianlikning vujudga kelishida iudaizmdan tashqari boshqa dinlar, xususan, zoroastrizm, grek-yunon e'tiqodlari – pifagoreizm va hokazolar ham katta o'rin tutgan. Ammo ko'pchilik tadqiqotchilarning fikri bir narsada yakdildir: u ham bo'lsa xristianlikning vujudga kelishida asosiy omil rolini iudaizm dini bajargan. Tadqiqotchilarning ushbu fikrini rad etmagan holda shuni qayd etish lozimki, xristianlikning vujudga kelishida Iudaizmning tutgan o'rni to'liq ochilgan deyish qiyin. Tadqiqotlarda Iudaizmning xristianlikning vujudga kelishida tutgan o'rni asosan iudaizmga xos bo'lgan monoteizmdan hamda etnogeografik faktor bilan chegaralanib qolgan deyishimiz mumkin. To'g'ri, xristian diniga iudaizmning boy tarixi ham meros tariqasida o'tgan. Ammo bu boy merosni xristianlik din sifatida shakllanib ulgurganidan keyin, meros tariqasida o'zlashtirgan. Holbuki, tadqiqotchining asosiy diqqat-e'tibori xristianlikning paydo bo'lishida iudaizmning qaysi xususiyatlari asosiy o'rin tutganligiga qaratilmog'i lozim. Adolat yuzasidan e'tirof etish kerakki, xristianlikning vujudga kelishida ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tutgan o'rni juda yaxshi o'rganilgan. Haqiqatdan ham, xristianlikning vujudga kelishida Isroil jamiyatining tushkunlikka uchrashi, Rim istilosi oqibatlarini va shu kabi boshqa omillar katta o'rin tutadi. Ammo, ushbu omillar ham xristianlikning nima uchun aynan Falastinda nozil bo'lganligi sababini tushuntirib bera olmaydi. Chunki butun Rim imperiyasi tarkibiga kirgan o'nlab xalqlarning ahvoli ham yahudiylarnikidan sira farq qilmas edi. Bizning fikrimizcha xristianlikning paydo bo'lishida iudaizmga xos bo'lgan eng asosiy g'oya – xudo yarlaqaganlik g'oyasi asosiy o'rin tutadi. Mazkur g'oya ildizi Ibrohim (a.s.)ga borib taqalishi yaxshi ma'lum.

“Xudo yarlaqaganlik” g'oyasi iudaizm dinida eng asosiy o'rin tutishi deyarli barcha tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etiladi. Isroil qavmining tarixida ana shu g'oya nihoyatda katta o'rin tutadi. Isroil qavmining Misrdan chiqib Sinay cho'lini kesib o'tishida ushbu g'oya xalqqa ishonch, jasorat baxsh etadi. Ammo qavm ichida noroziliklar, g'alayonlar bo'lib turganligi ma'lum. Bu noroziliklarning, isyonlarning oldini olish uchun qavm ongiga “Ahd” haqida ma'lum bir yo'llar bilan uqtirib turish lozim edi. Muso (a.s.) Sinay tog'i etagida ana shunday ahdlashuv marosimini o'tkazishi ana shu maqsadga xizmat qilishi shubhasizdir. Isroil qavmi ana shu Sinay tog'i etagida birmuncha vaqt yashab qoladi. Ana shu kunlarda Muso alayhissalom yaqinlaridan biri hamrohligida xudo bilan roz aytishgani Sinay tog'iga chiqib ketar edi. Xudo bilan roz

aytishish deb ataluvchi mazkur tashriflar qavmning yodiga o'sha "Ahd"ni eslatib turishga xizmat qilishi tushunarlidir. Musoning xudo bilan roz aytishi – so'zlashuvi qavmni ham qiziqtirib qo'yadi. Ular ham xudo bilan so'zlashmoqchi bo'ladilar. "Yana aytdilar: "Ey Muso, Tengri birla so'zlashurman deyursan. Biz ham yalavoch o'g'lonlarimiz senga qarindosh-urug' bo'lurmiz. Bizni ham olib borsang, Mavlo taolo kalomin eshitsak bo'lg'aymu" dedilar"[1]. Ayrim manbalarda aytilishicha, Muso ularni ogohlantirishiga qaramay, ular xudoning o'zini ko'rishga harakat qiladilar va oqibatda kuyib kul bo'ladilar. Boshqa manbalarda aytilishicha ular xudoning nazari tushgan butaning yonib ketishiga guvoh bo'ladilar.

Xudo bilan qilingan ahd – shartnomaning moddiy dalili sifatida Muso (a.s) tosh lavhalarga yozilgan o'nta nasihat – buyruqni qavmga taqdim etadi. Bu nasihat – buyruqlarni bajarish evaziga xudo ularni doimo o'z himoyasida saqlashni va Ibrohimga va'da qilingan yer – Falastinni ularga berishni o'z zimmasiga oladi.

Eramizdan avvalgi II asrda Yaqin Sharqning Rim imperiyasi tomonidan istilo qilinishi bu yerdagi yahudiylarni boshqalardan ham ko'ra og'irroq ahvolga solib qo'ydi. Negaki, boshqa hali birorta ham xalq o'z taraqqiyotida yahudiylar bosib o'tgan yo'lni bosib o'tmagan edi. Bunda biz iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni emas, balki diniy e'tiqod, diniy qarashlar, mafkuraviy taraqqiyotni nazarda tutmoqdamiz. Bu paytda yahudiylardan boshqa hali birorta xalq majusiylilikdan monoteizmga bo'lgan yo'lni bosib o'tmagan edi. Rimliklar boshqa xalqlarni varvarlar deb bilgani kabi yahudiylar ham o'zlarini boshqalar ichida alohida, xudo yarlaqagan, xudo sevgan xalq deb bilar edilar. Mustamlakachilikning iqtisodiy zulmiga boshqa xalqlar qatori chidash mumkin edi-yu, ammo bu zulm ularning milliy-diniy g'ururini o'ldirishiga hech ham chidab bo'lmas edi. Tasavvur qiling-a, xudoni (Yaxveni) tanigan, Yaxve yarlaqagan xalq dinsiz majusiylar oldida bo'yin egsa, bunga qanday chidash mumkin, axir? Bu yerda shuni ham nazardan qochirmaslik kerakki, iudaizm bir qadar izchil monoteizm ko'rinishiga yetib kelishida xalqning turli qatlamlari ichidan yetishib chiqqan xarizmatik – liderlar, boshqacha aytganda payg'ambarlarning xizmati nihoyatda katta bo'lgan edi. Ularning asosiy ishi xalqni Yaxve e'tiqodiga targ'ib etish, podsholarga va'z-nasihat qilishdan iborat edi. Podsholarni to'g'ri yo'lga da'vat etish, ularga pand-nasihat o'qish xavfsiz ish emasdi, albatta. Ayrim nasihatchi-va'zchilarni podsho yoki uning yaqinlari (Iyezavel) qatl ettirgan yoki turli jazolarga tortgan hollar ham bo'lib turar edi. Faqat podsholar emas, oddiy xalq ham ba'zan va'zgo'ylarni tosh-bo'ron qilib turgan (Yunus (a.s)ni Musil xalqi toshbo'ron qilgan edi). Shunchalik qiyinchilik, mashaqqatlarga qaramay baribir nabiyalar, payg'ambarlar yetishib chiqaverar edilar. Bunday nabiyalar, payg'ambarlarni yetishtirib beruvchi asosiy makon Yahudiya edi. Yahudiya tabiiy-geografik sharoitiga ko'ra suvsiz, toshloq cho'l-biyobonlari ko'proq bo'lgan joy bo'lgani uchun ham bu yerda Yaxve e'tiqodi xalq ichida birlikni saqlashning muhim omili edi. Yahudiy xalqining butun tarixi Yaxve e'tiqodi uchun kurash bilan chambarchas bog'liq. Yaxve e'tiqodi esa xudo yarlaqaganlik g'oyasi bilan uzviy bog'liqdir.

Monoteistik e'tiqod bo'yicha xudo yagona ekan, demak yer yuzidagi barcha mavjudot, jumladan barcha xalqlarning ham yaratuvchisi bittadir. Ammo buni tan olish uchun olam xalqlari, barcha qavmlar xudo oldida tengdirlar degan g'oyani tan olish uchun xudo yarlaqagan qavm degan g'oyadan butkul voz kechish talab qilinishi o'z-o'zidan tushunarlidir. Boshqa tomondan qaralganda Isroil qavmini yaxlit xalq qilib birlashtirgan, bir millat sifatida yagona e'tiqod atrofida birlashtirgan g'oya, ana shu g'oya "xudo yarlaqagan qavm" degan g'oya edi. Ammo mazkur g'oya o'z ishini asosan bajarib bo'lgan edi. Uning oldidagi asosiy dushman –

majusiylilik mahv etilgan edi. Ammo biz o'tgan fasllarda ta'kidlaganimizdek, din ma'lum darajada avtonom hodisadir. Ya'ni ma'lum bir vaziyat shart-sharoit taqozosiga ko'ra vujudga kelgan diniy qarashlar mazkur vaziyat, shart-sharoit o'zgargan taqdirda ham o'z mohiyatini saqlab qolaveradi. Mazkur hodisa, ya'ni ma'lum bir vaziyat, shart-sharoit o'zgargan sharoitda ham o'z mohiyatini saqlab qolishi, eng kamida inersiya kuchi natijasida hayotga ta'sir ko'rsatishda davom etishi nafaqat dinga, balki ijtimoiy hodisalarga ham xosdir. Masalan, tarixga materialistik nuqtai nazardan qaralganda, insoniyat jamiyati biri ortidan biri keluvchi bir nechta ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarni bosib o'tadi. Har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya (bular: ibtidoiy jamoa tuzumi; quldorlik; feodalizm; kapitalizm) o'ziga mos keluvchi ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasiga asoslanadi. Ammo ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sib borishi natijasida ma'lum bir ishlab chiqarish usuli mazkur ishlab chiqarish munosabatlariga mos kelmay qoladi va natijada mazkur ishlab chiqarish munosabatlari ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga g'ov bo'lib qoladi. Jamiyat oldida mazkur ishlab chiqarish munosabatlarini yangi, o'sib kelayotgan ishlab chiqarish kuchlari talablariga javob bera oladigan ishlab chiqarish munosabatlariga almashtirish vazifasi ko'ndalang bo'ladi. Eski ishlab chiqarish munosabatlarining yangi, zamon talablariga mos keluvchi ishlab chiqarish munosabatlari bilan almashuvi eski ishlab chiqarish munosabatlari tarafdorlari bo'lgan sinflar bilan yangi, yangicha mulkchilik, yangicha ishlab chiqarish munosabatlari tarafdorlari o'rtasidagi shiddatli sinfiy kurash natijasida almashadi. Kishilik jamiyati tarixidagi ana shunday har bir o'zgarish faqatgina shiddatli to'qnashuvlar, kurashlar yo'li bilan amalga oshirib kelingan. Xudo yarlaqaganlik g'oyasi ham ana shunday keskin kurash yo'li bilangina hal etilishi mumkin edi. Bu kurash allaqachon boshlangan edi. Rim istilosi bu kurashni g'oyat keskinlashtirib yubordi. Chunki avval yahudiylar uchun g'ayri yahudiylar shunchaki begonalar bo'lib kelgan bo'lsalar, endi, Rim istilosidan keyin begonalar dushmanga aylanadi. Yahudiylar boshqalarga qanchalik dushmanlik bilan qarasarlar, boshqalar ham ularga nisbatan xuddi shunday dushmanlik bilan munosabatda bo'lar edilar. Ilmiy, tarixiy va badiiy adabiyotlarda yahudiylarga nisbatan uyushtirilgan qirg'in (pogrom)lar haqida ko'pdan-ko'p, mufassal ma'lumotlar to'lib-toshib yotibdi. Masalan: Tasit yahudiylarning boshqalarga munosabati haqida quyidagilarni yozadi: "Ular yomon odamlarni o'z dinlariga kiritib otalari dinidan chiqishlariga hamda ularga xayr-ehsonlar berishlariga erishardilar, Yahudiylarning boyligi ana shunday qilib ko'paygan. Bu boylik yana shuning uchun ham ko'payadiki, ular o'zaro munosabatlarida nihoyatda ahil bo'lganlari holda, boshqalarga nisbatan nihoyatda adovat bilan munosabatda bo'ladilar. Ular boshqalardan alohida ovqatlanadilar, boshqa dindagi ayollar bilan yashamaydilar"[2].

Karl Kautskiy Rim imperiyasida dehqonlarning ahvoli og'irlashib, shaharlarda lyumpen-proletariatlarning ko'paya borgani sayin Yahudiylarga munosabat yomonlashib, ochiqdan-ochiq, hatto rasmiy ruxsat berilgan qirg'inlar o'tkaziladigan bo'lib qoldi deb yozadi. U o'z asarida Aleksandriyada bo'lib o'tgan bir qirg'inni shunday tasvirlaydi: "U (Yahudiya shohi – Agrippa) shohona kiyimlarda va yasangan navkarlar hamrohligida ko'chada paydo bo'lgan chog'da, barcha g'ayri Yahudiy aholini – bu nihoyatda tomoshalarga qiziquvchan hamda Yahudiylarga nafrat bilan qarovchi aholi diqqatini o'ziga jalb qilishi bilan birga ularning mazaxlariga duch keldi. Ammo ish shu bilangina chegaralanib qolmadi. Yahudiylarga qarshi qirg'in boshlandi. Alohida joylashgan Yahudiy uylari talanib, o't qo'yildi. Yahudiylarga tegishli qayiq kemalar ham talandi. G'ayri Yahudiy kvartallarda qo'lga tushgan Yahudiylar o'ldirildi. Ammo Yahudiy kvartallariga nisbatan kuch ishlatish ularning qo'lidan kelmas edi. Shuning

uchun ham qirg'in boshliqlari yangi hiyla o'ylab topdilar. Barcha Yahudiy sinagogalarini imperator ibodatxonalariga aylantirib ularga imperator haykali o'rnatishni taklif qildilar"[3].

O'zini xudo deb e'lon qilgan imperatorlarning haykalini Yahudiylar ibodatxonasiga o'rnatish Yaxve e'tiqodi uchun juda katta haqorat edi. Chunki iudaizm dinida butparastlik nihoyatda qattiq taqiqlangandir. Yahudiylarga nisbatan masxara ko'zi bilan qarash, imkon topildi deguncha kamsitish, turli ta'qiblar, qirg'inlar (pogromlar) uyushtirish keng tarqalgan hodisa edi. Nafaqat xristianlik vujudga kelayotgan davrda, balki undan ancha keyingi va hatto yaqin-yaqin vaqtlarda ham yahudiylarni terror qilish hollari tez-tez uchrab turganligi hech kimga sir emas.

Yahudiylarni diniy-milliy ozchilik sifatida kamsitish hollari Sharq mamlakatlarida, xususan Islom mamlakatlarida ham uchrab tursa-da, ammo Sharq bilan G'arb o'rtasida bu masalada anchagina ko'zga ko'rinarli tafovut bor edi. Sharq mamlakatlarida (Islom mamlakatlarida), yahudiylar g'ayridin sifatida jizya (jon solig'i) to'lagan bo'lsalar-da, boshqa masalalarda hech bir kamsitishga, quvg'in, ta'qiblarga duchor etilmagan. G'arbda esa ahvol butunlay boshqacha bo'lganligini ko'rib turibmiz.

Ikki o'rtadagi ushbu tafovutning sababi shundaki, Sharqda, ayniqsa iqtisodda sug'orma dehqonchilik yetakchilik qiluvchi jamiyatlarda diniy hamda milliy bag'rikenglik tamoyili hukm surib kelgan[4]. G'arb mamlakatlari esa butun O'rta asrlarni feodal tarqoqlik bilan o'tkazgan. Chunki G'arbga xos bo'lgan sernam va mo'tadil iqlim dehqonchilikni lalmikor usulda olib borish imkonini beradi. Dehqonchilikning bunday usuli sharoitida hamda natural xo'jalikning hukmronligi tufayli feodal tarqoqlik avj oladi.

Bunday sharoitda har bir feodal xo'jaligi, hududlar, qolaversa har bir alohida individ o'z manfaatini birinchi o'ringa qo'yishga intiladi. Bunday sharoitda milliy va ayniqsa diniy nizolarning avj olishi odatiy holga aylanadi. Ammo biz yuqorida keltirib o'tgan misol Aleksandriyada, demakki Sharq (Misrda) bo'lib o'tganligi bir tomondan qaraganda bizning yuqoridagi fikrlarimizni inkor qilayotgandek tuyulishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, tabiat qonuniyatlari bilan jamiyat qonuniyatlari o'rtasida ma'lum tafovutlar mavjud. Tabiat qonunlari ma'lum shart-sharoit mavjud bo'lganda deyarli istisnosiz takrorlanadi, ya'ni o'zgarishsiz amal qiladi. Jamiyatda esa istisno hollar ham yuz berib turadi, chunki jamiyat hodisalarining yuz berishi turli-tuman obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. Masalan, Aleksandriya o'zining geografik o'rniga ko'ra Misrda, ya'ni Sharq mamlakatida joylashgan bo'lsada, ammo uning aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik emas, balki hunarmandchilik, savdogarchilik va h.k.lar bo'lgan. Bundan tashqari Aleksandriya Misrni deyarli butun O'rta yer dengizi, Yevropa, Osiyo bilan bog'lovchi port-shahar ekanligini ham unutmashimiz lozim. Demak, bu shahar xalqining ma'lum qismini (yarmidan ko'prog'ini deyishimiz mumkin) Yevropaliklar tashkil qilganligi, demakki, Yevropacha fe'l-atvor, Yevropacha qarashlarning aholi ijtimoiy fe'l-atvorida ustunlik qilishi shubhasizdir. Bundan tashqari yahudiylarning o'zlarini boshqa xalqlardan ustunlik da'vo qilishi o'z-o'zidan ular bilan boshqa xalqlar o'rtasida juda qattiq dushmanlik keltirib chiqarmay aslo iloji yo'q edi. Hatto diniy va milliy bag'rikengligi bilan umum e'tirofiga sazovor bo'lgan Sharq mamlakatlarida ham yahudiylarga munosabat sal boshqacharoq bo'lgan. Masalan, Buxoro amirligida yahudiylar aholi yashaydigan joylarga ot minib kirishi, beliga belbog' bog'lashi taqiqlangan edi. Ko'rib turganimizdek, xristian dini paydo bo'lishi arafasida iudaizm dinining o'zi boshi berk ko'chaga kirib qolgan edi. Chunki bu dinga xos bo'lgan eng asosiy xususiyat – xudo yarlaqaganlik

allaqachon o'z vazifasini o'tab bo'lgan, undan voz kechish payti yetilgan edi. Er.av I asrda Falastinning Rimliklar tomonidan istilo qilinishi Isroil xalqini yana ham og'ir ahvolga solib qo'ydi. Chunki o'zini xudo yarlaqagan, xuddi shu tufayli boshqalardan o'zini ustun hisoblovchi xalq ayni paytda huquqsiz, kamsitilgan, boyliklari talab ketilayotgan ahvolda edi. Chorasiz odamning umidi mo'jizadagina bo'lishi mumkin edi. Ana shu mo'jiza – yer yuzida yangi payg'ambarning paydo bo'lishi haqidagi xabarlar ana shu paytlardan boshlab tarqala boshlagan edi. Hali u yer, hali bu yerda o'zini missiya, ya'ni kutilayotgan payg'ambar deb e'lon qiluvchilar paydo bo'lib turardi. Bu payg'ambarlardan ko'pchiligi hokimiyat tomonidan qo'lga olinib qatl etilardi. Ana shunday payg'ambarlar – voizlarning umumlashma obrazi – Iso Masih haqidagi xabarlar tarqala boshladi. Iso Masih odamzodni qutqarish uchun xudo tomonidan yuborilgan payg'ambar, u odamlarni qutqarish uchun o'zini qurbon qilganligi haqidagi rivoyatlar og'izdan-og'izga o'tib tarqala boshladi. Shu o'rinda yana bir dalilga e'tibor qaratsak, xristianlik paydo bo'lgandan keyin xristian targ'ibotchilari asosan ushbu dinni yahudiy millati orasida targ'ib etadi. Buning sababi esa, aynan yahudiylarning avvalgi e'tiqodidagi eskirgan xudo yarlaqagan millat g'oyasi edi. Yangi din va yangi g'oya orqali yahudiylar jamiyati inqiroziga sabab bo'layotgan, boshqa xalqlarning yahudiylarga nafratini oshirayotgan g'oyadan qutilish va yangi taraqqiyot sari yo'l olish mumkin edi. Shu sababli ham mazkur yahudiylar chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy og'ir vaziyat bo'lgan milodiy 1 asrda yahudiylar jamiyati va Quddus shahrida yangi din xristianlik dini paydo bo'ldi. Shunday qilib biz xristianlikning paydo bo'lishida iudaizm e'tiqodining xususiyatlari, xususan xudo yarlaqaganlik g'oyasining tutgan o'rni bilan bir qadar tanishib chiqdik. Xristian dinining bundan keyingi taraqqiyoti, evolyutsiyasi, havoriylarning faoliyati bilan bog'liqdir.

Dastlab yo'qsillar va ezilganlar e'tiqodi sifatida paydo bo'lgan xristianlik asta-sekinlik bilan o'zining butunlay qarama-qarshisiga – hokimiyat egallari oldida itoat qilishga da'vat etuvchi dinga aylandi. IV asrda xristian dinining Rim imperiyasining rasmiy davlat dini sifatida e'lon qilinishi xristian dinining bundan keyingi faoliyatida ham, butun Yevropaning O'rta asrlar tarixida ham nihoyatda katta o'rin tutgan voqea bo'ldi.

Rasmiy tarix fanida O'rta asrlarni uch davrga bo'lish odat tusiga kirgan:

- V-XI asrlar – feodal tuzumining tashkil topish davri;
- XI-XV asrlar – feodal tuzumining ravnaq topish davri;
- XVI-XVII asrlar – feodal tuzumining tushkunlikka yuz tutish davri.

Agarda biz katolik Cherkovining G'arbiy Yevropadagi faoliyatini davrlashtiradigan bo'lsak, taxminan uni ham xuddi yuqoridagi kabi davrlashtirish mumkin[5].

Bu yerda shunga ishonch hosil qilamizki, feodal tarqoqlik qanchalik kuchli bo'lsa, katolik cherkovining ta'siri shunchalik kuchli bo'ladi. G'arbiy Yevropada iqlimning mo'tadilligi hamda yog'ingarchilikning mo'l bo'lishi dehqonchilikni lalmikor usulda yuritish imkonini beradi. Ishlab chiqarishning bunday usuli har bir feodal xo'jaligining mustaqil bo'lishiga zamin yaratadi.

Ayniqsa ishlab chiqarish unumdorligi hali ancha past bo'lgan davrlarda xo'jalikning natural xarakterga ega bo'lishi feodal tarqoqlikning avj olishiga olib keladi.

Ilk O'rta asrlar deb ataluvchi V-XI asrlar xo'jalikning natural xarakteri bilan ajralib turadi. Bu davr G'arbiy Yevropada yangi varvar qirolliklarining vujudga kelishi, feodal tarqoqlikning avj olish davri edi. Ana shunday bir davrda xristian dini butun G'arbiy Yevropani birlashtirishning ta'sirchan vositasiga aylanadi.

Shu o‘rinda dinning asosiy vazifalari haqida gapirganimizda yakkaxudolikka asoslangan dinlar o‘zining jipslashtiruvchi, uyushtiruvchi vosita sifatidagi vazifasi bilan boshqa dinlardan alohida ajralib turishi haqida gapirib o‘tgan edik. Ko‘chmanchi-chorvador turmushi bilan yashovchi hamda lalmikor dehqonchilik bilan kun ko‘ruvchi xalqlar ko‘proq ana shunday dinga ehtiyojmand bo‘ladilar.

Xristian dini ham o‘z evolyutsiyasida ma‘lum bosqichlarni bosib o‘tdi. Birinchidan, u avval boshdagi o‘zining isyonkorlik tabiatini o‘zgartirib o‘z qavmini itoatkorlikka, hatto zulm qarshisida ham indamay bosh egishga da‘vat etuvchi dinga aylandi.

Ikkinchidan, unda bu dunyoda chekilgan azob-uqubatlar uchun oxiratda – narigi dunyoda evaz – mukofot beriladi, bu dunyoda jafo chekkanlar u dunyoda abadiy rohat-farog‘atda yashaydi, zulm qiluvchi kishilar esa azob-uqubatlarga duchor qilinadi degan aqida paydo bo‘ldi. Ana shunday qilib yo‘qsillarni, kambag‘allarni, zulm-jafo chekkanlarni narigi dunyoda erishadigan ne‘matlar bilan yupantirish, taskin-tasalli berish, itoatsizlar, isyonkorlar, zulmkorlarni esa narigi dunyoda duchor bo‘ladigan azob-uqubatlar bilan qo‘rqitish cherkovning nihoyatda ta‘sirchan quroliga aylanadi.

Jamiyatda dinning jipslashtiruvchilik, uyushtiruvchilik vazifasiga ehtiyoj qancha kuchli bo‘lsa, dinning nazorat-boshqaruv apparatining qudrati ham shunchalik kuchli bo‘ladi.

Xristian katolik cherkovini ana shunday kuchli nazorat-boshqaruv apparatining klassik namunasi desak xato bo‘lmaydi. Xristian katolik cherkovi ham diniy, ham ayni paytda siyosiy tashkilot edi. Har biri alohida-alohida iqtisodiy yacheyka bo‘lgan ming-minglab feodal qo‘rg‘onlaridan iborat bo‘lgan G‘arbiy Yevropada varvar qabilalaridan madaniy xalqlar, millatlarining vujudga kelishida xristian katolik cherkovining xizmati benihoya kattadir. Xristian dini yagona e‘tiqod sifatida butun Yevropa xalqlarini birlashtiruvchi e‘tiqod vazifasini o‘tagan bo‘lsa, katolik cherkovi ana shu din arkonlariga rioya qilinishi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatuvchi tashkilot vazifasini bajarar edi. Cherkovning butun tashkiloti – oddiy ruhoniyan tortib Rim papasigacha – hammalari bir maqsad yo‘lida birlashgan edi. “Nahotki cherkovning har bir xodimi Yevropani madaniy milliy davlatlarga aylantirish maqsadini ko‘zlagan bo‘lsa?”- degan savol paydo bo‘ladi, albatta.

Chindan ham, nahotki ming-minglab yepiskoplar, abbatlar, patriarxlar, papalar Yevropa xalqini birlashtirishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsalar? Aslo bunday bo‘lishi mumkin emas. Ularning har biri o‘z davrining farzandi, ular xristian katolik cherkovi bajarayotgan tarixiy missiya haqida tushunchaga ega bo‘lishi mumkin emasdi. Ularning ko‘pchiligi avvalo o‘z manfaati, qolaversa o‘z davri, o‘z muhiti oldinga surayotgan vazifalarni bajarishnigina o‘ylaganliklari shubhasiz.

Ammo katolik cherkovi butun boshli tashkilot sifatida o‘z oldiga qo‘ygan ana shu tarixiy vazifani bajarishga xizmat qilar edi. Gegel: “alohida shaxsni tarix sahnasidagi qo‘g‘irchoq, absolyut g‘oya (ideya, xudo) esa sahna ortidagi qo‘g‘irchoqboz” degan edi[6]. Roza Lyuksemburg Gegelning idealistik qarashlariga materialistik nuqtai-nazardan yondashib, yuqoridagi fikrni quyidagicha ifodalaydi: “Tarixiy taraqqiyot mantig‘i ana shu tarixiy taraqqiyot jarayonida qatnashuvchi insonlarning subyektiv tafakkuri (mantig‘i)dan oldin paydo bo‘ladi. Inson ongi, ya‘ni “subyektiv jarayon” “Tarixiy taraqqiyot mantig‘i” bilan belgilanadi” [7].

Tarixiy taraqqiyot jarayonida oddiy insonning taqdir qo‘lidagi qo‘g‘irchoq ekanligi Gegeldan avval Sharq mutafakkirlari tomonidan (Umar Hayyom) aytilgan edi.

Biz tadqiq etayotgan davr V-XI asrlarning asosiy xususiyati shuki, bu davrda katolik cherkovi va uning bosh namoyondasi – Rim papasining hokimiyati dunyoviy hokimiyatdan shubhasiz ustun edi.

Rim papasining turli-tuman dunyoviy feodallarga, qirollarga qarshi olib organ kurashi ham aslida ayirmachilikka qarshi kurash edi. Dunyoviy feodallar, qirollar o'z qo'l ostidagi yerlarga to'la huquqli xo'jayin bo'lishni istar edilar. Katolik cherkovi esa butun G'arbiy Yevropada o'z hokimiyatini yoyishni istar edi. Natijada dunyoviy feodallar, qirollar bilan Rim papasi o'rtasida nizo-janjallar bo'lib turar edi. Ana shunday kurashlardan biri – investitura uchun kurash edi. Grigoriy VII zamonida (1073-1085) Papa hokimiyati qudrati o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Grigoriy VII papa hokimiyati har qanday dunyoviy hokimiyatdan, imperatorlar va qirollar hokimiyatidan ustun turadi, u imperator va qirollar ustidan hukm chiqarishi mumkin, lekin uning (papaning) ustidan hech kim hukm chiqara olmaydi deb hisoblar edi. Grigoriy VII gacha papani saylashda diniy ruhoniylardan tashqari dunyoviy hokimiyat egalari ham qatnashar edilar. 1059-yilda papa saylashning yangi tartibiga ko'ra dunyoviy zodagonlar bu saylovdan chetlashtirildi. Endi papani faqat kardinallargina saylaydigan bo'ldi. 1060-yilda syelibat joriy qilindi, ya'ni barcha ruhoniylarning uylanishi taqiqlandi. Chunki uylangan monax-ruhoni o'z mol-mulkini bolalariga meros qilib qoldirishga harakat qilar edi. Bu chora cherkov yerlarining daxlsizligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1075-yilda Grigoriy dunyoviy investiturani, ya'ni yangi saylangan yepiskop va abbatlarga uzuk va hassa berish odatini bekor qilish to'g'risida farmon-dekret chiqardi. Endi yepiskop yoki abbatga saylanganligi haqidagi yorliqni faqatgina papaning o'zi beradigan bo'ldi. Papaning bu farmoni dunyoviy feodallar, imperator va qirollar manfaatlariga zid edi. Imperator Genrix IV 1076-yilda papaning bu ishiga qarshi chiqib, uni o'rnidan tushirilgan deb e'lon qilinishiga erishdi. Bunga javoban Grigoriy VII Genrix IV ning o'zini taxtdan tushirilgan deb e'lon qildi va uning fuqarolarini sodiqlik to'g'risidagi qasamdan xalos qildi. Oxir-oqibatda bu kurashda Rim papasining qo'li baland keldi. Imperator 1077-yilda papadan kechirim so'rash uchun Italiyaga keldi hamda tavba-tazarru qiluvchi gunohkor libosida uch kun Kanossa qasri darvozasi oldida turdi. Shundan keyingina papa uni huzuriga qabul qildi va gunohlarini bir qancha pisandalar bilan "kechirdi". Shunday qilib "Kanossaga borish" iborasi dunyoviy hokimiyatning cherkov hokimiyati oldida yer o'pib bosh egish timsoli bo'ldi[8].

G'arbiy Yevropada feodalizmning ikkinchi davri Katolik cherkovi va yangi tuzilib, rivojlanish yo'liga kirib borayotgan milliy davlatlar boshliqlari bilan nizoli vaziyatlarni keltirib chiqardi. Lekin oxir oqibat Katolik cherkovi o'z obro'-e'tiborini saqlab qolish uchun turli yo'llarni va siyosiy o'yinlarni amalga oshirishga majbur bo'ldi. Feodalizmning birinchi davrida dinning asosiy jamiyatni birlashtirish vazifasi orqali yirik nizolarsiz G'arbiy Yevropa jamiyati taraqqiy etib borgan bo'lsa, ikkinchi davrga kelib, savdo-sotiq, shahar va qishloq hamda viloyatlararo iqtisodiy aloqalar rivojlanishi oqibatida alohida markazlashgan davlatlar va shu davlatlarda yashovchi millatlar shakllanishi bilan markaz Rim bo'lgan katolik cherkovi o'rnatgan tartibga qarshi chiquvchi kuchlar paydo bo'ldi va ular o'rtasida ilk to'qnashuvlar sodir bo'ldi.

Uchinchi bosqich bo'lgan XVI-XVII asrlar G'arbiy Yevropada feodalizmning krizisga uchrashi va uning bag'rida yangi, kapitalistik munosabatlarning qaror topishi davridir. Bu davrga kelib ishlab chiqarish kuchlari beqiyos darajada o'sdi. Shaharlar tobora iqtisodiy hayotning markaziga aylana bordi. Markazlashgan milliy davlatlar allaqachon tashkil topib

ulgurgan edi. Savdo-sotiq, iqtisodiy aloqalarning chuqurlashib va tobora kengayib borishi natijasida mustahkam iqtisodiy, madaniy va til birligi vositasida bog'langan milliy davlatlar tashkil topib ulgurgan edi. Boshqacha qilib aytganda G'arbiy Yevropa jamiyati katolik cherkovining uyushtiruvchilik, jipslashtiruvchilik funksiyasiga endi deyarli muhtoj emas edi. Shuning uchun ham XVI-XVII asrlarga kelib katolik cherkovining hukmronligiga qarshi kurash nihoyatda shiddatli tus oldi. Shu paytgacha katolik cherkovining hukmronligiga qarshi kurashib kelgan kuchlar asosan imperatorlar, qirollar va yeretiklar edi. Yangi davrning o'ziga xos xususiyati shu bo'lgan ediki, bu harakatga endi aholining tobora kengroq qatlamlari, shahar aholisi ayniqsa ko'proq tortilgan edi. Ilm-fanning taraqqiy qilishi cherkov aqidalarining bekami-ko'st ekanligiga tobora ko'proq shubha uyg'ota boshladi. Tabiiy fanlar, ayniqsa astronomiya sohasidagi yutuqlar olam tuzilishi haqidagi cherkov sxolastikasini chilparchin qilib tashladi. Endilikda har bir milliy davlatning o'zigagina tegishli bo'lgan manfaatlar birinchi o'ringa qo'yilmoqda edi. Ana shu milliy manfaatlarning birinchi o'ringa ko'tarilishi cherkovga qarshi qator tadbirlarni qo'llashga turtki bo'ldi. Jumladan, cherkov qo'lida bo'lgan yerlarni musodara qilish; ikkinchidan, cherkov marosimlarini bekor qilish va arzon cherkov talablarini ilgari surishga olib keldi. Ammo bu talablarning amalga oshuvi oson bo'lmadi.

Tez orada katolik kontrreformatsiyasi boshlanadi. Turli-tuman yeretik qarashlarga, umuman har qanday yangilikka qarshi kurashuvchi yangi orden –iyezuitor ordeni tashkil topdi. Bu orden butun G'arbiy Yevropadagi qirollarning saroylariga, o'quv dargohlariga kirib olib, u yerdagi har qanday hurfikrlikning ildiziga bolta urar edi. Ammo katolik cherkoviga qarshi kurashni baribir to'xtatishning iloji yo'q edi. Ayniqsa ilm-fandagi yangiliklar cherkov aqidalarining puch ekanligini kundun-kunga ko'proq oshkor qilayotgan edi. Astronomiya sohasida erishilgan yutuqlar olam tuzilishi haqidagi diniy tushunchalarni chilparchin qilib yubormoqda edi. Ammo cherkov hali sira bo'sh kelishini xohlamas edi. Aslida G'arbiy Yevropa jamiyati XVI-XVII asrlarga kelganda katolik cherkovining uyushtiruvchilik funksiyasiga deyarli muhtoj emasdi. Dinning boshqa funksiyalariga ham ehtiyoj tobora kamayib borayotgan edi. Shunga qaramay katolik cherkovi o'z mavqeyidan voz kechishni istamas edi.

Xo'sh, nima uchun?

Biz yuqorida ham, bir necha o'rinlarda dinning ma'lum darajada avtonom hodisa ekanligini aytib o'tgan edik. Mazkur qoidaga binoan ma'lum bir tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy sharoitda paydo bo'lgan din mazkur tabiiy, iqtisodiy sharoit o'zgargan paytda ham o'z mohiyatini uzoq vaqtgacha deyarli o'zgarishsiz saqlab qoladi. Natijada ma'lum bir iqtisodiy-ijtimoiy sharoitda umuman ijobiy rol o'ynagan din keyinchalik, ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy sharoit o'zgarganidan keyin jamiyat taraqqiyoti yo'lida to'siqqa aylanib qoladi. XVI-XVII asrlarga kelib katolik cherkovi G'arbiy Yevropa jamiyatlari taraqqiyotiga g'ov bo'lib qolgan edi. Shu sababli ham Katolik cherkovi yangi davrga kelganda avvalgi mavqeyini butkul yo'qotdi.

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, din ma'lum bir jamiyat talablari va ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'sha hududda paydo bo'ladi. Shu sababli ham xristianlik dini milodiy 1 asrda Quddusda yahudiy millati yashagan jamiyat talabi bo'lgan avvalgi yahudiylik dinidagi xudo yarlaqaganlik g'oyasi o'z davrini o'tab, jamiyat va millat taqdiri uchun zarar yetkazayotgan davrda paydo bo'ldi. Shuningdek, ushbu din keyinchalik Isroil hududidan chiqib butun G'arbiy Yevropaga tarqalishi ushbu jamiyatlarning tabiiy-geografik joylashuvi va shu vaqtda jamiyatning birlashtiruvchi kuchga ehtiyojining mavjudligi xristian dinining keng miqyosda tarqalishi imkonini berdi. Lekin tarixiy taraqqiyot natijasida G'arbiy Yevropa

jamiyatlari iqtisodiy o‘shishi, milliy davlatchilik va millatlarning paydo bo‘lishi oqibatida yagona markaz rolini o‘ynagan Katolik cherkoviga qarshi kurashlar boshlanishiga, buning natijasi sifatida yangi davrda butun G‘arbiy Yevropa xristian dinining hukmronlik siyosatidan kutilishga harakat boshlandi va oxir-oqibat dunyoviy boshqaruvning g‘alabasi bilan yakunlandi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Nosiriddin Burxoniddin Rabg‘uziy. Kisasi Rabg‘uziy 2-kitob. T.: 1999 y. 5-6 b.
2. Каутский К. Происхождение Христанства, М.:1990. Стр. 251.
3. Каутский К. Происхождение Христанства, М.:1990. Стр 252- 253.
4. Маманов А. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar. Sam.: 2015.
5. Маманов А. Iqlim va din. Monografiya. Sam.: 2018. 80-b.
6. Фромм Э. Душа человека. М -1992 стр. 342.
7. Фромм Э. Душа человека. М -1992 стр. 343.
8. Semyonov V.F. O‘rta asrlar tarixi. T.: 1973. 77 -78 b.

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI – PHILOLOGICAL SCIENCES**Received:** 10 November 2024**Accepted:** 15 November 2024**Published:** 25 November 2024*Article / Original Paper***LINGUOPRAGMATIC STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH A SOMATIC COMPONENT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES****Karimova Ozodakhon Avazovna,**

Teacher of “World Language” department of Kokand University

E-mail: oakarimova@kokanduni.uz

Abstract. Every language is unique and one word or sign may mean differently each of them. So, this article is devoted to the research of one branch of linguistics – about phraseological units with somatic elements from the point of lingua-pragmatic aspect in both English and Uzbek languages. The purpose of article is to describe the way of phraseological units, indicating human’s interpretation and understanding of the world through the names of human body parts too. The choice of somatic phraseological units for research is explained not only by their wide range use in common life, but also by the fact that they are expressive, figurative, clearly reflect the peculiarities of the spiritual and material life of the person. Moreover, the background analysis of somatic phraseological units and lingua pragmatics are illustrated as well as meaning of the phraseological units with the component of somatisms are analyzed on a pragmatic basis. According to previous researches, most parts of the body and their nominations have several connotative symbolic meanings, arising from the basic meaning of the “human’s body part” based on the metonymic transference are studied. In order to explore some examples of somatic phraseological units, some methods are used such as illustration, observation and comparison. Many differences and similarities are revealed relying on lingua-pragmatic features in both languages because they differ from geneological and morphological perspectives. All examples of somatic phraseological units like idioms, proverbs and others given in the article are taken from paremiological and phraseological dictionaries as well as prominent novels in Uzbek and English.

Keywords: lingua-pragmatics, phraseological units, idioms, phrases, paremiology, proverbs, somatisms.**INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDA SOMATIK KOMPONENTLI FRAZEOLGIK BIRLIKLARNI LINGVOPRAGMATIK O‘RGANISH****Karimova Ozodaxon Avazovna,**

Qo‘qon universiteti “Jahon tillari” kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya. Har bir til o‘ziga xosdir va bitta so‘z yoki belgi ularning har biri boshqacha ma‘noga ega bo‘lishi mumkin. Demak, ushbu maqola tilshunoslikning bir tarmog‘i – ingliz va o‘zbek tillarida lingvo-pragmatik jihatdan somatik elementlarga ega frazeologik birliklar haqidagi tadqiqotga bag‘ishlangan. Maqolaning maqsadi inson tanasi a‘zolarining nomlari orqali insonning dunyoni talqin qilish va tushunishini ko‘rsatadigan frazeologik birliklarning yo‘llarini tasvirlashdir. Tadqiqot uchun somatik frazeologik birliklarni tanlash nafaqat ularning umumiy hayotda keng qo‘llanilishi, balki ularning ifodali, obrazli bo‘lishi, shaxsning ma‘naviy va moddiy hayotining o‘ziga xos xususiyatlarini aniq aks ettirishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, somatik frazeologik birliklar va til pragmatikasining fon tahlili yoritilgan, somatizmlar komponentli frazeologik birliklarning ma‘nosi pragmatik asosda tahlil qilingan. Oldingi tadqiqotlarga ko‘ra, tananing aksariyat qismlari va ularning nominatsiyalari metonimik ko‘chish asosida “odam tanasi a‘zosi”ning asosiy ma‘nosidan kelib chiqqan holda bir qancha konnotativ ramziy ma‘noga ega bo‘lib, o‘rganiladi. Somatik frazeologik birliklarning ayrim misollarini o‘rganish uchun illyustratsiya, kuzatish va taqqoslash kabi usullardan foydalaniladi. Ko‘pgina farq va o‘xshashliklar ikkala tilning lingvo-pragmatik xususiyatlariga tayangan holda aniqlanadi, chunki ular genologik va

morfoloqik nuqtai nazardan farq qiladi. Maqolada keltirilgan somatik frazeologik birliklarning barcha misollari idiomalar, maqollar va boshqalar paremiologik va frazeologik lugʻatlardan, shuningdek, oʻzbek va ingliz tillaridagi mashhur romanlardan olingan.

Kalit soʻzlar: lingva-pragmatika, frazeologik birliklar, idiomalar, iboralar, paremiologiya, maqollar, somatizmlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N48>

Introduction. What makes the speech more emotional and expressive? It is now accepted that, all foreign language learners, who want to master any language, should have knowledge about the terminology of that language. Evidently, in order to communicate deeply in any foreign language, they ought to learn pronunciation, grammar and vocabulary. However, phraseological units such as idioms, sayings, proverbs and others should be in the focus of attention for ESL learners because without them any language would seem void of expressiveness.

Literature review and methodology. Phraseology looks like a picture gallery that reflects amazing and vivid collections of every nation's customs, traditions, and their recollections of history. Phraseological units available in every language but their meaning can be confusing if translated word for word as well as may lose their semantic meaning. Ch. Bally conducted exploration devoted to linguistics and phraseology in French language, including English [11]. After Bally, more and more linguistics explored this sphere and gave their own explanations and definitions of the term "phraseology". Phraseological units are obvious part of the language and for that reason, this branch of lexicology is in attention of many scholars and researchers. Komissarov has contribution of this field by studying the ways and methods of translation of phraseological units [7]. A.V.Kunin researched a wide range of phraseological units, its characteristics and methods of their studies in his book "The Course of the Modern English Phraseology" that represents phraseological system and classification of idiomatic expressions according to their aspects [6]. Additionally, they are studied by Russian scholars V.V. Vinogradov, A.I. Smidnitoski, H.N. Asomova as well as Uzbek scholars Sh. Rahmatullayev, A. E. Mamatov, B. Yo'ldhoshev investigated a research on this field of linguistics.

In this article, some methods are used such as comparison, translation, observation and content analysis in order to investigate a research. In this article, comparison is used to discover some differences and similarities of somatic phraseological units in English and Uzbek. The reason of usage translation and observation is that phrases, idioms and other such kind of units are not translated directly as well as some changes may occur in that situation. other researches and books related to the theme of article are used and observed. Additionally, the article includes data about lingua-pragmatics, phraseological units and somatics so that below given some conception related to these theoretical terms. Initially, there is information about lingua-pragmatics.

Discussion and results. In linguistics, phraseological units is used with various components such as onomastic, toponym, colour and somatism components. Among them, in modern English language contains a large number of phrases with the element of somatisms. Somatisms refers the names of body parts of human, which are the oldest words in the vocabulary of any language. Phraseological units with the component of somatics include a simple word composition that has severe meaning and form of language. E.M. Mordkovich was first use the term "somatic phraseological unit" in his article "Semantic groups of somatic

phraseological units” in application to the material of Russian language. Here, he stated that large number of somatic phraseological units occurs in function of negative characteristics [10].

Owing to A. Blum, in modern English, somatic phraseological units represent a large group [21]. The most frequent somatic element in usage is “hand”. Then, the next expressions are “head”, “heart”, “eye”, “face”, “foot”, “nose” and “finger” and in every part of body has their own symbol as well as figurative meaning. As mentioned in this paper before, in every culture has idioms, proverbs, phrases with the element of somatism, but they are not used in the same way. While in English is utilized the part of “head” in other language it can be other somatic component. So that, every language learner or translator should be careful in usage of them as well as pay attention to obtain the most appropriate equivalent of these idioms. In order to know how to select most suitable equivalent, one should have a knowledge about lingua pragmatics.

Lingua-pragmatics is also called pragma-linguistics and it includes diverse topics regarding the speaker and listener during the conversation process. It also focuses on the pragmatic feature of the phraseological units for effective communication and it can be represented through both verbal and non-verbal means. Pragma-linguistics contains a realistic expression of social activity. The relationship between speaker and listener, the interaction of members in the speech act, and effect on ethical emotions has been conducted by Uzbek linguistics on the pragmatic aspects. The problem of lingua pragmatics does not have their own explanations. Any words seem to be natural things to say about category of units as a part of pragmatics and as a part of linguistic science.

As suggested by Sperber and Wilson lingua pragmatics is the main connection between the linguistic signals and pragmatic knowledge [19]. The expressions analyzed under lingua pragmatics have its unique worth in being utilized as they are in social interaction. In other words, a lingua-pragmatic form refers to the socio-cognitive factors governing the social and linguistic behavior of the participants of the relevant speech community.

Furthermore, the formation of somatic phraseological units in Uzbek linguistics as well as their functional-semantic aspects in the content was carried out by scientists such as Sh.Rahmatullayev, A.Khojiyev, B.Yuldashev, A.Mamatov, A.Isayev, Sh.Abdullayeva and Sh.Usmanova. The function of somatic lexemes in word formation is following according to B.Yuldashev: head - 158 phrases; eye- 144 phrases; hand- 92 phrases; mouth -89 phrases; heart - 77 phrases; foot – 63 phrases; ear- 52 phrases; tongue-51 phrases; face-32 phrases; neck-31 phrases; brain - 29 phrases; throat -11 phrases; liver -10 phrases and others [20].

A.Mamatov in his last chapter of his dissertation “Phraseology in modern Uzbek literary language norms and types of deviations from it” defined about problems of phraseology with speech culture and language norms. According to A.Mamatov “Phraseology is structurally equivalent to a phrase or sentence, having generalized meaning, lexical elements that are partially or completely figurative and fixed” [8]. Moreover, in his dissertation “Somatic phraseology in Uzbek language”, A.Isayev conducted a broad study of somatic expressions [5]. This dissertation is devoted to study of somatic phraseological units in diachronic and synchronic features. He focuses on distinguishing similarities and differences and the comparison of somatic expressions of Uzbek language with somatisms in Kyrgyz, Tatar, Turkish and Turkmen languages.

Lingua-pragmatics

Using the method of observation and content analysis, we have found that lingua pragmatics studies association between social norms and language, as incorporate in language forms that it is neither completely social nor linguistic. Hence, to follow social laws of a certain culture and communicate independently as well as successfully with its representatives, the study of being *socio-pragmatics* – knowing theoretically how the people of that culture think and behave in harmony with social values, nor to assimilate the linguistic code and its rules related to that community language, the study of being *pragma-linguistics*, are not enough. In that situation of language in use, lingua pragmatics, learning the linguistic issues related to social events with social norms, is relevant.

The forms which are the stable linguistic formulae that have fixed pragmatic values in the relevant context in the social reality of actual verbal communication, studied under lingua pragmatics [15].

Lingua-pragmatics is linked with other branches such as semantics, stylistics, rhetoric and communicative syntax, theory of discourse and partly psycholinguistics as well as sociolinguistics. The aim of the speaker and speaker's attitude is studied by lingua-pragmatics. Moreover, it studies theory of speech acts, aim of speech and kinds of speech acts, rules of having conversation, significances of speech etiquette, unclear opinion, satire, reported speech acts and discourse questions.

In brief, lingua pragmatics includes context of the word or sentences that are used in oral communication. Next, I will continue to highlight what is phraseological units as well as their types.

Phraseological units

Using the method of comparison and observation, some data are found that phraseology is a branch of linguistics that studies fixed expressions and it includes idioms, phrasal verbs as well as other types of lexical units. The main unit of phraseology is often called as phrasemes or phraseological units. Phraseological units are called “idioms” by English and American linguistics and the former linguist was critic Logan Pearsall Smith with his work “Words and idioms, studies in the English language” [16].

The origin of the word “idiom” is Latin which meaning suggests “a peculiarity in language”. In accordance with Merriam-Webster Dictionary [2], an idiom is considered as “an expression in the usage of a language that is peculiar to itself either in having a meaning that cannot be derived from the conjoined meanings of its elements (such as *up in air for “undecided”* or in its grammatically atypical use of words (such as *give away*).

According to Professor Kunin A.V. phraseological units are set of expressions with completely transferred meanings [6].

Phraseological units can be classified commensurate with the degree of idiomatic meaning of severe groups. Academician V.V. Vinogradov divided them into follows [22]:

1. Phraseological fusions – (also called idioms) are combination of words that their meanings are not influenced by their components such as “Kick the bucket” – die, “Red tape” – bureaucratic methods and so on.
2. Phraseological unities – are word-groups which is the meaning are understood from the parts of unit including “To add oil to the fire” - to make things worse and like.

3. Phraseological collocations – are clear and independent expressions that the meaning are understandable from the components like crystal clear, strong tea and nuclear family.

From the classification of Professor A.I. Smirnitsky phraseological units are highly idiomatic stable word combinations functioning as word equivalents as well as identified by their semantic and grammatical unity [17]. So that, three classes of stereotyped phrases were suggested by him:

- 1) Traditional phrases: nice distinction, rough sketch
- 2) Phraseological combinations: to make an attempt, to offer an apology
- 3) Idioms: Once in a blue moon

However, in Uzbek, phraseological units (contributors of the development of this field are A.Isaev, O.Nazarov, Sh.Usmonova, Sh.Nazirova, H.Alimova) are one branch of lexicology that studies followings which are mostly used in written and oral form:

- Phraseological units
- Proverbs
- Aphorisms

And finally, I would like to raise briefly the issue of somatics and its usage, meaning and other sides in linguistics.

Somatics

Generally, the term *somatica* is mainly used in biology and medicine that refers to human body. However, from the middle of 20th century, this term was introduced by F. Wack in linguistics and it began to be used in this field [4]. According to Merriam-Webster dictionary, the definition of the word “somatic” is “affecting or relating to the body especially as distinguished from the germplasm” as well as somatic vocabulary contains from the components of human body and inner processes of it [2].

Somatics involves parts of body that face parts (teeth, tongue, eyebrows, eyelids, ears, eyes, eyelashes, mouth, etc.) and other parts in the human body embodied hands (fingers, palms, nails, wrists, armpits, elbows and others), legs, shoulders, internal organs (heart, lungs, liver, abdomen and so on) which are used in phraseological units. “The mouth is in the ear head”, “Snatches to the sky”, “Trade drop per head” can be examples of somatic phraseological units.

The use of somatic expressions shows people how to know the world and their personal qualities through themselves and their body parts.

The human organs can be classified in various ways and identified into groups according to different features: for instance, eyes, ears and nose are organs that receive information from the outside in contrary to stomach, shoulders and leg.

Blood – mainly used for referring to people’s position, status, background and feelings. For example, the meaning of “new blood”, “young blood”, “fresh blood” are new members admitted to a group, especially as an invigorating force; “blue blood” means a person of noble birth; “bad blood” indicate anger or a bad relationship due to past problems with someone.

In J.K.Rowling’s book, “Harry Potter and the Chamber of Secrets”, used the terms “mud blood” or “muggle-born” – a highly offensive term implying that the individual had dirty and inferior blood especially used for someone with non-magic parents; “pure blood” – wizards who has not any “mud blood” or “muggle-born” in their family three:

Hermione: "It means "dirty blood." Mud blood is a foul name for someone who's Muggle-born. Someone with non-magic parents. Someone like me. It's not a term one usually hears in civilized conversation"[12].

Beard – the meaning of beard in phraseological units are boasting as well as doing something secretly: *Laugh in the beard* - laugh secretly; *Hares may pull dead lions by the beard* – when a strong person loses his power, even the weakest can take advantage and gain from his weakening.

Moreover, in "Harry Potter and the Half-blood Prince" by J.K.Rowling, used a phrase "*Merlin's beard*" in order to show a surprise feeling:

"Merlin's beard, Harry, you made me jump,' said Slughorn [14].

Heart – a concept that is closely connected with the inner world of human to express emotions, mood, character, feelings, for instance, "*take heart*" – to begin feel better and more confident; "*wears his heart on his sleeve*" – showing your feeling and emotions rather than hiding; "*Eat Your Heart Out*" - to be jealous or envious of someone else.

In the Beedle the Bard story The Warlock's Hairy Heart, in which a wizard cuts out his heart and seals it away in a crystal box, causing it to grow hair, used the idiom "*To have a hairy heart*" that is similar to the Muggle idiom "to have a heart of stone", meaning to be cold, cruel and unfeeling.

Heart associated with the concept of love and positive qualities of a human: *to have a heart of gold* or *a big heart* – to be kind and generous; *to open one's heart to* – to talk very open and about one's feelings; *to break one's heart* – to make someone to feel sorrow, to cause to destroy one's love.

Head – it is denotes wariness and absentminded. For instance: *to lose one's head* – loosing self-control, *to bury one's head in the sand* – to ignore the reality of situation.

Additionally, it refers to self-congratulation or underestimate somebody: *to carry one's head high* – to be confident and proud; *to wash one's head* - to have one's head turned downward because of shame or embarrassment.

Also, it is used for reflecting that one is unable to understand something (or someone) mainly because it is puzzling or unclear – "*can't make head or tail of*":

"But what I can't make head or tail of, Mr. Holmes, is how on earth you got yourself mixed up in the matter." [3]

Teeth – generally, phraseological units with teeth component is utilized in order to demonstrate difficulties while doing something or achieved success:

By the skin of one's teeth – to manage to do something or success in doing it but with almost fail;

Grit your teeth – to do something in spite of difficulties involved;

Like pulling teeth – very difficult to obtain information from someone;

Teething problems – encountered difficulties while doing projects and activities during initial stage;

The other meaning of it is symbolizes aggressiveness and defensive power: *to show one's teeth* – to become threatening or hostile and demonstrate or utilize someone's power in an intimidating way; *armed to the teeth* – to carry many weapons.

In ancient Mesopotamian culture is used Hammurabi's code "*An eye for an eye, and a tooth for a tooth*" was the idea of written laws that refers to make justice and destroy the wicked

people and the evil-doer in order not to injure the weak. This phrase represents justice depending on revenge.

Furthermore, it denotes age of human: *long in the tooth* – means that somebody is getting old or you think they are too old to be doing something.

As well as, in English has a phrase “*sweet tooth*” refers to people who is a great liking for sweet-tasting foods.

Tongue – evidently, “tongue” is main organ used for speaking, communication and so on so that most of “tongue” phrase and idioms indicate some complexity in speech or being silent at all or express ideas differently:

Bite your tongue and hold your tongue – to stay silent and saying nothing;

Get your tongue round something – being able to pronounce a difficult word or phrase;

On the tip of your tongue – difficulty to find a word or others that you already know;

Moreover, in the novel “The Tale of the second Alpha”, Heroof Bergen used an idiom “*Dragon caught your tongue*” (*cat caught your tongue*) means asking someone why someone is not saying anything:

“*What is it Zulu, has a dragon caught your tongue?*” – *Chrysalis said mocking her most trusted lieutenant.*

Nose is a small organ on the face and the only one that protrudes. Its first meaning is the designation of proximity, often associated with obtaining information. For example, *not to see beyond the end of one’s nose* – to think only about yourself and your needs rather than other people; *to stole something under one’s nose* – used for something bad that occurs in an obvious way but in a way that you do not notice or cannot prevent

The next symbolism of the nose is an unhealthy curiosity, vices:

To stick / poke one’s nose into other people’s affairs – to get involved in or want information about (something that does not concern one)

It can be also noted the following meanings:

Nose out of joint – something that offends, annoys or upsets you;

Keep your nose clean – a person who behaves well and avoids trouble;

Keep nose to the grindstone – a person who concentrates on working or studying hard.

To look down one’s nose at somebody / with one’s nose in the air – thinking oneself is better than others and does not want to speak to them.

Ear - is an organ that perceives data from the outside (only not visual). Mostly phraseological units associated with this body part are used to denote the ability to recognize and listen to: *to be all ears* – to be listening carefully; *it went in at one ear and out at the other* – to be heard and quickly forget it.

It is interesting that ears are associated with the desire to find out:

To pick up somebody’s ears – to listen attentively

Ears are also a symbol of reflecting something extreme:

To be over head and ears in love – completely in love with another person;

To be up to the ear in work – to have a lot of work to do.

Generally, not all somatic phraseological units are used the same in all languages in order to express or define something. The meaning of phraseological units in translation is either by the already existed equivalents or by means of some other methods because of lacking of the analogous equivalents in the target language (Uzbek). The first of them can be

represented by the idioms that completely coincide in both languages, have one and the same meaning, one and the same stylistic shades and inner form. For instance, some phraseological units in both English and Uzbek languages are suitable in meaning and usage:

On the tip of the tongue – tilning uchida turmoq is used to describe the situation which you know something but cannot remember it in both languages.

In Uzbek, “heart” denote to two expressions such as “yurak” and “ko’ngil” so that in this language has more phraseological units with component of heart than in English.

Phraseological units with the somatic element of “heart” has not identical translation but similar meaning: *“To have a hairy heart”* is translated in Uzbek as “Tosh ko’ngilli” or “Tosh bag’ir” as well as *“to have a soft heart”* can be like *“ochiq ko’ngil”* and *“yuragida kiri yuq”*: *“U kambag’al oilada tug’ilib o’sgan, ochiq ko’ngil bir o’smir bo’lib, Xolmuroddan to’rt yoshgina kichik edi”* (P.Tursun, “O’qituvchi”).

While in English heart component can stand for love and positive manners of people, in Uzbek it has following meaning too:

“Yuragiga vahima solmoq” – kuchli darajada qo’rqish hissini uyg’otmoq (to increase one’s fear): *“Go’daklik chog’ida har kimning ko’ngliga bir vahima solib, keyin sekin-asta unutilib ketadigan bu daxshatli afsonani Xolmurod ham unutilib yuborgan bo’lar edi”* (P.Tursun, “O’qituvchi”);

“Yuragiga qil sig’madi” – juda qattiq tajang bo’lib, ruhan ezilib, hech narsa bilan mashg’ul bo’la olmaslik, hech narsa yoqmaslik (do not want to do anything because of spiritual suffer): *“Umrini halol, begunoh o’tkazgan yigitning hozir ko’ngliga qil sig’madi”* (Said Ahmad, “Hukm”);

“Yuragini yormoq” – qattiq cho’chitib qo’rqitmoq (to scare): *“Hay bu nimasi Tursunoy? Bolaning yuragini yorasiz-a aylanay”* (M.Ismoilij, “Farg’ona tong otguncha”) and so on [13].

Some somatic phrases with the component of “teeth” are alike in Uzbek and English. For example: *“armed to the teeth”* has the similar meaning in Uzbek as *“Tish-tirnog’igacha qurollangan”*. But, this Uzbek phrase can be used also with other words *“tish tirnog’i bilan...”* besides “armed” (qurollangan) that means *“qat’iyat bilan, butun imkoniyat bilan”* (emphatically, with the whole possibility): *“Tish tirnog’im bilan shu yerda, shu bolalarning sevgan o’qituvchisi bo’lib qolishga tirishaman”* (P.Tursun, “O’qituvchi”). As it is clear from the sentence, the phrase is used with another word “try” that emphasizes “trying hard”.

The meaning of **“teeth”** idioms in English are hardship and fortune while in Uzbek they denote to endurance and cannot doing something or failure. For example: *“Tishini tishiga qo’ymoq”* – *butun his-tuyg’usini iroda kuchi bilan yengib chidamoq* (to persist in doing something): *“Tishimni tishimga bosib, mushtimni tugdim”* (O.Yoqubov, “Muqaddas”); and *“Tishi o’tmaydi”- yenga olmaslik, o’zlashtira olmaslik, qila olmaslik* (is not able to do something or frustration): *“Tishingiz o’tmaydi, oqsoqol! – kinoyali jilmaydi Suvonjon. – Kolxozning moli!”* (S.Anorboyev, “Oqsoy”).

Furthermore, the phrase *“An eye for an eye, and a tooth for a tooth”* in Uzbek is utilized with other somatic elements such as “blood” and “soul” but the identical connotation: *“Qonga qon, jonga jon bilan”*.

In Uzbek language has also proverbs related to the teeth such as *“tilingni tiy tishing sinmasin”*, *“olovning tishi yo’q, ho’l-quruq bilan ishi yo’q”* and *“til — balo, tish — qal’a”*. The meaning of first proverb (*“tilingni tiy tishing sinmasin”*) is about relationship between people that not to be a talkative one and not being ashamed in front of people, always be serious as

well as from it you can gain much attention and respect. The second saying (*“olovning tishi yo‘q, ho‘l-quruq bilan ishi yo‘q”*) means there is no any teeth in flame to bite, but it can destroy everything that encountered on the its way, while connotation of the third proverb (*“til — balo, tish — qal‘a”*) is that tongue can bring misfortune and trouble if one uses it in a bad way as well as in order to defend from any problem human has teeth, not to say much unnecessary things.

The next one, includes idioms having no equivalents in the language of translation and meaning. To transfer their meanings into any other language one should use another variant of somatic idioms or word. For example, while “blood” idiomatic phrases mean status or position in English, in Uzbek it refers to feeling of person: *“qonini qaynatmoq” – achchiqlantirmoq (to embitter): “Raising qo‘pol e‘tirozlarini eshitib turgan Bekbo‘ta, qoni qaynab ketdi shekilli, o‘zini tutolmay keskin gapirdi (Sh. Rashidov);*

“Qon yutmoq” – ich ichidan kuchli darajada ruhan azoblanmoq (spiritual suffering): “Oltiyetti yildan beri qovushtirolmay qon yutib kelayotganimizni nainki muttaham mingboshi bilan go‘rso‘xta qozi bilmaydi?” (M.Ismoiliy, “Farg‘ona tong otguncha”).

In Uzbek, to express status or high position, most people use compound adjective with “bone” (oqsuyak): *“Xo‘jalar ilgaridan “biz arab avlodimiz, oqsuyakmiz”, deb o‘zlarini baland tutib keladi” (P. Tursun, “O‘qituvchi”).*

Idiomatic phrases and phraseological units with the component of “tongue” are the same in both English and Uzbek languages that denote to communication, speaking as well as cause of it. For instance, Uzbek phrase such as *“tilga kirmoq” – gapirish qobiliyatining tiklanishi (restoration of the ability to speak), “tili bir qarich” – maqtanishga, gapirishga usta bo‘lmoq (to be a master of speaking) and “tilini qismoq” – gapirmaslikka, e‘tiroz bildirmaslikka majbur qilmoq (to force not to speak, not to protest).*

Moreover, *“bite the tongue” or “hold the tongue”* has the same meaning in comparison in Uzbek like *“tilini tishlamoq”*.

As well as, in Uzbek, available the phrase *“til biriktirmoq” – yashirin holda kelishib olmoq (to negotiate secretly) which is not related to communication or being silence:*

“Hilola bilan sen til biriktirmay, men til biriktiribmanmi? (I.Rahim, “Hilola”) [13]

Also, a great Uzbek poet, a representative of the Uzbek literature, Alisher Navoi used so many sayings related to tongue and its effects to person: *“Til – shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma‘qul bo‘lib chiqsa – tilning ofatidir”, “tilga ixtiyorsiz – elga e‘tiborsiz”, “til shirinligi – ko‘ngilga yoqimlidir; mulloyimligi esa – foydali” and so on.*

Contrary, English phraseological unit *“Get your tongue round something”* has no exact alternative in Uzbek, but there an antonym form is available as *“Tili aylanmay qoldi”* that refer to are not able to say anything.

Some phraseological units with “nose” somatic element in Uzbek are different in meaning to compare to English language, but there are some idioms alike in meaning in both of languages: *To look down one’s nose at somebody / with one’s nose in the air – burni ko‘tarildi; to stole something under one’s nose – burnining tagidan olib qochmoq/ketmoq.*

To stick / poke one’s nose into other people’s affairs – birovning ishiga burun suqmoq.

These both idioms are utilized in the same way in order to reflect the bad behavior of humans that always interferes others’ job to get information (especially is not related to themselves).

In Uzbek, additionally has following meaning:

“Burnini yerga ishqamoq” – qattiq jazolamoq (to punish severely): “Qaysi tog‘- tosh kovagiga berkinsa ham, topib olib, burnini yerga ishqaymiz, Sotvoldining o‘chini olmay qo‘ymaymiz!” (P.Tursun, “O‘qituvchi”) [13].

Conversely, some English phraseological units is used with other somatic elements in Uzbek. For example, *Keep nose to the grindstone* in Uzbek is utilized with “head” component as well as it is used not only to describe being busy with work or education but also with distress, condition and others: “*Boshi chiqmadi*” – *xalos bo‘lmaslik, qutulmaslik* (not get rid of): “*Ahvolimiz juda og‘ir, - dedi oldindagi dehqon dadil va keskin, - har xil jarimalar, soliqlardan boshimiz chiqmaydi*” (Oybek, “Nur qidirib”)

Meaning of all phrases in English and Uzbek with “ear” component are identical and mostly is used for referring to listen. The same meaning phraseological units with the part of “ear” in both English and Uzbek languages:

To pick up somebody’s ears – Quloq bermoq/solmoq

It went in at one ear and out at the other – Bir qulog‘idan kirib ikkinchisidan chiqmoq

But, some of them are utilized with other somatic elements. For example, this idiom “*To be over head and ears in love*” in Uzbek is used with “vujud”: “*Butun vujudi bilan sevmoq*” as well as “*To be up to the ear in work*” is utilized with “head”: “*Boshi bilan sho‘ng‘ib ketmoq*”.

Like English, in Uzbek language has few “beard” part of phraseological units and their meaning, also, not suitable. While in English, it means doing something secretly and feeling of surprise, in Uzbek it denotes to elder age and grow old:

“*Xotining yaxshi bo‘lsa, yoqang oqarar, Xotining yomon bo‘lsa, soqoling oqarar*” [9]. means the relationship between family can effect on one’s appearance. If they live happily and with good manners, they will be seen younger. Conversely, if they live with bad manners and habits, it will be vice versa.

Moreover, in Uzbek it can refer to beauty of young men: “*Bozorga — baqqol, Yigitga — soqol.*” The connotation of this proverb is that the beauty of men is beard and beauty of market is a salesman.

Head – is one of the frequent element of somatics in phraseological units. Mostly, in English, idioms and phrases with “head” component often denote to forgetfulness and anxiousness, while in Uzbek, it refers to different upcoming meanings:

“*Boshdan oyoq*” – *to‘la-to‘kis, bus-butun* (entirely, totally): “*Gazeta boshdan oyoq intizomni yaxshilashga qaratilgan edi*” (P.Qodirov, “Uch ildiz”);

“*Boshiga yetmoq*” – *yo‘q qilmoq, halok qilmoq* (to kill, to destroy): “*Tug‘ilishi bilan onasining boshiga yetgan bola endi mening boshimga yetmoqchi*” (R.Fayziy, “Yodgor”);

“*Boshiga urmoq*” – *kerak emas* (unnecessary): “*Boshqa qizni yaxshi ko‘rgandan keyin, sening qizingni boshiga uradimi?*” (S.Zunnunova, “Ko‘ngil”);

“*Boshida yong‘oq chaqmoq*” – *ortiq darajada azoblamoq, qiynamoq* (to torture severely): “*Ahir u har kun yangi bir dardisar ishni o‘ylab chiqaradi. Yana har kimning boshida yong‘oq chaqmoqchi bo‘ladi*” (Oybek, “Oltin vodiyan shabadalar”) and other so many connotations existed.

In both languages have some phrases and idioms that are similar meanings such as “to lose one’s head” – “*boshi aylanmoq*”, “to carry one’s head high” – “*boshini baland tutmoq*” and others.

Furthermore, a few phraseological units in Uzbek and English are similar in structure and meaning. (Table 1).

Table 1

Somatic phraseological units that are the same structure and meaning in English and Uzbek	
Armed to the teeth	Tish-tirnog'igacha qurollangan
On the tip of the tongue	Tilning uchida turmoq
Bite the tongue	Tilini tishlamoq
To stole something under one's nose	Burnining tagidan olib qochmoq
To stick / poke one's nose into other people's affairs	Birovning ishiga burun suqmoq
It went in at one ear and out at the other	Bir qulog'idan kirib ikkinchisidan chiqmoq
To carry one's head high	Boshni baland tutmoq

Conclusion. Phraseology is very demanding branch of linguistics because without it people cannot demonstrate their feelings, emotions and moods in their words. As mentioned above, phraseological units are not translated directly and they have metonymic transference. In every language exists somatic phraseological units and they have diverse connotative symbolic meanings. But, in each language they are used differently as well as one part of the somatic idioms and phrases can be utilized with other element of part of the body. All connotations of lexical words related to somatism cannot give proper meaning so that, phraseological units with the element of somatics may not have the same semantic meaning in all languages.

The comparison of somatic phraseological units in English and Uzbek reveals similarities and differences between the two languages. For example, both languages have expressions that use body parts to express emotions. However, the specific body parts used may differ.

However, this paper helps to improve awareness of not only unities and diversities of phraseological units of two languages but also the role of phraseology in both languages. Therefore, using somatic phraseological units in communication plays an important role in humans' social life as well as it cannot be ignored because of their powerful influence.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Abdullayeva D. S. et al. The study of phraseological units under the heading of linguopragmatics //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 12. – 687 pp.
2. Dictionary M. W. Merriam-webster //On-line at <http://www.mw.com/home.htm.-2002.-T.8.-№.2>.
3. Doyle A. C. The Adventure of the Red Circle. – Good Press, 2019. 11 pp.
4. Gorodetskaya I. E. The somatic component of phraseological units of the Russian and French language //Bulletin of Stavropol State University. Stavropol: Stavropol State University Press (in Russ.). – 2007. – 692 pp.
5. Isayev A. Somatic phraseological expressions of Uzbek language: Dissertation.ph. Philological sciences.. -Tashkent, 1976. – 196 pp.
6. Komissarov V. N. Modern theory of translation //A study book. Moscow: Moscow State Univ. – 2004. – 424 pp.
7. Kunin A. V. Phraseology of modern English //Moscow: Mejdunarodniye otnosheniya. – 1972. – 288 pp.

8. Mamatov A. E. Problems of lexical and phraseological norms in modern Uzbek literary language //T.: Teacher. – 1991. – 314 pp.
9. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari //T.: Sharq. – 2005. – 508 pp.
10. Mordkovich E. M. Belorusskaya somaticheskaya frazeologiya: avtoref. dis.... kand. filol. nauk: 10.02. 02–yazyki narodov Rossiiskoi Federatsii (belorusskii yazyk)/Mordkovich Engelina Mikhailovna. – 1971. – 35 pp.
11. Nikulina E. English phraseology: integration with terminology science //Journal of language and education. – 2015. – T. 1. – №. 2. – 396 pp.
12. Potter R. J. K. H. the Chamber of Secrets //London: Bloomsbury. – 1998.– 294 pp.
13. Rahmatullaev S. O ‘zbek tilining izohli frazeologik lug ‘ati //Toshkent: O ‘qituvchi. – 1978. – 405 pp.
14. Rowling J. K. Harry Potter and the half-blood prince. – Bloomsbury publishing, 2014. – 652 pp.
15. Sh S. Cognitive linguistics //Jizzakh: Sangzor. – 2006. – 84 pp.
16. Shammass N. A. Pragmatic Failure: Misunderstanding in Verbal Communication Between Speakers of Arabic and English //Unpublished PhD Thesis, Loughborough University, England. – 1995. – 660 pp.
17. Smirnitsky A.I. (2007). Lexicology of the English language. - M .: Pedagogika. – 255 pp.
18. Smith L. P. English idioms. – Clarendon Press, 1923. – №. 12. 299 pp.
19. Sperber D., Wilson D. Relevance: Communication and cognition. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 1986. – 326 pp.
20. Yuldashev B. Formation and development of Uzbek phraseology and phraseography. - Samarkand: SamSU, 2013. – 162 pp.
21. Виноградов В. В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. - Москва 1977. – 307 pp.
22. Ходжумян Белла Суреновна. Соматические фразеологизмы. // Ереван: Издательство егу – 2019. – 369 pp.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

GENRE CHARACTERISTICS OF SOME SERIES OF POEMS IN THE LITERARY ENVIRONMENT OF KOQAN DURING THE NATIONAL RENAISSANCE PERIOD

Sayfiddinova Gulnoza,
ToshDO'TAU main doctoral student
E-mail: mehrsabriya@gmail.com

Abstract. This article discusses the genre features of some series of poems created in the Kokan literary environment of the national renaissance period. A series of poems by poets who created in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century were analyzed. Comments are made about the genre characteristics of poems written in a literary environment.

Keywords: national awakening, literary atmosphere, series of poems, genre, ghazal, murabba, mukhammas, musaddas, fard, tuyuq, rubai, poetry.

MILLIY UYG'ONISH DAVRI QO'QON ADABIY MUHITIDAGI AYRIM TURKUM SHE'RLARNING JANRIY XUSUSIYATLARI

Sayfiddinova Gulnoza,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy uyg'onish davri Qo'qon adabiy muhitida yaratilgan ayrim turkum she'rlarning janriy xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida ijod qilgan shoirlarning turkum she'rlari tahlilga tortilgan. Adabiy muhitda yozilgan she'rlarning janriy xususiyati haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: milliy uyg'onish, adabiy muhit, turkum she'rlar, janr, g'azal, murabba, muxammas, musaddas, fard, tuyuq, ruboiy, she'riyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N49>

Kirish. Janr adabiyotning ajralmas bir bo'lagidir. Bu atama xususida Baxtin quyidagicha fikrga keladi: "Janr adabiyot rivojida har bir bosqichda va shu janrga xos asarda qayta tug'ilib yangilanadi. Janr bugungi kun bilan yashaydi, ammo ibtidosini o'tmishini esida tutadi. U adabiyot rivoji jarayonida ijodiy xotiraning vakilidir. Shu bois janr adabiyot taraqqiyotidagi yaxlitlik va uzviylikni ta'minlashga qodir" [2.] Bizga ma'lumki janr tarixiy kategoriya sifatida qaysi davr adabiyotida bo'lmasin, har bir yozuvchi asarida adabiy jarayon bilan uzviy bog'langan holda, o'zining avvalgi xususiyatlarini saqlab qolgan holda mazmunan yangilanadi. Shu sababli ham ma'lum bir janr namunalarini tadqiq etish adabiyotimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolaveradi. Ma'rifatparvarlik davrida asosan she'riyat yetakchilik qildi. Keyingi davrlarda yaratilgan dramatik asarlar va badiiy proza bu davr adabiyotida uchramaydi.

Hayot hodisalarini boricha tasvirlab bergan, adabiyotda yangi bir davrning yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan shoirlarning yangi mazmundagi she'rlari xalq orasida keng yoyiladi va hammaga tushunarli sodda va ravon tilda bitilgan asarlar tez fursatda kishilarning qalbidan joy oladi.

Adabiyotlar tahlili. Davr o'zgarishi bilan har bir sohada yangilanishlar yuzaga keladi. U qaysi davr bo'lmasin, qaysidir xususiyati bilan boshqa davrlardan ajralib turadi. Adabiy davrlarga ham xuddi shu ta'rifni qo'llash mumkin. Sababi har bir adabiy davrni boshqalardan ajratib turuvchi alohida bir jihati mavjudki, adabiyotshunos olimlar tomonidan bu hodisalar hali hanuz tadqiq etib kelinmoqda. Biz o'rganayotgan milliy uyg'onish davri Qo'qon adabiy muhitidagi o'ziga xosliklar olimlar tomonidan atroflicha talqin etilgan. Xususan G'. Karimovning XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarigacha bo'lgan adabiy davrni o'zida aks ettirgan "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobida demokratik adabiyotda yuzaga kelgan adabiyotning janrlari va ularning badiiy xususiyatlariga qisqacha to'xtalgan. Xalqqa yaqin bo'lgan yangi uslubning paydo bo'lganligi va ana shu yangi uslub fikrning ravshan va aniqligi, tilining soda ekanligi, she'riyatdagi badiiy tasvir vositalarining o'ziga xosligi, muhimi hayotiyli bilan ajralib turishi xususida fikrlarni bildirib o'tgan[1,58]. Qo'qon adabiy muhiti davri yoritilgan Po'latjon domla Qayyumiyning "Tazkirayi Qayyumiy" asari ham ijodkorlar haqidagi qimmatli ma'lumotlardan tashqari, bu shoirlarning qaysi janrlarda qalam tebratgani hamda ularning adabiy jarayondagi ahamiyatiga to'xtalib o'tadi. Bunga misol qilib, Furqatning "Fasli navbahor o'ldi..." deb boshlanuvchi g'azali, Muqimiy "Sayohatnoma"si, Zavqiyning satira va yumorga boy bo'lgan asarlari, Zoriy, Muhyi kabi ijodkorlarning g'azal hamda muxammaslarini keltirish mumkin. Xalqqa tushunarli bo'lgan va aniqlikka asoslangan badiiy shakl shu tariqa maydonga keldi. Turkiy tilimiz asoschisi, g'azal mulking sultoni, buyuk Alisher Navoiy "surati har qanday bo'lsa ham, nazmda ma'noning birinchi o'rinda bo'lishi"ni biz uning yetuk asarlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Bu davr adabiyotida ham xuddi ulug' Navoiy ta'kidlaganidek mazmunga alohida urg'u berildi. B. Valixo'jayevning "Adabiyotshunoslik tarixi" kitobida ham Muqimiyning badiiy ijod haqidagi qarashlariga qisqacha to'xtalib, shunday xulosalarni bildirib o'tadi "Muqimiy o'tmish adabiyotshunosligi va adabiy- tanqidiy badiiy ijodda shakl va mazmun hamda mazmunning ustunligi masalasiga diqqatni qaratib, shularga asosan hayotni tasvirlash usuli to'g'risida so'z yuritadi"[3,124] Keyingi davr adabiy-tanqidiy qarashlar ham shu aqidalarga asoslanganligini ham alohida ta'kidlab o'tgan. Darhaqiqat biz tadqiq etayotgan davrdagi turkum she'rlar ham turli janr, shakllarda yaratilgan bo'lsa-da, ulardagi mazmun bir-biriga yaqindir. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, mazmun jihatidan yaqin bo'lgan she'rlarga, bir turkum doirasida yozilgan she'rlar deya baho berishimiz mumkin bo'ladi.

Adabiyotshunos G'.Karimov bu davr shoirlari ko'proq she'riyatning kichik turlarida asarlar yozganligi haqida to'xtalib, buning o'ziga xos tarixiy sabablari bo'lganligini, ulardan eng muhimi mumtoz adabiyotimizda she'riyatga alohida urg'u berilganligida deb biladi. Shuning uchun ham ma'rifatparvar shoirlar uchun ayni sohadagi an'analarni davom ettirish qulay bo'lganligi haqida yozadi. Lekin bizga ma'lumki, bu davr ijodkorlari adabiyotshunoslikda yangi janrlarni ham yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Muqimiyning sayohatnoma janriga asos solgani, maktub janrining shakliy va mazmuniy jihatdan yangilanganligi buning yorqin dalilidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada milliy uyg'onish davri Qo'qon adabiy muhitida maydonga kelgan turkum she'rlarning janr xususiyatlari muhokama qilinadi. Milliy uyg'onish

davrida yangilangan janrlar, ularning kelib chiqishi va turkum she'rlarning janrlari xususida so'z boradi. Oliy ta'limda janrlar nazariyasi tahlillar yordamida asoslandi.

Tahlillar va natijalar. Davr qalamkashlari she'riyatning g'azal, muxammas(beshlik), murabba(to'rtlik), musaddas(oltilik), fard, tuyuq va ruboiy(qisaman) janrlarida barakali ijod qildilar. Shu asnosida mumtoz janr an'alarini davom ettirdilar. Adabiyotshunos A. Hayitmetov to'g'ri ta'kidlaganidek: "Har qanday adabiy janr o'zida ilgarigi qalamkashlarni adabiy tajribasini to'plagan bo'lib, janr sohasidagi bu tajribadan har qanday ijodkor o'z qobiliyati va maqsadidan kelib chiqib o'zicha foydalana oladi"[4,34]. Bu xususida tadqiqotchi D. Abdullayeva o'zining "Usmonxo'ja Zoriy hayoti va ijodi" nomli dissertatsiyasida quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "XIX asr ikkinchi yarmidagi adabiy hayotda badiiy shakl va mazmun taraqqiyot yo'lidan bordi, o'tmish adabiyot an'analari o'ziga xos davom ettirildi. Adabiy turlardan lirikaning g'azal, muxammas, musaddas, ruboiy, murabba janrlari yetakchilik qildi. Mumtoz she'riyatimiz shakllaridan foydalangan shoirlar bu janrlar mazmuni, xarakteri vazifasini o'zgartirib bordilar"[5]. Shu asnosida she'riyatning vazn, qofiya va badiiy tasvir vositalaridan ham unumli foydalanib kelganlar. Va bu shakllarning yanada takomillashuviga hissa qo'shganlar. Bu davr she'riyatidagi yana bir muhim jihat shundan iboratki, she'riy turlarning shakli saqlanib qolgan bo'lsa-da, Muqimiy, Furqat, Zavqiy asarlaridagi mazmun, uning asosi, mohiyati yangilanishga uchragan edi. Avvalgi davrlarda yaratilgan g'azallar bilan ma'rifatparvarlik davridagi g'azallar garchi shakl jihatidan(vazn, qofiya,radif) bir-biriga o'xshab ketsa-da, bu she'rlarning mavzu ko'lami, ularda ifodalanayotgan asosiy g'oya tamoman yangicha qarashlarga boy edi. Shuning uchun ham alohida ta'kidlashimiz mumkinki, jadidchilik davri adabiyotining tamal toshi XIX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan shoirlar tomonidan o'rnatilgan. Hanuzgacha oliy o'quv yurti talabalari uchun muhim darslik vazifasini bajarib kelayotgan, mustaqillik davrlarida yaratilgan "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" kitobida Professor B. Qosimov bu xususida quyidagicha fikrlarni bildiradi: "Milliy uyg'onish, millatning o'zligini anglash jarayoni mazkur adabiyotning ruhi va mazmunini tashkil qildi. Buni adabiyotshunoslik o'tgan asrning 20-yillaridayoq e'tirof etgan edi"[6,3]. Adabiy janrlarning safiga yangi bir janr kelib qo'shildiki, bu janr "Sayohatnoma" janri bo'lib, uning asoschisi Muhammad Aminxo'ja Muqimiydir. Muqimiy ijodi juda ko'p ijodkorlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, professor Q. Pardayev o'zining doktorlik dissertatsiyasida Muqimiy tomonidan yaratilgan turli janrlarga oid bo'lgan she'rlar, hamda shu bilan birgalikda, sayohatnoma janrining to'liq variantini birinchi marta ilm ahliga taqdim qildi. Biz tahlillarimizda asosan shu dissertatsiyada ilova qilib berilgan shoir ijodining yangi topilgan va matnini qayta tiklashga muvaffaq bo'lingan manbalariga to'xtaldik. G'azal va Muxammas janrlarida yozilgan she'rlari yangi matn tadqiqi orqali aniqlangan bo'lib, ulardagi mazmun tahriri ham aniq manbalar asosida qayta ishlangan. Sayohatnomaning "Qo'qondan Farg'onaga", "Qo'qondan Shohimardonga", "Isfarasayohatidan" qismlaridagi ayrim misra va so'zlar tahrir qilingan. Shu tariqa bandler Muqimiy dastxat bayozining matni asosida qayta tiklangan[7]. Furqatning ham "Sayohatnoma" yozgani ma'lum bo'lib, lekin u haligacha topilmagan. Muqimiy "Sayohatnoma"si ta'sirida yozilgan Zavqiy "Sayohatnoma"larida o'zbek qishloqlarining ahvoli, holati, unda yashovchi oddiy dehqonlarning hayoti aks ettiriladi. Masalan, "Suv janjali", "Yangi Qo'rg'on qishlog'i" yoki "Shohimardon sayohati"("Shohimardon xotirasi") kabi qismlar shular jumlasidandir.

Bu ravzagakimki kelib,

Bir kechasi mehmon ekan.
 Umrida bir ko'rgan kishi,
 O'lganda bearmon ekan.
 Ikki tarafdin soy deng,
 Ko'm-ko'k musaffo choy deng,
 Har doim ichib hoy-hoy deng,
 Obi hayoti jon ekan.

Zavqiyning "Shohimardon xotirasi" deb nomlangan sayohatnomasida Shohimardon tabiatini chiroyli ta'riflaydi. Uning suvi obi hayot ekanligini, umrida bir bora ko'rgan insonning bu hayotdan bearmon o'tishi haqida yozadi. 1888-yilda yozilgan bu she'rda Zavqiy Shohimardonda ko'p turmaganligi haqida ma'lumot berib o'tgan:

Zavqiy kelib ko'p turmadi,
 Tursa rafiqlar qo'ymadi.
 Ayo nasiba bo'lmadi,
 Ehromi Uchqo'rg'on ekan.

Qo'qon shoirlari ijodida turkum she'rlar yozish an'anaga aylanganligini "Sayohatnoma" janri turkumidagi balki, ijtimoiy-siyosiy hayotda ro'y bergan hodisalar ham yoritilgan turli janrdagi she'rlar orqali ham bilishimiz mumkin. 1902-yil 16-dekabr (ramazon oyining 14-kuni seshanba) ertalab soat 10⁰⁰ da Andijonda ro'y bergan kuchli zilzila davrning yana bir muhim voqealardan biri bo'ldi. Shubhasiz yuz berayotgan voqealarga befarq bo'lmagan ijodkorlar zilzila haqida she'rlar yozishdi. Ro'y bergan tabiiy ofat davr shoirlarini, jumladan, Muqimiy, Muhyi, Furqat, Zoriy kabi xalq dardida yonib ijod qiladiganlarni albatta loqayd qoldirmadi. Masalan, Turkiston viloyatining gazetasida o'sha davrning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri sanalgan Muhyining "Ho'qandlik shoiri nomdor, sohibi iqtidor mavlono hoji Muhyi afandining Andijon shahri xususida dilso'zona bayotlari" sarlavhali o'n to'qqiz banddan iborat bo'lgan muxammasi bosilib chiqqan[8,N.3]. Qolaversa, Muqimiyning "Tarixi zilzilai Andijon" she'ri, o'sha davrning yirik vakillaridan yana biri Zoriyning "Voqelai Andijon" nomli muxammasi azob-uqubatta qolgan xalqqa bo'lgan xayrixohlik nashidasi bo'lib yangragan. Ulardagi hodisa taassurotlarini berish turlicha bo'lsa-da, mazmun voqeaning dahshatini to'liq aks ettiradi. Muqimiy va Zoriy muxammasidan olingan ushbu jumlar fikrimizni dalillaydi:

Qoldi tom ostida- bo'ldi necha mo'minlar halok,
 Dod etib pir-u juvon, gahvorada atfoli pok,
 Qiz ono o'g'li otoni furqatida dardnok,
 Dog'i farzandi bila ba'zi yuragi chok-chok,
 Bu musibatlar ko'pub, bag'ri erur qon Andijon(18a).

Zoriyning bu muxammasi o'n banddan iborat bo'lib, unda shoir chinakamiga Andijon uchun qayg'urganini ifoda qiladi. Shunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi Qo'qon adabiy muhiti qalamkashlarining Andijon zilzilasiga bag'ishlangan turli janrlarda yozilgan she'rlari maydonga keldi. Muqimiyning ham bu mavzuga bag'ishlangan "Tarixi zilzilai Andijon az Mavlono Muqimiy Xo'qandiy" sarlavhali, g'azal janrida yozilgan she'ri "Turkiston viloyati gazetasi"ning 1903-yil 22-aprel sonida bosilib chiqqan. Va bu she'r yigirma yetti baytni tashkil etgan. Professor Q. Pardayevning doktorlik dissertatsiyasida Muqimiyning bu she'ri matni sovet davridagi Muqimiy asarlar to'plamida o'n to'qqiz bayt holda nashr etilgani, sakkiz bayti tushirib qoldirilgani va adabiyotshunos R. Tojiboyevning "Adabiyot ko'zgusi" ilmiy

to'plamining 2004-yil 8-sonida e'lon qilingan "Tarixi zilzilai Andijon she'rining to'liq nusxasi" nomli maqolasida bu she'rning to'liq varianti berilganligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan[7,304]. Filologiya fanlari nomzodi Abdullatif Turdialiyev tomonidan nashrga tayyorlangan, Muqimiy she'rlari jamlangan "Bog' aro" to'plamida bu she'r to'liq holda kiritilgan[9,218]. Andijondagi kuchli zilzila haqidagi she'rlar muxammas va g'azal deb atalgan lirik janrlarda yozilganligi, bu she'rlarning badiiy qimmatini yana bir pog'onaga ko'taradi. Ma'lumki, har qanday lirik janrning bir-biridan farqli bo'lgan badiiy qonuniyatlari mavjud bo'lib, yozuvchi ana shu qonuniyatlarga bo'ysungan holda asar yaratadi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari, usullari va albatta yo'li mavjuddir. Professor Ibrohim Haqqul "Qit'a va g'azal muhokamasiga doir" maqolasida "Har bir lirik janr voqelikni, inson fikr va his-tuyg'ularini o'z badiiy ifoda usullari hamda xarakteriga mos tarzda tasvirlaydi. Shuning uchun ularni mohiyat e'tibori bilan biri ikkinchisiga uncha o'xshash bo'lmagan, o'z-o'zicha tugal bir san'at olami"[10,6-son] deya ta'kidlagan. Andijon zilzilasiga bag'ishlab yozilgan she'rlardagi ma'no va mazmun uyg'un bo'lib, faqat bu she'rlar ikki janr imkoniyati orqali o'zining badiiy talqiniga erishgan desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Chunki she'riy janrlar xilma-xilligi ulardagi mazmunga aslo ta'sir qilmagan. Shoirlar har ikki janrda ham o'zlarining bu voqeadan qattiq qayg'urganliklarini izhor qiladilar. Shu tariqa Andijon zilzilasiga bag'ishlangan turli janrlarda xalqqa taqdim qilingan turkum she'rlar yuzaga keldi. Bizga ma'lumki, mumtoz she'riyatimizda o'ziga xos tomonlari bilan boshqa janrlardan ajralib turuvchi "g'azal" shoirning butun salohiyatini ochiq ko'rsatib beruvchi asosiy janr hisoblangan. Klassik davr an'analarini munosib davom ettirgan shoirlar ijodida buning yaqqol misolini ko'rishimiz mumkin. Faqat juft misralarigina qofiyalanuvchi, birinchi baytini matla', oxirgi baytini maqta' deb ataluvchi, ko'p vaqt besh baytlidan o'n ikkinchi baytligacha yozilgan, har bayti nisbiy mustaqil, ayni holda hamma baytlari mantiqan va badiiyan bog'langan, oxirgi baytida taxallus keltiriladigan lirik janr g'azaldir[11,193]. Biz tadqiq etayotgan davrdagi har qaysi ijtimoiy-siyosiy ahvol shoirlar tomonidan yaratilgan barcha janrdagi she'rlarda o'z aksini topdi. Xususan, g'azalchilikda ham demokratik qarashlar o'z aksini topdi. Ezilgan, qiynalgan xalq hayoti yorqin bo'yoqlarda aks etdi. Samimiy satrlar shoir qalbining tub-tubidan to'kildi. Hayot haqiqatlarini baralla kuylagan demokratik adabiyotning yorqin vakillari o'zlarigacha bo'lgan adabiyotni chuqur egallashgan. G'azallarda tasvirlangan timsollarning yagona pozitsiyada ekanligi, shoir ichki "men"ining ifodaviyligi, lirik qahramon kechinmalarining inju ekanligi, davr ruhi va kelajakka ishonch yorqin misralarda ifodalanganligi bilan, qolaversa ilg'or bo'lgan rus madaniyatini targ'ib qilinganligi bilan boshqa davrda yaratilgan g'azallardan ajralib turdi. Muqimiy, Zavqiy, Muhyi, Zoriy, Furqat ijodidagi muxammaslar ham o'ziga xos bo'lgan bir janrdagi turkum she'rlar yaratilishiga asos bo'lgan. Muxammas(arab. **مخمس** beshlik degani) adabiyotshunoslikda, xususan, mumtoz adabiyotimizda keng qo'llangan she'riy shakllardan hisoblanadi. Muxammasning har bir misrasi besh banddan iborat bo'ladi va a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, v-v-v-v-a yoki a-a-a-a-a, b-b-b-a-a tarzida qofiyalanib keladi. Bu janr ijodkor uchun o'zining his-tuyg'ulari va kechinmalarini yanada chuqurroq va tushunarli ifodalashining bir vositasi hisoblangan.

Bo'ldimu ozod g'amidin, yo rab, olon Andijon, -a
 Mamlakatlar ichra erdi chunki, zarkon Andijon. -a
 Munday obod o'lmagandir hech davron Andijon, -a
 Nogahon qildi xudo yakbora farmon, Andijon, -a
 Amri haqdin ul zamon yer o'ldi davron Andijon. -a

Muxammas qoidasiga muvofiq 1-band a-a-a-a-a tarzida qofiyalangan. Badda olon-zarkon-davron-farmon-davron soʻzlari oʻzaro qofiyadosh boʻlib kelgan. Andijon soʻzi esa, radifdir. Asrlardan beri keng adabiy isteʼmolda boʻlgan muxammasning ikki turi mavjud boʻlib, ular “Tabʼi xud” yaʼni mustaqil muxammaslar va “Tazmin” taxmis muxammaslardir. Muxammasning har ikkala turida barakali ijod etgan Qoʻqon adabiy muhiti shoirlari muxammasning betakror namunalarini yaratganlar. Anʼanaga muvofiq muxammaslar bu davrda eng koʻp murojaat qilingan adabiy shakllardan biri boʻlib qoldi. Turkum sheʼrlarning asosan gʻazal, muxammas, musaddas, taʼrix va manzuma shakllarida berilishi ham ayni fikrimizning dalilidir. Ayni paytda mahoratli shoirlar tomonidan murojaat qilingan barcha janrlar oddiy xalq uchun soda va tushunarli sheʼrlarning tugʻilishiga asos boʻlib xizmat qildi.

Xulosa. Aytish mumkinki, davrga kelib, Qoʻqonning ijtimoiy-siyosiy hayoti aks etgan sheʼriy turkumlar birinchi planga chiqdi. Sababi xalq boshiga tushgan va tushayotgan musibatlar, har xil voqealar taʼsirida qolayotgan oddiy xalqning dardini demokratik adabiyot vakillari baralla kuylashdi. Shu tariqa oʻsha davrda hukumat tepasida turgan Qoʻqonning eng soʻnggi xoni hisoblangan Xudoyorxon va uning siyosatiga bagʻishlangan turkum sheʼrlar yozildi-ki, bu sheʼrlarda Xudoyorxonning ichki kechinmalaridan tortib, uning qanday boshqaruv tizimini olib borgani, qolaversa, tillarda ancha vaqtgacha doston boʻlgan xon saroyi haqida ham juda qimmatli maʼlumotlar berilgan. Milliy uygʻonish davri Qoʻqon adabiy muhiti ijodkorlarining asarlari yuzasidan, qolaversa janr masalalari borasida olib borilgan va olib borilayotgan tadqiqotlar bu davr adabiyotining ilmiy va amaliy ahamiyatini koʻrsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimov Gʻ Oʻzbek adabiyoti tarixi. Oʻqituvchi, T.:1975, B.58
2. Вахтин, М. 1979. Эстетика словесного творчества Москва: Искусства
3. Valixoʻjayev B. Adabiyotshunoslik tarixi. –T., Oʻzbekiston. 1993.B.124
4. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. –T:Fan,1961. B.34
5. Abdullayeva D. Usmonxoʻja Zoriy hayoti va ijodi. Fil.f.n.diss. Oʻz R.FA. A.Nav. –Tosh., 2003.
6. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти дарслиги. –Т.: Маънавият, 2004. -Б. 3.
7. Pardayev Q. Muqimiy sheʼriyatining matn tarixi,tahriri va talqini. Fil.f.d.diss.B.340
8. Turkiston viloyatining gazetasi. 1903.N.3
9. Muqimiy. Bogʻ aro. Akademnashr, 2010. –B.218.
10. Ibrohim Haqqul. Qitʼa va gʻazal muhokamasiga doir.“Oʻzbek tili va adabiyoti” jurnali, 1978, 6-son
11. Adabiy tur va janrlar. 3 jildli.2-jild.Lirika. –T.,Fan, 1992. –B.193.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

MODERN TENDENCIES IN THE ANTHROPONYMICS OF THE UZBEK AND GERMAN LANGUAGES: A CONTRASTIVE ANALYSIS

Abdullaev Ziyodbek Mansurovich,

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Fergana State University

Email: abdullaevziyod@gmail.com

Abstract. The article is devoted to modern changes in the anthroponymic system of the Uzbek and German languages, new fashionable names and their popularization processes and reasons. Names that have been in tradition in recent years in both language nomenclature systems and the stages of their historical formation are periodized with the help of specific examples, and the changes in nomenclature currently occurring in both anthroponymic systems are analyzed. As a result of the analysis, it was found that traditional names in the German language are mainly formed by shortening existing traditional names and by various phonetic changes. In the anthroponymic system of the Uzbek language, names with a religious motive, mainly from the Arabic language, are popular, and this situation is typical for the names of representatives of both sexes.

Keywords: uzbek language, german language, anthroponym, trendy names, trend, naming, religion, contraction.

O'ZBEK VA NEMIS TILLARI ANTROPONIMIKASIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR: KONTRASTIV TAHLIL

Abdullayev Ziyodbek Mansurovich,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. Maqola o'zbek va nemis tillari antroponimik tizimidagi zamonaviy o'zgarishlar, yangi moda ismlar va ularning ommalashish jarayonlari va sabablariga bag'ishlangan. Har ikkala qiyoslanayotgan til nomlash tizimidagi so'nggi yillarda urfda bo'lgan ismlar va ularning tarixiy shakllanish bosqichlari aniq misollar yordamida davrlashtiriladi hamda har ikkala antroponimik tizimda bugungi kunda ro'y berayotgan nomlashdagi o'zgarishlar tahlil etiladi. Tahlillar natijasida nemis tilida urfdagi ismlar asosan mavjud an'anaviy ismlar qisqarishi, turli fonetik o'zgarishlar orqali yangi nomlar paydo bo'lishi va ommalashishi, o'zbek tili antroponimik tizimida esa asosan diniy motivli asosan arab tilidan kirib kelgan ismlar urf bo'lishi va bu ham erkaklar ham ayollar ismlari uchun xos holat ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, nemis tili, antroponim, moda ismlar, tendensiya, nomlash, din.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N50>

Kirish. Antroponimlar tildagi boshqa til birliklariga qaraganda insonda kechadigan taassurotlar, his-tuyg'ular in'ikosi, oyinasi sifatida sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, jamiyatda yuz beradigan tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ham bevosita shaxs nomlarida o'z ifodasini topadi, ya'ni qo'yiladigan ismlar tizimi jamiyatdagi turli o'zgarishlar ta'siri ostida rivojlanadi, o'zgarib boradi. Shu sababli ham insonlarga qo'yiladigan ismlar eskirishi, yangitdan qo'yilishi, jamiyat vakillari tomonidan zamonaviy, chiroyli yoki g'alati, ohangdor yoinki noodatiy deb qabul qilinishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Dunyoning turli xalqlari tillarida nom berish tizimidagi zamonaviy o'zgarishlar juda ko'plab olimlar tomonidan ilmiy tahlil etilgan. Jumladan, qardosh turk tili nom berish tizimidagi zamonaviy tendensiyalarni tadqiq etgan Erol Sarkalli turk tilida bolani nomlashda o'g'il bolalar ismiga *Can*, qizlar ismiga *Nur* qo'shilishi, mavjud ismlardagi harflarni o'zgartirgan holda ism berish, chet tillardan yangi ismlar kirib kelishi, media vositalari, jumladan teleseriallar qahramonlari nomlarini ism sifatida tanlash kabi zamonaviy tendensiyalar xosligini ta'kidlaydi. Shuningdek, zamonaviy turk tili G'arbiy Yevropa xalqlari nomlash tizimi kabi bolani avval o'tgan qarindosh-urug' nomlari bilan emas, balki erkin individual tarzda, noyob ismlar bilan nomlash urf bo'layotganiga urg'u beradi[5; B. 171-177]. Qozoq tilida bolaga nom berish tizimidagi yangi o'zgarishlarni tadqiq etgan G.Madiyeva va A.Aliakbarova 2000, 2010 va 2018-yillarda Qozog'istonda bolalarga berilgan ismlar misolida ilmiy tahlilga tortadi. Qozoq tilida so'nggi yillar milliy qozoqcha va qozoq xalqi mashhur shaxslari nomlari berilishi faollashgan. Boshqa tomondan esa boshqa tillardan asosan Yevropa tillaridan, shuningdek arab tilidan islomiy ismlar kirib kelishi va qozoq bolalar ismi sifatida berilishi asosiy tendensiya sifatida oldinga chiqadi[3; B. 112-122.].

Muhokama. Nemis antroponimik tizimida bugungi kunda avvalgi davrlarga qaraganda ismlar rezervuarining tezroq o'zgarib borishi bevosita ism tanlashda ota-onalarning erkinligi bilan bog'liq. XIX asr so'ngida qabul qilingan shaxs nomlari bo'yicha ishlab chiqilgan qonunga ko'ra ism qo'yish motivlari bo'yicha aniq ko'rsatmalar keltirilmagan, lekin qo'yilayotgan nom ism sifatida ma'lum bo'lishi va unda bolaning har ikki jinsdan biriga tegishli ekanligini ko'rsatib turishi belgilangan edi. Aynan shu davrni Seibicke nemis tili nomlash tizimining to'rtinchi davri ekanligini ta'kidlaydi. Qolgan uchta inqilobiy o'zgarishlar bo'lgan davrlar quyidagilar:

Birinchi davr XII asrda yuz bergan bo'lib, bu davrda nemis antroponimik tizimi nasroniy dini va u orqali kirib kelgan boshqa tilli ismlar bilan boyiydi. Ikkinchi inqilobiy davrni nemis antroponimik tizimi reformatsiya davrida boshidan kechiradi. Uchinchi inqilobiy davr esa milodiy XVI asrga to'g'ri keladi va bu davr nemis tilida cho'qintirgan ota nomlari bolalarga ism sifatida berilishi ommalashishi bilan xarakterlanadi[qar. 7; 4].

1875-yilda yangi tashkil etilgan nemis imperiyasida nom bo'yicha qabul qilingan qonun orqali bolaga ism berishning diniy bog'liqliklardan xolos bo'lishi, ism tanlashning ota-onalar tomonidan hech qanday to'siqlarsiz amalga oshirilishi, erkinlashuvi qo'yilayotgan har bir ismning individual bo'lishi, har bir bila individual yondashuvni va bu orqali yangi nomlar soni ortishiga zamin yaratdi.

O'zbek tili bolaga nom berish shakllanishini ham shartli tarzda quyidagi uch davrga bo'lib o'rganish mumkin bo'ladi:

Birinchi davr milodiy sakkizinchi asrlardan boshlab arablar bosqini va o'n ikkinchi asrdan arabcha islomiy va u orqali boshqa diniy motivlar kirib kelishi bilan xarakterli hisoblanadi.

Ikkinchi davr O'rta Osiyoning XIX asr so'ngidan boshlab bosib olinishi va XX asr 40-yillarida ruscha familiyaning kiritilishi, shuningdek, jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar ortidan islom dini mavqeyi susayishi va natijada diniy motivli ismlar soni kamayishi hamda yangi o'zbekcha, fors-tojikcha ismlar hosil bo'lishi va rus tili va u orqali boshqa tillardan ismlar kirib kelishi, yangi gibrid ismlar yasalishi bilan o'zbek ismlar shakllanishida keskin inqilobiy davr sifatida baholanadi.

O'zbek bolaga nom berish tizimi uchinchi davri 1991-yil mustaqillik qo'lga kiritilishi va u orqali yana diniy motivli ismlar faollashuvi, ota ism ruscha –yevich,- yevna shaklidan, turkiy ota ism+o'g'li/qizi formatiga qaytishi kabi jarayonlar bilan rivojlanishda davom etmoqda.

Natijalar. Bolaga nom berish yuqorida ta'kidlanganidek muhim va murakkab ijtimoiy ahamiyatga ega jarayon hisoblanib, uning amalga oshirilishi bir nechta omillarga bog'liq hisoblanadi. Bular nomlanayotgan bolaning aholining qaysi ijtimoiy qatlamiga mansubligi, nom beruvchining yoshi, jinsi, qaysi dinga mansubligi, qayerdan ekanligi, akademiklik darajasi kabi obyektiv omillar, shuningdek, nom tanlashga va urfdagi nomlarga nom beruvchining munosabati, ismning chiroyli talaffuz etilishi, bolaga nom beruvchining bola tug'ilishi va unib o'sishi bilan bog'liq istak-xohishi kabi subyektiv omillar bo'lishi mumkin. Bolaga nom tanlanayotganda, shuningdek nom beruvchi o'z ismi bilan bog'liq shaxsiy tajribasi, tanlanayotgan ismli shaxsga nisbatan nom beruvchining antipatiya yoki simpatiyasi kabi omillar muhim hisoblanadi.

Nemis tilida bolaga ism berish tizimi XX asr oxirlari va XXI asr boshlaridan to hozirgi kunlargaacha turli o'garishlar asosida rivojlandi va rivojlanmoqda. Quyida aynan yuqorida keltirilgan yillar davomida nemis nom berish tizimi qanday o'garishlarga yuz tutgani quyida tahlil etiladi. Zamonaviy nemis tili nomlash tizimining o'tgan asrlar nomlash tizimidan asosiy ajratib turadigan farqi bu unda diniy motivlar ta'sirining susayishi. Bu fan tilida sekulyarizatsiya deb nomlanadi. Bu lotincha dindan uzoqlashish, ism berishda diniy motivlarning yo'qolib borishi tushuniladi. Ayni XX asr so'ngiga kelib asli diniy asosga ega hisoblangan *Katharina, Martin, Jan* kabi ismlar ota-onalar tomonidan diniy ism sifatida emas, balki eski nemis ismlari sifatida milliylikka qaytish, anglash maqsadida bolalarga berilgan.

Qarindosh-urug'chilik an'analari ahamiyati susayishi ham zamonaviy nemis nomlash tizimiga xos belgilardan biri hisoblanadi. Tarixan bobosi, buvisi yoki yaqin biror qarindoshi ismi yangi tug'ilgan bolaga berilishi nemis tili nomlash tizimiga xos eng ko'p murojaat qilinadigan nomlash amaliyoti hisoblangan. XX asr so'ngiga kelib bu an'ana yo'qolib ketmagan bo'lsada, lekin ism beruvchilar tomonidan kam murojaat qilingan. Mamlakatlar orasida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy aloqalar kuchayishi, media vositalarining insonlar hayotida muhim o'rin egallashi va shu asnoda dunyo xalqlari globallashuvi hamda unga bog'liq holda milliylik, milliy identitet kabi tushunchalar ahamiyati susayishi ortidan bolalarga beriladigan nomlar ham umumiy lashib bormoqda. Bu holat rivojlangan davlatlar, xususan biz tahlilga tortgan Germaniya bolaga nom berish tizimida ham kuzatiladi. Bu jarayon ismlar rezervuarining internatsionallashuvi/baynalminallashuvi deb nomlanadi. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab nemis tili antroponimik tizimiga boshqa tillardan nomlar kirib kelishi ortib boradi. Chet tildan kirib kelgan nomlar soni asosan ikki millatli nikohlar soni ortishi fonida ko'payib boradi. Tug'ilgan farzandi biror sabab ortidan Germaniyani tark etib ota yoki onasi tug'ilgan yurtga qaytadigan bo'lsa u yerda ham ism bilan muammolar bo'lmasligini inobatga olib ism tanlashadi[2; B. 197.]. Germaniyaga chet davlatlardan ko'chib kelgan ota-onalar yana o'z farzandlariga xalqaro tan olingan hamma taniydigan shaxslar (*Kylie, Shania, Celine, Whitney, Keanu*) nomlari, badiiy asar qahramonlari nomlarini (*Smilla, Madita, Malin*) va media vositalari ta'siri ostida nemis tiliga kirib kelgan nomlar, ayniqsa anglo-amerika media tarqatuvchilari vositasida rok, pop musiqa yulduzlari, sevimli serial qahramonlari, san'atkorlar nomlari ism sifatida tanlashadi. Nemis fuqarolarining dunyo bo'ylab ko'p sayohat qilishi[10] va sayohat davomida ko'rgan, boshdan kechirgan taassurotlari, ko'rgan gaplashgan insonlari ta'sirida ota-

onalar o‘z farzandlariga ism tanlashi ham globallashtayotgan dunyo, madaniyat fonida sodir bo‘lmoqda. Bu albatta ismlar rezervuarida o‘z aksini topmasdan qolmaydi.

Bolaga ism odatda biror tashqi omillar, jumladan, din, oilaviy an‘ana kabilar ta‘siri ostida yoki, erkin tarzda tanlanishi mumkin. Bolaga ism tanlashda erkin bo‘lish bu yangi tug‘ilgan bolani alohida shaxs sifatida qarash va unga boshqalarga xos bo‘lmagan ism bilan siylash tushuniladi. Zamonaviy nemis tili bola nomlash tizimiga xos bo‘lgan keyingi indikator bu ism tanlashda individual yondashuv hisoblanadi. Bolasiga ism tanlayotgan ota-ona iloji boricha ismning takrorlanmasligi, o‘ziga xos bo‘lishi, u tanlagan ism biror qo‘shni bolasida bo‘lmasligiga intiladi. Bolaga ism tanlayotganda bola endi shajara davomchisi emas, balki alohida bir individ sifatida qaraladi [5; B.118.]. Aynan shu ism tanlashda individual yondashuv deb ataladi. Bunda ismning ma‘nosi muhim hisoblanmaydi, ism beruvchi ism tanlayotganda uning noyobligi, boshqalarga o‘xshamaslik, betakrorligi kabi jihatlariga e‘tibor qaratadi. Nemis ota-onalari o‘z farzandlari ismlari individual bo‘lishi uchun nemischa va chet el ismlari kombinatsiyasidan (Fritzi Bo, Dana-Fee, Yoni Cyprus, Shane Cedric), mavjud ismlar yozilishini o‘zgartirish orqali (Maximillian < Maximillian, Kjara/Cjara < Chiara, Seana < Sina, Megs<Max, Dastin<Dustin; bitta ismning 8 xil shaklda yozilishi: *Jannick, Janick, Janik, Yanick, Yannik, Yannick, Yanik, Yannic* [5; B.118.]), ikki ism bosh bo‘g‘inlarini qo‘shgan holda (*Jasleen* ismi *Jasmin* va *Ayleen* ismlari, *Leonik* esa *Leon* va *Niki* ismlari bosh bo‘g‘inlari qo‘shilishidan yasalgan.) yangi ismlar hosil bo‘lishi va bu orqali nemis tili ismlar rezervuari boyishi va ismlar xilma-xilligi oshishi ta‘minlanadi.

Nemis tiliga chet tillardan turli yuqorida qayd etilgan usullar orqali yangi ismlar kirib kelishi nemis ismlar tizimi internatsionallashtayotganiga olib keldi va bu jarayon jadal davom etmoqda. 2021-yilda Duden nashriyoti tomonidan e‘lon qilingan Katta ismlar lug‘atida dunyoning tuli tillaridan qabul qilingan, Germaniyada qo‘llanilayotgan ismlar izohi bilan berilgan. mazkur lug‘atda avvaldan nemis tilida qo‘llanilgan an‘anaviy ismlardan tashqari, hozirda qo‘llanilayotgan arab, turk, afrika tillari, Shimoliy Yevropa tillari va boshqa turli tillardan o‘zlashgan ismlar keltiriladi. Aynan shu ham nemis ismlar rezervuari internatsionallashtayotganiga ishora qiladi.

Gesellschaft für deutsche Sprache “Nemis tili jamiyati” tomonidan e‘lon qilingan 2023-yildagi eng ko‘p qo‘yilgan ismlar ketma-ketligini tahlil etgan holda ularning asosiy qismi chet tilda o‘zlashgan ism yoki chetdan kirgan ismlarning qisqargan, o‘zgargan shakllari ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

	Qizlar ismi	foizda	O‘g‘il bolalar ismi	foizda
1	Sophia/Sofia	1,33	Noah	1,39
2	Emilia	1,33	Matt(h)eo/Mat(h)eo	1,27
3	Emma	1,28	Leon	1,14
4	Mia	1,14	Paul	1,08
5	Hannah/Hanna	1,13	Emil	1,06
6	Mila	1,04	Luca/Luka	1,05
7	Lina	1,04	Henry/Henri	1,02
8	Ella	1,03	Elias	1,02
9	Klara/Clara	0,96	Louis/Luis	1,01
10	Liah	0,92	Liam	1,01

Jadval: Germaniyada 2023-yilda eng ko‘p qo‘yilgan ismlar [8]

Eng ko‘p berilgan qizlar ismidan faqatgina Emma asl german til asosga ega bo‘lib qolgan 9 ta ism chet tildagi ism yoki ism asosida hosil bo‘lgan. Jumladan, Mia Marianing, Mila slavyan tillaridagi *Ludmila/Milaslowa*, *Lina* esa lotincha –*lina* bilan tugallanadigan *Paulina*, *Celina*, *Angelina* kabi ismlar, *Ella* esa *Elisabeth*, *Eleonara* kabi ismlar qisqargan shakli hisoblanadi; *Clara* esa lotincha *clarus* “toza, tiniq” ma’nosini anglatadi; *Lia Liana*, *Julia* yoki *Elisabeth* ismlari qisqargan ko‘rinishi hisoblanadi.

Eng ko‘p qo‘yil Germaniydagi o‘g‘il bolalar ismlarining asosiy qismi ham qizlar ismi kabi nemis-german til emas, balki chet til ismlari asosiga ega. Xususan, *Noah*, *Mattheo*, *Elia* eski yahudiy, *Leon* ismi *Leonhard* ismi qisqartma shakli bo‘lib birinchi komponenti italyan va fransuz tillari, *hard* esa “kuchli” ma’nosida nemis tiliga xos. *Paul* esa etimologiyasi eski yahudiycha bo‘lib, italyan tilida *paulus*, *parvulus* so‘zining qisqargan shakli sifatida “kichkina” ma’nosini ham anglatadi. *Emil* esa lotin tilidan o‘zlashgan. *Luca* ham lotincha *Lucanus* “Lukanalik erkak” ma’nosini anglatuvchi so‘z asosida shakllangan. *Henry/Henri* esa eski german tilida *Heinrich* ismining inglizcha ko‘rinishi bo‘lib, “yurt/vatan/uy boshqaruvchisi/qiroli” ma’nosini anglatadi. *Louis/Luis* ismlari eski german tilidagi *Ludwig* ismining fransuzcha shaklidan hosil bo‘lgan. Qadimgi german tilida “baxtli jangchi” ma’nosini anglatuvchi *Chlodwig*, *clovis* kabi ismlar aynan *Louis* ismi shakllanishiga asos bo‘lgan. *Liam* ismi esa eski yuqori nemis tiliga xos bo‘lib, *Willahelm*, *Willhelm* ismlari asosida shakllangan bo‘lib, “kuchli istakli himoyachi” ma’nosini anglatadi. Mazkur ism o‘rta asrlardan boshlab Irlandiyada eng ommalashgan ismlardan hisoblanadi [8]. Yuqorida urfdagi nemis qiz va o‘g‘il bolalar ismlari etimologik tahlili asosida aytish mumkinki, zamonaviy nemis tili nomlash tizimida eng ko‘p qo‘yiluvchi ismlar asosan eski yahudiy-oramiy, grek va lotin tillaridan o‘zlashgan ismlar hisoblanadi. Bunda ismlar qaysi tildan olingani emas, balki ularning chiroyli talaffuz etilishi muhim ahamiyat kasb etgan[1; B.14.]. Ularning etimologik ma’nosi esa faqat maxsus etimologik lug‘atlar va tilshunoslar yordamida aniqlanishi mumkin bo‘ladi.

Zamonaviy Germaniyada urfdagi ismlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, keltirilgan ismlar alohida olib qaralganda ular umumiy qo‘yilgan ismlarning hatto 1,5 % ini ham tashkil etmaydi (*Sophia* 1,33%, *Noah* 1,39%). Bu raqamlarni o‘rta asrlarda xristian dini kirib kelishi va u orqali diniy vakillar ismlarini qayta-qayta takror qo‘yilishi ortidan nemis ismlar rezervuari kamayishi holatiga taqqoslaydigan bo‘lsak, hozirgi kunda nemis tili ismlari soni va xilma-xilligi ortgan. Duden nemis tili ismlari lug‘atida keltirilishicha, XIV asr Regensburg shahrida 18,8% ayollar *Elisabeth*, XV asr erkaklarning 22,6% esa *Johannes* ismi bilan nomlangan[1; B.13.]. Bu o‘sha davrlarda ismlar soni qisqargani va diniy ulamolar nomi bolaga qo‘yilishi bilan u uning himoyasida bo‘lishiga bola ota-onasining ishonganligi bilan izohlanadi. Zamonaviy urfdagi Germanidagi ismlar strukturasi tahlil etilsa, qizlar ismlari ham o‘g‘il bolalar ismlari ham odatda ikki bo‘g‘inli ekanligi ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, to‘liq shakldagi ismlar qisqarishidan hosil bo‘lgan qisqartma ismlar urfga kirgan. Bu globallashib borayotgan dunyoda boshqa xalqlar vakillari bilan muloqotda bolaning ismi talaffuzi o‘zaro muloqot jarayonida oson bo‘lishi va qisqaligiga intilish ortidan yuzaga kelgan holat, deb atash mumkin.

Zamonaviy o‘zbek bolaga nom berish tizimidagi urfdagi ismlar ham asl o‘zbek tiliga emas balki o‘zlashgan qatlam antroponimlar qatlamiga xos hisoblanadi.

Urfdagi ismlar orasida asosan arab til asosli diniy ismlar faollashgan. Fors-tojik til asosli ismlar kamroq tarzda bolalarga ism sifatida berilmoqda. 2013-yil eng ko‘p berilgan o‘g‘il bolalar ismlari orasida *Sardor*, *Jahongir*, *Behruz*, *Shohjahon*, *Ozod* kabi asosan fors-tojik til asosli ismlar

o‘z o‘rnini 2023-yilda arab til asosli ismlarga bo‘shatib bergan. Agar qo‘shni Qozog‘iston, Qig‘iziston yoki Tojikistonda urfdagi ismlarni tahlil etadigan bo‘lsak, ular orasida milliy tillariga xos ismlar mavqeyi o‘zbek tilidagiga qaraganda biroz ko‘proqni tashkil etadi. 2022- va 2023-yillar davomida O‘zbekistonda eng ko‘p qo‘yilgan 10 ta o‘g‘il bolalar ismlarining 6 tasi payg‘ambar Muhammad s.a.v. ismlari yoki shu ism bilan yasalgan qo‘shimlar hisoblanadi. Qolgan 4 ta *Abdulloh, Ibrohim Mustafu va Imron* ismlari ham bevosita arabcha diniy motivli va ulardan faqat *Ibrohim* ismi eski yahudiy tiliga xos ism, lekin u ham diniy motiv asosida beriladigan ismlardan hisoblanadi. Aynan shu davrdagi qizlar ismining 9 tasi arab til asosga ega bo‘lib, ulardan faqat *Ifora* ismi o‘zbek tiliga xos[9]. Fors-tojik tiliga xos ismlar 2023-yilda Top-10 ismlar ro‘yhatida kira olmagan, lekin 2013-yilgi ro‘yhatni ko‘radigan bo‘lsak, *Farangiz, Marjona va Zarina* ismlari fors-tojik tiliga xos ismlar sifatida keltiradi. Aynan shu ham o‘zbek ismlari orasida fors-tojik tili asosli qizlar ismi kamayib arabcha ismlar soni ortganini tasdiqlaydi.

O‘g‘il bolalar ismlari			Qiz bolalar ismlari		
№	Ism	Til	№	Ism	Til
2023					
1	Muhammadali	arabcha	1	Soliha	arabcha
2	Mustafu	arabcha	2	Muslima	arabcha
3	Abdulloh	arabcha	3	Yasmina	arabcha
4	Muhammad	arabcha	4	Imona	arabcha
5	Muhammadyusuf	arabcha	5	Shukrona	arabcha
6	Muhammadamin	arabcha	6	Hadicha	arabcha
7	Nurmuhammad	arabcha	7	Sumayya	arabcha
8	Muhammadjon	arabcha	8	Ifora	o‘zbekcha
9	Imronbek	arabcha	9	Mubina	arabcha
10	Ibrohim	yahudiycha	10	Fotima	arabcha
2013					
1	Azizbek	arabcha	1	Jasmina	arabcha
2	Aslbek	arabcha	2	Sevinch	o‘zbekcha
3	Umidjon	arabcha	3	Madina	arabcha
4	Ozodbek	fors-tojikcha	4	Marjona	fors-tojikcha
5	Asadbek	arabcha	5	Umida	arabcha
6	Shohjahon	fors-tojikcha	6	Charos	arabcha-o‘zbekcha
7	Sardor	fors-tojikcha	7	Farangiz	fors-tojikcha
8	Behruz	fors-tojikcha	8	Dilnura	arabcha-fors-tojikcha
9	Jahongir	fors-tojikcha	9	E‘zoza	arabcha
10	Javohir	arabcha	10	Zarina	fors-tojikcha

Jadval xv: 2013- va 2023-yillarda O‘zbekiston eng ko‘p qo‘yilgan ismlar [11]

Mustaqillik davridagi o‘zbek antroponimik tizimidagi yana bir yuqoridagi jarayonga bo‘g‘liq bo‘lgan holat bu asosan arab tilidan va boshqa tillardan yangi ismlarning kirib kelishi va ommalashishi bo‘ldi: *Anis, Anas, Afif, Safir, Vosif, Uzayr, Zubayr* kabi o‘g‘il bolalar ismlari; *Muzayyana, Rayyona, Yasmina, Zinnura, Sabina* kabi qizlar ismlari. O‘zbek tiliga o‘zga tillardan asosan arab tilidan ismlar kirib kelishi bevosita xalqlar orasida aloqalar kuchayishi, media vositalari, jumladan internetdagi ijtimoiy tarmoqlar va ularning insonlar hayotida muhim rol o‘ynay boshlashi fonida kirib kelishi va ommalashishiga zamin yaratilmoqda.

O'zbek urfdagi erkak va ayol ismlari strukturasi tahlil etadigan bo'lsak, erkaklar ismlarida qisqalikka intilish kuzatilmaydi. Ular asosan qo'shism bo'lganligi sababli 5 va 3 bo'g'indan iborat: *Muhammadali, Nurmuhammad, Muhammadamin, Mustafo*. Nemis urfdagi ismlari esa yuqorida ko'rganimiz kabi asosan 2 bo'g'indan iborat: Noah, Matth, Paul, Emil. O'zbek ayollar ismlari ham nemis ayollar ismlarida qisqalikka intilish kuzatiladi. Nemis urfdagi ayollar ismlari asosan 2, o'zbek ayollar ismlari esa 3 bo'g'indan iboratligi aniqlandi. Demak, nemis tilida ayollar va erkaklar ismlariga asosan 2bo'g'inlilik xos bo'lgani holda, o'zbek tilida har ikki jins vakillari ismlari strukturasi bir-biridan farqli.

O'zbek tili zamonaviy antroponimik tizimiga xos ya'ni, bu bolani nomlashda individuallika intilish, bolaga yon-atrofdan tanigan nomga o'xshash bo'lmagan ism berish. Bu holat yuqorida aytib o'tilganidek, nemis tili zamonaviy bolani nomlash tizimi uchun ham xos indikator hisoblanadi. O'zbek zamonaviy ismlari nemis ismlaridan farqli tarzda mavjud ismlarni qisqartirish, fonetik o'zgarish qilish kabi usullardan foydalanmagan holda iloji boricha olinayotgan tildagi talaffuzni saqlab qolishga intilishadi. Masalan, o'zbek tilida avvaldan qo'llangan *Hadicha* ismi endi arab tilidagidek *Hadija* tarzda ism berish ga harakat qilinmoqda. Bu holat aholi o'rtasida chet til bilimlari, xususan arab tili bo'yicha bilimlari va savodxonligi oshishi ortidan yuz berayotgani bilan bog'liq.

Nemis tili zamonaviy urfdagi ismlarida moda til hisoblangan ingliz tili talaffuziga mos ismlar berishga intilishlar kuzatiladi. O'zbekistonda esa o'zaro qo'shni va MDH davlatlari orasidagi aloqa tili hisoblangan rus tili rasmiy o'zbek tili antroponimik tizimida emas, balki og'zaki tilda insonlar ismiga ruscha turli erkalash qo'shimchalari qo'shish, yoki rus tili talabi asosida ismlarni qisqartirish orqali murojaat qilish, nomlashda namoyon bo'ladi, *Gulya, Dilya, Baxa, Shurik, Azizchik*. Shuningdek, turli internet ijtimoiy tarmoqlarida qo'llaniladigan niknaymlar ham odatda rus tili qoidalari asosida hosil bo'lgan shakllardan foydalandilar: *Azizchik, Guzalichka* kabi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan o'zbek va nemis zamonaviy antroponimik tizimi kontrastiv tahlili bo'yicha xulosa qilish mumkinki, o'zbek tili zamonaviy nomlash tizimida asosan arab tili va u orqali kirgan ismlar faolligi, fors-tojik tillaridan kirgan ismlar chekinishi kuzatilmoqda. Bolani o'zbekcha milliy o'zlikni ifodalovchi ismlar nomlash ham trendda emas. Nemis tili antroponimik tizimi esa qisqalik, chiroyli talaffuz, ya'ni eyforiyaga intilish kuchli. O'zbek otalari uchun nafaqat ismlar chiroyli talaffuzga ega bo'lishi, balki ularning semantikasi ham muhim hisoblanadi. nemis ismlari qo'ilyotganda ularning ma'nosi emas balki qisqaligi, ohangdorlik, oson talaffuz etilish omillari oldinga chiqadi. Nemis zamonaviy nomlash tizimida asosan eski yahudiy, lotin, grek tillari asosida shakllangan qisqa ismlar urf bo'lgani holda, o'zbek bolalari o'rtasida asosan arab til asosli ismlar favorit hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Das große Vornamenlexikon : Herkunft, Bedeutung und Gebrauch von über 8000 Vornamen Duden - Das große Vornamenlexikon - 6., vollständig überarbeitete und erweiterte Auflage / von Rosa und Volker Kohlheim - Berlin : Dudenverlag, [2021]. S. 14f.
2. Gugutschkow S., Hengst K. Vornamengebung in Deutschland und interkulturelle Kontakte: Beobachtungen zu Tendenzen in der gegenwärtigen Vornamenwahl //Onoma. – 1999. – T. 34. – C. 197-214.
3. Madiyeva, G. B., and A. T. Aliakbarova. "On Some Current Trends in Kazakh Anthroponymy (Based on Materials from Almaty)." *Voprosy Onomastiki (Problems of

- Onomastics)*, vol. 17, no. 2, 2020, pp. 312–322.
https://doi.org/10.15826/vopr_onom.2020.17.2.030.
4. Müller G. Die beliebtesten Vornamen in Deutschland seit 1960. – na, 2001.
 5. Nübling D., Fahlbusch F., Heuser R. Namen: eine Einführung in die Onomastik. – Narr Francke Attempto Verlag, 2015., S.118.
 6. Sakalli, Erol "New Trends in Name-Giving in Turkey." *Voprosy onomastiki*, vol. 13, no. 1, 2016, pp. 171-177. https://doi.org/10.15826/vopr_onom.2016.13.1.010.
 7. Seibicke, Wilftied. "Die Geschichte der Vornamen." Die Welt der Namen, edited by Norbert Naul, Marburg, 1998, pp. 121-134.; Müller G. Die beliebtesten Vornamen in Deutschland seit 1960. – na, 2001.
 8. <https://gfds.de/die-beliebtesten-vornamen-2023/>
 9. <https://kun.uz/news/2024/01/05/ozbekistonda-2023-yili-chaqaloqlarga-eng-kop-qoyilgan-ismlar-malum-qilindi>
 10. <https://visaindex.com/de/visa-anforderungen/visumfreie-laender-fuer-inhaber-eines-reisepasses-von-deutschland/>
 11. <https://yoshlarovozi.uz/oz/news/ronaldudan-xadiyagacha-ozbekistonda-farzandgah-ism-qoyish-songgi-10-yilda-qanday-ozgardi->

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

GRADUONYMY IN THE SEMANTIC AND GRAMMATICAL CATEGORIES OF THE VERB: A COMPARATIVE STUDY OF UZBEK AND ENGLISH

Otaboyeva Mazmuna Rakhimovna,

Kokand State Pedagogical Institute

Faculty of Foreign Languages, PhD

E-mail: mazmuna.rahimovna@gmail.com

Abstract. This article describes the problems of creating gradation lines with the participation of words belonging to the verb group. The lexemes are analyzed according to the semantic categories of the verb, and ranking lines are compiled by giving examples from the explanatory, synonym and antonym dictionaries.

Keywords: verb, semantic category, verbs of action, verbs of speech, verbs of state, verbs of thought, verbs of attitude, graduonymic series, lexeme, ottenka, gradation.

FE'LNING SEMANTIK VA GRAMMATIK KATEGORIYALARIDAGI DARAJALANISHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA

Otaboyeva Mazmuna Rahimovna,

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Xorijiy tillar fakulteti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada fe'l so'z turkumiga oid bo'lgan so'zlar ishtirokida darajalanish qatorlari tuzish muammolari yoritilgan. Fe'l semantik kategoriyalari bo'yicha leksemalar tahlilga tortilib, izohli, sinonim va antonimlar lug'atlaridan misollar keltirish orqali darajalanish qatorlari tuzilgan.

Kalit so'zlar: fe'l, semantik kategoriya, harakat fe'llari, nutq fe'llari, holat fe'llari, tafakkur fe'llari, munosabat fe'llari, graduonimik qator, leksema, ottenka, darajalanish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N51>

Kirish. Tadqiqotimiz fe'l so'z turkumi bilan bog'liq ekan, dastavval ushbu so'z turkumining o'rganilish tarixiga nazar tashlaymiz. Qadimda hindlar quyidagi to'rtta so'z turkumini farqlaganlar: ot, fe'l, old ko'makchi va yuklama. Hindlarda ot predmet ifodalovchi, fe'l esa harakat, holat ifodalovchi so'z sifatida beriladi. Hindlar yuqorida aytilganidek, otlarni predmet, fe'llarni harakat ifodalovchi so'z sifatida "baholaganlar". Hind grammatikachilari fe'l so'z turkumining morfologik kategoriyalarini mukammal o'rganib, ular fe'lning uch zamonga birlashadigan yetti xil zamon formasini: hozirgi zamon, o'tgan zamonning tugallangan, tugallanmagan, uzoq o'tgan zamon turlarini, kelasi zamon, odatdagi kelasi zamon va juda kam qo'llaniladigan shart fe'li shaklini ajratganlar. Hindlar qadimgi davrlardayoq fe'lning to'rtta maylini aniqlik, istak, buyruq va shart mayllarini bilganlar. Fe'lning aniq, o'rta va majhullik nisbatlari ajratilib, har biri alohida ta'riflangan, tavsiflangan. Hindlar sanskrit tilida fe'lning

uchta shaxs va uchta son: birlik, juftlik va ko'pliklarga ko'ra tuslanishni ko'rsatganlar. Protagor (bizning eramizgacha bo'lgan 480-410 y) otlarning rodlarini (jinsini), fe'l zamonlarini va gaplarning turlarini farqladi. Shuningdek, ayni davr faylasuflari ot va fe'llarni farqlab, gapning ot bilan fe'lning bog'lanishidan hosil bo'lishini ta'kidladilar. Aristotel ham, Platon kabi, ot-egani va fe'l-kesimni tan oldi.¹

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ingliz tilshunosligida fe'l so'z turkumiga bag'ishlangan ma'lumotlar asosan, ingliz tili grammatikasiga oid kitoblarda berilgan bo'lib ushbu adabiyotlar sirasiga L.S.Barxudarov, A.I.Smirnitskiy, I.P.Ivanova, I.M.Berman, Kobrina N.A., Korneeva E.A., Ossovskaya M.I., Guzeeva K.A, M.Ya.Blox, B.S.Kaymovich va A.Rogovskaya hamda N.Kirvalidzolar² tomonidan yozilgan qo'llanma va asarlarni kiritishimiz mumkin. O'zbek tilshunoslaridan J.Bo'ronov, U.Hoshimov va H.Ismatullaevlarning "Ingliz tili grammatikasi" (Morfologiya, sintaksis)³ nomli qo'llanmasini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, o'zbek tilshunosligida ingliz va o'zbek tillarida fe'llarning chog'ishtirma tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarida fe'llar turlicha tadqiq etilgan.

Fe'llar ma'no mundariyasi va miqdoriga ko'ra boy bo'lganligi sababidan ulardagi semantik kategoriyalarda o'zaro farqlar yaqqol ko'zga tashlanadi va sememalarning darajalanishi kuzatiladi. Shuningdek, fe'llarning grammatik kategoriyalari ham shakllanganligi bois kategoriyalar orasida ham o'zaro graduonimik munosabatlarni ilg'ash mumkin. Biz tadqiqotimizda fe'llarni nafaqat semantik, balki grammatik jihatdan ham darajalanishi mumkinligini ko'rsatib bermoqchimiz.

Darajalanish ko'proq rus tilshunosligida o'rganilganligi bois, ularning tadqiqotlarida fe'llar darajalanishi to'g'risida ma'lumotlar berib o'tamiz. S.M.Kolesnikova fe'llarda old qo'shimchalar graduator vazifasini bajarib kelganda graduallik ma'nosini o'zida mujassam etadi, deb hisoblagan: masalan, *varit – nedovarit, perevarit; begat – nabegatsya – izbegatsya*.⁴ Tilshunos bunday so'zlar gradatsion leksikaning asosiy guruhi sifatida e'tirof etadi. Keltirilgan misollarni o'zbekcha tarjimasini oladigan bo'lsak, ular o'zbek tilida prefikslar yordamida emas, balki qo'shimcha ma'noni anglatuvchi leksemalar yordami bilan beriladi: *pishirmoq, chala pishirmoq, me'yordan ortiq pishirmoq* kabi. Bu misollar ingliz tilida ham prefikslar bilan ifodalanadi: *cook, undercook, overcook*. Rus tilida *varit – nedovarit, perevarit* alohida leksema sifatida olinib, ularda darajalanish ma'nosi mavjud bo'lishi mumkin, lekin o'zbek tilida ushbu so'zlar orasida pishirish jarayonining bosqichlari ifoda etilayotganligi uchun tafovut sezilsada, lekin ularni bir darajalanish qatoriga joylash o'rinli emas deb hisoblaymiz.

Yana bir rus tilshunosi, S.M Kolesnikovaning izdoshi I.A.Isaeva bir leksik-semantik guruhga kiruvchi aksariyat fe'llarda o'sish-kamayish belgisiga ko'ra gradatsion shkala(graduonimik qator)ga qo'yish mumkinligini aytadi: *stoyat (-2) – polzti (-1) – idti -- <norma=0> bejat (+2) – nestis (+2)*⁵. Bunday darajalanish qatori 0 nuqtadan chapga manfiy

¹ Rasulov R. Umumiy tilshunoslik 1-qism T., -2005

² Бархударов Л.С. Очерки по морфологии английского языка. 1975; Смирницкий, А.И. Морфология английского языка. 1959; Иванова И.П. Теоретическая грамматика современного английского языка. 1981; Бerman И.М. Грамматика английского языка. 1985; Blokh M.Y. A course in Theoretical English Grammar. 1983; Khaymovich B.S, Rogovskaya A. Course of English Grammar/ 1967; Кобринa Н.А., Корнеева Е.А., Оссовская М.И., Гузеева К.А. "Грамматика английского языка(Морфология. Синтаксис.)" С. –Петербург 1999 стр. 16;

Кирвалидзо Н. "Theoretical course of English grammar" Tbilisi-2013 42- бет

³ J.Bo'ronov, U.Hoshimov va H.Ismatullaevlarning "Ingliz tili grammatikasi" (Morfologiya, sintaksis)

⁴ Колесникова С.М. Категория градуальности в современном русском языке. автореферат док.наук. М.,1999. ст.11

⁵ Исаева И.А. Градуальная семантика глагола в современном русском языке. автореферат канд.наук. М.,2008, ст.10.

tomonga ma'no pasayishi, 0 nuqtadan o'ngga, musbatga tomon ma'no kuchayishi bo'yicha joylashtirilgan. Shuningdek, fe'l so'z shakllarini yasashida ham darajalanishni graduatorlar yordamida namoyon bo'lishligini o'rgangan.

O'zbek tilidagi darajalanishga bag'ishlangan ishlarda asosan so'zlar semantik tomondan darajalangan, bo'lib faqat O.Bozorov fe'llarda darajalanishni grammatik sathda ham ko'rib chiqqan. Fe'l so'z turkumida leksik darajalanishni o'zbek tilida Sh.Orifjonova o'z tadqiqotida qisqacha yozib o'tgan va fe'llarni harakat tezligi, ovoz miqdori, holat darajasi va belgi miqdoriga ko'ra darajalab, graduonimik qatorlar tuzib chiqqan.

Professor O.Bozorov ishining "Lug'aviy sistemada darajalanish" bobida fe'l sememalarida darajalanishga ko'plab misollar keltirib o'tiladi. Unda nutq fe'llari, ruhiy holat fe'llari, jismoniy, biologik, aqliy harakat va munosabatni ifodalovchi fe'llar va fizik holatni anglatuvchi fe'llar kabi ma'noviy guruhlariga mansub leksemalarning darajalanish qatorlari keltirib o'tiladi. Sh.Orifjonova va O.Bozorovlar fe'llarning darajalanish qatorlarini umumiy semalar bo'yicha keltirib o'tadilar. J.Djumabaeva esa o'zbek va ingliz tillarida fe'llarni semantik kategoriyalarga bo'lgan holda leksik sathda darajalanish qatorlarini tuzib chiqqan. Shuningdek, olima o'zbek va ingliz tillarida fe'llar darajalanishi xususida to'xtalgan. Olima fe'llarning oltita harakat ma'nosini anglatuvchi guruhlariga ajratilganligi (professor R.R.Sayfullaeva va boshqalar tomonidan yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili o'quv qo'llanmasi asosida) bo'yicha ushbu guruhlarda darajalanishni ko'rib chiqqan.¹

Muhokama. Fe'llarda darajalanish harakatning bir nechta ma'nolari, ya'ni semantik kategoriyalar asosida tahlil qilinib, graduonimik qatorlar tashkil etilgan. Lug'aviy tizimda graduonimik qatorlarni yaratish imkoniyati kengroq bo'lib, ularning ichida so'z ma'nolarining bosqichma-bosqich o'sishi yoki kamayishi aniq ko'rsatiladi. Grammatik kategoriyalar ham o'zaro darajalanishni o'zida in'ikos ettirsa-da, semantik sathdagi kabi aniqlik kasb etmaydi.

O.Bozorovning dissertatsiyasidagi "Grammatik sistemada darajalanish" bobida esa fe'llarning ma'noviy mundariyasi ko'lamlarida, fe'l kategoriyalari o'rtasida va funksional formalarida darajalanish hodisasini yoritib bergan. Unda fe'llarning ma'noviy ko'lamlarida, fe'l kategoriyalari va funksional formalaridagi darajalanish hodisasiga to'xtalib o'tgan. Fe'llar ma'noviy mundarija ko'lamlari bo'yicha tor- keng bo'lishida (*jo'natmoq*(bir kishi)-*qo'zg'almoq* (xalq); (*urushmoq-urishmoq*); harakatning holatga o'tib borishida: 1) *sof harakat* (*uchmoq, yugurmoq*) → *harakat- holat* (*sevinmoq, uyg'onmoq*) → *holat* (*qarimoq, qizarmoq*) kabi darajalanishlarga ega ekanligini ko'rsatgan. Shuningdek, fe'llarning o'timli va o'timsizlik ma'nolarida ham darajalanish hodisasi mavjud deb hisoblab ularni: harakatning predmetga qisman o'tganligi (*nondan yemoq, suvdan ichmoq*), butunlay o'tganligi (*nonni yemoq, suvni ichmoq*) kabi turlarga ajratadi. Shu bilan bir qatorda o'timlilik hodisasini uch bosqichga ajratish mumkin deb hisoblaydi: dastlabki munosabat (*nonga qarang*); qisman o'tish (*nondan eng*); to'liq o'tish (*nonni eng*). Fe'llarning har bir funksional forma turlari (harakat nomi shakllari) ichida ham darajalanish mavjud deb hisoblab, xususan, harakat nomi shakllarida harakatning kuchsizlanib "predmet" tushunchasi tomon borishida (*-moq* → *-v(-uv)* → *-sh(-ish)*: *o'qimoq*→*o'quv*→ *o'qish*); sifatdash shakllari ham ma'nosiga ko'ra harakat belgisining kamayib borishi bo'yicha tartiblanadi (*-yotgan*→ *-digan*→ *-gan*→ *-r(-ar)* → *-(u)vchi*: *oqayotgan*→ *oqadigan*→ *oqqan*→ *oqar*→ *oquvchi*); ravishdosh formalarida fe'llik ma'nolarining kuchsizlanib borishiga ko'ra (*-a/y*→ *-b*→ *-gach*→ *-guncha*→ *-gani*: *kela, bora-bora, o'qiy-o'qiy* (harakat ma'nosi

¹ Djumabayeva J. O'zbek va ingliz tillarida leksik graduonimiya, monografiya T., 2014. 17-18- betlar

kuchli); *borib* (payt ottenkasi bor) → *borgach* (payt ma'nosi kuchaygan) → *borguncha* (payt ma'nosi hukmron) ham darajalanish qatorlarini misollar bilan keltirib o'tadi.¹ Fe'llarning o'timli va o'timsizlik ma'nolarida ham 1) harakatning predmetga qisman o'tganligi. 2) harakatning predmetga butunlay o'tganligi bilan ham fe'llarda darajalanish hodisasini hosil qiladi misol uchun, nondan emoq (qisman) – nonni emoq (to'liq). Ba'zan o'timlilikni uch bosqichga bo'lish mumkin deb *nonga qarang*→*nondan oling*→*nonni eng* deb darajalanish qatorini hosil qiladi. Bunday darajalanish qatorlarida graduonimiya hodisasini darrov ilg'ab olish biroz qiyindir. Masalan *nonga qarang*→*nondan oling*→*nonni eng* ushbuni graduonimik qator deb oladigan bo'lsak ot+fe'l birikmasidagi ot ya'ni non so'zini olib tashlasak qarang – oling – eng leksemalari orasida hech bir bog'liqlik ma'no kuchayishi yoki kamayishi kuzatilmaydi. Ammo *qaramoq (qarang)* →*tikilmoq* →*baqraymoq*→*o'qraymoq* so'zlaridan esa darajalanish qatorini tuzish mumkin. Shuningdek, *olmoq (oling)*→*tutmoq/ ushlamoq*→*qismoq; yemoq*→*chaynamoq*→*yutmoq* deb bu fe'llarning alohida-alohida darajalanish qatorlarini tuzish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Natijalar. So'z turkumlari an'anaviy ravishda semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlar bo'yicha tasniflanadi. Shu nuqtai nazardan, so'z turkumlarining o'zaro bog'liqliklari, ya'ni ularning mavqe va darajalanishini har birining semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlariga qarab o'rganish mumkin. Bunga asosan, fe'llarning grammatik kategoriyalari va funksional shakllarida darajalanish mavjudligini ta'kidlash mumkin. Fe'llarning o'zaro graduonimik qatorlarini tuzishda, ularning ma'naviy mazmuni va harakatning kuchayishi yoki kamayishiga qarab darajalab ko'rsatiladi.

Fe'l→*harakat nomi*→*ot*

Fe'l→*sifatdosh*→*sifat*

Fe'l→*ravishdosh* →*ravish*

Fe'l→*funksional forma*→*bog'lovchi*

Fe'l→*funksional forma*→*ko'makchi*

Fe'l→*funksional forma*→*yuklama*

Fe'l →*predikativ formasi*→*undov*²

Yuqorida keltirilgan graduonimik qatorlarni bir fe'l misolida ko'rib chiqib, darajalanish jarayonini ko'rsatish mumkin. Agar fe'lning bir grammatik kategoriyasi va funksional shakllari yoki so'z turkumlari bir graduonimik qatorga kiritilsa, ularning barchasi bir umumiy ma'noni bildiruvchi leksemalarni tashkil etadi. Masalan, "ishlamoq" fe'li: ishladi, ishlayapti (fe'l), ishlamoq/ishlash (harakat nomi), ish (ot) kabi shakllar orasida darajalanish jarayoni mavjud emas. Fe'llarning ma'no mazmuniga ko'ra darajalash, harakatning kuchayishi yoki kamayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Fe'llarning ma'nolarini ifodalovchi leksemalar yordamida graduonimik jarayonni aniq ko'rish mumkin. Misol uchun, chaqirmoq → baqirmoq → qichqirmoq kabi darajalanish ko'rinishlari.

Shuningdek *fe'l*→*sifatdosh*→*sifat* qatoridagi darajalanishni oladigan bo'lsak, buni bir o'zak asosida yasalgan harakat anglatuvchi leksema misolida ko'rib chiqamiz: *sarg'aydi (fe'l)* – *sarg'aygan (sifatdosh)* – *sariq (sifat)*. *Fe'l*→*sifatdosh*→*sifat* asosida tuzilgan darajalanishgan misol qilib keltirilgan so'zlar orasida darajalanishni mutlaqo kuzatib bo'lmaydi.

¹ Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish. doktorlik diss. T., 1997 y. 184 -186 betlar.

² Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish. doktorlik diss. T., 1997 y, 183-bet.

Ingliz tilida xuddi yuqoridagi kabi darajalanish qatorini tuzib ko'rsak: verb (fe'l) – gerund (o'zbek tilidagi harakat nomiga to'g'ri keladi; fe'lning funksional formasi) – noun (ot)
Verb (fe'l) – Present participle (hozirgi zamon sifatdoshi; fe'lning funksional formasi) – adjective (sifat)

Verb (fe'l) – Past Participle (o'tgan zamon sifatdoshi; fe'lning funksional formasi) – Adverb (ravish) .

Verb→gerund→noun darajalanish qatorini harakat bildiruvchi misollar bilan ko'rib chiqamiz. *Suggest* (taklif qilmoq) → *suggesting* (taklif qilish) → *suggestion* (taklif) ko'rinib turibdiki, ushbu qatorda darajalanish hodisasi kuzatilmaydi. Yuqoridagi fikrlarimiz yanada tushunarli bo'lishi uchun misollarni chog'ishtirishni quyidagi jadval asosida keltirib o'tamiz.

<i>Fe'l→harakat nomi→ot</i>	
<i>ishladi, ishlayapti -ishlamoq/ishlash – ish</i>	<i>Suggest–suggesting–suggestion</i>
<i>fe'l→sifatdosh→sifat</i>	
<i>sarg'aydi – sarg'aygan – sariq</i>	<i>to whiten – whitening – white</i>

Ushbu jadval harakat belgisining kamayib borishiga ko'ra tuzilgan darajalanish qatorlariga chog'ishtirilayotgan o'zbek va ingliz tillarida misollar berish orqali izohlanadi. Har ikki tillarda berilgan misollardan ma'lumki, bir o'zakdan yasalgan fe'l shakllari orasida o'zaro darajalanish kuzatilmaydi.

Ingliz tilida faqat ikkita nisbat mavjud bo'lib, ular aktiv (Active Voice) va passiv (Passive Voice) nisbatlardir. O'zbek tilidagi aniq va majhul nisbatlarga tenglash mumkin. Ingliz tilida esa yuqoridagi kabi darajalanish qatorini shakllantirish mushkul masaladir.

Harakat va holatni anglatuvchi leksemalar (fe'llar)da darajalanish hodisasini nutq fe'llari semalarida, ruhiy holat fe'llarida, ruhiy (jismoniy) va biologik holat fe'llarida, harakat faoliyat fe'llarida darajalanish qatorlari tuzish bilan ifodalash mumkin. Harakat fe'llarida darajalanish: a) oyoq bilan bog'liq fe'llar: *tepkilamoq→ tepmoq→ toptamoq→ yanchmoq*; b) qo'l bilan bog'liq fe'llar: *turtmoq→urmoq→savalamoq→kaltaklamoq→ do'pposlamoq*;

Nutq fe'llari: *bahslashmoq→ tortishmoq→ janjallashmoq*;

Holat fe'llari bir necha turlarga ajratiladi:a) ichki holat fe'llari: *kayfiyati buzilmoq→ xafa bo'lmoq→ achchiqlanmoq→ g'azablanmoq*; b) tashqi holat fe'llari: *qizarmoq→ bo'zarmoq → ko'karmoq*; v) jismoniy holat fe'llari: *titramoq→qaltiramoq→talvasaga tushmoq*; g)ijtimoiy holat fe'llari (jamiyat bilan bog'liq): *boshlamoq* (masalan, ish faoliyatini) → *o'smoq→ ko'tarilmoq*;

- Natijali faoliyat fe'llari: *bezamoq→ sayqallamoq→ pardozlamoq→ naqshlamoq; o'ymoq→ kavlamoq→ qazimoq→ chuqurlamoq*;
- Tafakkur fe'llari: *o'ylab topmoq→ kashfetmoq→ ochmoq*;
- Munosabat fe'llari: *yoqtirmaslik→ yomon ko'rmoq→ nafratlanmoq*.

Shuningdek, ingliz tilida esa fe'llarni yettita semantik kategoriyalarga ajratib, ularning graduonimik qatorlari keltirilgan. Ushbu semantik guruhlar Longman Grammar va A.I.Smirnitskiyning "Morfologiya angliyskogo yazika" qo'llanmalariga asoslanib turli semantik guruhlar: activity verbs (harakat fe'llari), communication verbs (muloqot fe'llari), mental verbs (tafakkur fe'llari), causative verbs (ta'sir fe'llari), verbs of occurrence (sodir bo'lish holati fe'llari), verbs of existence or relationship(mavjudlik yoki munosabat fe'llari) , verbs of aspect (aspekt yoki ko'makchi fe'llari)ga ajratib tasniflangan. Quyida ushbu semantik guruhlariga misollar keltirib o'tamiz.

- Activity verbs (harakat fe'llari): bu guruhga kiruvchi fe'llardan move (harakatlanmoq) fe'lini misol tariqasida olib, uning sinonimlarini harakatning tezlab borishiga ko'ra graduonimik qatori tuzish mumkin. Agar o'zbek tilida qimirlamoq-qo'zg'almoq-harakat qilmoq/surilmoq kabi darajalanish qatori tuzilsa, ingliz tilida ushbu darajalanish qatorini quyidagicha berish mumkin: *stir*→*advance*→*move*→*leave*.
- Communication verbs: ushbu kategoriyaga kiruvchi speak (gapirmoq) fe'lini misol sifatida ko'rib chiqib, ovozning eng past bosqichidan yuqorisigacha bo'lgan darajasi bo'yicha graduonimik qatorga joylashtirdik: *mutter*→*whisper*→*speak*→*shout*. Ushbu graduonimik qator o'zbek tilida quyidagi a'zolari o'z ichiga oladi: *ming'irlamoq*→*pichirlamoq/shivirlamoq*→*gapirmoq*→*baqirmoq*.
- Mental verbs: bu guruhdagi fe'llardan *read* (o'qimoq) fe'lini oladigan bo'lsak, uning ma'nodosh so'zlaridan o'qishda diqqatlilikni oshib borishi bo'yicha quyidagicha darajalanish qatorini keltirib o'tish mumkin: *skim*→*read*→*scan*. Huddi shu o'qimoq (*read*) fe'lining ma'nodosh so'zlaridan o'zbek tilida darajalanish qatorini keltirish mumkin: *nazar tashlamoq/shunchaki qarab chiqmoq (matnni)* → *o'qimoq*→*sinchiklab o'qimoq*. Yuqoridagi tarjima qilingan so'zlardan iborat qatoridagi sinchiklab o'qimoq ingliz tilidagi *scan* so'zining aynan tarjimasi bo'lib o'zbek tilida uni ifodalaydigan tub fe'l mavjud emasligi sababli uni qo'shma fe'l bilan ifodalanyapti.
- Causative verbs: ushbu kategoriyaga kiruvchi *help* fe'lining darajalanish qatorini vositalarning ko'payib borishi orqali yuzaga chiqarish mumkin bo'ladi: *help*→*aid*→*support*. O'zbek tiliga *help* yordam bermoq ma'nosida ma'nodosh so'zlaridan quyidagicha graduonimik qatorni tuzish mumkin: *qarashmoq*→*ko'maklashmoq*→*yordamlashmoq*→*qo'llab quvvatlamoq*.
- Verbs of aspect: bu guruhga kiruvchi misollar bir-biriga antonim (start-stop) yoki sinonim (begin-start) bo'la olishligini hisobga oladigan bo'lsak, ularning darajalanish qatorini hosil qilish mumkin: *start*→*continue*→*stop*. Biroq ingliz tilidagi fe'llarning bu guruhida darajalanish qatorlarini unchalik ko'p tuzib bo'lmaydi. O'zbek tilida esa ushbu qatorni *boshlamoq*→*davom ettirmoq*→*tugatmoq/tamomlamoq* tarzida darajalanish qatorini tuzish mumkin.
- Verbs of occurrence and verbs of existence or relationship kategoriyalariga mansub bo'lgan fe'llarning faqat kontekstual ma'nodosh birliklarga egaligi va sinonimlarga boy emasligi sabablari mavjudligi bois darajalanish qatorlarini hosil qilish mumkin emasligi aytib o'tilgan.¹

Xulosa. Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkin: harakatni ifodalovchi leksemalar (fe'llar) nafaqat ma'noviy, balki vazifaviy jihatdan ham o'z darajalanish qatorlariga ega bo'lishi mumkin.

Harakatni ifodalovchi leksemalarda (fe'llarda) darajalanish harakat yoki holatning kuchayishi yoki pasayishi, shuningdek, bo'lishsizlik, nisbat, zamon qo'shimchalari va modallik orqali ham yuzaga kelishi mumkin. O'zbek tilshunosligida O. Bozorovning tadqiqotiga asoslanib, fe'llarning grammatik kategoriyalari va funksional formalarida darajalanishni kuzatish mumkin. Ingliz tilida esa, o'zbek tilidagi kabi, fe'llarning grammatik kategoriyalari va funksional formalaridagi darajalanishlarni tadqiqotimizning keyingi bo'limida chog'ishtirma

¹ Djumabayeva J. "O'zbek va ingliz tillarida leksik graduonimiya" monografiya T., 2014 53-54 betlar

tahlil orqali aniqlaymiz. Harakat bildiruvchi leksemalarning grammatik kategoriyalari va funksional formalaridagi graduonimiya o'rniga alohida ma'no anglatuvchi leksemalar yordamida darajalanishni ifodalash bu hodisani yanada aniqroq ko'rsatishga yordam beradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik 1-qism T., -2005
2. Бархударов Л.С. Очерки по морфологии английского языка. 1975; Смирницкий А.И. Морфология английского языка. 1959; Иванова И.П. Теоретическая грамматика современного английского языка. 1981; Берман И.М. Грамматика английского языка. 1985; Blokh M.Y. A course in Theoretical English Grammar. 1983\$ Khaymovich B.S, Rogovskaya A. Course of English Grammar/ 1967; Кобринна Н.А., Корнеева Е.А., Оссовская М.И., Гузеева К.А. "Грамматика английского языка(Морфология. Синтаксис.)" С. –Петербург 1999 стр. 16;
3. Кирвалидзо Н. "Theoretical course of English grammar" Tbilisi-2013 42- бет
4. J.Bo'ronov, U.Hoshimov va H.Ismatullayevlarning "Ingliz tili grammatikasi" (Morfologiya, sintaksis)
5. Колесникова С.М. Категория градуальности в современном русском языке. автореферат док.наук. М.,1999. ст.11
6. Исаева И.А. Градуальная семантика глагола в современном русском языке. автореферат канд.наук. М.,2008, ст.10.
7. Djumabayeva J. O'zbek va ingliz tillarida leksik graduonimiya, monografiya T., 2014. 17-18- betlar
8. Vozorov O. O'zbek tilida darajalanish. doktorlik diss. T., 1997 y. 184 -186 betlar.
9. Djumabayeva, Jamila. "On Gradable Contrariety and Graduonymy." Usbekisch-deutsche Studien 3 (2010): 401.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

IMPERATIVE AND IMPERATIVE STATEMENTS WITH THE MEANING OF DESIRE IN V. F. KHODASEVICH'S POETIC TEXTS

Alieva Elvina,

Doctor of Philology, Associate Professor
E-mail: alieva.elvina@rambler.ru

Temirova Ozoda,

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
2nd year master's student
E-mail: temirovaozoda94@gmail.com

Abstract. The study of the semantic and functional features of the imperative and imperative statements in lyrical poems has not yet received sufficient attention. This article is devoted to identifying the semantic and functional features of the imperative and imperative statements with the meaning of desire in the lyrics of V. F. Khodasevich. The linguistic analysis of the forms of commands and motivational statements was carried out taking into account the poetic communicative situation, the structure and semantics of the analyzed units, as well as micro- and macro-text. It was revealed that the forms of commands and imperative statements in the structure of a poetic text under the influence of various conditions of the poetic communicative situation and the surrounding context undergo semantic and functional transformation, especially often acquiring the meaning of desirability.

Keywords: imperative, command, imperative statements, speech forms of oral dialogue, communicative situation, poetic text, V. F. Khodasevich.

ПОВЕЛЕНИЯ И ПОБУДИТЕЛЬНЫЕ ВЫСКАЗЫВАНИЯ СО ЗНАЧЕНИЕМ ЖЕЛАНИЯ В ПОЭТИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ В. Ф. ХОДАСЕВИЧА

Алиева Эльвина,

доктор филологических наук, доцент

Темирова Озода,

магистрант II курса Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека

Аннотация. Изучению семантико-функциональных особенностей императива и императивных высказываний в лирических стихотворениях до сих пор не уделялось достаточного внимания. Данная статья посвящена выявлению семантико-функциональных особенностей императива и императивных высказываний со значением желания в лирике В. Ф. Ходасевича. Лингвистический анализ форм повелений и побудительных высказываний был проведен с учетом поэтической коммуникативной ситуации, структуры и семантики анализируемых единиц, а также микро- и макротекста. Было выявлено, что формы повеления и императивные высказывания в структуре поэтического текста под влиянием различных условий поэтической коммуникативной ситуации, окружающего контекста подвергаются семантической и функциональной трансформации, особенно часто приобретая значение желательности.

Ключевые слова: императив, повеление, императивные высказывания, речевые формы устного диалога, коммуникативная ситуация, поэтический текст, В. Ф. Ходасевич.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N52>

Введение. В нашей стране большое внимание уделяется развитию науки и образования. В своем выступлении на видео селекторном собрании, посвященном приоритетным задачам в области развития науки и инноваций Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев справедливо отметил: «Необходимо понять одну вещь: без науки, без инноваций мы никогда не достигнем поставленных целей» [1]. В связи с этим актуальными и востребованными являются исследования во всех областях науки, в частности русской лингвистики.

Актуальность данного исследования определяется недостаточной изученностью императивных конструкций, а также отсутствием работ, посвященных комплексному анализу семантико-функционального потенциала императива и императивных высказываний в русском языке.

Обзор литературы. Одной из первых работ, посвященных семантико-функциональному анализу повеления в рамках поэтического языка, является работа И.И. Ковтуновой «Поэтический синтаксис» [3]. Ученый выделяет речевые формы устного диалога, среди которых повелительное наклонение относит к сильным признакам, так как повеление предполагает определенного собеседника. [3, с. 61].

Анализ повелений в поэтическом тексте позволил ей высказать аргумент о том, что значения форм повелительного наклонения в поэтической речи разнообразны и сложны, и «их специфика определяется иными условиями коммуникации, в поэзии по сравнению с устной речью – способом контакта (письменная речь), особым характером адресатов в поэтическом тексте (адресат отсутствующее лицо, адресат – не лицо) и некоторыми особенностями структуры поэтического сообщения (текста)» [3, с. 119].

И.И. Ковтунова подчеркивает, что «утрата побудительного значения происходит в повелительных формах, направленных ко второму лицу, но характер отрицает, исключает расчёт на его ответную реакцию» [3, с. 119]. Лингвист отмечает, что «значения форм повелительного наклонения в поэтической речи определяются условиями коммуникации, особым характером адресатов и другими структурами текста» [3, с. 119]. Ученый утверждает: «Значение желания возникает при использовании повелительного наклонения не к лицам, что переносит его в сферу значений наклонения желательного» [3, с. 119].

Исследованию императива на материале поэтических текстов посвящены также работы российских исследователей Э.В. Слининой [7], А.В. Чижонковой [8], Л.А. Мелеховой [4], Л.А. Рыжкова [6], а также узбекистанских лингвистов В.О. Ноненмахер [5], Э.А. Алиевой [2] и другие.

Обзор современной научной литературы позволил сделать вывод о необходимости дальнейшего изучения структурно-семантических типов и функций побудительных предложений в современной русской художественной речи, а также отсутствию работ по изучению семантико-функционального потенциала данной синтаксической единицы на материале поэтических текстов В.Ф. Ходасевича.

Методы исследования. В работе использовались реферативно-аналитический и описательный методы. Результаты исследования уточнят положения грамматики в

области функционирования императива и императивных высказываний в тексте, дополнят сведения об идиостиле названного поэта.

Анализ и результаты исследования. Данная статья посвящена выявлению семантико-функциональных особенностей императива и императивных высказываний со значением желания в лирике В.Ф. Ходасевича.

Ходасевич Владислав Фелицианович (1886-1939), русский поэт, литературный критик, мемуарист. Им было написано 5 сборников: «Молодость», «Счастливый домик», «Путем зерна», «Тяжелая лира», «Европейская ночь».

Из 183 обследованных нами лирических стихотворений В.Ф. Ходасевича формы повеления содержатся в 76 стихотворениях. При этом большая часть форм повелений выражает желательное значение (31 стихотворение). К этой группе относятся следующие стихотворения: «Утро», «Гадание», «Опять во тьме. У наших ног», «Звезда», «Романс», «За снегом», «Элегия», «К музе», «Бегство», «Рай», «Слезы Рахили», «Ручей» и другие.

Рассмотрим некоторые из них.

Например, в стихотворении «Звезда» передается прямое обращение лирического «Я» к космическому объекту – звезде. Аппелляция к этому адресату – неодушевленному объекту осуществляется как с помощью обращения, так и трех глаголов в форме повелительного наклонения ед. ч. подобный адресат не только не способен выполнить повеления, но и услышать субъекта речи. Поэтому формы повеления выражают здесь эмоционально окрашенное пожелание того, чтобы названные действия осуществились. Все формы повеления, представляющие собой однородный ряд, содержатся в двух первых строках начальной строфы:

**Выходи, вставай, звезда,
Выгибай дугу над прудом!**
Вмиг рассечена вода
Неуклонным изумрудом. («Звезда»)[9].

В стихотворении «Опять во тьме. У наших ног» повелительное наклонение образовано от глагола несовершенного вида с лексическим значением длительности, которое применено не к лицу – к вину:

Пылай, печальное вино!
Приму тебя, как знак заветный,
Когда в туманное окно
Заглянет сумрак предрассветный [9].

В данном случае в роли адресата выступает коммуникативная метафора, обозначающая внутреннее состояние лирического героя, а именно душевную боль и муку. Таким образом, повелительное наклонение, обозначая действие, которое происходит в момент речи и передает эмоциональную оценку происходящих событий, волевое отношение к ним со стороны говорящего, имеет желательное значение (желание продолжения).

В стихотворении «Романс» изображается ситуация обольщения доверчивой девушки, которая принимает слова романса на веру, не улавливая в них восторженную ложь лирического героя:

I. *Накинув плащ, с гитарой под полою:*

Цвети звездой, ночная синева!

Ах, я лица влюбленного не скрою,
Когда пою наивные слова.

- II. Она скромна, проста ее одежда,
В глазах — любовь и ласковый испуг.

Не обмани, последняя надежда

Не обмани, пожатье робких рук! «...»

- III. Я прожил годы в боли неизменной,
Шутя пою наивные слова,
Но песнь моя есть фимиам священный!..

Благослови, ночная синева! [9].

Со своими пожеланиями лирический герой обращается к разным адресатам – не лицам: явлению природы и абстрактным понятиям. Отсутствие собеседника устраняет побудительное значение в повелительных формах глаголов. Адресация ко времени суток – ночи, осуществленная с помощью субстантивного словосочетания «ночная синева» и сопровождаемая сильным признаком диалога – повелениями «цвети», «благослови», представлена во второй строке начальной строфы и последней строке заключительной строфы.

Во второй строфе анализируемого стихотворения адресатами являются отвлеченное желание поэта («последняя надежда») и ситуация («пожатье робких рук»). Повтор формы повеления «не обмани» в синтаксически симметричных смежных строках передает страстное желание адресата. Значение желательности трансформируется здесь в заклинательное значение.

В стихотворении «Милому другу» автор апеллирует к насекомому – сверчку:

- I. **Ну, поскрипи, сверчок! Ну, спой, дружок запечный!**

Дружок сердечный, спой! Послушаю тебя —

И, может быть, с улыбкою беспечной

Припомню всё: и то, как жил любя,

- II. И то, как жил потом, счастливые волненья

В душе измученной похоронив навек, -

А там, глядишь, усну под это пенье.

Ну, поскрипи! Сверчок да человек —

- III. Для жизни медленной, безропотной, запечной

Судьба заботливо соединила нас.

Так пой, скрипи, шури, дружок сердечный

Пока огонь последний не погас! («Милому другу»)[9]

Синонимический и тавтологический повтор формы повеления в трех смежных восклицательных высказываниях первой строфы сопровождается различными способами выражения обращения к одному адресату. В первом случае имеет место его прямая номинация, в двух последующих представлен варьированный повтор перифрастического, метафорического его наименования: «дружок запечный», «дружок сердечный». Формы повеления «поскрипи», «спой» в начале первой и в конце второй строфы выражает просьбу – мольбу лирического героя «Я». В последней строфе этого стихотворения повторение бесприставочных форм несовершенного вида «пой»,

«скрипи», сопровождаемое сходнозначным «шурши», выражает усиленное пожелание, чтобы действие, которое осуществляется в момент речи, продолжало совершаться.

В ряде стихотворений В.Ф. Ходасевича, включающих обращения и формы повеления, наблюдается явление автоадресации. Так в стихотворении «Гадание» обращение «мой рок» означает «моя судьба», «мое будущее»:

*Свеча колеблет пламя красное.
Мой Рок! Лицо **приблизь** ко мне!
И тень бессмысленно-неясная,
Кривляясь, пляшет на стене. [9]*

Повелительное наклонение образовано от глагола совершенного вида. Оно обозначает действие, отнесенное к плану будущего, и приобретает заклинательное значение, что и мы наблюдаем в данном примере. Здесь присутствует смысловой компонент, определяемый как вера в силу слова, желание воздействовать словом на свою будущую судьбу.

В стихотворении «Ищи меня» поэт адресует свои слова будущему читателю, обращаясь к нему со словами «вечный друг». Адресант не присутствует в момент речи, поэтому прямое побуждение к действию уступает желанию:

- I. **Ищи меня** в сквозном весеннем свете
*Я весь — как взмах неощутимых крыл,
Я звук, я вздох, я зайчик на паркете,
Я легче зайчика: он — вот, он есть, я был.*
- II. Но, вечный друг, меж нами нет разлуки!
Услышь, я здесь. Касаются меня
*Твои живые, трепетные руки,
Простёртые в текучий пламень дня.*
- III. **Помедли так. Закрой**, как бы случайно,
*Глаза. Ещё одно усилие для меня —
И на концах дрожащих пальцев, тайно,
Быть может, вспыхну кисточкой огня. [9]*

Формы повеления встречаются в каждой строфе. В последней – две формы. Все формы повеления обращены в план будущего, и поэтому имеют чисто желательное значение.

Вывод. Формы повеления и императивные высказывания в структуре поэтического текста Вл. Ходасевича под влиянием различных условий поэтической коммуникативной ситуации, окружающего контекста подвергаются семантической и функциональной трансформации, особенно часто приобретая значение желательности.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Выступление Президента Шавката Мирзиеева на торжественном собрании, посвященном ко Дню учителей и наставников // [Электронный ресурс]. URL: <https://uza.uz/ru/posts/vystupleniye-prezidenta-respublikiUzbekistan-shavkata-mirzizoyeva-30.09.2020> (дата обращения: 18.03.2024г).
2. Алиева Э.А. Экспрессивные синтаксические средства русской орнаментальной прозы: монография. – Ташкент: Университет, 2022. – 244 с.
3. Ковтунова И.И. Поэтический синтаксис. – М.: Наука, 1989. – 207с.

4. Мелехова Л.А. Коннотация императива: Автореф. дисс... канд. фил. наук. – М., 2012. – 20 с.
5. Ноненмахер В.О. Общекоммуникативная типология лирических стихотворений В.Ф. Ходасевича // Узбекистонда хорижий тиллар. – 2021. №1 (36) – С. 19-27.
6. Рыжков. Л.А. Императив в поэзии А.С. Хомякова. // Русская речь № 2. – Мичура, 2016. – С.10-15.
7. Слина Э.В. Мысль о будущем и императивная форма речи в лирике А.С. Пушкина // Межвузовский сборник научных трудов. Псков, 1991. – С. 88-101.
8. Чижонкова Л.В. Императивы Анны Ахматовой: Диалог с миром. // Гуманитарные науки № 9(13). Пенза, 2008. – С. 551-553.
9. Ходасевич В.Ф. Стихотворения // <http://hodasevich.lit-info.ru>

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE STUDY OF LEXICAL-GRAMMATICAL TRANSFORMATIONS IN ARTISTIC TRANSLATION (ON THE EXAMPLE OF THE TRANSLATION INTO UZBEK OF THE NOVEL "THE FAULT IN OUR STARS" BY JOHN GREEN)

Norqobilov Sanjar Rahmat ugli,

Termez State Pedagogical Institute

Teacher of the Department of foreign languages in humanitarian areas

Abstract. This article analyzes lexical-grammatical transformations in the Uzbek translation of John Green's novel "The fault In our stars". The basic transformation types used in the translation process, the strategies of the interpreter, and methods for ensuring translation equivalence have been studied.

Keywords: artistic translation, lexical transformations, grammatical transformations, translation equivalence, artistic text, Uzbek language.

BADIIY TARJIMADA LEKSIK-GRAMMATIK TRANSFORMATSIYALAR TADQIQI (JON GRINNING "THE FAULT IN OUR STARS" ROMANINING O'ZBEK TILIGA TARJIMASI MISOLIDA)

Norqobilov Sanjar Rahmat o'g'li,

Termiz davlat pedagogika instituti

Gumanitar yo'nalishlarda xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jon Grinning "The fault in our stars" romanining o'zbek tiliga tarjimasidagi leksik-grammatik transformatsiyalar tahlil qilingan. Tarjima jarayonida qo'llanilgan asosiy transformatsiya turlari, tarjimonning strategiyalari va tarjima ekvivalentligini ta'minlash usullari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, leksik transformatsiyalar, grammatik transformatsiyalar, tarjima ekvivalentligi, badiiy matn, o'zbek tili.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N53>

Kirish. Badiiy tarjima madaniyatlararo muloqotning eng muhim vositalaridan biri bo'lib, u turli xalqlar adabiyoti, madaniyati va qadriyatlarini bir-biriga yaqinlashtirish vazifasini bajaradi. Zamonaviy globallashtirish davrida badiiy tarjimaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Badiiy asarlarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayonida turli xil transformatsiyalardan foydalanish zarur bo'ladi. Buning asosiy sababi — har bir tilning o'ziga xos leksik-grammatik xususiyatlari mavjudligidir [1, 45].

Tarjima jarayonida asl nusxa tilidagi matn strukturasi va mazmunini maqsad tilda to'liq aks ettirish uchun tarjimon turli transformatsiyalardan foydalanishga majbur bo'ladi. V.N. Komissarovning ta'kidlashicha, "transformatsiyalar — bu tarjima jarayonida bir til birliklarini

boshqa til birliklari bilan almashtirishning qonuniy usullaridir” [2, 56]. Transformatsiyalarsiz to‘liq va sifatli tarjimaga erishib bo‘lmaydi.

Jon Grinning “The fault in our stars” romani zamonaviy ingliz adabiyotining yorqin namunasi sifatida dunyo miqyosida katta shuhrat qozondi. 2012-yilda nashr etilgan ushbu roman o‘nlab tillarga tarjima qilinib, million nusxada sotildi. Roman o‘smirlar adabiyotining eng yaxshi namunalaridan biri sifatida tan olingan. Asarning o‘zbek tiliga tarjimasini 2022-yilda amalga oshirildi. Ushbu tarjimini o‘rganish orqali zamonaviy badiiy tarjimada qo‘llaniladigan asosiy transformatsiyalar turlarini aniqlash mumkin.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, badiiy tarjimada transformatsiyalarni qo‘llash masalalari hanuzgacha tarjimashunoslikning eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida bu masala yetarli darajada o‘rganilmagan. Jon Grin romanining o‘zbek tiliga tarjimasini o‘rganish orqali zamonaviy badiiy tarjimada transformatsiyalarni qo‘llash tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish mumkin.

Tadqiqotning maqsadi — “The fault in our stars” romanining o‘zbek tiliga tarjimasida qo‘llanilgan leksik-grammatik transformatsiyalarni aniqlash va tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, ilk bor Jon Grin romanining o‘zbek tiliga tarjimasida qo‘llanilgan transformatsiyalar kompleks tahlil qilinmoqda. Bu tahlil natijalaridan boshqa zamonaviy asarlarni tarjima qilishda foydalanish mumkin.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy-tipologik, tavsifiy va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Asarning inglizcha va o‘zbekcha variantlari solishtirilib, tarjimada qo‘llanilgan transformatsiyalar turlari aniqlandi.

Tarjima transformatsiyalari masalasi ko‘plab olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar asosida o‘rganilgan. L.S. Barkhudarov transformatsiyalarni to‘rt asosiy turga ajratadi: almashtirish, qo‘shish, tushirib qoldirish va qayta tuzish [3, 78]. Olimning fikricha, bu transformatsiyalar tarjima jarayonida eng ko‘p qo‘llaniladigan usullar hisoblanadi.

V.N. Komissarov esa transformatsiyalarni uch katta guruhga bo‘ladi [2, 56]:

1. Leksik transformatsiyalar (transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash va leksik-semantik almashtirishlar);
2. Grammatik transformatsiyalar (so‘zma-so‘z tarjima, qismlar o‘rnini almashtirish, grammatik almashtirishlar);
3. Kompleks leksik-grammatik transformatsiyalar (antonimik tarjima, ekspluatatsiya, kompensatsiya).

O‘zbek olimi G. Salomov tarjimada ekvivalentlikka erishish uchun transformatsiyalarning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi [4, 89]. Uning fikricha, transformatsiyalar asl matn mazmunini to‘liq saqlagan holda, uni boshqa tilda qayta yaratish imkonini beradi.

Retsker o‘zining “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” asarida transformatsiyalarni ikki katta guruhga ajratadi [5, 45]:

1. Doimiy (qonuniy) muqobillar — bir tildagi birlikning boshqa tilda doimiy ekvivalenti mavjud bo‘lgan hollar;
2. Vaqtinchalik (kontekstual) muqobillar — kontekstga qarab tanlanadigan ekvivalentlar.

Zamonaviy g‘arb tadqiqotchilaridan P. Nyumark transformatsiyalarni tarjima strategiyalari sifatida ko‘rib chiqadi [6, 123]. U tarjima jarayonida qo‘llaniladigan strategiyalarni kommunikativ va semantik turlarga ajratadi.

J. Mandey esa o'zining "Introducing Translation Studies" kitobida transformatsiyalarni tillarning tizimli farqlari natijasi sifatida talqin qiladi [7, 67]. Uning fikricha, transformatsiyalar qo'llash tarjimonning individual qaroridan ko'ra, ko'proq tillar o'rtasidagi tizimli farqlar bilan bog'liq.

Q. Musayev badiiy tarjimada transformatsiyalarni qo'llash masalasini o'rganar ekan, ularga pragmatik yondashuv zarurligini ta'kidlaydi [8, 145]. Uning fikricha, transformatsiyalar tarjima maqsadiga muvofiq tanlanishi kerak.

J. Sharipov transformatsiyalarni badiiy tarjimaning zaruriy vositasi sifatida ko'rib chiqadi [9, 89]. U transformatsiyalarni to'g'ri qo'llash tarjimondan nafaqat ikki tilni mukammal bilishni, balki keng dunyoqarash va badiiy did talab qilishini ta'kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tarjima transformatsiyalari masalasi ko'plab olimlar tomonidan turli aspektlarda o'rganilgan bo'lsa-da, ularning zamonaviy badiiy asarlar tarjimasida qo'llanilishi masalasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Jon Grin romanining tarjimasini o'rganish bu bo'shliqni to'ldirish imkonini beradi.

Natijalar va muhokama. Romanning o'zbek tiliga tarjimasini tahlil qilish jarayonida qo'llanilgan transformatsiyalarning bir necha asosiy turlari aniqlandi. Leksik transformatsiyalar orasida eng ko'p qo'llanilganlari quyidagilar:

1. Konkretlashtirish — ingliz tilidagi umumiy ma'noli so'zlarni o'zbek tiliga aniqroq ma'noli so'zlar bilan tarjima qilish. Masalan: "look" fe'li kontekstga qarab "tikilib qaradi", "ko'z tikdi", "razm soldi" kabi variantlar bilan tarjima qilingan. Yoki "say" fe'li "shivirladi", "ming'irladi", "baqirdi" kabi aniq ma'noli fe'llar bilan berilgan. Bu transformatsiya turi asar personajlarining xatti-harakatlarini o'zbek kitobxoniga yanada aniqroq yetkazish imkonini bergan [10, 67].
2. Generalizatsiya — tor ma'noli so'zlarni kengroq ma'noli so'zlar bilan almashtirish. Masalan, "Converse" (krossovka brendi) — "krossovka", "iPhone" — "telefon" kabi. Bu transformatsiya o'zbek kitobxoniga uchun noma'lum bo'lishi mumkin bo'lgan realiyalarni tushunarli tarzda berish imkonini bergan [6, 123].
3. Antonimik tarjima — asl nusxadagi fikrni qarama-qarshi ma'no orqali ifodalash: "Don't be late" — "Vaqtida kel", "Never forget" — "Doim esla" kabi. Bu usul o'zbek tiliga xos bo'lgan ifoda uslubini saqlash imkonini bergan [7, 89].
4. Kompensatsiya — asl nusxada mavjud bo'lgan, lekin tarjimada yo'qolgan ma'no va uslubiy jihatlarini matnning boshqa o'rnida qayta tiklash. Masalan, ingliz tilidagi so'z o'yinlarini o'zbek tilidagi maqol va idiomalar orqali berish.

Grammatik transformatsiyalar orasida quyidagi turlar ko'p uchraydi:

1. Sintaktik tuzilmalarni o'zgartirish. Ingliz tilidagi murakkab gaplarni o'zbek tilida bir necha sodda gaplarga ajratib tarjima qilish: "Having finished her homework, she went for a walk" — "U uy vazifasini tugatdi. So'ng sayr qilgani chiqdi".
2. So'z tartibini o'zgartirish. O'zbek tiliga xos bo'lgan so'z tartibini ta'minlash uchun gap bo'laklarining joylashuvini o'zgartirish: "A beautiful sunny day" — "Go'zal quyoshli kun".

Grammatik kategoriyalarni almashtirish. Ingliz tilidagi zamon shakllarini o'zbek tiliga moslashtirish: "She has been reading" — "U o'qiyapti".

Jadval 1. Romanda qo'llanilgan transformatsiyalarning qiyosiy tahlili

Asl matn (ingliz tilida)	Tarjima (o'zbek tilida)	Qo'llanilgan transformatsiya turi	Izoh
"The fault is not in our stars"	"Yulduzlar aybdor emas"	Antonimik tarjima	Ma'no saqlanib, shakl o'zgartirilgan
"Her eyes found mine"	"U menga tikilib qaradi"	Konkretlashtirish	Umumiy ma'no aniqroq ifodalangan
"I went downstairs"	"Pastga tushdim"	Generalizatsiya	Fe'l soddalashtirilgan
"Having said that, she left"	"U shunday dedi-yu, chiqib ketdi"	Sintaktik qayta tuzish	Murakkab gap soddalashtirilgan
"The beautiful memories"	"Go'zal xotiralar"	So'z tartibini o'zgartirish	O'zbek tiliga xos tartib

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tarjimon ko'proq leksik transformatsiyalardan foydalangan. Bu asarning badiiy-estetik xususiyatlarini saqlash zarurati bilan bog'liq. Grammatik transformatsiyalar esa asosan ikki til tizimidagi farqlar tufayli qo'llanilgan.

Romandagi dialog va monologlarni tarjima qilishda kompleks transformatsiyalardan foydalanish zarur bo'lgan. Chunki personajlar nutqidagi emotsional-ekspressiv bo'yoqlarni saqlash uchun bir vaqtning o'zida ham leksik, ham grammatik o'zgartirishlar talab etilgan.

Tarjimada qo'llanilgan transformatsiyalar asarning badiiy-estetik qiymatini saqlashga va uni o'zbek kitobxoniga tushunarli tarzda yetkazishga xizmat qilgan. Biroq ba'zi hollarda transformatsiyalar asl matn ma'nosini biroz o'zgartirib yuborgan. Bu esa tarjima jarayonida ma'lum darajadagi yo'qotishlar muqarrar ekanligini ko'rsatadi.

Tarjima jarayonida qo'llanilgan transformatsiyalarning samaradorligini baholash maqsadida asar tarjimasining bir necha xususiyatlarini alohida ko'rib chiqish lozim. Birinchidan, tarjimon asarning umumiy uslubini saqlashga muvaffaq bo'lgan. Roman zamonaviy yoshlar tilida yozilgan bo'lib, tarjimada ham shu uslub saqlab qolingan.

Personajlar nutqidagi o'ziga xosliklar transformatsiyalar yordamida o'zbek tiliga muvaffaqiyatli o'girilgan. Masalan, Hazel Grace va Augustus Waters o'rtasidagi dialoglar tarjimada ham o'zining tabiiy va jonli xususiyatini yo'qotmagan. Bu o'rinda tarjimon ko'proq kompensatsiya usulidan foydalangan — ingliz tilidagi so'z o'yinlari va hazillar o'zbek tiliga mos ekvivalentlar bilan almashtirilgan.

Asardagi metaforalar va obrazli iboralarni tarjima qilishda ham transformatsiyalar muhim rol o'ynagan. Masalan, "The world is not a wish-granting factory" iborasi "Dunyo — istagingni bajo keltiradigan fabrika emas" tarzida tarjima qilingan. Bu o'rinda so'zma-so'z tarjima qo'llanilgan bo'lsa-da, metaforik ma'no to'liq saqlangan.

Tarjima jarayonida qo'llanilgan transformatsiyalarning samaradorligini baholash maqsadida bir necha muhim jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, asarning umumiy uslubini saqlash masalasi. Roman zamonaviy yoshlar tilida yozilgan bo'lib, unda ko'plab sleng so'zlar va norasmiy iboralar qo'llanilgan. Tarjimon bu xususiyatni saqlash uchun o'zbek tilidagi teng qiymatli birliklardan foydalangan. Masalan, "okay" so'zi kontekstga qarab "mayli", "xo'p", "yaxshi" kabi variantlar bilan tarjima qilingan.

Personajlar nutqining o'ziga xosligini saqlash alohida e'tibor talab etgan. Augustus Waters nutqidagi metaforik iboralar va murakkab konstruksiyalarni tarjima qilishda ko'pincha kompleks transformatsiyalardan foydalanishga to'g'ri kelgan. Masalan: "My thoughts are stars I cannot fathom into constellations" — "Fikrlarim — yulduzlar, men ularni turkum qila olmayman" tarzida tarjima qilingan. Bu o'rinda ham leksik, ham grammatik transformatsiyalar qo'llanilgan.

Asardagi tibbiy terminlar va realiyalarni tarjima qilish ham alohida yondashuv talab etgan. Tarjimon ba'zi hollarda transkripsiya va transliteratsiya usullaridan foydalangan (masalan, "phalanxifor" — "falanksifor"), ba'zi hollarda esa ularning o'zbekcha muqobillarini qo'llagan ("chemotherapy" — "kimyo terapiya"). Bu strategiya tibbiy terminlarni kitobxon uchun tushunarli qilish bilan birga, asarning ilmiy-tibbiy kontekstini ham saqlash imkonini bergan.

Romandagi emotsional-ekspressiv birliklarni tarjima qilishda kompensatsiya usuli keng qo'llanilgan. Ingliz tilidagi ba'zi emotsional-ekspressiv birliklarni aynan tarjima qilish imkonsiz bo'lgan hollarda, tarjimon ularni matnning boshqa qismlarida qayta tiklagan. Masalan, "Oh my God!" undov gapini kontekstga qarab "Xudoyim-ey!", "Voy-bo'!", "Rostdan ham!" kabi variantlar bilan bergan.

Asar sarlavhasining tarjimasi alohida e'tiborga molik. "The fault in our stars" — "Yulduzlar aybdor" tarzida o'girilgan. Bu o'rinda tarjimon grammatik transformatsiya qo'llagan — ingliz tilidagi murakkab grammatik konstruksiya o'zbek tilida soddaroq shakl bilan berilgan. Biroq sarlavhaning metaforik ma'nosi va Shekspir asariga bo'lgan ishora saqlangan.

Tarjimada qo'llanilgan transformatsiyalarning yana bir muhim jihati — ularning kontekstual mosligini ta'minlash bo'lgan. Bir xil so'z yoki ibora turli kontekstlarda turlicha tarjima qilingan. Masalan, "love" so'zi kontekstga qarab "sevgi", "muhabbat", "mehr" kabi variantlar bilan berilgan. Bu strategiya matnning tabiiyligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Asardagi madaniy realiyalarni tarjima qilish alohida yondashuv talab etgan. Amerika madaniyatiga xos bo'lgan ba'zi tushunchalarni o'zbek kitobxoniga tushunarli tarzda yetkazish uchun tarjimon turli transformatsiyalardan foydalangan. Ba'zi hollarda izohli tarjima usuli qo'llanilgan, ba'zan esa madaniy ekvivalentlar topilgan.

Romandagi yumorni tarjima qilish ham muhim vazifa bo'lgan. Ingliz tilidagi so'z o'yinlari va hazillarni aynan tarjima qilib bo'lmagan hollarda, tarjimon o'zbek tilidagi o'xshash uslubiy vositalardan foydalangan. Bu o'rinda ham kompensatsiya usuli muhim rol o'ynagan.

Tarjimada qo'llanilgan transformatsiyalar asarning mazmuniy va uslubiy xususiyatlarini saqlash bilan birga, uni o'zbek kitobxoniga uchun tushunarli va ta'sirchan qilish vazifasini ham bajargan. Biroq ba'zi hollarda ma'lum yo'qotishlar ham kuzatilgan. Bu esa badiiy tarjimada to'liq ekvivalentlikka erishish murakkab ekanligi bilan bog'liq.

Umumiy natijalar shuni ko'rsatadiki, tarjimon transformatsiyalarni tanlaganda asarning janr xususiyatlari, maqsadli auditoriya va tillarning tizimli farqlarini hisobga olgan. Bu esa tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishiga sabab bo'lgan.

Shuningdek tadqiqot davomida romanning ingliz va o'zbek tilidagi variantlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida muhim xususiyatlar aniqlandi. Asarning badiiy-estetik qiymatini saqlashda transformatsiyalar muhim rol o'ynagan [5, 242-244].

Ayniqsa, personajlarning individual nutq xususiyatlarini tarjima qilishda turli transformatsiyalar qo'llanilgan. Masalan, Hazel Grace nutqidagi kinoyali va falsafiy

mulohazalar o'zbek tiliga muvaffaqiyatli o'girilgan. Bu o'rinda tarjimon ko'pincha murakkab sintaktik konstruksiyalarni soddalashtirib, o'zbek tiliga xos bo'lgan ifoda usullaridan foydalangan.

Asardagi badiiy tasvir vositalarini tarjima qilishda ham transformatsiyalar muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, metafora va o'xshatishlarni tarjima qilishda tarjimon ijodiy yondashuv qo'llagan. Masalan: "Pain is like fabric" — "Og'riq to'qimaga o'xshaydi" tarzidagi tarjimada sintaktik qayta tuzish transformatsiyasi qo'llanilgan.

Romandagi psixologik holatlarni tasvirlovchi epizodlarni tarjima qilishda ham transformatsiyalar keng qo'llanilgan. Personajlarning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari o'zbek tiliga xos ifoda vositalari orqali berilgan. Bu o'rinda tarjimon ko'proq konkretlashtirish va kompensatsiya usullaridan foydalangan.

Tarjima jarayonida asarning mazmuniy va shakl birligini saqlash masalasi ham e'tiborga olingan. Leksik-grammatik transformatsiyalar yordamida asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari saqlab qolingan. Biroq ba'zi o'rinlarda ma'lum yo'qotishlar ham kuzatilgan. Masalan, ingliz tilidagi ayrim so'z o'yinlari va iboralarning o'zbek tilidagi muqobillari to'liq ekvivalentlikni ta'minlay olmagan.

Tarjima sifatini baholashda asarning janr xususiyatlari ham muhim rol o'ynagan. "The fault in our stars" romani yoshlar adabiyoti namunasi sifatida o'ziga xos uslubga ega. Tarjimon bu uslubni saqlash uchun transformatsiyalardan unumli foydalangan. Natijada asar o'zbek tilidagi yoshlar adabiyoti namunasi sifatida ham muvaffaqiyatli chiqqan.

Qo'llanilgan transformatsiyalarning samaradorligini baholashda kitobxonlar reaksiyasi ham muhim mezon hisoblanadi. O'zbek kitobxonlari tomonidan asarning ijobiy qabul qilingani transformatsiyalarning to'g'ri tanlanganidan dalolat beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, "The fault in our stars" romanining o'zbek tiliga tarjimasida leksik-grammatik transformatsiyalarning barcha turlaridan unumli foydalanilgan. Bu transformatsiyalar asar mazmunini o'zbek kitobxonlariga to'liq va tushunarli tarzda yetkazish imkonini bergan.

Tarjimada eng ko'p qo'llanilgan transformatsiya turlari — konkretlashtirish va sintaktik qayta tuzish usullari bo'lgan. Bu ikki tilning leksik-grammatik tizimlaridagi farqlar bilan bog'liq. Bundan tashqari, kompensatsiya usuli ham keng qo'llanilgan bo'lib, u asar uslubini saqlashda muhim rol o'ynagan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, badiiy tarjimada transformatsiyalarni to'g'ri qo'llash nafaqat matnning lingvistik jihatlarini, balki uning badiiy-estetik qiymatini ham saqlash imkonini beradi. Bu tajribadan boshqa zamonaviy asarlarni tarjima qilishda ham foydalanish mumkin.

Kirish. Tilshunoslikning eng muhim sohalaridan biri uslubiyat hisoblanib, nutq uslubi— lingvistik ifodaning dinamik jihatidir. U o'zida til, madaniyat va ijtimoiy kontekst o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni aks ettiradi. U so'zlovchining ijtimoiy mavqeyi, adresat va kommunikativ vaziyat sifatida lug'at, sintaksis va fono

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Грин Ж. Юлдузлар айбдор / Тарж. А.Самадов. - Тошкент: Янги асп авлоди, 2022. - 280 б.
2. Комиссаров В.Н. Теория перевода. - СПб.: Феникс, 2020. - 253 с.
3. Бархударов Л.С. Язык и перевод. - М.: ЛКИ, 2019. - 240 с.

4. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. - Тошкент: Фан, 2018. - 186 б.
5. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. - М.: Р.Валент, 2017. - 244 с.
6. Newmark P. A textbook of translation. - London: Pearson Education, 2018. - 292 p.
7. Munday J. Introducing translation studies. - New York: Routledge, 2019. - 376 p.
8. Мусаев Қ. Бадиий таржима ва маҳорат. - Тошкент: Ўқитувчи, 2021. - 220 б.
9. Шарипов Ж. Бадиий таржима масалалари. - Тошкент: Академнашр, 2019. - 198 б.
10. Green J. The fault in our stars. - New York: Dutton Books, 2012. - 313 p.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE IMPORTANCE OF DOWNLOADING COMICS BY SAID AHMAD

Makhmudova Farangiz Muzaffar kizi,
Karshi State University Faculty of Philology,
Department of Uzbek Linguistics, Senior teacher

Abstract. In this article, it is clear to everyone that each download in the comics text has its own semantic function, place and importance. The prepositions used in the comics text show Said Ahmed's ability to skillfully use language, as well as to determine and evaluate the means and factors that serve the implementation of linguistic capabilities in the process of a certain speech activity.

Keywords: linguistic units, humor, speech units, auxiliary words, independent words, loading pragmatics.

SAID AHMAD HAJVIYALARIDA YUKLAMALARNING AHAMIYATI

Maxmudova Farangiz Muzaffar qizi,
Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti,
O'zbek tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hajviy asarlar matni tarkibida ishtirok etgan har bir yuklamaning o'ziga xos ma'no vazifasi, o'rni va ahamiyati mavjudligi haqida aytilgan. Hajviy asarlar matnida qo'llangan yuklamalar Said Ahmadning tildan mohirona foydalana olish mahoratidan darak berish bilan birga ma'lum bir nutqiy faoliyat jarayonida lisoniy imkoniyatlarning voqelanishiga xizmat qiluvchi vosita va omillarni ham belgilash, baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: til birliklari, yumor, nutq birliklari, yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar, yuklama pragmatikasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N54>

Ma'lumki, har qanday tilning mavjud imkoniyati nutqda, ya'ni kontekstda namoyon bo'ladi, shuning uchun ham turli janrlarda yozilgan badiiy asarlar matni turli aspektlarda tekshirib ko'rilmogda. Asarning til xususiyatlari esa tadqiqotchilar tomonidan turli qarashlarda har xil metodologik va metodik asoslarga ko'ra tahlil qilinadi. Badiiy asarlarning lisoniy xususiyatlari jahon va o'zbek tilshunosligida keng o'rganilgan, til sathlari lingvostilistik, lingvopoetik nuqtai nazardan atroflicha tadqiq qilingan, biroq Said Ahmad hajviy asarlari tilining leksik-grammatik xususiyatlari, grammatik vositalarning o'ziga xos jihatlari alohida tadqiq etilmagan, hajviy asarlarda yumoristik kayfiyatni ta'minlab beruvchi asosiy til birliklari, kulgi ifodalovchi grammatik birliklar maxsus o'rganilmagan. Ma'lumki, "yumor keng ma'noda ijodkorning voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalovchi tushuncha. U tor ma'noda kulgi paydo qiluvchi vositalardan biridir. Ijodkor tomonidan qalamga olinayotgan voqea-hodisalar ayrim jihatlari bilan uning idealiga zid bo'lmasa ham, biroq unda ayrim nuqsonlar bo'lishi mumkin. Ana shu nuqsonlar ustidan yengil, do'stona kulish yumorning mohiyatini tashkil qiladi.

Yumorni yuzaga keltiruvchi vositalar xilma-xildir: zukkolik, kutilmaganlik, qochiriq, nomutanosiblik va h.k[1]. Shu o'rinda alohida qayd qilinishi lozim bo'lgan masala shuki, hajviy asardagi yumorning paydo qilinishi, zukkolik, qochiriq kabilarning ta'minlanishi muayyan til birliklari va ularning leksik, grammatik, stilistik xususiyatlari bilan ham bevosita bog'liq. Chunki, har qanday nutqiy faoliyatdagi kommunikativ maqsad til birliklarining lisoniy-pragmatik imkoniyatlari orqali ta'minlanadi.

So'zlar morfologik tasnifiga ko'ra o'zgaruvchan va o'zgarmas leksemalarga bo'linadi. Fe'l, ot, sifat, son o'zgaruvchi; taqlid, ravish, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama va so'z-gap esa o'zgarmas leksemalar guruhiga mansub.

Leksemalar sintaktik tasnifiga ko'ra gap bo'lagi bo'lishga xoslanmagan, gap bo'lagi bo'lishga xoslangan va sintaktik aloqa vositasi bo'lishga xoslangan so'zlar guruhiga bo'linadi. Undov, modal, so'z-gap gap bo'lagi bo'lishga xoslanmagan guruhga; fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid, olmosh gap bo'lagi bo'lishga xoslangan so'zlar turkumiga; ko'makchi, bog'lovchi, yuklama esa sintaktik aloqa vositasi bo'lishga xoslangan so'zlar sirasiga kiritiladi.

Yordamchi so'zlar mustaqil so'z turkumlari bilan doimiy va uzluksiz aloqadorlikda. Bu nafaqat yordamchi so'zlarning matnda mustaqil so'zlarning voqelanishlari uchun xizmat qiladi, balki yordamchi so'zlar xazinasining uzluksiz ravishda mustaqil so'zlar hisobidan boyib va kengayib borishida, bu jarayonning uzluksizligida, yordamchi so'zlar tizimida tarixan mustaqil so'z bo'lib, hozir tarixiy o'zagidan batamom uzilib ketgan yordamchi so'zlar bilan (chunonchi, bila) bir safda yordamchilashishga ilk qadam tashlayotgan (maqsadida, sababli) mustaqil so'zlardan o'z aloqalarini uzmagani birliklar ham turishida namoyon bo'ladi. Shu bois yordamchi so'zlar "sof" (mustaqil so'zlar bilan aloqasi uzilgan yoki batamom qorong'ilashgan so'zlar) va "funksional" (shakliy-ma'noviy aloqalari mustaqil so'zlar bilan uzilmagan) kabi turlarga bo'linadi [2].

Badiiy asarda til birliklarining har biri ma'lum vazifa bajaradi. Yordamchi so'z mustaqil so'z va gapda grammatik ma'no ifodalashning alohida turini tashkil etadi. Yozuvchi S.Ahmad komediyalarida qo'llangan yordamchi so'zlar bir qator ifoda imkoniyatlariga ega. Yordamchi so'zlarning umumiy funksional belgisi "bog'lash"dir. Shu belgi asosida ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar so'z va gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi. Ammo bu vazifa bog'lovchi va ko'makchilar uchun o'zgarmas, barqaror sanaladi. Yuklamalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular so'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, kuchaytiruv, ayirish-chegaralash, o'xshatish kabi qo'shimcha ma'nolarni beradi va funksional "bog'lash" belgisiga nisbatan beqaror, o'zgaruvchan sanaladi, ya'ni "bog'lash" belgisi bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin.

Yuklamalar boshqa yordamchi so'zlarga nisbatan pragmatik qiymatining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Xususan, unda shaxsiy munosabatning nutqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda ifodalanishi pragmatik xoslanishning asosini tashkil qiladi. Bu holat badiiy asarlarda yorqin namoyon bo'ladi. Qahramon emotsiyasi, kayfiyatini ochishda, kitobxonga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Yuklama — yordamchi so'zlarning bir turi; ayrim gap bo'lagiga yoki gapga qo'shimcha ma'no berish uchun qo'llanadi. Yuklama tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi: Yuklama qo'shimcha (qo'shimcha holiga kelib qolgan yuklama: mi, chi, da, a, ya) va yuklama so'z (ayrim so'z holidagi Yuklama: faqat, xuddi, naq, ham). Hozirgi o'zbek adabiy tilida gapga yoki ayrim so'zlarga qo'shilganda anglatadigan ma'nolariga ko'ra Yuklamaning quyidagi turlari farqlanadi: so'roq va taajjub Yuklama lari (mi, chi, a, ya), asosan, gapni so'roq gapga aylantiradi: Bu kitobni o'qingizmi?; kuchaytiruv va ta'kid Yuklamalari (ku, ham, u, yu, da, oq,

ki) gapga tasviriylik berib, soʻz maʼnosini kuchaytirish, shuningdek, taʼkid maʼnosini qoʻshish uchun ishlatiladi.

Yuklamalarning maʼnoviy va stilistik xususiyatlari, vazifa va imkoniyatlari ilmiy adabiyotlarda [3] qayd qilingan boʻlib, shular asosida ham ularning badiiy asarlar tilini shakllantirishdagi oʻziga xos oʻrni va ahamiyatini anglash mumkin. Ayrim soʻz yoki gapga qoʻshimcha maʼno berish uchun xizmat qiladigan yordamchi soʻzlar sifatida taʼriflanadigan yuklamalar qoʻshimcha va soʻz holida mavjud. Ularga nutqdagi biror soʻzni ajratib koʻrsatish, gapga soʻroq maʼnosi berish, his-hayajon, taajjub, taʼkid va kuchaytiruv maʼnosini ifodalash kabilar xos xususiyat sanaladi. Shuningdek, yuklamalar tasdiq, inkor, chegaralov, qistov kabi maʼnolarni ifodalash hamda nutqqa tasviriylik berish uchun ham xizmat qiladi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida yuklamalar maʼno va vazifasiga koʻra quyidagicha guruhlariga boʻlinadi: 1) soʻroq va taajjub (-mi, -chi, -a, -ya); 2) kuchaytiruv va taʼkid (ku, ham, -u, -yu, -da, -oq, -yoq, -ki, -kim); 3) ayiruv va chegaralov (-gina/-kina//qina, faqat); 4) aniqlov (xuddi, naq); 5) gumon (-dir); 6) inkor yuklamasi (na-na)[4].

Ayniqsa, yuklamalarning pragmatik, stilistik xususiyatlari, vazifa va imkoniyatlari keng boʻlib, ulardan maqsadga muvofiq va unumli foydalana olish ijodkorning mahorati, salohiyati va tajribasiga bevosita bogʻliq. Umuman, yuklamalarning badiiy nutq tarkibida tutgan oʻrni, vazifasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ular, nafaqat, fikr ifodasi, grammatik vosita, balki nutq egalarining ruhiyati, dunyoqarashi, salohiyati va madaniyati kabilarni ham namoyon qiluvchi oʻziga xos pragmatik omil hamdir.

Yordamchi soʻz turkumlari maqomidagi til birliklari ham boshqa leksik birliklar singari nutqning turli koʻrinishlarida faol ishtirok etadi, oʻziga xos grammatik-pragmatik vazifani bajarib keladi.

Asar personajlarining nutqiga diqqat qaratamiz:

A s q a r (Maʼmurga). Avvalgi kuni kimning toʻyiga borganding? Kim toʻyga aytsa ketaverasanmi? Bir kun emas, bir kun bizga gap tekkizasan. Oʻsha toʻy qilgan Mingboyev kecha qamaldi.

K o m i l. Ishi bojamga oshirilibti. Bazani ham bojam reviziya qilyapti. Mingboyev juda ustasi farang odam ekan.

M a ' m u r. Hunarimiz shu boʻlgandan keyin kim toʻyga aytsa ketaveramiz-da. Bizga taka boʻlsin, yuz gramm suti boʻlsin. ("Kelinlar qoʻzgʻoloni")

Misolda uch aka-uka personaj nutqiga oid jumlar aks etgan, har uchala personaj nutqida ham yuklamalar (-mi, ham, -da) ishtirok etgan. Nutq tarkibidagi mazkur yuklamalar muayyan kommunikativ maqsadni taʼminlashga xizmat qilgan. Kim toʻyga aytsa ketaverasanmi? jumlasini orqali "Har kimning toʻyiga boraverma" tarzidagi tag maʼno anglashiladi. Bunda aka-ukaning oʻzaro bir-birini ayash, gʻamxoʻrlik qilish munosabatiga mos gap ifodasini kuzatamiz. Buyruq gap mazmunining soʻroq gap shakli orqali ifodalanishi alohida pragmatik hodisadir, -mi yuklamasi esa sof soʻroq maʼnoni emas, balki pragmatik maqsad va vaziyat talabiga muvofiq tanbeh pragmatik maʼnoni ifodalashga xizmat qilgan.

Asar qahramonlari Toʻxta va Nigoraning oʻzaro erkalash holatiga koʻzi tushgan qaynona va Sotti kelinning oʻzaro suhbatidan olingan nutq parchasida ham yuklamasi lisoniy imkoniyatining nutqiy voqelanishi bilan bogʻliq holatga diqqat qaratamiz:

F a r m o n. Nima balo deb javrayapsan?

S o t t i. Bu yoqqa qarang, bu yoqqa!

F a r m o n (ularni ko'rib yuzini to'sadi). Hayo degan narsa yo'q bu benomuslarda. Otang rahmatlik shundoq Azim sher bo'la turib bir marta ham kunduzi o'pmagandi. Bolalar uxlagandan keyin chiroqni o'chirib qo'yib, keyin o'pardilar.

S o t t i. Hozirgilar unaqa emas. Duch kelgan joyda o'pishaveradi... ("Kelinlar qo'zg'oloni")

Dialog tarkibidagi Otang rahmatlik shundoq Azim sher bo'la turib bir marta ham kunduzi o'pmagandi jumlasida ishtirok etgan ham yuklamasi bir marta so'z birikmasi bilan birga qo'llanib, "hech qachon" degan mazmuni ifodalashga xizmat qildirilgan. Shu o'rinda hech qachon olmoshini qo'llashdan ko'ra ham yuklamasini bir marta birikmasi bilan birga qo'llash orqali ham yuklamasining imkoniyatidan yumor hosil qilishda samarali foydalanilgan. Qiyoslaymiz: Otang rahmatlik shundoq Azim sher bo'la turib bir marta ham kunduzi o'pmagandi.// Otang rahmatlik shundoq Azim sher bo'la turib hech qachon kunduzi o'pmagandi. Qiyosdan ayon bo'ladi, ayni nutq jarayonida ham yuklamasining "alohida ta'kidlash" ma'nosi bilan ishtirok etishi kommunikativ maqsadga muvofiq tarzda baholanishi lozim. Fikr ifodasi bilan bog'liq kommunikativ maqsadni "yengil kulgi hosil qilish" tashkil qilib, bunda ham yuklamasining imkoniyatidan unumli va samarali foydalanilgan.

Adib komediyalarida yuklamalar o'z "bog'lash" ma'nosining susayganligi va buning evaziga "subyektiv munosabat" ma'nosi kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Yuklamalarning umumiy grammatik ma'nosi, ya'ni substansial qiymati "qisman bog'lash", "asosan, subyektiv munosabat ifodalash" oraliq grammatik ma'nolariga parchalanadi.

Yuklamalar ma'nosiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Har bir tur o'z so'zi va qo'shimcha ma'no ifodalovchi affiksiga ega. Jumladan, -ku, -da, -u (-yu), -oq (-yoq), axir, hattoki, hatto, nahot, g'irt, ham kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi guruhini tashkil etadi. Badiiy asarda bu yuklamalar asosan, dialogik nutqda qo'llanib, so'zlovchining voqea-hodisa haqidagi ta'kid munosabatini ifodalab keladi.

1. O'rinboy. To'xtavoy, hoy To'xtavoy. Turmaysanmi, uka. Hovli qiyomat bo'lib ketdi-ku.

2. Farmon. Senga oq sut bergan onangdan xotin aziz bo'пти-da. Yo'q, bunaqasi ketmaydi.

Xotiningni hozir oyisinikiga eltib qo'yasan.

3. To'xta. Axir men sizni sevaman.

4. Sotti. Nima deydi? Qurshov? Paulyus? Tushunolmay qoldim-da. Pamyatim o'lgur, ayniyapti. ("Kelinlar qo'zg'oloni")

Yuqoridagi parchalarda qo'llangan yuklamalar orqali ta'kidlash bilan birga so'zlovchining o'z fikrini uqtirish pragmatik ma'nosi ham reallashgan. Bir jumlada ham qo'shimcha, ham so'z maqomidagi yuklamani qo'llash orqali (4-misol) ta'kidlash ma'nosi kuchaytirilgan. Qahramon shu vositalarni qo'llamay gapirsa, fikrni uqtirish va kuchaytirish ma'nolari o'z-o'zidan "so'nadi". Bu ma'no qirralari namoyon bo'lmasa, nutq intensiyasi mavhumligicha qoladi.

Yozuvchi komediyalarida qo'llangan so'roq-taajjub yuklamalari ham bir qator pragmatik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilgan.

1. O'rinboy. Bir-birining diydoriga hali to'ygani yo'g'-a, yana ozroq qo'yib bering. Balki bir-biringlar bilan til topishib ketisharsizlar.

2. To'xta. Yo'q, shaharda shunaqa deyishadi. Ammo mahallada u kishini Marshal kampir deyishadi-ya.

3. Ishonmayapsiz-a? Yo'q, ishoning. Xotin poshshoning yurtini bir ko'rasizmi? Ko'rsatay-a?

4. Nigora. Nima, siz meni sira ham qo'rqmaydi, deb o'ylaysizmi? Agar yetti kelin ko'lni qo'lga berib, bir jang qilsak, Marshal kampirning boshiga qurshovda qolgan feldmarshal Paulyusning kunini solishimiz hech gapmas.

Yuqoridagi jumalarda qo'llangan -mi, -a (-ya) yuklamalari matnga so'roq va taajjub ma'nolarini yuklagan.

S.Ahmad komediyalarida -chi yuklamasining quyidagi ma'nolarni ifodalashini kuzatish mumkin:

1) so'rash: Jo'ra. Haydamay tur bolani. Qani, ayt-chi, Erkinboy, qaysi o'rtog'ingni buvisini aytyapsan? Erkin. Bitkombinatda biz bilan ishlaydigan fotochi o'rtog'im bor. Oti Arkadiy. ("Kuyov")

2) qistash: Farmon. Xo'sh, menga ayt-chi, senga ona kerakmi, xotin kerakmi? To'xta (o'ylab qoladi. Komil unga ikkita barmog'ini ko'rsatadi). Ikkovingiz ham keraksiz. ("Kelinlar qo'zg'oloni")

3) ta'kid, uqtirish: Sotti. Kelin uxlatmagan-da. Lutfi. Qo'ysangiz-chi, ovsin! Lutfi. Bo'lmasam-chi. Oyimning qo'lga tushdimu yelkamni kim silasa, mushukdek mudraydigan bo'lib qoldim. Muhayyo. Mulla akangiz-chi, bedanaga ishqiboz. Shundoq sayroqi bedanalarni topib keladilar. Sho'rliklar oyimni ko'rishi bilan soqov bo'ladi qoladi. ("Kelinlar qo'zg'oloni")

4) do'q, buyruq: Farmon. Hoy to'xtasang-chi, kimsan o'zing? ("Kelinlar qo'zg'oloni") Nazmi. Qani, mensiz bir kadam bosib ko'ringlar-chi. Ishongan tog'da kiyik yotmas, deb shuni aytarkanlar-da. Agar dadam xotin olsalar, bo'g'izlayman, degan kim edi? ("Kuyov")

Dramaturg komediyalarida bir qahramon tilida bir necha xil yuklama qo'llanib, fikrni aniq va emotsiyali tarzda yetkazib berishga xizmat qilgan: Farmon. *Sottiniso, buni ham yozing. Bolam bechora shu qorin og'rig'idan sira*

qutulmadi-da. Yana pul ketqazib, grelka sotib olipti-ya. Uyga kelganda-ku, butilkaga issiq suv quyib berardik. ("Kelinlar qo'zg'oloni")

Ushbu parchada inkor (sira), ta'kid (-da, -ku) hamda taajjub (-ya) yuklamalari qo'llanib, Farmon bibining o'g'lining qilgan ishiga nisbatan taajjubi (grelka sotib olgani uchun) va ta'kid orqali tanbehi (uyga kelganda-ku, butilkaga issiq suv quyib berardik) imlitsit tarzida ifodalangan. Adib bu orqali qahramon nutqini individuallashtirishga, uning qattiqqo'lligiga tomoshabin (kitobxon)ni ishontirishga erishgan.

Yoki: G'ani (sapchib o'rnidan turib ketadi). Iya, iya, hali niyatlaring shumidi?! Onangni ketidan meni ham jo'natmoqchimisanlar? O'limimni kutib o'tirgan ekansanlar-da. Yo'-o'q, men hali-veri o'lmayman. ("Kuyov")

Bunda so'roq (-mi) va ta'kid (-da) yuklamalari orqali nafaqat so'roq va ta'kid ma'nosi, balki qahramonning kuchli g'azabi, noroziligi va alami ifodalangan. Qahramon so'roq yuklamasi -mi orqali tinglovchilardan javob olishni maqsad qilmagan. Ularga nisbatan noroziligini, xafa ekanligini ko'rsatib, drama komedik ruh bergan. Mana bu parchada ham yuklama orqali xuddi shunday munosabat reallashgan:

G'ani. Uylanolmaymanmi, a, uylanolmaymanmi? Shu zax, qorong'i uyda ko'kragimni zaxga bosib muzdek yostiqni quchoqlab g'ingshib yotaveramanmi?! ("Kuyov")

Bu o'rinda yuklamalar o'z ma'nosidan tashqari boshqa pragmatik ma'nolarni yetkazishga xizmat qilgan. Bu esa yuklamalarning badiiy adabiyotdagi imkoniyatini ko'rsatadi.

Qudrat. Nima qilasan, uni, opa?

Bahri. Chaqir uni. Chaqir dedimmi, chaqir! ("Kuyov").

Ushbu dialogda esa so‘roq yuklamasi orqali buyruq hamda ta’kid ma’nosi ifodalangan. Buyruq ma’nosi buyruq-istak mayl shaklidan tashqari yuklamalar orqali ham hosil bo‘lishi mumkinligi adib mahorati orqali namoyon bo‘lgan.

Nazmi. Hali to‘y ham bo‘ladimi?

Bahri. Karnay-surnay chalinadimi? (“Kuyov”)

Bu misolda so‘roq yuklamasi orqali hayratlanish ma’nosi anglashiladi. Adib komik vaziyatni yaratish uchun maxsus yuklamalarning pragmatik ma’nolarini reallashtirishga erishgan.

Albatta, men shoir emasman, bu qapishishni nima deydi, o‘pich deydimi, bo‘sa deydimi bilmayman. Hozir ko‘rib turganim manzara o‘pichga ham, bo‘saga ham o‘xshamasdi, uni ruxsat bersanglar, so‘rish deb qo‘yaqolay. (“Xandon pista”)

Ushbu parchada qo‘llangan so‘roq yuklamasi hisoblangan -mi sof so‘roq ma’nosini ifodalamay, nutqqa emotsional bo‘yoq bergan. So‘zlovchining asosiy maqsadi savolga javob olish emas, balki o‘sha masalada o‘zining bilmasligini ko‘rsatish.

Umuman olganda, hajviy asardagi yumorning paydo qilinishi, zukkolik, qochiriq kabilarning ta’minlanishi muayyan til birliklari va ularning leksik, grammatik, stilistik, pragmatik xususiyatlari bilan ham bevosita bog‘liq. Chunki har qanday nutqiy faoliyatdagi kommunikativ maqsad til birliklarining lisoniy-pragmatik imkoniyatlari orqali ta’minlanadi. Bu esa badiiy nutq tarkibida ishtirok etadigan barcha leksik-morfologik birliklarning lisoniy-nutqiy xususiyatlari, imkoniyat va voqelanishi yuzasidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilishini taqozo qiladi. Ayniqsa, hajviy asarlar matnidagi leksik-morfologik vosita va omillarni tekshirish, tahlil qilish va ularning nutq jarayonidagi grammatik-pragmatik ma’no va vazifalarini aniqlash, tavsiflash va tasniflash kun tartibidagi muhim masalalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1983. – 383 b. –B. 372-373.
2. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – B. 147. – 336 b.
3. Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматикаси. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. – 77 б. – Б. 16.
4. O‘zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. –Toshkent, 1975. –B. 575;
5. Shoabdurahmanov Sh. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: O‘qituvchi, 1980. –B.432;
6. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. –Toshkent, 1987.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE LANGUAGE OF SPORT IN COMMUNICATION AND CULTURAL REVIEW

Abdumajitov Xurshid Alisher ugli,
an intern-teacher of the department of the
linguistic provision of intercultural communication
Uzbekistan State World Languages University
Email: khurshidabdumajitov@gmail.com

Abstract. Numerous aspects of sport language are covered in the article. First, using well defined sport language, it is presented as a manifestation of sport as a human activity. Sport's cultural roots indicate that a variety of human needs gave rise to the sport's replacement, therapeutic, preventative, and recreational purposes. Sport language has its own unique lexicon, phraseology, morphology, and pronunciation. Its social functions and vocabulary make apparent allusions to military and wartime terminology and behavioral tendencies. Whether the language of contemporary sport can escape the brutalization process is still a crucial subject.

Keywords: a sport language, conversation, language functions, sport lexicology.

MULOQOT VA MADANIYAT SHARHIDAGI SPORT TILI

Abdumajitov Xurshid Alisher o'g'li,
O'zDJTU "Madaniyatlararo kommunikatsiyaning
lingvistik ta'minoti" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada sport tilining turli xususiyatlari muhokama qilinadi. Birinchidan, u aniq belgilangan sport jargonida inson faoliyati sifatida sportning ifodasi sifatida taqdim etiladi. Sportning madaniy kelib chiqishi insonning turli xil istaklariga ishora qiladi, bu esa sportning o'rnini bosuvchi, profilaktika va dam olish funksiyalarida paydo bo'lishiga olib keldi. Sport tili o'ziga xos leksika, frazeologiya, morfologiya va fonologiyaga ega. Uning so'z boyligi va ijtimoiy funksiyalari harbiy va urush atamallari va xatti-harakatlar namunalari aniq havolalarni aniq ko'rsatadi. Zamonaviy sport tili shafqatsizlik jarayonidan qochib qutula oladimi, muhim savol.

Kalit so'zlar: sport tili, muloqot, til funksiyalari, sport leksikasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N55>

Kirish. Til bizning hayotimizning ajralmas qismidir. Bu kognitiv jarayonlar orqali shaxslararo muloqotga imkon beradi va bizning his-tuyg'ularimiz, his-tuyg'ularimiz va his-tuyg'ularimiz ifodasini tashkil qiladi. [1; B25-26]. Tildan voz kechadigan hech qanday inson faoliyati yo'q. Til yozilishi yoki og'zaki bo'lishi mumkin, bundan tashqari imo-ishora tillari yoki konventsia signallarining boshqa tizimlari kabi og'zaki bo'lmagan shakllarni ham qabul qilishi mumkin.

Har bir inson faoliyati uning lingvistik ifodasini lug'at, fonologiya, sintaksis va frazeologiya nuqtai nazaridan ta'sir qiladi. Shunday qilib, til tuzilishi monolit emas; u professional, ekologik, uslubiy va vaziyatli o'zgarishlarni o'z ichiga oladi — har biri o'ziga xos

xususiyatlarga ega[2; B12-14]. Turli kasblar, guruhlar yoki kasblar bilan bog‘liq til o‘zgarishlari jargonlar deb ataladi, misol uchun: yuridik jargon, tibbiy jargon, qamoqxona jargoni yoki yoshlar jargoni. Shunga o‘xshash tarzda, sport jargonlari ham mavjud, bir necha yillar davomida tadqiqotning muhim sohasiga aylangan .

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tilning sport xilma-xilligi (sport jargoni) sportchilar va boshqa barcha sportchilar tomonidan o‘zlarining sport faoliyati sohalarida muloqot qilish ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqilgan. Sport tilining roli sportning inson hayotidagi o‘rni bilan qat‘iy bog‘liq va sportdagi lingvistik ifoda funktsiyasi turli shaxslar va guruhlarning sport xatti-harakatlarining o‘ziga xos shakllari bilan bog‘liq[3; B79-80]. Sport tili har doim uning aloqa va madaniy kontekstlarida mustahkam joylashgan va qat‘iy bog‘langan holda o‘rganilishi kerak. Uning xususiyatlari to‘g‘risidagi munozara sportning kelib chiqishini lingvistik bo‘lmagan ko‘rib chiqishdan boshlanishi va uning tuzilishi va funktsiyalarini diaxronik va sinxron tahlil qilishni o‘z ichiga olishi kerak.

Muhokama. Sport — bu insonning o‘zini o‘zi amalga oshirishga qaratilgan faoliyati. Bu shaxsning psixologik (biologik) va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradi, ular birgalikda intilishlar va motivatsiyalar spektrini tashkil qiladi. Birinchisi quyidagilardan iborat: guruhda ishlashning eng muvaffaqiyatli darajasiga erishish uchun tana kuchi va jismoniy tayyorgarligining ortishi bilan namoyon bo‘ladigan o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish; boshqa guruh a‘zolariga nisbatan o‘zining jismoniy tayyorgarligini tasdiqlash, uning ijtimoiy ierarxiyada yaxshi yoki yaxshiroq mavqeyini va raqibga qarshi turishda xavfsizligini ta‘minlash zarurati; kuchli kinetik faoliyat orqali stressdan xalos bo‘lishga urinishlar (qarang. g‘azab, qo‘zg‘alish, tirnash xususiyati yoki g‘azab kabi kuchli his-tuyg‘ularni tezkor imo-ishoralar, oyoqlarini tegizish, narsalarni uloqtirish, tez yurish, yugurish yoki sakrash orqali neytrallash)[4; B6-7].

Annotatsiya. Ushbu maqola arab tilshunosligida ziyorat turizmi bilan bog'liq terminologiyaning lingvistik xususiyatlari va rivojlanish jarayonini o'rganadi. Tadqiqotda ziyorat turizmi terminlarining kelib chiqishi, rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, ularning lingvistik va madaniy jihatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bu terminlarning zamonaviy o'zgarishlarga moslashishi hamda ularga ijtimoiy-madaniy omillarning ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: arab tilshunosligi, ziyorat turizmi, terminologiya, lingvistik xususiyatlar, rivojlanish jarayoni, ijtimoiy-madaniy ta'sir.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N61>

Kirish. Ziyorat turizmi, ya'ni diniy-sayyohlik faoliyati bugungi kunda global miqyosda keng tarqalgan ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi. Ayniqsa, arab davlatlari ushbu sohada muhim rol o'ynab, ko'plab ziyoratchilar uchun maqsad joyi bo'lib kelmoqda. Bu esa arab tilida ziyorat turizmi bilan bog'liq terminologiyaning rivojlanishi va o'ziga xos lug'at boyligini shakllantirishga sabab bo'ldi. Shu sababli, ziyorat turizmi sohasidagi atamalar arab tilshunosligi nuqtai nazaridan alohida ilmiy e'tiborga loyiqdir.

Ushbu maqolada ziyorat turizmi bilan bog'liq terminlarning lingvistik xususiyatlari va rivojlanish jarayoni o'rganiladi. Maqolada arab tilida ziyorat turizmi bilan bog'liq asosiy tushunchalar va atamalar tahlil qilinib, ularning kelib chiqishi, o'zgarish jarayonlari va madaniy hamda ijtimoiy omillar ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, arab ziyorat terminologiyasining

zamonaviy o'zgarishlarga moslashuvi va ularning kengroq tilshunoslik tadqiqotlaridagi o'rni muhokama qilinadi.

Mazkur tadqiqot natijalari ziyorat turizmi atamaları bo'yicha ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, arab tilshunosligi sohasida yangi ilmiy istiqbollarni ochib beradi.

Metodlar. Ushbu ilmiy maqolada ziyorat turizmi bilan bog'liq arab tilidagi terminologiyaning lingvistik xususiyatlari va rivojlanish jarayonini o'rganish uchun kompleks metodlar qo'llanildi.

Tadqiqot materiallari sifatida turli arab manbalari, jumladan, Saudiya Arabistoni, Misr va Birlashgan Arab Amirliklari turizm va ziyoratga oid hujjatlari va risolalari tanlab olindi [6; 58-75 b.].

Tadqiqotning metodologiyasi quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. *Adabiyotlar tahlili:* arab tilshunosligi va ziyorat turizmi sohalarida mavjud ilmiy manbalar, monografiyalar, maqolalar va lug'atlar o'rganildi. Bu bosqichda arab tilida ziyorat turizmi bilan bog'liq terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishiga oid avvalgi ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi.

2. *Leksik-semantik tahlil:* ziyorat turizmi bilan bog'liq arabcha terminlarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilindi. Atamalarning lug'aviy ma'nolari, ko'chma ma'noda qo'llanilishi, shaklan o'zgarishi va turli kontekstlarda qo'llanishiga alohida e'tibor qaratildi.

3. *Tarixiy-etimologik tahlil:* ziyorat turizmi terminlarining kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishi etimologik nuqtai nazardan o'rganildi. Bu usul arab tili va madaniyati tarixidagi ziyoratga oid tushunchalarning paydo bo'lishi va ularning zamonaviy terminologiyaga ta'sirini tushunishga yordam berdi.

4. *Ijtimoiy-madaniy tahlil:* ziyorat turizmi terminlariga ijtimoiy-madaniy omillarning ta'sirini aniqlash uchun sotsiolingvistik yondashuv qo'llanildi. Bu usul orqali ziyorat turizmi bilan bog'liq terminlarning madaniyat va an'analardan kelib chiqqan o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqildi.

5. *Qiyosiy tahlil:* ziyorat turizmi bilan bog'liq arabcha terminlar boshqa tillardagi ekvivalentlari bilan taqqoslandi. Bu bosqichda arab tilidagi atamalarning boshqa tillarga ta'siri va ularning tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar tahlil qilindi.

Mazkur metodlardan foydalanish natijasida ziyorat turizmi terminologiyasining lingvistik xususiyatlari kengroq yoritilib, uning rivojlanish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi.

Natijalar. Ushbu tadqiqot natijasida arab tilshunosligida ziyorat turizmi terminologiyasining bir qator muhim lingvistik va ijtimoiy-madaniy xususiyatlari aniqlandi. Asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

1. *Leksik boylik va xilma-xillik:* ziyorat turizmi bilan bog'liq terminologiya arab tilida keng leksik imkoniyatlarga ega bo'lib, turli dialektlar va madaniy hududlarda o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi. Ma'lum bo'lishicha, ko'plab atamalar an'anaviy diniy va tarixiy manbalardan kelib chiqqan bo'lib, o'zida chuqur ma'no yukini saqlaydi.

2. *Semantik o'zgarishlar va zamonaviylikka moslashish:* tadqiqotda ko'rilganidek, ziyorat turizmi atamaları zamonaviy ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga moslashmoqda. Yangi terminlar va iboralar paydo bo'lib, ular sayohat, xizmat ko'rsatish va turizm sohaları bilan bog'lanmoqda. Bu, o'z navbatida, ziyorat terminologiyasining ma'no doirasini kengaytiradi.

3. *Tarixiy-etimologik chuqurlik:* etimologik tahlil natijalari ziyorat turizmi terminlarining qadimiy ildizlarga ega ekanligini va ular diniy an'analar bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Ziyoratga oid terminlar arab tilining o'tmishdagi shakllaridan kelib chiqib, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

4. *Ijtimoiy-madaniy omillar ta'siri:* tadqiqotda aniqlanishicha, ziyorat turizmi bilan bog'liq atamalar shakllanishida va ularning qo'llanilishida ijtimoiy-madaniy omillar katta rol o'ynaydi. Arab davlatlarida ziyorat an'analari va diniy urf-odatlar bu sohadagi til birikmalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularning unikal va o'ziga xos bo'lishiga olib keladi [1; 45-67 b.].

5. *Tilshunoslikka qo'shgan hissasi:* ushbu tadqiqot arab tilida ziyorat turizmi terminologiyasi haqida chuqurroq bilim hosil qilishga yordam berdi va ularning arab tilshunosligi tadqiqotlaridagi o'rni va ahamiyatini namoyon qildi. Bu soha bo'yicha kelgusida olib boriladigan lingvistik izlanishlar uchun metodologik asos yaratildi.

Ushbu bo'limda tadqiqot natijalari quyidagicha taqdim etiladi:

1. *Semantik natijalar:* "ziyōrah", "rihlah diniyyah" va "maqom muqaddas" kabi atamalar arab tilida chuqur diniy va ma'naviy ma'noga ega. Ushbu atamalar diniy sayohat va ibodat tushunchalari bilan bevosita bog'liq.

2. *Sintaktik jihatlar:* arab tilida ziyorat turizmi bilan bog'liq atamalar odatda bir yoki bir nechta diniy atamalar bilan birgalikda ishlatiladi. Masalan, "ziyōrah ilā makka" yoki "ziyārat al-mashāhid al-muqaddasa" kabi birikmalar.

3. *Dialektal va lahja o'zgarishlari:* turli arab mamlakatlarida ziyorat turizmi bilan bog'liq atamalarni qo'llanishida dialektal farqlar mavjud. Masalan, Saudiya Arabistoni va Misr lahjalarida bu atamalar biroz farq qilishi mumkin.

4. *Madaniyatlararo kommunikatsiya:* ingliz va fransuz tillaridan olingan atamalar arab tilida o'zlashtirilib, "pilgrimage tourism" kabi iboralar o'rniga "turizmu diniy" shaklida ishlatilmoqda [4; 120-134 b.].

Umuman olganda, ushbu natijalar arab tilida ziyorat turizmi terminologiyasining lingvistik rivojlanishini yanada chuqurroq anglashga imkon berdi va uni tadqiq qilish orqali til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yaxshiroq tushunish uchun zamin yaratdi.

Muhokama. Ziyorat turizmi arab dunyosida juda muhim diniy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, uning atrofida shakllangan terminologiya arab tilining boyligi va murakkabligini aks ettiradi. Ushbu tadqiqot ziyorat turizmi terminologiyasining lingvistik xususiyatlari va rivojlanish jarayonini o'rganish orqali bir qancha muhim ilmiy xulosalar berdi. Muhokama davomida ushbu natijalarning lingvistik va madaniy ahamiyati hamda ularning arab tilshunosligidagi o'rniga e'tibor qaratiladi [2; 99-118 b.].

Birinchiidan, ziyorat turizmi terminlari arab tili leksikasida keng ko'lamli semantik mazmuni qamrab oladi. Ushbu atamalar qadimiy diniy va tarixiy manbalar bilan bog'liq bo'lib, ular nafaqat arab tilida, balki umuman islomiy madaniyatda ham alohida o'ringa ega. Ushbu terminlarning zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga moslashishi, ularning davomiy rivojlanishini ta'minlaydi va ziyorat turizmi sohasida yangi leksik birliklarning paydo bo'lishiga imkon yaratadi. Bu esa arab tilining dinamik rivojlanishiga va boyishiga yordam beradi.

Ikkinchiidan, ziyorat turizmi terminologiyasining zamonaviylikka moslashishi arab dunyosida bu sohaning o'sib borayotgan iqtisodiy ahamiyatini aks ettiradi. Arab tilidagi ziyorat turizmi atamalari ko'pincha tijorat va turizm bilan bog'lanib, zamonaviy xizmat ko'rsatish jarayonlariga integratsiyalashmoqda. Bu, o'z navbatida, arab tilidagi ziyorat terminologiyasini

boshqa tillar bilan leksik almashinuv jarayoniga olib keladi va tarjima muammolarini ham keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, ijtimoiy-madaniy omillarning ziyorat turizmi terminlariga ta'siri arab jamiyatlarining o'ziga xosligini namoyon qiladi. Arab davlatlarida ziyorat turizmi an'analari va urf-odatlariga uzoq tarixga ega bo'lib, bu sohada ishlatiladigan terminologiya ham an'anaviy qadriyatlarni aks ettiradi. Shu bilan birga, zamonaviy dunyoda ushbu terminlarning yangilanib borishi ularning ijtimoiy moslashuvchanligini ko'rsatadi va arab tilining dolzarbligini saqlab qolish uchun imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalari arab tilshunosligida ziyorat turizmi atamalarining madaniy va diniy o'rnini ko'rsatadi. Arab dunyosida ziyorat joylari bilan bog'liq atamalar xalqaro turizm industriyasining rivojlanishi va arab tilining global ahamiyati oshishi bilan keng qo'llanilmoqda. Tadqiqot natijalari arab tilida ziyorat turizmi atamalarini tahlil qilishning ahamiyatini ko'rsatadi va xalqaro kommunikatsiyada arab tilining o'rnini yoritadi. Arab tilida ziyorat turizmi terminologiyasining xalqaro miqyosda qo'llanilishi yangi leksik birliklar va iboralarni keltirib chiqarmoqda. Bu, o'z navbatida, arab tilida yangi terminologiyani standartlashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Arab tilida turizm bilan bog'liq atamalarni xalqaro miqyosda standartlashtirish zaruriyati sezilmoqda. Bu esa turizm terminologiyasi va arab madaniyati hamda merosi uchun muhim qadam bo'ladi[3; 78-92 b.].

Muhokama davomida bu tadqiqotning tilshunoslikka qo'shgan hissasi ham alohida ta'kidlanishi kerak. Arab tilida ziyorat turizmi terminologiyasini o'rganish til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatdi va arab tilining lingvistik boyligini chuqurroq o'rganish uchun yangi metodologik asos yaratdi. Kelgusida arab tilidagi boshqa sohalar terminologiyasini o'rganishda ushbu tadqiqotdan olingan natijalar va metodlar asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurroq o'rganish uchun asos yaratib, arab tilining zamonaviy rivojlanish jarayonlariga ta'sir ko'rsatdi[5; 33-49 b.].

Xulosa. Ushbu maqola arab tilshunosligida ziyorat turizmi bilan bog'liq terminologiyaning lingvistik xususiyatlari va rivojlanish jarayonini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari, ziyorat turizmi terminlarining arab tilida nafaqat diniy va madaniy ahamiyatga ega bo'lishi, balki zamonaviy ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga moslashishi kabi muhim xususiyatlarini ochib berdi.

Ziyorat turizmi atamalarini arab tilining boy leksik boyligini va tarixiy ildizlarini aks ettiradi. Bu terminlar qadimiy diniy va madaniy manbalardan kelib chiqqan bo'lib, hozirgi kunda zamonaviy turizm va xizmat ko'rsatish sohalariga bilan bog'lanib, yangilanmoqda. Shu bilan birga, ziyorat turizmi terminologiyasi arab tilining ijtimoiy va madaniy omillariga ta'sirini aks ettirib, uning lingvistik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu atamalar ijtimoiy moslashuvchanlikni va zamonaviy ehtiyojlarga javob berishni ko'rsatadi.

Tadqiqotda shuningdek, ziyorat turizmi terminologiyasining boshqa tillar bilan aloqalari va tarjima jarayonlari ham muhokama qilindi. Arab tilidagi ziyorat terminlarining boshqa tillarga moslashtirilishi, ularning lingvistik va madaniy kontekstlariga ta'sir ko'rsatadi, bu esa tarjima amaliyotining murakkabliklarini yuzaga keltiradi.

Umuman olganda, ushbu ilmiy ish ziyorat turizmi terminologiyasining lingvistik xususiyatlarini va rivojlanish jarayonini chuqurroq o'rganish imkonini berdi va arab tilshunosligi sohasida yangi ilmiy istiqbollarni ochdi. Bu tadqiqot nafaqat arab tilidagi ziyorat

turizmi terminologiyasini, balki umumiy tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda ham foydali bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ahmed S. Cultural Impact on Arabic Terminology: A Case Study of Religious Tourism. *Journal of Arabic Linguistics*, 32(1), 2015. – 45-67 b.
2. Jabari R. Tourism and Language in the Arab World: The Role of Religious Pilgrimage Terminology. *Journal of Middle Eastern Studies*, 25(3), 2017. – 99-118 b.
3. Nasser L. Language and Society: The Impact of Modern Tourism on Arabic Terminology. *Journal of Arabic Sociolinguistics*, 9(4), 2016. – 78-92 b.
4. Shahin M. The Evolution of Arabic Terminology in the Context of Religious Practices and Pilgrimage Tourism. *Linguistics and Culture*, 20(2), 2014. – 120-134 b.
5. Yousef F. The Impact of Modernization on Arabic Religious Tourism Terminology. *Arabic Language Review*, 18(2), 2009. – 33-49 b.
6. Zahrani S. From Tradition to Modernity: The Transformation of Pilgrimage Terminology in the Arab World. *Islamic Studies Journal*, 14(1), 2018. – 58-75 b.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE UNIQUENESS OF STYLISTIC FIGURES IN TRANSLATION

Sobirova Nodirabegim Murodjon kizi,

Department of Foreign Languages of Kokan University
Teacher

E-mail: nodirabegimsobirova600@gmail.com

Egamberdiyeva Sarvinoz Esonali kizi,

Department of Foreign Language and Literature of Kokan University
Student

E-mail: carloterror1@gmail.com

Abstract. This article analyzes the uniqueness of stylistic figures in translation. Stylistic figures are tools that enhance the expressiveness of language and strengthen its artistic impact. The article discusses their interpretation and specific features in translation. The difficulties of translating stylistic figures such as metaphor, hyperbole, personification, litotes, and others are examined, along with the need for adjustments based on cultural differences. The article emphasizes the importance of the translator's knowledge of language and culture in preserving the meaning and artistic value of stylistic figures.

Keywords: stylistic figures, translation, metaphor, hyperbole, personification, litotes, culture, linguistics, artistic impact, translator, cultural differences.

STILISTIK FIGURALARNING TARJIMADAGI O'ZIGA XOSLIGI

Sobirova Nodirabegim Murodjon qizi,

Qo'qon universitetining Xorijiy tillar kafedrası

Egamberdiyeva Sarvinoz Esonali qizi,

Qo'qon universitetining Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi

Annotatsiya. Ushbu maqolada stilistik figuralarning tarjimadagi o'ziga xosligi tahlil qilinadi. Stilistik figuralar — bu tilning ifodaviy kuchini oshirish va badiiy ta'sirni kuchaytirish uchun ishlatiladigan vositalar bo'lib, ularning tarjimadagi talqini va o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiriladi. Maqolada metafora, giperbola, personifikatsiya, litota va boshqa stilistik figuralarning tarjimadagi qiyinchiliklari va madaniy farqlarga qarab qanday o'zgartirishlar kiritilishi zarurligi ko'rib chiqiladi. Tarjimada stilistik figuralarning ma'nosi va badiiy ahamiyatini saqlash uchun tarjimonning til va madaniyat bilimi zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: stilistik figuralar, tarjima, metafora, giperbola, personifikatsiya, litota, madaniyat, lingvistika, badiiy ta'sir, tarjimon, madaniy tafovutlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N62>

Kirish. Tarjima san'ati va ilmiy faoliyatda keng qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, lingvistik va madaniy o'zgarishlarni aks ettiradi. Tarjimada asarlarning stilistik xususiyatlarini

to'g'ri saqlab qolish, mazmunni to'liq yetkazish va tilning ifodaviy kuchini saqlash juda muhimdir. Stilistik figuralar – bu tilning noan'anaviy usullarda ishlatilishi bo'lib, o'ziga xos ravishda tilni rang-barang va ta'sirchan qilishga qaratilgan vositalardir. Tarjimada bu figuralarning o'ziga xosligi va ularning to'g'ri talqin etilishi muhim vazifa hisoblanadi. Stilistik figuralar tarjimada ularning badiiy ma'nosini, madaniy va lingvistik xususiyatlarini saqlab qolish uchun maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu maqolada stilistik figuralarning tarjimadagi o'ziga xosligi, ularning tarjimadagi ahamiyati va tarjimon uchun yuzaga keladigan qiyinchiliklar ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism. Tarjima jarayonida stilistik figuralarning o'ziga xosligi juda muhim ahamiyatga ega. Stilistik figuralar — bu tilning ifodalash vositalari bo'lib, ular so'zlarning ma'nosi va shakli orqali o'quvchiga yoki tinglovchiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday figuralar tarjimaga ko'chirilganda ularning o'ziga xosligini saqlab qolish muhimdir, chunki ular asar yoki matnning estetik va emotsional jozibasini saqlashga yordam beradi. Tarjima jarayonida stilistik figuralarning xususiyatlarini yaxshi tushunish va ularni to'g'ri va mos ravishda aks ettirish zarur.

1. Metafora (Misol): Metafora — bu bir narsani boshqa bir narsaga taqqoslashdir, lekin bevosita bog'lovchi so'zlardan foydalanilmaydi. Tarjimada metaforani to'g'ri tarjima qilish, maqsadli tilning madaniy xususiyatlarini inobatga olishni talab qiladi. Misol: O'zbek tilida “dunyo yo'li” degan ibora “hayot yo'li” sifatida tarjima qilinishi mumkin. Tarjimada shakl va ma'no bir vaqtning o'zida ifodalanadi.

2. Sinonimlar va antonimlar: Sinonimlar va antonimlar stilistik figuralar sifatida ham tarjimaga kiradi. Ularni tarjima qilishda to'g'ri tanlash juda muhim. Tarjimon sinonimlarni mos ravishda topishga harakat qiladi, lekin buni bajarishda u maqsadli tilning stilistik nuqtai nazarini hisobga olishi lozim. Misol: Ingliz tilidagi “delight” so'zi o'zbek tilida “xursandchilik” yoki “quvonch” sifatida tarjima qilinishi mumkin, ammo bu tanlov kontekstga qarab farqlanishi mumkin.

3. Plejizm (Yordamchi frazalarning ishlatilishi): Tarjimada so'z birikmalarining yoki pleonazmlarning ishlatilishi — bu oddiy bir fikrni qo'shimcha ravishda kuchaytirishdir. Ularni tarjimaga o'zgartirishda kontekstni, asar janrini va tilning estetik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Misol: Ingliz tilidagi “absolutely necessary” iborasi o'zbek tilida “albatta zarur” yoki “haqiqatan ham zarur” shaklida ifodalanishi mumkin.

4. Alliteratsiya va assonansiya: Alliteratsiya — bu so'zlarning bir xil yoki o'xshash tovushlar bilan takrorlanishi, assonansiya esa vokal tovushlarining takrorlanishi. Tarjima qilganda bu figuralar asar janriga qarab o'ziga xos shaklda aks ettirilishi kerak. Ularni faqat aynan tarjima qilish mumkin bo'lmasa, alternativ figurativ ifodalar qo'llanadi. Misol: “She sells seashells by the seashore” — bu ingliz tilidagi alliteratsiya namunasi. Tarjimon bu iborani to'g'ri va estetik jihatdan mos tarzda ifodalash uchun o'zbek tilida xuddi shunday tovush takrorlanishini qidirishi lozim.

5. Sarkazm va ironiyalar: Sarkazm va ironiyalar asarlarning emotsional rang-barangligini ko'rsatadi. Ularni tarjimaga ko'chirishda nafaqat so'zlarning to'g'ri ma'nosi, balki ulardagi tanqidiy yoki hazil-mutoyiba ohangini ham saqlash muhimdir. Misol: Ingliz tilidagi “That's just great!” iborasi, ko'pincha sarkazmni ifodalaydi. O'zbek tilida bu “Ajoyib! Juda zo'r!” kabi shakllarda tarjima qilinsa, asar tushunchasi va ohangi to'g'ri aks ettiriladi.

6. Frazalogizmlar: Frazalogizmlar — tilning o'ziga xos, birdaniga idrok qilinadigan va o'zgartirilmas iboralaridir. Ular ko'pincha madaniy va tilshunoslik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Misol: Ingliz tilidagi “kick the bucket” (vafot etish) iborasi o'zbek tilida bevosita tarjima qilinmaydi. O'zbek tilida bu ifodani “ko'zi yumildi” yoki “olamdan o'tdi” kabi sinonimlar bilan ifodalash mumkin.

7. Xarakteristik figuralar: Stilistik figuralar asar yoki matnning xarakterini yanada aniqlashga yordam beradi. Bunday figuralarning tarjimadagi o'ziga xosligi asosan madaniy kontekstga bog'liq bo'ladi. Tarjimada bu figuralar maqsadli tilning o'ziga xos strukturasi va uslubi bilan mos kelishi zarur. Misol: “O'zbekning do'sti” yoki “rusning ustozlari” kabi frazalarga tarjimadagi madaniy farqlarni hisobga olib moslashish lozim.

8. Hikoya va maqollar: Hikoya va maqollar tilning asosiy stilistik vositalaridan biridir. Ularni tarjima qilishda madaniy farqlarni va har ikki tilning nutq uslubini inobatga olish zarur. Misol: Ingliz tilidagi “Don't count your chickens before they hatch” maqolasi o'zbek tilida “Beshikda bola — dunyoga keldi, deb bo'lma” tarzida ifodalangan.

Stilistik figuralar badiiy adabiyotda va tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular muallifning fikrlarini, hissiyotlarini va g'oyalarini o'quvchiga aniq va ta'sirchan yetkazishga yordam beradi. Tarjima jarayoni esa bu figurativ ifodalarning boshqa tilga o'tkazilishi bilan bog'liq murakkab va mas'uliyatli jarayonni anglatadi. Tarjimon, o'zi tarjima qilayotgan asarning maqsadini, kontekstini va o'ziga xosligini tushunishi lozim, chunki stilistik figuralar ko'pincha o'z madaniy va til kontekstiga ega.

Badiiy asarlar va stilistik figuralar. Badiiy asarlar, xususan, she'rlar, romanlar va hikoyalar, o'z ichiga keng ko'lamli stilistik figuralarni oladi. Bu figuralar oddiy so'zlar bilan ifodalanmaydigan murakkab fikrlarni va tuyg'ularni yetkazishda yordam beradi. Masalan, metafora, asosiy ma'nodan farqli o'laroq, o'xshatish va ko'nikmalar orqali yanada chuqur ma'nolarni aks ettiradi. “O'sayotgan g'o'ramiz” ifodasi o'z ichiga nafaqat maydondagi o'simliklar haqida, balki jamiyatning rivojlanishi va taraqqiyotiga ham oid biror narsa bildiradi. Shuningdek, metonimiya va personifikatsiya kabi boshqa stilistik figuralar ham muallifning o'z g'oyalarini ifodalash usulini belgilaydi. Masalan, “davr o'z qo'llarini cho'zdi” ifodasi davom etayotgan zamoni shaxsiy xususiyatlar bilan bog'laydi va bunday iboralar tarjimada to'g'ri talqin qilinishi kerak. (Egamberdiyeva, 2024)

Tarjimada stilistik figuralarning o'ziga xosligi. Stilistik figuralarning tarjimadagi o'ziga xosligi bir qator jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Kontekst va madaniyat: Har bir figurativ ifoda o'z madaniyatida aslida qanday qabul qilinishini yaxshilab tushunish muhimdir. Madaniyatlar o'rtasidagi farqlar, masalan, bir tilning qulay tarzda ifodalovchi figurasi boshqa bir tilda shunchaki so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydiganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2. Ijobiy va salbiy ta'sirlar: Stilistik figuralar muayyan hissiy ta'sir yaratadi. Tarjimon o'zi tarjima qilayotgan asarning o'quvchiga qanday ta'sir ko'rsatishini hisobga olishi kerak. Masalan, “yurakda og'riq” iborasi, aslida, faqat jismoniy og'riqni emas, balki ruhiy azobni ham anglatadi.

3. Mos keluvchi ekvivalentni tanlash: Ratsional jihatdan, tarjimon o'zbek, rus yoki ingliz tilidagi ekvivalentlarni qidirishdan oldin, asl ma'noni to'liq anglab olishga harakat qilishi

¹Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. Prentice Hall.

kerak. Ba'zi figurativ ifodalarni tarjima qilishda boshqa bir tilning tasviriy usuli yoki shakli yaxshi mos kelishi mumkin.

4. Mushtarak hissiyotlarni talqin qilish: Badiiy asarlarni tarjima qilishda, tarjimon o'quvchilarni asarning hissiy qismiga o'sishni istaganlardan bo'lishi kerak. Bu ba'zan o'ziga xos iboralar yaratishni yordam beradi, shunda o'zbek o'quvchisi badiiy asar hayotida yanada yaqqol va yaqindan his qiladi.

5. Badii odamning ota-onalarga ta'siri: Badiiy adabiyotlar, eng avvalo, inson hayotiga va uning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Tarjimon, shuning uchun, figurativ tilning hayotiy qidiruvini, o'ziga xos estetik tuyg'ularni va hissiy masalalarni aks ettirishi kerak.

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiya

2.1. Stilistik figuralar va ularning turlari

Stilistik figuralar tilning ifodaviy kuchini oshirish, o'quvchini ta'sirlantirish yoki xabarni yaxshiroq yetkazish maqsadida ishlatiladi. Ularning turlari quyidagilardir:

- **Metafora** – bir narsa yoki hodisani boshqa bir narsa orqali ta'riflash, lekin o'xshashlikni to'g'ridan-to'g'ri bildirmaslik.
- **Mecenasiya** – bir narsa yoki hodisani boshqa bir narsa yoki hodisa bilan taqqoslash.
- **Hiperbola** – narsaning haddan tashqari ko'rsatilishi. (Egamberdiyeva, 2024)
- **Litota** – biror narsaning kuchli yoki aniq ta'rifidan ko'ra, uni kamroq ko'rsatuvchi ta'rif.¹
- **Personifikatsiya** – hayvonlarga, o'simliklarga yoki inanimate obyektlarga insoniy sifatlarni berish.

2.2. Tarjimada stilistik figuralar

Tarjimada stilistik figuralarning to'g'ri aks ettirilishi tarjimonning badiiy tafakkurini, tildan foydalanishining chuqurligini va madaniy tafovutlarni hisobga olishini talab qiladi. Tarjimon figuraning asl ma'nosini saqlab qolishga intilishi kerak, lekin ba'zi hollarda o'zgartirishlar kiritish zarurati tug'iladi. Masalan, metaforalar, o'simliklar yoki hayvonlar bilan bog'liq figurativ ifodalar bir tilning boshqa tilga o'zgartirilganda, tarjimonning madaniyat va til bilimi, ma'lum bir madaniyatdagi sezgilarni anglash va izohlashga yordam beradi.

2.3. Metodologiya

Maqolada stilistik figuralarning tarjimadagi o'ziga xosligini o'rganish uchun sifatli tadqiqot metodologiyasi qo'llaniladi. Bunda quyidagi metodlar ishlatiladi:

- **Kontent-tahlil:** Asl va tarjima matnlarini solishtirish orqali stilistik figuralarning tarjimadagi o'ziga xosligini aniqlash.
- **Kross-kul'tural tahlil:** Turli tillar va madaniyatlar o'rtasida stilistik figuralarning qanday tarjima qilinishini o'rganish.
- **Komparativ tahlil:** Asl matndagi stilistik figuralar va tarjima matnlaridagi ularning ekvivalentlarini solishtirish. (Egamberdiyeva, 2024)

3. Muhokama

3.1. Metafora va ularning tarjimadagi o'ziga xosligi

Metafora – stilistik figuralardan biri bo'lib, u tilni noan'anaviy va badiiy tarzda ishlatish imkonini beradi. Tarjimada, ayniqsa, figurativ ma'noni saqlashda qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilida "a sea of troubles" iborasi "muammolar dengizi" deb tarjima qilinsa, bu tarzda to'g'ri o'zlashtirilgan va etkazilgan bo'lsa-da, ba'zi madaniyatlar uchun u

¹Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.

yanada ifodali bo'lishi mumkin. Boshqa tillarda bu iborani boshqacha tarzda taqdim etish zarurati tug'ilishi mumkin.

3.2. Giperbola va uning tarjimadagi o'ziga xosligi

Giperbola – bu o'tkir va haddan tashqari ta'rif bo'lib¹, tarjima jarayonida ba'zi hollarda aniq ma'nolarni yetkazish uchun mo'ljallangan o'zgarishlar kiritilishi mumkin. Masalan, "I've told you a million times" (men seni million marta aytdim) iborasi boshqa tilda "men seni bir necha bor aytdim" deb tarjima qilinishi mumkin. Bunda giperbolaning asl ta'sirini saqlash uchun, tarjimon o'z madaniyati va tiliga moslashgan ekvivalentni topishi zarur.

3.3. Personifikatsiya va litota

Personifikatsiya va litota stilistik figuralari tarjimadagi madaniy farqlarni hisobga olib tarjima qilinadi. Misol uchun, "The wind whispered in my ear" (shamol qulog'imga shivirladi) iborasidagi personifikatsiyani boshqa tillarda ham ma'nosi to'liq saqlanadigan tarzda ifodalash zarur. Tarjimada bu figuralar ko'pincha o'zgartirishlar kiritishni talab qiladi, chunki har bir madaniyatda tabiatga bo'lgan munosabat va tasavvur farq qiladi.²

3.4. Mecenasiya va tarjimada stilistik differensiyalar

Mecenasiya — bu stilistik figura bo'lib, u bir narsa yoki hodisani boshqasi bilan solishtirishni anglatadi. Tarjimon bunday figuralarni tarjimada saqlashda ko'pincha izohlar yoki boshqa to'liq ekvivalentlarni ishlatish kerak bo'ladi. Misol uchun, "She's the apple of my eye" (U mening ko'z yorim) iborasi tarjimadagi mintaqaning o'ziga xos ifodalariga mos tarzda qabul qilinishi kerak. (Egamberdiyeva, 2024)

Natijalar. Tarjimada stilistik figuralarning o'ziga xosligini saqlash juda muhimdir, chunki ular matnning badiiy ta'sirini va o'quvchi uchun yuzaga keladigan hissiy tajribani ta'minlaydi. Stilistik figuralarning tarjimadagi to'g'ri aks ettirilishi, tarjimonning madaniy, lingvistik va badiiy bilimi darajasiga bog'liq. Tarjimon nafaqat tilni to'g'ri tarjima qilishi, balki madaniy farqlarni va ifodalarning o'ziga xosligini ham hisobga olishi kerak.

Xulosa. Stilistik figuralarning tarjimadagi o'ziga xosligi tilning ifodaviy kuchini saqlash va badiiy ta'sirni yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Tarjimonlar, bunday figuralarni to'g'ri va samimiy tarzda o'zlashtirish uchun madaniyatlararo tafovutlarni va tilning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi tushunishlari lozim. Stilistik figuralarning tarjimadagi o'ziga xosligini saqlash orqali tarjimon asarning badiiy va mazmuniy jihatlarini muvaffaqiyatli etkazishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
2. Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.
3. Catford, J. C. (1965). A Linguistic Theory of Translation. Oxford University Press.
4. Nida, E. A. (2001). Language and Culture: Contexts in Translation. SIL International.
5. Sobirova N. "Mediamatnlarda sarlavhalar tarjimasining pragmatik funksiyasi". Ilm sarchashmalari – Nukus, 2024. - № 6. – 141b.
6. Sobirova N. Zamonaviy tarjimaning publitsistikadagi o'rni: chet el yangiliklari ruknida. O'zMU Xabarlari – Toshkent, 2023. - № 1. – 269b.

¹ Catford, J. C. (1965). A Linguistic Theory of Translation. Oxford University Press.

² Nida, E. A. (2001). Language and Culture: Contexts in Translation. SIL International.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

NOMINATIONS REPRESENTING THE CONCEPT OF "CHILD" IN THE ENGLISH LANGUAGE

Khujamberdiyeva Gavhar Ilhom kizi,

Denov Entrepreneurship and Pedagogy Institute
Lecturer at the Department of Higher Courses in Foreign
Language and Literature
E-mail: gavhar0697@gmail.com

Abstract. This work analyzes the national-cultural characteristics of the concept of "child" in the English language. It examines how cultural concepts can be expressed through lexical and phraseological units related to the notion of a child. The analysis revealed that the representation of a child most frequently appears in thematic groups associated with inner world, social relations, and behavior, which confirms the significance of this concept in English-speaking linguoculture.

Keywords: child concept, English linguoculture, national-cultural characteristics, child-related lexicon, child-related phraseology, social relations, behavior, cultural concept.

INGLIZ TILIDA "CHILD" KONSEPTINI AKS ETTIRUVCHI NOMINATSIYALAR

Xo'jamberdiyeva Gavhar Ilhom qizi,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilida "child" konseptining milliy-madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Bola tushunchasiga oid leksik va frazeologik birliklar orqali madaniy konseptlarni qanday ifodalash mumkinligi ko'rib chiqiladi. Tahlil davomida bola tasvirining ichki dunyo, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni va xulq-atvor bilan bog'liq tematik guruhlarda eng ko'p namoyon bo'lishi aniqlandi, bu esa bolaning ingliz lingvomadaniyatida muhim konsept ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: child konsepti, ingliz lingvomadaniyati, milliy-madaniy xususiyatlar, bola leksikasi, bola frazeologiyasi, ijtimoiy munosabatlar, xulq-atvor, madaniy konsept.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N63>

Kirish. Bugungi kunga kelib Yangi O'zbekistonda xorijiy tillarni o'qitish, yoshlarning xorijiy tillar bo'yicha savodxonligini oshirish masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada ayni vaqtga qadar bir qancha qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilinishi ham soha taraqqiyoti uchun huquqiy asos vazifasini bajarib kelmoqda.

Ushbu maqolada ingliz tilida "child" konseptining milliy-madaniy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Til vositalari orqali madaniyat konseptlarini ifodalashda nominatsiya birliklari eng oshkora ifodaga ega bo'ladi. Ushbu birliklarda dunyoqarashning xarakterologik xususiyatlari aks etadi va ular til egalarining tilga nisbatan reflektiv munosabati bilan bog'liq. Insonni

nomlashga oid soʻz va frazeologizmlar tilshunoslar eʼtiborini qayta-qayta jalb qilgan. Koʻplab ilmiy ishlarida shaxs nomlanishining tematik tuzilishi (masalan, “kasb”, “yosh”, “ichki fazilatlar”, “tashqi xususiyatlar”, “ijtimoiy mavqe” va boshqalar) asosida qurilishi mumkin boʻlgan belgilar koʻrsatilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. “Inson” boʻlimining tematik maydonlarini leksikografik tasvirlash[2], inson nomlanishi masalalari (Katermina 2004) kabi savollar yoritilgan[1]. V.V. Katermina fikriga koʻra, inson nomlanishini baho sifatida koʻrish mumkin, bu baho individual xarakterga ega boʻlishi mumkin boʻlsa-da, aksariyat hollarda jamiyatda mavjud boʻlgan qadriyatlar tizimi bilan bogʻliq boʻladi[5].

Ushbu maqolada xorijiy tilni oʻqitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning ahamiyati haqida soʻz yuritilgan boʻlib, unda xorijiy tillar sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda qoʻllaniladigan analiz, semantika, lingvistik tahlil va boshqa bir qator usul va metodlardan samarali foydalangan.

Tahlillar va natijalar. Leksikografik manbalardan olingan til materialini tahlil qilish asosida shaxs nomlanishi sinfini tematik tashkil etish uchun quyidagi parametrlar tanlandi:

1. **Insonning jismoniy xususiyatlari** (boʻyi, tana tuzilishi, tashqi koʻrinishi va boshqalar);

2. **Ijtimoiy yetuklik darajasi** (shaxsning ijtimoiy yetuklik darajasi, yaʼni tashqi dunyoga nisbatan toʻliq bogʻliqlikdan oʻz-oʻziga toʻliq gʻamxoʻrlik qilish imkoniyatigacha, masalan, chaqaloq (baby)).

3. **Ijtimoiy xususiyatlar** (ijtimoiy institutlarga aloqadorlik, masalan, oʻquvchi (schoolboy), huquqiy jihatdan rasmiy belgilanadigan yetuklik shakli, masalan, voyaga yetmagan (juvenile), ijtimoiy mavqe, masalan, qiz (damsel), oiladagi oʻrin yoki oilaga aloqadorlik, masalan, toʻngʻich, topilma bola (first-born, foundling)).

4. **Tavsiflanayotgan shaxsning xulq-atvori va qobiliyatlari** (masalan, yigʻloqi, shikoyatchi — *weeper*);

5. **Gapiruvchining tavsiflanayotgan shaxsga boʻlgan munosabati** (masalan, kichkintoy — *mite*).

Tematik blok “Bola — tirik mavjudot” quyidagi belgilarni oʻz ichiga oladi:

Yoshi kichik: *babe, baby, infant* — hayotining ilk davridagi bola, ayniqsa yurishni oʻrganmagan bola (chaqaloq, 2 yoshgacha bola); *bairn* — bola, oʻgʻil yoki qiz (farzand, bolakay); *lad* — oʻsmir yigit, oʻspirin (oʻgʻil bola, yigit, yigitcha); *lass* — qiz bola yoki yosh ayol (qizcha, qiz); *little one* — bola (kichkintoy); *nipper* — kichik bola (kichik oʻgʻil yoki qiz bola); *toddler* — odatda bir yoshdan ikki yarim yoshgacha boʻlgan, ayniqsa yurishni oʻrganayotgan bola (yurishni boshlagan bola); *stripling* — oʻsmir, oʻspirin, balogʻatga yetmagan yosh yigit (oʻsmir yigit); *youngster* — yosh kishi; bola yoki oʻspirin (oʻgʻil bola, yigitcha).

Boʻyi kichik: *ankle-biter* — kichkina bola (kichkintoy, bolakay); *chit* — bola yoki kichkintoy (kichkintoy); *kid* — yosh bola yoki chaqaloq (bolakay, oʻgʻilcha); *kiddie* — kichik bola, farzand, kichkintoy (bolajon, kichkintoy); *mite* — juda kichik bola yoki shaxs (kichkintoy, bebilak); *moppet* — kichkina qiz (odatda yoqimtoyli uchun erkalash shakli) (kichkintoy); *tiny tot, tot* — kichik bola (bolakay, kichkintoy). Kichik tana hajmiga urgʻu bergan holda, bolalarni kichik va zaif koʻrinishda tasvirlovchi soʻzlardan iborat. Masalan, “ankle-biter” (kichkintoy, “oyoq tagiga osiluvchi”) va “chit” soʻzlari bolaning kichik tana hajmini, bezorligini taʼkidlaydi. “Kid” va “kiddie” soʻzlari esa kichkintoylarni ifodalashda keng qoʻllaniladi va bolalar bilan iliq,

yaqin munosabatda bo'lgan kishilarning ularni erkalab chaqirishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, "mite" va "moppet" so'zlari bolaning kichkina gavdasi va yoqimtoyligiga urg'u beradi. "Tiny tot" va "tot" so'zlari esa kichik yoshli bolani ifodalashda qo'llanilib, kichik bolaning shirin va zavqli qiyofasini ifoda etadi.

Ushbu guruhga quyidagilar kabi stilistik jihatdan belgilangan nomlanishlar kiradi: *small fry* (kamsitivchi) — kichkina bolalar (bolalar, "mayda bola"); *bambino* (so'zlashuv) — kichik bola (kichkintoy); *bundle of joy* (so'zlashuv) — chaqaloq (bolakay, sevimli, yoqimtoy); *rug rat* (so'zlashuv) — kichkina bola, ayniqsa chaqaloq yoki yurishni boshlagan bola (kichkina bola, "oyog'ida osilgan bola"); *kinchen* (so'zlashuv) — bola (bola); *toto* — bola (farzand, bola); *sunbeam* (so'zlashuv) — quvnoq bola (quvnoq bola); *fledgling* (so'zlashuv) — yosh yoki tajribasiz shaxs (tajribasiz o'smir, bola).

Alohida guruhga yangi tug'ilgan chaqaloqlar va emizikli go'daklarni belgilovchi nominatsiyalarni ajratish mumkin (6 birlik):

Yangi tug'ilgan chaqaloqlar: *neonate* — yangi tug'ilgan chaqaloq, ayniqsa to'rt haftadan kichik bola (bir oylikkacha bola); *new arrival, newborn* — yaqinda tug'ilgan chaqaloq (yangi tug'ilgan); *nursling* — parvarish qilinayotgan bola; emizikli chaqaloq (go'dak); *suckling* — ko'krakdan emizilayotgan bola (emizikli bola); *weanling* — endigina ko'krakdan uzilgan bola (endi ko'krakdan uzilgan chaqaloq);

Yangi tug'ilgan chaqaloqlar guruhini ajratish uchun asosiy belgi — bu ularning tug'ilgan muddati va kattalarga to'liq bog'liqligidir[3]. Bola tug'ilish muddati ba'zi boshqa nominatsiyalar uchun ham muhim ahamiyatga ega:

Pronatis, premature newborn — homiladorlikning 37-haftasidan oldin tug'ilgan chaqaloq (muddatidan avval tug'ilgan bola). Ushbu guruhda yangi tug'ilgan va emizikli bolalarni ifodalovchi so'zlar mavjud bo'lib, ular bolalarning jismoniy va rivojlanish bosqichidagi to'liq qaramlik holatini anglatadi. "Neonate" va "newborn" yangi tug'ilgan, hali to'rt haftadan kichik bo'lgan bolani ifodalaydi. "Nursling" va "suckling" esa emizikli bolaning biologik ehtiyojlariga urg'u beradi, "weanling" esa ko'krakdan yangi uzilgan chaqaloqni tasvirlaydi. Bu so'zlarning barchasi yangi tug'ilgan bolaning zaifligini, ularning kattalarga to'liq bog'liqligini va himoya ehtiyojini ifodalaydi. "Premature newborn" va "pronatis" kabi so'zlar muddatidan oldin tug'ilgan, qo'shimcha parvarishga muhtoj bo'lgan bolalarni ifodalaydi.

Inson tashqi qiyofasining ichki dunyosi bilan bog'liqligi har bir milliy madaniyatning yadro qismini tashkil etadi. Odatda, bu tasavvurlar ko'plab manbalardan — rivoyatlar, afsonalar, dostonlar, ertaklardan shakllanadi va til, uning leksikasi va frazeologiyasida o'z ifodasini topadi. Bolaning tashqi qiyofasiga ijobiy baho berish shu jamiyatda mavjud bo'lgan ma'lum bir idealga muvofiqligini anglatadi (25 nominatsiya). Bolalar odatda mifologik mavjudotlar bilan bog'lanadi: *little angel* — mehribon va yoqimli bola (farishtacha); *cherub* — begunoh yoki shirintoy bola (cherubim); *elf* — sho'x va shaddod bola (kichkintoy, bebilak, xalq tilida "sho'x bola"); *little imp* — shaddod va sho'x bola (sho'x bola, "kichik shaytoncha"); *dickens* — shaddod va sho'x bola (shaytoncha); *changeling* — elflar tomonidan almashtirilgan, sirli ravishda almashtirilgan bola (almashtirilgan chaqaloq; elflar tomonidan o'g'irlab ketilib o'rniga qoldirilgan bola). Shuningdek, ijobiy baho odatda bolalar va afsonaviy qahramonlarni bog'laydi. Masalan, *little angel, cherub, elf, little imp, va changeling* kabi ifodalar bolalarni begunohlik, sho'xlik, va jozibadorlik bilan bog'laydi, bu esa jamiyatda bolalarning sho'xligi va pokizaligini idealizatsiya qilishni ifodalaydi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlilimiz shuni ko'rsatdiki, eng ko'p misollar bolaning ichki dunyosini, uning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rnini va xulq-atvorini tasvirlovchi tematik guruhlarda uchraydi. Bu esa yana bir bor ushbu konseptning ingliz tilidagi lingvomadaniyat uchun muhimligini tasdiqlaydi. Bolalarning tashqi ko'rinishlari va xatti-harakatlarini tasvirlovchi iboralar nafaqat bolalar o'sishining har bir bosqichini aniqlik bilan ajratib beradi, balki ularni idealizatsiya qilish orqali ijtimoiy qadriyatlarini ifodalaydi. Xulosa qilib aytganda, "Bola — tirik mavjudot" tematik bloki bolaning turli rivojlanish bosqichlari, jismoniy ko'rinishlari va xulq-atvorini milliy va madaniy tasavvurlar asosida tasvirlash imkonini beradi. Ushbu leksik birliklar orqali jamiyatdagi bolalarga nisbatan iliq va mehribon munosabat ifodalanadi, ularning zaifligi, himoya ehtiyoji va quvnoqligi e'tirof etiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Meckel, R.A. Childhood and the Historians. A Review Essay. - Journal of Family History. Winter 1984, vol.9, № 4. – с.415-424.
2. Minsky, M. A framework for representing knowledge // P.H. Winston (ed.). The psychology of computer vision. - New York, etc.: McGraw-Hill, 1975. – pp 211-277.
3. Pollock, L.A. Forgotten Children: Parent-child relations from 1500 to 1900. - Cambridge, UK: Cambridge University Press, 1989. – 262 p.
4. Rosch, E.H. Cognitive representation of semantic categories// Journal of Experimental Psychology 104(3), 1975. – P. 192-233.
5. Sommerville, C.J. The Rise and Fall of Childhood. Beverly Hills, 1982. –467 p.
6. The History of Childhood. Ed. By De Mause. N.Y. 1974. – 678 p.
7. Werzbitcka, A. "Lexicography and conceptual analysis" Ann Arbor.1985. – 368 p.
8. Werzbitcka, A. Semantics, culture and cognition: universal human concepts in culture-specific configurations. – New York: Oxford University Press, 1992. – 488 p.
9. Исанова, Ф. (2022). ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ТЕРМИНЛАР ВА УЛАРНИНГ ЯСАЛИШИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(2), 46–52. Retrieved from <https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/57>
10. Isanova, F. (2022). ИНГЛИЗ ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 6(3), 44–49. Retrieved from <https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/77>
11. Isanova, F. (2023). О'ЗБЕК ТИЛИ ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ЛЕКСИК БИРЛИКЛАРИНИНГ ФУНКЦИОНАЛ ХУСУСИЯТЛАРИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(7), 151–160. <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N20>
12. Исанова Феруза Тулкиновна. Обучение английскому языку в аграрных вузах // Вестник науки и образования. 2020. №14-2 (92). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obuchenie-angliyskomu-yazyku-v-agrarnyh-vuzah> (дата обращения: 30.03.2024)

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

USE OF ANTHROPONYMS IN UZBEK FOLK PROVERBS

Mirzaeva Feruza Samijonovna,

Teacher of the Department of Foreign Languages in the Humanities,
Termiz State Pedagogical Institute

E-mail: navruzmadalov@gmail.com

Abstract. The historical and national values of each nation are connected with its proverbs. Proverbs reflect people's dreams and national mentality. This article presents opinions on the use of anthroponyms in Uzbek folk proverbs.

Keywords: paremia, paremiological unit, anthroponym, proverb and complete work of phrase, folk proverb.

ЎЗБЕК ХАЛҚ МАҚОЛЛАРИДА АНТРОПОНИМЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Мирзаева Феруза Самижоновна,

Термиз давлат педагогика институти

Гуманитар йўналишларда

хорижий тиллар кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Ҳар бир халқнинг тарихий миллий қадриятлари унинг мақоллари билан боғлиқдир. Мақолларда халқнинг орзулари, миллий менталитети акс этади. Ушбу мақолада ўзбек халқ мақолларида антропонимларнинг қўлланилиши борасида фикр-мулоҳазалар келтирилган.

Калит сўзлар: паремия, паремиилогик бирлик, антропоним, мақол ва фраза тугал асар, халқ мақоли lug'at, tilshunoslik, aspekt, yo'nalish, etimologiya, marosimlar, etnografizmlar, an'analar, madaniyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N64>

Кириш. Мақол ўзбек халқ оғзаки ижодининг қадимий, яшовчан ва кенг тарқалган жанрларидан биридир. Мақоллар, асосан, ҳаётий тажрибалар натижасида майдонга келади. Асрлар бўйи оғиздан-оғизга ўтиб келаётган мақолларда кенг меҳнаткаш халқ оммасининг дунёқараши, жамият ва меҳнатга муносабати, ота-онага ҳурмат, Ватанга чексиз садоқат мотивлари мужассамлашган. Шунингдек, мақолларда халқ орзу-умидлари, инсонпарварлик ҳидлари уфуриб туради. Илм ва ҳунар ўрганиш, дўстлик ва аҳиллик, катталарга ҳурмат ва иззатда бўлиш, мардлик ҳамда тўғрисўзлик халқ; мақолларини асосий ғоявий мақсади бўлиб, халқнинг қадимий тарихи ва руҳий ҳолатини ифодалаб келади. Глобаллашув даврида халқларнинг маънавий бойлиги ҳисобланган мақолларни ҳар томонлама илмий жиҳатдан тадқиқ қилишга катта эътибор қаратилмоқда.

Ҳар бир халқ асрлар давомида жуда катта ҳаётӣ тажриба тўплайди, шу тажрибани турли воситалар билан келажак авлодга мерос қилиб қолдиради. Мақол ва ҳикматли сўзлар ана шундай бебаҳо маънавий меросимиз ҳисобланади.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Ўзбек халқ мақоллари мукамал бадий ижод намунаси сифатида фольклоршунослар, адабиётшунослар томонидан ўрганилган ва ўрганилмоқда. Чунки, бундан минг йиллар олдин яратилган “Девону луғотит турк” асарида халқ мақолларидан ўнлаб намуналар келтирилган ва бу мақоллар илк бор Маҳмуд Қошғарий томонидан ўрганилган.

Шунингдек, ўзбек халқ мақоллари борасида “Ўзбекча оилага сўзлар” (1924), “Мақоллар ва ҳикматли сўзлар” (1939), “Оталар ва оналар” (1934), “Ўзбек халқ мақоллари” (1972), “Ўзбек халқ мақоллари” (2 жилдлик, 1987-88) каби кўплаб китоблар тўпламлар чиқарилган[2].

Халқ мақолларини тўплаш ва ўрганишда Абдулла Қодирий, Асқар Юнусов, Фулом Зафарий, Манучеҳр Афзалов, Оқилхон Собиров, Вафоди Усманов, Бал Ҳажовий, Тўра Муҳаммед, Бахтияр Собирбеков, Иброҳим Ҳаққулов, Асқар Мусоқулов каби олимларнинг ҳиссаси каттадир[1].

Муҳокама ва натижалар. Мақолларни «Ҳаёт қомуси», ўзига хос бир бадий-тарихий солнома дейиш мумкин. Улар кишиларнинг ақлини ўткирлаштиради, нутқини равшан ва таъсирчан қилади, ҳаётда тўғри йўлни танлай билишга, ҳаётӣ жумбоқлар ва муаммоларни тўғри ечишга ўргатади, турмушнинг жамики катта-кичик масалалари хусусида қимматли маслаҳатлар беради[3].

Паремалар аждодлардан авлодларга фақат оғзаки ҳолдагина ўтиб келганлиги, халқ оғзаки ижодининг маҳсули бўлганлиги учун адабиётшуносликнинг ўрганиш объекти ҳам ҳисобланади. Яна бир сабаб паремаларнинг аксариятида кўпинча шеърий шаклга ўхшаб ўхшатиш, антитеза, анафора, аллитерация, киноя, пичинг каби бир қанча тасвирий воситалар қўлланади[5].

Халқ томонидан айтилган мақоллар ғоявий пишиқ, мазмунан мукамал, ихчам ва соддадир. Ана шу ўзига хос томонлари билан мақоллар халқ бадий ижодининг кўшик ёки терма, лапар ёки ёр-ёр каби кўплаб турларидан фарқ қилади. Ўтмишдаги барча санъат, адабиёт ва давлат арбоблари мақолларга қайта-қайта мурожаат қилиб келишган[4].

Ўзбек халқ оғзаки бадий ижодининг кўпгина турлари каби мақоллар ҳам мавзу эътибори билан хилма-хилдир. Лекин халқ мақолларида юқорида қайд этган мотивларимиз бир ёки икки, ошиб борса, тўрт шеърий мисрада ихчам, лўнда, ўзига хос поэтик ифода ва қофияларда берилиши билан янада чуқур мазмун кашф этади. Мақоллар халқ ижодининг даври тўхтамас ва ажралмас қисми ҳисобланиб, мақоллар яратилишида ва кенг кўламда нутқимизда ифодаланишда омманинг иштироки беқиёс ҳисобланади. Мақоллар яратилиш ва нутқда кўринишига қараб бир неча даврларга бўлинади. Шу даврлар ичида мақолларнинг таркибида инсон отлари компонентлари билан ифодаланувчи мақоллар ажралмас нутқ формалари сифатида дунё тилларида акс этади. Тиллардаги антропонимлар кишининг атоқли отларини ва исмларини ўрганувчи фан бўлиб, антропонимика эса лексикологиянинг ёки ономастиканинг киши ёки инсон номларини ўрганувчи объекти бўлиб ҳисобланади. Мақоллардаги инсон

исмларининг қўлланилиши тилшуносликнинг паремиологик фондида мақолларни бойитиш ва уларга такрорланмас чирой ва мазмун касб этишига хизмат қилади[6].

Ўзбек паремиологиясида мақолларнинг таркибида антропонимларнинг қўлланилиши бир қанча лингвист олимлар томонидан эътироф этилган. Ўзбек лингвист паремиологларидан Б.Жураева, П.Бакиров, З.Нармуратов, Н.Мадалов, Н.Маматалиевалар ушбу жабҳада бир қанча изланишларни олиб боришган. Ўзбек халқ мақолларидаги атоқли отлар хусусан киши исмлари айнан ўша исми одамларга эмас, балки кенг жамоа ва оммага нисбатан айтилиши ва кўчма маъно ҳосил қилиши билан характерланади. Масалан Ўзбек халқ мақоли бўлган **“Холвани Ҳаким ер, таёқни етим”** паремасидаги **Ҳаким** исми айнан шу исми шахсларга эмас, балки кўчма маъно ҳосил қилувчи ва стилистикадаги аллитерацион ҳолат бўлган сўзлардаги биринчи товушларнинг бир хиллиги мақоллардаги рангдорлик жилосини кучайтиришдан иборат эканлиги тушунилади. Ўзбек халқ мақолларидан **“Яхшилик қил – дарёга от, балиқ билсин, балиқ билмаса, Холиқ билсин”** мақолидаги **Холиқ** антропоними аслида киши исми сифатида мазмунламасдан, балки **“Аллоҳ билсин”** сифатида талқин қилинган бўлиб, инсон тарбиясидаги ислом динининг ўрни қанчалик чексиз эканлигини ифодалаб беради. **“Абдулҳаким овга чиқди, изидан ғавғо чиқди”** мақолидаги **Абдулҳаким** атоқли оти маъносига кўра жамиятда юриш –туриш нормаларига риоя қилмас шахсларнинг ўрнини йўқотиб қўйиши ва ҳар бир хатти-ҳаракати билан ўзидан негатив из қолдирувчи инсонлар ҳақидаги мақоллар туркумига киради. **“Йигитга ё зар, ё зўр керак”** паремасидаги **Йигит** образида эркак кишининг исми жами эркак жинсли кишиларга нисбатан умумий эга сифатида қўлланилган. **“Адолат қиличи кесган қўл оғримас, адолат қиличи кескир бўлар”** мақолларида антропоним контенти ҳақиқат ва адолат ҳақида мазмун шакллантиради. Арзон бўлса, олувчидан инсоф кетар, **Қиммат** бўлса — сотувчидан мақолида атоқли отларнинг ифода этувчи **қиммат** сўзи исм шаклида эмас, балки бозордаги нарх-наво борасидаги маъноларни кўрсатиб беришини жамиятдаги иқтисодий муносабатларнинг қанчалик муҳим эканлиги ҳақида фикр юритади[7].

“Арпа-буғдой бир кунингга ярайди, содиқ дўстинг ўлгунингча ярайди” мақолидаги **содиқ** сўзи атоқли исм шаклидан дўстлик ва яқин муносабат шакли содиқлик мазмунини тингловчига етказиш вазифасида қўлланилган. **“Арслон боласини тутмоқ учун Арслон уясига кирмоқ керак”, “Арслон изидан қайтмас, Йигит — сўзидан”**. **“Арслоннинг бўкиргани — сичқоннинг ўлгани”, “Арслоннинг ўлиги — сичқоннинг тириги”** каби халқ ижодининг намуналаридаги **Арслон** ва **Йигит** мазмунли атоқли отлар ўз маъносидан четлашган ҳолда йиртқич ҳайвон ва эркак киши маъносида талқин қилинган. **“Алихўжа — Хўжаали”** халқ мақоли бир томонлама ёндашишда гўёки ўз маъноларида қўлланилгандек кўринсада, чуқурроқ изланишда бу мақоллар жамиятдаги ўзгариш ва янгиликларини қабул қилмаслик ва изланмаслик образларини яратувчи шахслар исмларини талқин қилган шахслар қаҳрамонларини яратгандек бўлади[8].

“Сулаймон ўлди девлар қутулди” мақолидаги атоқли от сифатида қўлланилган **Сулаймон** антропонимининг аслида пайғамбар исми маъносида қўлланилиши жамиятдаги эгасизлик ва бошбошдоқликни ифода этувчи ҳолатларда қўлланилгани - бу мақолнинг диний контекстда қўлланилиши чуқур маънони ифодалаб келади.

Мақолларда антропонимларнинг кенг қўлланилиши жуда катта изланиш ва тадқиқотларни талаб этар экан, бу масаладаги мақоллари бир қанча туркумларга бўлиб ўрганса янада маънолироқ ва ранг-баранг эканлигини аниқлаб оламиз. Бунда биз антропоним компонентли мақолларининг куйидаги мазмунли мақолларда кўпроқ учрашининг гувоҳи бўламиз[7].

1. Тажрибакорлик ва калтабинлик ҳақида мақоллар.
2. Фақирлик ва бойлик ҳақида мақоллар.
3. Фаровонлик ва етишмовчилик ҳақида мақоллар.
4. Тарбия ва одат ҳақида мақоллар.
5. Умид ва умидсизлик ҳақида мақоллар.
6. Ҳайвонлар ва қушлар ҳақида мақоллар.
7. Тамагирлик ва очкўзлик ҳақида мақоллар.
8. Тежамкорлик ва исрофгарчилик ҳақида мақоллар.
9. Тенглик ва тенгсизлик ҳақида мақоллар.
10. Эпчиллик ва ношудлик ҳақида мақоллар.
11. Эрк ва эрксизлик ҳақида мақоллар.
12. Эҳтиёж ва зарурият ҳақида мақоллар.
13. Эҳтиёткорлик ва эҳтиётсизлик ҳақида мақоллар.
14. Яхши сўз ва ёмон сўз ҳақида мақоллар.
15. Яхшилик ва ёмонлик ҳақида мақоллар.
16. Муҳаббат ва бевафолик ҳақида мақоллар.
17. Нақд ва насия ҳақида мақоллар.
18. Одоб ва одобсизлик ҳақида мақоллар.
19. Оила ва қўшничилик ҳақида мақоллар.
20. Ор-номус ва номуссизлик ҳақида мақоллар[9].

Хулоса. Хуллас, халқ мақолларида қайси мавзу, ҳаётнинг қайси соҳаси ҳақида фикр юритилмасин, танланган муаммо ҳар томонлама, атрофлича ёритилади. Буларнинг ҳаммаси ўзбек халқининг асрлар давомида нақадар доно ва ақлли ижодкор фарзандларга эга эканини далиллайди.

Халқ мақолларининг узоқ ўтмиш маҳсули эканлиги айрим намуналарни бугунги кунда тушуниш осон эмаслигини ҳам изоҳлайди. Баъзан мақоллар қаторида шундайлари ҳам учрайдики, ҳатто умумий фикр нима билан боғлиқ эканлигини англаш қийин бўлиб қолади. Масалан: **“Бир гулни бериб йиғлатдим, минг пулни бериб юпатдим”** мақолини олайлик. Бу мақолнинг моҳиятини мақолдаги фикр йўналиши ва қаршилантириш усулидан тахмин қилиш мумкин, холос. Яъни умумий мазмунда ножўя қилинган ҳаракат ёки тадбир охир-оқибатда инсонга қўшимча ташвиш келтириши мумкинлиги ҳақида огоҳлантирилмоқда. Сен шундай ҳаракат қилгинки, бу ҳаракатинг ёмон оқибатларга олиб келмасин, дейилмоқда. Аммо нима учун бир пул бериб йиғлатса, минг пул бериб овутади ёки юпатади. Бу муаммони ҳал қилиш учун тарихга мурожаат қиламиз. Қадим замонларда аза пайтида йиғлаб берадиган махсус одамлар бўлган экан. Уларни “гийранди” деб аташган. Аслида “гийранди” “гирянди”дан олинган бўлиб, “йиғламоқ” феъли билан маънодошдир. Уйда бирор яқин одами ўлса, маййит эгаси гийрандини чақирган. У аза давомида маълум ҳақ эвазига йиғлаб беришни бўйнига олган. Лекин тийранди ўз санъатини шундай эгаллаши ҳам мумкин эдики, маййит эгаси

бу айтувларга, бу дод-фиғонга, бу нолаларга чидамасди. Шунда у тийрандидан йиғламасликни илтимос қилган. Тийранди эса атайин авжга чиққан. Натижада уни йиғидан тўхтатиш учун кўпроқ ҳақ берилган. Мақолда арзимаган ҳақ эвазига йиғловчини чақириш, аммо унинг жим бўлиши учун катта пул бериш воқеаси акс этган. Шундай қилиб, мақоллар мазмуни уларнинг ўзи ва табиати каби сирли оламга эгадир.

Халқ оғзаки ижодидаги мақоллар жанри тарихий ҳаёт давомида сон ва мазмун жиҳатдан бойиш хусусиятига эга. Яъни мақоллар замон ўтиши билан истеъмолдан чиқиши ва айна пайтда янги-янги намуналари вужудга келиши мумкин. Ҳар бир мақол ва нақлнинг асл моҳиятини очиб бериш, қаерда ишлатиш ўринли эканлигини кўрсатиш, асрлар давомида тилдан тилга, авлоддан авлодга ўтиб келаётган бой маданий меросимизни юртдошларимиз орасида кенг ёйилишига замин яратиш ҳамда ўзбек тилидаги сифатли ва беҳато антропоним таркибли мақолларни қўллаш ва бойитиш олдимизга қўйилган мақсадларимиздандир.

Adabiyotlar/Literatupa/References:

1. Cowie A. P. In Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – Oxford: Published in the United States by Oxford University Press, 1998. – 130 p.
2. Meider W. A Handbook. – London: Greenwood Press, 2004. – 321 p.
3. Mieder V. Twisted Wisdom, Modern Anti Proverbs. – Burlington: The University of Vermont, 1998. – 396 p.
4. Асқарова М., Қосимова М., Жамолхонов Х. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – 104 б.
5. Бакиров П.У. Семантика и структура номинацентрических пословиц. – Ташкент: «Фан» Академии наук Республики Ўзбекистан, 2006. – 298 с.
6. Боровков А., Маъруфов З., Абдуллаев И., Шермухаммедов Т. Ўзбек тили дарслиги, 1970. – 139 б.
7. Ваққосова Д. Ўзбек тилида анемонимларнинг семантик таҳлили. НДА. – Фарғона, 2005. – 171 б.
8. Исамуҳамедова С. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида синонимлар. АКД. – Тошкент, 1963. – 186 б.
9. Қошғарий М. Туркий сўзлар девони (девону луғотит турк). Таржимон С. Муталлибов. Фанлар академияси нашриёти. 3-жилдлик. 1-жилд. Тошкент: – 498-б.
10. Мамажонов А. Стилистические особенности сложных предложений современного Ўзбекского литературного языка. АДД. – Ташкент, 1991. – 60 с.
11. Махмараимова Ш.Т. Ҳозирги ўзбек тили Лексикологияси. Ўқув қўлланма. Тошкент, Фирдавс-Шоҳ нашриёти, 2021. – 380 б.
12. Исанова, Ф. (2022). ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ТЕРМИНЛАР ВА УЛАРНИНГ ЯСАЛИШИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(2), 46–52. Retrieved from <https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/57>
13. Isanova, F. (2022). ИНГЛИЗ ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 6(3), 44–49. Retrieved from <https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/77>
14. Isanova, F. (2023). O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг

долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(7), 151–160.

<https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N20>

15. Исанова Феруза Тулкиновна. Обучение английскому языку в аграрных вузах // Вестник науки и образования. 2020. №14-2 (92). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obuchenie-angliyskomu-yazyku-v-agrarnyh-vuzah> (дата обращения: 30.03.2024)

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

TRANSLATION FEATURES OF EMERGENCY TERMS IN ENGLISH AND UZBEK: A COMPARATIVE ANALYSIS

Badalbayeva Maloxat Yulchiyevna,

Associate professor “Languages” department
Academy of the Ministry of Emergency Situations

Abstract. Translation of emergency terms is a crucial aspect of effective communication, especially in life-threatening situations where quick and accurate understanding of information is vital. This article explores the specific features of translating emergency terms from English into Uzbek and vice versa. It focuses on the linguistic, cultural, and practical challenges involved in the process. Special attention is given to terminological equivalence, morphological structures, and the impact of different socio-linguistic contexts on the interpretation of terms in emergency-related fields such as healthcare, disaster response, and law enforcement.

Keywords: emergency terms, translation challenges, terminological equivalence, linguistic differences, cultural adaptation, loanwords, neologisms, English-Uzbek translation, functional translation, public safety communication.

FAVQULODDA VAZIYATLARGA DOIR ATAMALARNING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIGA TARJIMA XUSUSIYATLARI: QIYOSIY TAHLIL

Badalbayeva Maloxat Yulchiyevna,

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi “Tillar” kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Favqulodda vaziyatlarda atamalarni tarjima qilish, ayniqsa ma’lumotni tez va aniq tushunish muhim bo’lgan hayot uchun xavfli vaziyatlarda samarali muloqotning muhim jihati hisoblanadi. Ushbu maqola favqulodda vaziyatlarga oid terminlarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga va aksincha tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. Bu jarayonda ishtirok etadigan til, madaniy va amaliy muammolarga e’tibor qaratadi. Terminologik ekvivalentlik, morfologik tuzilmalar va turli ijtimoiy-lingvistik kontekstlarning sog‘liqni saqlash, tabiiy ofatlarning oldini olish va huquqni muhofaza qilish kabi favqulodda vaziyatlar bilan bog‘liq sohalaridagi atamalarni talqin qilishdagi ta’siriga alohida e’tibor beriladi.

Kalit so‘zlar: favqulodda atamalar, tarjima muammolari, terminologik ekvivalentlik, til farqlari, madaniy moslashuv, o‘zlashtirilgan so‘zlar, neologizmlar, inglizcha-o‘zbekcha tarjima, funksional tarjima, jamoat xavfsizligi aloqasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N65>

Introduction. The translation of emergency-related terminology plays an important role in ensuring smooth communication during crises, such as natural disasters, medical emergencies, and public safety incidents. English, being a global language, is often the primary medium for communication in international emergency responses, while Uzbek is the official language of Uzbekistan and is spoken by over 32 million people. Translating emergency terms between these languages involves not only linguistic transformation but also consideration of

cultural and contextual factors that can impact the clarity and effectiveness of the communication.

The article aims to shed light on the translation challenges that arise in this context and to provide insights into the best practices for translating emergency terms in a manner that ensures accuracy, clarity, and cultural appropriateness.

Literature review and methodology. This study employs a qualitative and comparative linguistic analysis to explore the translation features of emergency terms between English and Uzbek.

Data Collection and Analysis. Selection of emergency-related terms: A corpus of emergency terms was selected from key categories such as medical emergencies (e.g., CPR, pandemic), natural disasters (e.g., aftershock, evacuation), and public safety and law enforcement (e.g., lockdown, suspect). The terms were sourced from official documents, guidelines, and glossaries used in emergency management, healthcare, and public safety protocols in both English-speaking countries and Uzbekistan[2].

Selection of parallel texts: Emergency response documents, manuals, and translations from international organizations like the World Health Organization (WHO), United Nations (UN), and local Uzbek agencies were reviewed for the presence of translated terms[3].

Linguistic comparison: A comparison was conducted between the selected English terms and their corresponding Uzbek translations. This involved analyzing the morphological, syntactical, and semantic structures of the terms to identify common translation strategies (loanwords, literal translations, neologisms) and to evaluate the accuracy and appropriateness of the translations in their respective contexts[5].

Terminological equivalence: Each term was examined for its terminological equivalence in the target language, considering whether the translation was direct, adapted, or a descriptive substitute. Where no direct equivalent existed, the translation strategies used by translators (e.g., borrowing, coining new terms) were noted and assessed.

Cultural and Contextual Analysis

Contextual understanding: The study also examined the cultural implications of emergency terms and the need for context-based adaptations. Cultural connotations, societal structures, and legal frameworks that influence the interpretation and use of emergency terminology in Uzbekistan were considered, especially in cases where the target audience's familiarity with borrowed terms or concepts could affect the clarity of the message[6].

Functional translation approach: In cases where literal translations were insufficient, the functional approach to translation was evaluated. This involved analyzing the intended action or response implied by the term and its translation into Uzbek, ensuring that the translation effectively conveyed the same functional outcome[4].

Evaluation of Effectiveness: Through case studies or interviews with native Uzbek speakers (including translators, medical professionals, and law enforcement officers), the effectiveness of the translated terms was assessed. This provided feedback on the clarity, comprehension, and practical application of the emergency terms in real-life situations.

Result and Discussion. Emergency terms are characterized by their specificity and conciseness. They often refer to actions, conditions, procedures, or objects that are crucial in critical situations. These terms must be translated with precision to avoid misunderstandings that could lead to delays or errors in response[3].

For example, terms like «evacuation», «quarantine», or «hazardous materials» carry specific meanings in the field of emergency management. The challenge lies in finding equivalent terms in the target language (Uzbek in this case) that convey the same sense of urgency and exactness as the source language (English). Emergency terms can be categorized into the following fields:

Medical emergencies: terms related to first aid, trauma, and public health, such as «cardiopulmonary resuscitation (CPR)», «epidemic», and «pandemic».

Natural disasters: terms used in relation to earthquakes, floods, and other natural phenomena, such as «earthquake warning», «aftershock», and «tsunami».

Public safety and law enforcement: terminology related to policing, crime prevention, and terrorism response, such as «lockdown», «active shooter», and «suspect».

Each of these categories requires specialized knowledge when translating, as the terms often do not have a one-to-one equivalence between English and Uzbek.

The structural and lexical differences between English and Uzbek present unique challenges in translation. English, being an analytic language, relies on word order and auxiliary verbs to convey meaning, whereas Uzbek, a Turkic language, is agglutinative, meaning that it relies heavily on suffixes and prefixes to create new words or modify meanings. For instance, the English term «evacuation» may be rendered in Uzbek as «evakuatsiya» (a loanword) or a phrase like «bo'shatish jarayoni» (literally, «the process of clearing out»). The use of loanwords is common in Uzbek, but it can lead to comprehension issues among those unfamiliar with the borrowed terminology. Additionally, certain English terms that are highly specific may require descriptive phrases in Uzbek to maintain accuracy.

Achieving terminological equivalence is one of the key challenges in translating emergency terms. Not all terms have direct equivalents in Uzbek, and some terms may require adaptation or explanation to convey the full meaning. For example, the English term «hazmat» (short for hazardous materials) is highly specialized and may be translated into Uzbek as «xavfli materiallar», which captures the general meaning but may lose some of the specific connotations of the original term. In cases where no direct equivalent exists, translators must decide whether to borrow the term directly, adapt it into a form that fits Uzbek linguistic norms, or provide a more detailed explanation. The choice of strategy depends on the target audience, the urgency of the communication, and the availability of alternative terms in the target language.

Cultural and Contextual Considerations.

Cultural differences between English-speaking countries and Uzbekistan also influence the translation of emergency terms. For instance, concepts related to legal systems or public safety protocols may differ significantly between the two cultures, leading to a need for cultural adaptation.

For example, the term «lockdown» in an English context may refer to a procedure enacted during school shootings or other violent incidents. In Uzbekistan, such incidents are rare, and the concept of a «lockdown» may not carry the same immediacy. Translators must ensure that the target audience fully understands the implications of such terms within their cultural context, possibly by adding contextual information or choosing a culturally relevant term.

Approaches to Translation.

One approach to translating emergency terms is through the use of loanwords, where the original English term is adopted into Uzbek, often with slight modifications in pronunciation or spelling. This approach is common for technical terms, such as «evakuatsiya» (evacuation) or «pandemiya» (pandemic). However, reliance on loanwords can pose challenges for populations unfamiliar with English or with limited education, necessitating the use of neologisms or more descriptive terms. Neologisms, or the creation of new words, are sometimes employed when a native equivalent does not exist. For instance, instead of using «quarantine», the Uzbek phrase «izolyatsiya qilish» (literally, «to isolate») may be used.

In some cases, a literal translation of emergency terms may not be the best option due to differences in linguistic structures and idiomatic expressions. A functional translation, which focuses on conveying the intended effect or function of the term, may be more effective. For example, translating the term «first responder» literally might not fully capture the specific role of emergency personnel in Uzbekistan, so a functional equivalent like «birinchi yordamchi» (literally, «first helper») could be used to highlight the role of providing immediate aid.

Emergency response systems often use acronyms (e.g., «CPR» for cardiopulmonary resuscitation). Translating these into Uzbek poses additional difficulties, as the acronyms often need to be restructured to match the syntax of the target language. For example, «CPR» may be translated as «yurak-o'pka reanimatsiyasi» (heart-lung resuscitation), but the acronym would change to «YOR» if abbreviated in Uzbek.

Conclusion. Translating emergency terms between English and Uzbek involves a complex interplay of linguistic, cultural, and contextual factors. The structural differences between the two languages, the lack of one-to-one terminological equivalence, and the need for cultural adaptation all contribute to the challenges faced by translators. Achieving accurate and culturally appropriate translations requires a deep understanding of both languages and their respective emergency response frameworks.

Effective communication in emergency situations is vital, and translators must balance the need for precision with the goal of ensuring that the target audience understands and can act upon the translated terms. By employing a mix of loanwords, neologisms, and functional translations, it is possible to bridge the linguistic and cultural gaps between English and Uzbek in the realm of emergency terminology.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Abdullaev S. Language and Culture in Uzbek Translation Practices. University of Uzbekistan Press, 2016.
2. Baker Mona. In Other Words: A Coursebook on Translation. A critical text discussing translation theory and practice, including terminology in different domains. 2011.
3. Brislin, R. (1976). Translation: Applications and Research. A guide to practical issues in translation that addresses problems like emergency term translation.
4. Catford, J. C. (1965). A Linguistic Theory of Translation. This foundational work covers general principles of translation, including specific challenges like terminology transfer.
5. Crystal, David (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Offers definitions and explanations of linguistic terms, useful for understanding the linguistic context of emergency term translation.
6. Dublin City University (2018). IJDRR Revised Framework for Translation in Disaster Contexts. Explores the specific context of translating disaster-related terms

7. Gile, Daniel (2009). *Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training*. Provides frameworks useful for teaching and analyzing specialized term translation.
8. Halliday, M.A.K., & Matthiessen, C. (2014). *Halliday's Introduction to Functional Grammar*. Analyzes how different languages structure meaning, crucial for translating functional emergency terms.
9. Hatim, Basil, & Mason, Ian (1997). *The Translator as Communicator*. Explores communication theory in translation, relevant for emergency term dissemination.
10. House, Juliane (2015). *Translation Quality Assessment: Past and Present*. Explores standards in translation quality, essential when comparing translations across languages like English and Uzbek.
11. Kecskes, Istvan (2013). *Intercultural Pragmatics*. Discusses how language use varies between cultures, relevant when translating terms in emergencies which require rapid, clear communication.
12. Leichik, V.M. *Terminology: A Handbook for Translators*. Discusses the formation and translation of specialized terms, including those in military and emergency settings.
13. Manerko, L.A. *The Language of Modern Technology: Core and Periphery*. A monograph focusing on terminology in technological domains, which can apply to emergency and military lexicons
14. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities* (2022). Discusses translation challenges of mission-related and emergency terminologies
15. *Multijournals.org* (2021). A study on the translation of disaster response terms across linguistic frameworks, relevant to comparing English and Uzbek
16. Newmark, Peter (1988). *A Textbook of Translation*. This book addresses the translation of specialized terms and includes examples relevant to technical and emergency terms.
17. Nida, Eugene (1964). *Toward a Science of Translating*. Provides theoretical insights into translation, including strategies for translating culturally specific terms.
18. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT* (2021). Discusses specific aspects of military and emergency terminology and their cultural significance in translation
19. Schäffner, Christina (1998). *Translation and Quality*. Covers strategies for translating complex terminologies, with relevance to emergency communication.
20. Shevchuk, V.N. *Military Terminology in English and Russian*. A comparative analysis of military terms that can provide insights into emergency term translations
21. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. John Benjamins Publishing.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

METHODS AND FEATURES OF APPLICATION OF NEOLOGISMS IN UZBEK AND ENGLISH IN THE FIELD OF DIGITAL TECHNOLOGIES

Berdimurotova Sevara Makhmudovna,

Termez University of Economics and Service

Teacher of the Department of Foreign Languages and Literature

E-mail: sevaseva864@gmail.ru

Abstract. This article analyzes the methods and features of application of neologisms in the Uzbek and English languages in the field of digital technologies. The study revealed the mechanisms by which neologisms in both languages are made, their similarities and differences. Also, the process of absorption of terms into the language and its linguistic features in the field of modern digital technologies has been studied.

Keywords: neologism, digital technologies, terminology, lexical units, word making, linguistics.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SOHASIDAGI O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI NEOLOGIZMLARNING YASALISH USULLARI VA QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI

Berdimurotova Sevara Maxmudovna,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Xorijiy til va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar sohasidagi o'zbek va ingliz tillaridagi neologizmlarning yasalish usullari va qo'llanilish xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida ikkala tildagi neologizmlarning yasalish mexanizmlari, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlangan. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar sohasidagi terminlarning tilga singib borish jarayoni va uning lingvistik xususiyatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: neologizm, raqamli texnologiyalar, terminologiya, leksik birliklar, so'z yasalishi, lingvistika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N66>

Kirish. Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida yangi tushunchalar va hodisalarni ifodalovchi so'zlar paydo bo'lmoqda. Bu jarayon tilshunoslik nuqtai nazaridan muhim tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Ayniqsa, o'zbek va ingliz tillarida raqamli texnologiyalar sohasida paydo bo'layotgan neologizmlarning yasalish usullari va qo'llanilish xususiyatlarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi[1; 25-26-b.].

XXI asr boshlaridan buyon texnologik innovatsiyalar ta'sirida tilning lug'at tarkibi tez sur'atlar bilan boyib bormoqda. Bu jarayon, ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yaqqol namoyon bo'lmoqda[2; 45-b.]. Raqamli transformatsiya davrida yangi tushunchalarni ifodalash uchun tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanish yoki boshqa tillardan so'z o'zlashtirish masalasi dolzarb muammoga aylanmoqda.

Til tizimining eng harakatchan qatlami bo'lgan leksika zamonaviy axborot texnologiyalari ta'sirida sezilarli o'zgarishlarga uchramoqda. Bu o'zgarishlar, birinchi navbatda, yangi so'zlar – neologizmlar paydo bo'lishida aks etmoqda[3; 78-b.]. Raqamli texnologiyalar sohasidagi neologizmlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular ko'pincha ingliz tilida paydo bo'lib, keyinchalik boshqa tillarga o'zlashadi. Bu jarayonda har bir til o'z ichki imkoniyatlari va qonuniyatlariga tayangan holda yangi so'zlarni o'zlashtiradi yoki o'z ekvivalentlarini yaratadi.

O'zbek tilida raqamli texnologiyalar bilan bog'liq terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bir tomondan, milliy til imkoniyatlaridan foydalanib yangi atamalar yaratish tendensiyasi kuchaymoqda, ikkinchi tomondan esa, ingliz tilidagi terminlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish yoki kalkalash usulida o'zlashtirish jarayoni ham faol kechmoqda[4; 140-b.]. Bu ikki yo'nalishning optimal nisbatini topish zamonaviy o'zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda qiyosiy-tipologik, tasviriy va komponent tahlil metodlaridan foydalanilgan. Qiyosiy-tipologik metod o'zbek va ingliz tillaridagi neologizmlarning yasaliş usullari va qo'llanilish xususiyatlarini taqqoslash imkonini berdi. Tasviriy metod orqali har ikkala tildagi neologizmlarning lisoniy xususiyatlari, ularning semantik-uslubiy belgilari aniqlandi. Komponent tahlil metodi esa neologizmlarning ma'no tarkibini o'rganishda qo'llanildi[1; 25-26-b.].

O'zbek tilshunosligida neologizmlar tadqiqi bo'yicha bir qator fundamental ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Sh.Rahmatullayev o'zining "O'zbek tilida yangi so'zlar" nomli monografiyasida zamonaviy o'zbek tilida yangi so'zlarning paydo bo'lish mexanizmlarini atroflicha tahlil qilgan[2; 45-b.]. Olim yangi so'zlarning yasalişida tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

A.Hojiyev tomonidan yaratilgan "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" da raqamli texnologiyalar sohasidagi bir qator yangi atamalar va ularning etimologiyasi tadqiq etilgan[3; 78-b.]. Olim o'zbek tiliga chetdan kirgan so'zlarning o'zlashish qonuniyatlarini va ularning milliy til tizimiga moslashish jarayonlarini o'rgangan.

Xorijiy tadqiqotchilardan P.Newmark o'zining "A Textbook of Translation" asarida texnik terminlarning tarjima masalalarini tadqiq etgan[4; 140-b.]. Olim yangi texnik atamalarni tarjima qilishning quyidagi usullarini taklif etadi:

- to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish;
- kalkalash;
- funksional ekvivalent topish;
- tavsifiy tarjima.

J.Algeo "Fifty Years Among New Words" nomli monografiyasida ingliz tilidagi neologizmlarning paydo bo'lish va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilgan [5; 89-b.]. Tadqiqotchi so'z yasalişining quyidagi faol usullarini ajratib ko'rsatadi:

- kompozitsiya;
- abbreviatsiya;
- konversiya;
- kontaminatsiya.

Rus tilshunosi V.G.Gak zamonaviy terminologiyaning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini o'rgangan [6; 56-b.]. Olim yangi so'zlarning paydo bo'lishida ekstralingvistik omillarning rolini alohida ta'kidlaydi.

M.Wilson “Computer Terms and Modern Language” asarida kompyuter terminologiyasining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilgan [7; 234-b.]. Tadqiqotchi raqamli texnologiyalar sohasidagi atamalarning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi:

- internatsional xarakter;
- tezkor o‘zgaruvchanlik;
- tizimlilik;
- amaliy yo‘nalganlik.

L.Anderson “Technology and Language Change” nomli tadqiqotida zamonaviy texnologiyalarning til tizimiga ta‘sirini o‘rgangan [8; 89-b.]. Olim quyidagi xulosalarga keladi:

- texnologik rivojlanish til o‘zgarishlarining asosiy omillaridan biri hisoblanadi;
- yangi tushunchalarni ifodalash uchun tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanish va chet tillaridan so‘z o‘zlashtirish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhim;
- terminologik tizimni standartlashtirish zarur.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar sohasidagi neologizmlar tadqiqi quyidagi yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

- yangi so‘zlarning yasaliş usullari;
- terminologik tizimning shakllanish qonuniyatlari;
- tarjima muammolari;
- standartlashtirish masalalari [9; 167-b.].

Shu bilan birga, o‘zbek va ingliz tillaridagi raqamli texnologiyalar sohasidagi neologizmlarning qiyosiy tadqiqi yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu sohadagi bo‘shliqni to‘ldirish uchun yangi tadqiqotlar olib borish zarur.

Natijalar va muhokama. Raqamli texnologiyalar sohasidagi o‘zbek va ingliz tillaridagi neologizmlarning yasaliş usullari va qo‘llanilish xususiyatlarini tahlil qilish natijasida quyidagi muhim xulosalarga kelindi. Tadqiqot jarayonida aniqlangan ma‘lumotlarga ko‘ra, har ikkala tilda ham neologizmlarning yasalişida affiksatsiya usuli yetakchi o‘rin egallaydi. O‘zbek tilida “-chi”, “-lash”, “-ish” kabi mahsuldor qo‘shimchalar orqali “dasturchi”, “kodlash”, “raqamlashtirish” singari yangi so‘zlar hosil qilinmoqda [1; 25-26-b.]. Ingliz tilida esa “-ize”, “-tion”, “-er” affikslari yordamida “digitalize”, “computation”, “programmer” kabi terminlar yasalmogda [4; 140-b.].

Kompozitsiya usuli ham ikkala tilda faol qo‘llanilayotgan so‘z yasaliş usullaridan biri hisoblanadi. O‘zbek tilida “ma‘lumotlar ombori”, “dasturiy ta‘minot”, “raqamli texnologiya” kabi qo‘shma terminlar paydo bo‘lmoqda. Ingliz tilida esa “database”, “software”, “digital technology” kabi kompozitlar keng tarqalgan. Bu usul orqali yasalgan neologizmlar ko‘pincha kalka usulida bir tildan ikkinchi tilga o‘zlashtirilmoqda [7; 123-b.].

Abbreviatsiya usuli zamonaviy terminologiyada muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tilida “ATM” (avtomatik tarjima mashinasi), “KT” (kompyuter tarmoqlari) kabi qisqartmalar paydo bo‘lgan bo‘lsa, ingliz tilida “AI” (Artificial Intelligence), “VR” (Virtual Reality) kabi abbreviaturalar keng qo‘llanilmoqda. Ko‘pincha ingliz tilidagi qisqartmalar o‘zbek tiliga o‘z holicha o‘zlashmoqda, bu esa xalqaro terminologik tizimning shakllanishiga xizmat qilmoqda [8; 234-b.].

Semantik usul orqali yangi ma‘nolar kasb etgan so‘zlar ham e‘tiborga molik. Masalan, o‘zbek tilidagi “sichqoncha” so‘zi kompyuter qurilmasi ma‘nosini, “virus” so‘zi esa zararli dastur ma‘nosini anglatadigan bo‘ldi. Ingliz tilida ham “mouse”, “virus”, “window” kabi so‘zlar yangi ma‘nolar kasb etgan. Bu jarayonda metaforik ko‘chim muhim rol o‘ynaydi [5; 89-b.].

Raqamli texnologiyalar sohasidagi terminlarning qo'llanilish xususiyatlari ham o'ziga xos. Birinchidan, bu sohadagi neologizmlar tez sur'atlarda tilga singib bormoqda va faol qo'llanilmoqda. Ikkinchidan, ular ko'pincha uslubiy betaraf bo'lib, ilmiy-texnik uslubga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Uchinchidan, ularning aksariyati terminologik tizimda barqarorlashib, lug'atlarga kiritilmoqda [3; 78-b.].

O'zbek tiliga ingliz tilidan o'zlashayotgan terminlarning moslashishi turli darajada kechmoqda. Ba'zi so'zlar to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilsa ("internet", "veb-sayt"), boshqalari kalkalash orqali ("mouse" — "sichqoncha", "hardware" — "qurilma") tilga kirib kelmoqda. Shuningdek, gibrid shakllar ham uchraydi ("internet-provayder", "veb-sahifa"). Bu jarayonda tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanish tendensiyasi kuchaymoqda [6; 56-b.].

Raqamli texnologiyalar sohasidagi neologizmlarning qo'llanilishida yana bir muhim tendensiya — ularning funksional-uslubiy xususiyatlaridir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bu sohadagi terminlarning aksariyati dastlab maxsus professional muhitda qo'llaniladi, so'ngra ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoatchilik nutqiga kirib boradi [2; 67-b.]. Masalan, "messenger", "blogger", "layk" kabi so'zlar bugungi kunda kundalik muloqotning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan.

Neologizmlarning tilga moslashish jarayonida ularning grammatik xususiyatlari ham muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilida yangi o'zlashgan so'zlar milliy til qonuniyatlariga bo'ysunadi. Masalan, "kontent" so'zidan "kontentli", "kontentsiz", "kontent yaratmoq" kabi yangi shakllar hosil qilinmoqda. Bu esa tilning ichki imkoniyatlarining kengayishiga olib kelmoqda [7; 98-b.].

Raqamli texnologiyalar sohasidagi terminlarning semantik taraqqiyoti ham e'tiborga molik. Ko'p hollarda bir termin turli kontekstlarda turlicha ma'nolar kasb etishi mumkin. Masalan, "profil" so'zi ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchi sahifasini, dasturlashda esa ma'lum parametrlar to'plamini anglatadi. Bu polisemiya hodisasi zamonaviy terminologiyaning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi [6; 156-b.].

Tadqiqot davomida neologizmlarning variantdorligi masalasi ham o'rganildi. Ayni paytda bir tushunchani ifodalash uchun parallel ravishda bir necha termin qo'llanilishi kuzatilmoqda. Masalan, "smartfon/aqlli telefon", "messenjer/xabar almashish dasturi" kabi variantlar mavjud. Bu holat terminologik tizimni standartlashtirish zarurligini ko'rsatadi [8; 145-b.].

Yangi terminlarning shakllanishida metafora va metonimiya kabi semantik ko'chim usullari ham faol ishtirok etmoqda. "Bulutli texnologiyalar", "aqlli uy", "raqamli hamyonlar" kabi iboralar bunga misol bo'la oladi. Bu jarayon tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirmoqda va terminologik tizimning boyishiga xizmat qilmoqda [3; 89-b.].

Raqamli texnologiyalar sohasidagi neologizmlarning tarjima masalalari ham alohida e'tiborni talab qiladi. Tarjima jarayonida quyidagi usullardan foydalanilmoqda:

1. to'g'ridan-to'g'ri transliteratsiya ("blog", "sayt");
2. kalkalash ("keyboard" — "klaviatura");
3. tavsifiy tarjima ("firewall" — "himoya tizimi");
4. funksional analog tanlash ("desktop" — "ish stoli") [4; 178-b.].

Neologizmlarning tilga singib borishi ijtimoiy-lingvistik omillarga ham bog'liq. Yangi terminlarning ommalashuvi ko'p jihatdan ularning qulayligi, ixchamligi va tushunarililigi bilan belgilanadi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va ta'lim tizimining roli ham muhimdir [1; 123-b.].

Zamonaviy o'zbek tilida raqamli texnologiyalar sohasidagi terminlarni tartibga solish va standartlashtirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- milliy til imkoniyatlaridan unumli foydalanish;
- xalqaro terminologik tajribani hisobga olish;
- terminlarning tizimligini ta'minlash;
- amaliy qulaylik va ilmiy asoslilikni uyg'unlashtirish[5; 234-b.].

Terminologik tizimning rivojlanishida standartlashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda o'zbek tilida raqamli texnologiyalar sohasidagi atamalarni tartibga solish, ularning yagona me'yorlarini ishlab chiqish zarurati mavjud. Bu borada xalqaro tajribani o'rganish va milliy til xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, raqamli texnologiyalar sohasidagi neologizmlar tilning lug'at tarkibini boyitishda muhim rol o'ynamoqda. Ular nafaqat yangi tushunchalarni ifodalash vositasi sifatida, balki til tizimining rivojlanish tendensiyalarini aks ettiruvchi hodisa sifatida ham ahamiyatlidir. Bu sohadagi terminologik tizimning takomillashuvi global axborotlashuv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi[10; 89-b.].

Xulosa. O'zbek va ingliz tillaridagi raqamli texnologiyalar sohasidagi neologizmlarning yasash usullari va qo'llanilish xususiyatlarini tadqiq etish natijasida qator muhim xulosalarga kelindi. Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida tilning lug'at tarkibi ham tez sur'atlarda boyib bormoqda. Bu jarayonda neologizmlarning yasalishi va o'zlashishi qonuniyatlarini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, har ikkala tilda ham neologizmlarning yasashida affiksatsiya va kompozitsiya usullari yetakchi o'rin egallaydi. Abbreviatsiya va semantik usullar ham faol qo'llanilmoqda. O'zbek tiliga ingliz tilidan o'zlashayotgan terminlarning moslashishi turli darajada kechmoqda: to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish, kalkalash va gibrid shakllarning paydo bo'lishi kuzatilmoqda.

Raqamli texnologiyalar sohasidagi terminologik tizimning shakllanishida milliy til imkoniyatlaridan foydalanish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu jarayonda tilning ichki qonuniyatlarini hisobga olish va xalqaro tajribadan unumli foydalanish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, yangi atamalarni standartlashtirish va tartibga solish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar sohasidagi terminologiyani takomillashtirish, tarjima amaliyotini yaxshilash va o'quv lug'atlari yaratishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Kelajakda bu yo'nalishdagi tadqiqotlarni davom ettirish, xususan, zamonaviy texnologiyalar ta'sirida tilning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish zarur.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Brown K. Digital Linguistics. – Chicago: University Press, 2023. – 234 p.
2. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилида янги сўзлар. – Тошкент: Фан, 2020. – 256 б.
3. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019. – 164 б.
4. Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 2018. – 292 p.
5. Algeo J. Fifty Years Among New Words. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 257 p.

6. Smith J. Digital Terminology and Neologisms. – Oxford: Oxford University Press, 2022. – 184 p.
7. Wilson M. Computer Terms and Modern Language. – London: Penguin Books, 2022. – 276 p.
8. Anderson L. Technology and Language Change. – Boston: MIT Press, 2021. – 289 p.
9. Johnson R. Modern Linguistics and Digital Era. – New York: Routledge, 2023. – 312 p.
10. Каримов С. Замонавий терминология масалалари. – Тошкент: Фан, 2021. – 198 б.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

LINGUISTIC EXPERTISE OF CONFLICT-RELATED COMMUNICATION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Po'latova Sarvinoz Botir kizi,

University of exact and social sciences, Head of the Department of Philology
Doctor of Philosophy in Philological Sciences PhD

Abstract. The article discusses the definition of contradictory communication in English and Uzbek languages. Linguistic analyzed. Contradictory communication is expressed in words and phrases. The scientific novelty of this work is the study of conflict communication in English and Uzbek languages. Through the translation based assessment category Verbalization of Linguistic Reviewed in aspect. As a result, the methods of conveying conflicting communication in translation, as well as the necessary translation strategies for this, were identified and described.

Keywords: adversarial communication, translate, english and uzbek languages, linguistic, analysis, challenge, negative mark.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ZIDDIYATLI KOMMUNIKATSIYANING LIGVISTIK EKSPERTIZASI

Po'latova Sarvinoz Botir qizi,

Aniq va Ijtimoiy fanlar universiteti, Filologiya kafedrasini mudiri
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek tillarida ziddiyatli kommunikatsiyaning lingvistik tahlili qilindi. Ziddiyatli kommunikatsiya so'z va iboralar bilan ifodalanadi. Ushbu ishning ilmiy yangiligi ziddiyatli kommunikatsiyani ingliz va o'zbek tillarida tarjima asosida baholash kategoriyasi orqali verbalizatsiyasini lingvistik aspektida ko'rib chiqildi. Natijada, tarjimada ziddiyatli kommunikatsiyani etkazish usullari shuningdek, buning uchun zarur tarjima strategiyalari aniqlandi va tavsiflandi.

Kalit so'zlar: ziddiyatli kommunikatsiya, tarjima, ingliz va o'zbek tillar, lingvistik, tahlil, muammo, salbiy baho.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N67>

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda filologik tadqiqotlarda ziddiyatli kommunikatsiya nazariyasiga ta'sir ko'rsatadigan ko'plab nashrlar paydo bo'ldi. N.I.Leonov ta'kidlaganidek, "hozirgi vaqtda ziddiyatli kommunikatsiyani e'tiborsiz qoldirish, jim turish yoki unga salbiy munosabatda bo'lish bosqichi tugaganligi sababli, nizolar bo'yicha ilmiy izlanishlar zarurligi aniq bo'ldi" [2]. Boshqa bir tadqiqotchining yozishicha, ziddiyatli kommunikatsiyaning fanlararo fan sifatidagi o'ziga xosligi va universalligi "uning tomonlarini turli darajalarda, turli shakllarda, turli darajadagi singdirish bilan, ziddiyatni tahlilni qo'llashning turli sohalarida ko'rib chiqish imkonini beradi" [3]. Taxminan 70 yil davomida turli xil ilmiy fanlarning keng doirasida olib borilgan va XX-asrning so'nggi o'n yilligida nashr etilgan ziddiyatli

kommunikatsiya muammosi bo'yicha mahalliy nashrlarning umumiy tahlilidan kelib chiqqan holda [4], filologiya ziddiyatli kommunikatsiyani o'rganadigan ilmiy yo'nalishlardan biri, ammo statistikada fanlar ziddiyatli kommunikatsiyalararo bo'yicha haqiqiy filologik tadqiqotlar soni haqida hali ma'lumotga ega emas[1]. Ko'rinib turibdiki, hozirgi vaqtda bibliografik rasm o'zgargan va bugungi kunda biz haqli ravishda filologiya fanining ziddiyatli kommunikatsiyaning lingvistik tahlili ya'ni ekspertizasi haqida gapirishimiz mumkin.


Ziddiyatli kommunikatsiyani o'rganuvchi fanlardan biridir tilshunoslikdir, V. A. Maslova yozadi: "Hozirda ko'pchilik olimlarning qiziqishini tilning o'zi so'zlovchidan va real hayotdan ajralgan holda emas, balki tilning so'zlovchining umuminsoniy, milliy-madaniy va individual xususiyatlarini qanday aks ettirishi o'ziga tortadi; tilning kundalik muloqotda qanday ishlashi; u jamoat hayotida qanday rol o'ynaydi"[5]. Ziddiyatli kommunikatsiya lingvistika aspektida asosan ijtimoiy o'zaro ta'sir davomida paydo bo'ladi[4], ko'pincha muloqotda, tilda aks etadi. Shunday qilib, lingvistikada ziddiyatli kommunikatsiya mustahkamroq o'rin egallay boshlaydi va mahalliy tilshunoslik tadqiqotlarida ziddiyatlar haqidagi ilmiy bilimlarni to'plash va ularning diversifikatsiyasini o'rganish, lingvistik ekspertiza qilish ilmiy tadqiqotning dolzarb sohasiga aylanib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ushbu maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida ziddiyatli kommunikatsiyaning lingvistik ekspertizasi ma'lumotlarini fanlararo tarzda to'ldirishga imkon beradigan ziddiyat muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarini ko'rib chiqishdir. Tadqiqot materialiga Elibrary.ru veb-saytidagi nashrlar, shuningdek, elektron kutubxona va O'zbekiston Davlat kutubxonasining elektron katalogi bo'ldi. Ko'rib chiqishda ziddiyatli kommunikatsiya lingvistik vositalar bilan tavsiflangan mavzu sifatida paydo bo'lgan manbalarni ataylab hisobga olmadi (harbiy harakatlar tavsifi, mojaroda ommaviy axborot vositalarining roli, mojarolarga asoslangan tadqiqotlar).

Natijalar va muhokama. Bibliografik ma'lumotlarning tahlili fanlararo konfliktologiyada ilmiy bilimlarning tarkibiy qismi sifatida ziddiyatli kommunikatsiya muammosini o'rganishning lingvistik o'ziga xosligini tavsiflash imkonini beradi. Tilshunoslikda, birinchi navbatda, til birliklarida ziddiyatli kommunikatsiyaning tomonlari ko'rib chiqiladi. Ta'kidlanishicha, nomuvofiqlik, ziddiyat va paradoks "til rivojlanishining ajralmas sharti bo'lib, lingvistik transformatsiya jarayonlarining dinamikligini rag'batlantiradi"[1]. Masalan, tobe bo'lakli murakkab gapdagi aspektual va temporal ma'nolarning semantik ziddiyati, etimologik va denotativ ma'no ziddiyatli so'zlar o'rganiladi ingliz va o'zbek tillari yoki ingliz va rus tillari aspektida[3].

Ona tilida so'zlashuvchining ongida ziddiyatli kommunikatsiya ma'lum bir tipik tuzilma – "Freym" sifatida mavjud. "Ziddiyatli kommunikatsiya" freymi maxsus stereotipik vaziyatni ifodalaydi va aks ettiruvchi obyektning majburiy tarkibiy qismlarini ("ziddiyatli kommunikatsiya" freymining yuqori darajasi) o'z ichiga oladi: manfaatlari ziddiyatli bo'lgan ziddiyatli kommunikatsiya ishtirokchilari; to'qnashuv (maqsadlar, qarashlar, pozitsiyalar, nuqtai nazarlar), ularning qarama-qarshiligini yoki nomuvofiqligini ochib beradigan — ziddiyatli kommunikatsiya ishtirokchilaridan birining suhbatdoshining xatti-harakati yoki holatini o'zgartirishga va boshqasining nutq harakatlariga qarshilik ko'rsatishga qaratilgan nutq harakatlari o'z nutqiy harakati orqali ishtirokchi; qatnashuvchining nutqiy harakatlari natijasida kelib chiqadigan va aytilgan nutqiy harakatlar natijasida boshqalar boshdan

kechiradigan zarar (oqibatlar). Shu tariqa “ziddiyatli kommunikatsiya” freymining ixtiyoriy komponentlari (pastki daraja) quyidagi slotlar bilan ifodalanishi mumkin:



“Ziddiyatli kommunikatsiya” freymi harakatning standart usullarini mustahkamlaydi, ushbu freym haqidagi bilimlar tuzilishi orqali uning ishtirokchilarining nutq xatti-harakatlarini tartibga soladi. Biroq, tarjimon har doim ziddiyatni yumshatishi kerakmi yoki ziddiyatli kommunikatsiyani saqlab qolishi kerakmi degan savol ochiq qolmoqda. Ilmiy adabiyotlarda tasvirlangan tarjima strategiyalarini inobatga olgan holda, biz E. V. Vinogradovning[2] so'zlarini keltirishimiz mumkin, u tarjimon muzokarachilarga ergashadigan hamkorlik yoki qarama-qarshilik strategiyasini qabul qiladi.

Amaliy material tahlili shuni ko'rsatdiki, tarjimonning vazifalaridan biri sifatida qarama-qarshilikni yumshatish haqidagi keng tarqalgan fikrga qaramay, ushbu tarjima strategiyasi kamdan-kam hollarda amalga oshirildi. Salbiy baho yuqori “daraja” ga yetganda, ular bunga murojaat qilishdi. Masalan: “The leadership... will not look back at the “Russophobes” whom the former president is now trying to raise up again to fight against the regime in Tbilisi” (Rahbariyat... sobiq prezident hozir Tbilisidagi rejimga qarshi kurashga yana qo'zg'atmoqchi bo'lgan rusofoblarga qaramaydi)[1]. Ko'rib turganingizdek, ushbu parchada “Russophobe” so'zi salbiy semantika bilan, salbiy bahoni og'zaki ravishda ishlatadi. Ushbu parchani tarjima qilishda kamchiliklardan foydalanildi, buning natijasida salbiy baho neytrallandi: “The authorities... will not be proceeding from the action, the problems that the new president is trying to use again”.

Keyingi misolda umumlashtirish va tashlab ketish usullari norozilik darajasini ziddiyatli kommunikatsiyani asosida ifodalaydi: *“But the fact that it happened for the first time in many, many years, that he is sitting in prison on unfounded charges, on a false case, this, of course, does not make us happy”* (Lekin bu ko‘p, ko‘p yillar davomida birinchi marta sodir bo‘lganligi, uning asossiz ayblov, yolg‘on ayblov bilan qamoqda ekanligi... vaziyat, bu, albatta, bizni xursand qilmaydi) [1]. Shu tarjimon ziddiyatli kommunikatsiyani oldini olish uchun, ahvolni yumshatish uchun, shunday tarjima qiladi: *“But the fact that it happened over numerous years that he spent in prison based on some doubtful allegations, this is not something we’re content with”*[1].

Yuqoridagi misolda ziddiyatli kommunikatsiya ikkita sinonimik kamsituvchi so‘zlardan foydalanishga asoslangan: “asossiz ayblov” va “yolg‘on ma‘lumot”. Bu erda biz salbiy baholashning ko‘p darajali vositalarining kombinatsiyasini kuzatamiz: leksik vositalar (salbiy konnotativ ma‘noga ega so‘zlar) va grammatik (sintaktik) vositalar (parallel tuzilmalardan foydalanish), bu baholashning “salbiylik darajasini” oshiradi va kuchaytiradi. Ingliz tiliga tarjima qilinganda salbiy baho yaratishning grammatik vositalaridan foydalanilmagan. Bundan tashqari, ingliz tilidagi “shubhali” sifat doshi o‘zining semantikasida o‘zbek tilidagi “asossiz” va “yolg‘on” sifatlari kabi “salbiylik” darajasiga ega emas. Shunday qilib, tarjima matnidagi salbiy baho kamroq aniq ifodalangan “yarim ochiq” bo‘lib qoladi, bu esa o‘z navbatida bayonotning ziddiyatli kommunikatsiyasini yumshatadi.

Toshkent davlat yuridik universiteti
"Fuqarolik huquqi" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining yangi Fuqarolik kodeksi loyihasidagi fuqarolik-huquqiy obyektlarni tartibga solish bilan bog'liq asosiy masalalar keng tahlil qilinadi. Yangi Konstitutsiya va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasiga muvofiq, kodeks loyihasi shaxsiy hayot daxlsizligi, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, shaxsiy nomulkiy huquqlarni huquqiy himoya qilish bo'yicha normativ asosni mustahkamlashga yo'naltirilgan. Ushbu loyiha doirasida, shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilish, shaxs tasviri va sha'nini muhofaza qilish kabi yangi normalar, xususan, raqamli iqtisodiyotdagi huquqiy masalalar, kriptο-aktivlar, "yashil energiya" sertifikatlari va transplantatsiya kabi zamonaviy obyektlarni tartibga soluvchi qoidalar ham kiritildi. Shuningdek, maqolada, kodeks loyihasining qoidalarida jahonning ilg'or davlatlarida qabul qilingan tajribalarni inobatga olish muhimligi qayd etilgan. Bu borada, Rossiya, Xitoy, Fransiya, Germaniya kabi mamlakatlarning fuqarolik qonunchiligidagi nomoddiy ne'matlar, shaxsiy daxlsizlik va obyektlarni tartibga solish yondashuvlari keltirilgan. Ushbu davlatlarning tajribasi asosida loyiha qoidalari O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va zamonaviy talablariga mos holda ishlab chiqilganligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: obyektlar, kriptο-aktivlar, "yashil energiya" sertifikatlari, "big data", "droit à la vie privée"

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N77>

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan umumxalq referendum orqali mamlakatning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi jamiyatning evolyutsion rivojlanishidan kelib chiqib qabul qilindi. Unda fuqarolarning shaxsiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy huquqlari daxlsizligi kuchaytirildi. Xususiyl mulkchilik va uy-joy daxlsizligi bilan bog‘liq moddalar kiritilishi bilan fuqarolik muomalasidagi obyektlar hajmining ortishiga ham sabab bo‘ldi. Konstitutsiyaning 31-moddasida har kim shaxsiy hayot daxlsizligi hamda o‘z shaxsigadoir ma‘lumotlarni himoya qilish huquqi kafolatlandi. 47-moddasida har kimning uy-joyli bo‘lish huquqi mavjudligi belgilangan bo‘lsa, 68-moddada yerning xususiyl mulk bo‘lishi mumkinligi qayd etildi. 33-modda orqali davlat internetdan foydalanish uchun sharoit yaratishni kafolatlab qo‘ydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F–5464-son farmoyishi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasi qabul qilinib, uning 4-bo‘limi birinchi va beshinchi qismlarida shaxslar tasviri, ularning shaxsiy nomulkiyl huquqlari va boshqa nomoddiy manfaatlarining ishonchli fuqarolik-huquqiyl himoya qilinishini ta‘minlash, fuqarolik-huquqiyl munosabatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni qo‘llashning huquqiyl asoslarini shakllantirish, xususan, kripto-aktivlar, shu jumladan mayning aylanmasini rivojlantirish, shaxsi ko‘rsatilmagan ma‘lumotlarning sezilarli massivlarini (“big data”) yig‘ish va qayta ishlashni huquqiyl tartibga solish, elektron tijoratdan foydalanish, elektron maydonchalar orqali xaridlarni amalga oshirish bo‘yicha imkoniyatlarni kengaytirishga oid topshiriqlar qo‘yildi.

Shuningdek, Prezidentning PQ-156-son Qarori bilan ma‘qullangan “Yashil energiya” sertifikatlari tizimini joriyl etish chora-tadbirlarida “yashil energiya” sertifikatlarining fuqarolik muomalasida obyekt sifatida erkin bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tishi belgilandi.

2022-yil 11-mayda O‘zbekiston Respublikasining “Inson a‘zolari va to‘qimalarining transplantatsiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinib, unda transplantatsiya obyektlari sifatida tirik donordan yoki inson murdasidan olingan inson a‘zolari va (yoki) to‘qimalari bo‘lishi belgilandi.

Metodologiya. Mazkur maqola ilmiyl-tahliliyl uslubda yozilgan bo‘lib, unda bir qator tadqiqot metodlari qo‘llangan. Xususan, maqolada O‘zbekistonning yangi Fuqarolik kodeksi loyihasi mazmuni chuqur tahlil qilingan va uning ayrim qoidalari boshqa huquqiyl tizimlar tajribasi bilan taqqoslangan. Muallif avval loyihadagi har bir modda va uning mohiyatini alohida ko‘rib chiqib, keyin ularni umumiy yondashuv bilan bog‘laydi. Maqolada, shuningdek, O‘zbekiston qonunchiligidagi yangi qoidalar Rossiya, Xitoy, Fransiya, Germaniya va boshqa davlatlar huquqiyl tizimi bilan taqqoslangan. Taqqoslash orqali muallif xalqaro tajribani tahlil qilib, O‘zbekistonda tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan samarali yechimlarni aniqlashga harakat qiladi. Qolaversa, Muallif 2019-yildan buyon amalga oshirilayotgan fuqarolik qonunchiligini yangilash jarayoniga e‘tibor qaratib, ushbu o‘zgarishlarning evolyutsion bosqichlarini tavsiflaydi.

Muhokama. Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish bilan bog‘liq islohotlar natijasida o‘tgan 2019-2022-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini yangi tahririni tayyorlash bo‘yicha faol ishlar olib borildi. Loyiha tan olingan xalqaro tajriba, mutaxassislarining fikrlari hamda jamoatchilik takliflari asosida ishlab chiqilib, amaldagi

qoidalar takomillashtirildi. Xususan, Fuqarolik kodeksi loyihasida yangi tahrirdagi Konstitutsiya hamda Konsepsiyada keltirilgan fuqarolik huquqining obyektlariga oid masalalarning aksariyati inobatga olinib, bozor iqtisodiyoti va ilg'or xalqaro standartlar talablariga javob beradigan o'zgarishlar amalga oshirilgan.

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda dunyoda kuzatilayotgan shiddatli o'zgarishlar, xususan, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarning o'rni va ahamiyati ortib borayotganligini inobatga oladigan bo'lsak, fuqarolik huquqining obyektlari bilan bog'liq loyihadagi bu o'zgarishlar bugungi zamonaviy talablarga qay darajada muvofiq kelishini aniqlash zarurati mavjudligini ko'rsatadi.

Amaldagi FKning 3-kichik bo'limi 3 ta bob (6-8-boblar), 20 moddalardan (81-100-moddalarni) iborat bo'lsa, loyihaning umumiy qoidalaridagi obyektlarga doir normalari ancha qisqartirilib, 8 modda (172-179-moddalar) belgilanmoqda. Ashyolarga oid qoidalar ashvoviy huquqlar bo'limiga, intellektual faoliyat natijalari bilan bog'liq obyektlarga oid qoidalar intellektual mulk huquqi bo'limiga ko'chirilmogda.

Shu bilan birga loyiha umumiy qismdan o'rin olgan obyektlarni huquqiy tartibga soluvchi 6-bobi qoidalariga ilgari mavjud bo'lmagan yangi obyektlar kiritilmogda.

Bunda sha'n va qadr-qimmatni muhofaza qilishga oid normalar aniqlashtirilib, uni himoya qilishga oid normalarni aniq talqin etishga imkonini beradigan mezonlar 176-177-moddalarida nazarda tutilmogda. Zero bugungi kunda axborot tarqatish bilan bog'liq munosabatlarda ko'plab huquqbuzarlik holatlari sodir etilmogda. Xususan, fuqaroning sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlarni tarqatish orqali fuqarolarga zarar yetkazish holatlari tez-tez uchrab turadi. Xususan, trollar, blogerlar tomonidan internet va ijtimoiy tarmoqlarda ko'plab haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar tarqatilmogda. Ushbu holatlardan himoyalanishga nisbatan qonunchilikda aniq mexanizmlar nazarda tutilmagan. Taklif etilayotgan normalar ushbu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi. Xalqaro tan olingan tajribadan Xitoy Fuqarolik kodeksi 1025-1026-moddalari asos sifatida olingan. Shuningdek, loyihada Internet olamining kengayishi hamda fan va texnologiyaning rivojlanishi asosida yuzaga kelayotgan xavflar va tahdidlarni inobatga olib novellalar sifatida "fuqaro tasvirining himoyasi", "Fuqaroning shaxsiy hayotini muhofaza qilish" kabi normalar ham belgilanmogda.

Konsepsiyaning shaxs tasviriga bo'lgan huquqini ishonchli himoya qilish vazifasini bajarish, shuningdek, fuqaro tasvirining himoyasi bugungi axborot kommunikatsiya rivojlangan davrda dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi inobatga olinib loyihaga yangi 178-modda kiritilmogda. Unda tasvirga bo'lgan huquq va uning himoyasi mezonlariga oid qoidalar aks ettirilmogda.

Fuqaro tasvirini olish va uni tarqatish vositalarining turi juda keng va tasvirdan turli g'arazli va noqonuniy maqsadlarda ham foydalanish mumkin. Bu esa fuqaroning shaxsiy nomulkiy huquqlari obyektlaridan biri sanaladigan tasvirga bo'lgan huquq buzilishiga olib keladi.

Boshqa tomondan qaraganda, shaxsning tasviridan uning roziligisiz foydalanishga yo'l qo'yiladigan holatlarni ham nazarda tutish zarur.

Dunyo tajribasiga qaraydigan bo'lsak, aksar davlatlar fuqarolik qonunchiligiga nomoddiy ne'matlar sifatida shaxs tasviriga bo'lgan huquq hamda shaxsiy hayot daxlsizligini, allaqachon, obyektlar sifatida kiritgan. Jumladan, MDH davlatlaridan Rossiya Federatsiyasi

Fuqarolik kodeksining 152¹-moddasi shaxs tasviriga oid bo'lsa, 152²-moddasida shaxsiy hayot daxlsizligiga oid qoidalar aks ettirilgan. Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 144-145-moddalari shaxsiy hayot daxlsizligi hamda shaxs tasvirini fuqarolik huquqi obyekt sifatida tartiblagan. Turkmaniston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ushbu nomoddiy ne'matlar 17-18-moddalarida belgilangan.

Yevropa qit'a huquqi mamlakatlaridan hisoblanuvchi Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Italiya mamlakatlari ham o'z qonunchiligida shaxsiy hayot daxlsizligi va shaxs tasvirini obyekt sifatida belgilab muhofaza qiladi. Masalan, Fransiyada shaxsiy hayot daxlsizligi Fuqarolik kodeksining 9-moddasida mustahkamlangan "*droit à la vie privée*" (shaxsiy daxlsizlik huquqi) tushunchasi asosida himoya qilinadi. Ushbu modda shaxslarning shaxsiy hayotiga, shu jumladan shaxsiy hayotiga asossiz aralashishdan himoyalanih huquqi bilan o'z navbatida shaxs tasvirini ham qamrab oladi.

Germaniya Federativ Respublikasi va Ispaniya Monarxiyasida shaxs tasviri shaxsiy hayot daxlsizligi ichida Konstitutsiya darajasida muhofaza qilingan. Jumladan, Ispaniya Konstitutsiyasining 18-moddasiga ko'ra sha'ni, qadr-qimmat, shaxsiy va oilaviy hayot daxlsizligi va o'z qiyofasiga bo'lgan huquqi kafolatlanadi.

Italiyada shaxsiy daxlsizlik huquqlari Italiya Konstitutsiyasining 10-moddasida keltirilgan "*diritto alla riservatezza*" (shaxsiy hayot huquqi) tushunchasi ostida himoyalangan. Italiya Fuqarolik kodeksida ham shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qiluvchi qoidalar mavjud.

Tasvir huquqlari Italiyada Fuqarolik kodeksning 96-moddasiga muvofiq tan olingan bo'lib, u jismoniy shaxslarga ularning roziligisiz o'z suratlaridan tijorat maqsadlarida foydalanishni nazorat qilish huquqini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida ham har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egaligi belgilangan. Biroq Konstitutsiyada belgilangan mazkur qoida fuqarolik qonunchiligida rivojlantirilmagan va fuqaroning shaxsiy hayotini muhofaza qilish masalalarida bo'shliq yuzaga kelgan.

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga oid ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunida shaxsiy hayotning bir qismi hisoblangan shaxsning o'zi va hayotiga hamda boshqa shaxsiy nomulkiy huquq va manfaatlariga oid ma'lumotlarni muhofaza qilish masalalari belgilangan. Shu sababli fuqaroning shaxsiy hayotini muhofaza qilishga oid asosiy qoidalar, bu boradagi muayyan mezon va muhofaza qilish chegaralari, shaxsiy hayotni muhofaza qilishda belgilanayotgan huquqlar va kafolatlar FKda ifodalanishi maqsadga muvofiqdir.

Fan va texnikaning jadal taraqqiyoti kishilik jamiyati uchun turli texnologiya imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Bu texnologiyalar o'z navbatida mavjud ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishiga, ularga yangi voqeliklar hamda ilgari ma'lum bo'lmagan, anglab yetilmagan yoki tushunilmagan narsalar, texnikalar, uskunalar, usullar va vositalar kirib kelishi sabab bo'lmoqda. Ayni paytda mazkur holatlar huquqiy munosabatlarning tarkibi va mazmuni o'zgarishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan fuqarolik huquqlari obyektlari doirasi va ko'lami ham borgan sari kengayib, yangi ma'no va mazmun kasb etib bormoqda. Fuqarolik huquqi fani tomonidan bugungi kunda zamonaviy dunyoda fuqarolik huquqlarining yangi obyektlari mamlakatlar qonunchiligida e'tirof etilmoqda. Bunday obyektlar jumlasiga raqamli pullar, raqamli huquqlar, uglerod birliklari (kvotalarni bajarish birliklari), elektr energiyasini kelib chiqish sertifikatlari ("yashil" sertifikatlar) kiradi.

Qolaversa, mamlakatimizda inson ta'na a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasiga oid munosabatlar ham tartibga solinib, unga doir O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Qonunda transplantatsiya obyektlari ko'rsatildi. Loyihada esa bunday yangi obyektlar haqida qoidalar keltirilmagan.

Natijalar. Yuqoridagilarni inobatga olib, "yashil" sertifikatlar, uglerod birliklari, transplantatsiya obyektlariga oid umumiy qoidalarni ham kiritish kerak.

Kodeks loyihasida, shuningdek, obyektlarga oid qoidalarni joylashtirish bilan bog'liq o'zgarishlar ham mavjud. Xususan, qoidalarni joylashtirishda asosan fuqarolik huquqi obyektlari tushunchasi, mol-mulk termini, qimmatli qog'ozlar muomalada bo'lishi hamda shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne'matlarni belgilash, muhofaza qilish va himoya qilishga oid qoidalar "Obyektlar" nomli bobda belgilanmoqda. Ushbu bobning ashyolarga, ko'char va ko'chmas mulkka bag'ishlangan qoidalari esa loyihaning "Ashyoviy huquqlar" nomli II-bo'limiga o'tkazilmoqda.

Dunyo tajribasiga qaraydigan bo'lsak, bu borada ikki xil yondashuv mavjud. Bir qator mamlakatlarda yangi loyihadagi kabi ashyoviy huquq obyektlariga oid normalar fuqarolik huquqining obyektlari haqidagi umumiy qoidalarda emas, balki ashyoviy huquqlar bobida joylashgan. Masalan, Fransiya Fuqarolik kodeksi II Kitobi mulk huquqiga bag'ishlangan bo'lib, mol-mulkning tasniflanishi ushbu bo'limdan o'rin olgan. Xitoy Xalq Respublikasi Fuqarolik kodeksida ham ashyolarga oid qoidalar, xususan, ularning tasniflanishi ashyolar bobida keltirilgan. Ozarbayjon Respublikasi ham ashyolarning tasniflanishi bilan bog'liq qoidalarni ashyoviy huquqlar bobiga joylashtiradi. Avstriyada ham shunday yondashuv. 2-yondashuv mamlakatlari obyektlarni institutsional bo'lmasdan, umumiy qoidalarda ifoda etadi. Bunday mamlakatlar qatorida Germaniya, Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Ukrainalar mavjud. Misol uchun, Qozog'iston Fuqarolik kodeksi 1-bo'lim 3-bobi fuqarolik huquqi obyektlari deb nomlanib, undagi 115-128-moddalar obyektlar tushunchasi, turlari va ashyolarning tasniflanishiga oid qoidalarni o'zida aks ettirgan. Xuddi shunday joylashuv Ukraina Fuqarolik kodeksi 1-bo'lim 3-bob 177-211-moddalarda ifoda etilgan. Qoidalar joylashuvi shuni ko'rsatadiki qit'a huquqi oilasining german tarmog'i mamlakatlari (asosan MDH davlatlari) obyektlarga oid qoidalarni umumiy qoidalar sifatida tartiblaydi. Aksar fransuz tarmog'i mamlakatlari esa ashyolarga oid qoidalarni ashyoviy huquqda, obyektlarga oid umumiy tushunchalarni esa umumiy qoidalarga joylashtiradi.

Aytish kerakki, ashyolar va ularning turlanishini ashyo huquqida keltirish samarali. Sababi, ashyolar odatda ashyoviy huquqqa oid munosabatlarda qatnashib, mulkiy munosabatlarning vujudga kelishi uchun asos bo'ladi. Shu sababli ham ular ashyo huquqining obyekti ham deyiladi. Bunday joylashuv ashyolarning obyekt sifatida ishtirokini tushunish uchun ham muhim hisoblanadi. Shunday ekan, loyihadagi bunday joylashuv maqsadga muvofiqdir.

Qolaversa, bunday joylashuv kodeks qoidalarining tizimli, izchil bo'lishini ta'minlab, qoidalarni oson tushunishga imkon beradi.

Loyihada, shuningdek, shaxsiy nomulkiy huquqlar bilan bog'liq qo'shimcha moddalar qo'shilmoqda. Nomoddiy ne'matlarga oid mavjud qoidalar esa to'ldirilmoqda. Jumladan, fuqaroning shaxsiy hayoti (uning kelib chiqishi, yashash joyi, shaxsiy va oilaviy hayoti haqidagi axborot) 179-modda orqali muhofaza qilmoqda. Uning himoyasiga oid faqatgina bunday axborotlarni tarqatishni oldini olish va tarqatish haqida sudga murojaat qilish mumkinligi yoki

kodeksning 29-moddasi ikkinchi qismida himoya usullarida foydalanish belgilanmoqda. Tan olingan xorijiy tajribaga qaraydigan bo'lsak, Rossiya (RFFK 150-152-moddalar), Gruziya (GFK 18-19-moddalari), Fransiya kabi davlatlar shaxsiy nomulkiy huquqlarni kodeksning o'zida nafaqat muhofaza, shu bilan birga himoya ham qiladi. Faqat o'ziga xos jihati shuki, himoyaga oid qoidalarda umumiy himoya usullari (ma'naviy zarar, buzilgan huquqni sud orqali himoya qilish, shaxsiy hayotga oid axborotni tarqatishni oldini olish va taqiqlash kabilar) keltirilib, maxsus himoya usullar boshqa qonun hujjatlarida bo'lishi ta'kidlanadi. Gruziyaga o'xshagan mamlakatlar shaxsiy nomulkiy huquqlarni obyektlar bobida emas, jismoniy shaxslarga bag'ishlangan bobga joylashtirgan.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar himoyasida Xitoy Xalq Respublikasi tajribasini o'rganish ham muhimdir. Chunki, Xitoy yaqin yillarda yangi Fuqarolik kodeksi loyihasini ishlab chiqqan davlatlardan biri hisoblanadi. Xitoy kodeksi shaxsiy nomulkiy huquqlar muhofazasi borasida o'ziga xosliklarga ega. Xususan, jismoniy shaxslarning aksar fundamental (O'zbekistonda bunday huquqlarning aksari konstitutsiyaviy huquqlar sanaladi) huquqlarni fuqarolik huquqlari sifatida kodeksning 1-kitobi 6-bobida aks ettiradi. Ushbu bobda fuqarolik huquqlariga oid 24 modda (109-132-moddalar) ajratilgan. Kodeksning 110-moddasida jismoniy shaxslar yashash huquqidan, jismoniy daxlsizlik huquqidan, sog'liq huquqidan, ismga bo'lgan huquqdan, tasvirga bo'lgan huquqdan, obro'ga bo'lgan huquqdan, sha'niga bo'lgan huquqdan, shaxsiy daxlsizlik huquqidan va nikoh erkinligidan foydalanishi belgilangan.

Shuningdek, shaxsiy nomulkiy huquqlarga oid alohida 4-kitob ishlab chiqilgan bo'lib, u shaxsiy nomulkiy huquqlar deb nomlangan. Kodeksning ushbu qismida fuqarolarning yashash huquqi, jismoniy daxlsizlik huquqi, sog'liq huquqi, ismga bo'lgan huquq, yuridik shaxslarning firma nomiga bo'lgan huquq, tasvirga bo'lgan huquq, sha'ni, qadr-qimmat, obro' (reputatsiya) bilan bog'liq huquqlari, shaxsiy daxlsizlik huquqlari himoyasiga oid alohida qoidalar ishlab chiqilgan.

Xitoy Xalq Respublikasi shaxsiy nomulkiy huquqlarni o'z kodeksida joylashtirishda 1-kitob umumiy qoidalarda muhofazaga oid umumiy qoidalarni, 4-kitobda esa himoyaga oid maxsus qoidalarni belgilaydi. Shunday ekan, joylashtirishning bunday konseptual ko'rinishini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi yangi loyihasini ishlab chiqishda ham qo'llash masalasini ko'rish kerak. Shaxsning yashashga bo'lgan, sog'lig'iga bo'lgan, jismoniy daxlsizligiga bo'lgan huquqlarni loyihaga kiritish fuqarolik qonunchiligini takomillash Konsepsiyasida ustuvor vazifa sifatida qo'yilgan shaxsiy nomulkiy huquqlar muhofazasi va himoyasini kuchaytirish mazmuniga mos keladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maqolada keltirilgan qiyosiy tahlillar O'zbekiston qonunchiligida xalqaro tajribalarni inobatga olish muhimligini ko'rsatadi. Rossiya, Qozog'iston, Xitoy va Yevropaning boshqa ilg'or mamlakatlari tajribasi asosida O'zbekistonning huquqiy tizimini yanada takomillashtirish, ayniqsa, nomoddiy ne'matlar va shaxsiy huquqlarni himoya qilishda aniq mexanizmlar yaratish lozimligi ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada raqamli iqtisodiyot va yangi obyektlar bilan bog'liq masalalarni huquqiy tartibga solish, xususan, "yashil energiya" sertifikatlari, transplantatsiya obyektlari va kripto-aktivlar kabi mavzularning ahamiyati qayd etilgan.

Umuman olganda, yangi kodeks loyihasi O'zbekiston fuqarolik huquqiy tizimini zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan muhim islohot hisoblanadi. Bu islohotlar natijasida, fuqarolarning shaxsiy va iqtisodiy huquqlari yanada

ishonchli himoya qilinadi, yangi iqtisodiy munosabatlar esa huquqiy asosda tartibga solinadi. Shu bilan birga, maqoladagi tahlillar yangi Fuqarolik kodeksi loyihasi O'zbekiston Respublikasida huquqiy islohotlarni amalga oshirish va qonunchilikni takomillashtirishda muhim manba sifatida xizmat qilishini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi loyihasi. (Yangi tahrir). O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Toshkent, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yilgi yangi tahrir). Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 2023-yil.
3. Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5464-son farmoyishi. Toshkent, 2019-yil.
4. Moosavian, Rebecca. (2020). Public Image (Un) Limited: Privacy Rights of the Photographic Subject in England and New York Compared. 10.4337/9781788970594.00016.
5. D.J. Solove, Understanding Privacy (Cambridge, MA 2008), 163; and R. Gavison, "Privacy and the Limits of the Law" (1980) 89 Yale L.J. 421, at 433.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

SOME APPROACHES TO IMPROVING THE LEGISLATION ON LEASE AGREEMENTS

Gaibullaev Sakhbzhon Gaibullaevich,

Senior Assistant to the Prosecutor of the Kashkadarya Region,
Master of Laws

Abstract. The article examines the legal and economic aspects of lease agreements, focusing on lease agreements with an option to purchase. This type of agreement allows for the initial leasing of an asset or property with the option to later acquire full ownership. The article outlines the terms of the agreement, the rights and obligations of the lessee and lessor, and the legal implications of exercising the purchase option. Economically, such agreements facilitate financing for business activities, ease property acquisition, and reduce asset-related risks. The study also discusses the main advantages, disadvantages, and legal issues associated with such leases.

Keywords: lease agreement with purchase option, property rights, financing, lessee, lessor, business activities, risk reduction, legal implications, financial instruments, private property.

ИЖАРА ШАРТНОМАСИГА ОИД ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ БЎЙИЧА АЙРИМ ЁНДАШУВЛАР

Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич,

Қашқадарё вилояти прокурорининг катта ёрдамчиси,
ҳуқуқ магистри

Аннотация. Мақолада ижара шартномасининг ҳуқуқий ва иқтисодий жиҳатлари таҳлил қилинади. Бунда кейинчалик сотиб олиш шарти билан ижара шартномаси тузишга оид масалаларга эътибор қаратилади. Ушбу шартнома тури актив ёки мулкни аввал ижарага олиб, кейинчалик уни тўлиқ эгалик қилиш мақсадида сотиб олиш имконини беради. Мақолада ушбу шартноманинг мазмуни, унинг шартлари, ижарачи ва ижара берувчининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, шунингдек, сотиб олиш ҳуқуқидан фойдаланишнинг ҳуқуқий оқибатлари ёритилган. Иқтисодий жиҳатдан, бундай шартномалар тадбиркорлик фаолиятини молиялаштириш, хусусий мулкни эгаллашни енгиллаштириш ва мулкий таваккалчиликларни камайтириш имконини беради. Мазкур ишда, шунингдек, бундай турдаги ижара шартномаларининг асосий афзалликлари ва камчиликлари, улардан фойдаланишга оид ҳуқуқий масалалар муҳокама қилинади.

Калит сўзлар: кейинчалик сотиб олиш шарти билан тузиладиган ижара шартномаси, мулк ҳуқуқи, молиялаштириш, ижарачи, ижара берувчи, тадбиркорлик фаолияти, таваккалчиликни камайтириш, ҳуқуқий оқибатлар, молиявий воситалар, хусусий мулк.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N78>

Кириш. Ижара муносабатлари қадим замонларданоқ кишилар ўртасидаги ўзаро ишончга асосланган ва ўзаро ёрдам қўриниши сифатида шаклланган ва кейинчалик бизнес соҳасидаги ҳам кенг қўлланиладиган конструкциялардан бирига айланган. Бугунги кунда ижара турли мезонлар ва шарт асосида таснифланади, турларга

ажратилади ва моҳияти бўйича ҳам ҳар хилдаги талқинлар билдирилади. Чунончи ижарага серқирра хусусиятга, мақсадга ва вазифага эга бўлган фуқаролик ҳуқуқидаги шартномавий институтларидан биридир.

Одатда ижара муносабатларнинг мақсади мол-мулкни вақтинча фойдаланиш учун ҳақ эвазига бошқа шахсга бериш ҳисобланади. Ижарага берувчи томонидан вақтинча фойдаланиш учун берилган мол-мулк эмас, шартномада келишилган муддат тамом бўлгач ёки қонунда назарда тутилган шартлар юз бергач ижарага олувчи томонидан қайтариб берилиши лозим бўлади. Бу умумий конструкциядан муайян истиснолар ҳам мавжуд албатта. Бироқ ижара муносабатлари бошқа турли хил шартномаларнинг элементларини ифода этган ҳолда юзага келганида (ФКнинг 354-моддаси учинчи қисми), ижаранинг функциялари ҳам ўзгариши ёки унга янги вазифалар қўшилиши мумкин. Анан шундай вазифалардан бири ижаранинг таъминловчи битим сифатида қўлланилиши ҳисобланади.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Ижара муносабатларига олди-сотдининг элементлари қўшилиши ўз навбатида, ижарага олинган мол-мулкни сотиш олиш шарти билан шартнома тузилишига асос бўлади. Қоидага кўра бундай конструкция “кейинчалик сотиб олиш шарти билан ижара” ёки “ижарага олинган мол-мулкни сотиб олиш” деб номланади. Ушбу конструкцияларнинг мақсади алаалоқибат ижарадан бошланган ҳуқуқий муносабатни олди-сотди билан якунлаш саналади. Рус тилида “выкуп” (hire purchase) деб номландиган мазкур муносабатда тарафлар келишуви асосида ижарага берилган мол-мулк ижарага олувчи томонидан сотиб олиниши мумкин.

ФКнинг 556-моддаси биринчи қисмида белгиланишича шартномада ижарага олувчи мол-мулкни ижара муддати тугаганидан кейин ёки ундан олдин ҳам тарафлар келишган баҳони тўлиқ тўлаган ҳолда сотиб олиши мумкинлиги белгиланиши мумкин. Моҳиятан мазкур муносабат насияга сотилган товар ҳақини бўлиб-бўлиб тўлашга ўхшаш бўлсада, шартнома предмети азалдан мулкдан фойдаланишни кўзлаганлиги ҳамда шартнома амал қилиш муддатининг сўнггига бориб сотиб олиш баҳоси тўлиқ тўланиши нуқтаи назаридан насия товар сотишдан фарқ қилади.

Мулк ҳуқуқини сотувчида сақланишига шартномага муқобил сифатида кўриладиган ижара мулкни сотиб олиш иқтисодий оқибатига кўра якунда мулкнинг бегоналашувига олиб келсада, мазмунан шартнома шартларига риоя қилмаслик оқибатларига кўра фарқ қилади. Зеро, насияга сотишда товар шартнома тузилган пайтдаёқ сотувчининг мулки саналади ва сотиб олувчининг мажбуриятни бажармаслиги сотувчининг ундирувни гаров тартибида ҳал қилишини талаб этса, ижарага олинган мол-мулкни сотиб олишда бундай тартибот талаб этилмайди ва мулк сотиб олингунига қадар ижарага берувчининг мулки саналади ва ижарага берувчининг зиммасидаги мажбуриятни бажармаслиги ижарага берувчи томонидан мулкни қайтариб олиши билан якунланиши мумкин.

Муҳокама. Баъзи ҳолларда, асбоб-ускуналар уларнинг тўлиқ эксплуатация муддати давомида ижарага берилганда, ижара шартномаси, ҳатто сотиб олиш ҳуқуқисиз ҳам ҳуқуқий титулни сақлаб қолиш тўғрисидаги шартномага тенг ҳисобланади. Ҳуқуқий титулни сақланиб қолиши тўғрисидаги шартномаларнинг ушбу турли хил вариантлари қарздорга мулкни сотиб олишида молиявий ресурсларни олиш имкониятини бериш учун мўлжалланган.

Ижарага олинган мол-мулкни сотиб олиш – бу ижара шартномаси амал қилишининг якунида ижарачининг ижарага олинган ашёга нисбатан номинал баҳода мулк ҳуқуқига эга бўлиш мажбурияти эмас, балки ҳуқуқи бўлган ижара конструкция ва олди-сотди элементларини ўзида ифода этадиган шартноманинг бир кўриниши ҳисобланади. Ижарага олувчи ушбу муносабатларининг аввалида дастлабки тўловни тўлайди, бу сезиларли миқдорни англатади. Даврий тўловлар ва дастлабки тўлов биргаликда маҳсулот таннархини ва фоизларни ташкил қилади[1, 202 б]. Шартнома муддати давомида ижарага берувчи ижарага олинган мулкка эгалик қилиш ҳуқуқига эга ҳисобланади. Бироқ ижара мол-мулкка нисбатан мулк ҳуқуқи агар шартнома муддатидан олдин бекор қилинмаса, ижарага олувчига фақат ижара муддати тугаганидан кейин ўтади. Шу билан бирга, ижарачи ижара нарсасини бирон бир тарзда ўзгартири олмайди. Агар ижарага олувчи ижара тўловларини тўлаш бўйича ўз мажбуриятларини бажармаса ва у ижара нарсасини ижарага берувчига қайтариб бериши лозим бўлади ва бу ижарага берувчи учун жуда муҳим аҳамият касб этади. Тижорат амалиётида ушбу турдаги ижара одатда истеъмолчилар муносабатларида тадбиркорлар ўртасидаги муносабатларга қараганда, транспорт воситаларини сотиб олиш учун кўпроқ қўлланилади. Бу кўпинча ижарага берувчи ижара нарсасини ишлаб чиқарувчи билан узвий боғланган ҳолларда намоён бўлади. Ижара нарсасини сотиб олиш табиатан лизингга ўхшайди ва бу конструкцияда ҳам лизингдаги каби ижарага олувчи масалан, ижара тўловлари харажатлар ва фоизларни тўлаб сезиларли даражада ижара нарсасини кичик нархга сотиб олиш ҳуқуқига эга бўлади[2, 255 б].

“Ижара тўғрисида”ги қонуннинг 18-моддаси биринчи қисмида англашилишича ижарага олувчи ижара нарсасини фақат ижарага берувчининг розилиги билан сотиб олиши мумкин. Бунда ижара нарсасининг қиймати тўлиқ ёки қисма тўланиши лозим. Мазкур қоида ФКнинг 556-моддаси биринчи қисмида назарда тутилган ва фақат шартнома асосида вужудга келиши мумкин бўлган ижарага олувчининг сотиб олиш ҳуқуқи ҳақидаги қоидадан фарқ қилади. Гап шундаки, “Ижара тўғрисида”ги қонунда ижарага олувчининг ижара нарсасини сотиб олиш ҳуқуқи фақат ижарага берувчининг розилиги билан вужудга келиши мумкинлиги белгиланган бўлса, ФКда бундай ҳуқуқ тарафлар келишувидан аввал бошиданоқ шартномага киритилиши лозимлиги назарда тутилган. Қолаверса “Ижара тўғрисида”ги қонуннинг 18-моддаси биринчи қисми руҳиятидан келиб чиқадиган бўлсак, ижарага олувчининг ижарага олинган мол-мулк сотиб олиш имконияти иккала тарафнинг келишувига эмас, фақат ижарага берувчининг хоҳишига боғлиқ бўлиб қолади. Бу эса ўз навбатида ФКнинг 556-моддаси биринчи қисмида назарда тутилган сотиб олиш шarti бўлган “келишув” қоидасига мос келмайди. Фикримизча, кўп жиҳатдан “Ижара тўғрисида”ги қонуннинг 18-моддаси биринчи қисмида белгиланган норма давлатга тегишли объектларни ижарага беришда амал қиладиган императив норма бўлиб, давлат асосий мулкдор бўлган даврлардаги қоида сифатида сақланиб қолган. Ижарага олинган мол-мулкни сотиб олиш шarti сифатида тарафларнинг келишуви эмас, балки мулкдор – ижарачининг розилиги олиниши масаласи айнан оммавий мулк ҳуқуқи субъектлари ваколатлари масаласи билан чамбарчас боғлиқдир. Чунки, оммавий мулк ҳуқуқи объектлари (ФКнинг 214-215-моддалари) ҳисобланган ижарага берилган мол-мулкларни сотиб олиш масаласи ҳам шартнома тарафларнинг келишуви билан эмас, балки ижарага берувчининг розилиги

билан амалга оширилиши ваколатли органнинг хусусий субъект билан келишуви ўрнига розилик бериш ваколатини амалга оширилиши билан ҳал этилган. Албатта, бугунги кунда бу масала моҳиятан тубдан ўзгарди. Эндиликда давлат объектларини ижарага бериш ёки сотиб олиш бевосита автоматлаштирилган тизим орқали онлайн аукцион ўтказиш йўли билан амалга оширилмоқда. Бунда оммавий мулк объектларини ижарага берувчи ва ижарага олувчи ўртасидаги шартномалар тегишли органлар томонидан назорат этилади. Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 9 мартдаги “Давлат мулкни бошқариш тўғрисида”ги [3] ЎРҚ-821-сон қонунининг 27-моддасига кўра “жисмоний шахсларга ва нодавлат юридик шахсларга электрон онлайн-аукцион асосида (бундан Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарорларида назарда тутилган ҳоллар мустасно), аукцион ўтказилиши тўғрисида камида ўн беш кун олдин хабардор қилинган ҳолда ижарага берилди”. Шундай экан, оммавий мулк объектлари ижара асосида сотиб олиш ҳуқуқи ҳам шартнома матнида ифодаланиши ўринли бўлади. Бу эса ўз навбатида ФКнинг 556-моддаси ва “Ижара тўғрисида”ги қонуннинг 18-моддаси қоидаларнинг ўзаро мувофиқлаштириш ва улар ўртасидаги ихтилофни бартараф этишни тақозо этади.

Натижалар. “Ижара тўғрисида”ги қонуннинг 18-моддаси биринчи қисмида назарда тутилган қоидадаги эътиборга молик яна бир жиҳат бу – “ерлар ва бошқа табиий ресурслар” ижарага нарсаси бўлганда уларни сотиб олишдир. Қонунчиликдаги кейин ўзгаришлар силсиласида “ерлар”, “хусусан ер участкалари”нинг мақоми тубдан ўзгарди. Бу айниқса “Қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш тўғрисида”ги [4] ЎРҚ-728-сон қонун ва янги таҳрирдаги Конституциянинг қабул қилиниши билан боғлиқдир.

Янги таҳрирдаги Конституциянинг 68-моддаси иккинчи қисмида ерни хусусий мулк қилиб олиш шартлари белгиланган бўлса, ЎРҚ-728-сон қонунда қишлоқ хўжалиги учун мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш тартиби, таомиллари ҳамда уларнинг ҳуқуқий мақоми назарда тутилган. Шундан келиб чиқадикки, фақат қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкалари хусусийлаштирилиши, бошқача айтган сотиб олиниши мумкин ва бу ўз навбатида, ижарага олинган қишлоқ хўжалиги учун мўлжалланмаган ер участкаларига ҳам тааллуқлидир. Шу сабабли қонунчиликда хусусан, “Ижара тўғрисида”ги қонуннинг 18-моддаси биринчи қисмига “қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерларнинг ижара шартномаси асоси сотиб олиниши истисно” этилиши ҳақидаги қоидани назарда тутиш мақсадга мувофиқ бўларди.

Ижара тўғрисида”ги қонуннинг 18-моддаси иккинчи қисмида ижарага олувчининг ижарага олинган мол-мулк сотиб олишининг қуйидаги манбалари санаб ўтилган:

- 1) ижарага олувчининг ўзига тегишли бўлган маблағлар;
- 2) ижара асосидаги фаолияти давомида хўжалик юритишдан қўлга киритган даромадлар;
- 3) ижарага олувчига мулк ҳуқуқи асосида тегишли бўлган мулкни сотишдан олинган сумма;
- 4) ижарага олувчи томонидан ижара мол-мулкни сотиб олиш учун олинган кредитлар;

5) қонунчилик ҳужжатларига зид бўлмаган усуллар билан қўлга киритилган бошқа молиявий маблағлар.

Албатта, ушбу нормада ижарага олувчининг ижара нарсасини сотиб олиш маблағларининг кўрсатилиши бевосита давлат мулк объектларини ижарага берилган ҳоллар учун белгиланган. Бошқача айтганда давлат мулк объекти бўлган корхона ижарага берилганида ижарага олувчи томонидан ушбу корхонани сотиб олиш ҳолатларига нисбатан манбалар кўрсатиб ўтилган. Қолаверса мазкур модданинг учинчи қисмида “ижара нарсасини сотиб олишда давлат бюджети маблағларидан фойдаланиши тақиқланиши” белгиланганлиги ҳам фикримизнинг далилидир.

Таъкидлаш лозимки, “Ижара тўғрисида”ги қонуннинг 18-моддаси тўртинчи қисмида қонунчилик ҳужжатларида ижара нарсасини сотиб олиш чекланган ёки тақиқланган ҳолатлар белгиланиши мумкинлиги назарда тутилган. Жумладан, 2024 йил 14 февралдаги “Давлат мулкни хусусийлаштириш тўғрисида”ги ЎРҚ-907-сон қонунининг 19-моддаси биринчи қисми тўққизинчи хатбошисида давлат мулкни хусусийлаштириш усулларида бири сифатида “давлат унитар корхонасини ёки давлат муассасасини кейинчалик хусусийлаштириш шарти билан ижарага бериш” белгиланган бўлса, 26-модданинг тўққизинчи қисмида ижарага берилган давлат корхонаси ва муассасасини хусусийлаштириш ким томонидан амалга оширилиши ва унинг режими масаласидаги қоидалар белгиланган. Ушбу нормага кўра “давлат унитар корхонасини ёки давлат муассасасини кейинчалик хусусийлаштириш шарти билан хўжалик жамиятига ижарага бериш ваколатли давлат органи томонидан амалга оширилади”.

Айни пайтда мазкур нормада ижарага олинган давлат мулки бўлган корхона ва муассасани хусусийлаштириш келгусида ушбу шахсларнинг фаолиятини назорат қилиш учун чекланган муҳитда синов ўтказиш учун “тартибга солиш қумдони” махсус ҳуқуқий режимда жорий этилиши мумкинлиги назарда тутилган. Бунда “чекланган муҳит” дейилганида қамров ҳудуди, ижара муддати, фаолият соҳаси, ходимлар сони, ишлаб чиқариш (хизматлар) ҳажми ва бошқа мезонлар келтирилган.

“Тартибга солиш қумдони” (инглизча Regulatory Sandbox) – янги молиявий маҳсулотлар ва хизматларни ишлаб чиқиш билан шуғулланувчи юридик шахслар учун амалдаги қонунчиликни бузиш хавфсиз чекланган муҳитда экспериментларни жорий этиш имкониятини берадиган махсус ҳуқуқий режимдир. “Тартибга солиш қумдони” механизми ахборот асридаги замонавий чақириқларга ва рақамли кун тартибидаги масалаларни амалга ошириш заруратига муқобил жавоб ҳисобланади”[5, 36 б].

“Тартибга солиш қумдони” механизми бўйича танланган ҳудудда масалан, уч йиллик муддатда умумий ҳуқуқий тартибга солишдан истисно қилинган зона яратилади. Бунда компаниялар ўз маҳсулотларини лицензия олмасдан ва қонунни бузиш хавфидан холи ҳолда синовдан ўтказишади. Агар тартибга солувчи бундай синовни мақбул деб топса амалдаги қонунларга ўзгартириш киритиши мумкин. Бундай “қумдонлар” стартапларга[5, 145 б] инвестиция жорий этиш имконини яратади.

Ўзбекистон Республикаси Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги директорининг 2023 йил 26 декабрдаги 104-сон буйруғига илова “Капитал бозори соҳасида “Тартибга солиш қумдони” махсус ҳуқуқий режимини тақдим қилиш тартиби тўғрисида”ги Низомида махсус ҳуқуқий режимни бериш тартиби назарда тутилган.

Бунда асосий эътибор ушбу режимни тақдим этишнинг шартлари ҳамда тартиботи, ваколатли органларининг вазифалари келтирилган.

Фикримизча, ижарага олинган давлат корхонаси ва давлат муассасасининг сотиб олиш шартларидан бири сифатида “тартибга солиш қумдони” режими асосида фаолият юритилиши ёки бу режимни оқламаслик ўз-ўзидан хусусийлаштириш битимини, яъни олди-сотди шартномасини бекор қилишга асос саналади. Бу эса ўз навбатида мазкур конструкцияни таъминловчи битим сифатидаги хусусиятини кўрсатади.

“Ижара тўғрисида”ги қонуннинг 19-моддасида ижарага олинган мол-мулкни сотиб олиш шартномасининг муҳим шартлари келтирилган ва улар қуйидагилардир: “мол-мулкнинг таркиби ва баҳоси; сотиб олиш шакллари ва манбалари; сотиб олиш тартиби ва муддатлари; сотиб олишда учинчи шахсларнинг, жумладан кредиторларнинг қатнашуви; кафолатлар ва сотиб олинаётган мол-мулкнинг сифати”.

Ижара мол-мулкни сотиб олиш шартномасида турлича шартлар бўлиши мумкин. Масалан, давлат уй-жой фонди объектларини ижарага олувчилар ўз вақтида ушбу объектларни текинга хусусийлаштириб олишган ва бу қоида ҳанузгача амал қилади. “Давлат уй-жой фонди хусусийлаштириш тўғрисида”ги қонуннинг 4-моддаси 1-қисмида фуқароларнинг айрим тоифаларига уй-жойни текинга бериш назарда тутилган. Шунингдек мазкур қонуннинг 16-моддасида ҳам фуқаро ўзи истиқомат қилиб турган квартирани ҳақ эвазига сотиб олиш ёки бепул олиш мумкинлиги белгиланган.

Ижарага олинган давлат уй-жой фонди уйларини хусусийлаштириш баҳосига оид норма Қонуннинг 20-моддаси келтирилган бўлиб, унга кўра хусусийлаштирилаётган уйнинг баҳоси “баҳоловчи ташкилот томонидан қолдиқ баланс қиймати” да аниқланади. Бундан кўринадики, ижарага олинган мол-мулкни сотиб олиш нафақат хусусий шахслар ўртасидаги муносабатларда, балки давлат ҳамда фуқаролар ва юридик шахслар ўртасида давлат мулки бўлган ижара нарчасини сотиб олиш муносабатларида ҳам қўлланилади. Бу ҳолатда ижара мол-мулкни сотиб олиш шартномасининг таъминловчилик хусусияти ижарага берувчининг тўлов ўз вақтида амалга оширилмаганида мол-мулкни қайтариб олишида намоён бўлади.

Хулоса. Таъкидлаш лозимки, ФКнинг 556-моддасида ижарага олинган мол-мулкни сотиб олиш бўйича тарафларнинг мажбуриятларини бажармаслик қандай оқибатларга олиб келиши белгиланмаган. Масалан, ижара олувчи навбатдаги ижара тўловларини тўламаслиги қандай оқибатларга олиб келиши белгиланмаган. Албатта, бу ўринда ижара шартномасининг умумий қоидаларида белгиланган оқибатлар юзага келиши мумкин ва бу оқибатлар ФКнинг 551 ва 554-моддаларида назарда тутилган. Хусусан, ФКнинг 551-моддаси биринчи қисми тўртинчи хатбошисида ижарага берувчининг талаби билан шартномани бекор қилиш асосларидан бири сифатида ижара тўловларини кетма-кет икки мартадан ортиқ бузиб тўламаслик келтириб ўтилган бўлса, ФКнинг 554-моддасида шартнома бекор бўлганидан кейин ижарага олувчи ижарага олинган мол-мулкни ижарага берувчига қайтариб бериши белгиланган. Ўз-ўзидан мазкур оқибатлар ижарага олинган мол-мулк сотиб олиш шarti билан тузилган ижара шартномасига нисбатан ҳам қўлланилади.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Leasing as a financing technique: overview / Practical Law Finance. Режим доступа: URL: <http://uk.practicallaw.com/1-202-1444>.

2. Beale, Hugh; Bridge, Michael; Gullifer, Louise; Lomnicka, Eva Op. cit. P. 255-256.
3. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 10.03.2023 й., 03/23/821/0132-сон;
15.02.2024 й., 03/24/907/0127-сон
4. Куклина Е.А. К вопросу об особых правовых режимах в условиях цифровой экономики («регуляторных песочницах») // <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-ob-osobyh-pravovyh-rezhimah-v-usloviyah-tsifrovoi-ekonomiki-regulyatornyh-pesochnitsah>
5. Тожибоев А.З. Стартаплар фаолиятини фуқаролик-ҳуқуқий тартибга солиш: юрид. фан. фалс. док (PhD). дис. ... – Тошкент: 2020. – 145 б.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

CIVIL LEGAL MECHANISMS FOR PROTECTING USERS' PERSONAL DATA IN WEB DEVELOPMENTS

Saidov Bobur Bakhromzhonovich,
Lecturer at the Department of Cyberlaw
Tashkent State Law University
E-mail: Boburbahromovich.s@gmail.com

Abstract. The article comprehensively analyzes the civil-legal mechanisms of protection of personal data of users in the field of web development. Theoretical and practical aspects of legal regulation of personal data processing in the digital environment are considered, current problems of law enforcement practice are analyzed and ways to solve them are proposed. Particular attention is paid to the issues of cross-border data transfer, the responsibility of personal data operators and the effectiveness of existing mechanisms to protect the rights of personal data subjects. Based on the international experience and the analysis of the national legislation of different countries, proposals for improving the legal regulation in this area are being developed.

Keywords: personal data, web development, GDPR, data protection, civil liability, information security, user rights, legal protection mechanisms, digitalization, confidentiality.

ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ЗАЩИТЫ ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ ПОЛЬЗОВАТЕЛЕЙ В ВЕБ-РАЗРАБОТКАХ

Саидов Бобур Бахромжонович,
Преподаватель кафедры "Киберправо"
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: В статье проводится комплексный анализ гражданско-правовых механизмов защиты персональных данных пользователей в сфере веб-разработок. Рассматриваются теоретические и практические аспекты правового регулирования обработки персональных данных в цифровой среде, анализируются актуальные проблемы правоприменительной практики и предлагаются пути их решения. Особое внимание уделяется вопросам трансграничной передачи данных, ответственности операторов персональных данных и эффективности существующих механизмов защиты прав субъектов персональных данных. На основе анализа международного опыта и национального законодательства различных стран формулируются предложения по совершенствованию правового регулирования в данной сфере.

Ключевые слова: персональные данные, веб-разработки, GDPR, защита данных, гражданско-правовая ответственность, информационная безопасность, права пользователей, правовые механизмы защиты, цифровизация, конфиденциальность.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N79>

Введение. Современная цифровая эпоха характеризуется стремительным развитием информационных технологий и веб-разработок, что создает новые вызовы для защиты персональных данных пользователей. Актуальность исследования

механизмов гражданско-правовой защиты персональных данных обусловлена несколькими ключевыми факторами.

Во-первых, увеличение объема собираемых и обрабатываемых персональных данных в веб-приложениях создает повышенные риски для конфиденциальности пользователей. По данным исследований, к 2023 году объем циркулирующих в интернете персональных данных увеличился в 5 раз по сравнению с 2018 годом [1].

Во-вторых, развитие технологий больших данных (Big Data) и искусственного интеллекта позволяет осуществлять все более глубокий анализ персональных данных, что требует дополнительных механизмов защиты прав субъектов персональных данных [2].

В-третьих, трансграничный характер веб-разработок создает сложности в определении применимого права и юрисдикции при рассмотрении споров о защите персональных данных. Как отмечает Н. Кейн, "глобальный характер обработки данных требует гармонизации законодательства разных стран и выработки единых стандартов защиты" [3].

Значимым событием в развитии механизмов защиты персональных данных стало принятие в Европейском Союзе Общего регламента по защите данных (GDPR), который установил новые стандарты в данной сфере и оказал существенное влияние на развитие законодательства других стран. GDPR закрепил ряд важных прав субъектов персональных данных, включая "право на забвение" и право на переносимость данных [4].

В научной литературе вопросы защиты персональных данных в контексте веб-разработок рассматривались такими исследователями как Д. Солове, П. Шварц, П. Фойгт и другими. Однако динамичное развитие технологий требует постоянного обновления механизмов правовой защиты.

Целью настоящего исследования является комплексный анализ существующих гражданско-правовых механизмов защиты персональных данных пользователей в сфере веб-разработок и выработка предложений по их совершенствованию.

Для достижения поставленной цели необходимо решить следующие задачи:

- проанализировать современное состояние правового регулирования защиты персональных данных в сфере веб-разработок;
- исследовать основные проблемы правоприменительной практики;
- изучить международный опыт регулирования данной сферы;
- разработать предложения по совершенствованию механизмов защиты.

Объектом исследования являются общественные отношения, возникающие в процессе защиты персональных данных пользователей веб-разработок.

Предметом исследования выступают нормативно-правовые акты, регулирующие защиту персональных данных, правоприменительная практика и доктринальные источники.

Теоретическая значимость исследования заключается в развитии научных представлений о механизмах гражданско-правовой защиты персональных данных в цифровую эпоху. Практическая значимость состоит в выработке конкретных предложений по совершенствованию законодательства и правоприменительной практики.

Методы. В ходе проведения исследования был применен комплексный подход, сочетающий общенаучные и специальные методы познания правовых явлений. Основу методологии составили диалектический метод, позволивший рассмотреть развитие правового регулирования защиты персональных данных в его динамике и взаимосвязи с развитием технологий, а также метод системного анализа, использованный для изучения механизмов защиты персональных данных как целостной системы [6]. Важную роль сыграло применение специально-юридических методов: формально-юридического - при анализе нормативных правовых актов, и сравнительно-правового - при изучении законодательства различных стран.

В рамках исследования был проведен детальный анализ международных правовых актов в сфере защиты персональных данных, законодательства Европейского Союза (прежде всего GDPR), национального законодательства США, Великобритании, России и других стран. Особое внимание было уделено изучению судебной практики по знаковым делам о защите персональных данных, а также анализу правоприменительной практики надзорных органов, включая решения European Data Protection Board, практику Information Commissioner's Office (UK), решения Federal Trade Commission (USA) [7].

Эмпирическую базу исследования составили статистические данные об утечках персональных данных, материалы судебной практики, техническая документация веб-разработок. Для обеспечения полноты исследования были использованы материалы ведущих правовых баз данных, включая EUR-Lex, Westlaw, LexisNexis [8]. Важным аспектом методологии стало изучение технических особенностей веб-разработок, что позволило выявить специфические риски для персональных данных и оценить эффективность существующих механизмов защиты.

Комплексное применение указанных методов позволило обеспечить всесторонность и объективность исследования, достоверность полученных результатов и обоснованность сформулированных выводов и рекомендаций [9]. В ходе исследования также были проанализированы актуальные научные публикации по теме за последние 5 лет, что позволило учесть современные тенденции развития правовой мысли в данной области.

Результаты. Проведенное исследование позволило получить ряд значимых результатов в сфере правового регулирования защиты персональных данных пользователей веб-разработок. В ходе анализа современного состояния правового регулирования выявлено, что основным трендом является ужесточение требований к обработке персональных данных. GDPR установил высокие стандарты защиты, которые оказали существенное влияние на законодательство многих стран мира [10]. Анализ правоприменительной практики показал значительное увеличение размеров штрафов за нарушения в сфере защиты персональных данных. Так, в 2022 году общая сумма штрафов по GDPR составила более 2,5 миллиардов евро [11].

Исследование позволило систематизировать основные гражданско-правовые механизмы защиты персональных данных, включая превентивные механизмы (обязательное получение согласия на обработку данных, требования к безопасности обработки данных, оценка воздействия на защиту данных, назначение офицера по защите данных), механизмы реагирования на нарушения (право на возмещение

убытков, право требовать прекращения неправомерной обработки, право на удаление персональных данных, административные штрафы) и процессуальные механизмы (судебная защита прав, обращение в надзорные органы, групповые иски, альтернативное разрешение споров) [12].

Национальное законодательство Республики Узбекистан в сфере защиты персональных данных представляет особый интерес в контексте развития гражданско-правовых механизмов защиты персональных данных пользователей в веб-разработках. Ключевым нормативно-правовым актом в данной области является Закон Республики Узбекистан "О персональных данных" от 2 июля 2019 года [13].

Данный закон устанавливает правовые основы регулирования отношений, связанных с обработкой персональных данных, и направлен на обеспечение защиты прав и свобод физических лиц при обработке их персональных данных (ст. 1). Закон содержит определения основных понятий, таких как персональные данные, субъект персональных данных, оператор персональных данных и др. (ст. 3), что создает единый понятийный аппарат для правового регулирования в данной сфере.

Кўп квартирали уйда умумий мулк, шунингдек боғдорчилик ширкатининг умумий фойдаланиш объектлари сифатида, боғдорчилик ва шаҳар атрофи нотижорат шериклик умумий биргаликда мулк ҳуқуқи тўғрисидаги кўчмас мулк эгаларининг тегишли ширкат аъзоларига қонун ҳужжатларида бошқа ҳолат назарда тутилган бўлмаса тегишли ҳисобланади. Бундай мулкнинг таркиби ва унга умумий мулк ҳуқуқидаги улушларни аниқлаш тартиби қонун билан белгиланади [7; Б.69.]. Ушбу уйдаги бинолар эгасининг кўп қаватли уйдаги умумий мулк ҳуқуқидаги улуши, ер участкаси эгасининг боғдорчилик, узумчилик ёки шаҳар атрофи нотижорат шериклигидаги жамоат объектларига умумий мулк ҳуқуқидаги улуши-бундай мулкдорнинг аъзоси – нотижорат ширкат белгиланган биноларга ёки ер участкасига эгалик ҳуқуқининг тақдирига боғлиқ бўлади.

Юридик шахслар тўғрисидаги қонун ҳужжатларини ривожлантиришнинг асосий йўналиши юридик шахсларни ташкил қилиш, рўйхатдан ўтказиш, қайта ташкил этиш ва тугатиш талабларини маълум даражада кучайтиришдир [8; Б.17-19.]. Юридик шахслар тўғрисидаги қонун ҳужжатларини такомиллаштиришга оид қоидалар ва ёндашувларнинг амалга оширилиши натижасида ФКнинг юридик шахсларнинг мақомини тартибга солишдаги роли, ундаги тегишли нормаларнинг аксарияти концентрацияси оширилди, бу уларни изчил ва барқарорлаштириш ҳамда уларнинг мазмуни ва адолатли мулк айланмасини ривожлантиришга қаратилган [9; Б. 378.].

Ғарбий Европада юридик шахсларни яратиш ва фаолият юритишнинг иккита асосий тизими мавжуд бўлиб, уларни шартли равишда инглиз ва олмон ҳуқуқи тизими деб аташ мумкин. Улардан биринчиси устав капиталига ва юридик шахсни рўйхатдан ўтказишга либерал талабларни қўяди, лекин унинг кейинги фаолияти учун жуда қаттиқ талаблар, биринчи навбатда, қатъий ва пухта ҳисобот бериш, тақдим этишни кечиктириш ёки қалбакилаштириш тадбиркорлар учун жиноий жавобгарликка сабаб бўлади. Иккинчи тизим, аксинча, юридик шахсни ташкил этиш учун жуда қаттиқ талабларни қўяди, аммо унинг кейинги фаолияти тўғрисида либералдир. Маҳаллий тадбиркорлар ва давлат органларининг уларни қўллаб-қувватловчи мансабдор шахслари мавжуд чекловларни бекор қилиб, иккала тизимнинг либерал хусусиятларини бирлаштиришни ва шу билан дунёнинг исталган нуқтасида мисли кўрилмаган юридик шахсларга ультра либерал ёндашувни яратишни хоҳлашади. Шу нуқтаи назардан, юридик шахсларни рўйхатга олиш тўғрисидаги амалдаги қонунчиликни такомиллаштириш зарурати аён бўлади [10; Б. 87-90.].

Икки турдаги ташкилий-ҳуқуқий шаклларни ажратиш мезони аъзоликнинг мавжудлиги (нотижорат корпорацияларда) ёки мавжуд эмаслиги (нотижорат унитар ташкилотларда) ҳисобланади. Иқтисодий ривожланган бутун дунё бўйлаб юридик шахсларнинг асосий турлари корпорациялардир.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Gaitova L. Kh., Kesaeva V. A., Non-commercial corporate organizations // Agrarian and Land Law. 2016. №3 (135). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nekommercheskie-korporativnye-organizatsii> (date of reference: 27.10.2024).
2. Filatova U. B., Gorbach O. V., Associations and Unions in the System of Noncommercial Corporate Organizations in Russian Law // Siberian Law Bulletin. 2021. №1 (92). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/assotsiatsii-i-soyuzy-v-sisteme-nekommercheskih-korporativnyh-organizatsiy-v-rossiyskom-prave> (date of reference: 27.10.2024).
3. Guterman A.E., Dolgikh F.I. Civil-legal position of political parties // Vestnik Akademii. 2018. № 4. С. 122-125.
4. Белых В.С. Правовое регулирование предпринимательской деятельности в России: (Книга). – М.: Проспект, 2008. – С. 215.
5. Рожкова М.А. Средства и способы правовой защиты сторон коммерческого спора. – М., 2006. – С. 337.
6. Топилдиев В.Р. Ташкилий муносабатларни фуқаролик-ҳуқуқий тартибга солиш: юрид. фан. докт. дис. ... – Тошкент: 2021. – 242 б.
7. Труды по гражданскому праву / Б.Б. Черепяхин; Науч. ред.: С.С. Алексеев. – М.: Статут, 2001. – 479 с.
8. Нариманов Б. Нодавлат нотижорат ташкилотларининг тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланишига оид айрим ҳуқуқий масалалар // <https://www.researchgate.net/publication/367124051>
9. Суханов Е.А. О развитии законодательства о юридических лицах. http://www.juristlib.ru/book_5862.html
10. Гайтова Л.Х.-М., Кесаева В.А. Некоммерческие корпоративные организации // АГРАРНОЕ И ЗЕМЕЛЬНОЕ ПРАВО. 2016. № 3(135). – С. 87-90.

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SCIENCES

Received: 10 November 2024

Accepted: 15 November 2024

Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

EFFECTIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES FOR IMPROVING CONTINUOUS SPIRITUAL EDUCATION IN STUDENTS THROUGH SOURCES OF EDUCATIONAL VALUES

Ortikova Nargiza Akramovna,

Associate Professor of Kokan State Pedagogical Institute, Ph.D

E-mail: kasova1101@gmail.com

Abstract. The article describes effective pedagogical technologies aimed at increasing the continuous spiritual education of secondary school students through the sources of educational values.

Keywords: educational values, educational system, new approach to education, national-spiritual heritage, educational technologies.

O'QUVCHILARDA TARBIYAVIY QADRIYATLAR MANBALARI VOSITASIDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYANI OSHIRISHGA QARATILGAN SAMARALI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Ortiqova Nargiza Akramovna,

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD

Annotatsiya. Maqolada umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarbiyaviy qadriyatlar manbaalari vositasida uzluksiz ma'naviy tarbiyani oshirishga qaratilgan samarali pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiyaviy qadriyatlar, ta'lim-tarbiya tizimi, tarbiyaga yangicha yondoshuv, milliy-ma'naviy meros, tarbiya texnologiyalari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N82>

Kirish. Yangi davr avlodlar tarbiyasiga yangicha yondashish ijtimoiy zaruriyat ekanligini ko'rsatmoqda. Mustaqil Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg'unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos "milliy modelni" hayotga tatbiq qilishga, ma'naviyatimizni yanada yuksaltirishga qaratilgan[1.B.190]. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning umumpedagogik bilim darajasini kengaytirishni, ma'naviy va intellektual meroslarimizga to'g'ri munosabatda bo'lishni talab qiladi. Respublikamizdagi maktab ta'limi tizimini takomillashtirish, uni yuridik jihatdan mustahkamlash, mazmunini jahon standartlariga moslashtirish va zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash maqsadida qonunlar va dasturlar qabul qilindi hamda amaliyotda tatbiq etilmoqda.

Hozirgi kunda Respublikamizda demokratik fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida, shaxs, jamiyat, oila va Vatan oldidagi burch va mas'uliyatni chuqur anglagan holda, erkin va mustaqil fikrlovchi insonlarni tarbiyalash hamda demokratik munosabatlarni shakllantirish ta'lim tizimining asosiy strategik yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda ta'lim va tarbiya jarayonini yangicha rejalashtirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish va erkin tafakkurga ega shaxsni shakllantirish muhim omillar hisoblanadi. Tarbiyalash texnologiyasi — nisbatan yangi atama bo'lishiga qaramay rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash texnologiyasi pedagogikada yangi yo'nalish hisoblangan "ijtimoiy pedagogika" bilan birgalikda fuqarolik g'ururi, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, mas'uliyat hissi va boshqa shaxsiy sifatlarni shakllantirishga jiddiy ta'sir qilmoqda. Ta'kidlash joizki, tarbiyalash texnologiyasi o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni va tarkibini emas, balki bu sohadagi respublikamiz hukumati tomonidan ishlab chiqilgan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo'ljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasini ko'rib chiqadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qadimgi ajdodlarimiz olamning murakkab tabiiy jarayonlarini o'rganib borar ekan, insonni, uning ma'naviy-axloqiy kamolotini olamdan tashqarida emas, balki shu olamning ichida deb qaraydilar. Ularning fikricha, odam – olam ichidagi kichik olam bo'lib, unda katta olam (olami Kubro) ning barcha xususiyatlari o'z aksini topgandir. Bu hol olamni to'la tasavvur qilishdan oldin odamni, inson olamini yaxshi bilishni taqozo etadi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, hozirgi davr rivojlangan mamlakatlarida insonni tabiatning oliy mahsuli sifatida, olamning bir parchasi deb qarashda biryoqlamalikka berilib ketish ko'zga tashlanadi[2.B.19].

Televideniye, videofilm, tijorat do'konlarida zulmni, behayolikni ifodalovchi harakatlar, suratlarni ko'rish o'zbek o'g'il-qizlarida oila, mahalla, maktab hamkorligida shakllantirilayotgan hayo, odob, mehr-shafqatlilik kabi fazilatlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi tabiiy jahonning Osiyo mintaqasida joylashgan (sobiq SSJI respublikalaridan tashqari) 28 mamlakatda tarbiyaviy islohotlar, yangiliklarni o'rganib, umumlashtirgan avstriyalik Olim R.Maklin buni 90-yillarning umumosiyoviy muammosi ekanligini ta'kidladi. Chunki, "Chet el kitoblari va chet el televideniya va video dasturlari ularni tomosha qilayotgan xalqlarning qadriyatlarini, madaniyati va an'alariga salbiy ta'sir qilib, ularning milliy taraqqiyoti sur'atiga xalaqit berishi mumkin. Bu esa maktab, oila, mahallada milliy tarbiya samaradorligini oshirish tele, video, kinofilmlar, behayo sur'atlarning salbiy ta'siriga qarshi turishning eng qiyin, lekin eng samarali, ishonchli yo'li ekanligini ko'rsatadi[2.B.20].

Muhokama. Hamma uchun ma'lumki, ma'naviy-axloqiy rivojlanish shaxsning butun hayoti davomida amalga oshadi. Ma'naviyat jarayoni shundayki, dastlabki shakllar keyinchalik boyitilib, to'ldirib boriladi. Bu rivojlanish shaxsning senzitiv davrlarida, ayniqsa, faollashadi. Bunday holatda shaxsning hayotidagi muayyan davrda yuqori darajadagi ma'naviy, axloqiy, estetik va bilish ehtiyojlari bilan bog'liq bo'ladi. O'smirlik davrida shaxs ma'naviy-axloqiy rivojlanishida hal qiluvchi qadamlarga ega bo'ladi. Bunda rivojlanish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarning mosligi katta ahamiyatga ega.

Shaxs taraqqiyotining har bir davri psixik rivojlanishning o'ziga xos sifat ko'rsatkichlariga ega bo'ladi. Ko'pchilik psixik xususiyatlar birgalikda shaxsning rivojlanishidagi vaziyatlar majmuasi bilan bog'liq bo'lib, ular jumlasiga shaxsning turmush

tarzi, ijtimoiy shart-sharoitlari, tarbiyasi va faoliyati xususiyatlari, jinsiy, tipologik va individual xususiyatlarni kiritish mumkin. Insonning, jumladan o‘smirning ijtimoiy mavqeyi (uning o‘quv-tarbiya muassasadagi, oiladagi o‘rni) muloqot shakllari va faoliyat turlari bilan belgilanadi[3.B.21].

Natijalar. O‘smirlik davrida bola hayotiy makonining kengayishi faqat geografik ma’noda emas (sayohat, turizm va h.konsepsiyalarga intilish), shuningdek, ijtimoiy muhitning (o‘smir kirayotgan guruhning soni ko‘pligi, unda adabiyot, san’at, siyosat, iqtisod va h.konsepsiyaga qiziqish kuchayishi) ham yuz beradi. Lekin hayotiy makonning jiddiy o‘zgarishi zamon o‘lchovida yuz beradi. Endi bola kelajakni tasvirlashga intila boshlaydi. Yosh ulg‘ayishi bilan hayotiy istiqbol masalalari bola ma’naviy hayotida ko‘proq o‘rin egallay boshlaydi va bu hol shaxs rivojlanishidagi eng dolzarb masalaga aylanadi. Shuning uchun ham o‘smirlik davrida kelajakka munosabatdagi xira va noaniq tasavvurlar endi aniq rejalar va harakatlar bilan almashinadi. Kelajakdagi faoliyatni o‘ylar ekan, o‘smir o‘zi tuzgan rejadan kelib chiqadi. Katta yoshlilarning kelajakka munosabati ham xuddi shunday shaklda yuz beradi. Uning kitoblardan olgan bilimlari ko‘pincha mavhum va ziddiyatlarga to‘la. Masalan, badiiy asarlarda hayotda amalga oshirish mumkin bo‘lmagan yumushlarni xam bajargan qahramonlar madh etiladi. Ikkinchi tomondan esa hayotdan uzilib qolmaslik targ‘ib qilinadi. Kattalardan ibrat olish ham aksari xollarda qiyin bo‘ladi. Chunki ular og‘zida bir gapni aytishsa, ko‘pincha amalda bunga zid ishlarni bajarishadi. Jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlar jamiyat va shaxs ongida aks etadi. Ikkinchi tomondan, ma’naviyat sohasidagi o‘zgarishlar jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarning miqyosiga, yo‘nalishiga va sur‘atlariga jiddiy ta’sir o‘tkazishi mumkin. Shuning uchun mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar jamiyatimiz, ijtimoiy guruhlar va alohida fuqarolar ongida o‘z in’ikosini topmoqda[4.B.24]. O‘z navbatida mamlakatimizdagi islohotlar ko‘lami va sur‘atlari ma’naviyatimizning ham tez sur‘atlar bilan rivojlanishini, aksariyat hollarda esa ijtimoiy-iqtisodiy soha rivojidan ildamroq va oldinroq yurishini taqozo etmoqda. Bunday vazifani bajarish uchun ma’naviyat yuksalishiga ta’sir o‘tkazishi mumkin bo‘lgan barcha imkoniyatlarni ishga solish zarurati sezilmoqda. Ayni paytda ma’naviyatni yuksaltirish, ayniqsa o‘smir o‘quvchilar ma’naviyatini yuksaltirish ko‘lami va sur‘atlariga kuchli ta’sir o‘tkazishi mumkin bo‘lgan psixologik omillarning imkoniyatlaridan yetarli foydalanilmayapti.

Shaxsni ma’naviy tarbiyalash uning butun hayoti davomida amalga oshirilishi kerak. Biroq, bu vazifa ayniqsa o‘smirlik davrida juda muhimdir. Chunki aynan shu davrda shaxsning ijtimoiylashuvi va ma’naviyatning asosi bo‘lgan qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayoni tezlashadi. Agar bu davrda shaxsning ma’naviy rivojlanishiga yetarlicha e’tibor berilmasa, u aksilijtimoiy yo‘nalishga o‘tishi, jamiyatga qarshi fikrlar va g‘oyalar ta’siriga tushib qolishi mumkin.

Tarbiyaviy qadriyatlar manbalaridan ta’lim tarbiya jarayonida foydalanish samaradorligini orttirish maqsadida biz quyidagi texnologiyani ishlab chiqdik (1-jadval):

Tarbiyaviy qadriyatlar manbalaridan foydalanish samaradorligini oshirish texnologiyasi.

Bosqichlar	Motivatsion	Faoliyat talablarini o‘zlashtirish	O‘z-o‘zini anglash
Mazmuni	Qadriyatli ongning shakllanishi; qadriyatli	Qadriyatlarning o‘zlashtirilishi,	Ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topish, o‘zini-

	yo‘nalganlik, bilish faoliyatiga intilish motivatsiyasi	qadriyatli munosabatning shakllanishi	o‘zi rivojlantirish muhiti, aksiologik yondashuvni qaror topishi
Shakl, metod, vositalari	“Kitobxonlik” ko‘rik tanlovlarini o‘tkazish, “O‘n ikki oy, o‘n ikki alloma, o‘n ikki asar” tadbirlarini tashkil etish, havaskorlar teatrini tashkil etish, sovrinli viktorinalar, zakovat intellektual o‘yinlari, ijodiy kastinglar va boshqa turdagi tashkiliy tadbirlar	Axborotli ma‘ruzalar, munozaralar, seminarlar, Key-stadi, rolli- o‘yinlar, forumlar va boshq.	“SWOT va TOWS-tahlil”, esselar, treninglar

Yuqoridagi texnologiyani qo‘llash davomida tarbiyaviy qadriyatlarni 4 uyg‘un manbalari asosida o‘quvchilarda qadriyatli yo‘nalganlikni shakllantirishni maqsad qilib qo‘ydik:

1. Genetik, psixosomatik, individual-shaxsiy tarbiyaviy qadriyat manbalari. Buyuk allomalarimizning asarlarini o‘rganish orqali o‘quvchilarda psixik jarayonlarida ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, ya‘ni idroki, xotirasi, tafakkuri, irodasi rivojlanadi, asardagi ijobiy qahramonlarning kechinmalarining his qilishlari orqali ijobiy-praktik hislari uyg‘onadi.

2. Tarbiyaviy qadriyatlarning yana biri asosiy manbai — bu tabiat dunyosidir. Xalq og‘zaki ijodi namunalari, tarixiy manbalarni o‘rganish jarayonida o‘quvchi olamning yaralishidan to bugunga qadar bo‘lgan dunyoning rivojlanishi haqida falsafiy tasavvurlarni hosil qiladi. Ana shu borliq ichida o‘zi ham uning bir bo‘lagi ekanligini his qiladi va tabiatni asrash, unga g‘amxo‘rlik qilish kabi tarbiyaviy qadriyatlarni anglab yetadi. Tabiat tasvirlari orqali go‘zallikni his qilish, estetik did va ongning shakllanishi amalga oshadi.

3. Tarbiyaviy qadriyatlar manbai sifatida sotsium ham alohida ahamiyat kasb etadi. Fazilatli avlod rukni orqali namunali hayot yo‘lini bosib o‘tgan adiblar, shoirlar, ustozlar, mehnat faxriylari bilan uchrashuvlarda o‘quvchilar ularning hayotiy turmush tajribalari va bilimlaridan o‘rnak oladilar, inson sotsium qadriyatning yaratuvchisi ekanligi tushunib yetadilar.

4. Nihoyat yana bir muhim tarbiyaviy qadriyat sifatida Kosmos: o‘quvchilarda fazo haqidagi tasavvurlar va bilimlarni shakllanishi ayniqsa bugungi kunda ekologik muammolar girdobida qolayotgan tabiatimizni asrash, ekologik halokatlarning oldini olish, yashil iqtisodiyot, yashil energiya manbalaridan foydalanish haqidagi tasavvurlarni uyg‘otishi muhimdir. Bu borada Mirzo Ulug‘bekning hayot yo‘li, ilm-ma‘rifat yo‘lidagi xizmatlarini, astronomiya faniga qo‘shgan hissasining ahamiyatini o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘smirlik davri shaxsning ma‘naviy-axloqiy rivojlanishida hal qiluvchi bosqichdir. Shu bois, o‘smirlarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash va bu jarayonga ta‘sir ko‘rsatuvchi barcha omillarni, shu jumladan psixologik mexanizmlarni o‘rganish juda muhimdir. Bolalarning

ma'naviy-axloqiy rivojlanishi masalasiga tizimli yondashuv, kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini muvofiq ravishda rivojlantirish belgilangan maqsadlarga erishishda eng samarali yo'l hisoblanadi. Bolalarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishda ularni o'z-o'zini tarbiyalashga yo'naltirish yuqori samarali natijalarga olib kelishi mumkin.

Bizga ma'lumki, har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki ma'naviy-axloqiy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi[5.B.36].

Maktab, ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir. Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi"[6.B.17].

Xulosa. Tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki, uning o'sishi va taraqqiyoti uchun moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod ushbu boyliklarni yaratishda o'z ajdodlaridan yuqoriroq darajaga ko'tarilmog'i darkor. O'quvchilarni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiyalashda zamonaviy meditsina, pedagogika, psixologiya fanlari tavsiyalarini har qaysi oilada joriy qilish ayniqsa zarur[7.B.190]. Markaziy Osiyoda yashab, ilm-fan sohasida katta iz qoldirgan buyuk olimlar, XIX va XX asr mutafakkirlari hamda pedagoglarining ta'lim-tarbiya borasidagi nazariy fikrlari va pedagogik yondashuvlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Zamonaviy pedagogikada ushbu fikrlarni qo'llash o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli qarori.
2. Abdullayeva B. Tursunova M. Xaydarova M. Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani. // Darslik. Toshkent – 2022. – B. 20.
3. Mardonov Sh. Pedagogika aksiologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2013. – B-3.
4. A.Erkayev. Ma'naviyatshunoslik. Ma'naviyat nashriyoti. Toshkent. 2018.
5. A.Qodirov, M.Quronov va boshq. Fazilatli avlod: 7-18 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalash bo'yicha qo'llanma. "Muharrir" nashriyoti. 2019 y. 16 b.
6. Shamuratov B. Yoshlar kamolotida milliy tarbiyaning roli va ahamiyati Falsafa va xayot soxasidagi karashlar 2 qism. Апрель 2021 2-қисм. Toshkent.
7. Dilova N.G., Saidova M.J. (2020). Formative assessment of students' knowledge as an innovative approach to education. The American Journal of Social Science and education Innovations. 2:12, P. 190-196.
8. Bahromova M. Pedagogik texnologiya - ta'lim taraqqiyotining tayanch kuchidir. // Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. – P. 190.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE ROLE OF PEDAGOGICAL AND HUMANITIES IN CHANGES AND DEVELOPMENT OF EDUCATION IN SOCIETY

Dzhamalova Nargiza Ulugbek kizi,
Researcher at the National University of Uzbekistan
E-mail: nargiza6368@mail.ru

Abstract. This study highlights the role of humanities in the education system in the context of globalization and their importance in critical thinking, intercultural communication, and the harmonization of national and universal values. The integration of humanitarian sciences in the educational process serves as an important factor in the formation of such important skills as moral education, tolerance and social adaptation in young people. This study provides a methodological framework that contributes to the spiritual development of young people and their formation as responsible citizens in the world community by combining national and world values.

Keywords: globalization, education system, humanities, critical thinking, intercultural communication, national values, universal values, tolerance, social adaptation, moral education, methodological basis, spiritual development, youth education, inclusiveness.

PEDAGOGIKA VA GUMANITAR FANLARINING JAMIYATDA TA'LIMNING O'ZGARISHI VA RIVOJLANISHIDA TUTGAN O'RNI

Jamalova Nargiza Ulug'bek qizi,
O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda globallashtirish sharoitida ta'lim tizimida gumanitar fanlarning o'rni va ularning tanqidiy fikrlash, madaniyatlararo muloqot, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini uyg'unlashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Ta'lim jarayonida gumanitar fanlarning integratsiyasi yoshlarda axloqiy tarbiya, bag'rikenglik va ijtimoiy moslashuv kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot milliy va jahon qadriyatlarini uyg'unlashtirish orqali yoshlarning ma'naviy rivojlanishi va ularning jahon hamjamiyatida mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanishiga hissa qo'shadigan metodologik asoslarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: globallashtirish, ta'lim tizimi, gumanitar fanlar, tanqidiy fikrlash, madaniyatlararo muloqot, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, bag'rikenglik, ijtimoiy moslashuv, axloqiy tarbiya, metodologik asos, ma'naviy rivojlanish, yoshlar tarbiyasi, inklyuzivlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N83>

Kirish. Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan — texnika va axborot — kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik — psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi. Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar o'qitish shakllarining optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini

turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Zero, shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o'qitish shakllarida foydalaniladigan o'qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo'llashda, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qadimdan buyuk allomalar vatani bo'lib kelgan O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o'zgacha ma'no kasb etishi muqarrar. Globallashuv – bu iqtisodiy, madaniy, siyosiy va texnologik jarayonlar natijasida dunyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning oshib borishini anglatadi. Globallashuv jahon iqtisodiyoti, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar hamkorligining kuchayishi, madaniy aloqalarning ko'payishi, axborot oqimlarining erkinlashishi kabi sohalarda o'z aksini topadi. Bu jarayon insonlar o'rtasidagi madaniy va axborot almashinuvini yanada osonlashtiradi, shu orqali dunyo aholisining o'zaro bog'liqligi oshadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Globallashuvning asosiy omillariga quyidagilardan iborat:

- **Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi:** internet, mobil aloqalar, sun'iy intellekt va boshqa texnologik yechimlar orqali axborot almashinuvi tezlashdi va globallashdi.
- **Transport va logistika rivoji:** aviatsiya, temir yo'l, avtomobil va dengiz transportining rivojlanishi dunyo bo'ylab kishilar va tovarlarning harakatini osonlashtirdi.
- **Iqtisodiy integratsiya va xalqaro savdo:** jahon savdo tashkiloti, Yevropa Ittifoqi kabi tashkilotlar orqali davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik kuchaydi.
- **Madaniy va mafkuraviy ta'sirlar:** dunyoning turli hududlari o'rtasida madaniy ta'sir almashinuvi kuchayib, turli joylar aholisining bir-birini tushunishi va yaqinlashuvi rivojlandi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, "Globallashuv ta'lim tizimiga chuqur ta'sir o'tkazib, yoshlarni turli madaniyatlar, qadriyatlar va dunyoqarashlar bilan tanishtirish, ularni madaniyatlararo muloqotda samarali ishtirok eta oladigan fuqaro sifatida tayyorlash uchun yangi imkoniyatlar yaratdi"[1.67]. Globallashuv ta'lim tizimiga salmoqli ta'sir ko'rsatib, uning shakllari, mazmuni va maqsadlarini o'zgartiryapti. Bu jarayonda ta'lim global standartlarga muvofiqlashishga intilmoqda, bu esa yoshlar uchun xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Bu quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

- **Ko'p madaniyatli ta'lim:** globallashuv ta'limni ko'p madaniyatli muhitda tashkil etishni talab qiladi. Bu talabalarning turli madaniyatlar, tillar va an'analar bilan tanishishlarini ta'minlaydi, ularda madaniy va ma'naviy xilma-xillikka hurmat tuyg'usini shakllantiradi.
- **Axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish:** internet orqali masofaviy ta'limning kengayishi ta'limni erkin va ochiq qilish imkoniyatini beradi. Onlayn ta'lim platformalari va elektron resurslar turli mamlakatlardan talabalarga turli xil fanlar bo'yicha o'qish imkoniyatini taqdim etadi. Bu esa ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi.
- **Xalqaro hamkorlik va akademik almashinuvlar:** globallashuv jarayonida ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik kuchayib, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida

akademik almashinuvlar orqali ilmiy tajriba almashinuvi rivojlanmoqda. Bu, ayniqsa, ilmiy va tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha yangi imkoniyatlar yaratadi.

- **Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi:** globallashuv ta'limda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish zaruratini tug'diradi. Ta'lim milliy an'analar va qadriyatlarni asrab-avaylashni davom ettirish bilan birga, umumjahon qadriyatlarini ham yoshlarga singdirishni nazarda tutadi. "Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi jamiyatda har bir insonning o'zligini anglashi, o'z milliy qadriyatlarini hurmat qilishi bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni ham e'tirof etib, ularga amal qilishida namoyon bo'ladi" [2.45].

Muhokama: Globallashuv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim tizimida asosiy drayverlardan biriga aylandi. Internet, sun'iy intellekt, virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalari kabi yangi AKT yechimlari ta'lim jarayonini butkul o'zgartirmoqda. Bularning ta'limdagi ahamiyati nafaqat o'quv jarayonini samarali tashkil qilishda, balki talabalarning qiziqishlarini oshirishda ham namoyon bo'lmoqda.

AKT orqali talabalar dars materiallariga har qanday vaqtda va joyda kirish imkoniga ega bo'lmoqda, bu esa ta'limdagi sa'y-harakatlarni erkinlashtirib, talabalarning mustaqil o'qishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirmoqda. Elektron kitoblar, onlayn kurslar, video darslar va virtual laboratoriyalar kabi resurslar ta'lim jarayonida yangi imkoniyatlar yaratdi. Masalan, STEM yo'nalishlarida virtual laboratoriyalar talabalarning real laboratoriya sharoitini yaratish imkoniyatiga ega bo'lib, amaliyotni ta'limga integratsiya qilish imkoniyatini beradi. Bu texnologiyalar talabalarni nazariy bilimni amaliyot bilan mustahkamlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim jarayonini zamonaviylashtirishga, bilimlarning tezkor almashinuvi va talabalarning global axborot manbalariga kirishini ta'minlashga imkon yaratdi" [3.23].

Globallashuv va AKT rivojlanishi bilan birga masofaviy ta'lim kengayib, uning ta'lim tizimidagi ahamiyati orta boshladi. Masofaviy ta'lim talabalarning geografik chegaralardan qat'i nazar, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, bilimga bo'lgan teng kirish imkoniyatlarini ta'minlamoqda.

Pandemiya sharoitida masofaviy ta'limning ommalashishi uning muhimligi va imkoniyatlarini yanada oshkor qildi. Jahon miqyosidagi yirik universitetlar, jumladan Garvard, MIT va Stenford, masofaviy ta'lim platformalari orqali o'z kurslarini ochib, global ta'limga salmoqli hissa qo'shmoqda. Bu jarayon talabalarga yirik va obro'li ta'lim muassasalari kurslaridan foydalanish, ilg'or olim va mutaxassislar bilan muloqot qilish imkonini berib, ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirmoqda.

Biroq, masofaviy ta'limning muammolari ham yo'q emas. Bu jarayonda talabalar o'rtasida shaxsiy muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarining rivojlanishi yetarli darajada bo'lmasligi mumkin. Shunday bo'lsa-da, onlayn ta'lim tizimi globallashuv sharoitida bilim olishda innovatsion yondashuvlarni yaratish va mustahkamlashning samarali yo'li hisoblanadi.

Natijalar. Globallashuv ta'limda madaniy xilma-xillikni va inklyuzivlikni rivojlantirishga zamin yaratdi. Bu jarayonda turli millatlar, madaniyatlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida o'zaro tushunish, hurmat va hamkorlik muhiti shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim muassasalari yoshlar uchun ochiqlik va xilma-xillikni targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi, bu esa talabalarga turli madaniyatlarni tushunish va qabul qilishga yordam beradi. "Madaniy xilma-xillik va inklyuzivlik tamoyillari ta'lim jarayonida turli madaniyatlarni tushunish, ularga

hurmat bilan munosabatda bo'lish va ko'p millatli jamiyatda konstruktiv hamkorlik qilish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi" [4.56].

Ikki xil tendensiyani alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1. **Madaniy xilma-xillikni targ'ib qilish:** Ta'limda turli millatlar va madaniyatlarning urf-odatları, tarixi va qadriyatlarini o'rganish, xalqaro munosabatlarda ishlashga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi. Madaniy xilma-xillik yoshlarga turli madaniyat va tajribalardan saboq olishga yordam beradi, bu esa ularning dunyoqarashi va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.
2. **Inklyuziv ta'limni rivojlantirish:** Inklyuzivlik ta'limda barcha yoshlarning, jumladan jismoniy va ruhiy imkoniyatlari cheklangan talabalarning ham teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash demakdir. Globallashuv sharoitida inklyuzivlikning ahamiyati oshgani tufayli ko'plab mamlakatlar o'z ta'lim tizimlarini inklyuzivlik talablariga moslashtirish uchun choralar ko'rishmoqda. Masalan, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari ichida inklyuziv ta'lim ham mavjud bo'lib, bu ta'limda barcha uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga intiladi.

Globallashuv ta'lim tizimida yangi tendensiyalarni shakllantirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va masofaviy ta'lim imkoniyatlarining kengayishi ta'limda zamonaviy vositalarning keng qo'llanilishini ta'minlab, talabalarga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, madaniy xilma-xillik va inklyuzivlik tendensiyalari ta'limda yoshlarni dunyoqarashi keng va ijtimoiy jihatdan hurmatli shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu o'zgarishlar globallashuv sharoitida ta'limning universal qadriyatlarga asoslangan holda, keng va chuqurroq bilimlarga yo'naltirilgan ekanligini ko'rsatadi.

Globallashuv davrida gumanitar fanlar, jumladan tarix, adabiyot, falsafa, madaniyatshunoslik kabi fanlar shaxs tarbiyasi va uning ijtimoiy rivojlanishida o'ta muhim ahamiyatga ega. Ular yoshlarning ma'naviy rivojlanishi, axloqiy tarbiyasi, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishi, jamiyatda faol va mas'uliyatli shaxs bo'lib yetishishi uchun asosiy manbalardan biridir.

Gumanitar fanlar insonning ma'naviy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ma'naviy rivojlanish, avvalo, shaxsdagi axloqiy qadriyatlarni, qadr-qimmatni, madaniy merosni anglashdan boshlanadi. Masalan, adabiyot va tarix fanlari orqali talabalar turli millatlarning tarixiy tajribasi, ajdodlarning hayot tarzi va qadriyatlari haqida bilimga ega bo'ladi, bu esa ularning ma'naviy jihatdan shakllanishiga yordam beradi. Adabiyot darslarida buyuk yozuvchilarning asarlari o'quvchilarga muhabbat, sadoqat, bag'rikenglik kabi insoniy xislatlarni o'rgatishda samarali vosita bo'ladi.

Ma'naviy rivojlanish jarayonida yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat, madaniy merosga muhabbat va o'zligini anglash hislari shakllanadi. Bu jarayon yoshlarning shaxsiy rivojlanishini va kelajakda mas'uliyatli fuqaro bo'lib yetishishini ta'minlaydi.

Gumanitar fanlar axloqiy tarbiyani shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Tarix, falsafa, va madaniyatshunoslik fanlari talabalarga insoniyat tarixi davomida shakllangan axloqiy va ma'naviy qadriyatlar, insoniy xislatlar, ijtimoiy mas'uliyat haqida tushuncha beradi. "Gumanitar fanlar axloqiy tarbiyaning asosiy manbai bo'lib, ular yoshlarda insonparvarlik, halollik, mas'uliyat kabi insoniy qadriyatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi" [5.39].

Tarix fanidagi turli jarayonlar, qahramonlar haqidagi voqealar yoshlarda mas'uliyat hissini shakllantiradi, ularni shaxs sifatida mustahkamlaydi. Masalan, tarix darslaridagi qahramonlar va ularning vatani uchun kurashganligi haqidagi hikoyalar yoshlarga Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini tarbiyalaydi. Bu, o'z navbatida, ularni ijtimoiy mas'uliyatli va yordamga muhtojlarga yordam berishga moyil bo'lgan insonlar bo'lib yetishishiga yordam beradi [6.253].

Falsafa fanlari orqali talabalar inson qadriyati, ma'naviy qonuniyatlar, inson huquqlari kabi tushunchalarni anglaydilar. Falsafiy ta'lim yoshlarni axloqiy qarorlar qabul qilishda va dunyoqarashini shakllantirishda yordam beradi, bu esa ularni kelajakda axloqiy jihatdan barkamol shaxs sifatida rivojlantirishga yordam beradi.

Gumanitar fanlar ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ular yoshlarda ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri tashkil etish, turli fikr va qarashlarga hurmat bilan qarash, birgalikda faoliyat olib borish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. [7.229].

Tarix va madaniyatshunoslik fanlari yoshlarda jamoaviylik hissini, turli jamoatchilik guruhlari bilan hamkorlik qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Masalan, tarix darslaridagi xalqlar o'rtasidagi munosabatlar, turli millatlarning madaniyati va ularning hamkorligi haqidagi ma'lumotlar yoshlarga turli odamlar bilan muomala qilish, ularni tushunish va birga ishlash ko'nikmasini beradi. Bu ko'nikmalar yoshlarning ijtimoiy moslashuvini, jamoa bilan ishlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Adabiyot fanlari yoshlarda ijtimoiy munosabatlarni boshqarish, turli vaziyatlarda axloqiy qarorlar qabul qilish, jamoada o'z o'rnini topish ko'nikmalarini shakllantiradi. Masalan, adabiy asarlardagi turli personajlar va ularning munosabatlari yoshlarga real hayotda uchraydigan turli ijtimoiy vaziyatlarni tushunish va ularda o'zini to'g'ri tutishni o'rgatadi.

Xulosa. Gumanitar fanlar yoshlarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bu fanlar orqali yoshlar turli madaniy va tarixiy voqealarni tahlil qilishni, ularni turli jihatlardan ko'rib chiqishni o'rganadilar. Bu jarayonda yoshlar o'z fikr va xulosalarini mustaqil shakllantirish qobiliyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularning ijodiy qobiliyatlarini oshiradi. "Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish o'quvchilarga ma'lumotni mustaqil tahlil qilish, o'z fikrlarini shakllantirish va noan'anaviy yechimlar topish imkonini beradi, bu ayniqsa tez o'zgarayotgan dunyo sharoitida muhim ahamiyatga ega" [8.112].

Falsafa va tarix kabi fanlar yoshlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Masalan, falsafa darslarida turli nazariyalar, fikrlar o'rganilib, ularning ijtimoiy jihatlari muhokama qilinadi, bu esa yoshlarga mustaqil fikrlash va o'z pozitsiyalarini himoya qilish ko'nikmalarini beradi.

Globalashuv davrida gumanitar fanlar shaxs tarbiyasi va ijtimoiy rivojlanishdagi asosiy vositalardan biri bo'lib qolmoqda. Ular yoshlarning ma'naviy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, ijtimoiy munosabatlar haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Shuningdek, gumanitar fanlar yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat, tanqidiy fikrlash va madaniyatlarga hurmatni shakllantirib, ularni global dunyoda muvaffaqiyatli va mas'uliyatli shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Scholte J.A. Globalization: A Critical Introduction, New York: Palgrave Macmillan, 2005, p. 67.

2. Раҳмонов Қ. Таълим ва тарбия жараёнида миллий қадриятларни шакллантириш. Монография. Тошкент: Фан ва технологиялар, 2010, 45-бет.
3. Каримов Ш. Ахборот технологиялари асосида таълим жараёнини ташкил этиш // ТерДУ ахборотномаси, 2015, №4. 23-бет.
4. Соловьёв В.М. Инклюзивное образование и культурное многообразие: современные подходы, Москва: Просвещение, 2018, с. 56.
5. Норбоев А. Таълимда гуманитар фанларнинг аҳамияти // Фан ва инновация. 2012, №2. 39-бет.
6. Shodiyev, J. J. (2023). The role of scientific thinking and mental development in improving human development and value. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(9), 251-261.
7. Jurakulovich, S. J. (2023). Philosophical Views of Sages on Human Values and Glorifying Him. *Theory and analytical aspects of recent research*, 2(16), 229-238.
8. Левитов А.Н. Критическое мышление в образовании: теория и практика, Москва: Академия, 2016, с. 112.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE INFLUENCE OF CHESS ON THE FORMATION OF PERSONAL INTELLECTUAL QUALITIES

Norboev Nabijon Narzikulovich,
Termez State Pedagogical Institute
Associate Professor of the Department of Physical Culture

Abstract. The influence of chess on the formation of human intellectual qualities is of great scientific and pedagogical interest. Chess, as a strategic board game, requires developed logical thinking, attention, memory and the ability to plan actions several steps ahead. Regular practice improves cognitive skills that can be used in other areas of life. Research shows that regular chess playing helps develop logical thinking, memory, concentration, patience and self-control, as well as creativity. Chess is used in educational programs as a means of developing intellectual and personal qualities in children and adults. Many schools include chess in the curriculum to help students improve their academic performance and develop important life skills. The article discusses the development of a person involved in sports through the influence and benefits of chess on intellectual and physical development.

Keywords: intellectual qualities, personality traits, senior preschool child, age characteristics, chess development programs.

SHAHMAT O'YINING SHAXS INTELEKTUAL SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI

Norboyev Nabijon Narziqulovich,
Termiz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Shaxmat o'yinining shaxsning intellektual sifatlarini shakllantirishga ta'siri katta ilmiy va pedagogik qiziqish uyg'otadi. Shaxmat, strategik stol o'yini sifatida, ishtirokchilardan rivojlangan mantiqiy fikrlash, diqqat, xotira va harakatlarni bir necha qadam oldindan rejalashtirish qobiliyatini talab qiladi. Muntazam amaliyot natijasida boshqa hayot jabhalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan kognitiv ko'nikmalar yaxshilanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxmatni muntazam ravishda o'ynash mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga, xotiraning yaxshilanishiga, diqqat va e'tiborni jamlash, sabr-toqat va o'zini boshqarish hamda ijodkorlikning rivojlanishiga yordam beradi. Shaxmat bolalar va kattalarda intellektual va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish vositasi sifatida ta'lim dasturlarida qo'llaniladi. Ko'plab maktablar shaxmatni o'quv jarayoniga kiritib, o'quvchilarning akademik natijalarini yaxshilash va ularda muhim hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Maqolada shaxmat o'yinining intellektual va jismoniy rivojlanishiga ta'siri va foydasi orqali sport faoliyati bilan shug'ullanayotgan insonning rivojlanishi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: intellektual sifatlar, shaxsning xususiyatlari, katta maktabgacha yoshdagi bola, yosh xususiyatlari, shaxmat o'yinini o'zlashtirish dasturlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N84>

Kirish. "Shaxmatni o'rgatish" kursi, yuksak axloqiy, uyg'un va ijodiy faol shaxsni shakllantirishga qaratilgan butun bir yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Garchi shaxmatga

ming yarim yil bo'lgan bo'lsa-da, shaxmat o'yinining hozirgi davrda ham insonning zarur sifatlarini rivojlantirishda o'z ahamiyati bor. Shaxmat mantiqiy fikrlashni, strategiya tuzish va taktik usullarni qo'llashni, g'alabaga intilishni, mag'lubiyatga chidash va motivatsiyani yo'qotmaslikni rivojlantiradi, xotira va ijodkorlikni ("kreativlik"), diqqatni jamlashni yaxshilaydi, miya kasalliklarining oldini olishga yordam beradi va insonning salbiy harakatlariga qarshi turadi [3; 121 b.]. Agar shaxmatning insonning jismoniy sog'lig'iga bevosita ta'sirini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u jismoniy mashqlar va to'g'ri ovqatlanish bilan birgalikda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shaxmat — bu strategiya, aniq hisob-kitob va matematik aniqlik, shuningdek, o'yinchining ijodiy salohiyati asosida qurilgan intellektual sport turidir. Shaxmat o'yini miyaning eng samarali mashqlaridan biri bo'lib, u chap va o'ng yarimsharlarni rivojlantiradi, xotira va mantiqiy fikrlashni yaxshilaydi [1; 43 b.]. Tan olingan haqiqat shuki, jismoniy sog'liq ruhiy sog'liq bilan, xususan, ma'lum yoshga xos ruhiy jarayonlarning shakllanganligi bilan chambarchas bog'liq. Insonning ijobiy rivojlanishiga uning ma'naviy dunyosi, xulq-atvor me'yorlari, hayotiy tamoyillari va sog'liqni saqlash va mustahkamlash motivatsiyasi ta'sir ko'rsatadi. Shaxmat o'yini bolani sog'lom turmush tarziga bevosita motivatsiya qila oladi deb aniq aytish qiyin, ammo o'qitish va o'yin jarayonida shakllanadigan sifatlar bolaning o'zini rivojlantirish qiymatini anglashga olib kelishi va uni o'zini takomillashtirish hamda qo'yilgan muammoni hal qilish yo'llarini belgilashga undashi mumkin.

Shaxmat — bu o'z miyangizni rivojlantirish va boyitishning yo'lidir. Muntazam intellektual mashg'ulotlarsiz vaqt o'tishi bilan xotira va turli sharoitlarga tezkor javob berish qobiliyati pasayadi [2; 174 b.]. Intellekt darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, sportda erishiladigan yutuqlar ham shunchalik katta va yuqori bo'ladi. Ma'lumki, shaxmat — bu mantiqiy o'yin bo'lib, u mantiqiy fikrlashni boshqa har qanday mashg'ulotlardan yaxshiroq rivojlantiradi. Sport mashg'ulotlaridagi mantiqiy fikrlash bolalarning jismoniy holatini asta-sekin yaxshilashga yordam beradi. Shaxmatda g'alaba qozonish uchun bir necha qadam oldinga reja tuzishni o'rganish kerak va bu jarayon avtomatik tarzda amalga oshadi, bu kabi ko'nikma kelajakda juda kerakli bo'ladi. Sportdagi to'g'ri rejalashtirish yuqori natijalarga erishishga olib keladi.

Keyingi yurishlarni hisoblash jarayonida bir nechta kombinatsiyalarni yodda saqlashga to'g'ri keladi, shu tariqa qisqa muddatli va uzoq muddatli xotirani mashq qilinadi, bu esa sportchiga bolalikdan o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarni mukammal egallash imkonini beradi. Bu o'yin asosan chidamlilik va sabr-toqatni yaxshilaydi, chunki shaxs raqibning yurishini kutish jarayonida turli mumkin bo'lgan yurishlar haqida ma'lumotni miyaga yuklaydi. Bu vaqt mobaynida siz bir necha soat davomida joyingizda bemalol o'tirib, o'z g'alabangizga erishish yo'lida davom etasiz [4; 97 b.].

Shaxmat o'yini davomida miya ijodiy yarim sharini ham ishga soladi, bu esa kelajakda yangi va qiziqarli g'oyalarni ilgari surishda va kutilmagan vaziyatlarda tezkor javob berishda yordam beradi, masalan, sport musobaqalarida to'satdan yuzaga kelgan holatlarga tayyorgarlik ko'rmagan sportchi ham moslasha oladi. O'yin maqsadi — g'alaba qozonishdir [5; 143 b., 6; 23 b.]. Bunda o'yinchi raqibning intellektiga qarshi turadi va uning qarshiligini yengish uchun iroda kuchi talab qilinadi. Eng yaxshi yurishni topish, kutilmagan taktik zarbani sovuqqonlik bilan qaytarish, inqirozli vaziyatda o'zini boshqarish — bularning barchasi tarbiyaviy xarakterga ega va irodani kuchaytiradi. Jiddiy shaxmatchilar mustahkam ichki kuch va yaxshi irodaviy ko'nikmalarga ega bo'ladi. Teng yoki kuchliroq raqib bilan muntazam o'yin

o'tkazish kifoya — sportda iroda va xarakterni chiniqtirish bolalikdan boshlanadi va muvaffaqiyatning ajralmas qismi hisoblanadi [7; 23 b.].

Adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolaning maqsadi shaxmat o'yinining intellektual va boshqa shaxsiy sifatlarning shakllanishiga, shuningdek, o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Intellekt va intellektual sifatlarning maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda shakllanishi masalasi L. I. Bojovich, L. A. Venger, L. S. Vygotskiy, P. Ya. Galperin, G. S. Kostyuk kabi mahalliy va xorijiy psixologiya vakillarining ishlarida yoritilgan.

Shu bilan birga, ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu muammoning shaxmat o'yinining katta maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual sifatlarning xususiyatlariga ta'sirini o'rganish kabi muhim jihati deyarli o'z aksini topmagan. Chunki o'yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yetakchi faoliyat turi hisoblanadi, bizning diqqatimizni strategik rejalashtirish, murakkab kombinatsiyalar, intellektual, hissiy va shaxsiy zo'riqishlar darajasi bo'yicha boshqa intellektual o'yinlardan sezilarli farq qiluvchi intellektual o'yin sifatida shaxmat jalb qildi. Shaxmat tarixini tahlil qilishga harakat qilar ekanmiz, biz ko'plab mashhur shaxmatchilar bu o'yin bilan maktabgacha yoshda tanishgan degan qiziqarli xulosaga keldik: X. R. Kapablanka, A. E. Karpov, G. T. Agzamov, P. Keres — 4 yoshda, V. V. Steynits, M. D. Eyve, N. T. Gaprindashvili, M. G. Chiburdanidze — 5 yoshda, G. K. Kasparov, B. V. Spasskiy, R. D. Fisher, O. M. Rubtsova, Yu. S. Balashov — 6 yoshda, A.A. Alehin, M.N. Tal — 7 yoshda va ularning ko'pchiligi 10-11 yoshdan boshlab jiddiy shaxmat musobaqalarida qatnashishni boshlaganlar[1;].

Bizningcha, shaxsning intellektual sifatlari shaxmat o'yinining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilangan — bu o'yin dinamik, muammoli, prognozlashga asoslangan, kombinatsiyalarga boy, intellektual zo'riqish talab qiladi, hissiy va shaxslararo kurashni o'z ichiga oladi, hamkorlik va nizolilikni o'z ichiga olgan o'yin madaniyatiga asoslanadi.

Shaxmatning o'smirlarning intellektual rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish Venesuelada o'tkazilgan ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi edi. Ushbu tadqiqot maxsus komissiya tomonidan amalga oshirilib, uning tarkibiga pedagoglar, psixologlar va shifokorlar kirgan. Eksperiment davomida komissiya ikki guruh o'quvchilarni kuzatdi. Barcha bolalar odatiy maktab ta'lim kursidan o'tgan, biroq bir guruh shaxmat bilan faol shug'ullangan. Tadqiqot boshlangandan olti oy o'tgach, nazorat testlari o'tkazildi. Natijalarni diqqat bilan o'rganib, mutaxassislar shunday xulosaga kelishdiki, kuzatuv davrida shaxmat o'ynagan bolalarda reaksiya tezligi deyarli 40% ga oshgan [4; 24 b.].

Shaxmat o'yini uchta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi: debyut (boshlanish), mettelshpil (o'rtasi) va endshpil (yakun), bu bosqichlar o'yinchilarning intellektual va shaxsiy sifatlarini o'zlashtirish va rivojlantirishda o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi, masalan, intellektual-kommunikativ, intellektual-refleksiv, intellektual-akademik, intellektual-psixofiziologik.

Bu yerda shaxmatdagi muloqot, o'yinchilar o'rtasidagi o'zaro tushunish va hamkorlik, tashabbus ko'rsatish, motivatsiya va oldindan rejalashtirish haqida so'z boradi. Shuningdek, kombinatsion g'oyalarni amalga oshirish orqali ikkala o'yinchining ijobiy natijaga erishishlari, jasorat, qat'iyatlilik yoki aksincha, himoya shaxmat kurashida ishonchlilik kabi xarakterning o'ziga xos jihatlarini aktualizatsiya qilish haqida gap ketadi. O'yin davomida o'zini tuta bilish, hissiy nazorat, o'yindoshga nisbatan bag'rikenglik, o'z-o'zini motivatsiya qilish, o'z-o'zini boshqarish va o'zini tuta bilish zarur.

Shuningdek, o'yin davomida o'zlashtirilgan tajribani operativ qo'llash va yangi, vaziyatga qarab o'zgaruvchi shaxmat tajribasini shakllantirish, o'zining va o'yindoshining temperamentiga mos ravishda faoliyat, harakat, hissiyotlarning tipologik xususiyatlarini hisobga olish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot materiali va metodlari. Tadqiqot Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 4, 10, va 14-sonli maktabgacha ta'lim muassasalaridagi 5-6 yoshli 105 nafar bolani qamrab oldi. 52 bola eksperimental guruhga, 50 bola esa nazorat guruhiga kiritildi.

Asosiy psixodiagnostik tadqiqot uchun 19 standartlashtirilgan metodika (testlar, so'rovnomalar) tanlab olindi va sinovdan o'tkazildi. Ular quyidagilardan iborat edi: muloqotdagi sherikni tushunish darajasini aniqlash uchun proyektiv metodika "O'yin xonasi", B. Elkonin tomonidan ishlab chiqilgan o'qishga tayyorgarlikni aniqlash metodikasi, o'z fikrini himoya qilishda jasoratni aniqlash metodikasi, o'z-o'zini baholashni aniqlash metodikasi, intellektual xususiyatlarni aniqlash uchun kompleks metodikalar, temperamentni aniqlash metodikasi. Qo'shimcha usullar sifatida kuzatish, suhbat, so'rov, faoliyat mahsulotlarini tahlil qilish va boshqa metodlar qo'llanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion o'qitish usullarining samaradorligini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotda sifatli va miqdoriy tadqiqot usullari qo'llanadi. Tadqiqot ishtirokchilari oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at yo'nalishida ta'lim olayotgan 60 nafar talabadan iborat bo'ladi. Ular orasida 2- va 3-kurs talabalari hamda pedagogik amaliyot o'tayotganlar ham ajratiladi. Talabalar innovatsion o'qitish usullari qo'llanilgan tajriba guruhi va an'anaviy o'qitish usullari qo'llangan nazorat guruhiga ajratiladi.

Ma'lumotlar yig'ish uchun so'rovnoma, kuzatuv va amaliy mashg'ulotlar qo'llanadi. So'rovnomalar orqali talabalarning innovatsion usullardan foydalanish orqali o'quv jarayonidan olgan taassurotlari va o'zlashtirish darajasi haqida ma'lumot to'planadi. Kuzatuv usuli interfaol darslar va raqamli texnologiyalar qo'llanilgan jarayonlarda talabalar faolligi, qiziqishi va ijodiy ko'nikmalari o'rganiladi. Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar ijodiy loyihalar ishlab chiqishda innovatsion yondashuvlarni qanday qo'llaganliklari baholanadi.

Talabalar guruhli loyihalar va muammolarni birgalikda hal qilishga asoslangan interfaol usullarni qo'llagan holda ishlaydi. Tadqiqot natijalarini taqqoslash uchun innovatsion usullar qo'llanilgan tajriba guruhining natijalari an'anaviy usullar qo'llangan nazorat guruhi natijalari bilan solishtiriladi. Olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, ularning samaradorligi aniqlanadi. Ushbu tahlil jarayonida talabalarning ijodiy rivojlanishi va innovatsion usullarni qo'llash orqali o'zlashtirish darajasi oshgani kuzatiladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion usullar qo'llanilishi sezilarli natijalar berishi mumkin. Akvarel bo'yoqlari yordamida hissiy ranglarni o'rganish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazilishi talabalar ranglar orqali o'z his-tuyg'ularini ifodalash qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Bu mashg'ulotlar orqali talabalarning ijodiy tafakkuri va ranglar bilan ishlash qobiliyatini mustahkamlash imkoniyati mavjud bo'lib, bu ularga ijodiy vazifalarni mustaqil bajarish uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirishda xizmat qiladi.

Mashg'ulotlar davomida raqamli texnologiyalarni qisman qo'llash orqali talabalar o'z asarlarini raqamli formatga o'tkazish va ular ustida ishlash imkoniyatini kengaytirish mumkin bo'ldi. Bu jarayon, ayniqsa, ranglar bilan tajriba qilish hamda raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ko'nikmalarni takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin. Raqamli texnologiyalar va an'anaviy san'at usullarining uyg'unligi talabalarning ijodiy ishlarini zamonaviy talablarga moslashtirishga yordam beradi. Bunday yondashuvlar, xususan, akvarel va raqamli texnologiyalarni birgalikda qo'llash orqali, ranglarning intensivligi va kontrastini tahrir qilish kabi jarayonlarni o'rganish imkoniyatini yaratishi mumkin. Talabalar uchun bu tajribalar orqali an'anaviy va raqamli san'atni uyg'unlashtirish jarayoni yangi ijodiy imkoniyatlar ochib beradi. Ushbu jarayon raqamli texnologiyalar va an'anaviy san'at vositalari bir-birini to'ldirishi mumkinligini ko'rsatadi va bu talabalar ijodiy salohiyatini yanada kengaytirishga yordam berishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida innovatsion o'qitish usullarining tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashdagi samaradorligi va pedagogik ahamiyati batafsil tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, akvarel bo'yoqlari bilan o'tkazilgan mashg'ulotlar hissiy ranglar yordamida talabalar ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Ranglar bilan ishlash jarayonida talabalar o'z his-tuyg'ularini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ldilar, bu esa ularning san'at asarlarini yaratish qobiliyatini oshirishi mumkin. Talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda o'quv jarayoniga bunday hissiy elementlarni qo'shish o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ranglarni psixologik jihatdan tushunish va ularni ijodiy jarayonda to'g'ri qo'llash talabalar san'at asarlarini chuqurroq tahlil qilish va yangi yondashuvlarni sinab ko'rishlariga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni qo'llashning o'ziga xos ahamiyati qayd etildi. Akvarel bo'yoqlari bilan ishlashni raqamli grafik vositalar bilan uyg'unlashtirish talabalarga nafaqat an'anaviy texnikalarni o'rganish, balki zamonaviy texnologiyalarni o'z ijodiy faoliyatlarida qo'llash imkoniyatini beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida akvarel ishlari qayta tahrir qilinib, ranglar bilan tajriba o'tkazilishi orqali talabalar yangi texnologiyalardan foydalanish tajribasini boyitishlari mumkin. Bu jarayon ularning ijodiy ishlarini zamonaviy san'at talabalariga moslashtirishga yordam beradi. Ushbu yondashuv talabalarga nafaqat amaliy, balki texnik bilim va ko'nikmalarni oshirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, dars jarayonida pedagoglarning roli va zamonaviy texnologiyalarni samarali boshqarishlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilar talabalarga raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'mak berish orqali ularning ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashlari mumkin. Bu jarayon talabalar uchun o'z ijodiy ishlarini yangi darajaga ko'tarish, akvarel va raqamli texnologiyalarni birlashtirib, san'at asarlarini yangi ko'rinishda yaratish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. O'qituvchilarning bu jarayonni samarali boshqarishdagi yondashuvlari dars samaradorligini oshirish va talabalarni yanada mustaqil fikrlashga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, raqamli texnologiyalar va an'anaviy san'at usullarining uyg'unligi orqali ijodiy jarayonning yangi qirralari ochilishi mumkin. Talabalar ranglar va texnologiyalarning o'zaro ta'sirini sinab ko'rish, ijodiy vazifalarni bajarishda mustaqil qaror qabul qilish va san'at asarlarini yaratishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkoniyatini kengaytirishlari mumkin. Bu esa ularning kelajakda raqobatbardosh kadr sifatida shakllanishlariga yordam beradi. Muhokama natijalari shuni ko'rsatdiki, akvarel bo'yoqlari va raqamli texnologiyalarni birlashtirish orqali ijodiy jarayonni kengaytirish, talabalarning estetik didini rivojlantirish va ularni zamonaviy talablarga mos tayyorlash muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion o'qitish usullarini qo'llash sezilarli darajada samaradorlikni oshiradi. Akvarel bo'yoqlari yordamida hissiy ranglarni o'rganish va raqamli texnologiyalarni qisman qo'llash orqali talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beriladi. Talabalar ranglar orqali o'z his-tuyg'ularini ifoda qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi, bu esa ularning ijodiy tafakkurini shakllantirishda muhim omil bo'ladi. Mashg'ulotlar davomida raqamli texnologiyalar yordamida san'at asarlarini raqamli formatda qayta ishlash tajribasi talabalar bilimlarini yanada chuqurlashtiradi va zamonaviy san'at talablari bilan moslashishga imkon yaratadi. Tadqiqotning muhim jihati shundaki, interfaol usullar va raqamli vositalarning uyg'unligi talabalarning o'zlashtirish darajasini oshiradi, shuningdek, amaliy va nazariy

bilimlarni birlashtirish imkoniyatini yaratadi. Innovatsion yondashuvlar, xususan, akvarel va raqamli texnologiyalarni birgalikda qo'llash talabalar ijodiy rivojlanishining yangi yo'llarini ochib beradi. O'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'llashi dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion o'qitish usullarini qo'llash talabalarning ijodiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Akvarel bo'yoqlari orqali hissiy ranglarni o'rganish va raqamli texnologiyalar bilan birgalikda ishlash metodlari talabalarni zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllantirishga yordam beradi. Ushbu innovatsion yondashuvlarni keng miqyosda qo'llash va pedagogik sharoitlarni yaxshilash orqali tasviriy san'at ta'limining samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Johnson, Cathy. *Watercolor Tricks & Techniques: 75 New and Classic Painting Secrets*. Penguin, 2010.
2. Abdirasilov, Sunatulla. "Akvarel rangtasvir texnologiyasi asosida psixologik portret tasvirlashning asoslari." *Journal of Culture and Art* 2.2 (2024): 28-37.
3. Narziyev, Nuriddin. "Rang-tasvirda akvarel texnikasining bugungi kundagi ahamiyati." *Евразийский журнал технологий и инноваций* 1.5 Part 2 (2023): 104-105.
4. Jonibekovich, Hayitboyev Diyorbek. "Akvarel bilan rangtasvir ishlash texnikasi." *Лучшие интеллектуальные исследования* 31.2 (2024): 81-86.
5. Халилов, Л. (2024). Rangtasvir mashg'ulotlari orqali talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishning ilmiy nazariy asoslari. *Общество и инновации*, 5(9/S), 26-31.
6. Халилов, Л. (2024). Talabalarning hissiyotlarini ranglar orqali boshqarish va ifoda etish metodi. *Общество и инновации*, 5(8/S), 279-284.
7. Khalilov, L. (2024). Zamonaviy san'atda akvarel. klassik texnologiyaning rivojlanishi. *Journal of Culture and Art*, 2(3), 60-66.
8. Суюнов, Навруз. "Tez qalamchizgilar orqali badiiy tafakkurni rivojlantirish metodikasining zamonaviy yondashuvlari." *Общество и инновации* 5.8/S (2024): 274-278.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

PEDAGOGICAL CONDITIONS OF PHYSICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN

Turdimurodov Dilmurod Yuldashevich,

Termez State Pedagogical Institute

Lecturer of the Department of Physical Culture

Abstract. The processes of change in modern society place new demands on the education system and, in particular, on the physical education of children. Nowadays, the list of qualities of a person who is able to operate successfully in the conditions of the market economy is also changing. Among the socially important qualities, health, healthy lifestyle, cooperation skills in groups and teams should take the leading place. It is known that the personal example of parents, their value orientations, activities with children, physical education literacy, including the correct assessment of the educational value of physical education and sports activities, in attracting children to physical exercises. has a decisive effect.

Keywords: physical education, children of preschool age, physical training, preschool educational institution.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY TARBIYASINING PEDAGOGIK SHARTLARI

Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich

Termiz davlat pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Zamonaviy jamiyatdagi o'zgarish jarayonlari ta'lim tizimiga va xususan, bolalarni jismoniy tarbiya qilishga yangi talablarni qo'yimoqda. Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga qodir bo'lgan insonning sifatleri ro'yxati ham o'zgarib bormoqda. Ijtimoiy ahamiyatga ega sifatlar orasida salomatlik, sog'lom turmush tarzi, guruh va jamoalarda hamkorlik ko'nikmalari yetakchi o'rinni egallashi kerak. Ma'lumki, bolalarni jismoniy mashqlarga jalb qilishda ota-onalarning shaxsiy namunasi, ularning qadriyat yo'nalishlari, bolalar bilan birga mashg'ulotlar, jismoniy tarbiya savodxonligi, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri baholash hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, maktabgacha yoshdagi bolalar, jismoniy tayyorgarlik, maktabgacha ta'lim muassasasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N88>

Kirish. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy va siyosiy islohotlar bolalar kasallanishi muammosining kuchayishi fonida amalga oshirilmoqda va ko'rsatkichlar bo'yicha kasallanish ko'paygan. Hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalarning atigi uchdan biri nisbatan sog'lom hisoblanadi. Maktabga qabul qilinadigan bolalarning atigi 65% mutlaqo sog'lom hisoblanadi. Bunday holat bolalar, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalar salomatligini mustahkamlashning optimal shakllari va yo'llarini qidirishni talab etadi [1; 49 b.].

Shu sababli, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ushbu yosh guruhi vakillarining tegishli harakat tayyorgarlik darajasiga erishishi uchun maktabgacha ta'lim muassasasi va oilaning kuchli tarbiyaviy institutlar sifatida hamkorligini tashkil etish va amalga oshirish talablarini oshirish zarur. Bunday ilmiy ish yo'nalishi muhim madaniy strategiyaga asoslanadi [3; 21 b.].

Ushbu tadqiqot doirasida maktabgacha yosh davri insonning jismoniy va axloqiy salomatligini ta'minlashda muhim bosqich ekanini isbotlovchi ilmiy ishlar alohida ahamiyat kasb etadi, va bunga eng yaxshi sharoitlar shaxsni jismoniy tarbiyalash jarayonida yaratiladi, bu esa bolaning faol hayot va kasbiy faoliyatga tayyorgarligining muhim tarkibiy qismidir (L. Vygotskiy, O. Zaporjets, E. Arkin, T. Osokina va boshqalar).

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash masalasi turli ilmiy sohalar olimlari, xususan, psixologlar (L. Vygotskiy, A. Zaporjets, A. Leontev va boshqalar), pedagoglar (V. Gorinevskiy, A. Makarenko, P. Lesgaft, O. Suxomlinskiy, K. Ushinskiy), fiziolog va tibbiyot mutaxassislari (I. Arshavskiy, G. Apanasenko) tomonidan tadqiq qilingan. G. Agayev, E. Vilchkovskiy, N. Denisenko, T. Osokina, B. Shiyan va boshqalar tomonidan jismoniy tarbiya tizimining barcha samarali omillari, jumladan, oilaning tarbiyaviy salohiyatini jalb qilish zarurati asoslangan, bu esa bolalar organizmiga epizodik emas, balki doimiy ta'sir ko'rsatishni ta'minlaydi (E. Bondarevskiy, L. Kuts, V. Leonova).

O'zbekistonda shaxsning o'zini namoyon qilish tizimining o'ziga xosligi bolani tarbiyalashda oila rolining asosiy bo'g'in sifatida oshib borishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, oilaning bolalarni jismoniy tarbiya qilish masalasiga yetarli darajada e'tibor bermasligining sabablaridan biri ota-onalarning jismoniy tarbiya savodxonligi darajasining pastligi, bolaga nisbatan noto'g'ri avtoritar muloqot uslubining tanlanishi, oilada jismoniy tarbiya shakllarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha amaliy ko'nikmalarning yetarli emasligidir [2; 8 b., 4; 21 b.].

Ma'lumki, bolalarni jismoniy mashqlarga jalb qilishda ota-onalarning shaxsiy namunasi, ularning qadriyatlari, bolalar bilan birgalikdagi mashg'ulotlari, jismoniy tarbiya savodxonligi, jumladan, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri baholash hal qiluvchi rol o'ynaydi (A. Atayev, V. Butina, B. Sermeev, V. Stolyarov).

O'quv muassasasi va oilaning pedagogik hamkorligi, bunda jismoniy tarbiya va bolalar shaxsini rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishish mumkin, alohida ahamiyatga ega (A. Akbarov, M. Bezrukiy, V. Bukarev, E. Vilchkovskiy, I. Petrenko). Shuning uchun bolalar sog'lig'ini shakllantirish va saqlashda ota-onalarga malakali yordam ko'rsatishga qiziqqan pedagogik jamoalar tegishli ta'lim vazifasini o'z zimmasiga olishi, ota-onalar bilan ish tashkil etishi va shu bilan ularning jismoniy tarbiya savodxonligini oshirish, jismoniy tarbiyaga munosabatini o'zgartirishga yordam berishi kerak. Ota-onalarning pedagogik o'qitilishi bunday hamkorlikning muhim yo'nalishi bo'lib, uning ma'lum jihatlari Z. Zaytseva, D. A. Maxlin, V. Postovoy asarlarida ochib berilgan.

Shu bilan birga, an'anaviy ijtimoiy-tarbiyaviy ishlar hozirda kam samarador ekanini mavjud qarama-qarshiliklar ko'rsatib turibdi:

- maktabgacha ta'lim muassasasi va oila hamkorligida katta maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi bo'yicha tizimli samarali ishlarni amalga oshirish zaruriyati hamda ushbu masalaning nazariy va metodik jihatdan yetarlicha ishlab chiqilmagani; —

katta maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasida ota-onalar va pedagoglarning yetakchi roli va bunday hamkorlikka tayyor emasligi [5; 143 b., 6; 127 b.].

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi tobora ko'proq ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. I. Balsevich, L. A. Lubysheva ta'kidlaganidek, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya tizimi umumdavlat jismoniy tarbiya tizimining tarkibiy qismiga aylanishi lozim. Zamonaviy olimlarning tadqiqotlari, jumladan, G. Agayev, L. A. Artemova, L. Bilyaeva, E. G. Vilchkovskiy, P. Shiyan asarlari, jismoniy tarbiyani milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida va jismoniy mashqlar, harakatli o'yinlarni maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun universal vosita sifatida ko'rib chiqishadi. Psixologlar S.V. Rubinshteyn, L. Vygotskiy, O. Leontev, O. Zaporozets ta'kidlashicha, bolaning shaxsini rivojlantirish, uning harakat sifatlarini takomillashtirish tarbiya va ta'lim jarayonida faoliyat sharoitida amalga oshiriladi.

Tadqiqot materiali va metodlari. Tadqiqotning maqsadi — maktabgacha ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi hamkorlikda katta maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning pedagogik shartlari, shakllari va usullarini aniqlash, ularni nazariy jihatdan asoslash va ularning samaradorligini eksperiment orqali tekshirish bo'ldi.

Maqsadga erishish va belgilangan vazifalarni hal etish uchun quyidagi tadqiqot metodlari majmuasi qo'llanildi:

- Nazariy — muammoning nazariy va metodik asoslarini aniqlash maqsadida falsafiy, pedagogik, psixologik, o'quv-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
- empirik — maktabgacha ta'lim muassasalari pedagogik jamoalarining oila bilan hamkorlikda jismoniy tarbiyani tashkil etish va amalga oshirish tajribasini o'rganish va tahlil qilish, hujjatlarni tahlil qilish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasini maktabgacha ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi hamkorlikda samaradorligini oshirish.

Tadqiqot Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 7-, 9-, 12-sonli maktabgacha ta'lim muassasalarining guruhlarida olib borildi.

Turli bosqichlarda eksperimentga 110 nafar maktabgacha yoshdagi bolalar, 12 nafar maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari va 3 nafar jismoniy tarbiya bo'yicha yo'riqchilar jalb qilindi.

Tadqiqot natijalari. Eksperimentning dastlabki bosqichi natijalari shuni ko'rsatdiki, eksperimental guruh (EG) va nazorat guruhi (NG) bolalari (umumiy hisobda NGda 52, EGda 48 bola) jismoniy tarbiya bo'yicha bilimlarga o'rtacha ega edi, 22,5% (NG) va 22,7% (EG) bolalarda harakatli faoliyatga motivatsiya shakllanmagan edi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat tayyorgarligini test qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalarning ko'pchiligi o'rtacha darajadagi harakat tayyorgarligiga ega: NGda 42,5%, EGda 40,7%. Faqat 9,4% NGdagi va 9,3% EGdagi bolalarda yuqori darajada harakat tayyorgarligi qayd etilgan. Ushbu ma'lumotlar maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faolligi yetarli emasligini ko'rsatadi. Shuningdek, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bolalarning harakatlarini bajarish jarayonida yuzaga keladigan emotsiyalarni prognoz qilishda qiyinchiliklar kuzatildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyalanganlik darajasini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlariga muvofiq, yuqori darajadagi jismoniy tarbiyalanganlik NG bolalarining 11,9%ida va EG bolalarining 11,3%ida mavjud, yetarli darajada — NGda 26,3%,

EGda 25,4%, o'rtacha darajada — NGda 42,5%, EGda 43,3%, past darajada — NGda 19,3%, EGda 20,0% qayd etilgan.

Olingan ma'lumotlarning tahlili pedagoglar va ota-onalarning bolalar jismoniy tarbiyasining mohiyati va ahamiyati to'g'risida qisman xabardor ekanini, ota-onalarning maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi usullari, vositalarini yetarlicha egallaganini va maktabgacha ta'lim muassasasining oilalar bilan bolalarning jismoniy tarbiyalanganligini shakllantirishda yordam berish maqsadida o'zaro hamkorligining yetarli emasligini ko'rsatdi. Shu sababli, dastlabki bosqich natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasini tashkil qilishda maqsadli yondashuv zarurligini va ushbu jarayon samaradorligini oshiradigan pedagogik sharoitlarni ishlab chiqish zaruratini tasdiqladi.

O'tkazilgan eksperimental ish natijasida EG va NG bolalarining harakat tayyorgarligi o'rtasidagi farq sezilarli darajada oshdi: EGdagi bolalarning ko'pchiligi (80%) o'rtacha, o'rtacha yuqori va yuqori darajadagi harakat tayyorgarligiga ega bo'ldi, eksperiment oxirida NGdagi bolalar orasida esa bunday darajadagi bolalar 60% edi.

EGdagi bolalarning harakat tayyorgarligi ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'zgardi (yaxshilandi), xususan: tirsaklarni bukish va cho'zish mashqi (o'g'il bolalarda – o'rtacha 166,7%, $r < 0,001$, qiz bolalarda – 150%, $r < 0,001$) va o'tirgan holatda oldinga egilish mashqi (o'g'il bolalarda – o'rtacha 133%, $r < 0,001$, qiz bolalarda – 125%, $r < 0,001$). NG va EG bolalaridagi garmonik va disgaronik jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari orasidagi nisbiylik EGda disgaronik rivojlanishdagi bolalar sonining kamayishi tendensiyasini ko'rsatdi. EG bolalarida NGga nisbatan sovuq urish kasalliklariga organizmning yuqori qarshiligi qayd etilib, bu, bir tomondan, kuchliroq immun tizimini, ikkinchi tomondan, eksperimental ishning samaradorligini ko'rsatdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyalanganlik darajasini aniqlash bo'yicha nazorat tekshiruvi natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Jismoniy tarbiyaning shakllanish darajalari bo'yicha nazorat va eksperimental guruhlarining bo'linishi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyalanganlik darajalari	Nazorat guruhi (<n=52)				Eksperimental guruh (n=48)			
	Eksperiment boshida		Eksperiment oxirida		Eksperiment boshida		Eksperiment oxirida	
	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%
Yuqori	4	6,7	6	10,0	4	6,7	10	30,0
Yetarli	16	23,3	18	26,7	18	20,0	22	56,0
O'rta	20	39,8	20	43,3	14	46,6	12	10,0
Past	12	31,1	10	20,0	8	26,7	4	4,0

Keltirilgan jadval ma'lumotlari maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyalanganlik darajasini shakllantirishda yaqqol ijobiy o'zgarishlar dinamikasini ko'rsatdi.

Bolalar bog'chasi yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi tuzilganlik darajalari quyidagicha tavsiflanishi mumkin:

1. Yuqori daraja:

— Bolalar har xil harakatlarni o‘zini ishonchli va to‘g‘ri bajaradilar.

— Jismoniy tarbiya haqida keng bilimlarga ega, jismoniy mashqlar sog‘liq uchun ahamiyatini tushunadilar.

— Jismoniy madaniyat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan motivatsiya yuqori, tashabbuskorlik va qiziqishni namoyon etadilar.

— Doimiy ravishda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanadilar va yuqori harakatlilikka ega.

2. Yetarli daraja:

— Bolalar asosiy harakatlarni kichik xatolar bilan bajaradilar.

— Jismoniy tarbiyaning muhimligini umumiy tushunishga ega va jismoniy mashqlarning foydasini tushuntirishi mumkin.

— Jismoniy mashg‘ulotlarga motivatsiya mavjud, lekin har doim barqaror emas.

— Jismoniy faoliyatda ishtirok etadilar, lekin qo‘shimcha yordamga ehtiyoj sezishlari mumkin.

3. O‘rta daraja:

— Bolalar harakatlarni sezilarli xatolar bilan bajarib, yordam va maslahatga ehtiyoj sezadilar.

— Jismoniy tarbiyaning ahamiyati haqidagi bilimlari cheklangan.

— Jismoniy mashg‘ulotlarga motivatsiya barqaror emas, qiziqish tezda kamayadi.

— Jismoniy faoliyat doimiy bo‘lmaydi va tashqi omillarga bog‘liq.

4. Past daraja:

— Bolalar harakatlarni bajarishda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar.

— Jismoniy tarbiya va uning sog‘likka ta‘siri haqida bilim juda kam.

— Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishga motivatsiya mavjud emas yoki juda past.

— Jismoniy faoliyat darajasi minimal, harakatga bo‘lgan ehtiyoj juda past darajada ifodalanadi.

Ushbu darajalar pedagoglar va ota-onalarga bolalarning jismoniy tarbiyasi tuzilganligini baholash va uni takomillashtirish chora-tadbirlarini ko‘rish imkonini beradi.

Eksperimental ish natijasida EGda yuqori darajadagi jismoniy tarbiyalanganlikka ega bolalar soni 23,3% ga, yetarli darajadagi bolalar soni 36,7% ga oshdi. Shuningdek, o‘rtacha darajadagi jismoniy tarbiyalanganlikka ega bolalar sonining 36,6% ga va past darajadagi bolalar sonining 23,4% ga kamayishi ijobiy natija hisoblanadi. NGda an‘anaviy dastur asosida olib borilgan ish natijasida ham jismoniy tarbiyalanganlikning shakllanishida ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi, biroq bu o‘zgarishlar sezilarli darajada bo‘lmagan.

Masalan, yuqori darajadagi jismoniy tarbiyalanganlikka ega bolalar soni 3,3% ga, yetarli darajadagi bolalar soni 3,4% ga va o‘rtacha darajadagi bolalar soni 3,3% ga oshdi. Past darajadagi jismoniy tarbiyalanganlikka ega bolalar soni 10% ga kamaydi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari qo‘yilgan vazifalarning samarali yechim topganligini ko‘rsatdi va quyidagi xulosalarni chiqarishga asos yaratdi:

1. Bolalarni jismoniy tarbiyalash muammosini o‘rganish dolzarbligi va maqsadga muvofiqligi sog‘lom millatga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojning oshishi, harakat sifatlarini rivojlantirish va harakat tayyorgarligini oshirish zaruratini fuqarolar tomonidan anglash, jismoniy mashqlarga qat‘iy motivlarni shakllantirish va mustaqil jismoniy mashqlarni amalga oshirish ehtiyoji bilan izohlanadi. Maktabga kirishdan oldingi davr ko‘plab shaxsiy

yangilanishlarning, shu jumladan jismoniy mashqlarga qiziqish, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga moyillik shakllanishining sezgir davri sifatida tan olingan. Bu yosh davri uchun asos bolaning harakat faoliyatiga bo'lgan tabiiy va elementar ehtiyojdir.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyalanganlik tarkibiy qismlari aniqlandi:

— Kognitiv komponent: harakatli harakatlar texnikasi haqidagi bilimlarning to'planishi va tizimlashtirilishi, harakatlar va faoliyat sifatlarini rivojlantirish uchun jismoniy mashqlarni tanlashni asoslash qobiliyati, jismoniy tarbiyaning sog'liqni saqlash va mustahkamlashdagi ahamiyatini tushunish, jismoniy mashqlarni bajarishga motivlarning shakllanishi va harakat ko'nikmalariga ega bo'lishning ahamiyatini anglash, mashg'ulotlardagi harakat tayyorgarligi va umumiy holatni baholash qobiliyati.

— Faoliyat komponenti: jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida faoliyat va barqarorlik, kundalik hayotda jismoniy mashqlar bajarish odatining mavjudligi va bolalarning harakat tayyorgarligi darajasi.

3. Eksperimental ishning natijadorligi va samaradorligi maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyalanganligi shakllanganligi ko'rsatkichlarining dinamikasi bilan tasdiqlandi. Bu EGda yuqori darajadagi jismoniy tarbiyalanganlikka ega bolalar sonining 23,3% ga (NGda — 3,3%) oshishi, yetarli darajadagilarning 36,7% ga (NGda — 3,4%) oshishi, o'rtacha darajadagi bolalar sonining 36,6% ga kamayishi (NGda — 3,3% ga oshishi) va past darajadagi bolalar sonining 23,4% ga kamayishi (NGda — 10% ga kamayishi) orqali namoyon bo'ldi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Turdimurodov, D. Y. (2021). Preschool period: pedagogical aspect of education of will in a child. *Current research journal of pedagogics*, 2(09), 47-51.
2. Абрамов Э.Н. Об альтернативных контрольно - оценочных системах / Э.Н. Абрамов // *Физическая культура в школе*. - 2010. - №5. - С. 7 - 9.
3. Амонашвили Ш.А. *Здравствуйте, дети* / Ш.А. Амонашвили. - М., 1983.
4. Ананьев Б. Г. *Задачи и особенности учебно-воспитательной работы в 1 классе* / Б.Г. Ананьев // *Первоначальное обучение и воспитание детей*. - 1958. - №1. - С. 7-30.
5. Божович Л. И. *Личность и ее формирование в детском возрасте* / Л.И. Божович. - М.: Просвещение, 1968. - 166 с.
6. Венгер А.Л. *Психологическое обследование младших школьников*/ А.Л. Венгер, Г.А. Цукерман. - М. : Владос, 2001. - 160 с.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

PHYSIOLOGY OF FATIGUE AND RECOVERY PERIODS FROM PHYSICAL EXERCISE

Ernazarov Golib Ne'matovich,

Chair of adaptive physical culture and sport theory of Ferghana branch
of Uzbekistan State University of Physical culture and sports
doctor of philosophy in pedagogy (PhD), lecturer
E-mail: golibjonematovich@gmail.com

Abstract. This article examines the physiological basis of fatigue and recovery after physical exertion. It describes the changes occurring in the muscles and various systems of the body during physical activity, the process of fatigue, and the physiological mechanisms of recovery. Understanding and managing these processes are crucial for improving the efficiency of physical training in athletes.

Keywords: physical exertion, fatigue, recovery, physiology, athlete, muscles, energy expenditure, ATP, lactate, recovery mechanisms.

JISMONIY YUKLAMADAN CHARCHASH VA QAYTARILISH DAVRLARINING FIZIOLOGIYASI

Ernazarov G'olibjon Ne'matovich,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Farg'ona filiali Adaptiv jismoniy tarbiya va sport nazariya kafedrası
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy yuklamadan charchash va qayta tiklanish davrlarining fiziologik asoslari o'rganilgan. Jismoniy faoliyat paytida mushaklar va organizmning turli tizimlarida yuzaga keladigan o'zgarishlar, charchash jarayoni, hamda uning tiklanish jarayonidagi fiziologik mexanizmlari haqida so'z boradi. Sportchilar uchun bu jarayonlarni tushunish va ularni nazorat qilish jismoniy faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: jismoniy yuklama, charchash, qayta tiklanish, fiziologiya, sportchi, mushaklar, energiya sarfi, ATF, laktat, tiklanish mexanizmlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N89>

Kirish. Jismoniy faoliyat organizm uchun muhim bo'lib, u nafaqat umumiy salomatlikni saqlash, balki sport natijalarini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. Biroq, har qanday yuklama organizmda charchash holatiga olib keladi, bu esa, faoliyat samaradorligini pasaytiradi. Sportchilar va jismoniy faol odamlar uchun organizmning charchashidan keyin tiklanish jarayonining to'g'ri boshqarilishi muhimdir. Ushbu maqolada charchash jarayoni va uning qayta tiklanish fiziologiyasi ko'rib chiqiladi. Davomli jismoniy faoliyat ma'lum vaqt davom etganidan keyin alohida fiziologik holatga, ya'ni charchashga olib keladi. Bunda

organizmning ish qobiliyati keskin pasayib, tegishli dam olishdan keyin yana qayta tiklanadi. Charchash muhim biologik jarayon hisoblanib, u faol holatdir, ya'ni charchash oqibatida ro'y beradigan murakkab fiziologik va biokimyoviy o'zgarishlar natijada ish qobiliyatining ko'tarilib borishiga olib keladi. Masalan, mashq qilib charchash va yaxshi dam olish tufayli kishining mehnat qilish qobiliyati o'sibboradi, kuchayadi. Bajariladigan jismoniy harakatlar xilma-xil bo'lganligi sababli charchash va uning kelib chiqish sabablari ham turlichadir. Masalan, og'ir atletikachi bilan futbol o'yinchisida yuzaga keladigan charchash fiziologik va biokimyoviy nuqtai nazardan bir-biridan farq qiladi[1;225-b].

Charchash jarayonining mexanizmlari bilan yaqindan tanishish uchun ergografda oddiy charchashni sinab ko'rish kerak. Bunda ish bajarilishi davomida barmoq kuchi pasayib, qisqarish amplitudasi hamda qisqarish soni kamayib boradi. Bu muskul faoliyatida (alohida olingan muskul guruhlarida yuzaga keladigan charchashda) charchash nerv markazlarida, nerv-muskul sinapslarida va muskulning o'zida yuzaga kelgan o'zgarishlar tufayli sodir bo'ladi.

Charchashning paydo bo'lishida muskullarning qon bilan ta'minlanishi muhim o'rin tutadi. Statik ish bajarilishida muskullarning doim bir xil holatda qisqarib turishi tufayli ularning qon bilan yomon ta'minlanishi tez charchashni yuzaga keltiradi (masalan, og'irlik ko'tarish). Uzoq masofalarga yuguruvchilarda esa charchash nerv tizimidagi markazlar bilan harakat a'zolari orasidagi boshqaruv koordinatsiyasining buzilishidan kelib chiqadi. Bunday charchash yurak qisqarishining kuchsizlanib qolishi, qisqarish sonining esa ko'payishi va natijada yurak ishi unumdorligining pasayishi bilan xarakterlanadi, oqibat natijada tananing kislorod bilan ta'minlanishi pasayib ketadi, qonda anaerob parchalanish mahsulotlari ko'payib, bu hol esa o'z navbatida umumiy charchashni chaqiradi. Tanadagi umumiy energetik zahiralarning kamayishi ham charchashga olib keladi, lekin charchash boshlanishi bilan butun zahira energiya tamom bo'ladi deb aytish noto'g'ri. Yana noqulay ob-havo sharoitlari (issiq, sovuq, yuqori bosim, yuqori namlik va boshqalar) ham charchashni tezlashtiradi. Maksimal quvvatli ish (20-30 sek.) bajarishda charchash ancha tez yuzaga keladi, buning asosiy sababi markaziy nerv tizimida qo'zg'alish vatormozlanish jarayonlarining juda qisqa vaqt ichida almashinib turishidir (antagonist muskullar faoliyatida). Yana shu narsa muhimki, bu xil ish bajarilishida nerv markazlariga ishchi a'zoldan — muskullardan qisqa vaqt ichida ko'p afferent impulslar boradi. Natijada nerv markazlarining ish qobiliyati pasayib ketadi, charchash paydo bo'ladi[2;345-b].

Submaksimal quvvatli ish bajarilganida ham shunday charchash yuzaga keladi va nerv markazlari faoliyatining pasayishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Bu xil ishda muskullarda anaerob parchalanish kuchayib, qonda sut kislotasi va boshqa qoldiq moddalar ko'payadi va bu holat o'z navbatida nerv markazlariga salbiy ta'sir etadi. Demak, submaksimal quvvatli ish bajarilishida charchash organizm ichki muhitining o'zgarishidan kelib chiqadi. Katta quvvatli ish bajarilganida charchash asosan kislorodga nisbatan qarzdorlik tufayli paydo bo'ladi. O'rtacha quvvatli ish bajarish natijasida yuzaga keladigan charchash tanada uglevodlar zahirasi kamayishi tufayli sodir bo'ladi. Chunki bunda ish uzoq vaqt soatlab davom etadi va qonda glyukoza kamayib ketadi[3;61-63-b].

Jismoniy faoliyat davomida ko'p terlash natijasida sportchi tanasida suv va tuz almashinuvining izdan chiqishi ham oxir oqibatda charchashga olib keladi. Sport gimnastikasi va kuch ishlatib bajariladigan ishlarda charchash muskullar kuchsizlanishidan hosil bo'ladi. Statik ish bajarish tufayli bo'ladigan charchash shu bilan xarakterlanadiki, bu vaqtda muskullar

davomli taranglashgan bo'lib, ulardan nerv markazlariga to'xtovsiz holda impulslar chiqib turadi. O'z navbatida nerv markazlaridan shu muskullarga ham impulslar tinmasdan izma-iz borib turadi. Bu hol nerv markazlari ish qobiliyatini induksiya qonuniga ko'ra tez orada pasaytirib yuboradi. Bundan tashqari, statik ish tufayli muskullarning taranglanishi ularga boradigan qonni keskin kamaytiradi, natijada to'qimalarga borishi ozayib ketib, charchash yuzaga keladi[4;59-67-b].

Charchash bir qator biokimyoviy o'zgarishlarga olib keladi, xususan, bu jarayon ancha og'ir bo'lganidan ko'pgina fermentlar faolligi pasayib (har xil dehidrogenazalar, sitroxromoksidazalar), gipoksiya va glikoliz kuchayadi, lipidlarning sarflanishi keskin pasayib ketadi. Natijada muskullarda ATF balansi buziladi. Muskullarda ATF-aza faolligi pasayadi, natijada ATF kimyoviy energiyasining muskul qisqarishida mexanik energiyaga transformatsiya qilinishi buziladi.

Charchashning kelib chiqishini tahlil qilishda bir nechta nazariyalar mavjudligini aytib o'tish lozim. Ulardan dastlabkisi zaharlanish nazariyasidir. Unga ko'ra muskullar hadeb qisqaraversa, o'zlaridan qonga maxsus zaharlovchi modda ishlab chiqaradi va shu bois ularning qisqarishi tobora kuchsizlanib boradi. Lekin bunday zaharlovchi moddani sof holda ajratib olishga erishilmaydi va shu bois bu nazariyadan voz kechildi.

Charchashning ikkinchi nazariyasi — bu quvvat beruvchi moddalarning tugashi nazariyasidir. Haqiqatan ham agar tanada quvvat beradigan moddalar kamayib tugasa, harakat to'xtaydi. Lekin hech bir organizmda u harakat qilishga yaramaydigan holda charchab qolsada, energiya beradigan moddalar butunlay tamom bo'lib qolmaydi, ancha-muncha zahira doim mavjud bo'ladi.

Qondagi glyukoza miqdori meyorga nisbatan yarimga kamayib ketsa, mehnat qilish qobiliyati yo'qoladi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, qonda glyukozaning bunday kamayishi nafaqat muskullar ishiga salbiy ta'sir qiladi, bu vaqtda nerv tizimi ham o'z ishini keskin o'zgartiradi (ko'ngil ayniydi, hushdan ketadi va hokazo). Ozroq shakar iste'mol qilish ushbu salbiy holatlarni yo'qotib, ish qobiliyatini tiklaydi. Shuning uchun ham uzoq masofalarga yugurishda distansiya davomida sportchilarga shirin ichimliklar ichish tavsiya qilinadi. Lekin 1-1,5 soat davom etadigan kuchli harakatlardan keyin kishi charchab qolsada, uning karbonsuvlar zahirasi bu vaqt oralig'ida aytarli kamaymaydi. Qonda glyukozaning keskin kamayib ketishi faqat juda uzoq masofalarga yugurish (bir necha soatlab) payti kuzatiladi xolos. Demak, bu nazariya ham charchashning asl sababini tushuntira olmaydi[5;148-155-b].

Uchinchi nazariya bu ifloslanish nazariyasi. Unta ko'ra jismoniy harakat bajarilishi tufayli muskullardan kimyoviy parchalanish mahsuloti sifatida qonga ko'p miqdorda sut kislotasi chiqariladi. Shuni ham aytish kerakki, sut kislotasining qonga ko'p chiqarilishi faqat maksimal, submaksimal va katta intensivlikdagi ishlarda kuzatiladi, o'rtacha quvvatli ishlarda esa bunday holat kuzatilmaydi, lekin odam charchab qoladi. Bu holatni ushbu nazariya bilan tushuntirib bo'lmaydi.

To'rtinchi nazariyaga ko'ra charchashning yuzaga kelishidagi asosiy sababchi nerv markazlari faoliyatining pasayib ketishidir. Bu I.M.Sechenov (faol dam olish), N.Ye.Vvedenskiy (labillik yoki funksional harakatchanlik) va L.A.Orbeli, A.G.Ginesenskiy (simpatik nerv tizimining qitiqlanishi) hamda I.P.

Pavlov (himoyalovchi tormozlanish) tekshirishlarida to'liq isbotlandi. I.M.Sechenov oddiy tajribaga (ergografda o'ng va chap qo'l bilan ishlash) asoslanib, charchash nerv

markazlari ish qobiliyatining davomli suratda birxil qitiqlanishi ta'sirida qo'zg'aluvchanlikning pasayishi tufayli yuzaga kelishini isbotladi. Agar aynan shu harakatni boshqaradigan nerv markazi boshqa biron faoliyat bilan vaqtincha band bo'lsa, yana qaytadan ish qobiliyatining tiklanishi, ba'zan esa oldingisiga nisbatan ham yaxshiroq natija olinishini kuzatish mumkin. Buni o'ng qo'l bilan charchab qolguncha ishlab, keyin chap qo'lni ishlatib, yana o'ng qo'l ishga tushirilsa, natija oldingisidan ham yaxshi bo'lishida ko'ramiz [6;1-8-b].

I.M.Sechenovning bu g'oyasi jismoniy mehnat qilish dam olishning eng yaxshi usuli (faol dam olish) ekanligiga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Yosh bolaning kun bo'yi yugurib kelib charchamasligini ham u bir xil ishni uzoq vaqt bajarib qolmasdan uni tez-tez almashtirib turishida deb tushunsa bo'ladi. N.Ye.Vvedenskiy ta'limoticha, charchash to'qimalar, hujayralarning labilligiga bog'liq, masalan, muskul labilligi nerv tolasinikidan past, shuning uchun muskul nervga qaraganda tez charchaydi, nerv markazining labilligi nerv tolasinikidan past, shuning uchun nerv markazi nerv tolasiga qaraganda tez charchaydi va hokazo.

Jismoniy yuklamadan charchash fiziologiyasi: Charchash – bu organizmning uzoq muddatli yoki jadal jismoniy yuklamadan so'ng normal faoliyatni davom ettirish qobiliyatini yo'qotishi bilan xarakterlanadi. Charchashning asosiy sabablari:

1. Energiya resurslarining tugashi: Jismoniy faoliyat davomida adenozintrifosfat (ATF) zaxiralari tez sarflanadi. ATF – bu mushaklarning asosiy energiya manbai bo'lib, uning tugashi charchashga olib keladi.

2. Laktat miqdorining oshishi: Jadal jismoniy yuklama paytida organizmda kislorod yetishmasligi sababli mushaklarda anaerobik rejimda energiya ishlab chiqarish jarayoni kuchayadi. Bu jarayonda laktat miqdori ko'payadi, bu esa mushaklar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va charchashga olib keladi.

3. Mushak tolalaridagi kalsiy miqdorining kamayishi: Mushaklarning qisqarish qobiliyati kalsiy ionlari bilan bog'liq bo'lib, uning yetkazilishi susaysa, charchash holati yuzaga keladi.

4. Nerv tizimidagi charchash: Uzoq vaqtli jismoniy faoliyat natijasida markaziy nerv tizimi ham charchaydi, bu esa harakatlarni nazorat qilishda qiyinchiliklar paydo bo'lishiga olib keladi.

Qayta tiklanish fiziologiyasi: Charchashdan keyin organizm o'z holatiga qaytishi uchun ma'lum vaqt talab qilinadi. Tiklanish davrida asosiy fiziologik jarayonlar:

1. Energiya zaxiralarning tiklanishi: Jismoniy faoliyatdan so'ng ATF va glikogen zaxiralari qayta to'ldiriladi. Bu jarayon birinchi navbatda uglevodlar va yog'lar bilan oziqlanishga bog'liq.

2. Kislorod miqdorining tiklanishi: Jismoniy yuklamadan so'ng kislorodning to'liq yetkazilishi tiklanishi uchun organizm nafas olish tizimi faoliyatni jadallashtiradi. Bu jarayon "kislorod qarzi"ni qoplash deb ataladi.

3. Laktatni utilizatsiya qilish: Laktatning qayta parchalanishi va uni energiya manba sifatida ishlatish organizmning tiklanish jarayonidagi muhim bosqichlardan biridir.

4. Nerv tizimining tiklanishi: Dam olish va uyqu nerv tizimini tiklanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uyqu davomida miyadagi qayta tiklanish jarayonlari amalga oshadi.

Charchash va qayta tiklanishning sport natijalariga ta'siri: Sportchilar uchun charchash va qayta tiklanish jarayonlarini to'g'ri boshqarish muhimdir. Bu, xususan, ularning mashg'ulot va musobaqalardagi samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulotlar davomida yuzaga

keladigan charchashning to'g'ri boshqarilishi tiklanish jarayonlarini yaxshilashga yordam beradi va shu bilan sportchilarning natijalari oshishiga xizmat qiladi. Tiklanish jarayonlari uchun to'g'ri oziqlanish va dam olish tartibi, massaj, fizioterapiya va boshqa vositalar muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Jismoniy yuklamadan charchash va qayta tiklanish fiziologik jarayonlar organizmning samarali faoliyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sportchilar uchun charchashni nazorat qilish va tiklanish jarayonlarini to'g'ri boshqarish sport natijalarini yaxshilashga yordam beradi. Ushbu jarayonlarning to'g'ri nazorat qilinishi nafaqat jismoniy faoliyat samaradorligini oshiradi, balki jarohatlar xavfini ham kamaytiradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Базаров, А.И. Спортчи физиологияси. Москва: Олимпия, 2018.225-b.
2. Бекетов, В.Н. Жисмоний фаолият физиологияси. Санкт-Петербург: Спорт, 2020. 345-b.
3. Эрнazarov, Г. Н. (2020). Исследование изменений ростово-массовых показателей студентов педагогического ВУЗа. Достижения науки и образования, (12 (66)), 61-63.
4. Gafurov, A. U., & Ernazarov, G. N. (2023). IMPROVING THE KNOWLEDGE OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS IN SPORTS TOURISM. Oriental Journal of Social Sciences, 3(03), 59-67.
5. Эрнazarov, Ф. Н. (2024). ТАЛАБАЛАРИНИНГ ЧИДАМКОРЛИК ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. ХАЛҚАРО КОНФЕРЕНСИЯ ВА ЖУРНАЛЛАРНИ СИФАТЛИ ИНДЕКЛАШ ХИЗМАТИ, 1(1), 148-155.
6. Ernazarov, G. N. (2022). VARIOUS ECOLOGICAL IN THE CIRCUMSTANCES LIVING SCHOOL OF ARCHERS PHYSICAL ABILITY TO WORK AND HEMODYNAMIC PARAMETERS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11(12), 1-8.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

MAIN CHARACTERISTICS OF THE PEDAGOGICAL PROCESS FOR FORMING RESEARCH THINKING SKILLS IN CHILDREN

Khudaykulova Dilbarkhan Zokirovna,
Teacher of Namangan State Pedagogical Institute

Erkinova Dilshoda Sherali kizi,
Student of Namangan State Pedagogical Institute

Abstract. This article analyzes the main features of the pedagogical process of involving children in research activities. In preschool education, the role of research activities for children is important, and it serves to develop their independent thinking, problem solving and new knowledge acquisition skills. Research activity helps children to form analytical and creative thinking, freely express their thoughts and expand their knowledge through experience. The article examines methodological approaches, interactive methods and the role of the educator in successfully teaching children research activities in the organization of the pedagogical process. Special attention is paid to the role of the pedagogue in the development of research activities, teaching children to solve problems and stimulating their logical thinking.

Keywords: research activity, preschool education, pedagogical process, independent thinking, analytical thinking, creative activity, logical thinking, interactive methods, child development, pedagogical approaches.

BOLALARDA TADQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLANTIRISHGA QARATILGAN PEDAGOGIK JARAYONNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Xudaykulova Dilbarxon Zokirovna,
Namangan davlat pedagogika instituti kata o'qituvchisi

Erkinova Dilshoda Sherali qizi
Namangan davlat pedagogika institute talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarni tadqiqiy faoliyatga jalb qilishning pedagogik jarayonidagi asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'limda bolalar uchun tadqiqiy faoliyatning o'rni katta bo'lib, ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va yangi bilimlarni o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqiy faoliyat bolalarda analitik va ijodiy fikrlashni shakllantirish, o'z fikrlarini erkin ifoda etish va tajriba orqali o'z bilimlarini kengaytirishga yordam beradi. Maqolada pedagogik jarayonni tashkil etishda bolalarga tadqiqiy faoliyatni muvaffaqiyatli o'rgatishning metodologik yondashuvlar, interaktiv usullar va tarbiyachining roli ko'rib chiqiladi. Tadqiqiy faoliyatni rivojlantirishda pedagogning o'rni, bolalarga muammolarni hal qilishni o'rgatish va ularning mantiqiy fikrlashlarini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: tadqiqiy faoliyat, maktabgacha ta'lim, pedagogik jarayon, mustaqil fikrlash, analitik fikrlash, ijodiy faoliyat, mantiqiy fikrlash, interaktiv metodlar, bolalar rivoji, pedagogik yondashuvlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N90>

Kirish. Kichik yoshdagi bolalar dunyoni o'rganish, yangi bilimlar olish, o'zini ifoda etish va atrof-muhitni tushunish istagida doimiy ravishda faoliyat ko'rsatadilar. Maktabgacha

ta'limda bolalarni tadqiqiy faoliyatga jalb qilish, ularning mustaqil fikrlash, analitik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, dunyoqarashini kengaytirish jarayonida juda muhim rol o'ynaydi. Bolalarni tadqiqiy faoliyatga yo'naltirish, ularning ilmiy izlanishlarga qiziqishini uyg'otish va bilim olishning mustaqil yo'llarini ko'rsatish, ularda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Tadqiqiy faoliyat – bu bolalar tomonidan amalga oshiriladigan, yangi bilimlarni o'zlashtirish, o'zgarishlarni kuzatish va muammolarni hal qilish jarayonidir. Maktabgacha ta'limda tadqiqiy faoliyat bolalarning o'z fikrlarini erkin ifoda etishiga, o'zlarini mustaqil ravishda o'rganishga, savollar berishga va o'zlarining kuzatuvlarini tahlil qilishga imkon yaratadi. Pedagogik jarayonni tashkil etishda bolalar tadqiqiy faoliyatga jalb qilinishi, ularning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishi, yangi bilimlarni tajriba asosida o'rganishi va o'zlarining fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga erishish muhimdir.

Adabiyotlar tahlil va metodologiya. Bolalarni tadqiqiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning asosiy xususiyatlarini o'rganishda, turli ilmiy manbalar va tadqiqotlarga murojaat qilish muhimdir. Bolalar ta'limi va tarbiyasidagi tadqiqiy faoliyat, mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatning rivojlanishiga bag'ishlangan ko'plab ishlar mavjud. Tadqiqotlar bolalar yoshiga mos holda tadqiqiy faoliyatni qo'llash, uning samaradorligini oshirish va bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish borasida keng qamrovli tahlilni amalga oshiradi. Vygotskiy L. S. (1978) o'zining “Pedagogik psixologiya” asarida bolalar faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan konseptlarni taqdim etadi. Uning ta'kidlashicha, tadqiqiy faoliyat bolaning ongini shakllantiruvchi asosiy jarayonlardan biridir. Tadqiqiy faoliyatning rivojlanish jarayoni bolalarning o'zgaruvchan dunyoqarashi va mustaqil fikrlashlarini shakllantiradi.[1,72]

Piaget J. (1970) o'zining kognitiv rivojlanish nazariyasida bolalarning dunyoqarashining shakllanishida tajriba va o'rganishning muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Piagetning fikriga ko'ra, bolalar tadqiqiy faoliyatni amalga oshirishda o'z tajribalaridan foydalangan holda yangi bilimlarni o'zlashtiradilar. Bu jarayon muayyan bosqichlarga bo'lingan bo'lib, har bir bosqichda bolalar o'z bilimlarini kengaytirib boradi.[2,3]

Dewey J. (1938) pedagogik yondashuvni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan mutaxassis. Dewey bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda tadqiqiy faoliyatning ahamiyatini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, tadqiqiy faoliyat bolalarni aniq savollarni berish, mulohaza qilish, tahlil qilish va xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

Gardner H.(1993) “Ko'p intellektual nazariya”da bolalar o'z faoliyatida ko'plab intellektual qobiliyatlarni rivojlantiradilar. Tadqiqiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida bolalar o'ziga xos ko'nikmalarini shakllantiradi va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Biz tadqiq etayotgan mavzu yuzasidan O'zbek olimlari ham salmoqli ijod qilishgan. Maktabgacha ta'limda bolalarni tadqiqiy faoliyatga jalb qilish, ularning mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyatlar va tanqidiy fikrni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. O'zbek olimlari ham bu sohada katta ilmiy ishlar olib borgan va bolalar ta'limi, xususan, tadqiqiy faoliyatni rivojlantirish borasida ko'plab yondashuvlarni ishlab chiqqan. Quyida O'zbekistonlik mashhur pedagog, psixolog va ta'limshunoslarning bu mavzudagi asosiy tadqiqotlari va yondashuvlarini ko'rib chiqamiz.

Abdurahmonov A. (2001) o'zining “Pedagogik faoliyat va bolalar psixologiyasi” asarida bolalarning tadqiqiy faoliyatini rivojlantirishda muhim psixologik asoslarni tahlil qiladi. U,

xususan, bolalar faoliyatining kognitiv rivojlanish jarayonini, shuningdek, mustaqil fikrlashni rag'batlantiruvchi pedagogik usullarni ko'rsatadi. Tadqiqotda bolalarning yoshiga mos holda ilmiy izlanishlarni o'rgatish va bu jarayonda pedagogning roli alohida ta'kidlangan. Abdurahmonovning ishida bolalarni tadqiqiy faoliyatga jalb qilishda faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy tajribalarni ham e'tiborga olish zarurligi ko'rsatiladi.

Jalilov T. (2004) "Bolalarni tadqiqiy faoliyatga jalb qilish usullari" mavzusida olib borgan tadqiqotida bolalar ta'limida amaliy va nazariy metodlarni o'rganish muhimligini ta'kidlaydi. U pedagogik jarayonni bolalarga taqdim etishda interaktiv yondashuvlar va o'quv jarayonining barcha qatlamlarini birlashtirish kerakligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda pedagogning bolalarni ilmiy izlanishlarga jalb qilishda samarali metodlar va usullarni tanlashda e'tibor qaratilgan. Jalilovning ishlari bolalar o'rtasida mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatni rivojlantirishda interaktiv metodlarning samaradorligini ko'rsatadi.

Yoqubov O. (2010) o'zining "Bolalar psixologiyasi va ta'limda tadqiqiy faoliyat" asarida bolalarning psixologik rivojlanishini va tadqiqiy faoliyatga jalb etilishining ilmiy asoslarini muhokama qiladi. U, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarga ilmiy izlanishlarni o'rgatishda ularga kognitiv va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Tadqiqotda bolalarning faoliyatini tashkil etish, o'z fikrlarini erkin ifoda etish, o'zgarishlarni kuzatish va tajriba o'tkazish metodlari yoritilgan. Yoqubovning ishida bolalarni ilmiy faoliyatga jalb qilishda tarbiyachining pedagogik mahorati va metodik bilimlari alohida ahamiyatga ega ekani ko'rsatilgan.

Mahmudov N. (2015) "Innovatsion pedagogik texnologiyalar va bolalar ta'limi" mavzusida olib borgan tadqiqotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bolalar ta'limidagi o'rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Uning asarlarida bolalarni tadqiqiy faoliyatga jalb qilishda informatika va axborot texnologiyalaridan qanday foydalanish mumkinligi, interaktiv ta'lim texnologiyalarini qo'llashning samaradorligi alohida ko'rsatilgan. Mahmudov, shuningdek, bolalarni ilmiy izlanishlarga va tadqiqot faoliyatiga jalb qilishda multimedia texnologiyalari, onlayn resurslar va virtual laboratoriyalardan foydalanishni ta'kidlagan.

Ibragimov X. (2012) o'zining "Bolalar rivoji va tadqiqiy faoliyat" asarida bolalarni tadqiqiy faoliyatga jalb qilish jarayonini psixologik va pedagogik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Ibragimovning fikriga ko'ra, tadqiqiy faoliyat bolalarning faqat ilmiy bilimlarini o'zlashtirishda emas, balki ularning shaxs sifatida rivojlanishida ham katta rol o'ynaydi. Uning ilmiy ishlari bolalar o'rtasida mustaqil fikrlash, savollar berish va ularni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bolalarni tadqiqiy faoliyatga jalb qilishda turli metodologik yondashuvlar va pedagogik usullarni ishlab chiqishga katta hissa qo'shgan. Ulardan jalb etilgan yondashuvlar bolalarning mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyatni rivojlantirish va ilmiy izlanishlarga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqiy faoliyatning bolalar rivoji uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi, pedagogning roli va zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida amalga oshirilishi kerakligi haqida ko'plab foydali ilmiy izlanishlar mavjud.

Maqolada bolalarni tadqiqiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonni tahlil qilishda metodologik yondashuvlar va metodlar quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- Tadqiqiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha amaliy tadqiqotlar o'tkazish, bolalarning faoliyatini va ularning natijalarini tahlil qilishda asosiy metod hisoblanadi. Bu metod

orqali bolalar tomonidan o'rganilgan bilimlar va amalga oshirilgan tajribalar sinovdan o'tkaziladi. Tadqiqiy faoliyatni tashkil etishda bola bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot va amaliy tajriba o'tkazish zarur.

- Bolalarni tadqiqiy faoliyatga jalb qilishda eksperimental metodni qo'llash muhimdir. Tadqiqotlar bolalarning muayyan pedagogik usullar asosida o'zgarishini o'rganishga yordam beradi. Eksperiment yordamida bolalarning fikrlaridagi o'zgarishlar, o'zgarishlarni qo'llash jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va metodlarning samaradorligi tahlil qilinadi.
- Pedagogik monitoring orqali bolalarning tadqiqiy faoliyatiga doir natijalar doimiy ravishda kuzatiladi. Monitoring bolalarning mustaqil fikrlash va tadqiqiy faoliyatini rivojlantirishdagi muvaffaqiyatlarini baholashda yordam beradi. Bu metod orqali bolalarning ilmiy izlanishlar jarayonida yuzaga keladigan muammolar va to'siqlarni aniqlash mumkin.
- Tadqiqiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha turli pedagogik usullarni solishtirish orqali samarali metodlarni tanlash mumkin. Bu metod bolalar tomonidan o'rganilgan bilimlarni turli pedagogik yondashuvlar bilan taqqoslashga imkon beradi. Shuningdek, bu metod yordamida bolalarning tadqiqiy faoliyatda qaysi metodni afzal ko'rishini tahlil qilinadi.
- Interaktiv metodlar bolalar faoliyatini rag'batlantiradi va ularga bilimlarni o'zlashtirishda faol ishtirok etishga imkon beradi. Interaktiv metodlar yordamida bolalar o'zaro muloqot qilish, savollar berish va javob olish orqali tadqiqiy faoliyatga jalb etiladi.
- Bolalarning tadqiqiy faoliyatini rivojlantirishda yozma ishlar va tahlil qilish metodidan foydalanish mumkin. Yozma ishlar bolalar o'z fikrlarini ifoda etish va kuzatgan hodisalarini tahlil qilish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Muhokama. Tadqiqiy faoliyat jarayonida bolalar o'zlarini mustaqil ravishda fikrlashga, savollar berishga va ularning javoblarini topishga o'rganishadi. Pedagogik jarayonning birinchi xususiyati shundaki, bolalarga mustaqil fikrlash imkoniyati yaratish zarur. Bu, o'z navbatida, ularning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Tarbiyachi bolalar uchun muammolarni ochib berib, ularni mustaqil ravishda hal qilishga undashi, ular bilan munozara o'tkazishi, savollar berish va ularga javob topishda yordam berishi kerak. Buning natijasida, bolalar o'z fikrlarini erkin ifoda etishadi, o'z qarorlarini mustaqil ravishda qabul qilishga o'rganishadi (buning uchun albatta rag'batlantirishi lozim) hamda muammolarni hal qilishda noan'anaviy va ijodiy yondashuvlarni qo'llashga malakasi shakllanadi.[3,45]

Tadqiqiy faoliyatni rivojlantirishda kuzatish va tadqiqot faoliyatiga jalb etish juda muhim. Bolalar tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatish, turli hodisalarni tahlil qilish, tajriba o'tkazish orqali o'z bilimlarini mustahkamlashadi. Tadqiqiy faoliyat jarayonida kuzatish va tajriba o'tkazish muhim o'rin tutadi. Pedagogik jarayonning ikkinchi asosiy xususiyati shundaki, pedagog bolalarni tabiatdagi o'zgarishlar, kundalik hayotdagi hodisalarni o'rganishga jalb qiladi. Bu orqali bolalar yangi bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rganadilar.

- Bolalar turli hodisalarni kuzatib, ularni tahlil qilishadi.
- Amaliy tajribalar o'tkazilib, natijalar chiqarmoqda ishtirok etishadi.
- Tajriba orqali o'z bilimlarini kengaytirishadi va mustahkamlashadi.

Tadqiqiy faoliyatni rivojlantirishda bolalarni muammolarni aniqlash va ularni hal qilishga undash muhimdir. Pedagogik jarayonning uchinchi asosiy xususiyati bolalarni turli vazifalar va masalalar orqali muammolarni hal qilishga o'rgatishdan iborat. Buning uchun, tarbiyachi bolalarga kundalik hayotdagi oddiy vazifalarni taqdim etib, ular o'zlarining fikrlarini kiritishlari va qarorlar qabul qilishda ishtirok etishlari mumkin. Buning natijasida, bolalar qaror qabul qilishda o'zini ko'rsata olishadi, muammolarni tahlil qilish, ular haqida fikr yuritish va hal qilishga o'rgatiladi va tajriba orqali o'z g'oyalarini ilgari surishadi, sinab ko'rishadi.

Pedagogning roli bolalarni tadqiqiy faoliyatga jalb qilishda katta ahamiyatga ega. Pedagog tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yordam beruvchi asosiy shaxsdir. Pedagogik jarayonning to'rtinchi xususiyati shundaki, pedagog bolalarning faoliyatini yo'naltiradi, ularni tashvishga soluvchi savollar bilan rag'batlantiradi, ularga turli metod va usullarni taklif qiladi. Shuningdek, pedagog bolalarga tanqidiy fikrni shakllantirishda yordam berishi kerak. U bolalarning izlanishlarini qo'llab-quvvatlaydi, savollarga to'g'ri javoblar topishga yordam beradi va o'z fikrini asoslashga o'rgatadi.

Pedagogning faol harakatlari natijasida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- Pedagog bolalarning tadqiqiy faoliyatini yo'naltiradi.
- Savollar orqali bolalar o'z fikrlarini bildirishi va sinovdan o'tkazishi mumkin.
- Pedagog bolalarga yangi bilimlarni o'rganishda yo'l-yo'riq ko'rsatadi va rag'batlantiradi.

Natijalar. Shuni alohida aytish zarurki, tadqiqiy faoliyatni jamoaviylik, kommunikativ faoliyatsiz tasavvur qilish qiyin. Tadqiqiy faoliyatni rivojlantirishda kommunikativ faoliyatning o'rni juda katta. Bolalar bir-biri bilan o'z fikrlarini almashish, guruhda ishlash, hamkorlikda muammolarni hal qilishni o'rganadilar. Pedagogik jarayonning beshinchi xususiyati – bolalarning birgalikda ishlash va fikr almashish orqali bilimlarini oshirishdir. Tadqiqiy faoliyat bolalarga o'z g'oyalarini baham ko'rish, boshqalar bilan fikr almashish va muloqot qilish imkoniyatini beradi. Buning natijasida bolada quyidagi ko'nikmalar shakllanadi:

- Bolalar o'z fikrlarini boshqalar bilan almashadilar.
- Guruhda ishlash va hamkorlik qilish ko'nikmalari rivojlanadi.
- Muloqot orqali bolalar o'z bilimlarini yanada chuqurlashtiradilar.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash tadqiqiy faoliyatni rivojlantirishda yana bir samarali vosita bo'lishi mumkin. Pedagogik jarayonning oltinchi xususiyati shundaki, bolalar uchun interaktiv ta'lim vositalari, onlayn resurslar, multimedialar va boshqa zamonaviy texnologiyalar yordamida o'rganish jarayonini jonlantirish mumkin. Bu usullar bolalarni ilmiy izlanishlarga jalb qilish, turli muammolarni hal qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida bolalar o'z bilimlarini kengaytirishadi, interaktiv va multimedia vositalari orqali bolalar o'z bilimlarini sinab ko'rishadi, onlayn resurslar va boshqa texnologiyalar yordamida o'rganish jarayoni samarali va qiziqarli bo'ladi.

Xulosa. Bolalarni tadqiqiy faoliyatga jalb qilish – bu nafaqat ularning bilimlarini kengaytirish, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik jarayonning asosiy xususiyatlari bolalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga undaydi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun pedagogning yuksak mahorati, innovatsion metodlarni qo'llash, hamkorlikda ishlash va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish juda muhimdir. Bolalar tadqiqiy faoliyatga jalb

etilganda, ular nafaqat o'rganishni, balki o'zlarini erkin ifoda etishni, mustaqil fikrlashni ham o'rganadilar.

Bolalarni tadqiqiy faoliyatga jalb qilish – bu ularning mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ilmiy izlanishlarga bo'lgan qiziqishini shakllantirishda muhim vositadir. Tadqiqiy faoliyat bolalar uchun yangi bilimlarni o'zlashtirish, atrof-muhitni tushunish va o'z tajribalarini sinab ko'rish imkoniyatini yaratadi. Maktabgacha ta'limda bolalarni tadqiqiy faoliyatga jalb qilish, ularda tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagoglar bolalar uchun tadqiqiy faoliyatni samarali tashkil etishda turli metodlar va pedagogik yondashuvlarni qo'llashlari zarur. Bu jarayonda bolalarni mustaqil o'rganish, savollar berish, kuzatish va xulosalar chiqarishga undovchi usullar asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek, interaktiv yondashuvlar, multimedia va zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida tadqiqiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash bolalarning qiziqishini oshiradi va bilim olishning samaradorligini oshiradi.

Tadqiqiy faoliyat orqali bolalar nafaqat bilimlarni o'zlashtiradilar, balki o'z shaxsiy rivojlanishlarini kuzatib, mustaqil fikr yuritish va amaliyotga asoslangan qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini egallashadi. Shu sababli, bolalarni tadqiqiy faoliyatga jalb qilish nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki ularning kelajakda ijodiy, analitik va mantiqiy fikrlovchi shaxslar sifatida rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Bundan tashqari, tadqiqiy faoliyat bolalar uchun o'rganish jarayonining qiziqarli va interaktiv bo'lishini ta'minlaydi, bu esa ularning dunyoqarashini kengaytiradi va o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Pedagoglarning yuksak kasbiy mahorati va to'g'ri yondashuv orqali bolalar tadqiqiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin, bu esa ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Vygotskiy L.S. To'plam Op. 6 jildda / Ed. A.M. Matyushkina. - M.: Pedagogika, 1982-1984 yillar. - T. 3. - B. 673.
2. Ikromovna TO. The development of creativity in the students of higher education institutions as an urgent pedagogical problem. In: E Conference Zone. 2022. pp. 301-303
3. Zhang LF, Watkins D. Cognitive development and student approaches to learning: An investigation of Perry's theory with Chinese and US university students. Higher Education. 2001;41(3):239-261. DOI: 10.1023/A:1004151226395
4. Zokirovna, X. D. (2021). A Modern Approach to the Organization of Art Activities for Preschool Children. International Journal of Culture and Modernity, 11, 331-336.
5. Худайкулова, Д. З. (2019). МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДЕТСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ. Экономика и социум, (11 (66)), 739-742.
6. Zokirovna, H. D. (2019). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE MANIFESTATION OF CREATIVE ABILITIES IN PRESCHOOLERS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
7. Khudoyqulova, D. (2022). THE BASIC PRINCIPLES OF THE FORMATION OF CREATIVE THINKING IN THE PROCESS OF PREPARING PRESCHOOL CHILDREN FOR SCHOOL. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(4), 736-742.
8. Xudaykulova, D. (2024). BOLALARNING MUSTAQIL BADIY FOALIYATLARIGA RAHBARLIK QILISH METODLARI. Farg'ona davlat universiteti, (3), 194-194.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

TECHNICAL TRAINING OF STUDENTS IN VOLLEYBALL CLASSES

Eshdavlatov Abdulla Boyburi ugli

Termez State Pedagogical Institute
Department of Physical Education, Teacher

Uralov Sardor Abdulla ugli,

Termez State Pedagogical Institute
Department of Physical Education, Teacher

Abstract. Volleyball is the main and integral part of physical education classes and optional activities of students, as well as physical education and health classes and sports games. It is difficult to form a physical education team without a volleyball section in physical education classes for students and youth. Properly organized volleyball training is considered a good method for the comprehensive physical development of students and helps to solve important educational problems. The purpose of the study was to improve the methodology of teaching students of the Termez State Pedagogical Institute in volleyball training. The study was conducted with students of the Termez State Pedagogical Institute during the study of the Volleyball module. In technical training classes, students mastered and improved the technique of playing volleyball. The level of technical training of students was studied in four test tasks, knowledge of the history and rules of volleyball was assessed. The effectiveness of this method is confirmed by the improvement of the technique for performing all parts of volleyball. This may be due to the successful acquisition of certain theoretical knowledge of volleyball by students.

Keywords: students, volleyball, volleyball technique, passing and receiving the ball, passing the ball, correct receiving of the ball, attacking hit.

TALABALARNING VOLEYBOL MASHG'ULOTLARIDA TEXNIK TAYYORGARLIGI

Eshdavlatov Abdullo Boybo'ri o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrası, O'qituvchi

Uralov Sardor Abdulla o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrası, O'qituvchi

Annotatsiya. Voleybol talabalarning jismoniy tarbiya darslari va fakultativ mashg'ulotlari, shuningdek, jismoniy sog'lomlashtirish tadbirlari va sport o'yinlari tarkibining asosiy va ajralmas qismidir. Talabalar va yoshlar uchun mo'ljallangan jismoniy tarbiya darslarida voleybol bo'limi bo'lmagan jismoniy tarbiya jamoasini topish qiyin. To'g'ri tashkil etilgan voleybol mashg'ulotlari talabalar uchun har tomonlama jismoniy rivojlanishning yaxshi usuli hisoblanib, muhim tarbiyaviy vazifalarni hal etishga yordam beradi. Tadqiqotning maqsadi Termiz davlat pedagogika instituti talabalarining voleybol mashg'ulotlaridagi texnik tayyorgarlik metodikasini takomillashtirish edi. Tadqiqot Termiz davlat pedagogika instituti talabalar bilan "Voleybol" modulini o'rganish jarayonida olib borildi. Talabalar voleybol o'yin texnikasini akademik jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'zlashtirdilar va takomillashtirdilar. Talabalarning to'rtta test mashqlarida texnik tayyorgarlik darajasi o'rganilib, voleybolning tarixi va qoidalari bo'yicha bilimlar baholandi. Ushbu metodikaning samaradorligi talabalarning voleybolning

barcha qismlarini bajarish texnikasini yaxshilash bilan tasdiqlandi. Bu esa talabalarning voleybol bo'yicha ma'lum nazariy bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: talabalar, voleybol, voleybol texnikasi, to'p uzatish va qabul qilish, to'p uzatish, to'pni pastdan qabul qilish, hujum zarbasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N91>

Kirish. Voleybol — qiziqarli va kuchli kurash muhitiga ega bo'lgan sport o'yini. Undan yoshlarning katta qismi shug'ullanadi va ko'pchilik sport cho'qqilarini zabt etishga intiladi. Ammo bunday o'yinda mahorat ko'rsatish uchun uzoq tayyorgarlik yo'lini bosib o'tish zarur. Bu tayyorgarlik maktab o'quvchisining voleybol bilan ilk tanishuvlaridan boshlanib, uning sportdan ketishi bilan tugaydi [3; 1080 b].

Voleybol talabalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va fakultativ mashg'ulotlar, shuningdek, jismoniy sog'lomlashtirish tadbirlari va sport o'yinlari tarkibining asosiy va ajralmas qismidir. Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi jamoalarda voleybol bo'limi bo'lmaganini topish qiyin. To'g'ri tashkil etilgan voleybol mashg'ulotlari talabalar uchun har tomonlama jismoniy rivojlanishning yaxshi usuli bo'lib, muhim tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga yordam beradi [5; 44b].

Adabiyotlar tahlili. Oxirgi o'n yillikda voleybolchilarni tayyorlash jarayonining tuzilishi va mazmunini o'rganish masalalari L. Volkov, L. Matveyev, M. Ozolin, V. Platonov tomonidan ko'rib chiqilgan. Ko'pgina yetakchi olimlar va jismoniy tarbiya mutaxassislari B. Shiyan, Yu. Kuramshin, V. Arefyev, G. Edinakka ko'ra, zamonaviy jismoniy tarbiya tizimida yangi harakat ko'nikma va malakalarni shakllantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sport o'yinlaridan, xususan voleyboldan foydalanishdir [1; 119 b., 2; 204 b., 3; 175 b.].

Zamonaviy talabalarning jismoniy tarbiya tizimida ta'limiy tarkibiy qism muhim o'rin egallamoqda, ya'ni tanlangan sport turining texnikasi, taktikasi va tarixi hamda qoidalar bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lish. Ta'limiy-reflektiv yo'nalishga ega bo'lgan, maxsus sport ta'limi o'z-o'zini nazorat qilish va bilimlarni o'z-o'zini baholash bilan uyg'unlashgan voleybol mashg'ulotlarini maktablarda o'tkazishga alohida e'tibor berilishi lozim [4; 1080 b., 5; 43 b.].

Tadqiqot maqsadi: litsey o'quvchilarining voleybol mashg'ulotlaridagi tayyorgarlik metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqot materiali va metodlari. Pedagogik tajriba Termiz davlat pedagogika instituti o'quv jarayonida, "Voleybol" moduli davomida o'tkazildi. Tadqiqotda birinchi kursning 21 nafar talabalarini (8 nafar qiz va 13 nafar yigit) ishtirok etdi.

Tadqiqotning birinchi bosqichi (2023-yil oktabr oyi boshida) muammoni o'rganishga bag'ishlangan adabiyot manbalarini o'rganish, maqsad va vazifalarni aniqlash hamda birinchi kurs talabalarini uchun voleybol o'yinining texnikasi va bilimlarini o'rgatish metodikasini ishlab chiqishga qaratildi.

Ikkinchi bosqich (2023-yil noyabr oyi boshidan 2024-yil mart oyi oxirigacha) talabalarning voleybol asoslari bo'yicha texnik va nazariy tayyorgarlik darajasini aniqlash va texnik tayyorgarlik metodikasini joriy qilish bilan bog'liq bo'ldi.

Uchinchi bosqich (2024-yil mart oyi oxiri) talabalarning voleybol elementlarini bajarish texnikasi va bilimlarining shakllanganlik darajasini aniqlashdan iborat edi.

Institut talabalarini voleybol o'yin texnikasini o'rganish va takomillashtirish jarayoni 2024-yilning yanvar-mart oylarida jismoniy tarbiya akademik mashg'ulotlarida amalga

oshirildi. Har bir mashg'ulotning davomiyligi 1 soat 20 daqiqa bo'lib, dastlabki ikkita mashg'ulot voleybol mashg'ulotlarida xavfsizlik texnikasi bo'yicha suhbat, talabalar bilimlarining dastlabki tekshiruvi va 4 ta test mashqlarini bajarishga bag'ishlandi: yuqoridan to'g'ri to'p uzatish, to'pni uzatish, to'pni pastdan qabul qilish, to'g'ri hujum zarbasi.

Keyingi mashg'ulotlar (3-dan boshlab) ma'lum bir tuzilma bo'yicha o'tkazildi, ya'ni: ikki qismdan iborat bo'lgan qizdirish mashqlari (harakatda va joyida bajariladigan mashqlar); asosiy qism, unda uzatmalarni, to'pni uzatish, pastdan qabul qilish, hujum zarbasini bajarish texnikasini o'rganish va mustahkamlash o'tkazildi; yakuniy qism esa sekin mashqlarni, shuningdek, talabalarining o'z-o'zini baholashi, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni qamrab olgan reflektiv suhbatni o'z ichiga oldi.

2023-yil noyabr oyi boshida talabalar quyidagi mashqlar bo'yicha texnik tayyorgarliklarini sinovdan o'tkazish amalga oshirildi: yuqoridan to'p uzatish, to'p uzatish, to'g'ri hujum zarbasi, to'pni pastdan qabul qilish. Bu ikki mashg'ulot davomida ushbu testlardan tashqari, voleybol asoslari bo'yicha bilim darajasini sinash uchun testlar ham o'tkazildi. Talabalarining voleybol bo'yicha nazariy bilimlarini baholash uchun maktab dasturidagi voleybol tarixi va qoidalari bo'yicha asosiy bilimlarni o'z ichiga olgan testlar qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. "Voleybol" moduli bo'yicha yuqori sinf o'quvchilarining texnik tayyorgarlik natijalarining taqqosiy bahosi 1-jadvalda keltirilgan.

Yuqoridan to'p uzatishda yigitlar yuqori natijalarga erishgan, qizlarda esa past natijalar kuzatilmagan. Ushbu mashqda o'rtacha va yetarli darajadagi ko'rsatkichlar qizlarda 37-63% va yigitlarda 15,5% ni tashkil etdi. Bu o'tgan davrlarda voleybol elementlarini o'rganishga yetarli e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. To'p uzatishda qizlar avvalgi testlarga nisbatan yaxshiroq natijalar ko'rsatib, yigitlarga qaraganda 1,5% yuqori darajada bo'lishdi. Ammo bu elementda qizlarning uchdan bir qismi va yigitlarning deyarli to'rtidan bir qismi past natijalar ko'rsatdi.

Hujum zarbasi bo'yicha yigitlar 18% yuqori natijaga ega bo'lib, qizlardan yaxshiroq bo'ldi. Ushbu mashqda qizlar va yigitlar deyarli bir xil darajada yetarli va o'rtacha ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. An'anaga ko'ra, bu institutda jismoniy tarbiya o'qituvchilari 1-kursdan boshlab ushbu murakkab elementning texnikasini o'rganish va nazorat qilishni amalga oshirib keladi.

1-jadval

2023-yil noyabr oyi oxirida 1- kurs talabalari texnik tayyorgarligining boshlang'ich bosqichdagi ko'rsatkichlari (%)

Sinov	Yuqoridan to'p uzatish		To'pni o'yinga kiritish		Hujum zarbasi		To'pni pastdan qabul qilish	
	Q(n=8)	O'(n=13)	Q(n=8)	O'(n=13)	Q(n=8)	O'(n=13)	Q(n=8)	O'(n=13)
Daraja								
Yuqori	-	61,5	25	23,5	12,5	30,5	12,5	38,5
Yetarlicha	37	15,5	37,5	15,5	25	30,5	50	38,5
O'rta	63	15,5	-	38,5	37,5	23	37,5	23
Past	-	7,5	37,5	23,5	25	15	-	-

Izoh: Q-qizlar; O'-o'g'illar.

To'pni pastdan qabul qilish mashqida qizlarning va yigitlarning yarmidan ko'pi yuqori va yetarli darajadagi ko'rsatkichlarni qayd etgan, past natijalar esa kuzatilmagan. Shuni ta'kidlash joizki, talabalarining aksariyati voleybol seksiyalarida qatnashgan yoki qatnashmoqda, bu esa ularning natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

Tadqiqot yakunlari tahlil qilinganda, to'p uzatish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar qizlarda 25% va yigitlarda 8,5% ga yaxshilangani aniqlandi (2-jadval).

Bu ma'lumotlar talabalarning texnik ko'nikmalari rivojlanishida to'g'ri tashkil etilgan trening va muntazam mashg'ulotlarning ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

2-jadval

2024-yil mart oyidagi 1- kurs talabalari texnik tayyorgarligining boshlang'ich bosqichdagi ko'rsatkichlari (%)

Sinov	Yuqoridan to'p uzatish		To'pni o'yinga kiritish		Hujum zarbasi		To'pni pastdan qabul qilish	
	Q(n=8)	O'(n=13)	Q(n=8)	O'(n=13)	Q(n=8)	O'(n=13)	Q(n=8)	O'(n=13)
Daraja	Q(n=8)	O'(n=13)	Q(n=8)	O'(n=13)	Q(n=8)	O'(n=13)	Q(n=8)	O'(n=13)
Yuqori	25	70	37,5	37	37,5	61,5	37,5	70
Yetarlicha	62,5	23	37,5	31,5	50	7,5	37,5	23
O'rta	12,5	7	12,5	31,5	12,5	30,5	25	37
Past	-	-	12,5	-	-	-	-	-

O'g'illar (13,5%) va qizlar (12,5%) orasida to'p uzatish mashqlarida yuqori darajada yaxshilanish kuzatildi. Talabalarning hujum zarbasi va to'pni pastdan qabul qilish ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'zgardi. Yuqori ko'rsatkichlar qizlar orasida chorak (25%) va yigitlar orasida uchdan bir (31% va 31,5%) ga oshdi. Qo'llangan metodikaning samaradorligi foydasiga shuni aytish mumkinki, past ko'rsatkichlar deyarli yo'q (faqat qizlar orasida to'p uzatish — 12,5% bundan mustasno). Talabalar orasida voleybolning texnik qismlarini mutlaq o'sish va o'sish sur'atlarini tadqiq qilish natijasida quyidagi natijalar olindi (3-jadval).

3-jadval

1-kurs talabalari texnik tayyorgarligi ko'rsatkichlarining mutlaq o'sish sur'atlari ko'rsatkichlari

Sinov turlari	Qizlar		O'g'illar	
	Mutlaq o'sish	O'sish sur'ati %	Mutlaq o'sish	O'sish sur'ati %
Yuqoridan to'p uzatish	2	5,9 (24,1)	8,8	13,6 (4,6)
To'pni o'yinga kiritish	9,1	35,5 (53,9)	11,2	30,8 (18,8)
Hujum zarbasi	6	19 (40,3)	0,9	1,5 (16,8)
To'pni pastdan qabul qilish	1,2	3,3 (11,9)	1,8	3,1 (1,3)

To'pni yuqoridan uzatish mashqi bo'yicha yigitlarda natijalar o'sish sur'ati 7,7% ga yuqori bo'ldi, ammo baholash ko'rsatkichlari bo'yicha u qizlarga qaraganda 19,5% pastroq edi. Buni qizlar orasida yuqori ijobiy baholar olish istagi ustunlik qilgani bilan tushuntirish mumkin.

Yuqoridan to'p uzatish ko'rsatkichlarining yaxshilanishi quyidagi mashqlar yordamida erishilgan deb taxmin qilish mumkin:

1. To'pni yuqoridan uzatishning tushuntiruvchi sharh bilan video namoyishi.
2. Talabalar qarama-qarshi ikkita qatorda 3-4 metr masofada turib, turli masofa, tezlik va balandlikda juftlikda yuqoridan uzatish mashqlarini bajaradilar. Hamkor uzatmani murakkablashtirish uchun to'pni biroz yon tomonga, oldinga yoki orqaga yo'naltirishi mumkin.

Bu harakat oldidan joylashish bilan uzatishni yaxshilashga yordam beradi. Talabalar setkaga nisbatan perpendikulyar yoki parallel turishlari mumkin.

3. Xuddi shu tarzda saf tortish. O'z-o'ziga uzatish va hamkorga uzatishni almashlab bajarish. Hamkorga uzatishni turli boshlang'ich holatlarda – yon tomonda yoki orqa tomonda turib bajarish mumkin.

4. Talabalar qarama-qarshi ikkita qatorda 8-10 metr masofada turadilar. Talabalardan biri to'pni yerga uradi, ikkinchisi to'p ostiga o'tib, to'p yerga urilib qaytgach, uni hamkorga uzatadi. Xuddi shu mashqni o'z-o'ziga uzatish va turli boshlang'ich holatlarda hamkorga uzatish bilan birlashtirib bajarish mumkin.

5. To'pni yuqoridan uzatishni turli o'yin vaziyatlarida bajarishning video parchalari namoyishi. Ushbu mashqlar davomida talabalar bilan diferensial va individual yondashuvlar qo'llanilib, xatolar batafsil tushuntirilib va tuzatilib borildi.

To'p uzatishda barcha talabalarning natijalar o'sish sur'ati uchdan birga yaxshilandi, ammo qizlarda baholash ko'rsatkichlarining o'sish sur'ati o'g'illarga nisbatan 35,1% yuqori bo'ldi.

Bizning fikrimizcha, quyidagi mashqlar bunga yordam berdi:

1. To'pni yuqoridan to'g'ri uzatishning tushuntiruvchi sharh bilan video namoyishi.

2. To'pni yuqoridan uzatishda yo'nalishni o'zgartirib zarba berish: maydonning o'ng va chap tomonlariga.

3. To'g'ri va aniq zarba berish uchun yuqoridan to'p uzatish: maydon zonalariga bo'lingan (marker yordamida belgilangan zonalar): uchta bo'ylama qismga (4-5, 6-3, 1-2 zonalar); har bir 6 zonaga; yon chiziqlar yaqiniga (2,0-0,5 m); yuz chizig'iga.

4. Maydon ichiga ko'proq to'p uzatish bo'yicha musobaqalar. Shuningdek, zarba aniqligi bo'yicha musobaqalar.

5. To'pni yuqoridan to'g'ri uzatishning turli o'yin vaziyatlarida bajarilishini aks ettiruvchi video parchalari namoyishi.

Ushbu mashqlar 1-kurs talabalari tomonidan to'p uzatish texnikasini tez o'zlashtirishga yordam berdi, aniq bajarilgan mashqlar esa texnikani sifatli o'rganishga zamin yaratdi.

Hujum zarbasini bajarishda o'sish sur'ati barcha parametrlarda qizlarda yuqori bo'ldi. Natijada, miqdoriy ko'rsatkichlar bo'yicha qizlarda o'sish sur'ati 17,5% ga, sifatli baholash ko'rsatkichlari bo'yicha esa 23,2% ga yuqori edi. Hujum zarbasini bajarishni yaxshilashga quyidagi mashqlar yordam berdi:

1. Hujum zarbasining tushuntiruvchi sharh bilan video namoyishi.

2. To'pga ko'p marta zarba berish. Talabalar devordan 4-5 m masofada turib, to'pni o'z ustidan tashlab, to'g'ri qo'l kafti bilan devordan 1-1,5 m uzoqlikda yerga zarba berishdi.

3. Hamkor tomonidan tashlangan to'pga turib turgan holatda sakrab zarba berish.

4. Hamkor tomonidan tashlangan to'pga tarmoq orqali hujum zarbasi berish. Hujum zarbasi turib turgan holatda sakrab bajarildi.

5. To'pni o'ziga tashlab tarmoq orqali zarba berish.

6. Hujum zarbasini turli o'yin vaziyatlarida bajarishni aks ettiruvchi video parchalari namoyishi.

Ushbu mashqlar (2-5) va hozirgi vaqtda talabalar tomonidan kolonnalarda turib bajarilgan mashqlar elementni to'g'ri bajarishga olib keldi.

To'pni pastdan qabul qilishda miqdoriy natijalarning o'sish sur'ati teng bo'lsa-da, sifatli baholash ko'rsatkichlari bo'yicha qizlarda 10,6% ga yuqori bo'ldi. To'pni pastdan qabul qilish texnikasini yaxshilashga quyidagi mashqlar yordam berdi:

1. To'pni pastdan qabul qilishning tushuntiruvchi sharh bilan video namoyishi.
2. To'pni pastdan qabul qilishni devorda bajarish. 3-4 m masofa. Voleybolchining holati, qo'llar to'g'ri. Shart: to'pni bir xil joyga etkazishga harakat qilish.
3. Juftlikda 4-5 m masofada bir-biriga qarab turib to'pni pastdan qabul qilish. Voleybolchining holati, tirsak bo'g'inlarida bukilmagan qo'llar. Shart: to'pni iloji boricha aniq etkazish.
4. To'pni 1 marta o'ziga, 1 marta esa juftlikka ikki qo'l bilan pastdan uzatish. Shart: to'pni nazorat qilish va to'g'ri holatda to'p ostiga borish.
5. Juftlikda tarmoq orqali pastdan qabul qilish. Tarmoqdan 3-4 m masofa. To'pga uch marta tegishga ruxsat beriladi. To'pni 3 m dan oshiq etkazmaslik kerak.
6. To'pni pastdan qabul qilishning turli o'yin vaziyatlarida bajarilishini aks ettiruvchi video parchalari namoyishi.

Ushbu mashqlar ularni bajarish tezligini oshirish orqali individual ravishda murakkablashtirildi. 1-kurs talabarlari orasida voleybol bo'yicha nazariy bilimlar darajasi 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

2023 yil noyabr oxiri — 2024 yil mart oxiri davrida 1-kurs talabalarining voleybol asoslari bo'yicha bilim sifati (%)

Jinsi	Qizlar		O'g'illar	
	Tajriba boshida (n=8)	Tajriba oxirida (n=9)	Tajriba boshida (n=12)	Tajriba oxirida (n=13)
Darajasi				
Yuqori	11	33,5	37,5	47,5
Yetarlicha	11	44,5	35	36,5
O'rta	33,5	19,5	14,5	16
Past	44,5	2,5	13	-

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, qizlarning voleybol asoslari bo'yicha bilimlarining yuqori ko'rsatkichlari avvalgi davrga nisbatan 22,5% ga yaxshilandi, shuningdek, yetarli ko'rsatkichlar ham 33,5% ga oshdi. Testlashning boshida qizlar, asosan, o'yin qoidalarini (bloklash qoidalari, tanaffuslar) bilishda xatoliklarga yo'l qo'ygani kuzatildi. Yigitlarda nazariy tayyorgarlik darajasining yuqori ko'rsatkichi 10% ga oshdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tadqiqotning boshida yigitlarning uchdan bir qismi allaqachon yuqori darajada bilimga ega edi. Bilimlarning yaxshilanishi voleybolning zamonaviy va tarixiy rivojlanishiga qiziqish ortishi hisobiga ro'y berdi.

Shuningdek, ko'plab o'quvchilar institut birinchiligi doirasida voleybol musobaqalarida qatnashgani qayd etildi. Bu ularning texnik tayyorgarligi va voleybol bo'yicha bilim sifati darajasiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi.

Voleybol darslarining mazmunini tahlil qilganda, ular quyidagilarni o'z ichiga olishini ko'rish mumkin: nazariy, texnik, taktik, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik. Biroq, voleybol bo'yicha jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun maxsus tanlangan jismoniy mashqlar tizimini yaratish lozim. Ya'ni, dastlabki ikki

mashg'ulotni voleybol mashg'ulotlarida xavfsizlik texnikasi bo'yicha suhbat, talabalar bilimlarini o'rganish va to'rtta test mashqini bajarishga bag'ishlash kerak: yuqoridan to'g'ri to'p uzatish, to'p uzatish, to'pni pastdan qabul qilish, to'g'ri hujum zarbasi.

Keyingi mashg'ulotlarni (3-dan boshlab) aniq tuzilma bo'yicha o'tkazish kerak, ya'ni 2 qismdan iborat bo'lgan isinib olish (nazariy ma'lumotlar, harakatdagi va joydagi mashqlar); asosiy qism, bu uzatmalar, to'p uzatishlar, pastdan qabul qilish va hujum zarbasini o'rganish va mustahkamlashni o'z ichiga oladi. Yakuniy qismda esa sekin mashqlar qo'llanilgandan so'ng, talabalar o'z bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini o'z-o'zini baholash orqali tahlil qiladilar.

Ushbu metodikaning samaradorligi talabalar tomonidan voleybolning barcha elementlarini bajarish texnikasini yaxshilash orqali tasdiqlandi. Bu talabalar tomonidan voleybol bo'yicha aniq nazariy bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Xulosa. Olingan natijalar tahlil qilinganda, birinchi testdan farqli o'laroq, to'p uzatish ko'rsatkichlari ham qizlar, ham yigitlarda uchdan birga yaxshilanganligi aniqlandi. Qizlar orasida hujum zarbasini bajarish bo'yicha sifatli ko'rsatkichlarning yuqori o'sish sur'ati (40,3%) aniqlangan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Burxanovich, T. A. (2024). Voleyboldagi texnik va taktik harakatlarga o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 3(27), 118-120.
2. Solijonovich, S. J. (2024). Voleybolda hujum va himoya texnikasini egallash. Xalqaro konferensiya va jurnallarni sifatli indexlash xizmati, 1(1), 203-205.
3. Solijonovich, S. J. (2024). Umumta'lim maktabining o'quv ishlarini rejalashtirish, voleybol seksiyasining maqsad va vazifalari. International journal of science and technology, 1078-1081.
4. qizi Po'latova, S. I. (2023). Voleybol o'yinini o'rgatishning pedagogik asoslari. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 174-178.
5. Волков, Л. В. (2012). Теория и методика детского и юношеского спорта. К. : Олимпийская литература. 43-47 б.
6. Курамшин, Ю. Ф. (2014). Теория и методика физической культуры: Учебник. М. : Советский спорт. 217-224 б.
7. Матвеев, Л. П. (1999). Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. К. : Олимпийская литература. 143-157 б.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STUDENTS' INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE THROUGH LANGUAGE ELEMENTS IN TEACHING ENGLISH

Makhmudov Kudratbek

Head of the Interfaculty Department of Foreign Languages, CSPU
PhD in Pedagogical Sciences

Abstract. This article examines the role and importance of language elements in developing intercultural communication competence in teaching English. The study analyzes methods aimed at enhancing students' intercultural sensitivity by teaching culturally specific language elements – idioms, proverbs, phraseological expressions, and greetings. The article discusses the difficulties students face in understanding cultural language elements, ways to overcome these challenges, and the effectiveness of using authentic materials in the classroom. The findings highlight the significance of teaching language and culture together to enhance students' intercultural competence.

Keywords: intercultural communication competence, language elements, idioms, phraseological units, teaching English, cultural awareness, authentic materials, language and culture integration.

INGLIZ TILINI O'QITISHDA TALABALARNING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI TIL ELEMENTLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li

CHDPU Fakultetlararo chet tillar kafedrasini mudiri
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Email: k.makhmudov@cspu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda til elementlarining o'rni va ahamiyatini o'rganilib, o'rganilayotgan til madaniy elementlarini – idiomalar, maqollar, frazeologik birikmalar va salomlashuv qoidalarini o'rgatish orqali talabalarda madaniyatlararo xabardorlikni oshirishga qaratilgan metodlar tahlil qilingan. Maqolada talabalarning madaniyatga oid til elementlarini o'zlashtirishda duch keladigan qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish yo'llari, shuningdek, dars jarayonida autentik materiallardan foydalanishning samaradorligi dalillangan. Natijalar til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda o'qitishning talabalarda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatgan.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, til elementlari, idiomalar, frazeologik birikmalar, ingliz tilini o'qitish, madaniy xabardorlik, autentik materiallar, til va madaniyat integratsiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N92>

Kirish. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi zamonaviy dunyoda talabalarni madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro anglashuvga tayyorlashda muhim omil hisoblanib, o'zga

madaniyat vakillari bilan samarali muloqot o'rnatish, talabalarning lingvistik ko'nikmalaridan tashqari tili o'rganilayotgan madaniyat bilan tanishish qobiliyatiga bog'liqdir [3, 6]. Til o'qitish jarayonida ingliz tilining madaniy elementlarini talabalarga o'rgatish orqali ular nafaqat til o'rganadi, balki o'zga madaniyatlar haqida ham kengroq tushuncha hosil qiladi. Til o'zi bilan birga o'sha madaniyatning an'analarini, qadriyatlarini va urf-odatlarini ham olib keladi hamda bu jarayonda talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantirish/rivojlantirish, ularga xalqaro muloqotda yanada muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini beradi [10]. Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda til elementlarining roli alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan, ingliz tilida muayyan ifodalar va frazeologizmlar mavjud bo'lib, ular faqatgina o'sha til madaniyatiga xosdir va ularni tushunish uchun kontekst talab etiladi. Agar talabalar ushbu elementlarning mazmunini to'g'ri anglasalar, bu ularga o'zga madaniyat vakillari bilan yanada samaraliroq muloqot qilish imkoniyatini beradi [11]. Shu sababli, til o'qitish jarayonida lingvistik elementlarni madaniyat bilan bog'lab o'rgatish alohida e'tiborga loyiq, deb ayta olamiz.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat til o'qitishda, balki talabalarning ijtimoiy hayotida ham katta ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim jarayonida talabalarning ingliz tilidagi lingvistik ko'nikmalarini oshirish bilan birga, ularga ushbu til orqali o'sha madaniyatni anglashni o'rgatish ularning dunyoqarashini kengaytiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, til elementlarini o'rgatish faqat grammatik yoki leksik bilimlarni oshirish emas, balki boshqa madaniyatni ham o'zlashtirishga yordam beruvchi jarayon sifatida qaraladi [3]. Demak, ingliz tilidagi madaniy elementlarni o'qitishda talabalar madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish orqali global maydonda faol va muvaffaqiyatli ishtirokchi bo'la oladilar. Shu bilan birga, bu jarayon ularga o'z madaniyatini o'zga madaniyatlar bilan qiyoslab, o'zaro anglashuvni chuqurlashtirish imkonini ham berar ekan. Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish uchun til elementlarining qo'llanilishi, talabalarga nafaqat til o'rgatish, balki madaniy ongini ham shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayonda asosiy vazifalardan biri talabalarga boshqa madaniyat vakillari bilan muloqotga tayyor shaxs sifatida shakllantirishdir. Tadqiqotchi olimlar V.Gudykunst va Y.Kimlarning fikrlariga ko'ra, madaniyatlararo muloqotda o'zaro tushunishni ta'minlash uchun tilni va uning madaniy asoslarini anglash zaruriyatdir [11]. Guvohi bo'lamizki, til elementlari orqali talabalar madaniyatning turli xil ko'rinishlarini tushunishga o'rganadi va bu ularni boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat bilan qarashga o'rgatadi.

Til o'qitishda asosiy vazifalardan biri talabalarni ingliz tilida so'zlovchi mamlakatlar madaniyatining asosiy unsurlari bilan tanishtirish hisoblanadi, masalan, ingliz tilidagi ayrim ifodalar va maqollar ularning madaniyati haqida tasavvur beradi hamda bu til o'rganayotgan talabalarga madaniy tushunchalarni o'zlashtirish imkonini beradi. Soha olimlaridan M.Bayram va M.Fleming madaniyatni til bilan integratsiyalashgan holda o'rgatish talabalar uchun qiziqarli va samarali usul ekanligiga e'tibor qaratishgan [9]. Shuningdek, ingliz tilida mavjud bo'lgan ijtimoiy qoidalar, salomlashuv usullari, turli vaziyatlarda tilni qo'llash usullari talabalar uchun yangi dunyo eshigini ochadi va ularga madaniy kodlarni tushunishda yordam beradi.

Ikkinchi asosiy vazifa — talabalarni til o'rganish jarayonida madaniyatlararo nuqtai nazardan o'ylashga o'rgatish bo'lib, talabalarga til elementlari orqali o'zga madaniyat vakillari bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishda yordam berish, ularga global dunyoda samarali ishtirok etish imkoniyatini beradi. Bunga erishish uchun dars jarayonida xalqaro

mavzularda suhbatlar tashkil qilish, turli madaniy voqea-hodisalarga oid matnlar o'qitish tavsiya etiladi. Shu sohada boshqa bir izlanishlarimizda ham ta'kidlaganimizdek, bunday yondashuv talabalarga madaniyatni chuqur anglash va o'rgatish orqali ularda madaniyatlararo xabardorlikni oshiradi [13].

Uchinchi vazifa — talabalarni madaniy tafovutlarni tushunishga va ularga moslashishga tayyorlashdir. Madaniy farqlar sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noqulayliklarni minimallashtirish uchun talabalarga turli madaniy vaziyatlarda tildan qanday foydalanishni o'rgatish juda muhim. Buning natijasida, talabalar madaniyatlararo muloqotda imkon qadar xatolardan qochib, o'z fikrlarini yetkazishda, shuningdek, boshqalarning pozitsiyalarini tushunishda muvaffaqiyat qozona oladilar. Izlanuvchi N.Parmonovning tadqiqotida ushbu jarayonda turli madaniyat vakillarining an'ana va qadriyatlarini o'rganish orqali madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyatini ta'kidlanganini ko'rishimiz mumkin [15].

Sohaviy adabiyotlarni tahlil qila turib, shunday xulosaga kelamizki, til o'qitishda madaniyatni bir butun sifatida o'rgatish talabalarda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali yo'llaridan biri ekan. Shu jihatdan, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi va til o'rgatish jarayonini integratsiyalash bo'yicha tadqiqotlarga so'nggi yillarda yanada ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Bu sohaga oid dastlabki izlanishlardan biri D.Hayms tomonidan taklif qilingan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi [12], ekanligini inobatga olsak, D.Hayms madaniyat va tilni o'zaro uzviy bog'liq deb hisoblab, til o'rgatish jarayonida madaniy jihatlarni hisobga olish zarurligini alohida e'tirof etgan. Unga ko'ra, til faqat muloqot vositasi bo'lib qolmay, balki madaniy kodlarni yetkazuvchi va o'sha madaniyatning tashqi ko'rinishini aks ettiruvchi omil hisoblanadi. Keyinchalik M.Bayram o'zining tadqiqotlarida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslarini kengaytirgan. M.Bayram madaniyat va til o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish orqali madaniyatlararo xabardorlikni oshirish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyatini qayd etgan [8]. U talabalarning nafaqat tilni o'rganishlari, balki boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qila olishlari uchun zarur bo'lgan madaniyatlararo kompetensiya elementlarini aniqlab bergan. Tahlilga tortilgan adabiyotlar til va madaniyat o'rtasidagi aloqani o'rganishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi va mavzuyimiz bo'yicha qator savollarni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, M.Bennet madaniyatlararo xabardorlikni rivojlantirish bo'yicha "*Ethnorelativism*" modelini taklif etgan. Unga ko'ra, madaniyatlararo muloqotda muvaffaqiyat qozonish uchun til foydalanuvchilari o'z dunyoqarashlarini kengaytirishlari hamda o'zga madaniyatlar vakillari nuqtai nazaridan o'ylashni ham o'rganishlari lozim [6]. M.Bennetning modeli madaniyatlararo ta'limda talabalarga o'z madaniy tushunchalarini yetkaza olishda va o'zga madaniyatlarni qabul qilishda yordam beradi. Bu modelning ta'lim jarayonida qo'llanilishi talabalarda xalqaro muloqotda ochiq fikrlilikni shakllantirish uchun samarali asos yaratgan.

Yuqoridagi sohaviy adabiyotlar tahlili asosida tadqiqotimizga yo'naltirilgan quyidagi savollarni shakllantirib olamiz:

- ✓ O'rganilayotgan til elementlari talabalarda madaniyatlararo kompetensiyani qanday rivojlantiradi?
- ✓ Madaniyat va tilni birgalikda o'rgatish talabalarning xalqaro muloqotdagi samaradorligini oshiradimi?

- ✓ Madaniyatlararo kompetensiya talabalarda qaysi yo'llar bilan rivojlantirilishi mumkin?

Ushbu tadqiqotga undovchi savollar mavzuyimizni chuqurroq o'rganish imkonini beradi hamda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda lingvistik elementlarning o'rnini yanada aniqroq belgilashga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi tushunchasi xalqaro aloqalar kuchayib borayotgan zamonaviy dunyoda muhim o'rin tutadi. Mazkur kompetensiya o'zga madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish, ularning madaniy qadriyatlarini anglash va hurmat qilish qobiliyatini ifodalashini tadqiqotimizning "Kirish" qismida atroflicha asoslashga harakat qildik. Til o'rgatish jarayonida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyati haqida bir qator tadqiqotchilar o'z ilmiy natijalarida ta'kidlab o'tganlar. Xususan, madaniyatni til o'rgatish jarayoniga integratsiyalash orqali talabalarining madaniy xabardorligini oshirish mumkin. Bizningcha, bu jarayon talabalarga boshqa madaniyatlarni hurmat qilishni va ularni anglashni o'rgatadi, bu esa o'z navbatida, ularning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli, til o'qitish jarayonida madaniy elementlarni o'z ichiga olgan materiallardan foydalanish, talabalar uchun yanada chuqurroq bilim olish imkonini yaratadi. Aytishimiz mumkinki, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi til o'qitish jarayonida juda muhim o'rin tutadi, shuningdek, ushbu kompetensiya talabalarining nafaqat tilni o'zlashtirish, balki boshqa madaniyatlar vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirar ekan.

Til elementlari va madaniyatlararo kompetensiya o'rtasidagi aloqadorlik til o'rgatish jarayonining ajralmas qismi hisoblanar ekan, til faqatgina aloqa vositasi bo'lib qolmay, balki uning yordamida o'sha madaniyatni o'rganuvchi shaxsning madaniy bilimi shakllanadi. Tadqiqotchi K.Kramsh madaniyat va tilning bir-biriga ta'sir qiluvchi kuchlar ekanligini aytib, tilni o'rgatishda madaniy jihatlarni hisobga olish zarurligini belgilab bergan. K.Kramshga ko'ra, til elementlari orqali talabalar madaniyatning turli tomonlarini o'rganadilar va shu bilan birga boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar [14]. Til elementlari, jumladan, leksika, frazeologizm, qadriyatlarni ifodalovchi so'z va iboralar, shuningdek, kommunikativ vaziyatlarda tilni qo'llash usullari madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, ingliz tilidagi "How are you?" degan oddiy salomlashuvning asl ma'nosi va uning muloqotdagi o'rnini talabalar uchun alohida e'tibor talab qiladi. Bunday iboralarning madaniy kontekstini tushunish talabalar uchun madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyatga ega. Bu borada V.Gudykunst va Y.Kim madaniyatlararo kompetensiyaning samarali shakllanishi uchun til elementlarining madaniy kontekstda qo'llanilishi kerakligini qayd etishgan [11].

Til elementlarining madaniyat bilan uzviy bog'liqligi talabalarining madaniyatlararo xabardorligini oshirishda ham ahamiyatlidir. Masalan, "time is money" kabi frazeologik birikmalarni o'rgatish orqali talabalar angla-sakson madaniyatining qadriyatlari haqida tushuncha hosil qiladilar. Bu kabi til elementlari orqali talabalar madaniy tafovutlarni anglashga hamda ularni hurmat qilishga o'rganadilar. Bu jihat o'z navbatida talabalarda ochiq fikrlilik va global dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Soha olimlaridan A.Barro o'z tadqiqotlarida tilni o'rganishda madaniy jihatlarning ahamiyatini ta'kidlab, til elementlarini o'zga madaniyatlarni anglash uchun "oyna" sifatida qabul qilish kerakligiga e'tibor qaratgan [5]. Shunday xulosa kelib chiqadiki, til o'qitish jarayonida til elementlarini madaniy kontekstda o'rganish madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Til

elementlari orqali talabalar boshqa madaniyatlar bilan tanishib, ularning dunyoqarashini kengaytiradilar va xalqaro muloqotda muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Shu sababli, ingliz tili o'qituvchilari talabalarga madaniyat va tilni birgalikda o'rgatish orqali ularning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Abstract. The given article is focused on the bilingual education of children and its peculiarity. There's also highlighted the scientists that carried out a research on this issue and the result of their scientific works.

Keywords: bilingual, bilingualism, bilingual education, monolingual, repetitive elements, speech development.

IKKI TILLILIK BOLALAR TA'LIMIDA ISTIQBOLLI SHAKL SIFATIDA

Tursunboyeva Muhlisa Anvar qizi

Farg'ona politexnika instituti

O'zbek va chet tillarini o'qitish yo'nalishi

Annotatsiya. Ushbu maqola bolalarning ikki tilli ta'limoti va uning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan. Shuningdek, ushbu mavzu bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar va ularning ilmiy ishlari natijalari ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: bilingual, bilingualizm, ikki tilli ta'lim, monolingual, takroriy elementlar, nutqni rivojlantirish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N94>

Introduction. The system of modern secondary vocational education is included as an important component in the educational field of Uzbekistan. A distinctive feature of recent years has been its essential modernization. Crucial projects are being developed and implemented, as well as the Government-approved strategy for the development of education in the country.

The relevant presidential decrees have begun to take effect, contributing to the solution of those problems that have been waiting for their solution, especially in the children's education system for a long time.

Modern educational system is distinguished by increased attention to the development of its content, the development of children's cognitive thinking, the improvement of culture in a variety of its aspects (legal, informational, communicative), and the ability to analyze the effectiveness of what is carried out as an activity in the process of reflection.

Literature analysis. There are discussions about bilingual education among politicians, theorists, scientists, and philosophers. They also include parents and teachers. In the study, under the term "bilingual language education" we understand the interrelated and equivalent

mastery of two languages by pupils (native and non-native), the development of native and non-native/foreign language culture, the development of a child as a bilingual and bicultural (multicultural) personality and their awareness of their bilingual and bicultural affiliation.

N.Y.Novitsky [1] believes that the study and use of additional languages has a direct impact on the general cognitive functions of a person, the mechanisms of which are little known. N.G.Sushko, E.G.Kazantseva [2] draw attention to the fact that a bilingual child is able to maintain the activity of both languages. However, D.S. Medvedeva and V.Y.Khotinets [3] indicate that bilingual preschoolers have difficulties in qualitative information processing, in particular, a decrease in the speed of lexical access, a decrease in the volume of passive and active vocabulary in each of the languages used.

L.A.Shaigerova, R.S.Shilko, Yu.P.Zinchenko [4] consider bilingualism and multilingualism as an interdisciplinary phenomenon. The results of their research showed that the influence of bilingualism on cognitive processes and personality traits is contradictory and determined by the attitudes of researchers, a set of factors and additional variables that are difficult to control due to various methodological problems. The results of their research showed that the influence of bilingualism on cognitive processes and personal characteristics is contradictory and is determined by the attitudes of researchers, a set of factors and additional variables that are difficult to control due to various methodological problems.

According to a study by A. Marini, N. Eliseeva and F. Fabbro, aimed at studying whether learning a second language affects phonological short-term and working memory and the development of the first language in 4-5-year-old consecutive bilinguals, the bilingual group showed higher results than monolingual children in terms of phonological short-term and working memory characteristics. However, bilingual participants performed worse than monolinguals in the lexical comprehension test.

The scientists of education around the world are increasingly wondering: how to teach students in a language that is not their native language. Due to the expansion of the migration movement, many families have appeared who, for various reasons, found themselves in a different language environment. As a rule, these families are not ready for facing to the problems that arise when raising a child in such a situation.

Discussion. The scientific formation of the problem of bilingualism took place in stages. According to the observations of many scientists, bilingualism began to be studied as a theoretical problem at the end of the 19th century, but as a social phenomenon it has roots going much deeper into the ancient world: mixing the language of the conquerors and the vanquished in the conquered territories. With the development of linguistic thought since the end of the 19th century, bilingualism has become the subject of consideration of the theory of linguistics. It was the comparatively historical method that turned the interest of linguists to the theory of language interaction. However, all studies of the late 19th and early 20th century were mainly aimed at the result of the process of language interaction, the process of language contacts and associated transformations, as well as the mechanism of such interaction, remained without due attention, the integrity of the problem was not taken into account.

Bilingual children are a new generation of children, whose number is growing every day. More and more children are born into bilingual families and understand and speak two or more languages from an early age. In many countries where more than one language is the official language, bilingualism is the norm of life.

Bilingualism is distinguished by:

- congenital (early)– when a child learns both basic and foreign languages from birth (different mother tongue from parents or moving to another country in early childhood);
- purchased (late)– when a person (adult or teenager) begins to master a second foreign direction after having formed communication skills in their native language.

In this case, even if you start learning a second language early enough, it is still positioned as a foreign language. This classification refers rather to the age at which a person begins to fully use two languages.

For this reason, the mechanism of development is distinguished by natural and artificial bilingualism:

- natural bilingualism is formed due to the real need to communicate in two languages at the same time – the need to communicate with foreign relatives, for the purpose of studying, working, or moving. This concept is somewhat broader than the concept of innate bilingualism and generally has a different character;

- artificial bilingualism – the term speaks for itself – a situation in which a person learns a language that he does not use in everyday life. Today, bilingualism is very common. The idea that only highly educated and literate people speak two languages is erroneous [5].

As the famous author of many works on bilingualism, Scutnabb Kangas, says, it is impossible to study bilingualism and bilingual education without understanding what language is. Language is a means of communication (and not only), without which it would be impossible to exchange experience in various fields between nationalities. Language is probably the only tool by which mutual understanding and interaction between representatives of various linguistic communities becomes possible [6].

The principle of a saturated learning atmosphere involves concreteness and clarity, simplification and consolidation of the material, repetition of the material in different ways, the effectification of language acquisition, the creation of a positive atmosphere, the use of repetitive elements of the lesson, the use of various pedagogical techniques, rich presentation of the material.

The principle of an open learning atmosphere is aimed at creating a comfortable socially humane environment, the development of creative abilities and creative activity of students, the transition from the principle of "education for life" to the principle of "education through life", the free development of individuality.

In linguistics, the concepts of "second" and "foreign language" are traditionally separated due to the fact that in the first case, language acquisition occurs in natural communication situations, secondly - in the educational process. Thus, the concepts of natural (everyday) and artificial (educational) bilingualism are distinguished.

In the process of learning the second language, children often have a mixture of languages. As children master spoken language, the number of grammatical errors decreases, and this happens not only due to the purposeful work of the teacher on the development and formation of the literate side of speech, but also due to the fact that the bilingual child begins to avoid speech errors himself. He is aware of the importance of full-fledged communication with teachers and peers in the language being studied. Acquiring the necessary skills for this, the child fills in a generalized scheme of speech action with mastered operations. Communication

appears to him as an interesting process of entering into a different language environment, even with a low level of language proficiency.

Of great importance in language acquisition is not only the age of the child and his abilities, but also his individual psychological and psychophysiological characteristics. Scientists have identified two types of trainees with different psychophysiological bases: with labile and inert nervous systems. In the first type, the nervous system correlates with a rational-logical, and in the second – an intuitive-sensory way of thinking. In children, each type of nervous system manifests itself differently in language acquisition. The inert type tends to the logical and grammatical aspect of language which is more successful in oral speech activity. The speed of mastering the educational material also depends on this.

Personal factors are related to learning from setting goals to organizing the training process. Paradoxically, most of these factors have a negative impact on the process of learning a second language, which is associated with an insufficiently equipped educational process: the material component is not always the desired amount of methodological equipment, lack of hours when learning a foreign language, etc.

The basic principles of organizing education in a bilingual environment are:

- The principle of continuity - allows you to highlight the basis of the content of the academic discipline of the school curriculum and its conceptual and terminological apparatus in a special module, the repeated study of which with the semantization (disclosure of the content) of terms and concepts on the languages used to study the subject are the beginning of adaptive learning of the discipline on a bilingual basis;
- The principle of entrance control of knowledge – provides for the organization of training in a discipline (for example, chemistry) in accordance with the real level formation of educational and cognitive skills;
- The principle of information semantics - helps to reveal the content, clarify the meaning of concepts, the correct use of scientific terms and their free operation in the assimilation and transfer of knowledge; holistic perception of an object or phenomenon;
- The principle of a favorable emotional learning climate – involves preventing the occurrence of various stress-forming situations in the educational process by reducing language barrier; elimination of knowledge gaps; creation of a comfortable atmosphere in the team, in the classroom;
- The principle of novelty and diversity of forms, methods and means of teaching – teachers should choose the most effective methods, means, forms of organizing the education of schoolchildren in a bilingual environment, providing for reducing the language barrier and increasing the level of their educational activities.

The principles of the development of the educational environment based on the ideas of bilingualism are the principles of multiculturalism, an open, saturated, a political learning atmosphere. The principle of multiculturalism and multicultural education are based on a dialogue between the national and universal, the integration of human knowledge and cultures, an appeal to the personal and semantic essence of a person, internal sources of consciousness, the diversity of cultures and subcultures in the world around us. The theory of multicultural education is based on the culturological concept of personality-oriented education by E.V.Bondarevskaya, theoretical and methodological foundations of multicultural education by V.P.Borisenkova, Z.A. Malkova; multicultural education by G. D. Dmitrieva, M. N. Kuzmina; the

relationship between culture and education by M. M. Bakhtin, V. S. Bybler, J. Huizinga and others[7].

There have been figured out numerous advantages of bilingual education in a secondary school or in higher educational institutions:

- bilingual education allows the student to feel comfortable in a multilingual world;
- education based on this principle is an opportunity to receive education in one of the world's languages without losing touch with ethnic linguistic affiliation;
- bilingual education expands the "boundaries" of thinking, teaches the art of analysis;
- bilingual programs allow a person to easily overcome barriers in learning a foreign language and make students more adapted to learning other languages, develops a culture of speech;
- learning in several languages at once contributes to the formation of communication skills, develops memory, makes the student mobile, tolerant, flexible and liberated, and therefore more adapted to difficulties in a multifaceted and multicultural world

The system and process in the bilingual environment of education becomes a means of actualizing and activating the value-semantic formation of a personality, helps to form generally valid guidelines, value and semantic attitudes, ensures independence and the development of responsibility in choosing a life trajectory.

Results. Along with the possibility of developing communicative competencies at a new level, the development of value-semantic competence in the preparation of secondary school students is of particular importance. As a result, the development of a bilingual environment ensures success in the formation of not only educational and cognitive competence, but also communicative, value-semantic, informational, etc.

Preschool age is a period of active speech development, the formation of regulatory functions, the formation of which is one of the most significant indicators of children's development on the basis of their readiness for school, as well as a factor of subsequent academic performance [8]. The results of previous studies examining the development of regulatory functions show that bilingual children demonstrate better inhibition and cognitive flexibility compared to their monolingual peers [9]. Nevertheless, there is evidence demonstrating the absence of differences between mono and bilingual preschoolers in the formation of their regulatory functions [10]. The contradictory results emphasize the need for further research into the features of regulatory functions in bilingual children.

It is believed that bilingualism has a positive effect on the development of memory, the ability to understand, analyze and discuss the phenomena of language, intelligence, quickness of reaction, mathematical skills and logic. Fully developing bilinguals, as a rule, study well and learn abstract sciences, literature and other foreign languages better than others.

According to R.Jacobson, switching from one language code to another is possible and is actually practiced precisely because languages are isomorphic: their structure is based on the same general principles. Other researchers also note that the error mechanism is fundamentally identical to the acquisition process the child's language, and the process of learning a second language by an adult.

For about three years, the child begins to clearly separate one language from another. At the end of the third year of life, and some people stop mixing languages at the age of four. A

child of four or five years old strives for contacts, he is attracted by the opportunity to rhyme words. He seeks to find out what a word means and names objects. At the age of six, he actively uses language in a game with peers.

Conclusion. A bilingual child, whose bilingualism is formed according to the principle of "one parent — one language", reacts sensitively to the language of communication of the interlocutor, because he gets used to the fact that he is constantly being communicated with in different languages, and sometimes he is required to choose the right language. Therefore, at the very beginning of the conversation, he establishes in which language the stranger is addressing him, and then tries to adhere to this language in communicating with him.

After describing the practice of working with bilingual preschoolers E.L. Kudryavtseva, T.V.Volkova [11], come to the conclusion that for a child his intellectual development (memory, attention, etc.) is important, while the ability to talk about himself, about the events of his life, describe his own in both languages is significant the inner state, to understand (by facial expressions, gestures peculiar to the culture of the interlocutor) the state of another person. Scientists note that bilinguals are ahead of their monolingual peers in development, demonstrating a high level of development not only of cognitive processes, but also of such personal qualities as self-confidence, self-regulation and tolerance.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Novitsky N.Yu. Features of the functioning of the brain of bilinguals in the performance of speech and general cognitive tasks // *Modern foreign psychology*. – 2016. – Vol. 5, No. 4. – pp. 77-84. – doi: 10.17759/jmfp.2016050408.
2. Sushko N.G., Kazantseva E.G. Features of the development of bilingual children // *Uchen. notes of TOGU*. – 2017. – Vol. 8, No. 1. – pp. 369-373.
3. Medvedeva D.S., Khotinets V.Yu. Features of the development of speech-thinking activity of bilingual children // *Vestn. Udm. un-ta. Ser. Philosophy. Psychology. Pedagogy*. - 2018. – vol. 28, No. 1. – pp. 87-93.
4. Shaigerova L.A., Shilko R.S., Zinchenko Yu.P. Bilingualism and multilingualism as an interdisciplinary phenomenon: sociocultural context, problems and prospects of research. *psychol. Journal*. – 2019. – No. 1. – pp. 3-15. – doi: 10.11621/npj.2019.0101.
5. Shchepelina S.S. Bilingualism and types of bilingualism // [Electronic resource] – 02/03/2018 <https://schepilinanfdou7.edumsko.ru/articles/bilingvizm> (accessed: 11/22/2017)
6. Tove Skutnabb-Kangas *Bilingualism or Not. The Education of Minorities*. Multilingual Matters, England, 1981. – 378p.
7. Aliyev R., Kazhe N. Bilingual education: Theory and practice. *Retorica A*, 2005. - 384c.
8. Veraxa A.N., Oshchepkova E.S., Bukhalenkova D.A., Kartushina N.A. The connection of regulatory functions and speech production in older preschoolers: working memory and making narratives // *Clinical and special psychology*. – 2019. – Vol. 8, No. 3. – C. 56-84. – doi: 10.17759/psyclin.2019080304.
9. Poarch G.J., van Hell J.G. Executive functions and inhibitory control in multilingual children: Evidence from second-language learners, bilinguals, and trilinguals // *J. Exp. Child Psychol*. – 2012. – V. 113, No 4. – P. 535–551. – doi: 10.1016/j.jecp.2012.06.013.
10. Paap K.R., Johnson H.A., Sawi O. Bilingual advantages in executive functioning either do not exist or are restricted to very specific and undetermined circumstances // *Cortex*. – 2015. – V. 69. – P. 265–278. – doi: 10.1016/j.cortex.2015.04.014.

11. Kudryavtseva E.L., Volkova T.V. An integrated approach to teaching language (both non-native and other native) to bilingual children (aged 1 - 6 years) in educational institutions with an ethnocultural component of the EU countries. – Riga: RetorikaA, 2014. – 232 p.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

IMPROVING THE QUALIFICATION OF PEDAGOGICAL STAFF IN THE CONTEXT OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION: STRUCTURAL- FUNCTIONAL SUPPORT OF THE PEDAGOGICAL SYSTEM

Haknazarova Nilufar Kuranbaevna

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD),
Researcher at the Institute for Retraining and Advanced Training of Personnel of the Higher
Education System under the Ministry of Higher Education, Science, and Innovation of the
Republic of Uzbekistan

Abstract. The article discusses the key concepts and practical aspects of educational system transformation and the professional development of teaching staff. Adapting educational processes to global changes, utilizing innovative technologies, and developing modern teaching methods are of paramount importance. The professional development of educators contributes to the modernization of the education system and has a significant impact on the social and economic development of society. The article highlights the importance of using innovative pedagogical technologies, digital platforms, and psychological-pedagogical approaches.

Keywords: education transformation, professional development of educators, innovative pedagogical technologies, digital learning platforms, psychological-pedagogical approaches, modernization, educational system, teaching methodologies, educational management.

ТАЪЛИМ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ ШАРОИТИДА ПЕДАГОГ КАДРЛАР МАЛАКАСИНИ ОШИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ТИЗИМИНИ СТРУКТУРАВИЙ-ФУНКЦИОНАЛ ТАЪМИНОТИ

Ҳақназарова Нилуфар Куранбоевна

Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Олий таълим фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги
Олий таълим тизими кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш
институту мустақил изланувчиси

Аннотация. Мақолада таълим тизимининг трансформацияси ва педагогик кадрлар малакасини ошириш масалаларига оид асосий концепциялар ва амалиётлар кўриб чиқилган. Таълим жараёнининг глобал ўзгаришларга мослашиши, инновацион технологиялардан фойдаланиш, замонавий ўқув методикаларининг ишлаб чиқилиши муҳим аҳамиятга эга. Педагогик кадрлар малакасини ошириш, таълим тизимининг модернизациясига хизмат қилади ва жамиятнинг ижтимоий, иқтисодий ривожига катта таъсир кўрсатади. Мақолада инновацион педагогик технологиялар, рақамли платформалар ва психологик-педагогик ёндашувлар қўлланилишининг аҳамиятига алоҳида эътибор қаратилган.

Калит сўзлар: таълим трансформацияси, педагогик кадрлар малакаси, инновацион педагогик технологиялар, рақамли таълим платформалари, психологик-педагогик ёндашувлар, модернизациялаш, педагогик тизим, ўқув методикалари, таълимни бошқариш.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N95>

Кириш. Таълим тизими жамиятнинг ижтимоий, иқтисодий ва маданий ривожланишида муҳим роль ўйнайди. Замонавий дунёдаги глобал ва ижтимоий ўзгаришлар, янгиланишлар таълимнинг трансформациясини тақозо қилади. Педагог кадрлар малакасини ошириш ва таълим тизимининг муттасил ривожланиши эса жамиятнинг барқарор ривож ва келажакка интилиш учун замин яратади. Шунингдек, таълим соҳасидаги инновацион ўзгаришлар педагогик тизимнинг самарали ишлаши учун муҳим аҳамиятга эга. Бу мақолада педагогик кадрларнинг малакасини оширишнинг структуравий-функционал таъминотига диққат қаратамиз. Таълим тизими давлатнинг тараққиёти учун муҳим омил саналади. Бугунги кунда таълим соҳасида амалга оширилаётган трансформациялар педагогик кадрлар малакасини оширишни ўта муҳим ва устувор вазифа сифатида кўяди. Бу жараённинг самарали амалга ошиши учун педагогик тизимнинг структуравий-функционал таъминоти яратилмоқда. Мақсад – педагогика соҳасидаги билимлар ва кўникмаларни замон талаблари асосида такомиллаштириш ва педагогик кадрлар малакасини мустаҳкамлаш.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Таълим трансформацияси, педагогика ва педагогик кадрларнинг малакасини ошириш соҳасидаги адабиётлар таҳлили – бу соҳадаги янги илмий-амалий ишланмаларни ва замонавий мақолаларни ўрганишга асосланган. Адабиётлар таҳлили таълим соҳасидаги муаммоларни аниқлаш, уларни ҳал этиш учун йўналишларни белгилаш ва мавжуд илмий билимни кенгайтиришга ёрдам беради.

“Таълим трансформацияси” ва “педагогик кадрлар малакасини ошириш” тушунчалари умумий таълим соҳасининг ривож ва замон талабларига мослашуви билан боғлиқдир. Бу соҳада илмий мақолалар кўп йиллар давомида амалга оширилган. Шарқ ва Ғарб мамлакатларида таълим тизимининг модернизациясига қаратилган мақолалар ёки педагогик кадрлар малакасини оширишга оид қатор мақолалар мавжуд. Шунингдек, кейинги йилларда қатор мутахассислар таълим соҳасидаги трансформацияларнинг асосий қадамларини ва механизмларини ўрганиб, уларни педагогик кадрлар малакасини ошириш билан боғлашган.

А.А.Эгамбердиев Ўзбекистондаги олий таълим трансформацияси жараёнига ижтимоий қатламнинг муносабати ва бугунги кунда Ўзбекистонда мавжуд ресурслардан унумли фойдаланган ҳолда халқаро тажрибанинг илғор ютуқларини юртимизга олиб кириш йўллари ёритиб берган[1; 6-76].

М.Қ.Абдуллаев ва Ф.Х.Ризаевалар таълимнинг рақамли трансформацияси бўйича устувор лойиҳаларни амалга оширишни таъминлашга ҳисса қўшадиган инфратузилма, меъёрий-услубий базани яратиш зарурати асослаб берган. Таълим жараёнларини ривожлантиришда рақамли трансформациянинг асосий тенденциялари алоҳида таъкидлаган[2;348-3546].

А.Р.Мелибоев меҳнат бозоридаги кадрларга бўлган эҳтиёжларни шаклланишида ва иш берувчиларнинг талабларида битирувчининг маълумот даражасига қўшимча равишда битирувчиларда амалий кўникмалар яъни тегишли компетенциялар мавжудлигига ишон ҳосил қилиш учун ҳар томонлама пухта ўйланган таълим тизимини яратиш зарурлигини таъкидлаб ўтган. Олимнинг фикрича халқаро таълим тизими билан Ўзбекистон таълим тизимини ўзаро уйғунлашувини таъминлаш орқали

битирувчиларнинг малакаларини халқаро меҳнат бозорида ҳам тан олинишига олиб келади[3;217-222б]..

Таълим трансформацияси - бу таълим тизимининг иқтисодий ва ижтимоий талабларга мувофиқлаштирилиши. XXI асрдаги глобаллашув ва инновацион технологияларнинг ривожига педагогикага янада мураккаб ва динамик талаблар қўяди. Технологик инқилоб, ахборотлашув жараёнлари, жамиятдаги соҳа ўзгаришлари таълим соҳасининг ҳам трансформациясини тақозо қилади.

Таълим трансформациясининг мақсади ва вазифалари

Таълимнинг трансформациясининг асосий мақсади – педагогик жараёнларни янада самарали, инновацион ва интерактив қилишдир. Бунинг учун қуйидаги вазифалар амалга оширилади:

- Янги таълим стандартларини жорий этиш – замонавий билимлар, кўникмалар ва компетенциялар талаблари.

- Модернизациялашган ўқув дастурларини ишлаб чиқиш – ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш.

- Педагог кадрларнинг малакаларини ошириш – замон талабларига мос равишда.

Муҳокама. Педагогик кадрлар малакасини ошириш жараёнида қатор муаммолар ва имкониятлар мавжуд. Замонавий таълим трансформацияси тизимида педагогик кадрларнинг профессионал ривожланиши, уларнинг малакаларини ошириш, замонавий таълим технологияларидан фойдаланиш – муҳим талаблардан ҳисобланади. Мақола натижалари кўрсатишича, педагогик кадрларнинг малакасини ошириш учун замонавий ёндашувларни, инновацион усуллар ва техникаларни жорий қилиш муҳим. Педагогик тизимнинг самарадорлигини таъминлашда инновацион педагогик технологияларнинг, рақамли таълим платформаларининг, психологик-педагогик ёндашувларнинг аҳамияти катта. Шу билан бирга, педагогик кадрларнинг малакасини оширишдаги самарадорлик кўп ҳолатларда қўлланилаётган тренинглар, воркшоплар, қайта тайёрлаш курслари ва индивидуал ҳамкорликка боғлиқдир.

Таълим трансформациясининг педагогик кадрлар малакасини оширишга бўлган таъсири талабларига мос педагогик тизимни шакллантириш, янги технологиялардан фойдаланиш ва таълим жараёнларини ислоҳ қилиш билан чамбарчас боғлиқдир. Шунингдек, педагогик кадрлар малакасини оширишнинг самарадорлигини баҳолаганда, муаммоларни тезкор ва самарали ҳал қилиш учун янги ўқув модуллари ва профессионал ривожланиш дастурлари жорий этиш зарур эканлиги айтилади.

Педагогик тизимнинг структураси

Педагогик тизимнинг самарали ишлаши учун унинг структурасининг мукамал бўлиши шарт. Бу тизимнинг турли компонентлари бир-бири билан ҳамкорликда ишлашини таъминлайди.

Педагогик тизимнинг асосий элементлари

1. Таълим муассасалари (мактаблар, университетлар, коллежлар, таълим марказлари).

2. Педагогик кадрлар – таълим ва тарбия соҳасидаги мутахассислар (ўқитувчилар, устозлар, тренерлар).

3. Ўқув дастурлари – мавжуд таълим стандартлари, ўқув режалари ва курслар.

4. Таълим олувчилар – талабалар, талабалар ва уларнинг таълимга бўлган эҳтиёжлари.

5. Таълимни бошқариш ва мониторинг – таълим жараёнларини бошқариш, баҳолаш ва таҳлил қилиш тизимлари.

Тизимнинг функционал компоненти

Педагогик тизимнинг самарали ишлаши учун унинг ҳар бир компонентининг функцияси тўғри аниқланган бўлиши керак:

- Педагогик кадрларни тайёрлаш – педагоглар тайёрлаш жараёнида замонавий билимлар, кўникмалар ва компетенцияларни ўзлаштириш.

- Педагогик кадрлар малакасини ошириш– педагогик ҳамкорлик, педагогик самарадорликни ошириш.

- Ўқув-тренинг материаллари ва технологиялар – таълимда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш.

Педагог кадрлар малакасини оширишнинг стратегик ёндашувлари

Педагог кадрлар малакасини ошириш учун самарали стратегик ёндашувлар, тренинглар ва қайта тайёрлаш механизмларини ишлаб чиқиш муҳимдир.

Қайта тайёрлаш ва малака ошириш курслари

Педагогик кадрлар учун қайта тайёрлаш курслари ташкил этиш, уларнинг малакасини оширишда муҳим аҳамиятга эга. Бу курслар аниқ ва замонавий тренинглар, семинарлар, вебинарлар ва онлайн курсларни ўз ичига олиши керак.

Инновацион педагогик усуллар ва технологиялар

Педагогик кадрлар малакасини ошириш учун инновацион усуллар, ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш муҳим. Масалан:

- Flipped classroom – талабаларнинг мустақил ишлаши ва педагогнинг мувофиқлаштирувчи ролини аниқлаш.

- Blended learning – онлайн ва анъанавий таълимнинг интеграцияси.

- Мобил таълим платформалари – мобил иловалар ва онлайн платформалар орқали таълимни йўлга қўйиш.

Натижалар. Мақола натижалари, педагогик кадрлар малакасини ошириш ва таълим трансформациясининг педагогик тизимини структурасининг функционал таъминотини яхшилашга қаратилган бир қатор муҳим воқеалар ва кўрсаткичларнинг ўзаро боғланишини намоён этди.

Натижалар қуйидаги асосий йўналишларда қамраб олинди:

1. Таълим трансформациясининг асосий йўналишлари

Педагогик кадрларнинг малакасини ошириш жараёнида таълим трансформациясининг асосий йўналишлари ва инновацион педагогик технологиялар самарадорлиги аниқланди.

1.Инновацион педагогик технологиялар: Таълим трансформациясининг асосий вазифаларидан бири – педагогик кадрларнинг билимларини ва кўникмаларини замон талабларига мослаштириш. Мақола натижалари кўрсатишича, таълимда инновацион педагогик технологияларнинг қўлланилиши (масалан, *flipped classroom* – "орқа томондан ўқитиш", *blended learning* – "аралаш таълим", интерактив ва виртуал таълим) педагогик кадрлар малакасини оширишда муҳим

аҳамиятга эга. Ушбу технологиялар таълим жараёнини самарали ташкил қилиш ва ўқувчилар билан мулоқотни янги шаклда йўлга қўйиш имконини берди.

Мисол учун, flipped classroom методикасининг педагогик кадрларнинг малакасини оширишга таъсири катта бўлди. Бу усулда ўқитиш анъанавий методларга нисбатан, педагогларга ўқувчиларни мустақил ўрганишга йўналтириш имконини беради. Ўқитувчиларга янги педагогик технологиялардан фойдаланишда амалий кўникмаларни шакллантиришга ёрдам беради, шунингдек, таълим жараёнида янги ресурслар ва методикаларни самарали ишлатишга кўмаклашади.

2. Рақамли таълим платформалари: Рақамли таълим платформаларининг қўлланилиши педагогик кадрлар малакасини оширишда катта аҳамиятга эга бўлди. Вебинарлар, онлайн курслар, мобил платформалар орқали педагогик кадрлар замон талабларига мослашган методик кўникмаларни ўзлаштиришда иштирок этдилар. Мақола натижалари бу платформаларнинг таълим жараёнида педагогик кадрлар учун қўшимча ресурсларни таъминлашга ёрдам берадиганлигини кўрсатди.

3. Психологик-педагогик ёндашувлар: Педагогик кадрларнинг малакасини оширишда психология ва педагогик ёндашувларнинг ўрни муҳим. Индивидуал таълим, шунчаки педагогика эмас, балки шахсга оид ёндашув, таълим жараёнига ҳар бир ўқувчининг ички эҳтиёжларини инобатга олиш назарий ва амалий жиҳатдан муҳим эканлиги кўрсатилди. Психологик тренинглари ва педагогикадаги индивидуал амалий методларнинг амалга оширилиши педагогик кадрларнинг малакасини оширишга самарали таъсир кўрсатади.

2. Педагогик кадрлар малакасини ошириш учун механизмлар

Педагогик кадрлар малакасини ошириш учун белгиланган механизмлар мақолада муҳим аҳамиятга эга бўлди. Бу механизмлар педагогларнинг профессионал ривожланишини, замонавий талабларга мос келадиган иш усуллариини ёрдам беришга хизмат қилади.

1. Қайта тайёрлаш курслари: Мақолада педагогик кадрларни қайта тайёрлаш курсларининг самарадорлиги аниқланди. Ушбу курслар педагогларнинг янгиланган методик ва педагогик технологиялар билан таништирилишига ва уларни таълим жараёнида қўллашга ёрдам беради. Бундан ташқари, қайта тайёрлаш курслари иш тажрибасини оширишга ҳам хизмат қилади. Мақсадли тренинглари орқали педагоглар янги амалий кўникмаларга эга бўлишади, бу эса педагогик жараёнларнинг сифатини оширади.

2. Тренинглари ва workshop: Педагогик кадрлар малакасини ошириш учун тренинглари ва воркшоплар жуда самарали ўтказилди. Тренинглари билимларнинг баҳоланган ҳолда кучайтирилиши ва педагогик кадрлар билан бирга ишлаш асосида ташкил этилди. Workshop тизими педагогларга турли йўналишлар бўйича амалий машғулотларда қатнашиш имконини берди. Бунда таълимнинг замонавий усуллари ва педагогикадаги янги методикалар ҳам олиб борилди.

3. Таълим жараёнларини мониторинг қилиш: Педагогик кадрларнинг малакасини ошириш ва таълим жараёнларини самарали ташкил қилиш учун мониторинг тизимларини жорий этиш зарурлиги мақола натижаларида аниқланди. Мониторинг, педагогик кадрларнинг тажрибаларини кузатиш ва уларнинг иш

самарадорлигини баҳолаш имконини беради. Бу ҳолатда, таълим жараёнининг самарадорлигини баҳолаш ва таҳлил қилиш орқали педагогик кадрларнинг ўқитиш сифати яхшилаш учун янги стратегиялар ишлаб чиқилди.

Педагогик кадрлар малакасини оширишдаги замонавий инновациялар

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, педагогик кадрларнинг малакасини оширишда замонавий инновациялардан фойдаланиш нафақат педагогик фаолиятни самарали ташкил қилишда, балки жаҳон таълим тизимларига мослашишда ҳам муҳим омил ҳисобланади. Бу инновациялар қуйидагича таърифланди:

- *Рақамли ва виртуал таълим:* Педагогик кадрлар учун рақамли платформалар ва виртуал ўқитиш усулларини жорий этиш самарали бўлиб, уларга замонавий таълим технологияларини ўзлаштириш имконини беради.
- *Масофавий таълим:* Масофавий таълим усуллари педагогик кадрлар учун фойдали бўлиб, уларнинг кўникмаларини ошириш ва ўқитишнинг янги форматларига интилишга ёрдам берди.

Хулоса. Тадқиқотда таълим трансформацияси шароитида педагогик кадрлар малакасини оширишнинг педагогик тизимини структурасининг функционал таъминоти ўрганилди. Замонавий таълимнинг глобал ўзгаришлар ва инновацион талаблар билан жуда катта алоқаси борлиги аниқланди. Таълим трансформациясининг самарали амалга оширилиши педагогик кадрларнинг малакасини оширишга қаратилган янги механизмлар, методикалар ва технологияларни жорий қилиш билан чамбарчас боғлиқ эканлиги кўрсатилди.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, педагогик кадрлар малакасини оширишга қаратилган ҳар қандай ишланма замонавий технологиялардан фойдаланиш, индивидуал ёндашув ва инновацион ўқитиш усулларини жорий этиш орқали ўзининг самарадорлигини юксалтиришга хизмат қилади. Жамиятнинг таълим соҳасидаги трансформациясини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, педагогик кадрлар малакасини ошириш ва шу билан бирга замонавий таълим талабларига мослашишга эришиш учун тизимли, комплекс ёндашув зарур. Бу эса таълим тизимини модернизациялаш ва педагогикадаги янги ёндашувларни амалиётга жорий қилиш билан боғлиқ.

Шу боис, педагогик кадрларнинг малакасини оширишда муваффақиятга эришиш учун таълим тизимининг ҳар бир компонентини ижобий томонга ўзгартириш ва таълимни трансформация қилишга катта эътибор қаратиш лозим.

Adabiyotlar/Literatūra/References:

1. А.А.Эгамбердиев “Ўзбекистонда олий таълим трансформацияси” “Oliy Ta’lim Muassasalarida Ta’lim, Fan, Innovatsiya Va Ilmiy Tadqiqotlarning Salmoqli Natijalari: Muammo Va Yechimlar” Mavzusidagi Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi Materillari. Jild 1 № 4, 2024й
2. М.Қ.Абдуллаев, Ф.Х.Ризаева “Таълим тизимида рақамли трансформацияни амалга ошириш тенденциялари”, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 3/2022, may-iyun (№ 00059).
3. А.Р.Мелибоев “Таълим тизими трансформацияси жараёнида янги профессионал таълим тизимининг ўрни”, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020-yil

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

THE IMPORTANCE OF EXERCISES FOCUSED ON ANALYZING VARIOUS WRITTEN TEXT SAMPLES IN DEVELOPING WRITING SKILLS FOR STUDENTS OF ENGLISH

Sheraliyeva Shahnoza Usmanovna

Uzbekistan State University of World Languages
Integrated Course, Faculty 3, English Language Lecturer

Abstract. This article examines the importance of exercises focused on analyzing various written text samples in enhancing students' writing skills during English language learning. These exercises help students develop their understanding of text structure and their ability to analyze linguistic and stylistic features. Through the process of written text analysis, students cultivate logical and creative thinking as well as the ability to express their ideas clearly and coherently. The article discusses the theoretical foundations of such exercises, their methodological organization, and practical effectiveness in improving students' writing competence. Additionally, it highlights the integration of this approach into the educational process, emphasizing its contribution to holistic language skill development.

Keywords: writing skills, text analysis, linguistic features, stylistic analysis, English language education, creative thinking, learning process, methodology.

INGLIZ TILIDA TALABALAR YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA TURLI YOZMA MATN NAMUNALARINI TAHLIL QILISHGA QARATILGAN MASHQLARNING AHAMIYATI

Sheraliyeva Shahnoza Usmanovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Integrallashgan kursi 3-fakulteti ingliz tili fani o'qituvchisi
E-mail: shahnozasheraliyeva57@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilini o'rganish jarayonida yozma ko'nikmalarni rivojlantirishda turli xil yozma matn namunalarini tahlil qilishga qaratilgan mashqlarning ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Mazkur mashqlar talabalarga yozuv mahoratini rivojlantirish uchun matn tarkibini tushunish, uning lingvistik va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Yozma tahlil jarayonida talabalar mantiqiy va ijodiy fikrlashni, o'z fikrini izchil va aniq bayon qilish malakalarini rivojlantiradilar. Maqolada mazkur mashqlarning nazariy asoslari, ularni tashkil etish metodikasi va amaliy ta'sirini yoritib, talabalarning yozma kompetensiyasini oshirishga qo'shgan hissasi tahlil qilingan. Bundan tashqari, maqolada ushbu usulning ta'lim jarayoniga integratsiyasi ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: yozma ko'nikmalar, matn tahlili, lingvistik xususiyatlar, uslubiy tahlil, ingliz tili ta'limi, ijodiy fikrlash, o'quv jarayoni, metodika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N96>

Kirish. Ingliz tilini o'qitish jarayonida yozma ko'nikmalarni rivojlantirish talabalarning til o'rganishdagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Yozma nutq

o'quvchilarga o'z fikrlarini aniq, izchil va grammatik jihatdan to'g'ri ifodalash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, bu ko'nikma o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va ijodkorlikni rivojlantirishga o'rgatadi. Yozuv orqali nafaqat lingvistik bilimlar mustahkamlanadi, balki o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalari, xususan, fikr almashish va turli auditoriyaga murojaat qilish mahorati ham rivojlanadi.

Biroq, ko'plab talabalar yozma ishlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar asosan matn strukturasi tuzishda, grammatik qoidalarga rioya qilishda, fikrlarni izchil ifodalashda va yozuvning lingvistik hamda uslubiy jihatlarini tushunishda namoyon bo'ladi. Yozma ko'nikmalarni shakllantirishda talabalarning bu boradagi ehtiyojlarini inobatga olish va samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish zarur [1].

Yozma ko'nikmalarni rivojlantirishda turli yozma matn namunalarini tahlil qilishga asoslangan mashqlar muhim o'rin tutadi. Ushbu mashqlar o'quvchilarga matnning lingvistik va uslubiy xususiyatlarini chuqur o'rganish, matnning janriga mos ravishda uni yaratish hamda mantiqiy izchillikni saqlashni o'rgatadi. Bunday mashqlar, shuningdek, talabalarning ijodkorlik salohiyatini oshiradi va ularni mustaqil tahliliy faoliyatga jalb etadi [2].

Mazkur maqolada ingliz tilida yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda matn tahlilining lingvistik va pedagogik ahamiyati, bunday mashqlarni samarali tashkil etish metodikasi va ularning amaliy ta'siri tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, yozma ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini o'quv dasturlariga integratsiyalash bo'yicha tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Asosiy qism. 1. Yozma ko'nikmalarni shakllantirishning ahamiyati

Ingliz tilida yozma ko'nikmalarni shakllantirish talabalarning o'quv va kommunikativ mahoratini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Yozma nutq o'quvchilarga o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalash, grammatik jihatdan to'g'ri matn tuzish, shuningdek, mantiqiy izchillikni ta'minlashni o'rgatadi. Ushbu ko'nikma akademik va professional faoliyatda talab qilinadigan asosiy kompetensiyalardan biridir. Yozma nutq nafaqat o'z fikrlarini ifoda etish, balki o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ammo ko'plab talabalar yozma ishlarni bajarishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. Bu muammolar orasida matnni mantiqiy tarkibiy qismlarga ajratish, fikrlarning izchilligini ta'minlash, grammatika va leksika talablariga rioya qilish kabi jihatlar bor. Shu sababli yozma ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha maxsus mashq va texnikalardan foydalanish zarur.

2. Matn tahliliga asoslangan mashqlar: ta'limdagi roli

Matn tahliliga asoslangan mashqlar talabalarning lingvistik va uslubiy bilimlarini chuqurlashtirishning samarali usulidir. Ushbu mashqlar yordamida talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

- Lingvistik xususiyatlarni tushunish: Matnda ishlatiladigan grammatik tuzilmalar va stilistik usullarning ahamiyatini anglash.
- Strukturalarni aniqlash: Matnning tarkibiy qismlarini – kirish, asosiy qism va xulosani tahlil qilish.
- Mavzuni tushunish va fikrni rivojlantirish: Matnda berilgan g'oyalar bilan ishlash va ulardan o'z fikrlarini rivojlantirish uchun foydalanish.

Ushbu mashqlar talabalarni turli matn janrlari bilan tanishtiradi. Masalan, ilmiy maqola, insholar, xatlar, hisobotlar va boshqa yozuv shakllarini tahlil qilish orqali ular matnlarni to'g'ri

tuzishni o'rganadilar. Bundan tashqari, matn tahlili talabalarga mantiqiy izchillik, to'g'ri ohang va stilistik moslikni shakllantirishga yordam beradi.

3. Mashqlarning metodikasi

Yozma ko'nikmalarni rivojlantirish uchun matn tahliliga asoslangan mashqlarni samarali tashkil etish lozim. Ushbu metodika quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

- Matnni strukturaviy tahlil qilish: Kirish, asosiy qism va xulosaning lingvistik va stilistik jihatlarini ajratish.
- Grammatik va leksik tahlil: Matnda qo'llanilgan grammatik tuzilmalar, leksik birliklar va iboralarni o'rganish.
- Muqoyasa qilish: Turli matn janrlarini solishtirish va ularning o'xshashlik hamda farqlarini aniqlash.
- Mashqlarni amaliyotga joriy etish: Talabalarga matn tahlilidan olingan bilimlarni o'z yozma ishlarida qo'llash imkoniyatini berish.

4. Talabalarning ijodkorligini rivojlantirish

Matn tahliliga asoslangan mashqlar nafaqat lingvistik bilimlarni oshiradi, balki talabalarning ijodkorlik salohiyatini ham rivojlantiradi. Bu mashqlar talabalarga o'z fikrlarini erkin va ijodiy ifodalash, muammolarni mustaqil hal qilish va yangi g'oyalarni ilgari surish imkonini beradi. Ijodkorlikning rivoji talabalarning yozma ishlariga o'ziga xoslik va rang-baranglik olib kiradi.

5. Matn tahlilining lingvistik va uslubiy xususiyatlari

Matn tahlilida quyidagi jihatlar alohida e'tibor qaratish lozim:

Lingvistik jihatlar: Grammatik tuzilmalar, uslubiy rang-baranglik va til birliklarining funksional xususiyatlari.

Uslubiy jihatlar: Matn janri va uning maqsadiga mos ravishda tuzilgan uslubiy elementlar.

6. Amaliy natijalar va baholash

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, matn tahliliga asoslangan mashqlarni ta'lim jarayoniga kiritish talabalarning yozma ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu mashqlar yordamida talabalar mantiqiy izchillikni saqlash, grammatik to'g'ri yozish va fikrni aniq ifodalashda muvaffaqiyat qozonadilar. Mashqlarni baholashda matnning mazmuni, grammatik to'g'riligi, stilistik mosligi va mantiqiy tuzilishi hisobga olinadi.

Material va metodlar

Tadqiqot ishtirokchilari

Tadqiqotda O'zbekiston jahon tillari universiteti talabalari qatnashdi. Ishtirokchilar sifatida ingliz tilini o'rganayotgan 2-kurs talabalari tanlab olindi. Guruh tarkibiga jami 40 nafar talaba kiritilib, ular tasodifiy tanlash asosida ikkiga bo'lindi: tajriba guruhi (20 nafar) va nazorat guruhi (20 nafar).

Tadqiqot predmeti

Tadqiqot predmeti ingliz tilida yozma ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida matn tahliliga asoslangan mashqlarni qo'llash samaradorligini o'rganishdan iborat.

Mashqlarni tanlash va qo'llash

Tajriba guruhi uchun maxsus metodik materiallar ishlab chiqildi. Ushbu materiallar quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oldi:

Matn strukturasi tahlili: Talabalar matnning kirish, asosiy qism va xulosa qismlarini ajratib, ularning har biri uchun alohida topshiriqlar bajarishdi.

Grammatik tahlil: Matndagi grammatik tuzilmalarni o'rganish va ularni amaliyotda qo'llash.

Leksik tahlil: Matndagi yangi so'zlar va iboralarning mazmunini o'rganish va ular bilan jumlar tuzish.

Amaliy yozuv mashqlari: Talabalar matn tahlili asosida o'zlarining kichik hajmdagi yozma ishlarini tayyorlashdi.

O'quv jarayoni tashkil etilishi

Mashqlarni o'tkazish ikki bosqichda amalga oshirildi:

1. Tahlil bosqichi: Tajriba guruhi talabalari turli janrlardagi matnlarni lingvistik va struktural tahlil qilishdi.

2. Yozuv bosqichi: O'rganilgan materiallar asosida talabalarga yozma topshiriqlar berildi. Ular o'z fikrlarini mantiqiy va grammatik jihatdan to'g'ri ifodalashga harakat qilishdi.

Nazorat guruhi bilan esa an'anaviy usulda ishlash davom ettirildi. Ular umumiy yozma topshiriqlarni bajarishdi, ammo matn tahliliga alohida e'tibor qaratilmadi.

Baholash metodikasi

Tadqiqot natijalari quyidagi mezonlar bo'yicha baholandi:

1. Grammatik to'g'rilik: Talabalar matnlarida grammatik xatolarning aniqlanish darajasi.

2. Mantiqiy izchilik: Matn tuzilmasining aniq va izchil bo'lishi.

3. Ijodiy yondashuv: Talabalar fikrlarining o'ziga xosligi va original yondashuvi.

4. Leksik boylik: Yangi so'zlar va iboralarni qo'llash darajasi.

Baholash natijalari tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasida taqqoslanib, matn tahliliga asoslangan mashqlar samaradorligi tahlil qilindi.

Statistik tahlil

Olingan ma'lumotlar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, o'quv jarayonida matn tahliliga asoslangan mashqlar qo'llashning samaradorligi baholandi. O'rtacha natijalar va dispersiya ko'rsatkichlari aniqlanib, guruhlar orasidagi tafovutning ahamiyatlilik darajasi χ^2 testi yordamida tekshirildi [3].

Adabiyotlar tahlili.

Ingliz tilida yozma ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha umumiy qarashlar: til o'rganishda yozma ko'nikmalar til egallashning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yozma mashqlar orqali talabalar nafaqat grammatika va leksika bo'yicha bilimlarini mustahkamlaydi, balki o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalash qobiliyatini ham rivojlantiradi[4].

Kirish. XXI asrga kelib jahonda xotin-qizlarning jamiyat hayotida o'rnining ortib borishi va o'z navbatida, ularning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etishi mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda, aholi turmush tarzining yuksalishida muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bois ayollarning ijtimoiy faolligini yuksaltirish, ularning huquq va erkinliklarini kafolatlash, sog'lom avlod tarbiyasi, xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini rag'batlantirish davr talabiga aylandi.

So'nggi yillarda jamiyatdagi o'zgarishlarga hamohang O'zbekistonda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida alohida e'tibor berilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev

ta'kidlaganidek: "... bugun O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi – ayollarimizga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni, maqomini mustahkamlash, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashdir".

Mamlakatda 17 mln.dan ziyod xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi 22 ta qonun va 30 dan ziyod me'yoriy hujjatlarning e'lon qilinganligi mazkur soha davlatning ustuvor vazifalaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Metodlar. Ma'lumki, dunyo mamlakatlarining tajribasi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalarning rivojlanishida asosiy omil sifatida ilm-fanning rivojiga bo'lgan e'tiborning mavjudligidan dalolat beradi. Xususan, O'zbekistonda ham bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatni barpo etish yo'lida ilm-fanni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha O'zbekistonda doimiy ravishda o'zgarishlar va yangilanishlar amalga oshirildi.

Ta'kidlash joizki, 1979-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyani qabul qildi. Bu konvensiya 1981-yil 3-sentyabrda xalqaro qonun sifatida tasdiqlandi, dunyoning 189 davlati ratifikatsiya qilgani holatida O'rta Osiyo mamlakatlari ichida birinchilardan bo'lib O'zbekiston 1995-yil ushbu konvensiyani ratifikatsiya qildi va uning barcha majburiyatlariga to'laqonli qo'shildi[1]. 1995-yil mart oyida "Davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlar rolini kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-1084-son farmoni imzolandi. Mazkur farmondan so'ng, vaziyat ancha ijobiy tomonga o'zgardi. Shunday ekan aytilish mumkinki, mamlakatda xotin-qizlarning mavjud masalalarini hal etishda davlat proyeksiyasi tiklandi. Bunga ko'ra, davlat organlarining yordami ayollarning yangi jamiyatga ko'nikishi va o'zligini qayta topib olishda juda muhim bosqich bo'ldi. Bu farmon, ayollarga muhim imtiyozlar berdi. Avvalo xotin-qizlarning ijro etuvchi hokimiyat tizimlaridagi mansablari tiklandi, ularga ayollar muammolari bilan shug'ullanish uchun keng sharoitlar yaratildi.

Mustaqillik yillarida bu kabi huquqiy-me'yoriy hujjatlar doimiy takomillashib bordi. 1999-yil 14-aprelda O'zbekiston Respublikasining 760-I-son "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Qonun bo'yicha xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlar ro'yxati shakllantirildi. 2004-yil 25-maydagi "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Qo'mita ishlari bo'yicha kerakli normativ hujjatlar qabul qilindi. 2010-yil 30-sentyabrdagi PF-4245-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi[2].

Respublikada xotin-qizlarga oid davlat siyosatiga yangicha tus berilgan davr sifatida asosan prezident Sh. Mirziyoyevning sa'y harakati bilan olib borilayotgan chora-tadbirlarni sanab o'tish mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni asosida, ayollarning ham ilm-fan va maorif sohasida ishlar rejalashtirildi, bunda ham ularning huquqlari kafolatlanishi rasmiylashtirildi. 2018-yil 2-fevraldagi PF-53-25-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni aynan gender tenglik siyosatini shakllantirgan holda ijrosi bilan bog'liq masalalarga aniqlik kiritdi[3].

2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son “Xotin-qizlarning mehnat huquqlarining kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ham xotin-qizlarga oid davlat siyosatida muhim qadam bo‘lib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy sohalaridagi ishtiroki masalalari ijtimoiy soha olimalari tomonidan o‘rganilgan. D.Alimova, D.Bobojonova, Ya.Abdullayeva, M. Xolmatova, N.Muravyova, Yu.Ergasheva, T. G‘afforova, Sh.Ashurova va boshqa mualliflarning ishlarida O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy sohalaridagi faoliyati chuqur talqin etilgan bo‘lsada, ammo xotin-qizlarning ilm-fan va maorifdagi faoliyati alohida maxsus tadqiq etilmagan.

Muhokama. O‘tgan tarixiy davr mobaynida xotin-qizlarning jamiyatga bevosita ta‘siri kuchayib bordi. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida demokratik jamiyatni barpo etish yo‘lida ilm-fanni rivojlantirish muhim dolzarb masalalardan biri bo‘ldi. Bu sohani rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekistonda muntazam ravishda islohot va yangilanishlar amalga oshirildi. O‘zbekistonda ilm-fan rivoji uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ilmiy va innovatsion faoliyatning hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, barcha sohalar, jumladan aniq, tabiiy, ijtimoiy, texnik sohalariga xizmat qiluvchi fanlarni hozirgi zamon talablariga mos moddiy-texnik resurslar bilan ta‘minlash, mutaxassis kadrlar tayyorlash kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Bu jarayonda xotin-qizlar ham faol ishtirok etib, olib borilayotgan islohotlarda o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shdi. Bunday islohotlar o‘zbek xotin-qizlar ruhiyatiga ta‘sir qildiki, oila, mehnat va jamoat ishlari, ilmiy faoliyatda doimiy namuna ko‘rsatib keldilar va o‘z o‘rniga ega bo‘ldilar. Masalan, O‘zbekiston pedagog olimalari ilm-fan ravnaqida samarali hissa qo‘shib keldi. Bu kabi samarali ishlarda pedagog olimalarning ilmiy izlanishlari natijasida tub burilish yuz berdi. O‘zbek pedagog olimalari o‘z vatani va davlatini jahonning yuksak taraqqiy etgan davlatlari qatoriga qo‘shilishiga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Xususan, O‘zbekistonda pedagogika fanlari doktori va professorlari singari olimalar mamlakatda ta‘lim-tarbiya ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, yetuk mutaxassis malakali kadrlarni yetishtirishda fidoiylik ko‘rsatib, vatan sharafini ulug‘lamoqdalar. Masalan, qashqadaryolik pedagog olima ayol Tal‘at G‘afforova pedagogika fanining dolzarb muammolarini o‘rgandi[4]. Bu bo‘yicha 180 ga yaqin ilmiy, metodik va ommabop ishlarni e‘lon qildi. U Respublika Ta‘lim markazi ilmiy-metodik kengashining a‘zosi hamda “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali tahririyat a‘zosi sifatida Respublikada boshlang‘ich ta‘limning rivojiga katta hissa qo‘shdi.

“Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali sahifalarida e‘lon qilingan maqolalari o‘zining dolzarbliigi, bugungi kun muammolariga bag‘ishlanganligi bilan jurnal muxlislarining diqqatini tortdi. Masalan “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnalining 2012-yil 9-sonida e‘lon qilingan “Mustaqil fikrlashga o‘rgatish” mavzusidagi maqolasi jurnalning “Mahorat” ijodiy tanlovida “Eng yaxshi maqola uchun” nominatsiyasi bo‘yicha birinchi o‘rinni oldi. Mustaqillikning dastlabki yillarida olima “Istiqlol va boshlang‘ich ta‘lim muammolari” mavzusida qator anjumanlar o‘tkazdi va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish yuzasidan turli fikr-mulohazalarni tinimsiz o‘rganib bordi. O‘rgangan izlanishlari asosida unda boshlang‘ich sinflar uchun yangi o‘quv-metodik qo‘llanma yaratish g‘oyasi tug‘ildi. Natijada ijodiy guruh tuzdi va 1-sinflar uchun o‘quv-metodik majmua yaratdi. Bu majmua “Alifbe”, “Ona tili va o‘qish” darsliklari, 1- va 2-yozuv daftarlari, o‘qituvchilar uchun “1-sinfda savod darslari” metodik qo‘llanmalarini o‘z ichiga olgan edi.

2002-yilda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining darsliklar tanlovi e’lon qilingach, tanlovda qatnashib “Ona tili”, “O‘qish kitobi” darsliklari bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritdi va ushbu darsliklarni va ular uchun “1-sinfda ona tili darslari”, “1-sinfda o‘qish darslari” metodik qo‘llanmalarini yaratdi. 2005-yilda e’lon qilingan “Eng yaxshi darslik va o‘quv adabiyoti muallifi” konkursida T.G‘afforovaning “1-sinfda o‘qish darslari” metodik qo‘llanmasi 1-o‘rinni egalladi.

2012-yilda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining keyingi darsliklar tanlovi e’lon qilindi. Unda T.G‘afforova o‘z hammualliflari bilan 2 — sinf “O‘qish kitobi” bo‘yicha tanlovda qatnashib, g‘oliblikni qo‘lga kiritdi va 2012/2013 o‘quv yilida uning yana bitta darsligi o‘quvchilar qo‘liga bordi. Bu darslik asosida o‘qitish bo‘yicha o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma ham yaratildi. Shuningdek, T.G‘afforova “O‘qituvchining professional faoliyati”, “Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari”, “Kurs ishi va nazorat ishlari yozish uchun metodik tavsiyalar”, “Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili va o‘qishdan didaktik materiallar”, “Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida didaktik o‘yinlar va mustaqil ishlar”, “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” kabi qator o‘quv qo‘llanmalarining “Rahbarlikning oltin qoidalari”, “Qashqadaryo olimalari”(ocherklar to‘plami) kabi ko‘plab risolalarning muallifi hisoblanadi. T.G‘afforova ko‘pchilik olimalarning ustози ham hisoblanadi.

Olimaning shunday shogirdlaridan biri Shahlo Nurullayevadir. 2012-yil Sh.Nurullayeva ustози T.G‘afforova bilan hammualliflikda tayyorlagan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinflari uchun “O‘qish kitobi” darsligi bilan tenderda g‘olib bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tavsiyasiga ko‘ra nashr etilib, hozirgi kunga qadar Respublika maktablarida foydalanib kelinmoqda[5]. Xuddi shu yili darslik bilan birga nashr etilgan “2-sinfda o‘qish darslari” o‘quv qo‘llanmasi o‘qituvchi kitobi sifatida nashr etildi. Sh. Nurullayeva pedagogik kasbi jarayonida o‘quv mashg‘ulotlarining mazmundorligi, nutq madaniyatining yuksakligi va berayotgan bilimlarining talabalar tomonidan faol qabul qilinishi bilan ajralib turadi. Uning 30 dan ortiq ilmiy maqolalari va ko‘plab ilmiy ishlari Respublikaning nufuzli matbuotlarida e’lon qilingan. Jumladan “Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida mustaqil ishlar va didaktik o‘yinlar” (2003), “Boshlang‘ich sinf ona tili darslari uchun didaktik materiallar” (2004), “Pedagogik mahorat” kursidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyasi” (2011), “Shaxs – televideniye — ta’lim-tarbiya” (2011) kabi o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari nashr etilib, amalda foydalanib kelinmoqda. Sh. Nurullayeva 2009-yildan 2014-yilgacha Boshlang‘ich ta’lim kafedrası mudiri lavozimlarida ishlab, kafedrada professor-o‘qituvchilar faoliyatini samarali tashkil etish, o‘qitiladigan fanlarning uslubiy ta’minotini takomillashtirish, tegishli hujjatlarni to‘g‘ri yuritish borasida ijobiy natijalarni qo‘lga kiritdi. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tavsiya etilgan yo‘riqnomaga asosan kafedra faoliyatini namunaviy kafedra me‘yorlariga ko‘ra tashkil etishga harakat qildi va muvaffaqiyatlarga erishdi.

2014-yildan Pedagogika fakultetining dekani vazifasida ishlab keldi. Ushbu lavozimda ishlashi davomida u fakultet talabalari hamda professor-o‘qituvchilarga nisbatan o‘z navbatida, talabchan va mehribon rahbar sifatida shakllandi. U har bir ishni bajarishda o‘ziga nisbatan talabchan, fidoiy va samimiyligi tufayli fakultet jamoasining hurmati va e‘tiboriga sazovor bo‘ldi. Sh.Nurullayeva bugungi kunda yetuk olima, Pedagogika fani yo‘nalishida ilmiy maktab yaratdi. Sh.Nurullayeva rahbarligida 5 nafar tadqiqotchilar dissertatsiya ishlarini himoya qilib, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga ega bo‘ldilar.

Xulosa. Mustaqillik yillarida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'рни, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy sohalaridagi ishtiroki masalalari ijtimoiy soha olimalari tomonidan o'rganildi. Ayniqsa pedagogika fani va tizimida xotin-qizlarning o'рни yaqqol namoyon bo'ldi. Bunda asosan davlat siyosatining izchillik bilan qabul qilgan me'yoriy hujjatlari huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi. Olimalar fanda yangi pedagogik yondashuvlarni targ'ib qilishda, psixologik jarayonlarni asoslashda, nazariyalarni yangilashda hissa qo'shdi. O'zbekistonda pedagogika fani rivojida xotin-qizlar oldingi o'rinlarda bo'ldi. Birgina Qashqadaryo viloyati misolida T.G'afforova, B.Xidirova, M.Mazidova, M.Bozorova, O.Haydarova, Sh.Nurillayeva, N.Oripova, D.Kenjayeveva, U.Yoziyeva, L.Beknazarova, M.Fayziyeva, M.Norbosheva, U.Mamarasulova, G.Sattorova, M.Bozorova, B.Karimova, X.Sharafutdinova nomlarini qayd etish mumkin.

Xullas, ta'lim sohasi islohotlarida xotin-qizlarning faol ishtiroki ularning jamiyatda nufuzining ortishiga, turmush sharoitining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Xotin-qizlar ta'limni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun hukumat tomonidan munosib taqdirlanib, moddiy rag'batlantirildi. Umumta'lim sohasida mukofotlanganlarning katta qismini xotin-qizlar tashkil etdi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Защита прав, свобод и интересов человека в международном праве: история, направления, формы.
2. Гендерное равенство и роль женщин в обществе.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Qarori "Xotin-qizlarning mehnat huquqlarining kafolatlarini yana-da kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 4235 sonli. 07.03 2019. <https://lex.uz/ru/docs/-4230944>
4. T.G'afforova, Sh.Ashurova Qashqadaryo olimalari- 2006y.
5. Yu.Ergashova, G.Imomova. Qashqadaryo ilm yulduzlari. –Qarshi: "Intellekt-nashriyot", 2023. – B.3.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

MODERN APPROACHES TO ENHANCING PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PATRIOTIC QUALITIES IN STUDENTS UNDER EDUCATIONAL TRANSFORMATION

Sadiev Valijon,

UzSWLU, Doctor of Philosophy in
Pedagogical Sciences (PhD)

Abstract. The article explores modern approaches to improving the pedagogical conditions for developing students' patriotic qualities amid educational transformation. It analyzes the integrative approach, project-based learning, and the use of digital technologies as key methods promoting effective patriotic education. International experience and its adaptation to the Russian educational system are also considered.

Keywords: patriotic education, integrative approach, project-based learning, digital technologies, educational conditions, transformation.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ РАЗВИТИЯ ПАТРИОТИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Садиев Валижон,

УзГУМЯ, доктор философии по
педагогическим наукам (PhD)

Аннотация. В статье исследуются современные подходы к совершенствованию педагогических условий развития патриотических качеств учащихся в условиях трансформации образовательного пространства. Анализируются интегративный подход, проектная деятельность и использование цифровых технологий как ключевые методы, способствующие эффективному патриотическому воспитанию. Рассматривается международный опыт и его адаптация к российской образовательной системе.

Ключевые слова: патриотическое воспитание, интегративный подход, проектная деятельность, цифровые технологии, образовательные условия, трансформация.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N100>

Введение. В условиях постоянных социальных и культурных изменений формирование патриотических качеств учащихся представляет собой важную задачу образовательной системы. Патриотическое воспитание обеспечивает не только развитие чувства принадлежности к своей стране, но и укрепление социальной стабильности. Современные педагогические исследования подчеркивают важность использования многосторонних подходов и методов для достижения этих целей. Вопрос о совершенствовании педагогических условий, обеспечивающих развитие

патриотических качеств, требует комплексного анализа и адаптации существующих образовательных стратегий к условиям трансформации общества [1; 45].

Актуальность данного исследования определяется необходимостью разработки инновационных методов и педагогических условий, способствующих повышению уровня патриотического воспитания учащихся. Трансформация образовательного пространства, вызванная внедрением современных технологий и новыми требованиями к образованию, требует пересмотра традиционных подходов и поиска новых эффективных решений [2; 30]. Развитие патриотизма должно основываться не только на знаниях и понимании исторических и культурных аспектов, но и на практической деятельности, способствующей закреплению этих знаний через опыт и личное участие.

Данная статья направлена на исследование подходов к совершенствованию педагогических условий, которые могут способствовать эффективному развитию патриотических качеств у учащихся. Основное внимание уделено интегративному подходу, проектной деятельности и использованию цифровых технологий, а также рассмотрению педагогических условий, адаптированных к трансформационным изменениям в обществе [3; 56]. Подходы и выводы статьи основаны на обзоре современной научной литературы и анализе практических примеров применения этих методов в образовательной среде.

Методы. Методология исследования основана на системном анализе современной научной литературы и сравнительном изучении лучших образовательных практик. В рамках исследования были рассмотрены работы, посвященные интегративному подходу к обучению, проектной деятельности и использованию цифровых технологий в образовательном процессе. Особое внимание уделено работам, в которых описаны инновационные методики и подходы, внедренные в образовательную систему для повышения уровня патриотического воспитания [4; 78].

Были изучены источники, анализирующие как российский, так и международный опыт в сфере патриотического воспитания. Анализ отечественной литературы позволил определить актуальные проблемы и преимущества существующих методов обучения, направленных на воспитание патриотизма. Рассмотрение зарубежных публикаций помогло понять, как можно адаптировать успешные международные практики к российским условиям и внедрить элементы гражданского образования, которые способствуют развитию критического мышления и расширению знаний о родной культуре [5; 92].

Для более глубокого анализа использовались также сравнительные исследования, в которых приводятся результаты применения различных подходов к патриотическому воспитанию в условиях традиционной и цифровой образовательной среды [6; 104]. Оценка результатов и эффективности проводилась с учетом педагогических условий и среды, в которых применялись те или иные методы.

Результаты. Интегративный подход предполагает включение элементов патриотического воспитания в образовательные программы не только гуманитарных дисциплин, но и технических и естественнонаучных предметов. Такой подход помогает создавать у учащихся комплексное понимание патриотизма как важного аспекта жизни общества [7; 112]. Введение тем, касающихся истории и культурного наследия, в

учебный процесс по разным предметам позволяет усилить образовательный эффект и способствует формированию патриотических чувств у учащихся.

Примером успешного использования интегративного подхода может служить внедрение факультативных курсов, в которых рассматриваются различные аспекты национальной культуры и истории через призму нескольких дисциплин. Эти курсы позволяют ученикам развивать критическое мышление и анализировать исторические события, что способствует более глубокому пониманию своей роли в обществе [8; 132].

Проектная деятельность, направленная на развитие патриотических качеств, дает учащимся возможность непосредственно участвовать в изучении культурных и исторических событий. Этот метод позволяет учащимся не только получать знания, но и закреплять их через личный опыт. Проекты могут включать в себя исследовательскую работу о местных памятниках, исторических событиях и известных личностях, что усиливает связь учащихся с их культурным наследием и формирует чувство гордости за свою страну [9; 146].

Примеры успешных проектов включают организацию конкурсов и выставок, посвященных различным аспектам национальной истории и культуры. Эти мероприятия не только расширяют кругозор учащихся, но и способствуют формированию социальной ответственности и пониманию исторической преемственности [10; 89]. Активное участие в подобных проектах развивает у детей и подростков чувство принадлежности к сообществу, укрепляет командный дух и прививает уважение к своей культуре.

Цифровизация образовательного процесса открывает новые возможности для патриотического воспитания. Современные технологии позволяют учащимся получать доступ к разнообразным образовательным ресурсам, включая виртуальные экскурсии, интерактивные карты и мультимедийные презентации [11; 29]. Это помогает создавать более привлекательную и вовлекающую образовательную среду, которая мотивирует учеников к активному изучению истории и культуры.

Использование цифровых технологий также позволяет проводить занятия с использованием геймификации, что делает образовательный процесс более интересным и стимулирует учащихся к самостоятельному изучению материала. Такие методы повышают интерес к истории и культурному наследию и способствуют закреплению знаний [12; 74].

Обсуждение. Анализ подходов к патриотическому воспитанию показывает, что традиционные методы, применяемые в образовательных учреждениях, требуют значительных адаптаций к современным условиям. Это связано с тем, что общество переживает активные трансформации, обусловленные развитием технологий, изменением культурных приоритетов и глобализацией. Одним из ключевых моментов становится необходимость интеграции новых образовательных методик, которые способствуют более глубокому и всестороннему формированию патриотических качеств у учащихся.

Интегративные и проектные методы показали свою высокую эффективность в контексте патриотического воспитания. Согласно исследованиям, использование интегративных подходов способствует увеличению уровня осознанности учащихся. В частности, исследования показывают, что школы, внедрившие межпредметные

программы с элементами патриотического воспитания, зафиксировали рост интереса учащихся к национальной истории на 20% [7; 112]. Это позволяет учащимся не только понимать важные исторические факты, но и видеть связь между разными областями знаний и патриотизмом.

Проектная деятельность является еще одним ключевым элементом, поддерживающим развитие патриотических качеств. Исследования показали, что учащиеся, активно участвующие в проектной работе, связанной с культурным наследием и историей своей страны, демонстрируют более высокий уровень вовлеченности и мотивации. В одном из исследований, проведенных среди старшеклассников, 78% участников отметили, что проектная деятельность помогла им лучше осознать значимость культурного наследия их региона [9; 146]. Это доказывает, что вовлечение учеников в исследовательскую и творческую деятельность укрепляет их связь с сообществом и способствует развитию социальной ответственности.

Цифровые технологии играют важную роль в модернизации патриотического воспитания. Использование технологий позволяет образовательным учреждениям выйти за рамки традиционного обучения и предложить учащимся более интерактивный и привлекательный формат изучения. Например, виртуальные экскурсии и мультимедийные презентации помогают учащимся ознакомиться с историческими памятниками и событиями в интересной и доступной форме. Исследование, проведенное в 2020 году, показало, что 65% учащихся отметили, что использование цифровых ресурсов помогает им лучше усваивать материал и повышает их интерес к учебе [11; 29]. Таким образом, цифровые технологии не только улучшают процесс обучения, но и способствуют формированию устойчивого интереса к истории и культуре.

Международный опыт подтверждает необходимость модернизации образовательных подходов. Например, в США программы гражданского образования показали свою эффективность в развитии патриотических качеств и критического мышления у учащихся. По данным исследования, проведенного Национальной ассоциацией по гражданскому образованию, школы, использующие элементы гражданского образования, отмечают повышение уровня гражданской активности среди выпускников на 25% [14; 20]. Это свидетельствует о том, что эффективные образовательные практики, направленные на воспитание патриотизма, могут быть заимствованы и адаптированы для применения в российской системе образования.

Сравнительный анализ показывает, что системы образования стран, активно внедряющих проектное обучение и цифровые технологии, имеют лучшие результаты в плане формирования патриотических качеств у учащихся. Например, в Финляндии, где активно применяются современные педагогические методы, более 80% учеников выразили позитивное отношение к изучению истории своей страны и считают важным сохранение национальных традиций [14; 22]. Эти данные подчеркивают значимость использования интегративных методов, адаптированных к современным условиям, для повышения уровня патриотического воспитания.

Наконец, важно отметить значимость взаимодействия школы с семьей и местным сообществом. Исследования показывают, что вовлечение родителей и общественных организаций способствует созданию благоприятной среды для развития

патриотических качеств. В одном из исследований, проведенных в 2019 году, было установлено, что учащиеся, чьи родители активно участвуют в образовательных проектах, связанных с патриотизмом, демонстрируют более высокую мотивацию и чувство гордости за свою страну [15; 78]. Это подчеркивает важность совместных усилий школы и семьи в процессе патриотического воспитания.

В целом, современные подходы к патриотическому воспитанию, включая интегративные и проектные методы, использование цифровых технологий и активное взаимодействие с сообществом, способствуют более глубокому развитию патриотических качеств у учащихся. Эти подходы делают образовательный процесс более гибким и адаптированным к потребностям современного учащегося, что особенно важно в условиях динамичных изменений в обществе.

Заключение. Для обеспечения эффективного патриотического воспитания учащихся в условиях трансформации образовательного пространства необходим комплексный подход, включающий использование интегративных методов, проектной деятельности и современных цифровых технологий. Важным условием является создание инклюзивной среды и активное взаимодействие между школой, семьей и сообществом, что способствует поддержке и развитию патриотических качеств у учащихся [15; 78].

Перспективы дальнейших исследований включают разработку и апробацию новых программ и методик, направленных на более эффективное воспитание патриотизма с учетом современных требований и вызовов.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Лопатин, И.В. Патриотическое воспитание в современной школе: проблемы и перспективы. Москва: Издательство "Педагогика", 2019. — 250 с.
2. Иванов, А.П. Инновационные подходы к воспитанию патриотических чувств в условиях глобализации. Санкт-Петербург: НИИ образования, 2020. — 180 с.
3. Петров, М.С. Интеграция патриотического воспитания в образовательные программы: теория и практика. Москва: Высшая школа, 2018. — 320 с.
4. Сидоров, В.А. Проектная деятельность как метод формирования патриотических качеств. Журнал педагогических исследований, 2017. — №4, с. 76–89.
5. Новиков, К.Д. Роль цифровых технологий в патриотическом воспитании: возможности и перспективы. Образовательные технологии и общество, 2021. — Т. 24, №2, с. 20–35.
6. Кузнецова, Н.В. Трансформация педагогических условий в условиях цифровизации образования. Современные образовательные исследования, 2020. — №5, с. 44–62.
7. Васильев, Р.П. Инклюзивная среда как фактор развития патриотических качеств учащихся. Педагогическая практика и теория, 2019. — №3, с. 55–68.
8. Smith, J., & Jones, R. Civic Education Programs in Modern School Systems. New York: Educational Press, 2018. — 220 p.
9. Сергеева, О.И. Эффективные подходы к обучению патриотизму в условиях современного образования. Образовательный альманах, 2020. — №1, с. 45–59.
10. Николаев, Ю.С. Творческие проекты как инструмент патриотического воспитания. Педагогические науки, 2018. — №6, с. 70–84.
11. Боброва, Л.М. Виртуальные экскурсии в образовательной практике: новые горизонты. Вопросы современной педагогики, 2019. — №8, с. 22–38.

12. Roberts, K., & Patel, M. Digital Tools in Education for Enhancing Cultural Understanding. *Journal of Educational Technology*, 2019. — Vol. 15, Issue 3, pp. 55–73.
13. Захаров, Д.А. Критическое мышление в патриотическом воспитании: вызовы и решения. *Педагогическая философия*, 2021. — №2, с. 40–53.
14. Johnson, L., & Thomas, P. Effective Methods for Teaching Patriotism in a Multicultural Society. *Global Educational Review*, 2017. — Vol. 10, pp. 18–33.
15. Фролова, Е.И. Взаимодействие семьи и школы в воспитании патриотизма у детей. *Вопросы педагогики*, 2020. — №4, с. 75–89.

Received: 10 November 2024
Accepted: 15 November 2024
Published: 25 November 2024

Article / Original Paper

STRATEGY FOR FORMING INNOVATIVE COMPETENCE IN TEACHERS IN THE PROCESS OF CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT

Pulatova Mukhabat Egamberdievna,

Samarkand State University

named after Sharof Rashidov

Department of Pedagogy and General Psychology, Teacher (PhD)

Abstract. When forming the content of teacher preparation for innovative activities, situations are considered in which the teacher's knowledge on the subject that he teaches in his professional activity, the analysis of his accumulated experience, his subjective attitude to professional development, methods and means of improving his didactic abilities are manifested.

Keywords: strategy, modeling, design, "support" of the strategic direction, "activation" of the strategic direction.

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA O'QITUVCHILARDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYASI

Pulatova Muhabbat Egamberdievna,

Sharof Rashidov nomdagi Samarqand davlat universiteti

Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrası

o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. O'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarlik mazmunini shakllantirishda o'qituvchining o'qitadigan faniga doir bilimlari kasbiy faoliyatida vujudga keladigan vaziyatlar, to'plangan tajribalari tahlili, kasbiy rivojlanishga nisbatan subyektiv munosabati, didaktik qobiliyatlarini takomillashtirish usul va vositalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: strategiya, modellashtirish, loyihalashtirish, "qo'llab-quvvatlash" strategik yo'nalishi, "faollashtirish" strategik yo'nalish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N101>

Ta'lim tizimi davlat va jamiyat rivojining poydevorini ifodalar ekan, unga qo'yiladigan uzoq istiqbol yoki yaqin muddatli vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda o'qituvchining kasbiy mahorati almashtirilib bo'lmaydigan omilni ifodalaydi. Bu jarayonda o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish, ta'limdagi strategik yo'nalishlarni ilg'ab olish, o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lish uchun unda innovatsion kompetensiyani rivojlantirish uchun yetarlicha shart-sharoitlarni yaratish lozim bo'ladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "strategiya" tushunchasi ko'chma ma'noda "ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san'ati, shuningdek, umuman, boshqaruvni to'g'ri va istiqbolli rejalashtirish san'ati" [6], degan ma'noni anglatishi ko'rsatilgan. Shu nuqtai nazardan,

“strategiya” tushunchasini o‘qituvchining o‘z innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishni uzoq muddatli rejalashtirishga doir faoliyati sifatida qarashimiz mumkin.

Strategiyani o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga oid maqsadini aniq belgilash hamda unga erishish uchun amalga oshiriladigan harakatlar majmuini loyihalash tarzida qabul qiladigan bo‘lsak, strategiklik uzoq kelajakni ko‘rishdan iboratligi aniqlanadi. Kelajak o‘tmishni qayta ishlash orqali yaratilmaydi, balki u haqidagi g‘oyalar qurilish, modellashtirish, loyihalashtirish vositalari hisobiga paydo bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini uzluksiz kasbiy rivojlantirishda strategik ta‘sirni amalga oshirish uchun strategik innovatsion pozitsiyani egallashi (ya‘ni, o‘zgarishlar, yangiliklarni butunligicha qamrab olishi, bu vaziyatda o‘zini, hamkasblari, ta‘lim ishtirokchilarining harakatlari, o‘zaro ta‘sirini ko‘rishi) va shu yo‘nalishda harakat qilishi kerak.

Strategik ta‘sir predmeti strategik innovatsion g‘oyalardan iborat bo‘lib, u quyidagi tasavvurlardan tashkil topadi:

vujudga kelgan hozirgi vaziyat to‘g‘risida;

mumkin bo‘lgan va istalganlar asosida shakllangan uzoq kelajak to‘g‘risida;

kelajak shakllanishi to‘g‘risida;

tizimning hech bo‘lmasa, bitta oraliq holati to‘g‘risida [9].

Olimlarning dalillashicha, strategik g‘oyalar mavjud bo‘lsa, unda subyekt strategik ta‘sirlarni yuzaga chiqarish va kutilgan kelajakni shakllantirishning strategik boshqaruviga ega bo‘ladi. Ta‘sir “harakat”, o‘zgarish o‘choqlarini yaratish orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, strategik yondashuvning maqsadi subyektning uzoq kelajakni qurishdagi ishtirokini ta‘minlashdan iborat.

Tadqiqot ishimizda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida innovatsion kompetensiyasini shakllantirishning strategik yo‘nalishlarini faollashtirish, qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlarda belgilash maqsadga muvofiq, degan xulosaga keldik (1-rasm).

Faollashtirishning strategik yo‘nalish sifatidagi mohiyati obyektning bir rivojlanish darajasidan ikkinchi darajaga, dolzarb rivojlanish zonasidan bevosita rivojlanish zonasiga o‘tishi bilan belgilanadi. Subyektning shakllanishi va rivojlanishi uning faoliyati bilan bevosita bog‘liq, degan fikrdan kelib chiqib, o‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida innovatsion kompetensiyasini taraqqiy ettirish uchun uning subyektlarini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan innovatsion faoliyatga kiritish, subyektning innovatsion qobiliyatlari, innovatsion fikrlash turi, muloqot ko‘nikmalari, psixologik imkoniyatlarini “o‘stirish” zarur. Mavzuni shakllantirish va rivojlantirishning yetakchi omili ta‘lim muhiti hisoblanadi. Innovatsion kompetensiyani rivojlantirishga doir faoliyat subyektini shakllantirish uchun bunday muhit uzluksiz kasbiy rivojlantirishning innovatsion sohasidir.



1-rasm. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida innovatsion kompetensiyasini shakllantirishning strategik yo'nalishlari

Demak, o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish umumta'lim maktabi va pedagogning innovatsiyalarga tayyorgarlik darajasiga bog'liq ekan, o'z navbatida shunday muhit sohani takomillashtirish vositasi ham hisoblanadi, ya'ni ularda o'zaro to'ldiruvchanlik va ikki tomonlama tobelik mavjud.

“Faollashtirish” strategik yo'nalishi M.M.Levina [10] tomonidan ishlab chiqilgan, V.A.Adolf va I.Yu.Ogepanova [7] tomonidan to'ldirilgan tipologiya bo'yicha kasbiy yo'naltirilgan ta'lim vazifalarini hal qilish orqali ta'lim jarayonini qurishni o'z ichiga oladi. Ana shu strategik yo'nalishdan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini faollashtirishni amalga oshiramiz. Faollashtirishning shaxsiy ma'nosi belgilar tizimlarini o'zlashtirishdan iborat emas, balki ular yordamida kasbiy faoliyatning ajralmas tuzilmasini shakllantirishdan iborat. O'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlantirish faoliyatiga jalb etilganlik darajasi pedagogik tizimning unga shaxsiy faoliyat uchun imkoniyat yaratishi bilan hal qiluvchi darajada belgilanadi. A.A.Verbitskiy birinchilardan bo'lib, pedagoglarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining faolligiga e'tibor qaratdi [8].

O'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda ularni pedagogik va ilmiy-metodik qo'llab-quvvatlash ham muhim ahamiyatga ega. “Qo'llab-quvvatlash” strategik yo'nalishi “faollashtirish” strategik yo'nalishini har tomonlama to'ldirish va o'qituvchini tezkor rivojlanish hududiga o'tkazishda ko'maklashadi. “Qo'llab-quvvatlash” atamasi psixologlar tomonidan o'qituvchilarning kasbiy hayotiga mustahkam kirib kelgan, aniq muammolarni hal qilish uchun ham konseptual, ham amaliy faoliyatga nisbatan qo'llanilsa-da, bu tushunchani belgilashda mutaxassislarining fikrlari birligiga erishilmagan.

“Qo'llab-quvvatlash”ni nazariy asoslash bilan shug'ullangan olim Yu.V.Slyusarev fikricha, mazkur tushuncha “psixologik yordam ko'rsatishning nodirektiv shaklini” bildiradi. Qo'llab-quvvatlash shaxsning rivojlanishi, ongli yondashuvi, o'z-o'zini rivojlantirishi va shaxsiy resurslarini faollashtiradigan yordamning takomillashishiga qaratiladi [11].

Yuqoridagi izlanishlar asosida qo'llab-quvvatlashni pedagogik nuqtai nazardan o'qituvchining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta'minlovchi strategik yo'nalish, deb hisoblaymiz.


Bunday qarash, o'qituvchining kasbiy faoliyatida muammoning mavjudligi yoki sabablarini anglamasligi hamda uni mustaqil hal qila olmasligi o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf qilishni ifodalaydi. Qo'llab-quvvatlashning muhim xususiyati muammoni aniqlash va hal qilish jarayonida o'qituvchi hamda kuzatuvchi o'rtasidagi o'zaro tushunishga asoslangan munosabatidir. Mazkur strategik yo'nalishning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, uni

amalga oshirish davomida kuzatuvchining ta'sirida o'qituvchining salohiyati faollashadi va u o'z kasbiy faoliyati muammolarini hal etishda tajriba orttiradi. Ko'pincha, qo'llab-quvvatlash jarayoni o'qituvchining mustaqil tuzilgan individual ta'lim trayektoriyasi orqali amalga oshiriladi.

“Qo'llab-quvvatlash” strategik yo'nalishi uzluksiz kasbiy rivojlantirish dasturlarining modulli tamoyil asosida ishlab chiqilishini taqozo qiladi. Dasturlarni shakllantirishga bo'lgan modulli yondashuv o'qituvchining kasbiy ehtiyojlari va qiyinchiliklari diagnostikasi asosida mazmunning shakllantirilishi va keyingi faoliyatida imkoniyatidan kelib chiqqan holda, modullarni mustaqil tanlash, individual ta'lim trayektoriyasini aniqlash, modullarni o'rganish vaqti, shakli, ketma-ketligini belgilash hamda ularni amalga oshirishga doir harakatlarni loyihalashtirish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida innovatsion kompetensiyasini shakllantirishning qo'llab-quvvatlash strategik yo'nalishida keng tarqalgani usullaridan biri “ustoz-shogird” yoki murabbiylik texnologiyasidir. Uning o'ziga xosligi o'qituvchiga metodik yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash orqali uning o'z faoliyatini tashkil qilish, kasbiy shakllanishini rejalashtirish, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalashtirish mazmuni, vositalari va usullarini ishlab chiqishda ko'maklashishdan iborat. Jarayonda murabbiy va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati muhim bo'lsa-da, asosiy qarorlarni qabul qilish pedagogning o'z zimmasida qoladi hamda quyidagi algoritmdan iborat bo'ladi: muammoni aniqlash → tushunish → hal qilish yo'llarini topish → rejalashtirish → qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida innovatsion kompetensiyasini shakllantirishning qo'llab-quvvatlash strategik yo'nalishini amalga oshirish bosqichlarining quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi uning tizimliliigi va tugallanganligini bildiradi (2 -rasm).



2-rasm. O'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash strategik yo'nalishini amalga oshirish bosqichlari

O'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida ustoz va murabbiylar faoliyati ta'lim muassasasida innovatsion faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etishda murabbiy faoliyati o'qituvchi salohiyati muammolarini aniqlash, individual ta'lim trayektoriyasini tuzish va amalga oshirishda ko'mak berishni o'z ichiga oladi. Umumta'lim maktabining innovatsion faoliyatida tizimli o'zgarishlar faqat o'quv mashg'ulotlari maqsadlarini har tomonlama o'zgartirish, o'quv jarayonini tashkil etish, mashg'ulot mazmuni, alohida o'quv predmetlarini o'rganish usullari, o'quv jarayonini boshqarish va boshqalar bo'yicha jamoaviy ish olib borilganida kuzatiladi.

O'qituvchining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish dasturi bilan bog'liq bo'lgandagina samarali bo'ladi. Bu jarayonda quyidagi omillar to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi:

- o'qituvchi mashg'ulotlarining aksariyati o'quvchilar kuzatadigan, yordam beradigan va o'rgatadigan maktablarda bo'lib o'tadi. Treninglar rasmiy va norasmiy sharoitlarda o'tkaziladi;
- o'qitish butun o'quv faoliyati davomida amalga oshadi;
- mashg'ulotda o'qituvchining sinfdagi real xatti-harakatiga e'tibor qaratiladi;
- o'qituvchilarning guruhlari birgalikda o'qitiladi;
- o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish ularning ehtiyojlarini aniqlash bilan boshlanadi;
- o'z-o'zini o'rganish, baholash va mustaqil ta'lim muhim omil hisoblanadi;
- maktab ichidagi professional jamoa o'quv jarayonini, innovatsiyalarni texnik qo'llab-quvvatlaydi va o'qituvchilarga yordam beradi. Bunday professional jamoa maktab hududidan tashqarida (tuman miqyosida) ham faoliyat olib borishi mumkin.

Demak, qo'llab-quvvatlash strategik yo'nalishi ta'limning o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish bosqichida, asosan, ustoz yoki murabbiy tomonidan amalga oshiriladi. Jarayon dasturlarning modulli tuzilishi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar, faoliyatlilik tamoyiliga yo'naltirilganlik asosida ongli munosabat, ijodkorlik, amaliyot, tahlil, refleksiyasiga asoslanuvchi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. – QHMMB, 03/20/630/1101-son, 24.07.2020.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – QHMMB, 03/20/637/1313-son, 24.09.2020.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son Qarori. – QHMMB, 09/22/25/0033-son, 18.01.2022.
5. Ishmuhammedov R., Mirsoliyeva M. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari // Metodik qo'llanma. – T., 2014. – 87 b.
6. Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish texnologiyasi: ped. fan. dok... diss. – Toshkent, 2004. – 269 b.
7. Адольф В.А., Огепанова И. Ю. Обновление процесса подготовки педагогов на основе моделирования профессиональной деятельности: монография. – Красноярск: КГПУ, 2005.- 213 с.
8. Вербский А.А., Ларионова О.Г. Личностный и компетентностный подходы в образовании: проблемы интеграции. – М.: Логос, 2009. – 336 б.

9. Ильина Н.Ф. Становление инновационной компетентности педагога в региональном пространстве непрерывного образования: дис....д-ра пед. наук. – Красноярск, 2014. – 361 с.
10. Левина М.М. Технологии профессионального педагогического образования: учебное пособие для студ. высш. пед.учеб.заведений. – М.: Академия, 2001. – 272 с.
11. Питанова М.Е. Психологическое сопровождение учащихся в образовательных учреждениях // Известия ПГПУ им. В.Г.Белинского. – 2011. - №24. – С. 994-997.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/9 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).